

**KAMALOVA M.N.
AZIMOVA U.A.**

O'ZBEK TILI

Darslik

(1-qism)



TOSHKENT

75.10.01 /
10-21

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

M.N. Kamalova, U.A. Azimova

O‘ZBEK TILI

Darslik
(1-qism)

75.10.01 / 22

Toshkent – 2019

Kamalova M.N., Azimova U.A. O'zbek tili. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 367 b.

Mazkur darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2017-yil 24-avgustda tasdiqlangan "O'zbek tili" fanining namunaviy o'quv dasturi asosida yozilgan. Har bir mavzu o'zbek tilida nutqni og'zaki va yozma takomillashtirishga yordam beruvchi nazariy ma'lumotlar va ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan iborat.

Ushbu darslik Oliy o'quv yurtlarining bakalavr yo'nalishi talabalari va ozbek tilini mustaqil o'rganuvchilarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir – G.H. Bakieva, f.f.d., prof. O'zDJTU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Taqrizchilar: D.M. Teshabayeva, f.f.d., prof., O'zDJTU Ikkinchi chet tilini intensiv o'qitish kafedrasini mudiri
N.H. Lutfullayeva, TDIU Kasb ta'limi (iqtisodiyot)

Камалова М.Н., Азимова У.А. Узбекский язык. Учебник. – Т.: ТГЭУ, 2019. – 367с.

Данный учебник основан на учебной программе курса «Техника письма и устная речь». Каждая тема состоит из теоретических данных, которые помогают развитию техники письма и устной речи и заданий направленных на их укрепление.

Учебник предназначен для студентов бакалавриата или желающих самостоятельно изучать узбекский язык.

Ответственный редактор – Г.Х. Бакиева, д.ф.н., проф., проректор по научной и инновационной работе УзГУМЯ

Рецензенты: Д.М. Тешабаева, д.ф.н., проф., заведующий кафедрой «Интенсивное обучение второго иностранного языка»,
Н.Х. Лутфуллаева, заведующий кафедрой «Профессиональное образование (экономика)»

Kamalova M.N., Azimova U.A. The Uzbek language. Textbook. – T.: TSUE, 2019. – 367 p.

The current textbook is based on the curriculum of the "Technique of writing and speaking" course.

Each topic consists of theoretical data that maintain the development of writing techniques and oral speech and tasks that are aimed at strengthening them.

The textbook is designed and self-learners of the Uzbek language.

Responsible editor – d.f.s., prof. G.H. Bakieva,

Reviewers: d.f.s., prof. D.M. Teshabaeva,
N.H. Lutfullayeva

MUNDARIJA

	Bet
KIRISH.....	4
“LOTIN YOZUVIGA O‘TISH TO‘G‘RISIDA” CHIQARILGAN QONUN VA QARORLAR.....	7
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI. “DAVLAT TILI” HAQIDA <i>(yangi tahrirda)</i>	9
1. O‘zbekiston – vagona Vatan.....	12
2. O‘zbek tili – Davlat tili.....	25
3. Milliy qadriyatlar – millat iftixori.....	37
4. Tarix va zamonamiz.....	55
5. Ulug‘ ajdodlarimiz.....	65
6. Vatan va vatanparvarlik.....	77
7. Muzeylar – o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prik.....	86
8. Kelajak bilimli yoshlar qo‘lida.....	95
9. Zamonaviy dunyoda ta‘lim.....	111
10. Kitob mutolaasi.....	121
11. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.....	130
12. Adabiyot – ma‘naviyatni yuksaltiruvchi manba.....	141
13. Ommaviy axborot vositalari.....	156
14. Internet hayotimizda.....	166
15. O‘zbekiston va jahon.....	176
16. XXI asrda innovatsiyalar.....	185
17. Davrimizning global muammolari.....	197
18. Tabiat va inson.....	205
19. Inson va salomatlik.....	211
20. Huquqiy madaniyat.....	222
21. O‘zbekistonda oliy ta‘lim.....	235
22. Ilm maskanimiz hayotidan.....	242
23. Bo‘lajak kasbim.....	253
24. Hayot mening tasavvurimda.....	258
25. Ustoz maktabi.....	266
26. Kasbim tarixi.....	273
27. Iqtidor va mehnat.....	278
28. Yetuk mutaxassis.....	288
29. Kasb bayrami.....	294
30. Sharq akademiyalari.....	301
31. Ilm sari yo‘l.....	305
32. Kasb etikasi.....	311
33. Nutq odobi.....	319
34. Sa‘nat va ma‘naviyat.....	333
35. Men sevgan asar.....	347
36. Iqtisod va hayot.....	355
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	365

KIRISH

Har qaysi xalqning ona tili va adabiyoti uning milliy ruhi va o'zligining, madaniy-ma'rifiy olami, milliy g'oyasining asosi hisoblanadi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur"¹– degan hikmatli so'zlari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

O'zbek tilining har tomonlama taraqqiy topishi va adabiy til sifatida maydonga chiqishida qadimiy turkiy til katta hissa qo'shganini alohida ta'kidlash jo'zali. Shu borada Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz.

Keyingi yillarda O'zbekistonning mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash maqsadida chet tillarni, xususan, rus va ingliz tillarini o'qitishning kompleks tizimi yaratilib, amalda keng joriy etilmoqda. Ana shunday ishlar qatorida o'zbek tili va adabiyotining xalqimiz, jamiyatimizning ma'naviy rivojida, zamonaviy ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni va roli bilan bog'liq dolzarb mavzularda muhim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, ko'plab lug'at va qomuslar, risola va darsliklar nashr etilmoqda.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohasini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tilyotgan davrda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya sohasiga oid 74-farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilingani bejiz emas. Maqsad, farzandlarimizning zamon talablari darajasida, xalqaro andozalarga mos ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashiga erishish hamda yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash orqali mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashdir.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu sohadagi islohotlarni amalga oshirishning muhim huquqiy asoslaridan biri bo'ldi. Hozirgi tez o'zgarayotgan globallashuv davrida o'zbek tili va adabiyotining o'ziga xos betakror xususiyatlari, tarixiy taraqqiyoti, uning bugungi holati va istiqboli bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganish, bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini kuchaytirish, ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarida o'zbek tili va adabiyoti fanini mufassal o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi¹.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avlodlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr-oqibat, birodarlik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalab kelgan. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlari ham ana shu merosning tub negizini tashkil etadi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz dunyoga yuz tutdi va jahon bizni tanidi. Biz tariximizga, madaniyatimizga yangicha nazar bilan qaray boshladik hamda yechimini kutayotgan muammolarni ijobiy hal qilishga kirishdik.

¹ <https://www.uzra.uz/rasmiy-ozbekiston-respublikasi-prezidentining-farmoni>.

Barcha sohalar singari o'zbek tili va u bilan bog'liq muammolar ham asta-sekin o'z yechimini topmoqda. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda o'zbek tilini o'rganish har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekiston respublikasining "Davlat tili haqida", "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlari va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablaridan kelib chiqqan holda til ta'limi metodikasini takomillashtirish, uni ma'lum bir ixtisoslarga yo'naltirilgan holda o'qitish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimida tilga alohida ahamiyat berilgan bo'lib, u mamlakatning siyosiy va madaniy hayoti hamda ijtimoiy muammolaridan ajralmasdir. Joriy etilayotgan "O'zbek tili" kursining asosiy maqsadi talabalarimizning umum-madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan nutq madaniyati, muomala -- muloqot odobi, o'zbek tilida ularning ekologik, huquqiy, tibbiy madaniyatini oshirish, egallayotgan mutaxassisligi doirasida davlat tilida ish yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili -- o'zbek tili ekan, uning har bir fuqarosi bu tilni mukammal bilishi shart.

"Ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, ta'limning barcha bosqichlarida yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi".

Ma'lumki, zamonaviy mutaxassis o'z sohasining mohir ustasi bo'lishi bilan birga nutq savodxonligi va madaniyatini, xususan, yozma nutq ko'nikmalarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Har bir kishi fikri va tuyg'ularini og'zaki ravon ifodalash borasida to'g'ri va mantiqli yozishni ham uddalay olsagina xalq e'tiboriga tushadi. Yozish amaliy xatolarni bevosita ko'rish, tuzatish, boyitish imkoniyatini beradi hamda bu jarayonda fikr charxlanadi, ijodiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

O'quv fanining dolzarbligi va o'rni. "O'zbek tili" fanini o'qitish O'zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashiga, milliy, madaniy qadryatlarni o'rganishiga va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga, barcha sohalarida erkin fikr almashishiga hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishiga zamin yaratadi.

"O'zbek tili" fani davlat tilida og'zaki va yozma muloqot yuritish, tilning orfoepik va imlo qoidalari, sohaviy terminalogiya, mutaxassislik tili, monologik va dialogik matn tuzish, nutq uslublari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish masalalarni qamrab oladi.

Ushbu fan dasturi ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan oliy ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish uchun meyoriy hujjat sanaladi hamda talabalar o'zbek tilidan egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalarning zaruriy meyorini asoslab beradi.

“O‘zbek tili” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, birinchi kursda o‘qitilishi maqsadga muvofiq.

O‘quv fanining maqsadi va vazifasi. “O‘zbek tili” fanining asosiy maqsadi talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarida faoliyat olib borishi uchun o‘qitishning kommunikativ – nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo‘llash malakasini shakllantirishga qaratiladi.

Fanning vazifalari:

- Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;
- Og‘zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarni hosil qilish;
- Sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan elektron hujjatlarni to‘ldirish va rasmiylashtirish ko‘nikmalarni shakllantirish.

Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar:

- O‘zbek adabiy tili me‘yorlari, nutq uslublari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish;
- Kasbiy terminalogiya, og‘zaki va yozma nutq xususiyatlarini bilish va ulardan foydalana olish;
- Matn tuzish, uni tahli va tahrir qilish, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, kasbiy muloqot yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish kerak.

“LOTIN YOZUVIGA O‘TISH TO‘G‘RISIDA” CHIQARILGAN QONUN VA QARORLAR

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi qonunini amalga kiritish tartibi haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

1. “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni e‘lon qilingan kundan e‘tiboran amalga kiritilsin (1993-yil 2-sentabr).

2. Yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tilib, bu ish 2005-yil 1-sentabriga qadar to‘liq tugallansin.

3. Respublika davlat komissiyasi:

- uch oylik muddat ichida maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarida, maktablar, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarida, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va jamoat birlashmalarida yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tishning davlat dasturi va tartibini ishlab chiqsin va uni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiq‘iga taqdim etsin;

1995-yil davomida o‘zbek orfografiyasining yangi qoidalarini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiq‘iga taqdim etsin:

“Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va Oliy Majlisning ushbu qarorini ro‘yobga chiqarishda davlat hokimiyati va boshqaruvning respublika hamda mahalliy organlariga uslubiyat va axborot bobida muntazam ravishda yordam ko‘rsatib borsin;

- respublika va mahalliy boshqaruv organlarining yangi alifboni joriy etish yuzasidan qilinayotgan ishlar to‘g‘risidagi axborotlarini muntazam tinglab borsin:

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi yangi alifboga bosqichma-bosqich o‘tishning davlat dasturi va tartibi asosida:

- lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini amalda joriy etishga doir aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

1996-yil 1-sentabrdan e‘tiboran maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida, umumta‘lim maktablarining birinchi sinflarida yangi alifbo bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazishni, qolgan sinflarda esa fakultativ mashg‘ulotlar tashkil etishni ta‘minlasin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasi 1996-yil 1-avgustga qadar lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini o‘rganish uchun kerakli darsliklar va boshqa qo‘llanmalar nashr etilishini ta‘minlasin.

6. Viloyat, tuman va shahar hokimlari respublika davlat komissiyasi bilan kelishilgan holda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini bosqichma-bosqich joriy etishga doir dasturni amalga oshirish bo‘yicha komissiyalar tuzsinlar.

7. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, davlat va xo‘jalik boshqaruvining boshqa organlari, jamoat birlashmalarining respublika organlari, shu jumladan, tasarruflaridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ham xodimlarga yangi alifboni o‘rgatishni tashkil etish hamda buning uchun kerakli darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va texnika vositalari bilan ta‘minlash yuzasidan maxsus ishchi guruhlari tuzsinlar.

Belgilab qo'yilsinki, yangi alifboni joriy etishga doir barcha xarajatlar mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan (budjet tashkilotlari bundan mustasno) amalga oshiriladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

1994-yilgi hamda undan keyingi yillarga mo'ljallangan Davlat budjetini shakllantirish chog'ida yangi alifboni joriy etish maqsadida zarur bo'ladigan mablag'larni budjetdagi tashkilotlar uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahriga ajratilishini nazarda tutsin;

1995-1996-yillar davomida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish bilan bog'liq tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta'minlashning hamda korxonalar, tashkilotlar, xo'jaliklar va o'quv yurtlarida yangi alifboni fakultativ tarzda o'rganishni tashkil etishning birinchi galdagi masalalarini hal etsin;

- ushbu qaror bajarilishining borishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini muntazam xabardor qilib tursin.

9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi amaldagi qonun hujjatlarini "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunga muvofiq lashtirish yuzasidan takliflar tayyorlasin va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

10. Yangi alifboga to'liq o'tilgan paytdan, ya'ni 2005-yilning 1-sentabridan e'tiboran 1940-yil 8-mayda qabul qilingan "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alifbodan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga ko'chirish to'g'risida"gi (O'zbekiston SSR Oliy Sovetining vedomostlari, 1940-yil, №4) O'zbekiston Respublikasining qonuni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI. DAVLAT TILI HAQIDA

(yangi tahrirda)

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining davlat tili O‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishning huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta‘minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish amalga oshiriladi.

5-modda. O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta‘minlanadi.

6-modda. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta‘lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma‘lumot olishni ta‘minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta‘minlaydi, shu jumladan unga hamma e‘tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta‘minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e‘lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruratga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta‘minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumaning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligi va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruratga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat etish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'i nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra -- boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek, milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari,

ko'chalarini va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

1. Nutqiy mavzu: O'zbekiston yagona Vatan

Grammatik mavzu: O'zbek tilida tovushlar talaffuzi



O'ZBEKISTON YAGONA VATAN

Yurtimiz istiqloli bizning oldimizda ulkan imkoniyatlar ochdi va xalqimiz uchun erkin va farovon hayot barpo etish, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashdek yuksak maqsadlar yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu muqaddas zaminda yashab o'tgan qancha-qancha ajdodlarimizning asriy orzusi bo'lgan Mustaqillik bundan yigirma bir yil muqaddam Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligida olib borilgan mardona kurashlar natijasida ro'yobga chiqdi.

Tarixan qisqa, biroq mazmunan asrlarga teng bu yillar davomida xalqimiz milliy taraqqiyot yo'lidan izchil va qat'iyat bilan borib, barcha sinov va mashaqqatlarni yengib o'tib, olamshumul yutuq va marralarga erishdi. Hayotning o'zi biz tanlagan yo'l har tomonlama to'g'ri ekanini ko'rsatdi.

Mana, yigirma besh yildirki, xalqimiz buyuk taraqqiyot yo'lidan og'ishmay ildamlab bormoqda. Mehnatkash va mehmondo'st, saxovatli, bag'rikeng, ma'naviyati yuksak va olijanob xalqimiz o'z oldiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida belgilanganidek, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadini qo'ygan. Bu ulug' maqsad yo'lida barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda.

O'tgan yigirma olti yil mohiyatan yurtimiz tarixida o'ta mas'uliyatli va sharafli, asrlarga tatigulik davrni tashkil etdi. Har birimizning hayotimizda, mamlakatimiz taqdirida muhim va keskin o'zgarishlar yuz berdi. Yurtimizda va shaxsiy hayotimizda sodir bo'layotgan jarayonlarni haqqoniy tahlil etadigan bo'lib qoldik. Milliy istiqlol g'oyasi bizning dunyoqarashimiz mezoniga aylandi va qaramlik, boqimandalik kayfiyatidan ozod bo'ldik. Kelajak taqdirimiz o'z faoliyatimizga bog'liq ekaniga ishonch hosil qilmoqdami.

Istiqlol – millatimiz, mamlakatimizning jahonda obro'-e'tibori, shon-shavkatini dunyoga tarannum etadigan sog'lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o'g'il-qizlarni tarbiyalash, ularni voyaga yetkazish va baxtini ko'rish imkoniyatini yaratdi. Har bir fuqaromiz uchun – millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, farovon hayot kechirish kafolatlari ta'minlanmogda.

Biz uchun istiqloq – davlatchiligimizning poydevorini qurish, milliy ongimiz va ma'naviyatimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o'rimizni egallash imkonini berdi.

O'zbekiston huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurishda dunyoda tan olingan demokratik tamoyillarga, rivojlangan davlatlar tajribasiga hamda ko'p ming yillik o'zbek davlatchilik tarixi va o'ziga xos milliy-ma'naviy, axloqiy qadriyatlarga tayanadi.

Mamlakatimizda 4 ta siyosiy partiya: “Xalq demokratik”, “Adolat” sotsial-demokratik, “Milliy tiklanish” demokratik, “Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal”-demokratik partiyalari faoliyat yuritmoqda.

Yigirma olti yillik davr davomida mustaqillik biz uchun eng ulug', eng aziz qadriyat, milliy o'zligimiz, or-nomusimiz, g'urur-iftixorimiz timsoli, ezgu orzu intilishlarimiz, yutuq va marralarimizning hayotbaxsh manbasi sifatida shu muqaddas zaminda yashayotgan barcha vatandoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin egalladi.

Istiqloq bergan katta imkoniyat tufayli hammamizga o'tmish bag'riga “yashirib qo'yilgan” ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lish nasib etdi. Xarobaga aylangan me'moriy obidalarimiz qayta tiklandi va o'zini dunyoga namoyon etmoqda.

Buyuk tarixga ega bo'lgan xalqning ma'naviyati ham ulug' va beqiyos bo'ladi. Chunki yuksak ma'naviyatga ega bo'lmagan xalq o'zining betakror tarixini yaratolmaydi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishganimizdan so'ng bu borada ham katta o'zgarishlar bo'ldi. O'z qadr-qimmatimiz, milliy davlatchiligimiz, madaniyatimiz, muqaddas qadriyatlarimiz, tilimiz bilan yagona xalq, yagona millat bo'lib, jahon hamjamiyatida o'zimizga munosib obro'-e'tibor qozonishga erishdik.

Jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati poydevorini yanada mustahkamlamoqda. Bu ishlarga har bir yurtdoshimiz o'z hissasini qo'shishi, mamlakatimizda hech kimdan kam bo'lmagan hayot barpo etish yo'lida astoydil mehnat qilish barchamizning muqaddas fuqarolik burchimizdir.

1-topshiriq. She'rni yod oling.

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI

Men nechun sevaman O'zbekistonni?

Tuproq'in ko'zimga aylab to'tiyo!

Nechun vatan deya yer-u osmonni

Muqaddas atayman, atayman tanho?!

Aslida dunyoda tanho nima bor,

Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?

Yoki quyoshimi sevgimga sabab?

Axir quyoshli-ku butun Osiyo.

*Men nechun sevaman O'zbekistonni?
Bog'larin jannat, deb ko'z-ko'z etaman.
Nechun ardoqlayman tuprog'ini men,
O'paman tuprog'ing, bebaho Vatan.*

*Aslida tuproqni odil tabiat.
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig'ladi Furqat,
O, Qashqar tuprog'i, qashshoqmiding sen?*

*Xo'sh, nechun sevasan O'zbekistonni?
Sababini aytgin desalar menga,
Shoirona go'zal so'zlardan oldin,
Men ta'zim qilaman ona xalqimga:*

*Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?
Vatanlar, Vatanlar
Mayli, gullasin,
Bog' unsin manguлик muzda ham, ammo.
Yurtim, seni faqat boyliklaring – chun
Sevgan farzand bo'lsa kechirma aslo!*

O'ZBEKISTON

O'zbekiston – O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Shimoliy qismi mo'tadil, janubiy qismi subtropik mintaqaga mansub. Iqlimi ham mo'tadil-iliq, keskin-kontinental, hududi 447,4 ming kv.km. Aholisi 33254,1 ming kishi. O'zbekiston ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlaridan va Toshkent shahridan iborat ma'muriy hududlarga bo'lingan. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahri (aholisi 3 millionga yaqin).

O'zbekiston xalq xo'jaligida ilg'or texnika bilan qurollangan sanoatning yuzdan ziyod tarmoq va sohasi mavjud. Muhim strategik xomashyo – paxta va undan qayta ishlangan mahsulotlarning eksporti bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi va jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston ko'pgina boshqa mahsulotlarni ham eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. O'zbekistonning har bir qarichi oltinga teng. Nodir qazilma boyliklarning ishga solinishi mamlakatning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan yangi sanoat tarmoqlarini, masalan, avtomobilsozlikni yaratish imkonini bermoqda.

O'zbekiston o'zining boy o'tmishi, tarixiy va ko'hna madaniyatiga ega.

O'zbekiston hududi Markaziy Osiyoda bundan 500-700 ming yil ilgari odamzod paydo bo'lgan joylar sirasiga kiradi. Selung'urda topilgan "Farg'ontrop"

(Farg'ona odami) bunga misol. Miloddan avvalgi VII asr - milodiy IV asrlar davomida tarixiy madaniy o'lkalar – Xorazm, Sug'd, Baqtriya va boshqa davlatlar shakllangan. Bu davlatlar harbiy-demokratik tuzilishga ega bo'lganlar. Markaziy Osiyoda saklar, massagetlar, sug'dliklar, baqtriyaliklar singari xalq va qavmlar yashagan. O'zbekiston o'tmishda Movarounnahr, Turonzamin, Turkiston nomlari bilan mashhur bo'lib kelgan. Mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Torobiy kabi ko'plab xalq qahramonlari tarixdan ma'lum. Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Forobiy, Axmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolar yashagan tabarruk zamindir.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarning kattagina qismini birlashtirdi. Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi. Hozirgi kunda turli dinga mansub 130 dan ortiq millat va elat vakillari bu diyordan makon topgan (ularning 80,0 foizi o'zbeklar, 4,0 foizi ruslar, 5,2 foizi tojiklar, 4,5 foizi qozoqlar, 1,7 foizi qoraqalpoqlar). Mustaqillik O'zbekistonning siyosiy tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Mamlakatimiz tarixida birinchi bor maqobillik asosida Prezident saylandi. O'zbekiston Respublikasining yuksak demokratik talablariga monand Asosiy qonuni – birinchi Konstitutsiyasi va shu asosda ko'pdan-ko'p qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston parlamenti – ikki palatali Oliy Majlis ilk marta ko'p partiyaviylik asosida saylandi.

Endilikda O'zbekiston siyosiy va iqtisodiy mustaqilligi barqaror, suveren, demokratik respublikadir. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning turli mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, rivojlantirib bormoqda. Respublika Jahon bozorida yuksak O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o'rni mavqelarga erishib, ishonchli hamkorga aylanib, jahon xo'jaligi munosabatlari tizimida faol ishtirok etmoqda. Buning uchun hamma zarur hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Chet el investitsiyalari haqida” va “Chet el investorlari huquqlarini himoya qilish va kafolatlanishi haqida” qonun qabul qilindi. Dunyoning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar imzolandi.

Tashqi savdo faoliyatida import va eksport tuzilmasida ijobiy siljishlar ro'y bermoqda. Respublikada eksport salmog'ini oshirish uchun dastur ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu dasturni amalga oshirish uchun dastur ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash zarur bunga esa faqat chet el investitsiyalarini jalb qilib, korxonalarni texnik ta'minlash orqali erishish mumkin. Yangi hamkorlar qidirish, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilish kerak. Respublikani jahon bozoriga o'tishning yangi yo'llarini izlash kerak.

O'zbekiston avtomobil korxonalarining mahsulotlari Rossiya bozori bilan bir qatorda Minsk va Buxarest bozorlarida ham o'z xaridorlarini topmoqda. Yaqin orada, Varshava bozorida ham korxonaga o'z mahsulotini sotuvga qo'yishni rejalashtirilmoqda. Shunday qilib, O'zbekiston avtomobil korxonasi sifatli mahsulotlari jahon bozoriga ishonch bilan kirib bormoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matn bo'yicha savollar tuzing;
- c) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Ma'muriy [boshqaruvga, ma'muriyatga aloqador] – ma'muriyatga doir. Ma'muriyat yo'li bilan amalga oshiriladigan. Ma'muriy hudud.

Viloyat [chekka joy, o'lka] – mamlakatning bir va undan ortiq shaharlarini o'z ichiga oladigan yirik ma'muriy-hududiy bo'linma. O'zbekistomning 12 viloyati.

Hudud – ma'lum chek-chegaraga ega bo'lgan, chegara bilan o'ralgan yer; ma'lum davlat, viloyatga tegishli bo'lgan yer, maydon. O'zbekiston hududi.

Sanoat [ishlab chiqarish] – xalq xo'jaligining xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini qazib olish, ishlab chiqarish vositalarini va keng iste'mol mollarini yaratish. Yengil sanoat. Oziq-ovqat sanoati.

Soha – inson faoliyati, ilm-fan, madaniyat va boshqalarning har bir tarmog'i. Sanoat sohalari. Qishloq xo'jaligining yetakchi sohalari.

Mahsulot – ishlab chiqarilgan narsa. Yalpi mahsulot.

3-topshiriq. She'rmi yod oling.

AYTGIN, DO'STIM

Boshing egib, ta'zim ayla. shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun,
Osmonlarda yurgan bo'lsang tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko'zi qaro, yuragi oq shu el uchun,
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?
Don axtargan go'shtxo'rlarga yem bo'ladi.
Dil qonasa, ona tuproq yem bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?


Qachongacha qorning o'ylab o'tadirsan?
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?
Axir, vatan bitta, sen ham bittadirsan,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

*Buncha bino qo'yima zarrin cho'ponlarga,
Saratonda yaproq bo'lgan dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo'lgan cho'ponlarga.
Aytil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,
Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan.
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?
Aytil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

*Shu soylardan suvlar urgin yuzing sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zinga sen,
Aytil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?*

(Iqbol Mirzo)



4-topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyidagi berilgan tayanch so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning turli mamlakatlari bilan.....rivojlanirib bormoqda. 2. Respublika Jahon bozorida mavqega erishib, ishonchli hamkorga aylanib,faol ishtirok etmoqda. 3. Buning uchun hamma..... yaratilmoqda. 4. Chet el investitsiyalari haqida" va "Chet el investorlari huquqlarini himoya qilinishi va kafolatlanishi haqida"..... 5. Dunyoning.....savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar imzolandi. 6. Tashqi savdo faoliyatida import va eksport tuzilmasida..... ro'y bermoqda. 7. Respublikada eksport salmog'ini oshirish uchun..... va qabul qilindi. 8. Bu..... dastur ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash zarur. 9. Bunga esa faqat..... korxonalarini texnik ta'minlash orqali erishish mumkin. 10. Yangi hamkorlar qidirish, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilish kerak va respublikani.....

Tayanch so'zlar: (dasturni amalga oshirish uchun, zarur shart-sharoitlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, jahon xo'jaligi munosabatlari tizimida, qonun qabul qilindi, 35 mamlakati bilan, ijobiy siljishlar, dastur ishlab chiqildi, chet el investitsiyalarini jalb qilib, jahon bozoriga o'tishning yangi yo'llarini izlash kerak.

5-topshiriq. FSMU jadvalini to'ldiring.

O'zbekiston jahondagi eng rivojlangan davlatlar orasidan munosib o'rin egallashi uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

- F→ fikringizni bayon eting
S→ fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating
M→ ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring
U→ fikringizni umumlashtiring.

MUSTAQILLIK BAYRAMI

1991-yil O'zbekistonda ulkan tarixiy voqea sodir bo'ldi – Mustaqillik e'lon qilindi. Shu palladan boshlab bu muhim sana Respublika tarixi yilnomasiga kirdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi “O'zbekiston Respublikasining davlat Mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida” qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonunini qabul qildi.


O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari VI sessiyasi 1991-yil 31-avgustda qabul qilgan Bayonotda, jumladan, bunday deyilgan: “O'zbekiston Respublikasining o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga, hududi bo'linmas va daxlsizdir. O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlarga hududiy da'volari bo'lmay, u o'z hududi va uning tabiiy boyliklariga nisbatan oliy huquqqa egadir”.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Respublikamizni o'zining tarkibiga qabul qilinganligi haqida qaror qabul qildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kirgan boshqa davlatlar singari O'zbekiston ham jahonning ana shu eng mo'tabar tashkilotining to'la huquqli a'zosi bo'ldi.

Vatan ostonadan boshlanadi. Har bir inson o'z Vatani asrab-avaylamog'i lozim. Vatanni asrab avaylash uchun o'z uyini avvalo, himoya qila olishi kerak. Agar inson o'z uyini asray olmas ekan, bu degani o'z Vatani asray olmasligini bildiradi.

Bekorga bobokalanlarimiz o'z yurtlarining har qarichini asrab-avaylamaganlar. Shuning uchun yurtimiz shunday betakrorligini saqlab kelmoqda.

Klaster





VATAN KABI AZIZ TIMSOL

Mamlakatimiz parlamenti 1992-yil 2-iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunda Davlat gerbi mustaqilligimiz ramzi ekani huquqiy asosda mustahkamlab qo'yilishi bilan birga, uning qanday ko'rinishga egaligi yaqqol ifodalab berilgan.

Gerbning yuqori qismida sakkizburchak, uning ichki qismida yarim oy va yulduz, markazida Xumo qushi tasvirlangan.

Pastki qismida yurtimiz Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambarak tasmaga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

Biz uchun suyuq va buyuk ana shu yorqin tasvirdagi har bir chiziq, har bir rang, har bir belgida muayyan ramziy ma'nolar mujassam.

Gerbda o'z ifodasini topgan jannatmonand diyorimiz husn-tarovatiga ishorat etuvchi manzaralar – tog', daryo, bug'doy boshog'i, go'za va chanoqlar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlari ifodasi – quyosh, yarim oy, yulduz – jamiyatimiz jipsligi belgisi, shuningdek, omad, himmat, olijanoblik, erksevarlik va fidoyilik ramzi bo'lgan afsonaviy Xumo qushi – bularning barchasi millatimiz, xalqimiz hayoti, tarixi, ruhiyati va an'analari bilan chambarchas bog'liq timsollardir.

Gerbimizda markaziy o'rin tutuvchi Xumo qushi ramzini olib ko'raylik. Manbalarga qaraganda, xalqimiz Xumoni azaldan davlat qushi sifatida tasavvur qilib kelgan. Zaminimizda necha ming yillar ilgari paydo bo'lgan afsonalarda Xumo go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va badavlatlik timsoli hisoblangan.

6-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Узбекская земля – родина ароматных и сладких дынь. С древних времен отмечается традиционный народный праздник Ковун сайли – праздник дынь. Еще в средние века отмечался он на Востоке с широким размахом.

Праздник дынь отмечается во всех городах и кишлаках Узбекистана. Бахчеводы Сырдарьинской области, например, отправляют свои знаменитые мирзачульские дыни в столицу республики. Особенно радуются этому празднику люди, живущие в больших и шумных городах, потому что ароматная и спелая дыня наполняет сердца людей радостью, дарит им частичку природы.

7-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling. O'zbekcha taomlar nomlarini to'g'ri shaklda yozib chiqing.

Bilasizmi? – Знаете ли вы?

Нет в мире ничего интернациональней, чем кухня. На столе мы часто встречаем плов и борщ, лагман и блины, цыпята-табака и беибармак, мастава и суп-харчо. Когда разговор идет об узбекской кухне, встречаются

такие названия блюд, как лагман, манпар, хотя это относится к уйгурской кухне. Бешбармак – казахское блюдо, кайла – киргизский лагман и другие.

Узбекское блюдо – плов также является неотъемлемой частью и туркменской, и азербайджанской, и турецкой, и киргизской кухни. Мастава, машхурда, машкичири, димлама, шурпа также являются блюдами узбекской кухни. Есть сезонные блюда – сумаяк, халим, кук сомса, кук патир, урама, бугирсок, ковок оши и т.д. Эти блюда употребляются в зависимости от времени года.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Har bir yurtda yashovchi kishi vatanparvar bo'la oladimi?
3. Ona yurtingizga qanday xizmat qilmoqchisiz?
4. "Ona yurtim - oltin beshigim" degan hikmatli so'zning ma'nosi nima?
5. Shoirlar Vatanni ulug'lagan qaysi she'rlarni bilasiz?
6. "Biz o'z Vatanimizni sevamiz, bu biz uchun nafas olayotgan havodir" shu hikmatli so'zning ma'nosi nima?

Grammatik mavzu: ORFOEPIYA QOIDALARI.

O'ZBEK TILIDA TOVUSHLAR

Nutq tovushlarini hosil qiluvchi a'zolar nutq organlari deb yuritiladi. Bular: o'pka, ikki bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildoq, halqum, ogiz bo'shlig'i, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, til, tishlar, lablar, burun bo'shlig'idir. Ana shu a'zolarining hammasi birgalikda nutq apparati hisoblanadi. Nutq apparati to'rt qismdan iborat:

1. *Bo'g'izdan quyi qism (o'pka, bronxlar, traxeya).*
2. *Bo'g'iz bo'shlig'i (halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon, tog'ay-simonlar va tovush paychalari).*
3. *Og'iz bo'shlig'i (til, qattiq tanglay, yumshoq tanglay, kichik til, tishlar, lablar).*

4. Burun bo'shlig'i.

Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositalardan hisoblanadi. Shunday ekan, undan to'g'ri foydalanish uzoq va chiroyli so'zlash zaminini yaratadi.

Adabiy tilning og'zaki shakli me'yori talaffuz va nutqiy ohangda namoyon bo'ladi. Uni tilshunoslikning orfoepiya bo'limi o'rganadi.

Orfoepiya grekcha orphos – to'g'ri, epos – nutq degan ma'noni bildiradi. Tog'ri talaffuz, avvalo, shaxsning madaniy yetukligidan dalolat beradi. Og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo'shimcha va so'zdan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yori hisoblanadi. Masalan, o'zbek shevasida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: *yo'q-jo'q, ko'z-go'z, ota-ata, aka-oka, anor-onar* kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada -yap(ti), -op(ti), -utti, -vot(ti) shaklida qo'llanadi: *boryapti, boropti, borutti, borvotti* kabi. Adabiy tilda shulardan *yo'q, ko'z, ota, aka, anor, boryapti* variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan.

Orfoepiyaning yuzaga kelishida orfografiya va xalq og'zaki nutqining talaffuzi asos qilib olinadi.

Adabiy talaffuz me'yorlarini o'rganish orfoepik qoida va orfografik lug'at orqali amalga oshiriladi.

Orfoepiya orfografiya bilan zich bog'langan. Biroq talaffuz hamma vaqt ham yozuv bilan teng kelavermaydi. Jumladan, yozuvda bor ayrim tovush sezilar-sezilmas aytilishi, umuman tushirilishi mumkin yoki, aksincha, orttirilishi mumkin. Nutqda tovush almashirilishi ham ko'p uchraydi. Masalan, *adabiyochchi* (adabiyotchi), *badbax* (badbax), *ussum* (uch so'm), *issiz* (izsiz), *xursan* (xursand), *go'sh* (go'sht), *bo'sa* (bo'sa), *kesa* (kelsa) kabi. Bular yozuv bilan mos kelmasa-da, adabiy talaffuz me'yorlari hisoblanadi. Lekin *oshshi* (oshni), *ishshi* (ishni), *yuzzi* (yuzni), *otta* (u yerda), *aqqa* (u yoqqa), *baqqa* (bu yoqqa) kabi so'zda adabiy me'yordan chekinish ro'y bergan.

O'zbek adabiy tilining asosiy orfoepik qoidalarini unli talaffuzi, undosh talaffuzi, asos va qo'shimcha talaffuzi hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'z talaffuzi tarzida o'rganish mumkin.

UNLI TOVUSH TALAFFUZI

I unlisi : 1) bir bo'g'inli so'zda qisqa va ingichka talaffuz qilinadi: *til, tish, bil, sir* kabi; 2) q, g', x undoshlari bilan yondosh qo'llanganda yo'g'on talaffuz etiladi: *qish, g'isht, xil* kabi; 3) y, ng undoshidan oldin ingichka va bir oz: cho'ziq talaffuz etiladi: *chiy, kiy, ming* kabi; 4) l, r undoshidan oldin kelgan i unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi *bilan, biroq, sira, tilak, gilam* kabi.

U unlisi: 1) k, g, y undoshidan keyin ingichka *kul, atirgul, yuk, kabi*; 2) q, g' x undoshidan so'ng esa yo'g'on talaffuz qilinadi: *qul, norg'ul, xulq* kabi; 3) l -*uvchi, -uv* qo'shimchasi tarkibida cho'ziqroq aytiladi: *yoziuvchi, o'quvchilarni to'quvchi, oluv, qo'shuv* kabi.

O' unlisi: 1) bir bo'g'inli so'zda, shuningdek, ko'p bo'g'inli so'zning urg'usi va bo'g'inida qisqa talaffuz etiladi: *bo'r, toy, ro'mol, so'roq* kabi; 2) takroriy so'zning birinchi qismida (urg'uli bo'g'inida) cho'ziq talaffuz qilinadi: *ko'p-ko'p, zo'r-zo'r, mo'l-mo'l* kabi; 3) sayoz til orqa k, g, til o'rta y va bo'g'iz undoshi (h) dan so'ng torroq unli tarzida: *ko'l, go'r, ho'l, yo'l kabi*; chuqur til orqa q, g', x undoshlaridan so'ng kengroq unli tarzda talaffuz etiladi: *qo'l, g'o'r, xo'r, qon* kabi.

E unlisi: so'z va bo'g'in boshida kengroq (*erkin, ekin, eslamoaq* kabi) bo'g'in ichida bir oz torroq (*kecha, beda, tekin, sekin* kabi) talaffuz qilinadi. E unlisi *feruz, dehqon, telefon, adres* so'zlarida i tovushiga yaqin aytiladi.

A unlisi: sayoz til orqa k, g undoshi bilan yonma-yon kelganda yumshoq va ingichka unli tarzida (*kam, katta, gap, gal, gazlama, kayfiyat* kabi) chuqur til orqa q, g', x undoshi bilan yondosh qo'llanganda esa yo'g'ori unli tarzida (*qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar; xat* kabi) talaffuz etiladi.

O unlisi: 1) quyi keng, kuchsiz lablangan unli tarzida talaffuz qilinadi: *tosh, bahor, somon, shamol* kabi. Shevada va jonli tilda bu unlining urg'usi l bo'g'inida "a"ga yaqin talaffuz qilinish ham uchraydi: *samon, da von* kabi, ammo bu hol adabiy talaffuz (orfoepik me'yor) hisoblanmaydi; 2) sayoz til orqa k, g undoshlaridan so'ng

yumshoq *kosib, kotib, gov, govmish kabi*; chuqur til orqa q, g', x undoshidan so'ng esa yo'g'on unli tarzida talaffuz qilinadi: *qoshiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq kabi*; 3) y va h undoshi bilan i yondosh qo'yilanganda ham o unlisi bir oz yumshoq, ingichka unli holida talaffuz etiladi; *yor, hokim kabi*.

Ayrim so'z tarkibida unli ua, oa, ao, ai, la, aa ko'rinishida qator kelishi mumkin. Bunda ular yo bir unli tarzida talaffuz qilinishi yoki orasiga undosh tovush qo'shib talaffuz qilinishi mumkin: *muallim - malim, soat - sohat* (Farg'onada), *soat - sog'at* (Toshkentda).

UNDOSH TOVUSH TALAFFUZI

Undosh tovush orfoepiyasi ko'proq fonetik hodisaga bog'liq bo'ladi. Xususan: 1) b, d jarangli undoshi so'z oxirida jarangsiz p, t tarzida talaffuz etiladi, bu hol o'zbek adabiy talaffuzi uchun me'yor hisoblanadi: *kitob>kitop, borib>borip, yozib>yozip, savod>savot, obod>obot kabi*; 2) b, d undoshi jarangsiz undosh bilan yonma-yon qo'llanganda assimilyatsiyaga uchrab, p, t holida talaffuz etiladi, bu hol ham adabiy talaffuz me'yori hisoblanadi: *ibtidoiy>iptidoiy, ketdi>ketti*. 3) j, z undoshining jarangsiz undoshlar ta'sirida sh, s deb talaffuz etilishi ham adabiy til uchun me'yor: *ijtimoiy > ishtimoiy, mazkur > maskur kabi*; 4) b, q undoshining sirg'aluvchi v, g' undoshiga o'tishi ham adabiy talaffuz me'yoriga xilof emas: *bora ber > boraver, keta ber>ketaver kabi*.

V undoshi chetdan kirgan *avtobus, avtomat, Ivanov* so'zida f kabi aytiladi., G undoshi k, q bilan tugagan so'zda k va q tarzida aytiladi: *ek+gan=ekkan, chiq+gan=chiqqan*. D undoshi *obod, ozod* kabi so'zda kelganda t kabi aytiladi, *xursand, farzand* kabi so'zda undoshdan keyin kelganda esa tushib qoladi. J qorishiq-portlovchi undoshi *avj, mavj* so'zida ch kabi aytiladi. J sirg'aluvchi undoshi chetdan kirgan *farajka, telejka* kabi so'zda sh kabi aytiladi. Z undoshi *sakkizta, tuzsiz* kabi so'zda yonidagi tovush ta'sirida s kabi aytiladi. N undoshi *manba, tanbur, shanba* kabi so'zda m kabi aytiladi. F undoshi *dalil, taft* kabi so'zda p kabi aytiladi. Q undoshi *maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom* kabi so'zlarda x kabi aytiladi.

BOSHQA TILDAN O'ZLASHGAN AYRIM SO'Z TALAFFUZI

1. Turkiy tillarda, ma'lumki, f undoshi bo'lmagan, shuning uchun jonli so'zlashuvda arab, fors va rus tilaridan o'zlashgan so'zlardagi f ni p deb talaffuz qilish uchraydi: *ulfat>ulpat, faner>paner, ferma>perma kabi*. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ularni f bilan talaffuz qilish me'yor holiga kelgan.

2. So'z yoki bo'g'in boshida undosh tovushlarning qatorlashib kelishli turkiy tillarga xos emas. Bu hodisa keyinchalik boshqa tildan o'zlashgan so'z talaffuziga ham ta'sir qilgan — jonli so'zlashuvda so'z yoki bo'g'in boshida yoxud bo'g'indagi ikki undosh orasida bir unlining orttirilishiga olib kelgan: *shkaf > ishkaf, stakan > istakan, plan > pilon, traktor > tiraktir kabi*. Bunday holat so'z oxirida ham uchraydi: *aql > aqil, fikr > fikir, ilm>ilim, hukm > hukum kabi*.

3. Umumturkiy so'zda ikki unli yonma-yon qo'llanmaydi, bu hol arab tilidan o'zlashgan *oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa* kabi so'z talaffuziga ta'sir qilgan: *oila, doir, rais* so'zlarida bitta y orttirilgan (*oyila, doyir, rais kabi maorif, saodat,*

mutolaa kabi talaffuz qilinishiga olib kelgan. Bu hol arabcha o'zlashmada (*oila, rais, maorif, saodat, matbaa, mutolaa*. kabilarda) ham ikki unlining yonma-yon talaffuz qilinishi va yozilishini me'yor darajasiga ko'tardi.

4. Arab tilidan o'zlashgan *ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar* kabi so'zning birinchi bo'g'inidagi unli cho'ziqroq talaffuz etiladi.

5. Rus tilidan o'zlashgan so'zda i unlisi o'zbek tilining i unlisidan torroq va cho'ziqroq talaffuz etiladi. *tish* (o'zb.) - *tip* > *ti:p* (rus.), *til* (o'zb.) - *tir* > *ti:n* (rus.) kabi.

6. Ruscha leksik o'zlashmaning urg'usiz bo'g'inidagi e unlisi o'zbekcha e dan ancha tor (i ga yaqin) talaffuz etiladi: *telefon* > *tilifon*, *televizor* > *tilivizir* *A adres* > *adris* kabi.

7. Rus tili orqali o'zlashgan so'z da a unlisi o'zbekcha a dan yo'g'onoq talaffuz etiladi: *kana* (o'zb.) - *kanal* (rus) kabi.

8. Rus tilidan o'zlashgan so'zdagi o'rta keng, lablangan o unlisi urg'uli bo'g'inida o'zbek tilidagi o'rta keng, lablangan o dan kengroq talaffuz etiladi: *ton* (rus.) - *fo'n* (o'zb.), *tok* (rus.) - *to'q* (o'zb.), *tort* (rus.) - *to'rt* (o'zb.) kabi.

9. Jonli tilda r bilan boshlangan arabcha, forscha va ruscha so'zlarning boshida bir o' tovushining ortirilishi ancha keng tarqalgan: *ro'za*>*o'raza*, *rus*>*o'ris*, *ro'mol*>*o'ramol* kabi. Adabiy talaffuz me'yori sifatida *ro'za, rus, ro'mol* shakllari saralangan.

10. Rus tilidan o'zlashgan so'zning oxirida lab-tish v undoshi jarangsiz f tarzida talaffuz qilinadi: *aktiv* > *aktif*, *passiv* > *passif*, *ustav* > *ustaf*, *kursiv* > *kursif* kabi; v ning jarangsizlanishi so'z ichidagi assilyativ holatda ham yuz beradi: *avtomat* > *aftomat*, *stavka* > *stafka* kabi. Bunday talaffuz adabiy til uchun me'yor sanaladi, ammo o'zbek tilining o'z so'zida qo'llanadigan lablangan b v undoshi so'z oxirida ham, jarangsiz undosh ta'sirida ham f ga otmaydi: *ov, birov, ovqat, shavkat* kabi (bu holat ham orfoepik me'yor sanaladi).

11. Rus tilidan o'zlashgan so'zning ko'pchiligida urg'u erkin bo'ladi, bu hol o'zbek adabiy tili va talaffuziga ham singib bormoqda: *atlas, trolleybus, tramvay* kabi.

12. O'zbek tilidagi urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, ammo ayrim o'zlashgan so'zlarda urg'u so'zning oldingi bo'g'inlarida bo'lishi ham mumkin *hamma, jami, hamisha, afsuski* kabi. Bunday holatlardan xabardor bo'lish adabiy talaffuz me'yoriga amal qilish imkonini beradi.

8-topshiriq. So'zni to'g'ri talaffuz qiling va qaysi qoidaga binoan talaffuz qilganingizni ayting.

Adabiyotchi, badbaxt, uch so'm, izsiz, xursand, go'sht, bo'lsa, kelsa, oshni, ishni, yuzni, u yerda, u yoqqa. bu yoqqa, til, tish, bil, qish, g'ishi, xil, bilan, biroq, sira, tilak, gilam, gilos, kul, atirgul, yuk, kabi, qul, norg'ul, xulq, yozuvchi, o'quvchi, to'quvchi, oluv, qo'shuv, bo'r, to'r, ro'mol, qo'l, g'o'r, xo'r, qo'r, kam, katta, gap, gal, gazlama, qalam, qarg'a, qasida, g'am, g'alvir, xalq, xabar, xat, gov, govmish, qoshiq, qolip, qobil, g'ov, g'ovlamoq, muallim, soat, kitob, borib, yozib, savod, obod.

ibtidoiy, ketdi, bora ber, ekkani, chiqqan, farzand, furajka, telejka, maqsad, taqsimot, to'qson, oqshom. qishlog'imiz. telpagim, angla, ulfat, faner, ferma, shkaf, stakan, oila, doir, rais, maorif, saodat, mutolaa, biologiya, geometriya, geologiya, geodeziya, ta'na, da'vo, ma'no, e'lon, me'mor, mo'tabar, telefon, adres aktiv, passiv, kursiv, shavkat, atlas, trolleybus, tramvay.

9-topshiriq. A va O unilarining talaffuziga e'tibor berib, she'rni ifodali o'qing va yod oling.

ONA DEGAN NOM

*Deydilar, qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog'i mardona
Behad azoblarga chidab so'nggi dam,
Bitta so'z dermishlar shivirlab: Ona.
Ulug' bir donishmand olamni sharhlab,
Axiyri tanibdi tuqqan elini.
Zabon baxsh etganga ehtirom saqlab,
Ona, deb atabdi ilk bor tilini.
Dunyo shoirlari Vatan sha'niga
Sifat axtarmishlar qator va qator.
Nihoyat, kelmishlar bitta ma'niga:
Ona-Vatan deya bitmishlar ash'or
Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,
Takror aytilganda rangsizdir kalom.
Bu yorug'olamda Vatan bittadir,
Bittadir dunyoda Ona degan nom!*

(Abdulla Oripov)

Yodda tuting!

Talaffuz (orfoepik) me'yorlari aksentologik hamda urg'u me'yorlarini ham qamrab oladi, chunki har qanday til birliklari muayyan talaffuz va urg'u qo'yish qoidalariga rioya qiladi.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Orfoepiya nima?
2. Talaffuz me'yori haqida gapiring.
3. "O'zbek tilining orfoepik lug'ati" haqida so'zlang.
4. "O'zbek adabiy talaffuz lug'ati" qanday lug'at?
5. Unli tovush talaffuzi haqida gapiring.
6. Undosh tovush talaffuzi haqida gapiring.
7. Boshqa tillardan o'zlashgan ayrim so'z talaffuzi qanday?

2. Nutqiy mavzu: O‘zbek tili – Davlat tili

Grammatik mavzu: O‘zbek tilining imlo qoidalari

DAVLAT TILI TO‘G‘RISIDA

“Davlat tili” deganda shu davlat hududida asosiy aloqa vositasi bo‘lgan til tushuniladi. Barcha davlat hujjatlari davlat tilida yoziladi, yig‘inlar, anjumanlar, uchrashuvlar shu tilda olib boriladi. Har bir davlat o‘z davlat tilining rivoji, shu tilning sofligi, boyib borishini ta‘minlaydi, davlat tilini o‘rganish va o‘qitish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. “Davlat tili haqida” gi qonun 1989-yil 21-dekabrda XI chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, u 30 moddadan iborat edi. 1995-yil 21-dekabrda qonunning 24 moddadan iborat yangi tahrirdagi loyihasi qabul qilindi.

Respublikamizning har bir fuqarosi o‘z ona tili bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasining davlat tilini ham bilishi kerak. Davlat tiliga hurmat va e‘tiborning birinchi belgisi shu tilda to‘g‘ri, chiroyli so‘zlash va yozishdir.

O‘ZBEK YOZUVI TARIXIDAN

Tarixda o‘zbek tili alifbosini shakllantirishda bir qancha alifbolardan foydalanilgan. 1929-yilgacha savodli kishilar arab yozuvida yozishgan. 1929-yildan 1940-yilgacha o‘zbek tili lotin yozuvida yozilgan. 1940-yildan kirill yozuviga o‘tilgan. 1993-yilgacha o‘zbek tili shu yozuvda yozilgan. 1993-yil O‘zbekistonda rasman lotin yozuvi qaytadan joriy etildi. Hozirda O‘zbekistonda ta‘lim muassasalarida lotin yozuvidan foydalanilmoqda.

Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari (ularni sanab o‘tirishning hojati yo‘q lotin yozuvidan foydalanadilar. Shuning uchun ham hozirgi eng zamonaviy texnika, tabiiy fanlar yoki ijtimoiy tadqiqotlar haqidagi adabiyotlar shu yozuv asosida yoritiladi.

BMT, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar xabar qilishlaricha, yangi texnika, texnologiya va fanga tegishli adabiyotlarning 80 foizi lotin yozuvida chop etilar ekan.

Yangi o‘zbek alifbosi

**Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Jj(9) Kk(10) Ll(11) Mm(12) Nn(13)
Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23) Zz(24)
O‘o‘(25) G‘g‘(26) Shsh(27) Chch(28) Ngng(29)**

Arabcha (Arabcha)	Lotincha (Lotincha)	Kirillcha (Kirillcha)	Lotincha (Lotincha)	
-1929	1929-1940	1940-1993	1992-	
ا, e	Ə ə	А а	А а	[a], [ж]
ب	B b	Б б	B b	[b]
د	D d	Д д	D d	[d]
ه	E e	Э э	E e	[ɛ]
ف	F f	Ф ф	F f	[f]
ھ	G g	Г г	G g	[gʻ]
ح, ھ	H h	Х х	H h	[h]
ى	I i	И и	I i	[i]
ج, ھ	З з, Zz	Ж ж	J j	[dʒ]
ك	K k	К к	K k	[kʻ]
ل	L l	Л л	L l	[l]
م	M m	М м	M m	[m]
ن	N n	Н н	N n	[n]
ا	A a	О о	O o	[ɔ]
پ	P p	П п	P p	[p]
ق	Q q	К к	Q q	[q]
ر	R r	Р р	R r	[r]
ص, س, ڤ	S s	С с	S s	[s]
ط, ٲ	T t	Т т	T t	[t]
و	U u	У у	U u	[u]
و	V v	В в	V v	[v], [w]
خ	X x	Х х	X x	[x]
ى	J j	Й й	Y y	[j]
ظ, ڙ, ڙڙ	Z z	З з	Z z	[z]
و	O o	Ӯ ѳ	O' o'	[o]
غ	G g	Ғ ғ	G' g'	[ɣ]
ش	С c	Ш ш	Sh sh	[ʃ]
-		Ч ч	CH ch	
-		НГ нг	NG ng	

O'ZBEK TILI LUG'ATINING BOYISH MANBALARI

O'zbek tili so'z boyligi fan, texnika va san'atining rivoji bilan bog'liq holda yildan-yilga boyib bormoqda. Boyish, asosan, ikki manbaga asoslanadi:

1. O'zbek tilining ichki imkoniyatlari (ichki manba). Bunda tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida boyish nazarda tutiladi. Ichki manba ham ikki ko'rinishga ega:

1) soʻz yasash orqali yangi soʻzlar hosil qilinadi: *sinfdosh, limonzor, namunali, ijarachi, vazirlik, tinchliksevar, guldasta, MDH, OʻzMU* va boshq. 2) oʻz shevalarimizdan soʻz olish: *oyi, bolish, dugona, et* (goʻsht).

2. Boshqa tillardan soʻz olish (tashqi manba) Oʻzbek xalqi qadim zamonlardan buyon boshqa xalqlar bilan aloqada boʻlib kelgan. Bu tilimizda ham aks etgan.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilining lugʻat tarkibi, asosan, 5 manba negizida tashkil topgan:

1. Umumturkiy soʻzlar.
2. Oʻzbekcha soʻzlar.
3. Fors-tojikcha soʻzlar.
4. Arabcha soʻzlar.
5. Rus-internatsional soʻzlar.

Umumturkiy soʻzlar koʻpchilik **turkiy tillarda** hozir ham ishlatiladigan barcha **turkiy tillar** uchun umumiy boʻlgan koʻpgina soʻzlar borki, ular azaldan turkiy qabilalar tilida mavjud edi, ular hozir ham ishlatiladi. Masalan: kishi, ot, qoʻl, oyoq.

Uygʻurcha: *manti, lagʻmon, manpar;*

Oʻzbekcha soʻzlar oʻzbek tili sharoitida, oʻzbek tili yoki boshqa til elementlari yordamida koʻpgina soʻzlar yaratilgan. Masalan: ishxona, soʻroq, ulfatchilik, bogʻdorchilik...

Fors-tojik tillaridan oʻzlashgan soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida quyidagi soʻzlar bor. Ular: dasturxon, chiroq, parda, marvarid, marjon *oftob, dasta, olov, chopon, chorpoxa, boshpana, barg, anor, korxon, nodon, dono, kamtar, tilla, kaptar, dasturxon, dastiroʻmol, poydevor, poyafzal, darxol, darvoza, xursand, farzand, doʻst, goʻsht, sust, past, gʻisht* (koʻrinyaptiki fors-tojicha soʻzlarda *poy, dast, dar* kabi qismlar qatnashyapti, soʻzlar oxirida jarangsiz undoshlardan keyin t, jaranglidan keyin d tovushlari ishtrok etyapti);

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Arab soʻzlari oʻzbek tiliga VII – VIII asrlardan boshlab kiradi. Bu hol arablarning shu davrda Oʻrta Osiyoni zabt etishlari bilan bogʻliq. Hozirgi oʻzbek tilida arab tilidan kirgan quyidagidek soʻzlar mavjud: kash, mehnat, hayvon, ittifoq, millat... *kitob, maktab, maʼno, harakat sanoat, muomala, doim, meʼda, aʼlo, sanʼat, asosiy, ommaviy, oddiy, milliy, abadiy, ammo, biroq, balki va lekin, vaholanki* (oʻzbek tilidagi arabcha soʻzlar koʻproq ot va sifat turkumiga tegishli boʻlib, ularning belgilari quyidagilardir: ikkita unli yonma-yon keladi: *doim, shoir, muomala, shijoat, shuur, inshoot, murojaat, tabiiy*; tutuq belgisi (ʻ) ishtrok etadi: *maʼno, qalʼa*: koʻpincha yumshoq h tovushi qatnashadi; *-iy, -viy* qoʻshim-chalarini olib yasalgan boʻladi). Arab soʻzlari birinchidan kitob, madrasa, din, davlat tuzimi orqali kirgan. Ikkinchidan eroniy tillar orqali kirgan. Uni masalan arab soʻzlariga tojikcha morfemalar qoʻshib yasalgan. Masalan: darhaqiqat, mansabdor, mulkdor, haquvvat... kabi soʻzlardan bilsa boʻladi.

Rus tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Oʻzbek milliy tilining shakllanishi va rivojlanishida rus millatining tili gʻoyat katta rol oʻynaydi. Rus xalqi bilan oʻzbek xalqi orasidagi yaqin aloqa, ayniqsa ruslarning iqtisodiy va madaniy taʼsiri rus tilidan ruscha va Yevropa tillariga oid soʻzlarning oʻzbek tiliga kirishiga sabab boʻlgan. Rus

tilidan o'zlashgan so'zlar: fabrika, gimnaziya, doktor, shapka *stol, stul, ruchka, samolyot, parovoz, paroxod, pulemyot, pero, cho't* (schot). Rus tilidan olingan so'zlar orasida asli kelib chiqishi boshqa tillarga xos so'zlar ham bor: *buxgalter, soldat, tank, shtab* (nemischa), *palto, triko* (fransuzcha), *klub, futbol* (inglizcha), *tomat, limon* (ispancha).

Boshqa tillardan o'tgan so'zlar olinma (o'zlashma) so'zlar deyiladi. O'zbek tilidan ham boshqa tillarga so'zlar o'tgan: *o'rik, anjir, somsa* (ruscha: uyruk, injir, samsa).

10-topshiriq. Tilning ijtimoiy hayotda tutgan mavqeyi to'g'risida matn yozing.

11-topshiriq. O'zbek tilidagi she'rni yod oling.

ONA TILIM

*Garchi zug'um qilganlarni yoqtirmadim,
She'r yozdim-u bo'lak ishni qotirmadim.
Tilim turib o'z tilimda gapirmadim,
Bir eslasam eziladi bag'ri-dilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Onam "erkam" deb quchganda tunlar yarim,
Erkim yo'q deb zirqirardi birjoylarim.
Paravozni hansiratgan bug'doylarim,
Oltinlarim, ma'danlarim, ipaklarim.
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Kimlar uchun biz edik bir badaviylar,
O'zbekni qon qaqshaganni o'zbek siylar,
Holimizni qon kuzatdi Yassaviylar,
Topganimiz handalakdek tilim-tilim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Kimdir mayda millat bo'ldi, kimdir katta.
Katta millat — Afandisi yo'qdir hatto,
Biz piyoda, biz boqqanlar yurdi otda.
Zulm o'tsa, faqat sendan o'tdi zulm,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Sen bo'lmasang nima bizga silliq she'rlar,
Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q derlar,
Bahongni-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'lmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.*

*Bir qarasam, har shevangda ming jilolar,
Har novdangda, har mevangda ming jilolar,
Qodiriylar, Cho'lponlar-u Abdullolar...
Sening qaytgan kuning tug'ilgan yilim,
Ona tilim, ey muqaddas, Ona tilim!..*

(M. Yusuf)

12-topshiriq. Quyidagi savollarga og'zaki javob bering.

Asos til nima? 2. Qanday tillar tirik til hisoblanadi? Misollar keltiring. 3. O'lik til nima? 4. Tillarning qaysi oilalari sizga ma'lum? 5. Turkiy tillar qaysi oilaga kiradi?

13-topshiriq. O'zingiz o'qiydigan gazeta va jurnallarda til, xususan, o'zbek tili haqida chop etilgan fikrlarni topib, o'qing. Undagi ishoralarga e'tibor bering.

DUNYO TILLARI VA O'ZBEK TILI

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Vatandoshlarimiz dunyoning turli mamlakatlarida bo'lib, u yerning til va madaniyatini o'rganib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poyezdga o'tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo'lingizda qozoq, tatar, rus, belarus, fransuz singari tillardagi gaplarni eshitasiz.

Bu jarayonda ularning odatlari ona tilingizga qaysi bir jihati bilan yaqin, shu bilan birga nimasi bilandir farqli ekanligi ona tilimizga o'xshamasligini guvohi bo'lamiz. Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, biri-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo'lmagan tillar qarindosh bo'lmagan tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud bo'lgan 3000 dan ortiq til hind-yevropa, turkiy, xitoy-tibet singari bir necha til oilalariga bo'linadi. Masalan o'zbek, turk, turkman, qirg'iz, qozoq, tatar, uygur, ozarbayjon, qoraqalpoq, bolgar singari tillar bir oilaga mansub bo'lib, ular turkiy tillar oilasi nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir tildan kelib chiqqandir. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tili dunyo tillari tizimida turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida erkin rivojlanib, o'sib bormoqda.

Lug'at

imkoniyat – возможность
jihati – виду того
ajdodlar – предки

jarayon – процесс
guvoh – свидетель
tizim – система

TILINGNI AVAYLA – OMONDIR BOSHING

O'quv va bilimning tilmochi, tarjimoni tildir. Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va eziguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzatni ham, obro'-

e'tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar tilga e'tibor berilmasa, uni noo'rin qo'llasa, odam boshining yorilishi hech gap emas.

Til arslon misoli yotar qafasda,
Bexabar boshini u yer nafasda...
So'zingni tiyib yur. boshing yormasin...

Hech qachon ko'p gapirma. Oz so'zla. Tuman so'z tugunini bir so'z bilan yozib yubor, ya'ni oz so'zlarga ko'proq ma'no sig'dirish payidan bo'lgin. Chunki...

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,
Ortiq so'z bu boshni etadi egik.

Shuning uchun qachon va qancha so'zlasang ham bilib gapir. Gapirgan gapingiz ko'r odamlar uchun ko'z bo'lsin.

Inson ikki narsa tufayli qarilik nimaligini bilmaydi. Ularning biri xush qiliq, boshqasi – ezgu so'zdir.

XALQIMIZNING YOZUVLARI

Arab yozuvlari miloddan o'rta hisob bilan ming yil muqaddam ma'lum bo'lgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridan to milodimizning VII asrigacha, ya'ni arablar istilosigacha, xalqimiz runik yozuvidan keng foydalangan. Arab istilosigacha va undan keyin ancha vaqtgacha O'rxun-Enasoy, Avesto, Sug'd, Qadimgi Xorazm, Qadimiy uyg'ur yozuvlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Avesto yozuvida zardushtiylik dinining 27 jilddan iborat muqaddas kitobi, o'z davrining haqiqiy ensiklopediyasi hisoblangan "Avesto" bitilgan. 2001-yilda Yunesko qarori bo'yicha butun dunyo bo'ylab "Avesto"ning 2700 yilligi nishonlandi. Yuqorida sanab o'tilgan har bir yozuvda ko'plab badiiy, falsafiy mazmunda yaratilgan, qadimiy rivojlangan davlatlar madaniyati o'z ifodasini topgan. Afsuski, bu asarlar, ular saqlangan kutubxonalar arab istilochilari tomonidan shafqatsiz yo'q qilingan. Lekin, xalq ongida va amaliy hayotida arab istilosigacha mavjud bo'lgan yozuvlardan foydalanish odati qisman XVI asrgacha saqlangan. Xalqimizning arab istilosigacha bo'lgan yozuvlari tarixini o'rganish, ularning alifbo tizimi bilan ommani tanishtirish, shu yozuvlarda yaratilgan asarlarni topish va nashr etish, shu asosda millatimiz dunyoqarashini kengaytirish, tariximizning barcha ma'naviy boyliklaridan xabardor qilish mustaqillikni mustahkamlashning shartlaridan biridir.

TIL – MURAKKAB IJTIMOIIY, FIZIOLOGIK-BIOLOGIK HODISA

Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 3000 dan ortiq, 200 ta tilda – 1 mln.dan ortiq, 70 ta tilning har birida – 5 mln.dan ortiq, 13 ta tilning har birida – 50 mln.dan ortiq, qolgan tillarning har birida 1 mln.dan ortiq aholi so'zlashadi. Tillarning barchasi insonlar o'rtasidagi aloqa aralashuvini ta'minlash vazifasini bajaradi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi.

Dunyoda yigirmadan ortiq til oilasi bor. Hozirgi vaqtda tarixi o'rganilib, qardoshligiga, yaqinligiga ko'ra ajratilgan til oilalari quyidagilardan iborat:

Hind – Yevropa tillari oilasiga hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kelt, grek, alban, arman tillari kabi til guruhlari kiradi.

I.1. Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: hind tili, urdu tili, Bengal tili, maratxi tili, panjob tili, sindxi tillari, shuningdek, o'lik tillardan Sanskrit, pali, prokrit tillari ham kiradi.

I.2. Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: fors tili, pushtidari tili, kurd tili, baluchi tili.

I.3. Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: rus tili, ukrain tili, polyak tili. Bundan tashqari, kashub, serboluj tillari, o'lik tillardan qadimgi slavyan tillari guruhiga kiradi.

I.4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: litva tili, latish tili. O'lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

I.5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: ingliz tili, nemis tili, daniya tili, shved tili, norveg tili, golland tili, island tili.

I.6. Roman tillari guruhiga quyidagilar kiradi: fransuz tili, italyan, ispan tili, Portugal tili, rumin tili, moldavan tili, provansal tili, sardine tili.

I.7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi: irland tili, shotland tili, Breton tili, uels tillari kiradi.

I.8. Grek (yunon) tili. O'lik tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili ham kiradi.

I.9. Alban tili guruhi.

I.10. Arman tili guruhi.

Hind –Yevropa tillari oilasiga, yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari, xett, tozar singari o'lik tillar ham kiradi.

II. Xom-som tillari oilasi. Bu tillar oilasi ikki katta guruhga: som tillari va xom tillariga bo'linadi.

Som tillar guruhiga quyidagi tillar kiradi: arab tili, shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili, hamda o'lik tillardan assuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oromiy tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

Xom tillari guruhiga: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o'lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari kiradi.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlariga, chunonchi, g'arbiy guruhga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

G'arbiy guruhga quyidagi tillar kiradi: abxaz tili, abazin tili, adigei tili, kabardin –cherkes tili.

Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi: chechen tili, ingush tili, basbi tili.

Dog'iston guruhiga Dog'iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi: avar tili, dargin tili, lazgin tili, lak tili, tabassaran tili.

Janubiy guruhga gruzin tili kiradi. Shuningdek, 110 ming kishi so'zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so'zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so'zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga mansub.

IV. Ugor fin tillari oilasi ikki guruhga : 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi.

Ugor tillariga quyidagilar kiradi: venger tili, mansi tili, xanti tili.

Fin tillariga quyidagilar kiradi: fin tili, eston tili, komipremyak tili, udmurd tili, mari tili.

V. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: ozarbayjon tili, turk tili, turkman tili, o'zbek tili, qozoq tili, qirg'iz tili, tatar tili, uyg'ur tili, chuvash tili, qoraqolpoq tili, tuva tili.

VI. Mo'g'ul tillariga quyidagilar kiradi: xalxa-mo'g'ul tili, buryat tili, qalmiq tili.

VII. Tangus-manjur tillari evenk tili, even tili, manjur tili, nanay tili, udey, ulq, oroch tillari.

VIII. Xitoy-tibet tillari oilasiga tay-xitoy va Tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi: tamil tili, Malayalam tili, kannara tili, teletut tili, braxun tili.

X. Malay-polineziya tillari. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi.

XI. Avstraliya guruhi tillari. Bu tillar oilasiga juda ko'p tillar kiradi, lekin, ular yaxshi o'rganilmagan.

XII. Papua tillari. Bu tilda so'zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi.

XIII. Sudan tillaridan. Sudan tillarida so'zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlarga bo'linadi: chunonchi, nilchad, nil-abissan, nil-ekvator, kardafon, ubang, shor nigerchad, guruhlar kiradi.

Quyidagi tillar hech qaysi guruhga kirmaydi. Bular, Uzoq Sharq tillaridir: yapon tili, ryukyu tili, quriya tili, ayn tili.

Til oilalarining har qaysisi o'z ichida kichik guruhlarga bo'linadi. Xususan, turkiy tillar oilasi, qipchoq, og'uz va qarluq tillari guruhiga bo'linadi. O'zbek va uyg'ur tillari qarluq guruhiga; qozoq, qoroqalpoq, qirg'iz, tatar, boshqird, xakas, yoqut, chuvash kabi tillar guruhiga kiradi. Turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridan hech qanday yozma yodgorliklar saqlanib qolmagan, lekin qadimgi turk tili davriga oid bir qator yozma manbalarga egamiz.

O'zbek tili oltoy tili oilasining turkiy til turkimiga kiradi. Turkiy xalqlar ijtimoiy turmush taqozosi tufayli ko'p hollarda ko'chmanchilik bilan kun kechirgan. Ko'chmanchi qabila va o'troq xalqlarning aralash holda hayot kechirishi aniq lingvistik chegarani aniqlashga monelik qiladi.

Turkiy qabilalarning dastlabki maskani Janubiy Sibir va Shimoliy Mo'g'uliston hududlariga to'g'ri kelgan. Eramizdan avvalgi 206-yilda turkiy qabilalarning birinchi zafarli yurishi boshlandi. Miloddan avvalgi I asrda xunlar ittifoqi ikkiga bo'lini: biri Mo'g'uliston cho'llarida qoldi, ikkinchisi Sharqiy Qozog'iston tomon siljidi. Shu davrdan turkiy qabilalarning g'arbga yurishi boshlandi. Ushbu yurishning eng rivojlangan davri V asr o'rtalaridagi Attila hukmdorligiga to'g'ri keladi.

Hozirgi turkiy tillarning tarqalish doirasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

O'zbek tili. Bu til O'zbekiston Respublikasining (poytaxti – Toshkent) davlat tili bo'lib, u tilda 21 miliondan ortiq kishi (O'zbekiston, Afg'oniston, Pokiston, Tojikiston) so'zlashadi.

Turk (usmonli turk) tili. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili, unda 72 miliondan ortiq kishi (Turkiya, Kipr, Iroq, Suriya, Yunoniston, Bolgariya) so'zlashadi.

Turkman tili. Bu til Turkmaniston Respublikasining (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo'lib, unda 4 milliondan ortiq kishi (Turkmaniston, Afg'oniston, Xuroson, Pokiston) so'zlashadi.

Ozarbayjon tili. Bu tilda so'zlashuvchi aholining soni 31 milliondan oshadi (Ozarbayjon, Gruziya, Eron). Bulardan 20 milliondan ko'prog'i Eronda, 10 milliondan ziyodi esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti – Boku) davlat tilidir.

Qozog' tili. Qozog'iston Respublikasining (poytaxti - Astana) davlat tili bo'lib, unda 11 millionga yaqin kishi (Qozog'iston, Xitoy) so'zlashadi.

Qirg'iz tili. Bu til Qirg'iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo'lib, bu tilda 3,3 milliondan ortiq kishi so'zlashadi (Qirg'iziston, Xitoy).

Tatar (Qozon tatarlari) tili. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy tili bo'lib, bu tilda so'zlashuvchilar 7,5 milliondan ortiqdir (Tatariston-Rossiya, Qrim-Ukraina).

Uyg'ur tili. Bu tilda so'zlashuvchilar 17 milliondan ortiqroq bo'lib (Xitoy, Qozog'iston, Rossiya) ular, asosan Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon-uyg'ur avtonom hududida yashaydilar.

Chuvash tili. Mazkur til Chuvash Respublikasida yashovchi xalq tili bo'lib, unda 2 milliondan ko'prog' kishi gaplashadi.

Boshqird tili. Ushbu til Boshqirdistonda yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, unda 2,5 millionga yaqin kishi so'zlashadi.

Qoraqalpoq tili. Qoraqalpog'istonda yashovchi xalqlar tili bo'lib, bu tilda 600 mingdan ortiq kishi so'zlashadi.

Yoqut (Saxa)tili. Bu til Yoqutiston Respublikasida yashovchi xalqning tili bo'lib, 400 mingdan ko'p kishi so'zlashadi.

Qorachoy tili. 400 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz-Rossiya).

Tuva tili. Tuva Respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo'lib, bu tilda 300 mingdan ko'prog' kishi muloqot qiladi (Tuva, Rossiya, Mo'g'uliston).

No'g'ay tili. 300 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz-Rossiya).

Qumiq tili. 283 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz-Rossiya).

Gagauz tili. 247 ming kishi muloqot qiladi (Moldaviya, Ruminiya, Bolgariya).

Balqar tili. 200 ming kishi so'zlashadi (Kavkaz-Rossiya).

Oltoy (uyrot) tili. 180 ming kishi so'zlashadi (Oltoy o'lkasi - Rossiya).

Xakas tili. 150 ming kishi gaplashadi (Xakasiya – Rossiya, Kanzu viloyati-Xitoy).

Xalach tili. 30 000 ming kishi so'zlashadi (Eron).

Qaraim tili. 10 000 kishi so'zlashadi (Litva, Ukraina, Polsha, Qrim).

Bulardan tashqari shor. karagas, tillari ham turkiy tillarga mansubdir.

O'rxun, pechena, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va xazar kabi turkiy tillar o'lik tilga aylangan.

Ba'zi adabiyotlarda turkiy xalqlar miqdori 42 ta deb ko'rsatiladi: o'zbeklar, turklar, Bolqon turklari, gagauz turklari, Karay turklari, Qrim turklari, chulim turklari, Kumandi turklari, Kandak turklari, karagas turklari, Uranxay turklari, Iroq turklari, Suriya turklari, Kipr turklari, Stavropol turklari, Saxa (yoqut) turklari, Oltoy

turklari, Tuva turklari, Dog‘iston turklari, mesxeti turklari, Yevropadagi turklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, uyg‘urlar, sariq uyg‘urlar va salarlar, tatarlar, chuvashlar, boshqirdlar, qrimlar, ozarbayjonlar, qumiqlar, shorlar, kashgaylar. Hamza turkmanlari tillari.

O‘zbek atamasi tarixda ilk bor XI asrda Rashididdinning “Mo‘g‘ullar tarixi” asarida atoqli ot ma‘nosida tilga olinadi. O‘zbek degan so‘zining “o‘ziga bek”, “otliq qo‘shin”, “sodda”, “saxiy” kabi bir qancha ma‘nolari mavjud. O‘zbek atamasining unga qadar ishlatilgan – turk, sart, chig‘atoy singari atamalarga nisbatan tilimizda barqaror bo‘lib qolishi Shayboniyxon boschiligidagi o‘zbek urug‘larining boshqa qabilalar ustidan hukmronlikni o‘z qo‘liga olib, ularni birlashtirib Markaziy Osiyoda o‘rtoqlashuvi bilan bog‘liq.

O‘zbek tili qadimgi tillardan bo‘lib, dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oiddir. Arablar istilosi davrida tilimizga arab tilining ta‘siri kuchli bo‘ldi, lekin tilimiz ijodkori – xalqimiz jon-jahdi bilan kurashib, o‘z so‘z boyligini va grammatik qurilishini saqlab qoldi. Ayni vaqtda arab tilidan ko‘plab so‘zlar o‘zlashtirildi. O‘zbek tilshunosligining o‘z rivojlanish tarixida erishgan yana bir yutug‘i bu fanning fonetika, morfologiya, til qurilishi sistemasi, yozuv qoidalari mukammallashadi, uslub me‘yorlari ishlab chiqildi.

TILSHUNOSLIK VA UNING BO‘LIMLARI

Dunyoda 5 ming xil til mavjud. Bu tillar ma‘lum xususiyatlariga ko‘ra guruhlariga ajratiladi.

O‘zbek tiliga mansub bo‘lgan turkiy tillar guruhi o‘ttizga yaqin tilni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tili qardosh tillar bilan bir asosga ega. Shu bilan bir qatorda mazkur tilning keyingi taraqqiyot bosqichlarida shakllangan o‘ziga xos jihatlari mavjud.

Tilshunoslik fani quyidagi bo‘limlardan iborat:

1.	Fonetika	Nutq tovushlari, harflar, bo‘g‘in va urg‘u kabi masalalar o‘rganiladi
2.	Orfoepiya	To‘g‘ri talaffuz qonun-qoidalari meyor va qoidalari o‘rganiladi
3.	Grafika	Harflarning yozilish shakllari, turlari, xususiyatlari, so‘zlardagi o‘rni va ular ifodalagan tovushlarning xususiyatlari kabi masalalar o‘rganiladi
4.	Orfografiya	(imlo) To‘g‘ri yozish qonun-qoidalari o‘rganiladi
5.	Leksikologiya	Tilning so‘z boyligi, so‘z ma‘nosi va ma‘no taraqqiyoti, shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari, eskirgan va yangi so‘zlar kabi masalalari o‘rganiladi
6.	Frazeologiya	Ibora va ularning turlari o‘rganiladi
7.	So‘z yasalishi	So‘z yasash usullari o‘rganiladi
8.	Grammatika (morfologiya va sintaksis)	Grammatikada tilning grammatik qurilishi o‘rganiladi. U ikki bo‘limdan iborat. morfologiya bo‘limida so‘z turkumlari o‘rganilsa, sintaksisda so‘z birikmasi va gap o‘rganiladi
9.	Punktuatsiya	Tinish belgilari va ularni qo‘llash qoidalari o‘rganiladi
10.	Uslubiyat	Nutq uslublari o‘rganiladi
11.	Etimologiya	So‘zning kelib chiqishi, shakllanish tarixi haqidagi bo‘lim

Til o‘z ichki tuzilishiga ega. Tilning ana shu ichki tuzilishidan qaysi birini o‘rganishga ko‘ra tilshunoslik fani ham bir necha bo‘limlarga ajratiladi. Og‘zaki nutqning tovush tizimini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi **fonetika**, yozma

nutqning harflar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi esa **grafika** deyiladi. So'z va uning ma'nolari **leksikologiya** bo'limida, gap va gaplarda so'zlarning bog'lanishi **sintaksis** bo'limida o'rganiladi. Bu bo'limlar – **mazmuniga ko'ra**: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis; **qo'llanilishiga ko'ra**: alifbo, imlo, talaffuz, tinish belgilari, uslubiyot kabilarga ajratiladi.

Grammatik mavzu: O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI (ORFOGRAFIYA)

Respublikamizda ta'limning barcha tizimlarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustda "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida" qabul qilgan qarori asosida o'qitilmoqda.

Yangi o'zbek alifbosiga 26 ta harf, 3 ta harflar birikmasi va tutuq belgisi kiritildi hamda bu bilan alifbo tizimi anchagina soddalashtirildi. Bu soddalashtirish ikki tovushni ifoda etuvchi **ye, yo, ya, ya** singari grafemalarni, ona tilimizga xos bo'lmagan tovush ifodasi - s harfini va - yumshatish belgisini olib tashlash hamda ь – ayirish belgisini ' – tutuq belgisiga almashtirish, shuningdek, **ch, sh, ng** tovushlarini ifodalovchi harflar birikmasini kiritish evaziga amalga oshirildi.

Orfografik me'yor yozma nutqda amal qilib, so'zlarning o'zagi, suffikslari, qo'shimchalarining, ular qanday talaffuz etilishidan qat'i nazar, to'g'ri yozilishini, so'zlar va ular qismlarining me'yoriy holda qo'shib yoki ajratib yozilishini, atoqli otlar va mustaqil gaplarni ajratib turishda bosh harflar bilan yozilishini tartib-qoidaga, me'yorga solib turish vazifasini bajaradi. Orfografik me'yor buzilishi yozuvchi biron-bir tovushni yozuvda aks ettirishda muayyan til grafikasini noo'rin, xato ishlatganda sodir bo'ladi.

14-topshiriq. Quyidagi so'zlardan foydalanib gaplar tuzing.

Akademik, balans, maqola, teng, ssuda, qism, hamkor, marketing, jamg'arma, litsenziya, ajratma, depozit, bozor, shartnoma, garov, zarar, zayom, da'vo, shaxmat.

O'ZBEK TILINING IMLO QOIDALARI

Imlo qoidalarini 7 bo'limdan iborat:

1. Harflar imlosi. U ikki qismdan iborat: unililar imlosi va undoshlar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko'chirish qoidalarini.

Qo'shma so'zlarning imlosi

Quyidagi tarkibdagi qo'shma so'zlar qo'shib yoziladi:

1. Tarkibida xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxt, kam, umum, aro, rang, mijoz, sifat, talab kabi so'zlardan biri qatnashgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar:

ishxona, qabulxona, ma'lumotnoma, tabriknoma, sholipoya, g'o'zapoya, ommabop, xushxabar, hamdo'st, hamsuhbat, orombaxsh, kamgap, umumxalq, sovuqmiyoz, devsfat, izzattalab kabi.

2. Ikkinchi qismi **-ar** (inkor shakli **-mas**) qo'shimchasi bilan tugaydigan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: otboqar, o'rinbosar, molboqar, beshiktervatar, tezoqar, ertapishar, tinchliksevar, ishyoqmas, qushqo'nmas kabi.

3. O'xshash, qiyoslash asosida yuzaga keluvchi qo'shma otlar va qo'shma sifatlar: karnaygul, qo'ziqorin, otquloq, oybolta, bodomqovoq, devchechak kabi.

4. Narsani biror belgisi asosida bildiruvchi qo'shma otlar: olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq kabi.

5. Narsani joyga nisbatan bildiruvchi qo'shma otlar: tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul kabi.

6. Biror maqsad, ish uchun mo'ljallangan narsani bildiruvchi qo'shma otlar: kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, ko'zoynak kabi.

7. Qaratqich + qaralmish tipidagi birikmaning so'zga aylanishi bilan yuzaga keluvchi qo'shma otlar: mingboshi, shaftoliqoqi, olmaqoqi, qovunqoqi kabi.

8. Ikkinchi qismi turdosh otlardan yoki **obod** so'zi bo'lgan joy nomlari: Sirdaryo, Kattaqo'rg'on, To'rtko'l, Yakkabog', Yangiobod, Xalqobod, Fayziobod kabi.

Ammo ikkinchi qismi atoqli otlardan iborat bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi: O'rta Osiyo, Yuqori Chirchiq, Qo'yi Chirchiq, Ko'hna Urganch kabi.

9. Rus tilidan aynan o'zlashgan yoki kalka usulida hosil qilingan qo'shma so'zlar: kinoteatr, fotoapparat, elektroapparat, elektrotexnika, teleko'rsatuv, yarimavtomat, suvosti, bayramoldi kabi.

10. Qisqartma otlar qo'shib yoziladi: O'zMU (O'zbekiston Milliy universiteti), O'zXDP (O'zbekiston Xalq Demokratik partiyasi) kabi.

15-topshiriq. Qo'shib yoziladigan quyidagi so'zlarning har biriga bittadan gap tuzing.

Bojxona, arznoma, shartnoma, talabnoma, kamxarj, umundavlat, o'rinbosar, so'zboshi.

16-topshiriq. Rus va boshqa tillardan o'zlashtirish yoki so'zma-so'z tarjima qilish orqali yasalgan 20 ta qo'shma so'zni (iqtisodiy) yozing va ularning har biriga gap tuzing.

17-topshiriq. *Xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlar yordamida yasalgan quyidagi so'zlarni yodda tuting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bojxona, elchixona, mehmonxona, talabnoma, arznoma, shahodatnoma, shartnoma, ruxsatnoma, zinapoya, sholipoya, imoratbop, sahnabop, xushbo'y, xushfe'l, xushxulq, hamkasb, hamkurs, hamdo'stlik, hamyurt, shifobaxsh, orombaxsh, kamxarj, kamchigim, kamhosil, umundavlat, umumjahon, umumnazariy, misrang, lolarang, sovuqmiyoz, maymunsifat, devsfat, savobtalab, shifotali.

3. Nutqiy mavzu: Milliy qadriyatlar – millat iftixori

Grammatik mavzu: O‘zbek tilida so‘z yasalishi

Har bir mamlakat va har bir millatning buyuk fazilatlaridan biri o‘z yurtining ajoyib an‘analarini asrab-avaylashdan iboratdir.

(E‘tirof)



**MILLIY URF-ODATLAR VA
XALQONA BAYRAMLAR**

MA‘NAVIV QADRIYATLAR VA MILLIV O‘ZLIKNI ANGLASHNING TIKLANISHI

Biron-bir jamiyat ma‘naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma‘naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma‘naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma‘naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma‘naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Biz ma‘naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma‘naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo‘lga kiritgach, o‘z taqdirining chinakam egasi, o‘z tarixining ijodkori, o‘ziga xos milliy madaniyatning sohibiga aylanadi.

Biroq shuni ham ta‘kidlash kerakki, ma‘naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo‘lgan diniy qadriyatlar va an‘analarni qaytarish va tiklash, o‘zligimizni anglash ancha murakkab sharoitda – eski imperiya tuzumi barbod bo‘lgan va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir paytda yuz berdi.

Bir asrdan ziyod davom etgan totalitar qaramlikdan keyin bu jarayon dastlabki paytlarda mutlaqo tabiiy ravishda o‘ziga xos “inkorni inkor” sifatida kechdi. Lekin biz avvalgi tuzumning qadriyatlarini shunchaki inkor etishning o‘zi hech qanday bunyodkorlik dasturiga ega bo‘lmagan siyosiy va madaniy ekstrimizm xavfini tug‘dirishini anglar edik. Shu bilan birga, o‘tmish qadriyatlarini, an‘analari va turmush

tarziga betartib ravishda orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka – hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin.

Ma'naviy qadriyatlarining yana bir qudratli manbai an'anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kealjak avlod haqida g'amxo'rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan. Afsuski, bu qadriyatlarga ham sovet davrida jiddiy putur yetdi. Sovet tuzumi xususiy tadbirkorlikni ta'qiqlab, "yaqinlarini qo'llash"ga qarshi kurash bahonasida oilalardagi va qarindosh-urug' ichidagi kasbiy ko'nikmalarning meros bo'lib o'tishini yo'qqa chiqardi. Oilalar va urug'larning an'anaviy kasbiy va iqtisodiy "o'rin" yo'qolishiga sababchi bo'ldi. Natijada bu ko'nikmalar va axloqiy normalar to'siqqa uchradi. Urug'-aymog'chilik va oshna-og'aynigarchilikning ijtimoiy buzuv shakllari yuzaga kela boshladi. Shu bilan birga, qarindoshlarning o'zoro yordami ba'zi hollarda jamiyat taraqqiyotini sekinlashtirib qo'yadigan tayyorga ayyorlikka va tanish-bilishchilikka aylanib ketdi.

Oila qadriyatlari va qon-qarindoshlik munosabatlarining qayta tiklanishi o'z umrini yashab bo'layotgan oila-urug' munosabatlarini abadiylashtirish emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va kasb jihatidan erkin bo'lish imkoniyatini anglatish lozim.

Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi.

Biz hozirgi sivilizatsiya o'zida ifoda etadigan ijobiy qadriyatlar jumlasiga huquqiy-demokratik jamiyat qurish jaryoni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni kiritamiz. Bu – inson huquqlariga rioya etish, tadbirkorlik erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazolardir. Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik. Qolaversa, tadbirkorlik, erkin savdo, ijtimoiy adolat, o'zaro munosabatlar va boshqalarning fikrini hurmat qilish degan tushunchalar bizning zaminimizda tarixiy ildizga ega.

Shu bilan birga, biz o'ylamay-netmay nusxa ko'chirishga ham qarshimiz. Amaliyot bunday qadarning tayyorgarlik ko'rmagan omma ongi uchun xavfli ekanligini ko'rsatmoqda. Siyosiy erkinlikni ancha tez va nizolarsiz qo'lga kiritish mumkin. Bunga sobiq Ittifoq respublikalarining siyosiy suverenitetni qo'lga kiritishi misol bo'la oladi. Nisbatan tez iqtisodiy erkinlikka erishish mumkin. Buni ham biz Sharqiy Osiyoning sanoati rivojlangan mamlakatlar misolida ko'rib turibmiz. Lekin davlatning ichida siyosiy erkinliklarni ta'minlash – puxta o'ylab, har tomonni hisobga olib yondashishni, odamlar ongida uzoq muddat moslashishni talab qiladigan jarayondir.

Hozirgi demokratik jamiyatning eng muhim voqelikaridan biri ijtimoiy raqobatdir. Xalqimizning an'anaviy qadriyatlari u bilan uyg'unlashtirilmog'i kerak. Bozor tuzilmalari rivojlanib borgan sari bu raqobat ancha bema'ni tus olishi, ijtimoiy ziddiyatga aylanib ketishi mumkin. Bunday raqobatga ma'rifiy, ijodiy tus berishga, uni musobaqaga, bunyodkorlikka aylantirishga birinchi navbatda iqtisodiyot bilan

bog'liq bo'lmagan, eng avvalo, madaniy-axloqiy mexanizmlar yordamida erishish mumkin. Bu mexanizmlar qayta tiklanayotgan milliy qadriyatlar bilan hozirgi zamon sivilizatsiyasi singdirayotgan yashash me'yorlarining umumlashmasidan iborat bo'lmog'i darkor.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga yanada kuch baxsh etdi. Keng miqyosdagi xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratdi. Ayni mahalda o'zbek xalqining turli faoliyat sohaslaridagi iste'dodli rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni ro'yobga chiqishiga imkon berdi. Ana shu aloqalar tufayli milliy mehmonnavozlik va sahovat an'analari yanada rivojlandi.

Bunday aloqalarning kengayishi ma'naviy va madaniy qadriyatlarni munosib baholash imkonini berdi.

18-topshiriq. Matnni diqqat bilan eshiting. Tayanch so'zlarni yozib boring. So'ngra guruhlarga bo'lingan holda o'zaro bahs-monozara tashkil qiling.

Onasini behurmat qilgan odam qo'shni kampirni yaxshi ko'raman, desa, ishonmayman. O'z xalqining tilini, madaniyatini tarixini hurmat qilmagan odam boshqa xalqlarning tilini, madaniyatini, tarixini hurmat qilaman, desa ishonmayman. Bunaqa odamdan lo'ttiboiz chiqishi mumkin, ammo hech qachon haqiqiy inson chiqmaydi.

(O'. Hoshimov)

MEHMONNAVOZLIK – OLIY FAZILAT

Yor-u birodar, qarindosh-urug' va do'stlarinikiga tez-tez borib turishni eng yaxshi insoniy fazilatlardan biri, deb biladi xalqimiz. O'z uyiga kelgan har bir mehmonni yaxshi mezbonlar ochiq ko'ngil bilan kutib olishlari ham bir fazilatdir.

Hamma xalqlarda bo'lgani kabi, o'zbeklarda ham mehmonni lazzatli taomlar bilan ziyofat qilish odati bor. O'zbekistonda ana shunday taom palovdir. Aziz mehmonga serlazzat osh yedirib yubormagan xonadon bo'lmasa kerak O'zbekistonda. Har bir shaharda palov pishirishning ko'pdan-ko'p usillari mavjud bo'lgan. "Farg'ona palovi", "Samarqand palovi", "Buxorocha palov" kabilar shular jumlasidandir.

Mehmon kutish bo'yicha respublikamizdagi har bir viloyat va tumanning o'ziga xos odatlari bor. Toshkentda masalan, dasturxoniga, albatta, palov tortishdan tashqari qazi-qartali norin va xushbo'y pamil choy beriladi. Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona va Namanganda choy berilgach, kashnich, rayxon solingan va qatiqlangan mastava, so'ngra devzira guruchdan lolarang qovurma palov tortiladi. Bu shaharlarda mehmon dasturxoniga patir va jizzali nonlar, anvoyi ho'l mevalar bilan birga oqlikning ramzi sifatida sut, qatiq, qaymoq qo'yiladi.

Kelgan mehmonga darhol qatiq taklif etish yoki nonushtaga, albatta, qatiq berish, ayniqsa Namanganda ham odat tusiga kirgan. Qatiq uzoq joydan kelib, havо o'zgartirgan kishini lohas bo'lishdan ham saqlaydi.

Samarqandda mehmonni shirin-sharbat ho'l mevalar, mashhur Samarqand nonlari hamda qaymoq bilan siylash, so'ngra murch sepilgan chuchvara va to'g'rama palov bilan ziyofat qilish odati bo'lsa, Buxoroda mayiz, palov va yaxlit qilib pishirilgan barra kabob tortiladi. Surxondaryoliklarnikiga mehmonga borsangiz, xushbo'y ko'k choy bilan birga archa o'tinida pishirilgan kabob keltirib, hurmatingizni joyiga qo'yadilar. Xorazimliklar mehmonni tilyorar qovunlar va maxsus tayyorlangan barak bilan siylashadi. Qoraqalpoqda baliq kabobi bilan kulchatoy yeysiz.

19-topshiriq. Ona haqidagi ushbu hikmatli so'zlarni o'qing, mazmunini ona tilingizda tushuntiring. Obyektli birikmalarni toping.

1. *Onangdan xabar ol, bo'lsang hamki yiroqda, ko'zlari termulik qiynalmasin firoqda.*

2. *Xam qilmaylik onalarning boshini, dushmanlar ko'rmasin ko'zda yoshini.*

3. *Farzandlar kamolini o'ylaydi ona, hurmat bilan biz bo'laylik parvona.*

4. *Nozik bo'lar ona qalbi guldun ham, o'ylamasdan bermaylik unga alam.*

5. *Onalarni ko'tarsak arzigay boshgu, yomon farzandning boshi tegadi toshga.*

6. *Zinhor yoshlatmagin onang ko'zin, eshitmoqqa zor bo'lasan keyin birgina so'zin.*

20-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Что такое дружба?

Когда учишься в школе, кажется, что взрослая жизнь придёт не скоро. Со временем мы приобретаем новых друзей. Но в жизни происходит так, что друзей которых мы встретили в ранней молодости оказываются самыми верными. Круг знакомых становится больше, но настоящие друзья – это старые друзья.

Молодость – это время сближения. Об этом нужно всегда помнить и беречь друзей, потому что настоящая дружба помогает и в горе, и в радости. Для человека очень важно делиться радостью с друзьями. Неразделенная радость – не радость. Когда происходит несчастье, горе, пора утрат человеку нельзя оставаться одному. Одиночество и горе может погубить человека. Очень важно, чтобы рядом были близкие друзья.

URF-ODAT VA RASM-RUSUMLAR

Urf-odat va rasm-rusumlar kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va

ko'nikmalar (masalan, o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supurib-sidirib, tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiynalغانlardan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va shu kabilar).

Urf-odat va rasm-rusumlar bir-birlariga juda yaqindan bog'liqdir, biri-ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan rasm-rusum va urf-odatlarni har tomonlama tiklash va rivojlantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalashda samarali ravishda qo'llash kengayib bormoqda.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi. Ular millat yoki elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. O'zbeklarda, masalan, qudachilik nihoyatda katta e'tiborni talab qiladi. "Kuyovni payg'ambarlar siylagan", deyiladi va shunga yarasha kuyovga hurmat-ehtiroim bildiriladi.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil qiladi. Millat tomonidan turmush tarzining zaruriy sharti deb qabul qilinadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan uzoqlashtirib, uzib qo'yadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismidir. Ko'p millatli davlatda o'z millatining rasm-rusum, urf-odatlariga rioya qilish boshqa millatlar bilan bo'lgan do'stlik va totuvlik munosabatlariga putur yetkazmasligi kerak.

O'ZBEK XALQINING MADANIYATI, MILLIY URF-ODATLARI

Har bir taraqqiy etgan madaniyatli xalqning o'z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma'naviy boyliklari bo'ladi. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri sifatida o'zining ma'naviy va moddiy xazinasiga ega. Ajdodlarimizdan bizga qadimiy urf-odatlar, tantanalur xalqona meros bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu bilan biz xalqi ravishda faxrlansak arziydi. Buning uchun o'sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, saqlashimiz va keyingi avlodlarga ham yetkazish muqaddas insoniy burchimizdir.

O'zbeklarning an'ana va marosimlari, ularning barcha turdagi yo'sinlari muqaddas sanalgan. Shu bois asrlar osha ajdodlardan asosan o'zgarmasdan o'tib kelgan. Shu jihatdan ham alohida ta'kidlamoq joizki, urf-odat, an'ana, marosim va udumlar uzoq vaqt davom etgan tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Har bir xalqning salomlashish bilan bog'liq bo'lgan o'z urf-odatlari bor.

Dasturxon odobi, taom yemak qoidalari xalqimizda azaldan mavjud. Dasturxon odobi qadimiy bo'lib, dasturxoniga avval keksalar qo'l uzatadilar.

O'zbek xalqining mehmondorchilik odati juda qadim zamonlardan boshlanadi. Bu odat odamiylik, saxovat, madaniy va ma'naviy aloqalar mezoni sifatida qadriangan. Xalqimiz "Mehmon otangdek ulug'" degan maqolga doimo amal qilgan.

Xalqimizning insoniy tuyg'ular bilan bog'liq yaxshilikka undovchi udumlarimizdan biri – kattaga hurmat, kichikka shavqatdir. Bu aqida hech qachon chetda qolmagan.

O'zbek xalqining uzoq asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan urf-odatlarini, mehr-oqibati, insoniy fazilatlarini bugungi kunda ham juda zaruriy, ma'naviy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda va barkamol avlod tarbiyasida o'zining yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda.

21-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalar, bayram, betob, muhtoj, ajdod, avlod, turmush tarzi, qudachilik, o'tmishda, eskilik sarqiti, bejarq kishi, totuvlik munosabatlari, shart.

SOVCHILIK

Vatan ostonadan, hovli bo'sag'adan, oila sovcilikdan boshlanadi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik rishtasini bog'lashga da'vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki, yo'qsa uch-to'rt kishidan iborat bo'lib, ikki jinsdagi erkak va ayol sovcilar ham bor. Har ikki to'p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovcilar kayvoni, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqilu fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og'ir, mas'uliyatli. Sovchining gap-so'zi mantiqli, ishonarli, tosh bosadigan, zalvorli bo'lmog'i lozim.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo'lini so'rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov bo'lmishning o'zi, ota-onasi, qarindosh-urug'i, qolaversa, sovcilarning mahorati-yu tajribasiga, quda bo'lmishlar ko'ngil qulfiga kalit sola olishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ayni paytda o'z vazifalarining butun mas'uliyatini bo'yniga olgan bunday kishilar, har ikki oilani, ularning farzandlarini yaxshi bilganlar. Bilishmasa, so'rab-surishtirishgan. Muayyan tasavvur hosil qilgach, undan so'ng vazifalariga kirishganlar. Bo'lmasa, birovnig guldek farzandi umriga zomin bo'lib, bir tomonni o'tda kuydirib yashashni katta gunoh deb bilishgan.

22-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Ostona, bo'sag'a, oila, xonadon, qarindoshlik rishtasi, kayvoni, obro'-e'tiborli, tagli-tugli, mas'uliyatli, mantiqli, ishonarli, zalvorli, quda, xushxabar.

HAYIT

Hayit qadimiy diniy bayram bo'lib, ularning tarkibiga kirgan ko'pgina marosimlar islomdan oldin ham xalq taomilida bo'lgan. Islom ularni umumlashtirib, o'z qonunlarini qo'shib, hayit-bayramlarining umrini uzaytirgan.

Hayitning ikki xili mavjud bo'lib, xalqimiz bu bayramlarga azaldan amal qilib keladi. Birinchisi – Qurbon hayiti katta hayit hisoblanadi. Uning oldidan 2 kun qolganda, arafa kunlari nishonlanadi. Yolg'on arafa, bir kun qolganda chin arafa, uchinchi kun esa Hayit bayram qilinadi. Yolg'on va chin arafa kunlari har bir xonadonda is chiqarilib, chalpak, bo'g'irsoq, talqon, palov qilinadi. Qo'shnilar bir-birlarini Hayit bilan muborakbod etib, xonadonlarga pishiriqlar chiqaradilar. Bolalar va o'smirlar chopqillab yaqin-uzoq xonadon, qarindosh-urug'larni yo'qlashga borib keladilar.

Mata yuzasidan topshiriqlar:

- a) Matnni o'qing.
- b) Matnni rus tiliga tarjima qiling.

23-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Marosimlar, diniy bayram, hayit-bayramlari, arafa kunlari, chalpak, bo'g'irsoq, talqon, palov, qarindosh-urug'lar, qo'shnilar.

24-topshiriq. "Milliy urf-odatlarimiz" mavzusida kichik matn tuzing.

25-topshiriq. Matnni og'zaki davom ettiring.

MA'NAVİY BOYLIK

Qadriyat atamasi keng bo'lib, voqelikdagi hodisalarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. U inson faoliyatidagi rang-barang narsalar, tabiat hodisalari, qadriy munosabatlar uchun manba sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Demak, u insonning kundalik hayotida, ongining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir.

Qadriyatlar mazmuni xilma-xil turga bo'linib, turmushning barcha tomonlarini qamrab olgan. Faylasuf olimlar qadriyatlarni xarakteriga ko'ra turlicha tasnif etadilar. Bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, ular "hayot qadriyatlari" va "madaniyat qadriyatlari"dan iborat. Ikkinchi guruhdagilar esa madaniyatning an'anaviy bo'linishiga asoslanib, qadriyatlarni ham "moddiy" va "ma'naviy" tarzda tasnif etadilar. Uchinchi guruh olimlar qadriyatlarni "moddiy" va "ma'naviy" va "ijtimoiy-siyosiy" turlarga ajratishadi.

Yoshlarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ikkinchi guruh tasnifiga asoslanish maqsadga muvofiq, chunki hozirgi jamiyat talabiga javob beruvchi yoshlarda har ikkala guruhga xos qadriy sifatlilar mujassam bo'lmog'i lozim.

26-topshiriq. Matnni o'qing va gapirib bering.

Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi, yoshlar u duo burakasidan umrbod bahramand bo'ladilar. Odob ulug'lar ko'nglida yoshlarga mehr uyg'otadi va u odobli yoshga bo'lgan muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Yoshlarni ko'zga ulug' qilib ko'rsatadigan je'l-atvori odobdir, odobilarning yurish-turishida xalq ulug'vorlik ko'radi. Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini berkitadi va odamni hazil-mazaxdan, kamsitishdan saqlaydi. Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo'lsa, kattalarga nechog'liq ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze do'stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug'lik bag'ishlaydi. Odob urug'ini ekkani odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va go'zal xulqii odamlar ko'payaversa, xalqning do'stiligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi.

(AlisherNavoiy. "Mahhubul-qulub")

ГОСТЕПРИИМСТВО

Солнечный Узбекистан! Побывавший в этом крае хоть раз в своей жизни навсегда сохранит в своем сердце добрую память о теплоте и щедрости земли и её народа. И не только за яркое и жаркое солнце зовут Узбекистан солнечным. Узбекский народ, обладает, быть может, самым дорогим даром, который много говорит о характере людей – даром гостеприимства. Гостеприимство – это черта характера узбекского народа, его духовного облика. С молоком матери впитывает его в себя каждый узбек, и передается оно как бесценная реликвия из поколения в поколение, как одно из древнейших форм человеческих взаимоотношений.

Гостеприимство является одним из наиболее примечательных достоинств человека, он характеризует стиль человеческого бытия, укрепляет родственные и дружеские связи, сплачивает семьи. Французский философ Мишель Монтен (1553-1592) так оценивал его значение для человеческих взаимоотношений: « Я узнаю отвечающих моему вкусу людей даже по их молчанию и улыбке и успешнее нахожу их за пирушественным столом, чем в зале совета».

Гостеприимство составляет своеобразный моральный кодекс среди нравственных принципов узбекского народа. Соблюдение его является священной обязанностью каждой узбекской семьи, его нарушение строго порицается в народе.

Таким образом, понятие «гостеприимный хозяин» является не столько характеристикой каких-либо организаторских способностей и практических навыков человека в умении принимать гостей, сколько оценкой нравственного потенциала человека.

Нет гостя нежданного или нежеланного, гостя ждут всегда и всегда ему рады. Наверное, поговорка « Хороший гость гостит лишь три дня» в Узбекистане неприемлима, так как человек может гостить здесь столько, сколько душа его пожелает. И никто и никогда не упрекнет его в этом, потому что, если он гостит у вас долго, значит, ему очень нравится быть в этом доме. Этим выражается самое лучшее расположение к хозяину – гость почитает и уважает вас. А это – лучшее доказательство вашей человечности, вашего добросердечия.

К гостю в узбекской семье очень преуведительны и внимательны. В народе сохранилось предание о том, как однажды путник, проезжая мимо города, в котором жил его друг, решил навестить его. Подходит он к оауму и слышит рыдания. Но стоило ему переступить порог, как рыдания прекратились. Хозяева заулыбались, показывая, что они рады приходу гостя и стали потчевать его по всем законам гостеприимства. Отведав угощение и поговорив по душам, гость распрощался с другом, но не успел он пройти мимо, как опять услышал тот же безутешный плач. Незаметно возвратившись, он посмотрел в окно. Оказывается, перед его приходом у друга умер маленький

ребенок. И чтобы не омрачать настроение гостя тяжестью своего горя, тот скрыл свое несчастье от него. Раз друг пришел в гости – принять его надо радостно, со всей теплотой и радушием.

28-topshiriq. Matnni o‘qing va unga savollar tuzing.

MILLIY VA ZAMONAVIY BAYRAMLAR

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sifatida shodlik, rasmiy tantana o‘tkazish uchun belgilangan muhorak kun. Bunday muhorak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o‘yin-kulgi bilan tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e‘zozlaydigan o‘ziga xos bayramlari, an‘analari bo‘ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

O‘zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro‘z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil sayli kabilar keng tus olgan. Keyinchalik Islom dini bilan bog‘liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo‘lgan.

Bayramlar ichida Navro‘z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko‘riladi.

Hayit va Navro‘z bayrami arafalarida uylar, hovli-joylar, choyxonalar, sayilgohlar, hozorlar, qabristonlar tozulangan. Daraxt va gul ko‘chatlari ekilgan. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilingan. Kishilar ota-onalari, qarindoshlari, do‘stlari bilan diydorlashganlar. Bu kun xonadonlarda sumalak, yalpiz somsa, ko‘k chuchvara, go‘ja, halim, palov kabi tansiq taomlar, nisholda va turli shirinliklar pishirilgan.

Bayramlar kishilar o‘rtasida mehr-muhabbat, bir-biriga g‘amxo‘rlik, o‘zaro hurmat-e‘tiborni, kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

29-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

ДРЕВНИЙ ДОБРЫЙ ОБЫЧАЙ

Что такое «хашар»? Каждый житель в Узбекистане скажет вам, что «хашар» – это праздник. В этот день строить выходят все. Это древняя восточная традиция – «всем миром» строить соседу дом.

Хашар – это древний добрый обычай, который продолжает жить. Воду к хлопку везли – хашар, новую школу строили – хашар. Все работали – старые и молодые. А потом накрывали большие столы прямо на улице, ели плов – наше любимое блюдо, пели и танцевали.

Добрые обычаи не умирают!

30-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi so‘zlarga mos qo‘shimchalarni qo‘shib, gaplarni ko‘chiring.

1.....arava qaysi yo'ldan yursa..... ham shu yo'ldan yuradi (katta, kichik).
 2.bola elga manzur (odob). 3. bola betga chopar (odob). 4. o'g'il ot mindirar, otdan indirar (qobil). 5. Bola..... , odobi undan (shirin). 6. so'z - qilichdan o'tkir (rost). 7. bosh qayda, osh qayda (tashvish, mehnat). 8. kishi bor,kishi yo'q (do'st, dushman). 9..... gul bo'lmas, mashaqqatsiz- hunar (tikan). 10. mehnat, odat, berur senga saodat (halol, yaxshi). 11. ish ko'ngilni qiladi xush (ertalab). 12. ishni ertaga qo'yma (bugun). 12. boshni qilich kesmaydi (egmoq). 13. do'st- rohat, do'st - ofat (aql). 14. ko'ngli-dog' ko'ngli tog' (baxil, saxiy) 15. uy - bozor, uy - mozor (bola). 16. so'zning ozi yaxshi. so'zning o'zi yaxshi (ko'p, oz). 17. so'z jon ozig'i, so'z bosh qozig'i (yaxshi, yomon). 18..... ish, g'isht (reja, qolip).

31-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Как рассадить за столом гостей? Наиболее почётные места — посередине стола. Первым считается место напротив входной двери, на той стороне стола, которая обращена к окнам. Второе место — напротив первого, третье — справа от первого, четвёртое — справа от второго. Особую учтливость проявите к пожилым людям, посадив их ближе к центру.

С приходом гостей выключаем телевизор и полностью посвящаем себя гостям.

32-topshiriq. Matnni o'qing va o'z fikringizni og'zaki bayon eting.

To'rt nasihat

To'rt narsa ko'ngildagi orzularni ro'yobga chiqaradi: g'ayrat, shijoat, matonat, himmat.

To'rt narsa tadbirkorlik belgisi: boshga tushgan og'irlikni sabru-toqat va tadbir bilan yengish; isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik; do'stlarning nasihat va maslahatlariga quloq solish; fursatni qo'ldan boy bermaslik.

To'rt narsa hammaga mu'qul va maqbul: sharm-hayo, qanoat; rahm-shafqat, muruvvat.

To'rt narsa odamga rohat baxsh qiladi: ochiq yuzli, shirin so'zli, tejimli xotin; samimiy do'st; halol mehnat; to'g'rilik.

* * *

To'rt narsa pushaymonlik bilan natijalanadi: qo'ldan kelmas ishga kirishish, yalqovlik, toqatsizlik, do'stlarning nasihat va maslahatlariga kirmaslik.

To'rt narsadan chekinish kerak: qahr-g'azabdan, maqtanchoqlikdan, ziqnalikdan, ta'madan.

To'rt narsa to'rt xil kishida bo'lmaydi: yolg'onchida - muruvvat; baxilda - saodat; hasadchida - rohat; janjalkashda- buyuklik.

To'rt narsa insonga falokat keltiradi: ichkilik, zino, qimor, dilozorlik.

* * *

To'rt narsa rohatda umr kechirish sababchisi: xotirjamlik; mustahkamlik; farog'at; xayr-ehson.

To'rt narsa to'rt narsani keltiradi: sukut saqlash - tinch yashashni; yaxshilik qilish - saodatni; saxovat – ulug'likni; xushmuomalalik - xalq muhabbatini.

To'rt narsa odamni barkamol qiladi: samimiy do'st maslahatlari bilan ish olib borish, dushman bilan xushmuomalada bo'lish. aचेhiq so'zni yutish, nafs orzusini susaytirish.

To'rt narsa baxtu iqbol darakchisi: mehru muhabbat, vafodorlik, muloyimlik, tavoze.


* * *

To'rt narsa gumrohlik belgisi: adovat, hasad, g'iybat, xiyonat.

To'rt narsadan hazar qilish kerak: johillikdan, qo'rslikdan, takabburlikdan, ig'vodan.

To'rt narsa to'rt narsa bilan tugaydi: ablahlik rasvolik bilan, g'azab pushaymonlik bilan, qo'pol so'zlik ko'ngil qolish bilan. yalqovlik xoru zorlik bilan.

To'rt narsa odamning obro'sini to'kadi: hazil - mazax, ochko'zlik, sir saqlay olmaslik, shoshqaloqlik.



33-topshiriq. Har bir rasimga qisqacha bayon keltirib yozing.

Derazaning oldida bir tup

O'rik epqoq bo'lib gulladi... (Hamad Olimjon)




Navro'z yangilanish
poklanish uyg'unlash
bayramidir.

Aynan shu jihati bilan u
insonlar qalbidagi
iliqlikni ona zaminiga
bo'lgan muhabbat hissmi
uyg'ota oladi. Inson va
tabiat o'rtasidagi
munosabatni
uyg'unlashtiradi.



Shuq'alar
Navro'zni tutilcha
reholonlamlar
Ular bu bayram
tabiatning
uyg'unlash bilan
baqlaganlar va
yangi yilning
sahasi
bo'lishidan unmd
qilamlar.



"Navro'z" fotosha
shuq' bo'lib, "yangi
kan" degan ma'noni
anglatadi.

21-martda
muloqotlanadigan bu
bayram O'rta Osiyo
va Yaqin Sharq
xalqlarining qadimiy
yangi yil bayramidir.

Bo'y bezatilgan beshik, dasturxonlar va
sovg'alar transport vositasiga qo'yilib,
mehmonlar bilan birgalikda karnay-sarjay va
soq'ora sadolari ostida chiqarilgan ota-
onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib
kelingan beshikni avval chiqarilgan bobosi
o'zining yetkasiga qo'yadi. Keyin o'zining o'g'li
yetkasiga uzatadi. U esa beshikni
chiqarilgan onasiga beradi. 22-ismida
mehmonlarning barcha niyatlari toza va
sahsi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar
edilar. Mehmonlar mehmonxonaiga yasalangan
dasturxoniga taklif etiladi va mehmonlar
ovqatlanib, sozandalarini tinglab, baxt qilib
o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning
ahirokida bolani yo'rgaklash va beshikka
o'tish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida
mehmonlar bolani ko'rish uchun o'idiga
keladilar, unga sovg'alarini beradi va
beshikning ustiga parvarda yoki qo'ng'ir
paxtdilar.





Mavzuni mustahkamlash uchun savollar

1. “Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi”, degan naql to‘g‘rimi?
2. “Mehmon o‘z rizqi bilan keladi”, degan fikrga qanday qaraysiz?
3. Mehmondo‘stlik an‘anasi boshqa millatlarga ham xosmi?
4. Mehmonning belgilangan vaqtda kelmasligi nimalarga sabab bo‘ladi?
6. “Dasturxon atrofida mehmonning odob saqlash madaniyati”, deganda nimani tushunasiz?
7. “Taom lazzi – mehmon izzati”, deganda nimani tushunasiz?
8. “Iltifotli bo‘lish” nima degani?
9. Sertakalluf mezbob mehmonni noqulay ahvolga soladimi?
10. “Mehmon otangdek ulug‘”, degan maqolga qanday qaraysiz?
11. “Osh egasi bilan mazali”, degan fikrga siz qanday qaraysiz?
12. “Har qanday taomga avval mehmon, keyin mezbob qo‘l uzatadi”, degan fikrni izohlang.

Grammatik mavzu: O‘ZBEK TILIDA SO‘Z YASALISHI

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi (shuningdek nutqimizda qo‘llanadigan) so‘zlar dastlab tub va yasama so‘zlarga bo‘linadi. Masalan: paxta – tub so‘z, paxtakor esa yasama so‘z, bug‘doy, rang so‘zlari alohida-alohida olinganda tub so‘zlar, ammo bug‘doy rang (rangning bir turi) yasama so‘z, tog‘ – tub so‘z, ammo tog‘ma-tog‘ yasama so‘z, besh, o‘n tub so‘zlar, o‘n besh yasama so‘z, qo‘l, so‘zlari alohida-alohida tub so‘zlar sanalsa, qo‘l qo‘ydi yaxlit holda yasama so‘z hisoblanadi. So‘z yasovchi affiksi bo‘lmagan so‘zlar tub so‘z deyiladi. Ma‘lum bir so‘z negizida ma‘no jihatidan (ba‘zan ham ma‘no, ham grammatik jihatdan) undan farqlaydigan yangi so‘z (yangi leksik birlik) hosil qilish so‘z yasash deyiladi. qiyoslang: ish – ishchan, jon – jonlandi, oq – oqla, g‘alla – g‘allazor.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘z yasashning asosan ikki usuli ajratiladi: 1) affiksatsiya (yoki morfologik) usuli; 2) kompozitsiya (yoki sintaktik) usuli; O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali yangi leksik birlik hosil qilish affiksatsiya usuli bilan so‘z yasashdir. Masalan: mevali daraxt, serhosil yer kabi birikmalardagi mevali, serhosil yasama so‘zlar bo‘lib, ular meva o‘zagiga-li, hosil o‘zagiga ser-affiksalarini qo‘shish orqali yasalgan so‘zlardir.

Ikki va undan ortiq soʻz formalarining (koʻpincha mustaqil soʻzlarning qoʻshilib (yoki tizilib) bir soʻzga aylanishi kompozitsiya usuli bilan soʻz yasashdir. Masalan: belbogʻ, oshqazon, mehmondoʻst, soʻz boshi, bir yuz oʻn, ahd qilmoq, bir oz va boshqalar. Juftlik modeli (qolipi) da qoʻllangan ayrim soʻzlar ham yasama soʻz sanaladi, masalan: yildan-yilga, zoʻr-bazoʻr, uyma-uy kabi. Oʻzbek tilida soʻzlar tuzilish jihatdan ham turlarga ajratiladi, chunonchi: sodda soʻz, qoʻshma soʻz, juft soʻz (takroriy soʻz), murakkab soʻz. Sodda soʻz bitta oʻzak morfemasi boʻlgan soʻzdir. Masalan: bola, bolalik, bolalar, bolalarimiz kabi. Kunboqar, gultojixoʻroz, Oqqoʻrgʻon, sohibjamol kabi soʻzlar qoʻshma soʻz deyiladi.

Bu kabi soʻzlar ikki va undan ortiq soʻz yoki soʻz formalaridan tashkil topib, bir urgʻuga birlashadi va bir tushunchani ifodalaydi. Tarkibi alohida-alohida yoziladigan leksik va grammatik maʼnolari ayrim holda ham, bir butunlik hosil qilgan holda ham izohlanishi mumkin boʻlgan soʻzlar murakkab soʻz deyiladi. Masalan: toʻq sariq, och jigar rang, yigirma besh ming, borib keldi, sotib yubordi kabi. Nutqimizda qoʻllanadigan opa-singil, non-pon, togʻ-tosh, onda-sonda, tez-tez, xirmon-xirmon, chala-chulpa, oʻn-oʻn besh, suv-puv kabi soʻzlar juft soʻz deb yuritiladi.

SOʻZ YASALISHI XUSUSIDA UMUMIY MAʼLUMOT

Tilning lugʻat tarkibi doimo oʻzgarishda, rivojlanishdadir.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida paydo boʻlgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi soʻzlar paydo boʻladi.

Yangi soʻzlar ikki xil yoʻl bilan vujudga keladi: 1. Har bir tilning oʻz ichki imkoniyati asosida. 2. Boshqa tillardan soʻz olish asosida.

Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi soʻzlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud boʻlgan soʻzga qoʻshimcha qoʻshish usuli yoki soʻz qoʻshish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan toʻgʻridan-toʻgʻri olingan. Endi “kompyuter bilan ishlovchi shaxs” tushunchasini ifodalash ehtiyojini qondirish uchun kompyuter soʻziga oʻzbek tilida oldindan “maʼlum mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxs” maʼnosini ifodalovchi qoʻshimchasidan foydalaniladi. Kompyuterchi “kompyuter bilan shugʻullanuvchi shaxs” maʼnosini bildiradi.

Yodda tuting!

Tilda oldin mavjud boʻlgan soʻzga maʼlum yasovchi vositalar qoʻshish bilan yangi soʻz hosil qilinishiga soʻz yasalishi hodisasi, shunday hodisani oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimiga esa soʻz yasalishi deyiladi.

Demak, soʻz yasalish atamasi, ikki maʼnoda: a) soʻz yasalishi hodisasi maʼnosida va b) soʻz yasalishi hodisasini oʻrganuvchi tilshunoslik boʻlimi maʼnosida qoʻllaniladi.

SO‘Z YASALISHINING TUZILISHI

Ter, termin, terimchi. Tara, taroq so‘zlariga e‘tibor bersangiz, shuni sezasizki, birinchi guruhdagi so‘zlarning hammasida ter so‘zi takrorlanadi, ikkinchi guruhlarida esa tara qismi hammasi uchun umumiy sanaladi.

Ko‘rinadiki, so‘z yasalishi hodisasi o‘zining ichki tuzilishiga ega bo‘ladi va ikkita tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi: a) yasashga asos qism; b) yasovchi vosita. Yasashga asos qism bilan yasovchi vosita birgalikda yasalmani tashkil qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan termin so‘zida, ter qismi yasashga asos, -im qismi yasovchi vosita, ikkala qismning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan hosila esa – terim yasalma hisoblanadi. Terimchi so‘zida esa terim **yasashga asos qism, -chi yasovchi vosita, terimchi** esa **yasalma** sanaladi.

Yodda tuting!

So‘zning yasalishi tuzilishi bilan morfemik tuzilishi bir-biridan farqlanadi.
So‘zning ma‘noli qismlarga bo‘linishi uning morfemik tuzilishi sanaladi.

So‘zda nechta ma‘noli qism bo‘lsa, uning morfemik tuzilishi shuncha qismga ajraladi. Masalan, terimchi uchta ma‘noli qismdan tashkil topgan: ter-im-chi. Terimchilar so‘zi esa to‘rtta ma‘noli qismdan iborat ter-im-chi-lar. Ter-imchilarga so‘zi beshta ma‘noli qismdan iborat: shuning uchun u morfemik tuzilishga ko‘ra besh qismga bo‘linadi: ter-im-chi-lar-ga.

So‘z yasalishi doimo ikkita tarkibiy qismni- yasashga asos va yasovchi vositani o‘z ichiga oladi. Agar so‘zda birdan ortiq yasovchi qo‘shimchalar ishtirok etsa, yasashga asos qism tarkibiga kiradi. Masalan, taroqchi so‘zida – chi yasovchi vosita, taroq yasashga asos, taroqchi yasalma, taroq so‘zida esa – q yasovchi vosita, tara yasashga asos, taroq yasalma hisoblanadi.

SO‘Z YASALISH USULLARI

So‘z yasalishi qanday usul bilan bo‘lsa ham, yangi so‘z hosil qilish ekanini ko‘rdik. O‘zbek tilida so‘z yasalshining bir necha usuli bor: 1) semantik usul; 2) fonetik usul; 3) sintaktik-leksik usul; 4) affiksatsiya usuli; 5) kompozitsiya usuli. **Semantik usul** bilan so‘z yasalishida tilda bor bo‘lgan so‘z (so‘z formasi) ning ma‘nosi o‘zgarishi natijasida yangi so‘z qosil bo‘ladi: kun (sutkaning yorug‘ qismi) - kun (quyosh, planeta), boshda (o‘rin kelishigidagi otdan yuzaga kelgan ravish), kechasi (egalik shaklidagi otdan yuzaga kelgan ravish) va b. O‘zbek tilida fonetik o‘zgarish (tovush o‘zg‘arishi) natijasida hosil bo‘lgan so‘zlar ham anchagina: ko‘r – ko‘z, bo‘r – bo‘z kabi. Bunday yo‘l bilan so‘z hosil bo‘lishi fonetik usul bilan so‘z yasalishi deyiladi.

Demak, qo‘shma so‘zlar ikki usul: sintaktik-leksik va kompozitsiya usuli bilan yuzaga keladi. Semantik, fonetik va sintaktik-leksik usullar bilan so‘z yasalishi tarixiy yasalish (diaxron yasalish) hisoblanadi. Hozirgi so‘z yasalishiga keyingi ikki usul – affiksatsiya va kompozitsiya usullari kiradi, shu ikki usul hozirgi so‘z yasalishining o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Hozirgi o‘zbek tilida

soʻz yasalishining eng faol usuli affiksatsiya usulidir. Soʻz yasovchi affiksalar bir qator xususiyatlarga ega. Baʼzan affiksalar bir xil maʼnodagi. baʼzilari esa turli maʼnodagi soʻzlar yasaydi. Masalan, -soz affiksi bir xil maʼnodagi ot yasasa (asbobsoz, soatsoz kabi), -chi affiksi bir necha xil maʼnodagi otlar yasaydi (traktorchi, sportchi, neftchi; jinoyatchi, tuhmatchi va b.). Baʼzi affiksalar bir turkumga oid soʻz yasasa, ayrim affiksalar har xil turkumga oid soʻz yasaydi. Qiyoslang: aravakash (ot) – zahmatkash koʻp boʻlmagan miqdorda soʻzlar yasaydi, shuningdek, hozirgi vaqtda yangi soʻz yaratishda ham kam ishtirok etadi. Masalan, ot yasovchi -dosh (musoba-qadosh, suhbatdosh, kursdosh) affiksi, sifat yasovchi -ma (qovurma, chiyratma, terma) affiksi. Unumsiz affiksalar juda kam miqdorda yangi soʻz yasalishida qatnashadi, ular yordamida hozirgi kunda yangi soʻz yaratilmaydi. Masalan, ot yasovchi -gar (savdogar, zargar), -kash (aravakash), sifat yasovchi -agʻon (chopagʻon, qopagʻon), -mon (bilarmon, qirarmon), feʼl yasovchi -(a)r (oqarmoq, koʻkarmoq) affikslari ana shunday affiksalar jumlasidan.

Agar ikki va undan ortiq mustaqil maʼnoli morfemadan tashkil topgan qoʻshma soʻzning biror komponenti (morfemasi) hozirgi oʻzbek tilida mustaqil maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, bu qoʻshma soʻz ham qoʻshma soʻzlik xususiyatini yoʻqotadi — sodda soʻzga aylanadi. Bu hodisani kechqurun soʻzida koʻrish mumkin. Aslida qoʻshma soʻz boʻlgan kechqurun hozir yangi til nuqtayi nazaridan morfemalarga boʻlinmaydi (sodda soʻz hisoblanadi). Boshqa tillardan sodda soʻzlar qatori qoʻshma soʻzlar ham (zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr, aeroport kabi) oʻzlashtiriladi. Lekin bunday soʻzlar hozirgi oʻzbek tili nuqtayi nazaridan ham birdan ortiq mustaqil morfemali deb qaralsa, qoʻshma soʻz, aks holda sodda soʻz hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, yuqorida keltirilgan soʻzlar sodda soʻzlardir.

Qoʻshma soʻzning soʻz birikmasidan farqi shundaki, qoʻshma soʻzning komponentlari morfema. soʻz birikmasining komponentlari esa soʻz boʻladi. Shu sababli qoʻshma soʻzning komponentlari yaxlitligicha bir leksik maʼnoni ifodalaydi va komponentlari oʻrtasida sintaktik aloqa boʻlmaydi: tuyaqush, oybolta, qoʻziqorin, xushfeʼl, olib kelmoq kabi. Soʻz birikmasini hosil qiluvchi komponentlar (soʻzlar) leksik mustaqilligini saqlaydi va ular oʻrtasida sintaktik aloqa ham boʻladi: qora portfelli (yigit), atlas koʻylakli (qiz), oʻn besh qavatli (bino) kabi. Qoʻshma soʻz tarkibida hozirgi tilda mustaqil maʼno ifodalaydigan birdan ortiq morfemaning boʻlishi shart. Mustaqil maʼnoli soʻz bilan yordamchi soʻzning birikishidan qoʻshma soʻz hosil boʻlmaydi. Shunga koʻra yetakchi va koʻmakechi feʼldan tashkil topuvchi oʻqib bermoq, yoza boshlamoq, uxlab qolmoq kabi birikuvlar qoʻshma soʻz (qoʻshma feʼl) boʻla olmaydi. Chunki bularda birinchi feʼl oʻz maʼnosini saqlagan holda, keyingisi qoʻshimcha maʼno beradi. Demak, bunda birdan ortiq feʼl oʻzaro birikishidan yangi feʼl (yangi soʻz) hosil boʻlmaydi.

Soʻz yasash qoliplari va ularning maʼnolari bir hil yasovchi qoʻshimchali soʻzlarni maʼlum uyalariga birlashtirish asosida aniqlanadi. Masalan:

traktorchi	yig'la	binokor
suvchi	qo'lla	paxtakor
ekskavatorchi	oqla	o'ymakor
tikuvchi	ishla	sholikor

34-topshiriq. So'z yasashida nimalarga e'tibor berish kerak.

SO'Z YASASH JARAYONIDA RO'Y BERADIGAN O'ZGARISHLAR

Turkiy, jumladan, o'zbek tili morfologik jihatda agglutinativ tillar qatoriga kiradi. Agglutinativ tillar quyidagi xususiyatlari bilan flektiv tillarda ajralib turadi: 1) nechta grammatik ma'no bo'lsa, ularni ifodalovchi shuncha grammatik shakl qo'llaniladi. Masalan, yoz-ma-say-di-m; 2) grammatik shakllarning chegarasi bir-biridan aniq ajralib turadi; 3) grammatik ma'noning ko'payishi bilan, so'zning grammatik shakllari ham chapdan o'ngga qarab cho'zilib boradi; 4) grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismining fonetik tuzilishini o'zgartirmaydi.

O'zbek tilida so'z yasashi jarayonida so'z yasash asosiga yasovchi qismning natijasida asos qismning tovush tarkibida ba'zan o'zgarish ro'y berishining guvohi bo'lamiz. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Sust, past singari so'zlarga -ay yasovchi vositasi qo'shilganda, yasashga asos qismda mavjud bo'lgan oxirgi "t" undoshi tushib qoladi. Masalan, susay, pasay kabi.

2. Qizil, sariq kabi ikki bo'g'inli so'zlardan -ar, -ay yasovchi vositalari yordamida yangi so'z yasalganda, yasashga asos qism bo'lgan qizilning "il" qismi va sariqning ikkinchi bo'g'indagi "i" unlisi tushib qoladi. Masalan, qizil+ar – qizar, sariq+ ay – sarg'ay kabi.

3. So'ra, sayla, quvna, to'qi, o'qi kabi birinchi bo'g'ini "a" bilan tugagan so'zlarga -q,-v yasovchi qo'shimchalari qo'shilganda, yasashga asos qism oxiridagi "a" unlisi "o" unlisiga, "i" unlisi "u" unlisiga aylanadi. Masalan: so'ra+q – so'roq, sayla+v – saylov, quvna+q – quvnoq, kabi.

35-topshiriq. So'z o'yini o'ynang.

4. Nutqiy mavzu: Tarix va zamonamiz

Grammatik mavzu: Tilning leksik qatlamlari

TARIX VA ZAMONAMIZ

Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlari-mizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbayiga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arablar ko'p bo'lgan.

Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xo'ja Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Inb Sino. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy madaniyatimizni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum.

Tarixiy tajriba, an'analarning me'ros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.

O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, Temuriylar davri. XIX asr oxiri – XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni "oqlash" vazifalari umuman olganda bajarib bo'lingi, hozir esa asosiy vazifa tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va halol amalga oshirishdan iboratdir.

Amir Temur yubileyining bayram qilinishi haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman. O'tgan yillar mobaynida "bosqinchi" Temur, "vayron qiluvchi" Temur haqida o'qigan va eshitgan vaqtimizda necha bor o'zimizga o'zimiz: "Qanday qilib uning davrida ona zaminimizda madaniyat va iqtisodiyot bu qadar ravnaq topgan ekan?",-deya savol berar edik. Mustaqillikka erishganimizdan keyingina ba'zi buyuk ajdodlarimiz hurmatini o'rniga qo'ya oidik. Bizning bu itilishlarimizni Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, madaniy xalqaro hamjamiyat qo'llab-quvvatladi. Bu hol tasodifiy emas – sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir.

Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma'naviy uyg'onishning yana bir bitmas-tuganmas manbayidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g'oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo'lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib

olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining qimmatbaho an'analarini, shu hududda mavjud bo'lgan davlatchilik an'analarini avaylab qabul qilganlar.

Ayni shu zaminda ko'p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko'chmanchi xalqlar o'troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar turk qabilalari bilan, musulmonlar nasroniylar va yahudiylar bilan ko'p asrlar birga yashab kelganlar. So'nggi ikki asr davomida ham o'zlarini "madaniyatli" va "ma'rifatli" hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg'inlar va diniy ta'qiblar bilan o'zlariga dog' tushirgan bir paytda, O'zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch birlashgan joygina bo'lib qolmay, balki quvg'in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Ijtimoiy hayotimizni isloh qilish va yangilash boshlanib ketganligi bois ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochildi. Ular xalq ruhiyatini Vatanparvarlik, milliy iftixor, butun dunyo uchun bag'rikenglik tomon keskin o'zgartirib yubordi. Bu esa xalq ruhi qudratining birinchi belgisidir. Bu ruh shu qadar yorqin va o'ziga xoski, u integratsiyadan aslo cho'chimaydi, aksincha, jahon hamjamiyatining uzviy bir qismiga aylanishga harakat qilmoqda.

Istiqbolimiz besh yillicining eng muhim yakuni barcha uchun "Umumiy uyi"ga asos solinganligi, yangi ko'p elatli birlik vujudga kelganligi bo'ldi. O'zbek madaniyatining umuminsoniy mohiyati, ma'naviy-ruhiy qadriyatlarining va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi bu birlikning negizini tashkil etdi.

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy idealларining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xoslikni yo'qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbayi bo'lib kelgan yagona ma'naviy ruhiy negizni vujudga keltiradi.

Xalqimiz tarixan turkiy xalqlar oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, panturkizm va "Buyuk Turon" shovinistik g'oyasini rad etdi. Biz uchun Turon – mintaqadagi turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning o'ta siyosiy emas, balki madaniy birligining ramzidir. Bundan tashqari, umumiy madaniy, tarixiy va antropologik ildizlarimiz bizni tojik xalqi bilan ham tutashtiradi. Bu hol bizga o'z madaniyatimizni Markaziy Osiyo uchun ma'lum darajada noyob bo'lgan turk va fors madaniyatlarining sintezi deb hisoblashga to'la huquq beradi. Ana shunday boylikka ega bo'lgan O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari madaniy integratsiyalashuvining tashabbuskori bo'lishi mumkin va lozim. O'zbekiston mintaqaviy mezonlarga ko'ra yuksak darajadagi urbanizatsiya va sanoatlashuvni, shuningdek, ilmiy texnikaviy kadrlar bilan ta'minlaganlikni, turmush tartibi va tarzining chuqur an'anaviyligini o'zida mujassamlashtirgan. Shu bois u Sharq bilan G'arb muloqotida vositachi, ko'plab sivilizatsiyalar ma'naviy aloqasining ramzi ham bo'lishi mumkin.

36-topshiriq. Tarixda o'z jasorati bilan nomi qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

TARIXIY XOTIRA

Tarixiy xotira – g‘urur va iftixor hissining zaminlaridan biri.

Millat va elatlar asta-sekin, tarixan tashkil topadilar. Bu jarayon, vaziyatga qarab, bir necha o‘n yildan boshlab bir necha asrgacha cho‘zilishi mumkin. Ana shunday uzoq davr ularga o‘zlarini anglash, tilini, madaniyatini, ma‘naviyat, ma‘rifat, an‘analarni, urf-odatlar va rasm-rusumlarni butun bir o‘zaro bog‘langan tizim holiga keltirish uchun kerak. Demak, xalqning shakllanishi, ayni vaqtda xalq tomonidan o‘z o‘tmishini, tarixini, ajdodlarining mehnati, qahramonligi, ma‘naviyat va madaniyatining barcha yo‘nalishlari, tarmoqlari, xilma-xilligini hamda o‘ziga xosligini o‘rganish, ularga ishlov berib, shu jarayonda takomillanishdir. Tarixiy xotira xalqning o‘z o‘tmishini bilishi, bu o‘tmishni tahlil qilish, undagi bo‘lib o‘tgan voqealar va hodisalarning asl mohiyati va tarixdagi o‘rnini asoslab berishni talab qiladi.

Xalqning tarixiy xotirasi qanchalik boy, mazmunli va uzviy bog‘langan bo‘lsa, bu xalq shunchalik uyushgan, tadbirkor, harakatchan, hamjihat bo‘ladi. O‘z ajdodlari va avlodlarining sha‘niga yarashadigan xizmat va ishlarni bajarishga intiladi. Hozirgi zamon va bozor munosabatlari xalqlarning o‘zaro ijobiy va ijodiy musobaqasi davridir. Bu musobaqada oldingi o‘rinda bo‘lish uchun yirik xalq bo‘lish shart emas. Yirik bo‘lmagan gollandlar, shvedlar, finlar, singapurliklar, janubiy koreyaliklar yirik millatlar va yirik davlatlarni hamma sohada ham lol qoldirmoqdalar. Tarixi boy o‘zbek xalqi ham ana shunday ko‘rsatkichlarga erishish yo‘lidan izchil bormoqda.

Demak, tarixiy xotiramiz hozirgi vaziyatda katta amaliy ahamiyatga egadir. U davlatimiz, xalqimizning manfaatlariga xizmat qilishi lozim.

37-topshiriq. Quyidagi tayanch so‘zlarni yod oling:

Urf [odat, o‘rganish] - umum tizimdan qabul qilingan va amal qilinadigan tartib- qoida. Urf-odat va rasm-rusumlar.

Xotira [fikr, tafakkur, g‘oya] – biror kimsa yoki narsa haqidagi yodda saqlanadigan taassurot. Xalqning tarixiy xotirasi.

Millat [xalq, din, mashab] - kishilarning yagona tilda so‘zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi. O‘zbek millati.

Mohiyat [haqiqat, har narsaning asli, tub-negizi] - biror narsaning zamiridagi tub, eng muhim ma‘ni, ichki mazmun. Hodisalarning asl mohiyati.

Hamjihat [ham + jihat] - ish-faoliyatda bir-biridan ajralmay intilish, ahil bo‘lish. Hamjihat qo‘shnilar.

Hodisa [voqea, holat] - tabiatda, jamiyat hayotida yuz beradigan o‘zgarish. Bo‘lib o‘tgan hodisalar.

Asr [davr, zamin] - yuz yillik davr. Yigirma birinchi asr.

Elat - kishilarning millat shaklida qolmasdan oldingi tarixiy birligi. Bir joyli yoki bir qabilaga, urug‘ga mansub kishilar. Mamlakatimizda ko‘plab elatlar yashaydilar.

Madaniyat [Sivilizatsiya] - jamiyanning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmuyi. 2. O'qimishlilik, ta'lim-tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifatlilik. Madaniyatning barcha yo'nalishlari.

Ajdod ["jadd" (bobo) so'zining ko'pligi] - ilgari o'tgan nasl-nasab, o'ta-bobolar (avlodga nisbatan). Ajdodlarining mehnati, qahramonligi.

Avlod [o'g'illar, bolalar, nasl] - ota-bobo va uning nasli; sulola. Temur avlodida (temuriylar).

38-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

SHAYX XOVANDI TOHUR (SHAYXONTOHUR)

Toshkent shahrining markazida tabarruk ziyoratgoh bor. Bu qadamjo xalq orasida Shayxontohur nomi bilan yuritiladi. Faqat shu ziyoratgohgina emas, bu yerdagi daha, tuman nomi ham ana shunday ataladi.

Aslida qadimiy bu maskan Shayx Xovandi Tohur nomi bilan bog'liq. Tarixiy asarlarda va XX asr boshlarida Fransiyada nashr etilgan "Islom ensiklopediyasi"da Shayx Xovandi Tohur Sharqning ulug' allomalaridan, Movorounnahrning yetuk ijodkorlaridan biri deya ta'riflanadi. Tarixiy manbalarda Shayx Xovandi Tohur Shosh o'lkasining Bog'iston qishlog'ida tavallud topganligi haqida ma'lumot beriladi. Otasi Umar Bog'istoniy shayxlik martabasiga erishgan, allomalar sulolasiga mansub zot bo'lgan. Allomaning tavalludi 1280-yillariga to'g'ri keladi. Unga Xovandi Tohur deb ism qo'yilishi bejiz emas. Xovand – yetakchi, rahnamo, g'amxo'rlik ko'rsatuvchi hokim. Tohur esa nihoyatda pok degan ma'noni bildiradi.

Shayx Xovandi Tohur hayotda boshqalarga poklik, adolatparvarlik borasida ibrat bo'lish barobarida ko'plab asarlar ham yaratgan.

Shoir, alloma Shayx Xovandi Tohur XIV asrning ikkinchi yarmida (ba'zi manbalarda 1350-yil, boshqalarida 1360-yilda) vafot etgan.

Allomaning Xoja Axror Vali tomonidan harpo etilgan maqbarasi XVI-XIX asrda batamom vayron qilingan. So'ng saqlanib qolgan poydevor asosida yana qayta quriladi. Ziyoratgohdagi yodgorliklar va obidalarning bir qismi o'tgan asrning 60-70-yillarida yo'q qilingan. Qadamjoga kirish darvozasi ham buziladi. Umuman, ziyoratgohdagi 20 dan ortiq yodgorliklardan uchtasi Shayx Xovandi Tohur, Qaldirg'ochbiy, Yunusxon maqbaralari vayronaga aylangan holda saqlanib qoladi.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin uchta yodgorlik Shayx Xovandi Tohur, Qaldirg'ochbiy, Yunusxon maqbaralari asl tarixiy ko'rinishida tiklandi.

Bu ziyoratgoh hududida Toshkent Islom universitetining tashkil etilishi ajdodlar merosiga nisbatan yuksak ehtiromning ifodasi bo'ldi.

"TEMUR TUZUKLARI"

"Temur tuzuklari" XIV-XV asrl voqealari va hayotini yorituvchi qimmatli manba, Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi asar. Qachon va kim tomonidan yozilganligi asarda ko'rsatilgan emas.

"Temur tuzuklari"dagi barcha voqealar Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Asli eski o'zbek tilida yozilgan, fors, fransuz, ingliz, urdu, rus va hozirgi o'zbek tiliga o'g'irilgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismda Amir Temurning

Movarounnahrda saltanatni qo'lg'a kiritish uchun olib borgan urushlari va bu borada o'z yaqinlari bilan o'tkazgan kengashlari, amirlar bilan olib borgan muzokaralari haqidagi tafsilotlar diqqatni jalb qiladi.

Buyuk sohibqironning kuchli markazlashgan davlat tuzish va qo'shni mamlakatlarning o'z tasarrufiga o'tkazish borasidagi faoliyati haqida mufassal so'z yuritiladi. Xususan, Movarounnahr gagina emas, balki qadimiy Rusiyaga ham xavf solib turgan Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga Amir Temurning jiddiy zarba berishi Rusiyaning mo'g'ul istilosidan qutulishini yengillashtirgani diqqatga sazovordir.

“Temur tuzuklari”ning ikkinchi qismida Amir Temurning davlatni boshqarish, mamlakatni idora qilish uslubi haqidagi tuzuklari, ya'ni yo'l-yo'riqlari, qonun-qoidalari, pand-nasihatlari o'rin olgan. Jumladan, saltanatni boshqarishda Amir Temur Islom dini va shariat talablariga, adolat, insof va haqiqatga tayanadi, turli tabaqa va toifaga mansub kishilarni teng ko'rib, qilgan xizmatiga qarab, ularni hurmat qiladi, mamlakatni boshqarishda eng avvalo olimu fuzalo, sayyidlar, shayxlar va maoriflarga tayanadi.

“Temur tuzuklari”da do'stlik, vafodorlik, iymon va e'tiqod, kasb-hunar va boshqa insoniy fazilatlariga rioya qilish to'g'risida fikr yuritiladi, fuqarolarning shariat qonun-qoidalariga bo'ysunish lozimligi aytib o'tiladi, qozilarning qonunlarga to'la amal qilish, tartibbuzarlarni ayamay jazolash, sipohlar va askarlarni saqlash va ularga oziq-ovqat, maosh to'lash qoidasi, vazirlar va ularning vazifalari, amirlar, sipohlar va boshqalarni taqdirlash tartiblari, ularning bir-birlariga muomalasi va turli boshqa masalalar bo'yicha mufassal ma'lumot beriladi.

“Temur tuzuklari”dagi ko'plab fikrlar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q va mustaqil O'zbekistonda mustahkamlashda undagi fikr, xulosa, pand-nasihatlardan foydalanilmoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matni o'qing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing va so'zlab bering;
- c) matni rus tiliga tarjima qiling;
- d) matndagi sintaktik aloqa vositasida bog'langan gaplarni toping.

AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosati misilsiz ahamiyatga ega. Temur iqtisodiy g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular xayoliy emas, balki aniq hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan.

Temurning iqtisodiy g'oyalari “Temur tuzuklari” asarida bayon etilgan. Uning iqtisodiy g'oyalari va siyosati zamirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirish tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, isli bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lish uchun yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi.

Sohibqironning iqtisodiy qarashlari va yuritgan yangicha iqtisodiy siyosati tarbiyani yo'lga qo'yish ishlarida biz uchun muhim dasturulamal, tarixiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

SAMARQAND

Samarqand tarix mobaynida mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida yetakchi o'rinni egallab kelgan shahar hisoblanadi. Bir necha asrlar mobaynida Samarqand Movarounnahr poytaxti va markazi bo'lib kelgan. Samarqand eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan bo'lib, hozirda u yurtimizning san'at va moziy uyg'unlashgan go'shalaridan biri hisoblanadi. Uni umrida bir bor ko'rgan inson hech qachon yodidan chiqarmaydi. Tarixda Samarqand, Marokanda, So'g'diyona nomlari bilan atalagan. "Avesto" da yozilishicha, Samarkand So'g'd davlatining poytaxti sifatida ta'kidlangan. Yunon va rim tarixchilari yozib qoldirgan yodgorliklarida u birinchi bor Marokanda nomi bilan tilga olinadi. 1220-yilda mo'g'ullar tomonidan butunlay yo'q qilingan shahar vaqt o'tishi bilan yana o'zini tiklab oladi va qayta tug'iladi. Uning gullab-yashnashida Temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Amir Temur bu shaharni Movarounnahrdaqi ilm-fan, tijorat, me'morchilik va madaniyat rivojlangan eng katta shaharga aylatiradi.

Samarqand shahri asrlar davomida Buyuk Ipak Yo'lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan. Samarqand shahrining tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda O'zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, 2007-yilda YUNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmuyi, Hazrat Xizr masjidini qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

Shaharning markazida joylashgan Registon maydoni o'zining go'zalligi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Registon maydoni o'rta asrlarda shahar markazi vazifasini o'tagan bo'lsa, hozirda u uch me'morchilik ansanblidan tashkil topgan kompozitsiya hisoblanadi. U yerda joylashgan uch madrasa: Ulug'bek madrasasi, Tilla Qori madrasasi va Sherdor madrasalari o'zining alohida yaratilish tarixiga ega. Go'ri Amir maqbarasida esa buyuk bobakalonimiz Amir Temur oxirgi qo'nim topgan joy hisoblanadi. Bibi xonim madrasasi esa o'zining betakrorligi va me'morchilik namunalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

XIVA

Xivani bejiz Sharq durdonasi deb atamaydilar. Bu Al-Xorazmiy, Shayx Najmiddin Kubro, Paxlavon Mahmud, Ogahiy va Feruzni voyaga keltirgan va taqdim etgan mo'jizaviy makondir. 1997-yil 20-oktyabrda Xivaning 2500 yilligi nishonlandi. Xiva mana necha davrlardan buyon gullab-yashnab kelmoqda. Kun sayin husniga husn qo'shilib kelayotgan bu shahar o'zining baland minoralari-yu, sharqiy me'morchiligi bilan dunyoning turli chekkalaridan sayyohlarni o'ziga jalb etadi.

Xivaga eramizdan avvalgi 5 asrda asos solingan bo'lib, ko'p asrlar davomida u Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan. Buyuk Ipak Yo'lining nuqtalaridan biri hisoblangan. Afsonalardan biriga ko'ra, karvonsaroyda to'xtagan savdogarlar u yerda joylashgan zilo'l buloqlardan suv ichib lazzatdan "Xey Vax" – iborasini ko'p qo'llaganlar va shu tufayli Xeyvak so'zi paydo bo'lgan.

Boshqa afsonaga ko'ra esa, Nuh payg'ambarning o'g'li Sim katta g'arqlikdan keyin cho'lda kezib yurib uxlab qoladi va tushida 300 ta yonib turgan mash'alani ko'radi. Uyg'onib u xursandligidan kema shakliga o'xshash shahar quradi va "Xeyvak" qudug'ini qaziydi va shu quduq nomi bilan shahar Xiva deb ataladi. Hatto hozir ham Xivada kema shaklida qurilgan obidalar va Xiva markazida "Xeyvak" qudug'i mavjud.

O'z tarixi mobaynida Xiva ancha qiyin kunlarni boshidan kechiradi, ammo doimo o'zini tiklab olgan bu shahar juda ham boy va ajabtovur qadimiy asoru atiqalar joylashgan joydir.

39-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

ЛЕГЕНДА О ХИВЕ

В древние времена Бог дал знать своему наместнику на земле, пророку Ною о грядущем наводнении. Бог приказал ему построить большой корабль и поместить в него всех верующих, а также попарно каждой живущей твари. Когда произошло наводнение, Ной приказал своему сыну Сому найти высокий холм и построить там крепость. Эта крепость была названа сначала Хейвак, а потом название изменилось на «Хива». Это – только одно из многих легенд о Хиве.

Один из наиболее примечательных городов Центральной Азии – Хива находится на левобережье Амударьи на юге современной Хорезмской области Узбекистана. Это уникальный, единственный целиком сохранившийся в регионе город – памятник. В 1967 году был объявлен городом заповедником, а с 1990 года внутренняя часть Хивы – Ичан-Кала признана ЮНЕСКО историческим памятником мирового значения.

40-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

TOSHKENTNING O'N IKKI DARVOZASI

Movarovnahrning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Shosh (Toshkent) o'zining uzoq va qiziqarli tarixida o'zaro feodal urushlar hamda xorijiy bosqinchilar istilosi natijasida necha bor buzilib, necha bor qayta tiklangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda yirik shaharlar qo'rg'on bilan o'rab olinganligi, ularning bir necha darvozasi bo'lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy ma'lumotlardan ayon.

O'lgan XVIII- XIX asrlarda bu shaharning 12 ta darvozasi bo'lib, bular: Samarqand, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashg'ar, Beshyog'och, Qo'qon, Qaymast va Komolon darvozalaridir. Ushbu darvozalardan kirilgach, eng avval gizarli keng maydonga chiqilgan, bu guzargohlar 1920-yillarning oxiriga qadar juda ohod bo'lgan.

Afsuski, shaharning ko'hna darvozalari shu kunlarda saqlanib qolmagan. Lekin ularning nomi va qayerda joylashganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bor.

Darvozalar shaharning hozirgi o'zaro joylashishiga nisbatan taxminan quyidagi joylarda joylashgan: Komolon -- hozirgi "Baxt" ko'chasida; Qaymast - O'zbekiston ko'chasidan 9-yanvar ko'chasiga burilish yerida; Qo'qon -- Mustaqillik

maydonida; *Beshyog'och - Beshyog'och dehqon bozori bilan madaniyat va istirohat bog'i oralig'ida*; *Qashg'ar - Qashg'ar mahallasi guzari (hozirgi Markaz - 4 mikrorayonida)*; *Labzak - Xurshid ko'chasi bilan Anhor kesishgan joyda*; *Taxtapul - Sobir Rahimov ko'chasidagi Kaykovus anhoriga qurilgan ko'prik yaqinida*; *Qorasaroy - Qorasaroy ko'chasining guzarida*; *Sag'bon - Sag'bon ko'chasidagi 11-maktab bilan Kaykovus oralig'ida*; *Chig'atoy - Chig'atoy ko'chasidagi Chig'atoy darvozasi guzarida*; *Ko'kcha - Ko'kcha guzarida*; *Samarqand - hozirgi "Samarqand darvozasi" ko'chasining guzari atrofida bo'lgan.*

Bu darvozalar faqat qamal paytlaridagina emas, balki tinch vaqtlarda ham har kuni qorong'i tushishi bilan berkitib qo'yilar edi. Ertalab harvaqt ochilar, karvonlar, sayyohlar va darveshlar, boyonlar va amaldorlar yayov va foytunlarda viqor bilan kech oqshomga qadar kirib-chiqib turganlar. Bu darvozalarni doimo maxsus soqchi (darvozabon) lar qo'riqlab turar edilar.

Grammatik mavzu: TILNING LEKSIK QATLAMLARI

Leksikologiya tilning so'z boyligi so'z ma'nosi va ma'no taraqqiyoti, shakli va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, eskirgan va yangi so'zlar kabi masalalarni o'rganadi.

Leksik me'yorlar deganda nutq jarayonida umumxalq tilida mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri tanlash va o'rinli ishlatish tushuniladi. Ko'p ma'nolilik, sinonimlar va variantlar shaklidagi leksik birliklar doirasida tanlanish imkoniyatining ko'pligi uning xususiy me'yori shakllanishiga ham sabab bo'lgan. Tilimizdagi dialektizm, neologizm va okkazonalizm, pleonazm va boshqa leksik birliklarning me'yoriy xususiyatlari yuzasidan mulohaza yuritish leksik me'yor to'g'risidagi tasavvurimizni kengaytiradi.

Dialektizmlar va adabiy til me'yori doirasida me'yorni belgilash tilimizdagi mas'uliyatli masalalardan biri sanaladi. Chunki adabiy til sheva leksikasidan ularning ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan so'zlarni tanlab oladi va uni o'z leksik tarkibiga kiritadi (mas: *sigir-siyir-inak*; *chaqaloq-buvak*, *tuxum-moyak-yumurta*, *chumoli-murcha-qarinja-qumursqa*) kabilar.

O'zbek tilida aynan ekvivalentlari mavjud va varvarizm sifatida qaraladigan *nu, tak, vot, sovsem, vooobshe, tolko, tolko tak, yestestvenno, obyazatelno, konechno, uje, pochti, tak chto, znachit, kak raz, neujeli, tem boleye, dokument, oformit qilmoq, organizovat qilmoq, prinimat qilmoq, razresheniye olmoq, podpis qo'ymoq, bo, akun, soni* kabi so'z va birikmalarining ishlatilishi juda xunik hodisa. Bu yerda me'yor buzilgan.

"Davlat tili" haqidagi qonunning yuzaga kelishi munosabati bilan fanlarning turli yo'nalishlari bo'yicha atamashunoslik sohasida islohotlar o'tkazish, ularni "o'zbekchallashtirish"ga imkoniyat yaratildi. Shunday bir vaziyat yuzaga keldiki, atamalarni "milliylashtirish"ga ishtiyoq kuchayib ketdi. Tavsiyalar ham nihoyatda ko'paydi. Jo'yali fikrlar bilan bir qatorda, hazm bo'lishi qiyin bo'lgan takliflar ham o'rtaga tashlandi. Bu gapning tasdig'i sifatida ayrim misollarni keltiramiz: *matematika-rijoziyot, fakultet-kulliyot, rassom-musavvir, gazetxon-mushitariy, auditoriya-saboqxona, xona, o'qiv xonasi, sirk-tomoshaxona, sirkul-pargar,*

sellofan-suvqog'oz, seyf-zarf, attestasiya-ko'rik, samolyot-tayyora, aeroport-tayyoragoh, familiya-naslnoma, klub-da'vatxona, titul list-sarvaraq va hokazo.

Ammo bu qarashlar shu ma'noda diqqatga sazovorki, ularda tilni mumkin qadar chet el unsurlaridan tozalash g'oyasi yotadi. Tilimizda qo'llanilib kelinayotgan *avtor, arxitektor, gumanizm, doklad, ideologiya, inspektor, intelligent, kontrol, komandirovka, komanirovochnaya, leksiya, ministr, oblast, ostanovka, planeta, muammo, rayon, raport, redaktor, revolutsiya, spravka, student, sekretar, tema, territoriya, traditsiya, forma* singari so'zlar o'rnini muallif, me'mor, insonparvarlik, ma'ruza, mafkura, nozir, ziyoli, nazorat, safar, safarnoma, vazir, viloyat, bekat, sayyora, muammo, tuman, bildirishnoma, xabarnoma, muharrir, inqilob, ma'lumot-ma'lumotnoma, ialaba, kotib-kotiba, mavzu, hudud, an'ana, shakl kabi tavsiiya etilgan so'zlar osonlik bilan egalladi. Chunki ular ikkinch nusxa sifatida tilimizda ozmi-ko'pmi oldindan ham qo'llanilib kelinayotgan edi.

Mustaqillik tufayli yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida tabiiy ravishda tilimizda ham juda ko'plab yangi so'z va iboralar, birikmalar paydo bo'layapti. Bu holatni asosan fan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, xalqaro munosabatlar, huquq sohalarida, qisman maorif, madaniyat, san'at va badiiy adabiyot sohalarida kuzatamiz. Xalqimiz ularni qanday qabul qilishidan qat'i nazar, ularni qo'llashdagi har bir holatga munosabat bildirilib borilishi, me'yor sifatida tavsiiya etilayotgan variantlarning nega shunday tarzda ma'qul ko'rilganligi asoslanishi zarur bo'ladi.

41-topshiriq. Leksik me'yorning buzilish holatlarini (noto'g'ri so'z qo'llash, tautologiya, paronimlarni noto'g'ri qo'llash kabilarni) toping.

1. Bugungi ko'rsatuvimizda elimiz suygan taniqli san'atkor O'lmas Rasulov hamda surnay so'zining mohir ijrochilaridan Jo'ra Ahmadjonov, Ikromjon Matanov ham ishtirok etishgan. Ko'rsatuvimiz surnay so'ziga bag'ishlanadi. Avvalombor, surnay s'ozining ommaviyligi uning keng omma ichida chalinib, ko'pchilikka yetib borishi bu so'zning ommaviyligiga ham bog'liq. Shu sababmi, barcha sozanda va bastakorlarimizning ijodlarida surnay navolari, surnay ijro yo'llari sezilib turadi. 2. Ferma jonkuyarlari olti oylik davlatga sut sotish planlarini muddatdan oldin bajaradilar. 3. "Tilga hurmat – elga hurmat", – deydi dono xalqimiz. 4. Onam aytardilar: "Sen mening umid yulduzimsan, qizim". 5. Ustozim: "Agar ilmni o'rganishdan to'xtasang, o'sha kundan boshlab e'tibordan qolasan", – der edilar. 5. "Men ertaga ishga kelmayman", – dedi boshlig'imiz. 6. "Yaxshi bo'libdi!" – deb kulib qo'ydi singlim. 7. "Moskvaga sen ham ketayapsanmi?" – deb so'radi qiz. 8. Jarohat aynan transport vositasi aybi bilan hosil bo'lgan. 9. Yosh ijodkorlarning akvarel va qalam tasvirlari, liboslari eskizi, biser to'qish kabi ijobiy ishlari ko'rgazmaga qo'yilgan. 10. Yurtimiz hayoti va xorij sahnida ro'y bergan voqealar tafsiloti bilan...

42-topshiriq. Quyidagi iboralarning ruscha muqobilini toping.

Ikki tomchi suvday, tomdan tarasha tushganday, birovning nog'orasiga o'ynamoq, oyog'i kuygan tovuqday, yeng shimarib, xamirdan qil sug'urganday.

43-topshiriq. Quyidagi maqollarni o'qing va ma'nosini tushuntirib bering.

Olim bo'lsang, olam seniki.

Birni kessang, o'nmi ek.

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

Hunar-zar, hunarmand zargar.

Xalqimizda: "Odam bolasiga qirq bir hunar ham oz",– deyilgan yaxshi gap bor. Agar kasb-kor, hunar barmoq bilan sanaladigan qadimdan shunday deyilgan ekan, hozirgi atom asrining sanagan bilan ado bo'lmaydigan haddi-hisobsiz kasb-korlari, behud ixtisoslari zamonida: "Yoshlarga qirq bir ming hunar ham oz",– deyilsa to'g'ri bo'lar? Ha, shunaqaga o'xshab qoldi. Qani, shu gapning mag'zini bir chaqib ko'raylik. Hozirgi talabchan, murakkab hayotimizda bir hunar yo bir ixtisos egasi qulochini keng yoyib, ishini bitirib ketaveradi. deb bo'lmaydi. Bir hunar yo bir ixtisos – katta davlat, albatta. Ammo tor ma'nodagi davlat. Hayot esa bir-biri bilan uzviy bog'langan shunday bir halqalardan iboratki, bir halqaning tilini bilsang-u, boshqalarinikini bilmasang – katta ishda albatta qoqilasan.

Shuning uchun har bir hunar sohibi bitta ixtisos bilan kifoyalanib qolmay, o'z kasbiga bog'liq bir necha hunarni egallab olsa, faqat o'zigagina emas, u ishlayotgan, mehnat qilayotgan korxonaga ham katta foyda. Agar masala faqat shunga qarab qolganda edi, malakali hunar egasi bitta ixtisos bilan ham bemalol yashashi mumkin bo'lar edi. Ammo hozirgi yoshlarimizni, ongli kishilarimizni bir necha ixtisosni o'rganishga majbur qilayotgan narsa – jamoa, xalq manfaat. Demak, mehnatga kasb-korga bo'lgan munosabatni odamning fuqarolik qiyofasi desa bo'lar ekan. Binobarin, bu munosabat xunuk bo'lsa, hech qanday jismoniy go'zallik odamdagi ijtimoiy nogironlikni yopib keta olmaydi.

TASVIRIY IFODA (PARAFRAZA)

Narsa, buyunning nomini aniq atamay, uni tasvirlab anglatadigan so'z birikmasi tasviriy ifoda (yoki parafraza) deyiladi: qushlar – qanotli do'stlar; fazogirlar – samo lochinlari; makkajo'xori – dala malikasi; rassomlar – mo'yqalam sohiblar. Tasviriy ifodalar narsa va hodisalarning ikkinchi nomi hisoblanadi. Tasviriy ifodalardagi bitta so'z har doim o'z ma'nosida bo'ladi, shu bilan ular iboralardan farq qiladi. Tasviriy ifodalar ham omonimlik, sinonimlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkin. **Omonim** tasviriy ifodalar: aql gimnastikasi – 1) matematika, 2) shaxmat; qora oltin – 1) neft; 2) ko'mir. **Sinonim** tasviriy ifodalar: g'azal mulkingin sultoni va o'zbek adabiy tilining asoschisi – Alisher Navoiy; uvg'onish fasli va fasllar kelinchagi – bahor.

44-topshiriq. O'qing. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. *To'kin-sochin kuz fasli boshlandi.* 2. *Shirin-shakar mevalarni yetishtirgan bog'bonlarimizga ming rahmat.* 3. *Temir yo'l vokzali qayta ta'mirlandi.* 4. *Do'stim har kuni o'qishga Yangiyo'l shahridan qatnaydi.* 5. *Haqiqiy inson o'z ota-onasini doimo hurmat qiladi.* 6. *Mehmondo'stlik o'zbek xalqiga xos xislat.* 7. *Toshkentimiz kundan-kunga tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketmoqda.*

5. Nutqiy mavzu: Ulug' ajdodlarimiz

Grammatik mavzu: Atamalar va ularning vujudga kelishi

AMIR TEMUR

Turkistonimiz tarixida sohibqiron Amir Temurning roli alohida ahamiyatga egadir. Chunonchi, uning serqirra va jo'shqin faoliyati, butun say-harakatlari, eng avvalo, yurt ozodligi va mustaqilligiga qaratilgan bo'lib, shu ezgu g'oya bilan sug'orilgan edi. O'z aql-zakovati, mahorati, shiddatini ishlatib, vatanining hurriyati yo'lida qanchadan-qancha mashaqqatli va shiddatli bosqichlardan tushkunlikka tushmasdan sobitqadamlik bilan o'tib, oxir-oqibatda o'z asl maqsadiga erishdi, yurtini chet el islohatchilaridan ozod qildi.

Amir Temur kuchli shaxs, uzoqni ko'zlab katta aql-idrok bilan ish yuritadigan usta siyosatdon, dovyurak, mohir lashkarboshi sifatida o'z xalqi, qo'shini hamda amirlari o'rtasida katta obro-e'tiborga ega edi. Mana shunday sifatlar va yana ko'pdan-ko'p fazilatlar sohibi bo'lgan Amir Temur Movaraunahrda markazlashgan kuchli mustaqil davlatga asos soldi.

Albatta, mustaqilligimiz sharofati bilan, Amir Temur shaxsiga, uning faoliyatiga munosabat o'zgardi, u haqda ro'y-rost gapirish imkoni tug'ildi. U haqda risolalar ilmiy-ommabop maqolalar chop etilmoqda. Lekin bular ta'bir joiz bo'lsa, dengizdan bir qatradir. Amir Temur davlati tarixi, sohibqironning o'zi haqida hali ko'p tadqiqotlar yaratilishi kerak. Zero, uning faoliyatida hozirgi mustaqil davlatimiz, jamiyatimiz uchun ibratli tomonlar bisyor.

Ana shu jihatlarni ilmiy asosda o'rganib, ibratli, zamonamizga mos tomonlarni hayotga tatbiq etilish galdagi vazifalardan bo'lmog'i kerak. Ma'lumki, XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" — Temur va temuriylar davriga oid asosiy manbalardan bo'lib, allqachon fransuz, lotin, ingliz tillariga ham tarjima qilingan. Asar Temur va uning siyosatiga nisbatan tanqidiy ruhda yozilgan bo'lsa-da, lekin manba sifatida unda sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari haqida ko'pdan-ko'p muhim ma'lumotlar keltiriladi. Mana shu aqidadan kelib chiqib, badiiy adabiyotda ham, sa'nat va sahna asarlarida ham haqiqiy Amir Temur obrazining yaratilishi, bu asarlarda sohibqiron hazratlari o'z tarixiy maqomi va martabasiga ega bo'lishini ta'minlash biz uchun ham qarz, ham farzdir, deb hisoblayman.

O'tinish tariximizni yorqin sahifalar bilan yoritgan Amir Temur siyosati, uning faoliyatini o'rganishga alohida ahamiyat berilmog'i lozim. Bu o'ta zarur va xayrli ish, eng avvalo, Temur va temuriylar davrida yaratilgan yozma manbalar —yodgorliklarni to'liq o'zbek tiliga tarjima qilish va atroflicha tadqiq etish asosida amalga oshiriladi. Ma'lumki, sohibqironning ilm-fan, madaniyat, ayniqsa tarixnafislik ilmi rivojiga katta ahamiyat berganligi tufayli o'sha davrga oid ko'pdan-ko'p tarixiy asarlar yaratilgan.

Mana shu asarlarni o'zbek tiliga to'la tarjima qilish va ular asosida chuqur va fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish temurshunosligimizning dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan eng muhim vazifalaridan bo'lmog'i kerak. Shular bilan bir

qatorda sohibqiron shaxsiga bag'ishlab yaratilgan xilma-xil afsonalari rivoyat tarzidagi asarlar ham bor. Afsuski, ba'zan ana shunday rivoyatlarga ko'proq e'tibor berilib, muhim yozma manbalar ikkinchi darajali bo'lib qolayotir.

(U. Uvatov "Sohibqiron")

45-topshiriq. O'zbek ma'rifatparvarlarining rasmlari asosida ularni tanishtiring.

46-topshiriq. Ma'rifatparvar adib ijodiga bag'ishlangan biror film mazmunini so'zlab bering.

JAHON ILM-FANI RIVOJIGA HISSA QO'SHGAN SHARQ ALLOMALARI

Joriy yil 15-16-may kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan "O'rta asr allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtiroki oldindan Kembrij forumining (Buyuk Britaniya) Markaziy Osiyo bo'yicha raisi Siddixart Saksena "Jahon" axborot agentligi muhbiri bilan bo'lib o'tgan suhbat chog'ida quyidagi fikr-mulohazalarni bildirdi:

Madaniyatlararo va davlatlararo hamkorlik masalalarini muhokama etish uchun yurtingizga taklif etilganim men uchun katta sharafdirdir. O'tmishning buyuk merosi haqida so'zlar ekanmiz, o'zbek xalqining ulug' ajdodlari jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan bebaho hissasini qayd etish muhimdir. O'rta asr Sharq allomalari, mutafakkirlarining aql mash'allari yo'llarni yoritgani bizga bugun yaratish va fikrlash imkonini bermoqda.

Kembrijda turib, shuni quvonch bilan qayd etish mumkinki, o'zbek xalqining buyuk ajdodlari qoldirgan ana shu meros bugungi kunda ham keng qo'llanilmoqda. Bugun bizni qurshab turgan deyarli barcha asbob-uskunalar – men ushlab turgan mikrofondan tortib, to mashinalar-u samalyotlargacha buyuk alloma Al-Xorazmiy ishlab chiqqan algoritim konsepsiyasi tufayli mavjuddir. Umuman olganda, texnika inqilobi uning nomi bilan chambarchas bo'g'liq. Matematika yoki zamonaviy elektronika sohalaridagi innovatsiya konsepsiyalari haqida ham huddi shunday deysih mumkin.

Bundan 100 yildan ziyodroq davr avval Kembrijlik britaniyalik olim Jozef Tompson tomonidan elektronikaning ixtro qilinishida Al-Xorazmiy kashfiyoti o'z aksini topdi. Elektron bundan ming yil avval Al-Xorazmiy ishlab chiqqan algoritim tamoyili asosida harakatlanadi. U bizning eng innovatsion va g'aroyib mahsulotga – kompyuter va uning protsessoriga ega bo'lish imkonini berdiki, uning yordamida samolyotlar uchmoqda, murakkab qurilmalar ishlamoqda. Shu tariqa ular odamlarning kundalik yumushlarini yengillashtirmoqda.

47-topshiriq. Mashhur ma'rifatparvarlarning ijodi bo'yicha dialogik vaziyatni ijro eting.

FOROBIY

Abu Nasr Forobiy – O'rtasiyoning ulug' turkiy mutaffakiri va qomusiy olimi. U 873-yil 10-yanvarda tavallud topgan. Taxminan 951-yil 12-yanvarda 77 yoshda vafot etgan. Ma'lumotlarga qaraganda Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay mavjud risolalarning o'ziyoq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi. Farobiyning asosiy asarlari "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Falsafiy savollar va ularga javoblar", "Donolik asoslari", "Fozil shahar axolisining fikrlari" va shunga o'xshash bir qator asarlarni yozgan olim hisoblanadi.

Farobiy ilk o'rtasiy asrda. Sharq uyg'onish davrida ijod etgan. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, hunarmandchilik, irrigatsiya inshootlarining yuksalishi, yangi shaharlar bunyod etilishi, madaniy va ma'naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. Farobiy o'rtasiy asrda mukkamal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. U "ilmlarning kelib chiqishi haqida", "ilmlarning tasnifi haqida" nomli risolalarida o'sha davrda ma'lum bo'lgan 30 ga yaqin ilm sohasining tavsifi va tavsilotini bayon qilib bergan. Farobiy yaqin va O'rtasiy Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqida ta'limotlar ishlab chiqdi. O'rtasiy asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligi, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qomusiy olimning asarlari o'zbek tilida chop etila boshladi, uning boy merosi xolisona, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillari asosida yoritiladi boshlandi. Oliy o'quv yurtlari, maktab va kutubxonalar, ko'chalar, uning nomi bilan ataldi.

48-topshiriq. Jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan allomalar haqida matn tuzing.

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali Ibn Sino O'rtasiy olim, faylasuf. 980-yilning 18-iyunida Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan va 1037-yilning 16-avgustida Hamadonda vafot etgan. G'arbda Avitsenna ismi bilan mashhur. U tibbiyot, alkimyo, astronomiya, falsafa, islomshunoslik, mantiq, fizika, matematika, nazm, teologiyaga qiziqib, shu fanlarni yod olgan. Ibn Sino 17 yoshdan oq, Buxoro xalqi orasida mohir tabib sifatida taniladi. Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Ibn Sino o'z davridagi tabiiy fanlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimdir. Uning tabiiy-ilmiy qarashlari "Kitob ash-shifo"ning tabiiy fanlarga oid qismida bayon qilingan. Ibn Sino tabiiy fanlar qatori kimyo bilan ham shug'ullangan va unga oid asarlar ham yozgan. She'riyat sohasida ham Ibn Sino sezilarli iz qoldirdi. U o'zining ayrim tibbiy asarlarini rajaz vaznli she'rda yozgan. Ibn Sino musiqiy go'zallik haqida mukammal ta'limotni ilgari surib, musiqqa hamohangligining eng kamolga yetgan turi deb biladi. Ritm masalalariga Sharqning

boshqa musiqa nazariyotchilari singari aruz badiiy tizim bilan bog'liq holda qaraydi. Tabib sifatida u musiqani muhim tibbiy vositalar jumlasiga kiritgan. Ibn Sinoning tibga oid yozgan asarlarining 30 dan ortig'i bizgacha yetib kelgan, ularning orasida "Qonun" kabi tibbiy ensiklopediya bilan bir qatorda tibning ayrim nazariy va amaliy masalalariga bag'ishlangan turli hajmdagi risolalar mavjud. Ibn Sino boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr Sharq va G'arb madaniyatining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

49-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini aytib bering.

MAHMUD QOSHG'ARIY

Tilshunoslik tarixida Mahmud Qoshg'ariy salmoqli o'rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tebratdi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist - fonolog, leksikolog, leksikograf, turkiy tillar sarf va nahv ilmining asoschisi sanaladi.

S. Mutalibov ta'kidlaganidek, Mahmud Qoshg'ariy yaratgan "Devonu lug'otit turk" asari faqat o'sha davr uchungina katta voqea bo'lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.¹

Mahmud Qoshg'ariyning hayoti haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Uning to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn Muhammad-al-Qoshg'ariydir. Mahmud Qoshg'ariyning tug'ilgan yili aniq emas. Lekin "Devon"ning oxirida bu "kitob umrini oxiriga yetkazganini" quyidagi misralarda bayon qiladi:

"Kuchandi bilagim, eg'udi tilagim,

Tilindi bilagim, tegrab angar jartilur".

Lug'at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak, u XI asr boshlarida tug'ilgan deb hisoblash mumkin.²

Mahmud Qoshg'ariyning turkiy tillarga bag'ishlangan ikkita asar yozganligi ma'lum. Ulardan biri "Javohirun nahv fil lug'atit turk" ("Turkiy tillarning (sintaksisi) javohirlari" deb, ikkinchisi esa "Devonu lug'atit turk" ("Turkiy so'zlar to'plami") deb ataladi.

Uning semasiologiya sohasidagi fikrlari ham juda qimmatli. U so'zlarning ma'nolarini izohlabgina qolmay, ma'no o'zgarishlari yuzasidan ham nozik kuzatishlar olib borganligi ma'lum. Ma'noning kengayishi, torayishi va ma'no ko'chish usullari bilan birga so'zlardagi omonimiya va sinonimiya hodisalari ham asarda tilga olinadi.

Mahmud Qoshg'ariyning boshqa tillardan so'z olish masalasidagi pozitsiyasi uni bizning davrimizga yaqinlashtiradi. Chunki Mahmud Qoshg'ariy turmushda ishlatiladigan asbob va boshqa narsalar, kiyimlar, ovqatlar, dorilar nomlari sifatida kirgan chet so'zlarni zarur va foydali deb hisoblagan, bunday so'zlarni o'z asariga kiritgan. Ammo ona tilida mavjud bo'lgan so'zlar o'rnida chet so'zlardan foydalanishni zararli deb hisoblagan. Masalan, o'g'uzlarning qumg'on so'zi o'rnida forscha oftoba so'zini ishlatishlarini u tanqid qiladi.

¹ Qarang, Nurmonov A. O'sha asar, 26-28-betlar

² Qarang, Nurmonov A. O'sha asar. O'sha betlar.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asari tarixiy dialektologiya uchun, ayniqsa, qimmatli material va fikrlar beradi. Bu materiallar o'zbek xalq tilining shakllanishini yoritish uchun juda ham muhimdir¹.

"Devonu lug'ati turk"ning adabiy qimmati ham benihoya kattadir. Unda uch yuzga yaqin she'riy parcha va ko'plab maqol hamda hikmatli so'zlar bo'lib, shoir bunday she'riy parchalarga qisqa-qisqa sharhlar beradi, xalq maqollarining mohiyatini yoritib, ularning ishlatilish o'rnini ham ko'rsatadi.

Ardam boshi til²— adab va fazilatning boshi til, deb ta'kidlaydi.

ABUL QOSIM MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY

Uning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad (ba'zi manbalarda Ahmad) bo'lib, u hijriy 467 sana rajab oyining yigirma yettinchisida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075-yilning 19-martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamahsharda tavallud topgan va shu boisdan ham az-Zamaxshariy taxallusini olgan³.

Az-Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat emasdi. Lekin o'z davrining savodli, ancha taqvodor, diyonatli kishisi bo'lgan, aksar vaqtini Qur'oni Karim tilovati va toat-ibodat bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirinsuxan va g'oyatda muruvvatli kishi bo'lib, bu fazilati bilan el orasida katta obro'-e'tibor topgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham g'oyatda taqvodor va dindor ayollardan hisoblangan⁴.

Az-Zamaxshariy dastlabki bilimni ona yurti Zamahsharda o'z davrining o'qimishli kishilaridan sanalgan otasidan oladi. Uning shaxsiy hayotiga doir ma'lumotlardan yana shu narsa ma'lumki, uning bir oyog'i bo'lmay, yog'och oyoqda yurgan. Manbalarda cho'loqligining sabablari haqida ham turli-tuman rivoyatlar keltiriladi. Tarixchilardan ba'zilari, qahraton qishda sovuq olganligidan, deb yozsa, ayrimlari, bolaligida otdan yiqilgan deydi, yana boshqasi yoshligida bir nojo'ya ish qilib qo'yganligi uchun onasining qarq'ishiga uchragan, deb yozadi⁵. Ammo yoshligidan ilmga havasmand Mahmud oldiniga Xorazmda madrasada, keyinchalik Buxoroda hamda dong'i ketgan madrasalarda tahsil oladi.

Az-Zamaxshariy o'z davrining buyuk olimi darajasiga ko'tarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jo'g'rofiya, tafsir, hadis, fikh va ilmi alqiroatga oid ellikdan ortiq asarlar yaratdi. Ularning ko'pi bizgacha yetib kelgan.

ZAMAHSHARIY HIKMATLARIDAN NAMUNALAR

- Agar tilingning ortiqcha so'zlashiga ega bo'la olmasang, unda tizgining jilovini shaytonga topshirgan bo'lasan.
- Men ro'zadorman deysan-u, ammo o'zing bo'lsa birodaring go'shtini yeysan. (g'iybatlar va xo'rliklardan so'zlaysan).

¹ Usmonov. Umumiy tilshunoslik. -T. 1972. 50-52 betlar.

² Makhlayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. -T. 1976. 107 -bet.

³ Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. -T. 1992. 4-bet.

⁴ Qarang: Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. O'sha asar. 5-bet.

⁵ Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. O'sha asar. 6-bet.

- Tilingdan chiqqan sadaqa (ya'ni pandu nasihating va mav'izayu hasanang) ba'zan qo'lingdan (mol-dunyongdan) chiqqan sadaqangdan ko'ra xayrliroqdir.
- Ko'p so'z-iboralar borki, odamlarga ular fasohatli ko'rinsa-da, Alloh nazdida ular nomaqbuldir -- so'zlovchini ham, eshituvchini ham mulzam qilur.
- Ko'p ortiqcha so'zlashuv eshituvchini ranjitar.
- Vijdon azobiyu ta'nadan to'g'ri bo'lmagan odamni (kimsani) ta'lim-tarbiya va qiynash ham to'g'rilashi amrimahol.
- Tili-yu dili to'g'ri va haqo'iy bo'lgan odamning xatoyu nuqsoni kam bo'lur.
- O'z va'dasida turmaganda turli-tuman vaj karsonlar ko'rsatuvchi kimsa hech qachon mard va himmatli inson bo'lolmaydi.
- Aldamchilik va hiylakorlik bilan mashhur bo'lgan bursaq degan yirtqich hayvondan ham ko'ra ba'zi Bani odamlar ko'proq aldamchiroqdir.
- Tog' tepasidagi qoyalarni ko'chirish minnat eshitish yuklariga nisbatan yengilroqdir.
- Biror masalada fikr-mulohaza qila boshlaganingda hech bir oshiqma, har tomonlama o'ylab, obdon fikrlab ish tutgin.
- Sidqidil va saxiy kimsaning qalbidan boshqa narsani sirlarning sandig'i qilma, ya'ni har bir uchragan kimsani sirdosh etmagin.
- Ey bo'tam, tilingni yomon so'zlardan saqla.
- Kimki baxt - iqboli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murodu maqsadiga erishib, xayru baraka topar¹.

YUSUF XOS HOJIB

Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Uning hayoti va faoliyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim") dostonidir. Bu doston hijriy yil hisobi bilan 462- (milodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi ellikdan oshganini ta'kidlaydi. Shunga qarab Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillari arafasida tug'ilgan, deb ayta olamiz. Yusuf Xos Hojibning vatani – Balasog'un (Quz o'rdi) XI-XII asrlarning yirik savdo-sotiq hamda madaniy markazlaridan biri edi. Bu shahar ikki marta qoraxoniylarning poytaxti ham bo'lgan edi².

"Qutadg'u bilig"ning uch qo'lyozma nusxasi ma'lum. Bu nusxalar "Vena" (yoki "Hirot"), "Qohira" va "Namangan" nusxalari deb yuritiladi. Birinchi nusxasi XIX asrning 20-yillarida Istambulda topildi. – Hirot nusxasi. Ikkinchi qo'lyozma nusxasi 1896-yilda Qohirada topildi. – Qohira nusxasi, 1913-yilda Namanganda topildi – Namangan nusxasi³.

"Qutadg'u bilig" jami Namangan nusxasida 6500 baytga 13000 misraga yaqin bo'lib, u 73 fasl-bobga bo'lingan. O'n bir bobi dostonning muqaddimasi bo'lib, asosiy qismi 12-bobdan, Kuntug'di degan hukmdorning ta'rifi bilan boshlanadi⁴.

¹ Abul Qosim az-Zamahshariy. O'sha asar. 48-77-betlar.

² Balasog'unning vayronalari Qirg'izistonning To'qmoq shahri yaqinida bo'lgan qadimgi Qopeshin shahri o'rnida hozir ham bor. Mallayev N. O'sha asar. 1976. 111-bet.

³ Mallayev N. O'sha asar. 11-bet.

⁴ Mallayev N., O'sha asar, 16-bet.

“Qutadg‘u bilig” axloqiy-ta‘limiy asardir. Uning axloq va odob masalalariga bag‘ishlangan maxsus boblarigina emas, balki ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan maxsus boblarida ham Yusuf Xos Hojib o‘z axloqiy-ta‘limiy qarashlarini ifodalaydi. Xalqning turli tabaqalariga o‘git beradi, ularga pand-nasihat qiladi. Uning axloqiy-ta‘limiy fikrlari jiddiy ahamiyatga ega bo‘lib, madaniyat va ma‘rifatni ravnaq toptirishga, olijanob insoniy xislatlarni targ‘ib qilishga qaratilgan.

“Qutadg‘u bilig” didaktik dostoni axloq va odobga doir qimmatli pand-nasihatlarini o‘z ichiga oladi. Doston til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo‘ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so‘zlar so‘zlaydi, mayxo‘rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi, kishining yurish-turishi, o‘zini tutishi haqida o‘git beradi. Bular dostonning butun mazmuni va mohiyatiga singdiriladi.

“Qutadg‘u bilig”ning bir necha bobi bevosita axloq va odob masalalariga bag‘ishlangan. Shunday boblardan biri “Til ardami” (“Til odobi”) deb atalgan 7-hob bo‘lib, unda shoir o‘qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so‘zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o‘gitlar beradi:

Uqushqa biligka bu tilmachi til,
Yaruttachi arni yo‘riq tilni bil.
Kishig til og‘irlar bulur qut kishi,
Kishig til ujuzlar yarir ar bashi.
Til asrlan turur, ko‘r eshikda yatur,
Aya avlug orsiq boshingni yatur.
Tilin emgamish er naku ter eshit,
Bu so‘z ishka tutg‘il o‘zunga ish et.
Mani emgatur til ezi o‘g talim,
Boshim kasmasuni kasayin tilim.
So‘zungni ko‘dazgil boshing bormasun,
Tilingni ko‘dazgil tishing sinmasun...
Esanlik tilasa saning bu o‘zung,
Tilingda chiqarma yarog‘siz so‘zung.
Bilib so‘zlasa so‘z biligka sonur,
Biligsiz so‘zi o‘z boshini yeyur.
O‘gush so‘zda ortuq osig‘ ko‘r madim,
Yana so‘zlamishida osig‘ bulmadim.
O‘gush so‘zlama so‘z birar so‘zla oz,
Tuman so‘z tugunin bu bir so‘zda yoz.
Sanga so‘zladim man so‘zum, ey o‘g‘ul,
Sanga bardi bu pand o‘zum, ey o‘g‘ul...¹
Uquvga, bilimga tilmoch – bu til,
Kishini ro‘shnolikka chiqargan ravon til deb bilgin.
Kishini til e‘zozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi,
Kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi.
Til hovlida (ya‘ni qafasda) yotgan arslon kabidir,
Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.

¹ Mallayev N., O‘sha asar, 128-bet.

Tili tufayli ozor topgan kishi nima deydi, eshit,
 Bu soʻzga amal qilgin, oʻz foydangga ishlat:
 Til meni juda koʻp kulfatlarga soladi,
 (U) boshimni kesmasin, (men) tilimni kesayin.
 Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,
 Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin...
 Sening oʻzing esonlik tilasang,
 Tilingdan yarogʻsiz soʻzingni chiqarma.
 Bilib soʻzlasa, soʻz donolik sanaladi,
 Nodonning soʻzi oʻz boshini yeydi.
 Koʻp soʻzda ortiq foyda koʻrmadim,
 Yana (koʻp) soʻzlashdan naf topmadim.
 Soʻzni koʻp soʻzlama, bir oz ozroq soʻzla.
 Tuman ming soʻz tuguni (jumbogʻi)ni shu bir soʻzda yech.
 Men soʻzimni senga soʻzladim, ey oʻgʻil,
 Bu pandni oʻzim senga berdim, ey oʻgʻil.

Yusuf Xos Hojib shoir sifatida badiiy soʻzning qimmatini va taʼsir kuchini alohida taʼkidlaydi, oʻz soʻzini koʻp oʻrinda „shoir tilidan“ (donishmandlar tilidan) soʻzlaydi va yaxshi soʻzni har qanday oltin-kumushdan ham ortiqroq biladi:

Kumush qolsa oltun maning sanga,
 Oni tutnagʻil san bu, soʻzga teng-a:
 Kumush ishka tutsa tugar olqinur,
 Soʻzim ishga tutsa kumush qizgʻonur.
 Mendan senga kumush, oltin qolsa,
 U (lar)ni sen bu soʻzga teng tutmagin.
 Kumushni ishga solsang tugaydi, olqinadi,
 Soʻzimni ishga tutsang. (sen uchun) kumush qozonadi¹.

50-topshiriq. Matnni oʻqing va tarjima qiling.

АБУ АЛИ ИБН СИННА

Замечательный философ и врач средневековья Абу али Хусейн ибн Абдуллах ибн Сина (930-1037) считал, что основа искусства сохранения здоровья состоит в соблюдении соразмерности причин, влияющих на здоровье. «Основное внимание нужно уделять уравниванию семи факторов. Их суть: 1) уравниженность природы; 2) выбор птицы; 3) очистка тела от излишков; 4) сохранения правильного телосложения; 5) улучшения того, что вдыхается через нос; 6) приспособление одежды; 7) уравниженность духовного и физического движения. К последнему относится в какой-то мере сон и бодрствование». Ему же принадлежит «Трактат по гигиене», который публикуется в этой книге как приложение. Это и то, на сколько мы привыкли заниматься физическими упражнениями, и то на сколько мы привыкли к общению с природой, с близкими нашему сердцу

¹ Malfayev N. O'sha asar. 128-129-betlar.

людьми, то есть все то, что мы совершаем в повседневной жизни. Таким образом, сохранения здоровья, в первую очередь, зависит от того образа жизни, который мы ведем.

Одна из легенд повествует о падишахе, который так занемог, что вылечить его не смог ни один табиб. Шли дни и недели, а падишаху не становилось лучше. И вот однажды приближенные привели во дворец странствующего лекаря, который проходил через этот город. Он внимательно осмотрел падишаха, побеседовал с ним и молвил: «Мой повелитель! Ваш недуг в ваших глазах». Падишах рассердился: «Мои глаза прекрасно видят, и я не жалею на них. Если хотите знать, моя беда кроется внутри меня, я расстроен, мне всё не по душе, я плохо сплю». «Я верю в ваше исцеление. Если вы хотите поправиться вы должны следовать моим советам», – произнес странник.

И отправились падишах с лекарем и со свитой в путешествие в далекую долину. Двое суток проспал падишах, а проснувшись, удивился: у подножия горы течет река и блики солнца отражает вода, зеленая трава, цветы благоухают, поют соловьи. Не веря глазам своим падишах, как младенец, стал бегать, и ему почудилось, что изо рта вылетел неприятный воздух. За неделю проведенную в долине, падишах окреп и повеселел. Это и явилось причиной вашего недомогания. Ваше выздоровление в общении с природой. Реки, горы, сады способны исцелять и успокаивать душу, так ответил ему лекарь.

Органы слуха, как и глаз, утомляются от однообразия и шума. Поэтому каждый человек испытывает потребность в красоте, тишине, покое. Полезно слушать музыку, щебетания птиц, шум воды, шелест листьев.

Прежде всего, человеку очень полезно дышать чистым воздухом. Чистый воздух, аромат цветов, трав полезны для организма человека, они продлевают его жизнь. Очень полезно спать на свежем воздухе. Отмечено также, что некоторые люди сами не замечают, как привыкают к запахам своей профессии. Рассказывают, что один человек родился в семье пекарей, и прожив тридцать лет рядом со свежесвыпеченным хлебом, приехал в другой город. Через некоторое время он стал страдать головной болью, но сколько бы он не лечился ничего не помогло. Соскучившись по родителям, он приехал домой и, зайдя во двор, почувствовал запах горячих лепешек. Устав с дороги лег спать, а когда проснулся от головной боли ни следа не осталось. Один знакомый лекарь так объяснил ему его выздоровление: так как он долгое время жил в доме, где пекли хлеб, а потом приехав в другой город он забыл запах хлеба, что стало причиной его головной боли. Таким образом, знакомый с детства воздух оказался целительным для этого человека.

51-topshiriq. “Alisher Navoiy – buyuk ma’rifatparvar” mavzusida stenariy main yozing.

ABU RAYHON BERUNIY

Abu Rayhon Beruniy 973-yil 4-sentyabr Xorazmning Kat shahrida tavallud topgan. Beruniy juda yoshligidan ilm va fanga qiziqadi. U sevgan fanlar –

astronomiya, matematika, geodeziya, geografiya va mineralogiya edi. U o'zining "Geodeziya" asarida 990-yil Kat shahrining geografik kengligini aniqlaganini yozadi. Beruniyning matematika va fanning boshqa sohalariga qo'shgan hissasini yozib qoldirgan 100 dan ortiq asaridan ham ko'rish mumkin. Beruniyning 152 asari ma'lum bo'lib, bizgacha uning faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag'ishlangan.

Beruniy 1048-yil 11-dekabrda 75 yoshida G'aznaniylar davlatida vafot etadi.

Grammatik mavzu: ATAMALAR VA ULARNING VUJUDGA KELISHI

Ilm-fan, texnika, san'atga yoki biron kasb-hunatrga xos so'zlar atamalar deb ataladi. Bular odatda bir ma'noni bildiradi: urg'u, kesim, undalma va boshq. Atamalar 2 ta guruhga bo'linadi:

1) ilmiy atamalar ma'lum bir fan, san'at yoki texnika sohasida qo'llaniladigan atamalardir. Ular ikki xil usul bilan hosil qilinadi:

a) umumxalq ishlatadigan so'zlar orasidan ayrimlarining ma'nosi torayib, umumxalq tilida bir ma'noni, ilmiy nutqda esa boshqa ma'noni ifodalaydigan bo'lib qoladi. Bunga o'xshagan atamalar tilimizda anchagina: so'z turkumlarining nomlari – ot, sifat, son, fe'l, ravish; matematikaga oid atamalarning ayrimlari – ildiz, sur'at, to'plam va h.k. so'z turkumi nomini bildiradi.

b) boshqa tillardan so'z olish orqali hosil qilinadi: *omonim, kasr, tangens, musbat, sinus, manfiy* va h.k.;

2) kasbiy atamalar, nomlanishidan ko'rinib turganiday, ma'lum bir kasb-hunarga oid sozlardir. O'qituvchilik kasbiga doir atamalar: *reyting, yillik baho, sinf jurnali, pedkengash* va h.k.

Tikuvchilik kasbiga doir atamalar: *andoza, angishvona, qatim, bichiq* va boshqalar.

Atamalar sinonimiyasiga misollar yozing.

Masalan: Qamoqqa olmoq – hibsga olmoq

Zarar-ziyon – shikast

Javobgar shaxs – mas'ul shaxs

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatlardan biri sifatida o'zining bir necha bosqichli ta'lim-tarbiya tizimiga egaki, u qanchalik rivojlangan, malakali, salohiyatli va mahoratli mutaxassislarining soni ham ortib boraveradi. Albatta, bu tizimda ham nutqiy imkoniyat, nutqiy malaka, nutqiy ko'nikma, nutqiy did, nutqiy salohiyat, nutq odobi, so'z tanlash va so'z qo'llash unda ta'lim-tarbiya olayotgan metodikasi, talaba va magistrning umumiy, ilmiy hamda mutaxassislikka oid savodxonliklarini so'zsiz, yana ham yuksaltiradi. Ta'lim tizimidagi hamma sohaning o'z muammolari bor bo'lgani singari ularning umumiy muammolari ham mavjud. Ularning umumiy muammosi atamalarni to'g'ri va o'rinli qo'llashdir.

O'zbek tili atamashunosligida ilgari mavjud bo'lgan jumhuriyat. munajjim, baynaminal tipidagi ko'pgina atamalar o'rmini ruscha baynaminal atamalar egallaydi. Bir qator so'zlar borki, ularni hozirgi metodist va talabalar maxsus lug'atlarsiz tushuna olmaydilar: *munshiy, qozi, dodxoh, harom, avrapo'sh, sipohsolar, viqor, vojib, voiz, axbor, misqol, mufti, koranda, chorakor, qushbegi, pansod* kabi. Bu so'zlarning bir qismi tarixiy so'zlar sifatida, bir qismi eskirgan so'zlar sifatida ishlatilmoqda.

Ilmiy maqolada ishlatildigan termini to'g'ri anglamagan, tushunmagan ikkinchi bir ilmiy xodim, o'sha maqoladagi fikrni to'la anglab yetmasligi mumkin, metodist esa o'qituvchi fikrini to'g'ri anglamaydi va tushunmaydi.

Ilm-fan, texnikaning biror sohalariga xos muayyan tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki birikma atama deyiladi. Demak, tildagi umum-iste'moldagi so'z ilmiy atamaga aylanishi mumkin.

Atamalar ilmiy uslubning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi asosiy lug'aviy xususiyat hisoblanadi. Ular ma'lum sohaga tegishli bo'ladi.

ATAMA VA ATAMASHUNOSLIK

Shu kunga qadar bir nechta fanlarni o'qidingiz. Har qaysi fanda ma'lum ilmiy tushunchalar, o'ziga xos so'zlarga duch keldingiz. Masalan, kimyo fanidagi suv so'zining ma'nosi umumxalq tilida qo'llaniladigan suv so'zining ma'nosidan farq qiladi. Xuddi shunday holatni temir, oltingugurt, oltin singari so'zlarda ham kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, turli kasb-hunar tarmoqlarida ham umumxalq tilidan ma'nosi chegaralab olingan so'zlar qo'llaniladi. Masalan, chevarchilik sohasidagi suv so'zining ma'nosi umumxalq tilidagi suv so'zining ma'nosidan tamomila farq qiladi. Shuningdek, duradgorlik sohasida ishlatiladigan qosh so'zining ma'nosi umumxalq tilidagi qosh so'zining ma'nosidan yanada boshqacharoq. Atamalar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari negizida hosil qilinishi bilan birga, boshqa tillarda ham tayyor holda olinadi. Masalan, menejment, kansalting kabi.

Atamashunoslikning o'rganish birligi **atamalar** (terminlar) dir. Har bir fan, kasb-hunar tarmog'i atamalarsiz ish ko'ra olmaydi. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi qoshida barcha fan, kasb-hunar sohalarida atamalarni tartibga solish muammosi bilan shug'ullanuvchi atamashunoslik qo'mitasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Atamalarni mumkin qadar milliyashtirish, tilimizning ichki imkoniyatlaridan atamalar yaratishda unumli foydalanish, shu bilan birga, iqtisodiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotimizga doir yangi tushunchalarni ifodalovchi chet tillidan kirib kelgan atamalarni ham zarur hollarda qabul qilish (kompyuter, fermer, dizayn) hozirgi atamashunosligimizning bosh tamoyili sanaladi. Shuning uchun ham xalq o'rtasida keng iste'molda bo'lgan **aeroport (tayyoragoh emas), institut (oliygoh emas), avtobus (ko'pkursi emas), telefon (durovoz emas), samolyot (uchoq emas)** kabi atamalar tilimizda saqlanib qolindi.

52-topshiriq. Berilgan atamalarni sohasiga ko'ra ajratib, ularga ta'rif bering (lug'atdan foydalanmang).

Bozor, birja, qonun, nota, dahlsizlik, bankrotlik (sinish), huquqiy norma, vakolat, da'vogar, tadbirkorlik, diplomat, broker, kredit, firma, lizing, ijara, bankrot, litsenziya, inqiroz.

53-topshiriq. Quyidagi atamalarni eng oson yo'l bilan misollar yordamida izohlang. So'ng ularni lug'atda berilgan izohi bilan solishtiring. Sizing misolingiz ushbu atamaning ma'nosini to'liq ochib bera oldimi?

Talab va taklif, erkin almashiriladigan valyuta, o'rtoqlik sudi, kodeks, manifest, budjet, monopoliya, musodara, muxtor elchi, ajrim.

54-topshiriq. Hozirgi kunda o'zbek tiliga kirib kelgan qanday yangi so'zlarni bilasiz? Sohangizga oid yangi atamalarni yozing.

55-topshiriq. Quyida qanday atamalarning izohlari berilganini toping.

1. *Qisqa xulosa*
2. *Yuqori malakali yo'llangan boshqaruvchi*
3. *Mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish*
4. *Mahsulotni sotish choralari majmuyi*
5. *O'rta maxsus o'quv yurtlari*
6. *Idora, korxon, firma egallagan joy*
7. *Rasmiy dallol*
8. *Qarzini to'lashga qurbi yetmagan korxon*

56-topshiriq. Lingvistik va matematik terminlarni alohida ustunlarga yozing.

Qo'shuv, kelishik, unli tovush, ayiruvchi, undosh tovush, ko'paytirish, bo'lish, sifat, aylana, fe'l, olmosh, gap, oddiy kasr, mahraj, o'nlik, aniqlovchi, to'ldiruvchi, tenglama, masala, so'z birikmasi.

57-topshiriq. Gaplarni o'qing, ajratilgan so'zlarni atama sifatida ishlatib, gaplar tuzing.

1. *U tadbirkorlik bilan qiyin vaziyatdan chiqib ketdi.* 2. *Amir Temur sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga yordam bergan.* 3. **Takliflaringiz** bo'lsa, yozib qoldiring. 4. *Bahor elchilari* – qaldirg'ochlar har bir hovliga fayz va baraka olib keladi. 5. *Bu ishda mening ham munosib hissam bor.* 6. *Nusratbek bo'lsa, ko'chaga chiqqanda, bekklik da'vosini qilib, uyiga kirganda – Xushro'ybekka mute.* 7. *Haqiqatni gapirsak, yomon olliqlik qildingiz, ig'vogar, yurt buzugi, hasadgo'y dedingiz.* 8. *Anvarni eng xursand qilgan narsa domlarning asrandi o'g'li maqomini olishi bo'ldi.*

58-topshiriq. Atamalarning antonimini toping va ularga ta'rif yozing.

Deflatsiya, buromad, tanglik, ulgurji baho, daxtsizlik, ozodlikdan mahrum etish, qonunsizlik.

6. Nutqiy mavzu: Vatan va vatanparvarlik

Grammatik mavzu: Ijtimoiy-siyosiy leksika

Vatanparvarlik – yolgiz o'z vatanga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu – vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqotish demakdir.

A.N. Tolstoy

VATAN NIMA?

Vatan atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Bir xalq vakillari jamul-jam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, bu keng ma'nodagi tushunchadir. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'nodagi tushunchadir. O'zbeklarda falonchi vatanli bo'ldi, deyilganda, o'sha odam uy-joyli, boshpanali bo'ldi, degan ma'no anglashiladi. Hazrat Alisher Navoiy Vatan tushunchasini ona yurt, o'rin, tug'ilib o'sgan joy, maskan, manzil ma'nolarida ishlatganlar.

Shuningdek, Vatan so'zi badiiy adabiyotda ko'chma ma'noda ko'ngil mulkining maskani tarzida ham qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi o'zbek millatining vatanidir. Bu o'rinda davlat va Vatan ayni bir ma'noni ifodalaydi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi deganimizda Vatanimizni tushunamiz, Vatan deganda O'zbekiston Respublikasini idrok etamiz.

(“Vatan tuyg'usi” kitobidan)

VATAN

Vatan – muqaddas tushuncha. Vatanni sevmok iymondandir, deyiladi hadislarda. Vatanni sevish deyishning o'zi nima? Uni so'z bilan ta'riflash, ko'z bilan ko'rishning iloji bormi? Vatanni sevish, aslida, farzandning ota-onasi yuzlariga termulganda his etadigan nur, ziyo emasmi?! O'z mahallang, qishlog'ing koriga yarashni o'ylash. kimgadir yordaming tekkanligidan mamnuniyat hissini tuyish, o'zi yashayotgan maskanning bir bo'lagi deb his etish Vatanni sevish emasmi?!

Demak, Vatanni sevish unga bo'lgan cheksiz muhabbat bilan ifodalanan ekan, unda Vatan tushunchasiga qanday ta'rif berish mumkin? Bu so'zga har kim o'z fikricha yondashadi. Lekin yosh-u qarining Vatan haqidagi fikrlarida uning muqaddasligi ifoda etiladi. Chunki bu muborak Vatanni sevish, unga bo'lgan farzandlik burchini his etish bizga ona mehri bilan yo'g'rilgan sut orqali singgan.

Vatan deganda, ko'z oldimda jonajon uyim, ota-bobolarim yurti bo'lgan go'zal qishlog'im, men uchun dunyodagi jamiki boyliklardan ham qadrli ota-onam, yaqinlarim birin-ketin gavdalanadi. Ota-onam va yaqinlarim, men sevgan insonlarning menga bo'lgan qaynoq mehrlari bilan vatanim mehri qiyos qilaman. Qay biri “yutib chiqadi?” dersiz. Aslo! Ular bir-birini to'ldiradi, ularni ajratib bo'lmaydi, ular birgalikda bir butun. Bu qaynoq mehr taftidan qalbimda ertangi kunimga, hayotga nisbatan yuksak qat'iyatga sug'orilgan umid chechaklari gullaydi.

Bu holatni, yuksak mehmi hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi, chunki ular men uchun har narsadan aziz va qadri.

Har bir ijodkor borki, vatanga bo'lgan muhabbatini izhor etish uchun oz bo'lsa-da ijod qiladi, vataniga bag'ishlab ash'orlar bitadi. Ularning ba'zilarida bir xil baland parvoz gaplar aytilsa, ba'zilarida haqiqiy, vatanga bo'lgan muhabbatning hokisorligi sezilib turadi. Ana shunday hokisor muhabbatni Muhammad Yusuf, Abdulla Oripov, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov kabi qator ijodkorlar she'rlarida ko'rishimiz qiyin emas. Vatanga bo'lgan beg'ubor muhabbat taniqli adabiyotshunos, buyuk munaqqid Ozod Sharafiddinovning "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan..." maqolasida ham juda chiroyli ifoda etilgan. Bu maqolani ko'p bora takroran o'qiganman, lekin har gal o'qiganimda o'zgacha ma'no topaveraman, ilk bora o'qiyotganday hayajonlanaman. Bu ta'sir ustoz otgan o'qlarining "nishon"ga tekkanidan darakdir, balki.

Maqolani o'qir ekanman, Ozod domlani quyidagi fikrlaridan judayam ajablanaman: "... Vatan oldidagi farzandlik burchimni o'tay olmayapman, deb o'kinib qo'yanan. Bu o'kinch meni ko'p narsalar to'g'risida o'ylashga undaydi..." Vo' ajab! Bor umrini, ijodini el dardi, xalq g'ami uchun baxshida etgan insonning bu so'zlari nimadan darak? Butun hayotini Vatan ravnaqi uchun sarflagan inson shu so'zlarni aytganda, biz nima deyishimiz kerak?! Ustoz vatanni "Olloh tuhfasi" deya e'zozlaydi. Ajdodlar qoldirgan xazinalarni "tekin meros ekan, deb uning boyliklarini bir chekkadan sovraverishim kerakmi? Axir, yotib yesa tog'chidamas ekan", -degan fikrlari bilan "kuyib-yonib" yozadi. Xalqimizda: "Aqlli insonlarning muhabbati ham aqlli bo'ladi", - degan gaplar yuradi. Ustozning Vatan taqdiriga chin dildan yonib, achinib yozayotgan so'zlari shunchaki so'zlar emas, balki vatanini chin dildan yonib sevadigan vatanparvar farzandning qalb madhiyasidir. Vatanga ta'rif, uning taqdiriga achinish haqida hali hech kim bunchalik yuksak darajada qalam tebratmagan bo'lsa kerak. Chunki bu ishning o'zi ham insondan katta qalb, mustahkam iroda talab etadi. Ozod Sharafiddinov aynan shu maqolasi orqali vatanga mehr, haqiqiy Vatan farzandi qanday bo'lishi kerakligini insonlarga eslatib qo'ydi. Adibning "Vatanga muhabbat bozorga solinadigan matoh emas, balki inson qalbining to'rida gard yuqtirmay pokiza saqlanadigan eng nafis, eng inja bir tuyg'udir" kabi qator fikrlari yuqoridagi so'zlarning rad etib bo'lmas isbotidir.

Vatan haqida so'z ketganda, o'zbek ekanligimga, O'zbekiston atalmish muqaddas zaminda tug'ilganligimga ming bora shukrona aytaman. Chunki dunyoda vatanimning qiyosi yo'q! To'g'ri, har kim o'z vatanini maqtaydi, lekin men uning go'zalligi, moddiy yoki ma'naviy boyliklari uchun maqtamayman. Men Vatanimni mehnatkash xalqi, saxovatpesha yurtboshi borligi uchun, vatanimda o'tayotgan har bir tinch kunim uchun sevaman. Xo'sh, aytingchi, qaysi yurtning odamlari tinch va osuda Vatan bag'rida yashayotganligidan shukrona aytib uyg'onadi, bir xo'plam choyini erta tongda muqaddas oilasi bag'rida xurramlilik bilan ichadi?! Faqat O'zbeklarda!!! Shunday ekan, bu go'zal zaminni sevmay bo'ladimi?! Vatanga bo'lgan muhabbatni ifodalash uchun har bir Vatan farzandi yoshi, mansabidan qat'i nazar qo'lidan kelganicha Vatani uchun xizmat qilishi kerak. Ozod Sharafiddinov "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasida aynan shu haqda ta'kidlab

oʻtadilar: "Vatan uchun kimlar nimalar qilmagan? Birovlar Vatan deb jon fido qilgan, birovlar Vatan deb gap sotgan...". Ushbu gaplarning isboti tarzida olim misollardan ham oʻrinli foydalangan:"...Men falon sohada Vatan uchun oʻttiz, qirq yoki ellik yil xizmat qilib qoʻyganman..." – deydiganlar ham oramizda uchratganligini yozadilar va buni "Vatanga muhabbatimizni koʻproq "gap sotish" yoʻli bilan ifodalashga berilib ketmayapmizmi?" – deydilar. Vatan, unda qurilayotgan jamiyat bir uyga oʻxshaydi.

Akademik shoirimiz Gʻafur Gʻulom taʼbiri bilan aytganda, Vatan tuprogʻida yashayotgan har bir inson oʻsha uyga "bir gʻisht" "qoʻya olsa, u haqiqiy Vatan farzandidir. Oʻzbek zaminida yashar ekanmiz, Vatanimizning "hayot imoratiga" "bir gʻisht" qoʻya olsakina Vatan oldidagi farzandlik burchimizni oz boʻlsa-da, ado etgan boʻlamiz. Shundagina Vatanga boʻlgan muhabbatni ifodalovchi soʻzlar shunchaki "gap sotish" emas, haqiqatga aylanadi! "Eng mukammal jamiyatni ... hech kim bizga oltin tovoqqa solib tutmaydi. Uni har kim oʻz sohasida, birov qoʻli bilan, birov aqli bilan oʻz vazifasini oʻtab yaqinlashtiradi", – deb yozgan edi betakror ijodkorimiz Abdulla Qahhor. Demak, qay bir sohada boʻlmasin, Vatan uchun xizmat qilish mumkin. Balki, Vatanga xizmat, farzandlik burchini oʻtash kabilar shunchaki aytilgan gaplardek tuyular, lekin bir oʻylab koʻring-a, bizni bir umr kaftida asrab oʻstirgan Vatanga qachon "qarzlaringizni toʻlaymiz"? Vatan uchun qancha xizmat qilmaylik, uning oldidagi burchlarimizni toʻliq ado eta olmaymiz.

Tugʻilganimizdanoq bizni oʻstirgan Vatan ruhimiz tanamizni tark etsa-da. "tashlab qoʻymaydi", jonsiz tanamizni ham ona Vatan oʻz bagʻriga oladi. Shunday ekan, aziz zamondoshim, Vatan uchun, uning kelajagi uchun bor mehringizni, shijoatingizni berib harakat qiling. Har daqiqa, har soniyada Ozod domla keltirgan quyidagi misralar yuragingizda Vatan oldidagi burchlaringizni yodga solib turuvchi "uygʻotgich"ga aylansin:

Vatan-ona soʻzi naqadar laziz,
Sensan har narsadan moʻtabar, aziz.
Hurmatini saqlar har bir oʻgʻil-qiz,
Muqaddas, moʻtabar, ulugʻ Vatanim
Oʻlsam ayrilmasman quchoqlaringdan...

59-topshiriq. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing.

"SHAHIDLAR XOTIRASI" YODGORLIK MAJMU'I

"Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuyi Toshkent shahrining Yunusobod tumanidagi Boʻzsuvi sohilida 2000-yil 12-may kuni tantanali ravishda ochilgan ziyoratgohdir. Ushbu yodgorlik majmuyini bunyod etish gʻoyasi ilk bor Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi Farmoyishiga ilova etilgan "Qatagʻon qurbonlari" yodgorligi toʻgʻrisida nomli maʼlumotnomada koʻtarilgan. "Ezgu va xayrli ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida begunoh qurbon boʻlgan, surgun va qamoqlarda behad jabr-zulm koʻrgan, begona yurtlarga bosh olib chiqib ketishga majbur etilgan ming-minglab vatandoshlarimizning nomlarini xotirlash va qadrlash uchun poytaxtimiz Toshkent shahrida "Qatagʻon qurbonlari" yodgorligini

oʻrnatish maqsadga muvofiqdir”, – deyiladi mazkur hujjatda. Uni qurish uchun Boʻzsuv kanalining Toshkent teleminorasiga yaqin sohili tanlangan. Chunki, 20-yillar oxiridan 40-yillarning boshiga qadar bu joyda uchta qatlgoh boʻlgan va ularda minglab vatandoshlarimiz oʻldirilib, koʻmib tashlangan.

Bu yodgorlikning sobiq qatlgohlardan birida qurilishi oʻzbek xalqiga qarshi ongli ravishda va rejali asosda olib borilgan qirgʻin va qatagʻonlarni achchiq tarixiy xotira sifatida eslatib, shoʻro tuzumining asl mohiyatini fosh etadi, xalqimizda mustaqillik va uning qadriyatlariga sadoqat uygʻotadi, maʼnaviyat va milliy mafkuraning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. 17 gektarlik maydonni oʻz ichiga olgan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuyida baland ustunlarga tayangan moviy gumbazli rotonda qurilgan boʻlib, unda qatagʻon qurbonlarining ramziy qabri joylashgan. Bogʻning oʻrtasini Boʻzsuv kesib oʻtadi. Daryo ustiga qurilgan koʻprik yodgorlik majmuyining ikki muhim inshooti – rotonda bilan Qatagʻon qurbonlari xotirasi muzeyini oʻzaro bogʻlaydi. Yodgorlik majmuyining «yuragi» ramziy sagʻana boʻlib, u oʻzida sobiq shoʻrolar mamlakatining barcha qatlgohlarida oʻtilgan va azobgohlarida qolib ketgan ajdodlarimiz yodini mujassamlashtiradi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni oʻqing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing;
- c) matnni rus tiliga tarjima qiling;
- d) Vatan ozodligi uchun jonini qurbon qilgan yurt farzandlari haqida bayon yozing.

BUXORO

Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abdulxoliq Gʻijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qoʻshgan minglab allomalarning vatani hisoblanmish 2500 yillik tarixga ega Buxoro haqidadir. Birgina Buxoroning oʻzida 7000 dan ortiq avliyolar yashab oʻtgan. Islom ahli oʻrtasida Buxoro viloyati hududida joylashgan olamga mashhur “Yetti pir”ning qadamjolarini ziyorat qilish muqaddas haj ziyoratiga tenglashtirilgan.

Buxoro 2500 yillikdan ortiq boy tarixga ega. Buxoro shahriga eramizdan avvalgi 500-yillarda asos solingan boʻlib, qadimda u Varaxsha nomi bilan atalgan. Buxoro soʻzining soʻgʻd tilidan tarjimasi omadli joy maʼnosini anglatadi. Qadimiy Buyuk Ipak yoʻli Buxoro viloyati orqali oʻtgan va bu Sharif shahar ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va Islom dini madaniyatining yirik markazlaridan biri boʻlgan.

Buxoro viloyati hududida juda koʻplab betakror qadimiy obidalar saqlanib qolgan boʻlib, mustaqillik yillarida ular obod va goʻzal ziyoratgohlarga aylantirilgan. Ana shunday tarixiy obidalarning 2000 dan ortigʻi YUNESKO tashkilotining muhofazasiga olingan. Viloyatning boy madaniy meʼrosi ming yillar davomida butun dunyoni oʻziga rom etib kelgan.

Buxorodagi Labi-hovuz, Poyi qalʼa, Goushkon, Ark qalʼasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Zindon, Toishmachit, Chor Bakir. Baxovuddin, Sitorai moxi xosa, Chor

minor ansanblari o'zining go'zalligi, betakrorligi va milliy koloriti bilan yiliga 50000 ga yaqin sayyohlarni jalb etadi. Bu saqlanib qolgan obidalarning barchasi mahalliy me'morchilik maktabining naqadar oliyiligidan va betakrorligidan darak beradilar.

1500-yilda Buxoro shahri xonlikka aylantiriladi, 1756-yildan esa u Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Buxoro, ayniqsa Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida hozirgi ko'rinishiga keldi. Bu davrda Buxoro shahrida ko'pdan-ko'p masjid va madrsalar, minorai maqbaralar bunyod etildi. Bu davrlarda birgina Buxoroning o'zida 350 dan ortiq daha va 60 dan ortiq ichki bozorlar bo'lgan. Eski Buxoro ko'chalaridan yursangiz qadimgi sivilizatsiya va tarixiy sayohatga g'arq bo'lasiz. Uning barcha ko'chayu maydonlari moziy bilan hammasafdir.

Bugungi kunda ham Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining ilm-fan, hunarmandchilik, ma'naviyat va sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati axolisining ilmiy salohiyati, ma'naviy yetukligi hamda mehnatsevarligiga ko'ra Respublikada eng oldingi o'rinlarda turadi. Viloyat hududida tabiiy gaz, neft, grafit, betonit, marmar, granit, gips, oltinugurt, ohak va boshqa qurilish mollari uchun xom ashyoning boy konlari o'rganilgan.

Albatta, bu shahar haqida to'xtovsiz uzoq so'zlash mumkin. Buxoroning betakror xusn-ko'rkini bir bor ko'rganlarning xayoli va ko'z o'ngidan ancha vaqt ketmaydi. Fond forum tomonidan tashkillashtirilgan "Asrlar sadosi" milliy ko'rgazmasi uchun bu yil Buxoro shahri bejiz tanlanmadi. Buxoroga tashrif buyuring va bunga amin bo'lasiz.

TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent – go'zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko'plab yangi binolar, ko'chalar barpo etilmoqda.

1997- yilda Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O'zbekiston va Yunusobod yo'llari bo'ylab poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go'zal va ozoda bekatlari kishi ko'zini quvontiradi.

Toshkentda ko'plab madaniy muassasalar mavjud. Bog'lar, teatrlar, kontsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar, chet ellik ishbiarmonlar, xalqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliq qarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo'st O'zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi.

Jahonga yuz tutgan O'zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta'kidlashmoqda.

60-topshiriq. Matni o'qing. Mazmunini aytib bering

TOSHKENTDAGI BUNYODKORLIK ISHLARI

Barchaga ma'lumki, o'zbek xalqi o'imishdan o'zining bunyodkorligi, yaratuvchanligi va me'morchiligi bilan juda mashhur. O'zbekistonning butun dunyoga mashhur dur-gavhar shaharlari doimo barcha xalqlarni o'ziga rom aylab kelmoqda. Bu borada Toshkent shahri ham o'zining me'morchilik obidalari, ko'rkam binolari, so'lim bog'-u rog'lari bilan sayyohlarni hayratga solib kelmoqda.

Toshkentning 2007-yili "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi, bu borada katta me'morchilik obidalarini rekonstruksiya qilinishi va barpo etilishiga sabab bo'ldi.

Toshkent shahridagi Hazrati Imom majmuasida juda qisqa muddatda g'oyat katta bunyodkorlik, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Hozirgi kunda bu yerda Hazrati Imom jome' masjidi, Baroqxon madrasasi, Mo'yi muborak ziyoratgohi, Tillashayx masjidi, O'zbekiston musulmonlari idorasining binosi va boshqa noyob, betakror imoratlar joylashgan.

Birgina Eski shahar hududida amalga oshirilgan katta ishlarni olaylik. Bu yerlar bor- yo'g'i 10 yil avval qay ahvolda bo'lgani barchaga ma'lum. Hozirda esa u yerdagi ko'chalar kengaytirilgan, yangi ko'rkam turar joylar, zamonaviy modalar uyi, Bolalar ijodiyot markazi, supermarket, maktab va poliklinikalar, mahalla guzarlari barpo etildi.

Toshkent shahridagi "Chorsu", "Oloy", "Parkent", "Chilonzor", "Mirobod", "Farhod" kabi bozorlar tubdan rekonstruksiya qilingani, yangilari qurilgani ham ana shunday xayrli ishlardandir. Poytaxtimizda ayni paytda zamonaviy, ko'rkam va qulay yuzdan ortiq buyum bozori, dehqon bozori, shuningdek, qurilish materiallari savdosiga ixtisoslashgan bozorlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda sotilayotgan rang-barang mahsulotlarning bir qismi xorijdan olib kelinayotgan bo'lsa, asosiy qismi mahalliy tadbirkorlar tomonidan tayyorlanmoqda.

61-topshiriq. Matni o'qing. Mazmunini aytib bering.

OLIY MAJLIS BINOSI

Toshkent shahrining "Bunyodkor" maydoni yonidan o'tar ekansiz, beixtiyor e'tiboringizni ko'kka bo'y cho'zib turgan Oliy Majlis binosi o'ziga tortadi. Uning yal-yal tovlanib turgan sharqona uslubdagi gumbazi tepasida O'zbekiston bayrog'i hilpirab turibdi. Ushbu salobatli bino Sohobqiron bobomiz Amir Temur saltanatining muhtasham imoratlarini eslatadi.

Oliy Majlis binosi Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan "O'zbekiston Milliy bog'i"ning ro'parasida bunyod etilgan. Bu bino juda qisqa fursatda, ya'ni 1996-yil sentyabrdan 1997-yil dekabr oyigacha qurib bitkazilgan. Qurilishda yurtimizning eng mahoratli ustalari ishtirok etganlar.

Oliy Majlis binosi ichkarisida to'rtta kichik hamda bitta 450 o'rinli yirik zal bo'lib, unda chet ellik mehmonlar uchun maxsus 100 ta o'rindiqli qo'yilgan.

Oliy Majlis davlatimizning qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi. Unda mamlakatimiz miqyosidagi barcha iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi qonun va qarorlar qabul qilinadi.

Oliy Majlis umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanuvchi, viloyat, tuman va shahar okruglaridan nomzodi qo'yilgan 250 nafar deputatdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatligiga saylov kunigacha 25 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar. Deputatlarni Oliy Majlis raisi boshqarib turadi Oliy Majlis raisi va uning o'rinbosarlarining vakolat muddati besh yil hisoblanadi.

Jamiyat va insoniyatni qonunlar boshqarib turadi. Qonunning do'sti ham, dushmani ham yo'q. Uning oldida barcha teng va barobardir. "Hayot pillapoyalari omonat bo'lsa, balandga chiqib bo'lmaydi", — deydi donishmandlar.

Davlatimizning iqtisodiy barqarorligi, xalqimizning tinchligi va farovonligi hamda jahon maydonida O'zbekiston mavqeining yuksalishiga xizmat qiluvchi qonun va qarorlarni ishlab chiqarishda Oliy Majlis betinim faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

("Gulxan" jurnalidan)

Grammatik mavzu: IJTIMOY-SIYOSIY LEKSIKA (NUTQ)

Ijtimoiy-siyosiy (leksika) notiqlik:

1. Siyosiy-ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy mavzudagi nutq.
2. Sessiya, konferensiyadagi nutq.
3. Siyosiy nutq.
4. Diplomatik nutq.
5. Siyosiy sharh.
6. Harbiy vatanparvarlik nutqi.
7. Miting nutqi.
8. Ilmiy-ommabop nutq.

Notiqlikning birinchi katta turkumiga ijtimoiy-siyosiy notiqlik kiradi. Unda ijtimoi-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy axloqiy kabi mavzular hamda ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog'liq masalalar aks ettirilishi mumkin. Bunday chiqishlar tinglovchilarning muayyan xabardorlik darajasiga mo'ljallangan bo'lib, karra hajmdagi information ma'lumotni aks ettiradi. Maqsadiga ko'ra ijtimoiy-siyosiy notiqlik jamiyat hayotining muayyan sohalarida yig'ilib qolgan masalalarning amaliy yechimiga qaratilgan bo'lib, tavsiya beruvchi xususiyatiga ega. Shuningdek, bunday nutqlarning o'ziga xos jihatlaridan yana biri — u tanqidga uchrashi, yangi fikr — mulohazalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy notiqlik — siyosiy va hisobot nutqlari, sharhlar, mitinglar hamda targ'ibot nuqtalari kabi turlarga bo'linadi.

Siyosiy nutq — asosan rahbarlar tomonidan qilinadi va shuning uchun ham dasturiy xususiyatiga ega bo'lib, bunday nutqlarda davrning dolzarb masalalari, boy faktik materiallar aks ettiriladi.

Hisobot nutqi – bunday nutqlar nafaqat muhokama qilinadi, balki ma'qullanishi yoki ularga ayrim o'zgartirishlar kiritilishi ham mumkin. Shuningdek, qilingan nutq bo'yicha albatta qaror qabul qilinadi.

Sharh – notiqlikning bu turida muayyan vaqt oralig'ida davlat va jamiyat hayoti uchun katta ahamiyat kasb etgan turli voqea va hodisalar sharhi beriladi.

Tashviqot nutqi – yo'naltiruvchi va tushuntiruvchi tabiatga ega bo'lib, tinglovchilar his-tuyg'ulariga ta'sir qilishga qaratiladi. Tajribali notiq ta'sir etishning taqqoslash, esda qoluvchi obrazlarni keltirish kabi turli usul va vositalaridan unumli foydalangan holda ommani, bir guruh kishilarni aniq harakatlarga yo'naltiradi.

Akademik notiqlik – oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, ilmiy anjumanlarda o'qiladigan ma'ruza bo'lib, o'zida maqsadga yo'naltirganlik, bilish, dunyoqarash, tarbiya kabi funksiyalarni mujassamlashtiradi.

Ijtimoiy-maishiy notiqlik turli yubiley tantanalardagi nutq, o'tirishlardagi qadahlar, to'ylardagi suhandon hamda asosan boshqa xalqlarda urf bo'lgan marsiyalardir.

Bundan tashqari, notiqlikning alohida turi sifatida sahna notiqligi, teleradio jurnalistlari notiqligi, juma nomozi va amri-ma'rufalarda imom tomonidan qilinadigan va'zxonlik kabilar ham ajratiladi.


Notiqlikning zarur qoidalaridan biri – ko'zlangan maqsadga ko'ra nimaki aytish joiz bo'lsa, barchasini aytish va keraksiz narsani zinhor aytmasslikdir. Ma'ruzaning mazmuniga faqat ishonarli, ilmiy asoslangan qoidalarnigina kiritish lozim.

Yaxshi tuzilgan ma'ruzadan yig'ilgan faktik materaillar, misollar tusuntirish, isbotlar, tavsif va xulosalar markaziy g'oyaga xizmat qilishi, u bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim.

62-topshiriq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzasidan misol keltiring.

63-topshiriq. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin siyosiy nutqidan topib, uni o'zbek tiliga tarjima qilib yozing.

64-topshiriq. Harakatlar strategiyasi haqida gapirib bering.



2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning boshqa ustunlar yo'nalishlari bo'yicha HARA-KATLAR STRATEGIYASI

1. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

1.1. Demokratsik rivojlanishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

Davlat boshqaruvi tizimida Oliy Majlisning rahbarlik va nazorat funksiyalarini yanada kuchaytirish va o'zlashtirishga qaratilgan;

Har bir davlat xizmatdori fuqarolik jamiyatining manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, o'zlashtirish va o'zlashtirishga qaratilgan;



1.2. Davlat boshqaruvi tizimida:

1.2.1. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

1.2.2. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

1.2.3. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

1.3. Davlat boshqaruvi tizimida:

1.3.1. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

1.3.2. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;




1.3.3. Davlat boshqaruvi tizimida fuqarolik taqdiri boshqarishni ta'minlash, fuqarolik jamiyatini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy adolatni ta'minlashda Oliy Majlis palatasi, ijroiya qo'riqchisining rolini yanada kuchaytirish;

2. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

2.1. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

2.1.1. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

2.1.2. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:



2.1.3. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

2.1.4. Davlat va jamiyat qo'riqchisi, fuqarolik taqdiri boshqarishning ustunlar yo'nalishi bo'lib:

7. Nutqiy mavzu: Muzeylar – o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi ko‘prik

Grammatiki mavzu: Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanilishi

Yurtimiz tarixi, xalqimizning boy ma‘naviy merosi haqida tushunchaga ega bo‘lish, undan bugungi avlodni xabardor etishda muzeylarning o‘rni katta. Shu bois, mamlakatimizda mazkur muassasalar faoliyatini takomillashtirish, ularning zamon talablari darajasida ish olib borishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda.

MUZEY

Muzey (yun. Musion – muzalarga bag‘ishlangan joy) – tarixiy, moddiy va ma‘naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma‘rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san‘at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi.

Zamonaviy muzeylarning ko‘plariga tadqiqot va ta‘lim-tarbiyaviy vazifalarning bir butunligi xos. Muzeyning o‘ziga xos ilmiy ommaviy va tarbiyaviy shakllari – ekspozitsiya, ko‘rgazmalar. Zamonaviy ilmiy tasnifda muzey tur va sohalar bo‘yicha farqlanadi. Ijtimoiy vazifasiga ko‘ra ilmiy tadqiqot-ma‘rifat (muzeyning asosiy qismini tashkil etadi, ba‘zan ular xalq muzeyi, ommaviy muzey deb ham ataladi), tadqiqot (ilmiy tadqiqot institutlari qoshida o‘ziga xos laboratoriya vazifasini o‘tovchi) va o‘quv muzeyiga bo‘linadi. Sohalar bo‘yicha tarix, qishloq xo‘jaligi, tabiatshunoslik, san‘atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa muzeylarga bo‘linadi. Shuningdek, muzeyning memorial muzeylar, majmua o‘lkashunoslik kabi turlari bor.

Muzey katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradi: to‘plamlarni butlaydi va o‘rganadi; ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta‘mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo‘l-ko‘rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Tomoshabinlar bilan ishlashning eng muhim shakli ekskursiyasidir.

65-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

МЕДРЕСЕ КУКАЛЬДАШ

Медресе было построено в 1523 году визирем Дарвешхана Кукальдашом. Дарвешхан был средним сыном правителя своего времени Навруза Ахмадхон-Барокхона.

При строении медресе придерживались стиля традиционной композиции: это – широкий двор, вокруг него комнаты художры, айваны –

веранды. «П» образная дорожка соединяет художры с мечетью. Количество комнат насчитывалось до 38.

К концу XVIII века медресе остаётся без пристмотра и им пользуются в качестве каравансарая. Медресе Кукальдаш и расположенная рядом с ним мечеть Ходжа Ахрора Валий были разрушены при взятии Ташкента генералом русской армии Черняевым в 1865 г. Частичные восстановительные работы были проведены после землетрясений 1866, 1886, 1946 гг. Полностью медресе было реконструировано в 1930-1960 гг. и приобрело новый вид.

66-topshiriq. Soha muzeyi haqida ma'n tuzing.

O'ZBEKISTONDAGI MUZEYLAR

O'zbekistonda muzey 19 asrning 2-yarmida tashkil etila boshlagan. 20 asr boshida O'zbekistonda faqat 3 muzey — Toshkent o'lkashunoslik muzeyi (1876, hozirda O'zbekiston tarixi muzeyi), Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi), Farg'ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg'ona viloyati O'lkashunoslik muzeyi) bor edi. Ularning to'plamlari kam, ekspozitsiyalarining ko'pi tasodifiy materiallardan tashkil toptan. 20 asr 20-yillaridan turli sohadagi muzeylar tashkil etila boshladi. Muzeylar va madaniyat yodgorliklari davlat ixtiyoriga o'tkazilib, muhofaza qilina boshlandi. Ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, muzey uchun kolleksiyalar to'plash ishi yo'lga qo'yildi, ko'plab muzeylar tashkil etildi. Hozir O'zbekistondagi muzeylarning asosiy qismi O'zbekiston madaniyati ishlari vazirligi qaramog'ida. Yirik muzeylar: O'zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi (1918), Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi, O'zbekiston tabiat muzeyi (1876) va boshqalar. Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida o'lkashunoslik muzeyi, jahon ahamiyatiga molik memorial muzeylar bor.

67-topshiriq. Matni o'qing va gapirib bering.

TEMURIYLAR TARIXI DAVLAT MUZEYI

Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida bunyod etilgan tarix muzeyi (1996). Muzey o'rta asr me'morligi ana'nalari asosida aylana tarxli, tomi gumbazli qilib, maxsus temir-betondan yaxlit supa ustiga qurilgan. Bino 3 qavatli, balandligi 31 m (diametri— tashqi tomoni 70 m, ichkisi 50 m), uni qurishda temir ustun, g'isht turli beton blok va yengil tayyorlangan sun'iy qurilish uskunalari qo'llanilgan. Devor yuzasini pardozlashda ganch, marmar va sopol koshinlar ishlatilgan. Qurilishda Toshkent shahar Hokimiyati "Turon" firmasi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish Birlashmasi, "Oniks" korxonasi (30 dan ortiq katta-kichik hajmagi billur qandillar, 500 ta yoritgichli, og'irligi 2 tonna, balandligi. 8 m "Zumrad" qandil ishlab bergan), "Usto" birlashmasi qatnashgan.

Muzeyga marmar zinalar orqali bosh (Amir Temur xiyobonidan)dagi 3 eshikdan kiriladi. 14 ta yog'och o'ymakorligidagi eshik o'ziga xos. Atrofi peshyonli,

qator ustunli (20 ta. balandligi 10 m, muqarnas boshali poyustuni kulrang marmardan ishlangan), turunjilari sirkori sopol bilan bezatilgan, binoning tashqi devori yuzasida “suls” uslubida insonni yaxshilikksa undovchi soʻzlar bitilgan. Bino asosida faye, magazinlar, maʼmuriyat, vestibul, kassa, axborot-maʼruza zali va boshqa texnik xizmat xonalari joylashgan. 1- qavatda koʻrgazma va kinoleksiya zali (200 oʻrindiqli) bor. 2-qavatdagi koʻrgazma zali 8 boʻlimdan iborat. Koʻrgazma zalidagi Temuriylar tarixiga oid noyob eksponatlar Oʻzbekiston viloyatidagi yirik muzeylardan keltirilgan, shuningdek, 1996-yilda Parijda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bagʻishlab oʻtkazilgan koʻrgazmadagi eksponatlar ham muzeyga oʻtkazilgan. Muzeyda arxeologiya etnografiya, numizmatika yodgorliklari, qoʻlyozmalar, tasviriy sanʼat namunalari bor. Shuningdek, I. Karimovning Amir Temurga boʻlgan hurmatini ifodalovchi dil soʻzlari va “Temur tuzuklari”dan keltilgan iboralar eksponatlarni mazmunan boyitgan.

Koʻrgazma zalining markazidagi devoriy tasvirdan “Buyuk Sohibquron — buyuk bunyodkor” nomli 3 qismdan iborat asar oʻrin olgan. Birinchisi — “Tugʻilish” qismida Sohibqironning tugʻilishi bilan bogʻliq urf-odatlar ramziy tasvirda ifodalangan. Ikkinchisi — “Yuksalish”da “Rosti—rasti” (“Toʻgʻrilik najotdir”) degan shior oltin harflar bilan bitilgan. Bu qismning markazida taxtda oʻtirgan Sohibqironning vazir, ulamo, harbiy aʼyonlar davrasidagi mashharatlari aks ettirilgan. Pastroqda esa Sohibqironning nabira va abiralari (Muhammad Sulton Ulugʻbek, Husayn Bayqaro, Zahriddin Muhammad Bobur) bobolaridan meros qolgan tuzuklarni mutolaa qilayotganlari va Amir Temur yaratgan meʼmoriy obidalar tasvirlangan. Uchinchisi — “Faxrlanish” boʻlimida merosning avloddan avlodga oʻtib kelayotganlik gʻoyasi oʻz aksini topgan. Muzeyga har yili 100 mingdan ziyod tomoshabin kiradi.

68-topshiriq. Oʻzbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.

AMALIY SANʼAT MUZEYI TARIXI

Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimidagi Respublika Amaliy sanʼati muzeyi mamlakatimizda oʻziga xos yagona muzeylardan hisoblanadi. Muzey asrimizning 30-yillarida Oʻzbekistonda xalq hunarmandlarining bir necha bor oʻtkazilgan koʻrgazmalari mahsuli boʻlgan xalq ustalarining eng nodir asarlarining majmuyi sifatida 1937-yilda tashkil topgan. Ana oʻsha vaqtdan beri muzey xazinasiga xalq badiiy hunarmandchiligining nayob asarlari saqlanib kelinmoqda.

Muzey binosi XIX asr oxiri meʼmorchilik – dekorativ sanʼatining yorqin namunasidir. Binoni chiroyli qilib bezashda Buhoro, Xiva, Samarqand, Toshkent va Rishtonning eng yaxshi, qoʻli gul ustalari qatnashgan. Muzey xazinasigadi badiiy buyumlar jahon ahamiyatiga molik boʻlib, oʻzbek xalqining moddiy madaniyat yodgorliklarini rivojlanish tarixini ochib beradi.

Bu badiiy asarlar ichida mashhur xalq ustalari – xorazmlik yogʻoch oʻymakor ustasi Ota Polvonov, buxorolik ganchdor usta Usto Shirin Murodov, samarqandlik usta Bolta Joʻrayev, Umarqul Joʻraqulov, Lutfulla Fozilov, toshkentlik usta Muhiddin

Rahimov, usto Usmon Zufarov va yana yuzlab o'zbek ustalarining jahonga tanilgan asarlari saqlanib kelinmoqda.

Muzey o'zining faoliyati davomida vatanimizning yirik madaniy va ma'rifiy markazlaridan biriga aylandi. Xar yili tomoshabinlar kelib ketuvchi bu maskan xalqimizning, chel el turistlari, davlat arboblari va hukumat delegatsiyalarning sevimli dargohiga aylanib qolgan. Shu bilan bir qatorda, muzey o'zbek xalqi amaliy san'ati tarixi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, xalq ustalari va rassomlarning ijodiy faoliyatini takomillashtirishda o'ziga xos bir laboratoriya vazifasini olib kelmoqda.

Bugungi kunda muzey o'z zallarida xalqimiz yaratgan san'at durdonalarini namoyish etish bilan bir qatorda yosh, o'sib kelayotgan rassomlar, xalq ustalari asarlari ko'rgazmasini o'tkazishda ularga katta imkon yaratib bermoqda.

O'zbekiston Davlat amaliy san'at muzeyi – o'zbek xalqining haqiqiy san'at durdonasi sanaladi. U xalq orasida o'zining ma'naviy va ma'rifiy faoliyatini olib borib, muzey asori-atiqalari bunda o'z aksini topgan. Har bir eksponat badiiy estetik vazifani bajarish bilan tarbiyaviy, ham o'tgan kun voqeligini obyektiv va subyektiv tahlil qilib beradi.

Muzeyning asosiy mavzusi – xalq amaliy san'ati bo'lib, turkum tarzida ishlatib kelingan maishiy buyumlardir.

O'zbekiston xalqining amaliy san'ati xilma-xilligi muzey tuzilishini aniqlab beradi. Ekspozitsiyadan turli xildagi yog'och naqqoshligi va o'ymakorligi, qo'l va mashina kashtachiligi, chitgarlik, mato, zardo'slik, misgarlik, sopolchilik, Sharq minyaturasi, libos va gilamdo'zlik bo'limlariga oid eksponatlar o'rin olgan.

Muzey ilmiy tadqiqot va targ'ibot ishlarini olib boradi, shu bilan birga yosh avlodni tarbiyalashda o'z hissasini qo'shib boradi. Muzey zaxirasidagi eksponatlar soni 7000 dan ortiq bo'lib, shundan 1000 ga yaqini ekspozitsiyadan o'rin olgan. Har bir san'at turiga qarab alohida zallardan o'rin olgan. Muzey bayram va boshqa tadbirlarga bag'ishlangan ko'rgazma tashkillashtiradi.

Muzey qurilish binosi 2 qismdan tashkil topgan bo'lib, ikkisi ham davr va qurilishi jihatidan turlicha. Muzeyning markaziy qismi hisoblanmush "Mehmonxona" XIX asr oxiri va XX asr boshiga oid bo'lib, o'zbek me'morchiligining haqiqiy durdonasi sanaladi. Uning Yevropa usulida qurilgan binosi Sharq san'ati va obidasi bilan uyg'unlashib ketgan. 1960-yil ushbu qismning o'ng va chap yon tomonlariga ko'rpus qurilishida zamonaviy bino tushgan.

Muzeyning katta zallarida yirik eksponatlar hisoblangan – gulko'rpa, palak, so'zana va ustun-eshiklar o'rin olgan. Shuningdek, zardo'zlik buyulari, gilam va sholchalar ham o'rin olgan.

Bu zallarda esa mayda eksponatlar: yog'och o'ymakorligidan "lavx", "quticha"lar o'rin olgan. Zardo'zlik bo'limi zargarlik namunalari bilan uyg'unlashib ketgan.

JAHON MUZEYLARI

Ta'lim-tarbiya va ilmiy vazifalarga ega bo'lgan muzey tizimi taraqqiyotiga obyektiv ehtiyojlar ortib bormoqda. AQSh, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya va boshqa mamlakatlar eng taraqqiy etgan muzey tizimiga ega.

Muzeyning xalqaro maydonga chiqishi bilan ularning ta'sir doirasi kengayib bormoqda. Bunda ko'rgazmalar ayirboshlash birinchi o'rinda turadi. Muzey jahonning turli mamlakatlariga o'z xazinalarini yuboradi, ayni paytda chet mamlakatlarning ko'rgazmalarini o'zlarida qabul qiladi va ko'rgazma hamda muzeyda namoyish etadi. Muzey xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirishga yordam bermoqda, milliy madaniyatlarning o'zaro boyishi va xalqlar o'rtasida hamfikrlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Jahon muzeyi xalqaro tashkilotga birlashgan, YUNESKO tarkibida "Muzeylar xalqaro kengashi" (ICOM) mavjud, uning tarkibiga milliy muzeyning qo'mitalari kirgan.

LUVR MUZEYI

Luvr (frans. *Musée du Louvre*) — dunyoning eng yirik badiiy muzeylaridan biri. Avval qirollar qasri bo'lgan Luvrning binosi Parijning markazida, poytaxtning 1-munisipal okrugida joylashgan.

Luvr (Louvre) — jahondagi eng yirik muzeylardan. Parijdagi mashhur me'moriy yodgorlik — sobiq qirollik qarorgohi binosida joylashgan. 1791-yilda Inqilobiy Konvent dekreti bilan milliy badiiy muzey sifatida asos solingan va 1793-yil 8 noyabrdan omma uchun ochilgan. Luvr Fondini sobiq qirollik to'plami, shuningdek, monastir, cherkov va aslzoda oilalarning musodara qilingan to'plamlari tashkil qildi; Napoleon yurishlarida qo'lga kiritilgan, turli davlatlardan sotib olingan, ko'plab hadya qilingan san'at asarlari bilan boyib bordi. Uyg 6 bo'limdan iborat: tasviriy va amaliy san'at, haykaltaroshlik (o'rta asrlar, Uyg'onish davri, keyingi davr), Yunon va Rim yodgorliklari, Qadimiy Sharq yodgorliklari, Qadimiy Misr yodgorliklari. Bular orasida Sharq yodgorliklari dunyo bo'yicha muhim ahamiyatga ega; fransuz san'ati (ayniqsa, kartinalar galereyasi) juda mukammal. Luvrda jahonga mashhur (Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, Rafael, Titsian, Rembrandt, Rubens va boshqalar) nodir san'at asarlari to'plangan. Muzey ekspozitsiyasi xronologik tartibda va milliy maktablar tarzida, hadya etilgan yirik xususiy to'plamlar alohida joylashtirilgan.

Luvr binosi Parijning tarixiy qismidagi asosiy me'moriy yodgorlik bo'lib, 13-asr boshi – 14asr larda eski qasr o'rniga qurilgan. 1546-74 yillarda me'mor P. Lesko renessans usulida saroy qurgan, haykaltaroshlik bezaklarini J. Gujon ishlagan. Binoni kengaytirish va qayta qurish (J. Lembersye, 1624-yildan; L. Levo, 1661-64; K. Perro, 1667-74; Luvr Viskonti va E. Lefyuel, "Yangi Luvr", keyinchalik Kartinalar galereyasi) 20 asrning oxirlarigacha davom etdi.

69-topshiriq. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma'lumot tayyorlang.

ADABIYOT MUZEYI

1968-yilning kuzida Toshkentda Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi ochildi. Bu muzey xalqimizning buyuk Navoiy, uning ijodiga bo'lgan muhabbatiga yorqin misoldir.

Muzey sahnidagi ko'kalamzor, gulzor bog'da Navoiy haykali o'rnatilgan. U marmar hovuzga qarab turibdi. Hovuz atrofida taniqli ijodkorlarning byustlari qo'yilgan.

To'rt qavatli ko'rkam binoga kiriladigan ikki katta eshik g'oyat go'zal ishlangan.


Muzeyning "Navoiy Astrabodda", "Navoiy Hirotda", "Navoiy Samarqandda", "Navoiy lirikasi" deb nomlangan zallarida Navoiyning buyukligi o'z asarlarining o'lmasligi aks ettirilgan. Umuman, Navoiy hamda unga zamondosh shoir va olimlarning ijodiy me'rosini yoritish uchun muzeyda o'n uchta bo'lim ajratilgan.

Navoiydan keyingi ijodkorlar va ularning asarlarini yoritishga bag'ishlangan materiallar 22 bo'limda to'la aks ettirilgan.

XX asr o'zbek adabiyotiga oid noyob materiallarni binoning to'rtinchi qavatidagi 13 bo'limda ko'rish mumkin. Muzey xodimlari jahon kutubxonalarida saqlanayotgan o'zbek adabiy merosini yig'ish va ularni adabiyot ixlosmandlariga taqdim etish borasida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Adabiyot muzeyi boshqa muzeylar kabi doimo tashrifchilar bilan gavjum. Xalqimiz unda jamlangan boy materiallarni qiziqib o'rganadi va ular bilan haqli ravishda faxrlanadi.

BALIQ SKELETI



**Grammatik mavzu: SOHAVIY TERMINLAR VA ULARNING
QO‘LLANILISHI
ATAMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

Har qanday fan sohalarning rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega. Istiqbolga erishgunga qadar o‘zbek-ilmiy texnikaviy va boshqa sohalardagi atamalarning rivojiga e‘tibor berilmadi. Natijada atamalarning ko‘pchiligi rus tilida qanday bo‘lsa, shundayligicha olindi. Masalan, spravka, doklad, konselariya va boshqalar.

Mustaqillik sharoitida atamalarni izga solish eng dolzarb vazifalardandir.

Atamalarni taribga solish harakati mustaqillikning ilk davrlarida turli yo‘sinda olib borildi: a) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o‘rniga arab-fors atamalar tanlash: *aeraport* o‘rniga *tayyoragoh*, *samolyot* o‘rniga *tayyora*, *institut* o‘rniga *oliygoh*, *telefon* o‘rniga *duravoz* kabilar; b) rus tilidan va bu til orqali Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalarning o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o‘zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobili bo‘lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o‘zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo‘llash. Masalan, *aksiya* – *hissa*, *aksioner* – *hissador*, *tomojnya* – *bojxona*, *konselariya* – *devonxona*, *bank* – *banka*, *samolyot* – *samolyot*, *telefon* – *telefon*, *kompyuter* – *kompyuter* kabi. Atamalarning izga solishning keying yo‘li istiqbolli yo‘l ekanligi hammaga ayon bo‘ldi, chunki boshqa tillardan atama qabul qilmaydigan birorta ham til yo‘q.

Hozirgi kunimizda o‘zbek tili *birja*, *dizayn*, *lizing*, *marketing*, *menejment*, *monitoring*, *audit* singari yuzlab boshqa tillardan olingan atamalar hisobiga boyib bormoqda.

70-topshiriq. Mutaxassisligingizga tegishli bo‘lgan atama va birikmalar orasidan ko‘chma ma‘noli so‘z hamda birikmalarni toping, ular ishtirokida gaplar tuzing.

<i>Atama</i>	<i>O‘z ma‘nosi</i>	<i>Ko‘chma ma‘nosi</i>
<i>oqlamoq</i>	<i>Devorni oqladik</i>	<i>Sud gunohsizlarni oqladi. U ishonchimizni oqladi</i>
<i>Hissa</i>	<i>Mening ham hissam (ulush) bor</i>	<i>Ulushga (aksiya) egaman</i>

71-topshiriq. Berilgan sinonimlarni iqtisodiy atama sifatida qo‘llab, gaplar tuzing. Iqtisodiy atamalarga ta‘rif bering va misollar yordamida izohlang.

Daromad, *kirim*, *kelim*
Harajat, *chiqim*, *buromad*
Kamob, *kamchil*, *tahchil*
Sarflamoq, *harj qilmoq*, *harajat qilmoq*
Yig‘moq, *to‘plamoq*, *jang‘armoq*

Ilm-fan, texnikaning biror sohalariga xos muayyan tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki birikma atama deyiladi. Demak, tildagi umumiste'moldagi so'z ilmiy atamaga aylanishi mumkin.

Atamalar ilmiy uslubning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi asosiy lug'aviy xususiyat hisoblanadi. Ular ma'lum sohaga tegishli bo'ladi.

E'tibor bering:

Yolg'on aytib *foйда* ko'rsang, oxiri zarar toparsan.

Foyda – qo'shimcha mahsulotning pul shakli bo'lib, daromadning bir qismi.

Hayotda *muvozanatni* yo'qotib qo'yish hech gap emas.

Muvozanat – muttasil o'zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchalarning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.

Адвокат – advokat (lot. *Advocatus* – taklif qilaman). Oqlovchi, himoyachi so'zlari advokat ma'nosini to'liq bera olmaydi.

Агрессия – agressiya, tajovuz

Акционер – aksiyador, hissador

Амнистия – amnistiya, avf umumiy

Альтернатив – muqobil

Аудитор – auditor. Taftishchi deb berilishi to'g'ri emas.

Аэропорт – aeroport. Bu so'zning "tayyoragoh" tarzida ishlatilishi noto'g'ri.

Банкротство – bankrotlik.

Бизнес – biznes. Bu so'zni "tadbirkorlik" deb qo'llash noto'g'ri.

Бухгалтер – buxgalter. Bu atamani "hisobchi" deb berish noto'g'ri.

Газета – gazeta. "Ro'znoma" deb qo'llash to'g'ri emas.

Декларация – bayonot

Капитал – kapital

Категория – toifa

Квалификация – ixtisos, malaka, kvalifikatsiya

Классификация – tasnif

Компенсация – kompensatsiya "To'lov" deb ishlatilishi noto'g'ri.

Конкуренция – raqobat

Критерий – mezon

Лицензия – litsenziya. **Bu atamani “ruxsatnoma” deb qo‘llash to‘g‘ri emas.**

Маклер – dallol

Наркотик – narkotik

Оборот – aylanma

Патент – patent. **Bu so‘zni “ruxsatnoma” so‘zi bilan almashtirish mumkin**

emas.

Пенсия – pensiya, **“nafaqa” so‘zi ruscha “пособие” so‘ziga to‘g‘ri keladi.**

Приватизация – xususiy lashtirish

Процент – foiz

Процесс – jarayon

Район – tuman

Ратификация – ratifikatsiya, tasdiqlash

Реабилитация – rehabilitatsiya, oqlash, tiklash

Ревизия – taftish

Рекомендация – tavsiyanoma

Реформа – islohot

Система – tizim, sistema

Стандарт – andoza, standart

Статус – maqom

Страхование – sug‘urta

Транспорт – transport, **“naqliyot” emas.**

Территория – hudud

Устав – ustav, **nizomi ruschadagi “положение” so‘ziga to‘g‘ri keladi.**

Фактор – omil

Фонд – jamg‘arma, fond.

72-topshiriq. O‘z sohangizga tegishli bo‘lgan terminlar lug‘atini tuzing.

73-topshiriq. Kasbiy atamalar lug‘atini tuzing.

74-topshiriq. Atamalarni sohasini aniqlang.

*Адвокат – advokat (lot. *Advocatus – taklif qilaman*). Oqlovchi, himoyachi so‘zlari advokat ma‘nosini to‘liq bera olmaydi.*

Акционер – aksiyador, hissador

Амнистия – amnistiya, avf umumiy

Аудитор – auditor. Taftishchi deb berilishi to‘g‘ri emas.

Аэропорт – aeroport. Bu so‘zning “tayyoragoh” tarzida ishlatilishi noto‘g‘ri.

Бизнес – biznes. Bu so‘zni “tadbirkorlik” deb qo‘llash noto‘g‘ri.

Бухгалтер – buxgalter. Bu atamani “hisobchi” deb berish noto‘g‘ri.

Газета – gazeta. “Ro‘znoma” deb qo‘llash to‘g‘ri emas.

Декларация – bayonet

8. Nutqiy mavzu: Kelajak bilimli yoshlar qo'lda

Grammatik mavzu: O'zbek tilida sinonimlar

Biz uchun jamiyatda begona bola yo'q va bo'lmashligi kerak, hammasi o'zimizning O'zbekistonimizning bolalari.

Sh. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON YOSHLARI

O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar, ya'ni o'ttiz yoshdan oshmaganlar tashkil qiladi. Bu – boshqa mamlakatlarning ko'rsatkichlaridan ikki-ikki yarim barobar ko'p. Demak, har yili yarim milliondan oshiq yangi tug'ilgan go'daklar aholi qatoriga qo'shilmoqda. Respublikadagi 30 million aholining deyarli 18 millioni yoshlardir. O'zbekiston davlati bu omillarni inobatga olgan holda, yoshlar haqida doimiy g'amxo'rlik qilmoqda: 1991-yil noyabrida O'zbekiston Respublikasining “Davlat yoshlar siyosatining asoslari to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi, undan keyin ikki oy o'tar-o'tmas, 1992-yil yanvarida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida, 1992-yil iyulda maorif va o'quv-o'qituv masalalari bo'yicha qonunlar e'lon qilindi. 1996-yil aprelida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining farmoni bilan “Kamolot” yoshlar jamg'armasi ta'sis etildi. 1997-yil yanvarida esa Respublika Birinchi Prezidenti farmoniga binoan “Umid” iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish jamg'armasi ta'sis qilindi, so'ngra “Iste'dod” tashkiloti ishga kirishdi. O'zbekiston, mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib, “Sog'lom avlod uchun” ordeni hamda dasturini e'lon qildi, serfarsand oilalarga turli yordam, ko'mak yo'llarini yaratdi va yaratmoqda. Bu borada o'zini-o'zi boshqarish organlariga, mahallalarga keng yo'l ochib berilgan.

Mustaqil O'zbekistonning yoshlar siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lishi kerak:

1. Yoshlarni jismonan va aqlan sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlash.
2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagi birinchi qadamlaridanoq singdirish.
3. Har bir yoshni o'z Vataniga mehr va muhabbat, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash.
4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo'lishi uchun yoshlar o'z millati, o'z yurti tarixini, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini, uning jahon sivilizatsiyasi maydonidagi o'rnini har tomonlama bilishini ta'minlash.

5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug'lovchi xolis vosita sifatida foydalanish. Yoshlarni tarbiyalashda birinchi o'ringa yangi texnika, texnologiya va fan yutuqlarini o'zlashtirish qo'yilishi lozim. Bu omillarni tadbirkorlik va ishbilarmonlik bilan uyg'unlashtirish, ularning birligiga erishish O'zbekiston oldida turgan asosiy vazifani – zamonamizning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lish vazifasini amalga oshirishni tezlashtiradi.

Iste'dod yillarida hukmron mafkura amri bilan biz insoniyatning ko'pchiligini tashkil qilgan va fan, texnika, texnologiya sohasida tub o'zgarishlarni qo'lga kiritayotgan bozor munosabatlariga asoslangan mamlakatlardan uzilib qoldik, iqtisodni mafkuraga bo'ysundirdik. Uning ustiga-ust fuqarolar ongidan xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va tadbirkorlik ko'nikmalarini hamda hissini uzil-kesil siqib chiqarish maqsadida izchil ish olib borildi. Yosh avlod bilan tarbiyaviy ish shunday olib borilishi kerakki, u o'zining birinchi qadamlaridanoq o'z Vatanning, uning yer osti va yer usti boyliklarining egasi ekanligini va shu Vatanning gullab-yashnashi uning mehnatiga, tadbirkorligiga bog'liq ekanini chuqur anglab yetsin.

Barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega, biroq bizning eng katta boyligimiz – xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Bu salohiyatni yaratish va yanad ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilmfan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadri va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohaslarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganini biz yaxshi bilamiz va qadrlaymiz. Ana shu zahmatkash insonlarning ilmiy va ijodiy izlanishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni biz o'zimizning birlamchi vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor. Bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari sharti!" degan hayotiy da'vat har birimizning ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz axolisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizni hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetishimiz zarur.

Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o'qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqazo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

YOSHLAR ITTIFOQI

O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirish, yoshlarni tashqi tahdidlar va "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan muhofaza qilish, yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga har tomonlama ko'maklashish shart-sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar tomonidan ittifoq tashkiliy-huquqiy shaklida tuzilgan. O'zbekiston yoshlarini birlashtiruvchi nodavlat notijorat tashkilotidir.

Ittifoqning asosiy maqsadi yoshlarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash, O'zbekistonni jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirishi jarayonlariga jalb qilish hamda yosh avlodning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash, yigit-qizlarning ma'naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashishdan iborat.

Ittifoqning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o'zining hayotiy pozitsiyasi va qat'iy e'tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo'lishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi va huquqiy ongini yuksaltirish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g'urur va o'zlikni anglash, ro'y berayotgan voqealarga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish;

- yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning zamonaviy kasblarni egallashga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

- iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ular o'z ijodiy va salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ilmiy faoliyatga jalb qilish;

- yoshlar, xususan uyushmagan yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb qilish;

- yoshlarni, xususan uyushmagan yoshlarni diniy-ekstremistik va boshqa buzg'unchi tashkilotlar ta'siridan, chetdan "ommaviy madaniyat" niqobi ostida kirib kelayotgan salbiy ta'sir va tahdidlardan asrash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni profilaktika qilish va oldini olishga ko'maklashish va boshqalar.

Ittifoqqa yuridik va jismoniy shaxslar ustavda belgilangan tartibga asosan a'zo bo'lish mumkin. Ya'ni, Ittifoqning maqsadini qo'llab-quvvatlash istagini bildirgan, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida muntazam yashab kelayotgan fuqaroligi bo'lmagan jismoniy shaxslar Ittifoqning a'zosi bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga yoshlar sohasidagi nodavlat-notijorat tashkilotlari va yoshlar sohasiga oid korxonalar, muassasa va tashkilotlar hamda ta'lim hujjatlari Ittifoqning Ustav maqsadlari, vazifalari va dasturiy hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa yuridik shaxslar ham Ittifoqqa a'zo bo'lishi mumkin.

Ittifoqning rahbar organlariga quyidagilar kiradi:

- Qurultoy;
- Markaziy Kengash;
- Markaziy Kengash Ijroiya qo'mitasi;
- Markaziy nazorat-taftish komissiyasi.

Ittifoqning tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- Ittifoqning Markaziy apparati;
- Ittifoqning hududiy tuzilmalari;
- Ittifoqning mahalliy tuzilmalari;
- Ittifoqning boshlang'ich tashkilotlari;
- Ittifoqning to'liq muassisligidagi yoki qoshidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, shu jumladan ommaviy axborot vositalari.

Shuningdek, Ittifoq va uning alohida bo'linmalari qoshida tegishli ravishda bolalar yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib boruvchi "Kamalak" shubhalari tashkil qilinadi. Ular Ittifoq va uning alohida bo'linmalarining shubhasi hisoblanadi.

75-topshiriq. "Iqtidorli yoshlar" mavzusida bog'lanishli matn tuzing.

VAQTING KETDI – BAXTING KETDI

Bir donishmanddan: "Siz umringizda hech xato qilganmisiz?" – deb so'radilar. "Qilganman, – debdi donishmand. – Uch marta xazinamni yo'qotganman. Avval ne mashaqqat bilan to'plagan boyligimni yo'qotdim. Lekin bunda men aybdor emasdim, halol mehnat qilib, yana boylik orttirdim. So'ng do'stimni yo'qotdim. U haqiqiy do'st emas ekan, boshimga tashvish tushganda tashlab ketdi, do'stligimizga xiyonat qildi. Madomiki, senga xiyonat qilgan ekan, u haqiqiy do'st bo'la olmaydi, deb o'zimni yupatdim. Keyin boshqa chinakam do'st topdim. Ammo bu orada shunday bir xazinamni yo'qotdimki, buning uchun o'zimni hech kechira olamayman. Men uni o'z qo'lim bilan yo'qotib qo'ydim. Bu bekorga o'tgan kunlarim, bekor kechgan oylarim, bekor o'tgan yillarim. Mana shu xazinani endi hech qachon topolmayman. Agar yangidan tug'ilganimda edi, o'sha o'tgan damlarimni ham foydali ishlarga – o'qishga, mehnatga sarflagan bo'lardim..."

Qissadan hissa shuki,...

76-topshiriq. Gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

Yoshmisan sen keksani hurmat ayta, O'zing ham qariysan, hozirdan o'yla. (F. Attor). 2. Yoshlik – bu orzu. Bu ishonch. Bu jasoratga intilish. Bu lirika va romantika. Bu kelajakka tuzilgan ulkan rejadir. Bu istiqbolning boshlanishi. (N.Hikmat). 3. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki. uning kelajagi bor. (N.V.Gogol). 4. O, yoshlik! Yoshlik! Ehtimol, butun latofating siri hamma narsani uddalayman, deb o'ylash

imkoniyatiga ega bo'lganligingdadir. (I.S.Turgenev). 5. Beozor yoshlik yillaridan kamolotning vazmin yo'llariga otlanar ekansiz – hamma narsani, insonga xos barcha harakatlarni o'zingiz bilan birga ola keting, yo'lda qoldirmang: keyin uni o'rnidan siljita olmaysiz. (N.V.Gogol). 6. Yoshligingni asra. Dunyoda undan yaxshi palla yo'q. Undan qimmatliroq narsa yo'q. (M.Gorkiy). 7. Befoyda o'tgan yoshlik – musibatdir. (A.Qo'nonboev). 8. Hayot har bir kishiga ulkan va bebaho tuhfa in'om etadi, bu kuch-quvvatga to'la yoshlik, bilim va kurashga chanqoqlik, ishonch va orzu-umidga to'la o'spirinlikdir. 9. Keksaga ko'mak ber suyangan tog'ing, Buni tushunarsan qarigan chog'ing. (N. Hisrav).

77-topshiriq. "Yoshlar tashabbusi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

78-topshiriq. "Dam olish oromgohida" mavzusida o'zaro suhbatlashing va tuzgan matningizni dialogik matn shaklida daftaringizga yozing.

YOSHLAR BIZNING KELAJAGIMIZ

Bugungi kunda mustaqil yurtimizning yanada gullab-rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shib, davlatimizning kuch-qudratini orttiradigan, dunyo ellari orasida rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shadigan bugungi kun yoshlaridir.

Elimizda yoshlarning har tomonlama bilimli, ilmi, jismoniy tomondan sog'lom, komil inson bo'lib yetishishi va jamiyatda loyiq o'rnini topishi uchun keng ko'lamli imkoniyatlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 6-fevral kungi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralar haqida"gi qarori yo'nalishda juda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi mustaqil yoshlarimizga, ular uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlarga havasimiz keladi. Yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, ularning iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda har xil tadbirlarning o'tkazilishi yurtimizda qobiliyatli yoshlarning hukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlashga loyiq bo'layotganligi ham yoshlarga bo'lgan ishonchimizni yanada orttiradi.

Yurtimizda do'stlik aloqalarini mustahkamlab kelayotgan ko'p millatli xalqning 64 foizini 30 yoshgacha yoshlar va bolalar tashkil etishini hisobga olgan holda, davlat yoshlar siyosatining ahamiyatli tomoni – davlat strategiyasi o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham respublikamizda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishning samarali usullari qo'llanib kelinmoqda.

Kelajak avlodlarimizni jismonan sog'lom, navqiron, Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida voyaga yetkazishda sport juda muhim ahamiyatga ega. Sport orqali barkamol avlodni tarbiyalash, bolalar, yosh o'smirlar, qizlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga keng yo'l ochildi. Yoshlar faqat shahar joylaridagina emas, balki eng chekka hududlarda ham zamonaviy sport to'garaklariga qatnashib, o'z sog'liklarini mustahkamlab bormoqdalar.

Umuman olganda, yurtboshimiz rahnamoligida kelajak avlodga yaratilayotgan shart-sharoitlardan yoshlarimiz oqilona foydalanib, yurtimiz kelajagi uchun munosib xizmat qiladi deb ishonamiz.

(M. Chimbergenova).

79-topshiriq. Matnni ifodali, ta'sirchan tarzda o'qing. O'z munosabatingizni yozma ravishda bildiring.

KULISH MADANIYATI

Kulgi inson kayfiyatini chog'laydigan, huzur bag'ishlaydigan holatdir.

Samimiy va soxta kulgilar bor. Samimiy kulgida inson yurakdan zavqlanadi, butun vujudi rohatlanadi. Soxta kulgida esa sun'iylik sezilib turadi, qalbdan chiqmagan kulgi zamirida hasad, g'araz yashirindir.

Kulgi chiroyli, me'yorida bo'lishi kerak. Og'izni katta ochib, beo'xshov kulish odobdan emas. Alisher Navoiy bobomiz kulgi me'yorini tabiatdagi barcha go'zalliklarga o'xshatgan edilar:

"Kulgi o'z me'yoridan oshib ketdimi, bundan yig'lagan ancha yaxshiroqdir. Gul g'unchasi kulgani uchun uni shamol uchirib ketadi. Chaqmoq esa kula-kula pastlashadi. Odobli odam kulish uchun og'iz ochmaydi".

Xalqimiz orasida o'zining zukkoligi, bilimdonligi, aqlu farosati bilan mashhur bo'lgan Xo'ja Nasriddin Afandi insonlarga ming bir kulgini hadya etgan.

80-topshiriq. Quyidagi maqollarni o'qing va ma'nosini tushuntirib bering.

Olim bo'lsang, olam seniki.

Birni kessang, o'nni ek.

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich.

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

81-topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

OTA VASIYATI

Qadim zamonda bir kambag'al kishi yashagan ekan. Uning hovlisida uch-to'rt tup toki bor ekan. Bu kishi tokdan olgan hosilini sotib tirikchilik qilar ekan. Bir kuni u kishi kasal bo'lib yotib qolibdi. U yolg'iz o'g'lini chaqirib, shunday debdi:

- O'g'lim, mening o'limim yaqinlashganga o'xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni yaxshilab eslab qol. Gapim shuki, tokimizning tagiga ikki joyga ikki xum tilla ko'milgan. Shu tillani ikki marta — bahorda va kuzda kavlab olib, tirikchiligingga yaratgin, shu bilan boyib ketishing mumkin.

Otasi shu gaplarni gapirib bo'lib, olamdan o'tibdi. Bahor kelibdi. Yigit ketmonni qo'lga olib, toklarning tagini kavlay boshlabdi. Oltin chiqmabdi. Shu orada toklar ko'karib, uzum qilibdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to'xtatibdi, toklarni parvarish qilibdi.

Shu yil tok juda ko'p uzum qilibdi. Uzumlarni yigit sotib, ancha pul to'plabdi. Kuz kelibdi. Yigit yana tokning tagini kavlab, oltin qidira boshlabdi. Bahorda yana hamma yog'ini kavlabdi. Hech narsa topilmabdi. Lekin tok ikkinchi yili yana juda ko'p hosil qilibdi. Uzumlarni sotib, yigit boyib ketibdi.

Kuz kelganda yana yigit qo'liga ketmon olib, kavlay boshlaganida otasining do'sti kelib qolibdi. Yigit otasining gaplarini unga aytib beribdi. Shunda keksa otaxon:

- Bolam, otang aytgan oltinlarni kavlab olibsan-ku, – debdi.


- Yo'q, men hech qanday oltin topganim yo'q. – debdi.

- Axir sen boyib ketding, chunki yilda ikki marta tokning tagini kavlab, uning hosilini oshirding. Otang aqlli odam edi, uning aytgan oltinlari sen mehnat qilib topgan pulingdir. – debdi.

82-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Dam olish kuni kel..., birga dala hovliga borib gullar ekamiz. 2. Kutubxonaga bor..., senga ham o'zbekcha-ruscha lug'at olib kelaman. 3. Bu yil ham imtihonlarni yaxshi topshir..., Buxoroga sayohatga bormoqchiman. 4. Qani endi har yili, bahor mana shunday seryog'in bo'l... . 5. Kimki mehnatga chidamli bo'l..., u har doim muvaffaqiyatga erishadi. 6. Bugun ishdan ertaroq kel..., hovlidagi gullarga suv quyaman. 7. Yerga qanchalik ko'p o'g'it solinib, yaxshi ishlov beril..., hosil mo'l bo'ladi. 8. Universitetni imtiyozli diplom bilan tugat... magistraturada o'qishim mumkin. 9. Agar sen Erkinni uchrat..., unga xat borligini ay. 10. Kamtar bo'l..., obro'ying ortar.

83-topshiriq. Matnni o'qing.



BO'SH VAQT MAZMUNI

Vaqt muammosi qadim-qadimdan insoniyatni o'ylantirib keladi. Dunyoning eng buyuk mutafakkirlari vaqtga turlicha ta'rif berganlar.

Vaqtni qadrlash xalqimizning maqol va hikmatlarida ham o'z aksini topgan. "Vaqtning ketdi – naqdning ketdi", "Fursat – oqar suv". "Vaqt – odil hakam" kabi maqol va hikmatlar shular jumlasidandir.

Ertalab inson o'rnidan turadi, nonushta qiladi, so'ngru ishga yoki o'qishga boradi, tushda ovqatlanadi. Kech bo'lgach, uyiga qaytadi va dam oladi. Bularning

barchasi inson hayotidagi muayyan tartibni ko'rsatadi. Bu tartib esa vaqt bilan bog'liq. Yoki yosh bola bilan keksa odamning harakatlarini olib ko'ring. Yosh bola hali unda burch, mas'uliyat tuyg'usi bo'lmaganligidan, asosan o'z huzurini, vaqtini zavqla o'tkazishini o'ylaganligidan, boshqalar dardiga beparvo, o'yingaroq bo'ladi. Keks kishi esa iloji boricha ko'proq foydali ish qilib qolsam, deydi. Shuning uchun ham unga har doim vaqti kamlik qiladi. Demak, vaqtning inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri g'oyat kuchli. Binobarin, vaqtdan unumli foydalanish, vaqt mezonini asosida harakat qilish ma'naviyatning muhim omillaridandir.

Bo'sh vaqt – insonning muayyan doimiy, asosiy faoliyati bilan shug'ullanmagan vaqti. Bo'sh vaqtda inson dam oladi, jismoniy va aqliy faoliyatini tiklash maqsadida turli ko'ngilochar, maroqli ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga kitobxonlik, sport, san'at bilan shug'ullanish, dam olish, sayr qilish kabi mashg'ulotlar kiradi. Faqat uyqu va hekorchilik bilan o'tkaziladigan vaqt bo'sh vaqtning faoliyatsizlik qismiga misol bo'la oladi. Insonning bo'sh vaqtiga kitobxonlik darajasini o'stirish maqsadida mustaqil mutolaa qilish, estetik madaniyatni o'stirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, jismoniy chiniqish bilan band bo'lish kabi mashg'ulot turlari kiradi.

Bo'sh vaqtni qanday tashkil etish har kishining o'ziga bog'liq. Biroq zamonaviy talablar asosida yashaydigan insonning bo'sh vaqti uning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lishi, uni yanada mustahkamlashga, qiziqarli tashkil etishga, faoliyatining unumdorligini oshirishga, hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashishi lozim. Chunki mehnat unumdorligi bo'sh vaqtning qanday tashkil etilishiga bog'liq.

Bo'sh vaqt insonning barkamol shakllanishiga xizmat qiladigan bebaho boylikdir. Shuning uchun uni tashkil etish faqat shaxsiy ish bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy ahamiyatga molik masala hamdir. Shu bois bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish har bir odamdan qunt va sabot talab etadi.

84-topshiriq. Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping.

Bugungi yoshlarning kiyinish madaniyati va odobi haqida rolli suhbat tuzing. Madaniyatlikning asosiy belgilaridan biri bu kiyinishdir. Kishining qanday kiyinganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma'naviy darajasini hatto kasbini aniqlab olish mumkin.

Insoniyat ongida boshqalardan istihola qilish, uyalish, andisha tushunchalari paydo bo'lgandan boshlab, ular kiyinishni odat qilishgan.

Kiyinishni ilk bor zaif jins – ayollar boshlaganlar. Shuning uchun ham xotin-qizlar tabiatida kiyinish, bezanish, taqinish tushunchalari turmushning asosiy ko'rinishlari qatorida turadi. Shu sabab xalqimizda, onangni otangga bepardoz ko'rsatma, degan naql bor. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi, darajasi bilan bog'liqdir. Bolalar, qizlar, yoshlar, o'rta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shakl-u shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiati bilan ham

chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyishni odat qilishgan. Chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan.

Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim sal bo'lsa-da chiroy ko'rsatgan quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasining tanini yayratgan.

85-topshiriq. Matni o'qing va unga savollar tuzing.

O'N BESH NASIHAT

Bir donishmandning o'z farzandiga qilgan nasihatlari:

Yaxshi vatanparvar bo'lish, hayotda muvaffaqiyat qozonish, jisman va ruhan mukammal bo'lish uchun mehnatni sev, ish odami bo'l.

Yalqovlikdan uzoqlash, g'ayratli bo'l, vujudingni harakatga bag'ishla, tinma, tirish, olg'a bos!

Ehtiyot bo'l, hamma ishingda tartib va intizomga rioya qil.

Senga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifani bekamu ko'st ado qil.

Sharafing, nomusing va hayotingni qo'riqla, boshqalarning ham sharaf va nomuslarini hurmat qil.

Haqiqatni sev, yurish-turishingda sodda va tabiiy yo'lni tut.

Samimiy, pok qalbli va haqiqatgo'y bo'l.

Muloyim, lufli, marhamatli va do'stparvar bo'l.

Mutaassib (janatik) bo'lma, hur fikrli bo'l.

Mutolaa va tekshirish bilan aqlingni, zehningni, fahm va idrokingni tarbiyat qil. o'stir.

Qanoatli, hammaga mehribon va g'amxo'r bo'l.

Hurmatga sazovor bo'lgan kishilar va narsalarga ehtiroq qilishni unutma.

Mardlik, jasorat va shijoatni o'zingga shior qilib ol.

Sharaf va nomusingga dog' tushirish ehtimoli bo'lgan har turli zavq-safodan kech.

Go'zal axloqning matonati, hissiyotning olijanoblighi bilan vujudingga sihat va latofat bag'ishla.

86-topshiriq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Ertaga kel..., birga dars tayyorlaymiz. 2. Agar dars davomida kerakli ballni yig'..., qayta javob bermasding. 3. Hozir o'z kasbingni egalla..., ishda qiynalmaysan. 4. Sen kel..., u xursand bo'lar edi. 5. Agar havo dim bo'l..., qaldirg'ochlar pastlab uch..., yomg'ir yog'adi. 6. Bugun mehmonlar kelma..., bozorga bormoqchimiz. 7. Men o'z kun tartibimga rioya qil..., ko'p narsaga ulguraman. 8. Agar siz rixsat ber..., men borar edim. 9. Agar shaharda zarur ishingiz bo'lma..., men bilan bir yerga borib kel...ngiz. 10. Sen ko'p kitob o'qi..., dunyoqarashingni boyitasan.

***Yoshlik chog'ida yig' ilmning maxzanin,
Qarilik chog'ida savr qilg'il oni, - deganlar.***

Shu bois ham ilm o'rganish, kelajak sari dalil qadamlar tashlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan ozod diyorumizning o'ktami, intiluvchan yoshlariga boshqa mamlakatlardagi tengdoshlarimiz havas qilsa arziydi.

Aytishlaricha, 25 yoshgacha bo'lgan umr tabiatning odamga bergan bebaho va beg'araz ehsoni, undan oqilona foydalanish esa insonning burchidir. Tarixga nazar solsak, barcha buyuk siymolar yoshlikda iste'dodlarini namoyish qila olganliklariga ishonch hosil qilamiz.

Alisher Navoiy 12 yoshida Lutfiyning olqishiga sazovor bo'lgan buyuk g'azal bitgan, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar yoshligidan tabiat va koinot sirlarini kashf etgan. Mashhur kompozitorlar Mosart va Betxoven ham o'lmas asarlarini yoshlikdan ijod eta boshlaganlar. Yosh qalb egasini oqar daryo kabi to'lib-toshib turgan kuch-qudrat va beqiyos katta g'ayrat bezaydi. Bunday yoshlik aslo takrorlanmaydi.

Shunday, yoshlik tabiatdagi, hayotdagi go'zalliklarni, ayniqsa, insondagi jibiy fazilatlarini sevish va ulardan zavqlanish, nafis did va nafosatning shakllanish davridir.

O'tayotgan yil respublikamizda Barkamol avlod yili deb e'lon qilindi. Bu biz, yoshlarga, bildirilayotgan yuksak ishonch va e'tibor belgisidir. Yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish, yurt farovonligi va Vatan ravnaqiga o'zimizning hissamizni qo'shish va bu ishonchga munosib farzand bo'lish – har birimizning fuqarolik burchimizdir.

SARISHTALIK – NOYOB FAZILAT

Uy tartibi, intizomi, saranjomligi, asosan, oila bekasining zimmasida bo'lishi tabiiy. Bunga e'tiroz yo'q, lekin oilada zahmatkash onadan boshqa hech kim yo'qmi? Ishga yaroqli boshqa erkaklar, o'g'il bolalar-chi? Nahotki hamma ish oila bekasiga tashlab qo'yilsa. Bu vijdon burchidan faqat qo'lidan ish kelmaydigan kichkina bolalar-u qarilarigina ozod, xolos. Supurgi hamma vaqt bir yerda tursin! Pichoq, sanchiq, qoshiq, taqsimcha, lagan, kosa, xullas, shularga o'xshash narsalarni doimo tayinli joyga qo'yinglar. Qaychi, ip, tugma, ignalarni hamma vaqt bir joyda saqlang, olib ishlatgandan keyin yana joyiga keltirib qo'ying. Ko'zga xunuk narsalarni ko'zdan qochirishga harakat qiling. Yana bir xil oilalarda oshxonadagi idishlari yuvilmasdan pashsha bosib yotadi, qani endi parvoyiga kelsa? Bolalar! Bilib qo'yinglar, har qaysi inson saranjom, toza, tartibli bo'lishi kerak!

(Mirzakalon Ismoiliiy, "Inson husni")

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so'zlab bering.
2. Matn rejasini tuzing.
3. Saranjom-sarishtalik haqida o'z fikrlaringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

KOMIL INSON – MILLAT KELAJAGI

Komil inson – jamiki insonlarning haqiqatidir, ya'ni odamiylar odamiysidir.

Dunyoning tinchligi va farovonligi, insoniyat butunligi haqiqatan ham oqil, pok niyatli odamlar faoliyatiga bog'liq.

Ilohiy poklik va nafasat, e'tiqod va tafakkur bizni balo-qazolardan asraydi.

Tasavvuf ahli sig'ingan ideal – komil inson aslida xalq ideali, adabiyot ideali edi. Har bir pok axloqli, ilohsevar shaxs komillikka intilishi va nasiba olishi mumkin.

Ma'rifat odamni ma'nan baquvvat, irodali va chidamli qiladi, shaxs sifatida shakllantiradi. Komil inson tushunchasi bugun oldimizda turgan ulkan vazifalar – fuqarolik jamiyatini qurish, “ozod va obod vatan” uchun fidoyi farzand bo'lish tushunchalari bilan bog'lanib ketadi...

(Gazetadan)

90-topshiriq. Berilgan ta'rifga mos iborani aniqlang.

Namuna: *Hayotidan o'ta norozi va qayg'u-hasrat bilan yashaydigan odam – baxti qora odam*

1. *Ayyorlik bilan ish tutadigan, aldashga usta odam.*
2. *Bir-biri bilan do'st bo'lib yashaydigan, bir-biriga g'amxo'rlik qiladigan odamlar.*
3. *Chuqur o'ylamay, nojo'ya ish qilib qo'yadigan, o'zini tuta bilmaydigan odam.*
4. *Yaxshi tomonlarini, fazilatlarini gapirmoq.*
5. *Hayoti tugamoq.*
6. *Birovdan uylamaydigan, boshqalar yonida yomon harakat qiladigan odam.*
7. *Har qanday ishni uddalay oladigan, bajara oladigan odam.*
8. *Topish qiyin bo'lgan narsa.*

Iboralar: *Yulduzni benarvon uradigan, anqoning urug'i, ilon yog'ini yalagan, yengil tabiyat, oralaridan qil o'tmaydigan, osmonga ko'tarmoq, dunyodan ko'z yummog, beti qattiq.*

Grammatik mavzu: O'ZBEK TILIDA SINONIMLAR

Ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlar tavsifi


Nutqda so'z va iboralar o'zaro ma'nodosh, shakldosh va zid ma'no tarzda qo'llaniladi. Lug'aviy birliklarning bu imkoniyatlaridan foydalanish nutqqa, ifodaviylik, ta'sirchanlik bag'ishlaydi.

Ma'nodosh so'zlar (sinonim) bir umumlashtiruvchi ma'noga ega, ammo ma'no nozikliklari bilan farqlanuvchi, talaffuzi va yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan: **kasal, bemor, xasta, betob** kabi so'zlar ma'no qirralari bilan o'zaro farqlanadi.

91-topshiriq. Sinonimlar ishtirokida gaplar tuzing.

Chiroyli, ko'rkam; kuchsiz, zaif; ulug', buyuk; eski, ko'hna; pishiq, puxta; shafqatli, rahmdil; qop-qorong'i, zim-ziyo; katta, ulkan.

Shakli har xil, ma'nosi esa bir-biriga juda yaqin so'zlar sinonimlar deyiladi. Sinonimlar bir xil tushunchani ifodalaydi. Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi esa sinonimik qator deb ataladi. Masalan, *yurak – qalb – dil - ko'ngil*. Sinonimik qatordagi boshqa so'zlariga nisbatan keng iste'moldagi va ma'no jihatidan neytral so'z asosiy (dominant) so'z hisoblanadi. Yuqorida berilgan sinonimik qatorda „yurak“ so'zi asosiy so'zdir. Sinonimlar so'z boyligimizni oshiradi. Tilimizni ta'sirchan, jozibali qiladi.



Masalan, **Sovuq, salqin, yaxna, muzdek**


Salqin ichimliklar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish choralari ko'rilyapti.

E'TIBOR BERING:

Salqin havo (kun)

Muzdek suv

~~Yaxna ichimlik (go'sht)~~
~~Sovuq xona (xabar, odam)~~



SINONIMLARNING QISQACHA LUG'ATI

Abadiy – mangu, umrbod, toabad, doimiy

Ayb – gunoh, jinoyat, yoziq

Aytmoq – bayon qilmoq, izhor qilmoq, bildirmoq

Aytmoq – taklif qilmoq, chaqirmoq, chorlamoq

Aniq – ochiq, yaqqol, ravshan, oydin, ayon

Asa – asorat, nishon, iz

Asramoq – saqlamoq

Ahil – ittifoq, inoq, apoq-chapoq

Aqli – esli, oqil, aqli raso

Balandparvoz – dabdabali, bejama

Balo – usta, ustamon, bilag'on, bilarmon, chechan, epchil, uddaburon, chaqqon

Befahm – farosatsiz, betamiz, befarosat, haftafahm

Beg'ubor – toza, sof, musaffo, g'uborsiz

Bilimsiz – ilmsiz, o'qimagan

Butunlay – batamom, abadiy

Dushman – yov, g'anim, ag'yor, yog'i

Doim – mangu, hamisha, umrbod, abadiy

Daromad – kirim, kelim

Dangasa – ishyoqmas, yalqov

Foyda – naf

Farovonlik – to'kinlik, mo'lichilik, serobchilik, ma'murchilik

Hid – is, bo'y

Hijron – hajr, ayriliq, firoq

Hurmat qilmoq – izzat qilmoq, siylamoq

Hushyor – ziyrak, sezgir, tuyg'un

Ijlos – kir, nopok, irkit

Jahl – achchiq, g‘azab, qahr, zarda
Jirkanch – qabih, razil, manfur, nafratli
Kambag‘allik – muhtojlik, yo‘qchilik, faqirlik, qashshoqlik, gadolik, miskinlik
Kasb – hunar, kasb-kor, ish
Ketmoq – jo‘namoq, ravona bo‘lmoq
Kuy – tarona, ohang
Kutmoq – poylamoq
Kuchli – baquvvat, zabardast
Kuchsiz – bequvvat, kamquvvat, zaif, nimjon, ojiz
Ko‘rinish – tus, qiyofa, vajohat, turq
Kamob – kamchil, tanqis, tahchil
Kasal – betob, notob, xasta
Katta – yirik, azim, azamat, zo‘r, ulkan
Kelajak – istiqbol
Yetishmoq – erishmoq, yetmoq, muyassar bo‘lmoq, muvaffaq bolmoq
Yolg‘iz – yakka, tanho
Yoqtirmoq – xohlamoq, xushlamoq
Lavozim – mansab, amal, o‘rin
Loyiq – munosib, muvofiq, bop, mos, monand, maqbul
Mazali – lazzatli, laziz, totli
Muhtojlik – yetishmovchilik, tanqislik
Nomusli – xayoli, oriyatli, andishali, iboli
Noqulay – o‘ng‘aysiz, nobop
Qalbaki – soxta, yasama, sun‘iy, yolg‘ondakam, g‘ayri tabiiy
Qo‘shilmoq – birlashmoq
Rohat – huzur, lazzat, farog‘at, nash‘a
Ruxsat bermoq – ijozat bermoq
Sevgi – muhabbat, ishq
Sevinmoq – suyunmoq, quvonmoq, quvnamoq, shodlanmoq
Sezgi – his, tuyg‘u
Sarflamoq – xarj qilmoq, xarajat qilmoq
Sadoqatli – sodiq, vafodor
Saxiy – saxovatli, hotam, tanti, qo‘li ochiq
Tamomlamoq – tugatmoq, sop qilmoq, ado qilmoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq, quritmoq
Tarqoqlik – parokandalik
Takabbur – manman, dimog‘dor, kerik, kibrli
Tez – ildam, jadal

92-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlarning mosini qo‘ying.

1. Tevarak-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqealar va tinchligimizga (*xavf, tahlika*) soluvchi kuchlardan ... (*sabardor, ogoh, boxabar, voqif*) bo‘lishimiz darkor.
2. U mezbonlar bilan ... (*xayrlashib, vidolashib*), tashqariga chiqdi.
3. Men mavzuni yaxshi ... (*tushunmoq, anglamoq, uqmoq, fahmlamoq*).
4. Bo‘lib o‘tgan

voqealar tafsilotini va ... (**vaj, sabab, bois, bahona**)ini bilish ... (**uchun, niyatida, maqsadida, orzusida**) axborot agentligiga murojaat qildik. 5. Har ishda ham mayda ... (**kamchilik, ayb, qusur, nuqson**)lar uchrab turadi. 6. Do'stingning sodiqligini boshingga ... (**og'ir, zildek, zalvarli, vazmin**) tashvish tushganida bilasan.

93-topshiriq. Berilgan sinonimlarni iqtisodiy atama sifatida qo'llab. gaplar tuzing. Iqtisodiy atamalarga ta'rif bering va misollar yordamida izohlang.

*Daromad, kirim, kelim
Harajat, chiqim, buromad
Kamob, kamchil, tahchil
Sarflamoq, harj qilmoq, harajat qilmoq
Yig'moq, to'plamoq, jamg'armoq*

94-topshiriq. Sinonimik qatordagi qaysi so'z huquqshunoslik sohasida kengroq qo'llaniladi. Ular ishtirokida gaplar tuzing va ma'no nozikliklarini misollar yordamida ochib bering.

Masalan: *Oqni oq, qorani qora deyish oson emas. O'zini aybli sanagan odam ko'pincha tushkunlikka tushib qolishi mumkin. Guvohlar bayonoti bo'lishiga qaramay, aybdor o'zini erkin tutardi.*

*Aybdor, aybli, qora
Qo'lga olmoq, qamamoq, hibsga olmoq
Bo'shatmoq, qo'yib yubormoq, ozod qilmoq
Ochmoq, oshkor qilmoq, fosh qilmoq*

9. Nutqiy mavzu: Zamonaviy dunyoda ta'lim **Grammatik mavzu: Til va terminologiya**

ZAMONAVIY TA'LIM TARAQQIYOTGA XIZMAT QILADI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigida O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar muvaffaqiyati, mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan bog'liq ekani alohida ta'kidlandi.

Shu nuqtayi nazardan, keyingi bir yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya sohasiga oid 74-farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilingani bejiz emas. Maqsad farzandlarimizning zamon talablari darajasida, xalqaro andozalarga mos ta'lim-tarbiya olishi, kasb-hunar egallashiga erishish hamda yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash orqali mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashdir.

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ushbu sohadagi islohotlarni amalga oshirishning muhim huquqiy asoslaridan biri bo'ldi. Mazkur qaror oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Qarorda belgilangan vazifalarning samarali yechimini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash choralari ko'rilmogda. Oliy ta'lim tizimini 2017-2021-yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Dasturda har bir oliy ta'lim muassasasi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar, chora-tadbirlar belgilab berildi.

Jumladan, 2017-2021-yillarda Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti o'quv-laboratoriya bazasini modernizatsiya qilishga 7 milliard 561 million so'm miqdorida mablag' ajratiladi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish uchun 208 kompyuter, 185 proyektor va 350 dan ortiq boshqa texnik uskunalar olinadi. Buning uchun 1 milliard 910 million so'm yo'naltirilishi rejalashtirilgan.

Bakalavriat o'quv rejasi tuzilmasi va ularning mazmuni ham takomillashtiriladi. Masalan, o'quv rejasida maxsus fanlar bloki soatlari hajmini 15-20 foizga oshirish, ya'ni amaldagi 906 soat o'rniga 1254 soat etib belgilash, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki soatlari hajmini esa 5-10 foizga

kamaytirish, bilim sohaları doirasida matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokidagi fanlarni zaruratga qarab unifikatsiya qilish belgilangan.

Magistraturada ta'lim va ilmiy-metodik jarayonni tashkil etishda ham muayyan o'zgarishlar ko'zda tutilgan. Amaldagi tizimda magistrantlarga 2 yil davomida 15 fan o'qitilgan bo'lsa, yangi tizimda bu fanlar soni 9 tani tashkil etib, ularning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishiga ko'proq sharoit yaratiladi. Ya'ni magistrantlarning 1-kursdagi ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish vaqti 70 foizga, 2-kursda esa 80 foizga oshadi.

Dasturni amalga oshirish davrida institutda bakalavr va magistrlar tayyorlash bo'yicha qabul ko'rsatkichlari ham bosqichma-bosqich oshiriladi. 6 yangi bakalavriat yo'nalishi va 8 magistratura mutaxassisligi ochiladi. Buning natijasida 2021-yilga borib institutda talabalar soni hozirgidan 1200 nafarga ko'payib, 6100 nafardan oshadi.

Qaror talablaridan kelib chiqib, pedagog va ilmiy kadrlar malakasini oshirish, stajirovkasi hamda bitiruvchilarning PhD va magistraturada o'qitish bo'yicha 5 yil davomida 111 nafar professor-o'qituvchining xorijda ta'lim olishi rejalashtirilgan.

Professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha rektor jamg'armasini tashkil etish va uning hisobidan pedagogning o'quv jarayoniga hisssasi va kasb mahorati, ishidagi sifat ko'rsatkichlari va tarbiya jarayonidagi samarali mehnatiga qarab oylik maoshining 40 foizigacha ustama berish ko'zda tutilgan.

Institut binolari va talabalar turar joylarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 2018-yilda 580 o'rinli ikkita talabalar turar joyi binosini, 2018-2019-yillarda bosh o'quv binosini kapital ta'mirlash rejalashtirilgan. Shuningdek, 2019-2021-yillarda qurilish, qurilishni boshqarish, arxitektura fakultetlarining o'quv binolari ham ta'mirlanib, zamonaviy sharoitlar yaratiladi. Qurilish-ta'mirlash ishlari uchun 39 milliard 174 million so'mdan ziyod mablag' ajratilishi ham vazifalar ko'lami va salmog'i nechog'li yuqori ekanidan dalolat beradi.

Davlatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilayotgan yuksak e'tibor, albatta, sohada mehnat qilayotgan har bir professor-o'qituvchi, xodim mas'uliyatini oshirib, zimmasidagi burchni sidqidildan ado etishga, islohotlar jarayonida faol qatnashishga undaydi. Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti jamoasi bugun ana shunday istak bilan mehnat qilmoqda.

YAPONIYANI ENG ZO'R MAMLAKATLARDAN BIRIGA AYLANTIRGAN 10 XUSUSIYATI

Nima uchun yaponlar bunday aqlli ekanligini bilasizmi? Chunki ularning ta'lim tizimi juda ajoyib. Yaponiyadagi maktab o'quvchilari 4-sinfgacha imtihon topshirishmaydi, faqat kichik mustaqil ishlar yozishadi. Ilk uch yilda asosiy akademik bilim emas. Boshlang'ich sinflarda asosiy e'tibor tarbiyaga qaratiladi: bolalar insonlar va jonivorlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglik, birovning dardiga sherik bo'lish, haqiqatparvarlik, o'z-o'zini nazorat qilish va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

O'quv yilining boshlanishi 1-aprelga to'g'ri keladi. Dunyodagi aksariyat mamlakatlarda bolalar o'quv yilini yakunlayotgan bir paytda yaponlarda o'qish boshlanadi. Yil boshi mamlakatdagi tabiatning eng ko'rkam pallasi – sakura gullashiga to'g'ri keladi. Shu tariqa ular jiddiy va yangi pallaga qadam qo'yishadi. Akademik yil uch trimestrdan iborat: 1-aprel–20-iyul, 1-sentyabr–26-dekabr, 7-yanvar–25-mart. Shunday qilib yaponlar yozgi ta'tilda 6 hafta, qish va bahorda esa 2 haftadan dam olishadi.

Yapon maktablarida farroshlar yo'q, xonalarni bolalarning o'zlari tozalashadi. Har bir sinf navbatma-navbat xonalar, karidorlar va hatto hojatxonalarni tozalaydi. Shu tariqa bolalar jamoada ishlash va bir-biriga yordam berishni o'rganishadi. O'quvchilar tozalash ishlarini o'zlari bajargandan keyin xonalarni ifloslantirishmasa kerak. Bu ularni boshqalar mehnatini hurmat qilish va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Maktablarda faqat standart tushlik tayyorlanadi. Boshlang'ich va o'rta maktabda bolalar uchun maxsus lanchlar tayyorlanadi. Taomlar maksimal darajada sog'lom va foydali bo'lishi uchun ularning menyusi, nafaqat oshpazlar, balki tibbiyot xodimlari tomonidan ham ishlab chiqilgan. Barcha sinfdoshlar o'qituvchi bilan birga xonada tushlik qilishadi.

Birgina bitirish imtixonining natijalari barchasini hal qiladi. Bolalar yaxshi o'rta maktabga chiqish uchun boshlang'ich sinflardayoq xususiy va tayyorlov mashg'ulotlariga qatnashadi. Bunday mashg'ulotlar kechqurin o'tkaziladi, shu bois soat 21:00 da avtobuslarning qo'shimcha mashg'ulotlardan qaytayotgan bolalarga to'la bo'lishi Yaponiyada tabiiy holdir. Ular hatto yakshanbi va ta'til kunlari ham shug'ullanishadi.

95-topshiriq. “Men sevgan kasb” mavzusida insho yozing.

OLIJ O'QUV YURLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlari zamon talablariga javob beradigan, mamlakatning ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlay oladigan malakali va raqabotdosh kadrlarni yetishtirish uchun tashkil etiladi. Oliy o'quv yurtlarini joylashtirish va rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish, va joylashtirishda quyidagi omillar hisobga olinadi: poytaxt omili; tarixiy omil; ixtisoslashuv omili; kadrlarga talab-ehtiyoj omili; geografik o'rin va ekologiya omili; mintaqaviy omil; professor-o'qituvchilar sifati va boshqa omillar.

Poytaxt omili. Ko'pchilik mamlakatlarda kadrlar tayyorlash masalasida poytaxtlar alohida o'rin egallaydi. Buni Fransiya, Niderlandiya, Avstriya, Sharqiy Yevropa davlatlari, Rossiya Federatsiyasi va boshqa qator mamlakatlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda “poytaxt omili” ta'lim tizimida juda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yildagi ma'lumotlariga asosan hisob-kitoblarimizga ko'ra, Toshkent shahri hissasiga respublikamizda mavjud oliy ta'lim muassasalarining 47.6 foizi va talabalarning 40.5

% to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalari sonini ham, ulardagi mavjud talabalar miqdorini ham Toshkent shahrida naqadar yuqori darajada konsentratsiyalashganligidan dalolat beradi. Hech bir rivojlangan mamlakatda bunday holat kuzatilmaydi.

Tarixiy omil. Mazkur omil ta'limning u yoki bu mamlakatlarida ancha vaqt ichida rivojlanib kelayotgani bilan bog'langan. Bunga misol tariqasida Buyuk Britaniyada Oksford va Kemberdj universitetlarini, shuningdek, AQSh ning Garvard, Fransiyaning Sarbon, Rossiya Federatsiyasining Moskva davlat universitetlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda bir asr mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasasi mavjud emas. Lekin, 90 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan O'zbekiston Milliy universiteti, nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida kadrlar tayyorlash va ta'limini rivojlantirishda uzoq yillar mobaynida beqiyos rol o'ynab kelmoqda.

Ixtisoslashuv omili. Ushbu omil ta'sirida u yoki bu yo'nalishi, mutaxassisligi rivojlanadi va takomillashadi. Natijada ushbu bakalavriat yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida umumjahon miqyosida katta yutuqlarga erishish uchun yetarli sharoit va zamin yaratiladi.

O'zbekistonda ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari yoki ularning filiallari Navoiy, Chirchiq, Zarafshon, Olmaliq shaharlarida mavjud bo'lib, ular kon metallurgiya sanoati bilan bog'langan.

Mintaqaviy omil. Ma'lumki har bir mintaqada mamlakat iqtisodiyotning tarkibiy bir qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqalar ixtisoslashuvi va iqtisodining majmualari rivojlanganlik darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ma'lum bir mintaqalar doirasida iqtisodiy rivojlanish su'ratlarini tezlatish, hissalarini ko'tarish, vazifalari qo'yiladi. Ushbu vazifalarni hal etishda kadrlarning, eng avvalo oliy toifali kadrlarning o'rni beqiyos.

Geografik o'rni va ekologiya omili. Mazkur omil ta'lim tizimini hududiy joylashtirishda, unga xos yo'nalishlar va mutaxassisliklarni tashkil etishda muhim rol o'ynashi lozim. Bu, ayniqsa, o'qtuvchilar tayyorlashda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, foydali qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari, ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari, konchilik va neft-gaz ishi yo'nalishlarida qo'l keladi.

Kadrlar sifati omili. Mazkur omil oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishda, ularni mintaqalar bo'yicha joylashtirishda, ta'limning sifat ko'rsatkichlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnat bozorida kasb faoliyatini boshlashga qay darajada tayyorliklari ularning umumiy ta'lim va kasb tayyorgarligi darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Bozor munosabatlari sharoitida istalgan raqobatga bardosh bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda kadrlar sifati ko'rsatkichlarini takomillashtirish talab etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari tizimidagi islohatlarda oliy o'quv yurtlarining joylashuvini, bakalavriatura yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari reja ko'rsatkichlariga mahalliy shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda aniqlik kiritish masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu xususan, oliy o'quv yurtlari

talabalarining mintaqalar bo'yicha taqsimotida; ta'lim yo'nalishlari bilan ular joylashtirilgan mintaqalar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi o'rtasidagi nomutonosibliklarda, ta'lim yo'nalishlariga oid ko'rsatkichlarni belgilashda mintaqqa ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy rivojlanishi xususiyatlarini hamda mintaqqa mehnat bozoridagi talab va taklif to'liq hisobga olinmaganligida o'z aksini topadi.

96-topshiriq. Berilgan matnni o'qib tarjima qiling.

BRITANIYA UNIVERSITETLARI

Oksford universiteti Britaniyadagi eng qadimiy universitetdir. U XII asrda bir qator kollejlardan federatsiyasi sifatida tashkil etilgan. Uning tarkibiga 1249-yilda tashkil etilgan Universitet kolleji, Oll Souls, Krist Church, Oksford Katedral va birinchi qizlar kolleji Ledi Margaret Xoll kirgan.

U o'zining ajoyib kollejlardan arxitekturasi bilan mashhur. 1133-yilda shaharda ruhoniylarga to'liqroq ta'lim berish maqsadida universitet tashkil etish rejalashtirilgan edi. Lekin Oksford faqat Genrix II davrida haqiqiy universitet shaharchasiga aylangan. O'rta asrlarda Oksfordda faqatgina ruhoniylariga ta'lim olgan va ular asosan kambag'allar bo'lib, mahalliy aholidan xonalar ijaraga olib yashashgan.

Hozirgi kunda universitet tarkibida 35 ta turli kollejlardan mavjud bo'lib, shulardan ikkitasi faqatgina qizlar uchundir.

1208-yilda Oksforddagi turli qo'zg'olonlardan charchagan olimlar Kembrijda o'zlarining akademik jamiyatlarini barpo etadilar. Universitet tarkibidagi eng qadimiy kolleji Piterxans kolleji bo'lsa, eng kattasi Genri VIII tomonidan 1546-yilda tashkil etilgan Trinit kollejidir.

Shotlandiyada ham o'rta asrlarda barpo etilgan Edinburg, Glasgou, Aberdin universitetlari mavjud.

Uels universiteti 1893-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga oltita kollejdagi kirgan.

Eng mashhur kollejlardan Xristos cherkovi kolleji Merton va Magdalen kollejlari. Xristos cherkov kolleji eng katta va chiroqli kollejd hisoblanib, 1546-yili Genrix VIII buyrug'i bilan qurilgan. Magdalen kolleji 1458-yili Venchestir kollejining o'quvchisi tomonidan tashkil etilgan. Bodlean Libray – Oksfordning eng katta kutubxonasi bo'lib, unda 6 mingdan ortiq kitob bor. U 1598-yili tashkil etilgan.

97-topshiriq. Matnni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.



КЕМБРИДЖ

Кембридж — город в Англии, в графстве Кембриджшир. Он расположен в 70 км к северу от Лондона на реке Кэм. Самое раннее письменное упоминание о городе относится к 730 году, когда римляне разместили на берегу реки Кэм свой воинский гарнизон. Кембридж имел удобное речное

сообщение и выход к морям. Поэтому к нему сначала потянулись торговцы, а позже монахи, открывшие здесь несколько монастырей.

Кембридж известен как один из старейших университетских городов. Кембриджский университет был организован в начале XIII века по оксфордской модели (университет в Оксфорде появился чуть раньше). Он также состоит из нескольких автономных колледжей, каждый из которых является учебным, научным и административным центром и не подчиняется никому.

Эта модель сохранилась до наших дней, и это отличает Кембридж и Оксфорд от университетов, появившихся в более поздние времена. Среди самых известных сегодня колледжей Кембриджа: Trinity, King's, Queens, Clare. В историческом центре Кембриджа ограничено движение машин, поэтому здесь любимый вид транспорта — велосипед. На территорию университета заезжать запрещено.

98-topshiriq. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

DUNYONING TURLI MAMLAKATLARIDA TA'LIM TIZIMI QANDAY?

Avstraliya: ikkita majburiy fan

O'quv yili davomiyligi: 11 oy/haftasiga 5 kundan ta'lim olish davomiyligi: 12 yil ta'lim olish yoshi: 5-11 yil; uy vazifasi: yo'q; maktab formasi va baho tizimi: 100 ballik; bilimni sinash: testlar, insholar va dokladlar; baholar yiliga ikki marta pochta orqali yuboriladi; uchinchi sinfdan boshlab har ikki yilda imtihon topshiriladi.

O'qish mavsumi

Yangi o'quv yili yangi yil bayramidan biroz keyin boshlanadi, ya'ni yanvarning oxiri va fevralning boshida boshlanib, dekabrning boshlarida tugaydi. Ta'tillar har chorak orasida o'n kundan iborat bo'ladi. Darslar 08:30 da boshlanadi, katta tanaffuslar bilan soat 15:00 gacha davom etadi.

Maktab formasi

13 yoshgacha o'g'il bolalar shortiklarda yuradilar, keyin esa shimga o'tadilar. Tepa qismida pidjak yoki jemfer bo'lishi mumkin, biroq barcha maktablarda o'quvchilar shlyapa kiyishlari shart. Qizlarning maktab kiyimida getralar ajralib turadi. Yuqori sinf o'quvchilarining formalari hamma maktablarda har xil, ularga boshlang'ich sinf o'quvchilarining hududiga kirishi ta'qiqlanadi.

Ikkita majburiy fan

Yettinchi sinfgacha o'quvchilarga barcha fanlardan bir yoki ikkita muallim ta'lim beradi. Ta'lim olish formal emas, o'quvchilar sinfda o'zlarini erkin tutadilar. Ular sinfda yuradilar, bemalol gaplashib ham o'tiradilar, hatto polda ham o'tirishlari mumkin. 8chi sinfdan 10 chi sinfgacha o'qituvchilarning soni oshadi. Bolalar matematika va ingliz tilini majburiy o'rganadilar, qolgan fanlarni o'zlari tanlaydilar. Yuqori, ya'ni 11-12 sinflarda ta'lim olishning murakkabligiga qarab ham bo'linadilar. Avstraliya maktablarida bahoning aniq bir tizimi mavjud emas. Boshlang'ich sinflarda baholar umuman qo'yilmaydi. 3-6 chi sinflarda o'quvchililar

haftalik test sinovlari, nazorat ishlari va diktantlarni topshiradilar. Biroq baholar bir yilda ikki marta qo'yiladi va ota-onalarga pochta orqali yuboriladi.



TAYVAN

O'quv yilining davomiyligi: 10 oy/5 kun ta'lim olish davomiyligi: 9 (12) yil; ta'lim olish yoshi: 6-15 (18) yil; uy vazifasi: bor; maktab formasi: bor; baholash tizimi: 100 balllik; bilimni sinash: testlar, imtihonlar.


Tozalik uchun zachyot

Tayvanlik o'quvchining har tongi 07:30 da ertalabki badantarbiya va maktabni tozalash bilan boshlanadi. Maktabda tozalik qattiq nazorat qilinadi. Oliy ta'lim muassasalarida ham talabalar yil davomida universitet hududini tozalaydilar va buning uchun ularga zachyot ham qo'yiladi. Agarda ular ko'ngildagidek tozalamasalar, majburiyat cho'zdiriladi. Darslar 08:30 da boshlanadi va 10 daqiqalik tanaffus bilan 16:30 gacga davom etadi. Faqat lanch uchun yarim soatlik tanaffus belgilangan. Hozirgi kunga kelib esa mamlakatning ba'zi maktablarida o'quv kunini bir soat keyinga surish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Ta'lim reformasi

2018-yilda yuqori sinflarda ta'lim reformasini yakunlash rejalashtirilmoqda. Unga muvofiq bolalar fanlarning asosiy qismini o'zlari tanlaydilar hamda iqdidorlariga qarab ularni o'rganadilar, ya'ni har bir o'quvchining shaxsiy dars jadvali bo'ladi. Oxirgi reformaga muvofiq o'qituvchilar ta'tilga uy vazifasini bermaydilar. Hukumat bolalar ko'proq dam olishlari kerak, degan qarorga keldi. Maktabdagi intizomga esa qattiq qaraladi. Har bir o'quv maskanining o'z shaxsiy formasi bor. Bu formani kiyishni xohlamaganlar uchun esa jazo qo'llaniladi, masalan qaysidir xonani qo'shimcha tozalash. PISA reytingi bo'yicha, Taybey viloyatining maktablari eng yaxshi ta'lim muassasalarining o'ntaligidan bir necha marta joy olgan.

FINLANDIYA TA'LIM MUASSASALARI



O'quv yilining davomiyligi: 10 oy/haftasiga 5 kundan Ta'lim olish davomiyligi: 9 yil ta'lim olish yoshi: 7-16 yosh; uy vazifasi: deyarli yo'q; maktab forması: yo'q; baholash tizimi: 10 ballik; bilimni sinash: imtihonlar bekor qilingan, bilim bahosi 4 chi sinfdan boshlab qo'yiladi.

Imtihonlar yo'q

Finlyandiyaning o'quv yili biznikiga o'xshaydi. Avgust oyida boshlanib, may oyida tugaydi. Kuzgi mavsumda 3-4 kunlik ta'til bo'ladi va yangi yil arafasida boshlanadigan ikki haftalik ta'til ham bor. Undan tashqari bahorda ham o'quvchilar dam olishga chiqadilar. Darslar haftaning begim kunlari ertalabki soat 8 yoki 9 da boshlanadi va tushlikkacha davom etadi. Darslar 45 daqiqa davom etadi va ularning orasida 15 daqiqalik tanaffus bo'ladi. Farqli tomonlari ham bor. Imtihonlarning o'rmiga bu yerda fanlar bo'yicha o'rta baho tizimi mavjud bo'lib, ularning asosida kolledj va litsyalar qabul amalga oshiriladi (bu ta'limning ikkinchi pog'onasi bo'lib, undan keyin ishlash yoki Oliy ta'lim muassasasiga kirish mumkin).

Reforma

2020-yilga kelib, darslar boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Finlyandiya maktab reformasi bo'ladi, unga asosan o'quvchilar har xil alohida fanlarni o'zlashtirmasdan, bir mavzuga oid bo'lgan qator fanlarni o'rganadilar. Masalan, iqlim o'zgarishi haqidagi soha tanlansa, unda ekologiya, tabiatshunoslik, iqtisodiyot va siyosat o'rganiladi. Bunday mashg'ulotlar uch soatga yaqin bo'ladi. Fin maktablari ham bir necha marotaba eng yaxshi ta'lim muassasasi reytingidan joy olgan.

99-topshiriq. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi tassurotlarni yozing.

Grammatik mavzu: TIL VA TERMINOLOGIYA

TERMIN [lot. (terminus – chek, chegara)] Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Botanika terminlari. Zargarlik terminlari. Paxtachilik terminlari: Yo'ldosh.. Elmurodga notanish terminlarni.. tushuntira ketdi. (Shuhrat, Shinelli yillar.) Terminlar ilmiy kommunikasiyadan jonli so'zlashuvga o'tganda, xalq uchun tushunarli so'zlarga aylana boradi. **TERMINOLOGIK** terminologiyaga, terminlarga oid. Terminologik lug'at. So'zning terminologik ma'nosi. Determinlashish – terminologik sistemadagi so'zning adabiy tilga to'la o'zlashishidir.

TERMINOLOGIYA [lot. Terminus – chegara + yun. Logos – fan, ta'limot]

1. Fan, texnika, kasb-hunarning biror sohasida qo'llanadigan terminlar majmuyi. Texnika terminologiyasi. Harbiy terminologiya. Ilmiy terminologiya. O'zbek tili terminologiyasi: Qori aka fanlar ichida avvalo matematikani sevib o'rganadi va uning o'zbekcha terminologiyasini ishlab chiqadi. (M. O'rozboyev, Mo'jizalar olami.)

2. Tilshunoslikning terminlarni o'rganish, tartibga solish bilan shug'ullanuvchi sohasi. Terminologiya mutaxassisi. Terminologiya bo'limi. Seminar rus va o'zbek

tillarining fonetikasini qiyosiy o'rganish, orfoepiya, terminologiya va leksikologiya masalalariga alohida e'tibor beradi.

ATAMA – Termin.

Umuman, nom. Pekin shamani har bir xalq o'z tilidagi nom, atama bilan yuritib kelgan. "Fan va turmush". Respublikamizning o'zidagina 400 dan ortiq turlituman qovun atamaları mavjud ekan. "Fan va turmush".

ATAMASHUNOS – atamalar bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

ATAMASHUNOSLIK– atamalarga oid ilm; atamalarga oid masalalar bilan shug'ullanuvchi soha. Shu munosabat bilan mamlakatda Atamashunoslik qo'mitasi tuzildi.

Terminlarni (tor soha birliklrini) noterminlarga (milliy tilning umumiste'moldagi leksemalariga) qarama-qarshi qo'yish [masalan, qarang: Ye.N.Tolikina, 54-55] tamoyili o'zini oqlamadi, chunki u ikki lug'aviy qatlam orasida doimo transpozitsiya holatida kuzatiladi. N.P.Kuzkinning fikriga qaraganda, ular orasida mazmunan ham, shaklan ham jiddiy farq yo'q.

Terminga qo'yiladigan me'yoriy talablar dastlab terminologiya maktabi asoschisi D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan. Bu talablar quyidagilardir: tizimlilik, kontekstga bog'liq emaslik, qisqalik, bir ma'nolilik, aniqlilik, oddiylik, tushunarlilik, tatbiq etilganlik darajasi va b. Ular ayrim aniqlik va qo'shimchalar bilan ko'plab olimlar, jumladan, I.N.Volkova, A.V.Krijanovskaya, L.A.Simonenko va boshqalarning ishlarida sanab o'tilgan.

Quyida shu talablarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Tizimlilik: har qanday termin muayyan terminologik tizimning bir bo'lagi. Aynan shu xususiyat uni termin maqomiga ko'taradi. Terminotizim esa ikki xil tizimlilikka ega – mantiqiy tizimlilik va limsoniy tizimlilik [Bu haqda qarang: Leychik, 15-16].

2. Bir ma'nolilik: termin faqat bir ilmiy yoki texnik tushunchani ifodalashi va bir tushuncha faqat bir ma'noga mos bo'lishi kerak. Termin ma'nosining kontekstga qarab turlanib turishi, D.S.Lottega ko'ra, terminologiyaning eng jiddiy kamchiliklaridan biridir.

3. Qisqalik (lo'ndalik, ixchamlik): terminning qisqa ma'nosi – funksional nuqtayi nazardan ma'noga teng shakl. Uni erkin va ixtiyoriy shakl sifatida qo'llashning imkoni yo'q.

4. Aniqlilik: ilmiy tushuncha aniq chegaraga ega va bu chegara uning ta'rifida o'z ifodasini topadi. Terminning aniqligi deganda uning ta'rifida berilgan tushunchaga xos barcha belgilarning mavjudligi tushuniladi.

5. Limsoniy asos: o'z yoki o'zga til asosida yasalgan terminlardan birini tanlash lozim bo'lganda, albatta, o'z termindan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki o'zlashma terminlarni ko'p va asossiz ravishda qo'llash muqarrar ravishda terminologiyaning umumxalq tilidan ajralib va nomutaxassislarga tushunarsiz bo'lib qolishiga olib keladi [Qarang: Volkova, 75].

Terminning struktura tarkibi, V.P.Danilenkoning ko'rsatishicha, uch lug'aviy qatlarni o'z ichiga oladi: 1) noterminologik leksika; 2) umumilmiy leksika; 3) terminologik leksika. Agar umumilmiy terminlar bir fan doirasi bilan

chegaralanmaydigan umumiy ma'nolarni ifodalasa, terminologik leksika (konkret terminotizimning maxsus so'zlari) ilm-fan tilining eng ko'p ma'no tashuvchi qismidir.

Z.I.Komarova leksemalarni stilistik nuqtayi nazardan me'yoriy (so'zning o'z ma'nosidagi terminlar) ayri me'yoriy terminoid individual obrazli iboralar) guruhlariga ajratadi [Qarang: Komarova, 21].

Terminlar – ilm-fan, texnika, san'at, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qo'llanadigan maxsus nomlardir. Ular, o'z navbatida, proteterminlarga, ilk terminlarga va terminoidlarga bo'linadi [Bu haqda qarang: Komarova, 21].

Ko'pincha, termin va nomenklatura tushunchalari o'zaro farqlanmasdan qo'llanadi. Shuning uchun ushbu o'rinda yo'l-yo'lakay nomenklaturaga ham munosabat bildirishga to'g'ri keladi. Nomenklatura (lot. Nomenclatura – ro'yxat) – ilm-fanning turdosh (tipik) obyektlari nomi. Agar termin umumiy tushunchani ifodalasa, nomenklatura xususiy tushunchani ifodalaydi. Masalan, ta'lim muassasalari turlari, o'quv-didaktik jihoz va shu kabi nomlari nomenklaturalardir.

Yuqorida bayon qilinganlar quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Termin – u yoki bu so'z yoki so'z birikmasining ilm-fan tilida kasb etadigan funksiyasidir. Shuning uchun mazmur terminlarni qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan ularni ta'riflashga harakat qilish besamar usul hisoblanadi.

2. So'z va so'z birikmasi narsa-hodisaning umumiy va xususiy nomi bo'lsa, termin tushunchaning nomidir.

3. Termin, hech bo'lmaganda, bir soha doirasida faqat bitta ma'noni anglatishi, aniq, qisqa, tushunarli, tizimli va asoslangan bo'lishi kerak.

4. Termin yasashda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish eng muqobil va to'g'ri yo'l sanaladi. Aks holda, har qanday terminolizim umumadabiy til me'yorlaridan uzoqlashadi va pirovard natijada, nafaqat oddiy o'quvchiga, balki, mutaxassislarga ham tushunarsiz bo'lib qoladi, tilning tozaligi tamoyiliga jiddiy putur yetkazadi.

5. Bizda umumiy terminologiyaga qaraganda, sohaviy terminologiya ko'proq o'rganilgan. Shuning uchun terminologiyaga doir nazariy bilimlarimiz sayoz.

6. Terminologiya va nomenklatura, ularning umumiy va xususiy tomonlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar yo'q hisobi.

100-topshiriq. Ilm- fan, texnika sohasiga tegishli atamalarga misollar keltiring.

101-topshiriq. Iqtisodiyot sohasiga oid terminlar ishtirokida matn tuzing.

102-topshiriq. Turizm sohasiga tegishli terminlar ishtirokida matn tuzing.

103-topshiriq. Monitoring, diler, skaner. Ushbu so'zlar....qatorini davom ettiring.

10. Nutqiy mavzu: Kitob mutolaasi

Grammatik mavzu: Erkin va turg'un birliklar

KITOB – BILIM XAZINASI

Dunyoga mashhur mutafakkirlardan biri kitob haqida: “Qancha-qancha kunlar, uyqusiz tunlarning mehnati, qanchalab aql-quvvat, umid va tashvishlar, bardosh bilan faqat izlanishga baxsh etilgan qancha-qancha umrlar bosmaxonaning mana shu mayda harflariga jo etilgan, tevaragimizdagi torgina javonlarga yig'ilgan”,– degan ekan. Haqiqatan ham, kitob – insoniyatning bebaho xazinası. Unda barcha bilimlar, ma'naviy boyliklar jamlangan. Inson kitob yordamida aql-zakovat koshonasiga dadil qadamlar bilan kirib borishi mumkin. “Kitob – beminnat ustoz. Har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinası bilan oshno eta olad”,– deb yozadi buyuk shoir va mutafakkir Mir Alisher Navoiy.

Inson hayotida kitobning o'rni beqiyosdir. Erishgan bilimlarimiz va ma'lumotimiz uchun biz kitob, deb atalmish bilimlar xazinadoni oldida qarzdormiz. Kitob doim bizni fikrlashga, halol yashashga, Vatanni sevish, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish va ma'naviy me'rosimizni asrashga, ezgulikka chorlab kelgan.

Shuni alohida qayt etishni istardikki, O'zbekistonda kitobga bo'lgan qiziqish va hurmat hamda uni e'zozlash azaldan shakllanib kelgan. Jamoatchilik fikrini o'rganuvchi “Ijtimoiı fikr” Respublika markazi doimiy ravishda kitobhnlarning badiiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ma'rifiy kitoblarga bo'lgan qiziqishi va talablarini o'rganish maqsadida aholi o'rtasida so'rovlar uyushtirib turadi. Respublikada o'tkazilgan so'nggi so'rovlar shuni ko'rsatdiki, jamiyatimizda kitobning ahamiyati, aholining kitobga bo'lgan talabi doim oshib bormoqda. So'rovnomada ishtirok etganlarning aksariyati kitob bilim va ma'naviy yuksaklikka erishishning eng asosiy manbaalaridan biri, deb hisoblaganlar. Bu esa davlatimizning yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash hamda milliy-madaniy va ma'naviy me'rosimizni avaylab-asrashga qaratilgan siyosati natijasi ekanligi shubhasizdir.

O'zbekiston nashriyotlari ko'plab nufuzli xalqaro kitob ko'rgazma va yarmakalarida ishtirok etib, doimo avvalgi o'rinlarni egallab kelmoqdalar. Jumladan, joriy yilning iyun oyida O'zbekistonning “O'zbekiston”, “O'qituvchi”, “G'afur G'ulom” va “Cho'lpon” nomidagi nashriyotlari Moskvada bo'lib o'tgan “Kitob san'ati” Xalqaro konkursida ishtirok etib, turli nominatsiyalar bo'yicha g'olib bo'ldilar.

Shuni alohida qayd etish zarurki, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining “Kitob dunyosi” gazetasi shu kunlarda “Eng yahshi kitob” Ikkinchi Respublika tanlovini o'tkazmoqda. Tanlovning asosiy maqsadi matbaa va nashriyot sohasida respublikada faoliyat yurituvchilarni rag'batlantirish hamda kitoblar nashri va matbaa ijrosi sifatini aniqlashdir.

Hozirda yoshlarimiz asosiy axborotlarni televidenie va Internet orqali olmoqda. Shu bois yoshlarni kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish ularning ma'naviy yuksalishi hamda umumiy madaniy saviyasini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

“O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”,– deb yozadi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asarida. O‘zbekiston o‘zining ko‘p asrlik madaniy durdonlarini, jahonga mashhur allomalarning ilmiy-adabiy me‘rosini, jumladan ular qoldirgan noyob kitoblarini kelajak avlod uchun avaylab-asrab, yosh avlod o‘rtasida ommalashtirib, keng targ‘ib qilib kelmoqda.

Kitob – bilim manbasi. Kitob mutolaasi esa insonni hayoti davomida mukofot bilan taqdirlovchi sharaflı mehnatdir. Bu borada farzandlarda kitob mutolaasiga mehr uyg‘otishda oila muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlarimizda kitobga mehr uyg‘otishga harakat qilaylik!

Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini yanada yuksaltirish, yosh avlodni mutolaaga undash kabi vazifalar olib borilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Binobarin, davlatimiz rahbarning 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishida ham bu vazifalar keng qamrovda o‘zining aniq ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan farmoyishi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishini o‘qib, insoniyatning jaholatga qarshi birinchi muqovalangan isyoni kitobdir. Riyo-yu razolat, tubanlik, pastlikka qarshi odam bolalari bino etgan ilk istehkom ham kitob sanaladi.

Dunyoviy qabohat, zulmu zalolatning jahoniy huruj-hamlasiga qarama-qarshi o‘laroq bani bashar avlodi mustahkam, yemirilmas va qudratli lashkar sanalmish kitob armiyasini bunyod etdiki, mana, ming-ming yillar, asrlardan buyon jahon sahnida bir-biriga zid ikki muqobil kuch – ma‘rifat va jaholat, ezgulik va yomonlik timsolida kecha-yu kunduz tin olmay, tinim bilmay bir-biri bilan ayovsiz kurash olib borayotir. Ming-ming yillarkim bu muhoraba bir zum bo‘lsa-da tingani yo‘q. Dunyoning bugungi avzoyiga ko‘ra hali-beri tinmog‘i ham dargumon.

Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi, – dedi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev – Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do‘st bo‘lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Prezidentimiz bu masalani qayta-qayta ta‘kidladi:

Yoshlarni kitobga, kitobxonlikka qaytarish kerak! Kitobsiz kelajak yo‘q!

Oliy minbardan yangragan bu so‘zlar ertasi kunyoq mamlakatimizning barcha go‘shalarida, eng chekka hududlargacha aholining barcha qatlamlarida aks-sado berdi. Yoshu qari, erkayu ayol, o‘qituvchi bilan shifokor, fermer bilan tadbirkor – turli kasb, turli toifadagi vatandoshlarimiz og‘zida shu gap, shu xayrihohlik bilan shu quvonch va hayajon:

Juda to'g'ri aytili. Vaqtida aytili. Xudoga shukur ro'zg'orimizam but, qornimizam to'q. Endi tarbiyani ham butlash vaqti keldi...

Bu gaplarni yurtdoshlarimiz o'rtasida nechog'li keng va mo'l muhokama qilinganiyu naqadar qizg'in va yakdillik bilan qo'llab-quvvatlanganini biz qalam va kitob ahli, kitob va kitobxonlikka bevosita aloqador shoirlar va adiblar Vatanimizning barcha shahar va qishloqlarida eldoshlarimiz bilan bo'lgan uchrashuv va muloqotlarda o'z ko'zimiz bilan ko'rib, o'z qulog'imiz bilan eshitib guvoh bo'ldik.

104-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

KITOB TARIXI HAQIDA

Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan, bu davrda u turli xil ko'rinishlarni olgan. Bobilliklar, osuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. Buning uchun yumshoq loydan tayyorlangan plitalarga uchli yog'och bilan maxsus belgilar tushirilgan. So'ngra uni oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan. Kitoblar, hatto, kutubxonalar mana shunday maxsus loy plitalardan tashkil topgan.

Shoh Anshurbannipal (miloddan avvalgi VII asr) ga qarashli shunday kutubxonani yuz yil muqaddam qadimgi Osuriya davlatining poytaxti bo'lgan joydan qazib topilgan.

Xitoyda esa, dastlab kitobni yupqa bambuk plastinkalarga yozishgan va plastinkalardan pishiq tizimga o'tkazib qo'yishgan. Keyinchalik xitoyliklar o'z kitoblarini mo'yqalam (cho'tkacha) va tush bilan ipakka, milodiy II asrdan boshlab qog'ozga yozishgan.

Qadimgi Misrda kitob matnlarini tosh plitalarga o'yib yozishgan. Keyin papirusni ixtiro qilishgan. Jips qilib bostirilgan qamish plastinkalarni bir necha o'n metr gacha uzunlikdagi lenta shaklida yelimlaganlar. Ularni o'rog'liq holda saqlaganlar. Misr papiruslaridan deyarli ikki ming yil davomida Yunoniston va qadimgi Rimda yozish uchun yaxshi material sifatida foydalanishgan.

Miloddan avvalgi II asrda Pergan podshohligidagi ustalar yozuv uchun hayvon terisidan yangi material – pergament tayyorladilar. Yunoniston va qadimgi Rimda papirus va pergament juda qimmatbaho material bo'lganligi uchun xomaki main va xatlarni uchi o'tkir tayoqcha bilan ustiga mum surtilgan taxtachaga yozganlar.

XIII asrdan boshlab, Evropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qolgan.

105-topshiriq. Quyidagi matnni tarjima qiling.

О КНИГАХ

Как велико было моё изумление когда я почувствовал, что почти каждая книга как бы открывает предо мною окно в новый неведомый мир, рассказывая мне о людях, чувствах, мыслях и отношениях, которых я не знал, не видел.

Чем больше я читал, тем более книги роднили меня с миром, тем, ярче, значительнее становилась для меня жизнь.

Нередко я плакал, читая, - так хорошо рассказываются о людях, так милы и близки становились они

KITOBXONLIK

– Yur, seni kitobxonlikka olib boray, – dedilar bir kuni rahmatli otam Maqsud Sobir o‘g‘li. Kitobni yolg‘iz o‘qishga o‘rganib qolgan kamina ra‘ylarini qaytarmay ergashdim. Isajon tog‘amning mehmonxonasiga mulla Muhammad Zohid domla, Ne‘matxon bobo, yana bir qancha keksalar yig‘ilishgan edi. O‘zimcha hayronman: nega bu kishilar kitob o‘qirkanmiz, deb shuncha taraddudlanib o‘tirishibdi? Hammasi o‘z uyida o‘qiyvermaydimi? Nihoyat mutolaa boshlandi: mulla Muhammad Zohid domla yo‘l-yo‘l beqasam jildli kitobni qo‘lga olib, dedilar:

– “Javome‘ul-kalima”ni davom ettiramizmi?

– Shunday bo‘lsin, taqdir...

Mulla Muhammad Zohid domla bosiq bir shirador ovoz bilan dona-dona o‘qir, ba‘zan o‘qiganining mazmunini tushuntirar, atrofdagilarning fikrini so‘rardi, so‘ng esa yig‘ilganlar qizg‘in bahsga kirishishar, har bir so‘zning mag‘zini chaqishardi. Kamina lol bo‘lib o‘tirardim. Mana, kitobning mag‘zini qanday chaqish kerak ekan!

(Turab Maqsud)

EHTIYOJ VA TAJRIBA

*Turk piri kebi olamdin etakni silking,
Do‘stdin g‘ayri tamannoi visol aylamangiz.*

Alisher Navoiy

Olamni kitobday o‘qish va bilish uchun, albatta, kitob o‘qish kerak. Olam sir-asrorini anglashdan huzurlanish kitobsiz amalga oshmaydi. Kitobga ko‘chgan dunyo – o‘ziningbiri biridan chigal, biri ikkinchisidan ziddiyatli muammolarini tanigan, tan olgan dunyo.

Ayni paytda mutlaq tarzda insoniylashgan, odamiylik mohiyatidan chetlay olmaydigan dunyodir. Har bir buyuk badiiy kitob – olam va odamning birligini ko‘rsatishga, shu birlik buzilsa yoki rishtalari susaysa, olam va odam taqdirida qiyinchiliklar ortishi, muvozanat buzilishi talqin etilgan kitob hisoblanadi. Bunday kitobni yaratish hamma ijodkorning qo‘lidan kelmaganidek, hamma asar ham odamiylik mohiyatining tub asoslarini ochish orqali u yoki bu xalqning dunyodagi madaniy, ma‘naviy va axloqiy mavqeyini yoritishga xizmat qilolmaydi.

Xoja Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”i dunyoga kelishi bilan turkiy xalqlar o‘zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma‘nosi ila Ma‘rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga sohib millat o‘laroq e‘tirof etilgan. Ahmad Yassaviydan keyingi turkiy xalqlarning tarixi – ma‘naviy-axloqiy hayotda yangi yo‘nalish, yangi ilohiy nuqtayi nazar shakllangan, komil inson haqidagi tasavvurlar to‘la oydinlashgan tarix erur. Zero, arab va fors tasavvuf tushunchalarini milliy ehtiyojga muvofiq ravishda o‘zlashtirish va favqulodda sodda, xalqona talqinlarni yaratishni ham tarix Ahmad Yassaviy zimmasiga yuklagan edi. Mashhur usmonli turk shoiri Yahyo Kamol atoqli olim Muhammad Fuod Ko‘prulizodaga: “Ahmad Yassaviy kimdir? Merosining sir-asrori nedir? Shuni bir chuqur o‘rganing. Milliyatimizning asoslarini ana o‘sha joyda topursiz!”, – degan ekan.

Ko‘prulizoda shundan so‘ng ishga kirishib, “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar” nomli tadqiqotini yozgan. Bu kitobning hanzugacha mashhurligi va

qiziqish bilan o'qib kelinayotganligi ham tasodif emas. Unda muallif Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar orasida ilk dafa tasavvuf maslagini vujudga keltirib, asrlar mobaynida ruhoniyatda hukmronlik qilganligini yaxshi yoritib bergan. So'fi Olloyor avlodlarga Ahmad Yassaviydan "ulug' bir kitob" meros qolganligini aytadi.

Bu – hikmatlar majmuasi ekanligi aniq. Ammo ushbu nodir kitobning qadimiy qo'lyozmasi saqlanmagan. Saqlanib qolgan bo'lsa-da, haligacha topilgani yo'q. Muammolarning muammosi ana shu. Ahmad Yassaviy adabiy shaxsiyati va ijodiyotiga ishtibohli qarashlar, adolatsiz va bir yoqlama tanqidlar, bir-biriga zid va mutlaqo teskari munozaralar – bularning deyarli hammasi asosan shu zaminda paydo bo'lgan. Biroq buyuk Yassaviy ijodiyoti ta'qiqlash bilan to'xtab qoladigan, tanqid va taqiqlashdan ahamiyatini boy beradigan bir ijod emas. Aksincha, u hech qanaqa qarshilik va zo'ravonlikka mag'lub bo'lmaydigan she'riy merosdir. "Devoni hikmat" insonni nafsparastlikdan, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy quturishlardan asraydi.

Bu bebaho asar hirsu havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlaridan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish va qanday anglash, anglabgina qolmasdan Yassaviy so'zlariga amal ham qila bilishdadir. Agar "Devoni hikmat"ni mutolaa qilib, ozmi-ko'pmi o'z ahvolimizni tushunsak, undagi umumiy ruh, mohiyat va ma'rifat shavqi qaysi bir darajada aqlidan jaholatni, qalbdan g'aflatni chetlashtirsa – urinishimiz besamar ketmagan bo'ladi. Demak, biz tosh chaynasak-da, haqiqatning kuch-quvvati, ishqning hayotbaxsh zavqiga suyanib, inonib yashashga urinmog'imiz joiz. Quvonarlisi shundaki, so'nggi o'n-o'n besh yil mobaynida "Devoni hikmat"ni xalqqa qaytarish, keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda xayrli ishlar amalga oshirildi. Asar XIX asrda Toshkent, Turkiya, Moskva va Qozonda chop etildi.

"Devon"ning eski qo'lyozmasi qo'lga kiritilmaganligi bois undan qancha hikmat o'rin olganligini bilmaymiz. Yassaviy izdoshlari tomonidan qo'shilganlari qaysi, tahrir va o'zgartirishlar bo'lganmi, bunga asos nima – bular ham noma'lum. Ammo bir narsa ma'lum: "Devoni hikmat"ning XI asrlarga mansub qo'lyozma va toshbosma nusxalarida hikmatlarning umumiy miqdori ancha ko'pdir. Buning bir isboti sayramlik olim Mirahmad Mirxoldor o'g'li bilan usmonli turk olimi Metin Oqarning Istanbulda bosilgan "Xoja Ahmad Yassaviyning yangi topilgan hikmatlari" nomli kitobi hisoblanadi.

Gap shundaki, ushbu kitobdagi "yangi hikmatlarning hammasini ham Yassaviyga nisbat berib bo'lmaydi. Bunga yosh yassaviyshunos tadqiqotchi Nodirxon Hasan "Jahon adabiyoti" (2002-yil, 10-son) jurnalida bosilgan maqolasida maxsus to'xtalib, tildagi farqlarni ham dalillar bilan asoslashga uringan. "Devoni hikmat"ning qadimgi nusxasi bizgacha yetib kelmaganligini qayd etarkan, Nodirxon Hasan yana bunday deydi: "Lekin keyingi asrlardagi qo'lyozmalar, toshbosma nusxalar, yurtimizdagi va Turkiyadagi joriy alifbo chop etilgan nashrlar asosida "Devoni hikmat"ning qiyosiy, ya'ni ishonchli matnini tayyorlash bir zaruriyatga aylandi. Bu yassaviy shunoslikdagi eng muhim va alohida ilmiy-amaliy qimmatga ega bo'lgan ish hisoblanadi". Chindan ham xuddi shunday.

Haqiqatda ham “Devoni hikmat”ning qiyosiy-yig‘ma bir matnini yaratmoq shartdurki, bu bag‘oyat qiyin, mashaqqatli vazifani baholi qudrat bajarishga Nodirxon Hasanining bel bog‘lagani, albatta, tahsinga loyiq. Mana, bir necha yildirki, u shu ish bilan band. Uning bir fazilatini ta’kidlashni istardim: u Ahmad Yassaviy mavzusida shoshilmasdan, qiyinchilik va mashaqqatlarga chap bermasdan mehnat qilayotir. Yassaviy hayoti, ijodi, yassaviylikka doir qadimiy manbalar, mo‘tabar kitoblarni axtarib topish va tadqiqotchi nigohi bilan ularni puxta o‘rganishda u kundan kunga ilgariamoqda. Xorijdagi, xususan, Turkiyadagi ilmiy izlanishlar va natijalardan yetarli ma’lumotga ega. Shuningdek, o‘zining ham maqolalari Turkiyadagi jurnal va majmualarda ketma-ket chiqib turibdi.

Eng muhimi. ba’zi yoshlarga o‘xshab jindek muvaffaqiyatdan hozircha esankiragani ham, maqov kutib to‘xtagani ham yo‘q. “Devoni hikmat”ning yangi- yangi qo‘lyozmalarini izlash, qo‘lga kiritilganlarini boshqalari bilan qiyoslash va ko‘zlangan bosh maqsadga yetishish uchun u vaqtdan ancha unumli foydalanmoqda. Buning bir samarasi esa qo‘lingizdagi kitobdir. Uni nashr etishdan ko‘zlangan maqsad faqat yangi hikmatlar bilan o‘quvchini tanishtirish. tanlangan she‘rlar Yassaviy qalamiga mansubligiga ko‘pchilikni ishonitirish yoki iqrar aylash emas. Balki “Devoni hikmat” muhiblari, xususan, din, tasavvuf, adabiyot mutaxassislari, tarixchi va tilshunos olimlarning fikr-mulohazalarini ham eshitishdir. Chunki to‘plamdagi qator to‘rtliklar Yassaviyniki ekanligi shaxsan menda ishtiyoq uyg‘otdi. Bunday shubha va ishonchsizlik boshqalarda ham tug‘ilishi mumkin. Lekin Nodirxon Hasan zarur, xayrli, nainki adabiyot, fan, xalq uchun ham muhim bir ishga qo‘l urganligiga inonmaslikning iloji yo‘q. Zero, “Devoni hikmat”ning hech bo‘lmaganda, qiyosiy-yig‘ma matnini tuzmaslik – yassaviyshunoslik istiqboliga loqayd qarash, bir paytlardagi besamar tortishuv, g‘arazli iddao va johilona munozaralarga yana yon bermoqdir.

Yassaviy ijodiyotini puxta anglash va his qilishga yaqindan yordam beradigan bir qancha ilmiy-adabiy, irfoniy-manqabaviy manbalar bizgacha yetib kelgan. Shulardan biri hazratning xalifalaridan bo‘lmish So‘fiy Muhammad Donishmandning “Mir‘ot ul-qulub” nomli risolasidir. Kitobda mana shu risola ham ilova qilindiki, o‘quvchilar undan bahramand bo‘lishlari shak-shubhasiz.

KITOB – ENG BUYUK KASHFIYOT

Birinchi qissa. Buyuk hakim, olim va faylasuf, Sharqda “Donishmandlar sardori” nomini olgan Ibn Sino yozadi: “Arastuning “Metafizika” (tabiatdan tashqaridagi hodisalar haqidagi fan) asarlarini to yod bo‘lguncha qayta-qayta o‘qidim. Lekin baribir hech narsaga tushunmadim. Tushunarsiz asar ekan, degan xulosaga kelib uni tashlab qoydim. Bir kuni muqavasoqlar bozoridan o‘tayotib, bir savdogarning o‘z kitoblarini maqtayotganini eshitib qoldim. Do‘konga yaqin bordim. Savdogar menga kitoblardan birini ko‘rsatdi. Bu Abu Nasr Farobiyning “Metofizikaning asosiy qoidalar” deb nomlangan asari edi. Men biroq tajang bo‘lib, bu tushunarsiz ilmdan hech qanday foyda yo‘qligini aytib, kitobni rad etdim. Sotuvchi esa qo‘yarda-qo‘ymay kitobni arzon bahoda sotib olishga undardi. Axiyri kitobni bor-yo‘g‘i uch dirxamga sotib oldim. Unga qaytib, kitobni mutolaa qilishga

kirishdim: u menga o'z sirlarini ochdi va men falsafaga oid barcha savollarimga javob topdim.

Ikkinchi qissa. Donishmand Abu Bakr al-Xorazmiy og'ir betob edi.

Shogirdlari undan so'radilar:

- Ko'nglingiz nimani hohlaydi, ishtaxangiz nimani tusamoqda?

- Kitob yuziga bir qaragam.- dedi u.

Qissadan hissa. Mana, ko'rdingizmi, yaxshi kitob dastlab qiyin, tushunarsiz bo'lib tuyilgan ilm yoki hodisalarni egallashda yordam beradi va bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Kitob nafaqat zavqli kunlarda, balki g'amli damlarda ham munis ulfatdir. Eslaringda bo'lsin, kitob o'quvchilardan hech narsa tilamaydi, o'zining boyligi -- sahifalariga bitilgan axborotlarni saxiylik bilan sizni bizga ulashadi.

Shuni ham bilinglarki, insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyot deb, radio yoki elektr, raketa yoki atom bombasi, kosmosga uchish yoki oyni zabt etish emas, balki nemis muhandisi Iogann Gutenberg tomonidan ixtiro qilingan harf terish, harflarni qog'ozga o'tkazish, ularni taxlam holatiga keltirish, ya'ni kitob bosish qurilmasi tan olingan. Bu bejiz emas, zero Amir Temur bobomiz aytganlaridek, "Kitob -- barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir. Hayotga o'rgatuvchi murabbiydir".

(M.Toshboltayev "Olim, ilm, kashfiyot va tarqqiyot")

YOZIB O'QINGLAR

Qissa. Aytishlaricha, Arastudan so'ng "Ikkinchi muallim" laqabini olgan qomusiy olim Forobiy juda kambag'al bo'lib, qog'oz sotib olishga ham ba'zan imkoniyati bo'lmas ekan. O'rmonga chiqqan kezlari xayoliga kelgan narsalarni daraxt yaproqlariga yozib qo'yar, qog'oz topganida ko'chirib olar ekan.

Qissadan hissa shuki, "Mol-dunyoni qancha termagin, u tugaydi, olqinadi. Yozilsachi, so'z abadiy qoladi, olamni kezadi (Shoir Yusuf Xos Hojib). Donishmand Sha'bii ham huddi shu ma'nodagi hikmatni yozib qoldirgan: "Ilm bobida nimaniki eshitsang yozib qo'y. Chunki eshitilgan narsa tez unitiladi, yozilgan narsa esa muhrlanganday turadi".

Aziz talabalar sizlar bilimlaringizni oshirish niyatida darsliklardan tashqari adabiy, ilmiy-ommabop kitoblar, gazeta va jurnallarni ham o'qiysiz. Bu juda yaxshi. O'qish jarayonida notanish tuyilgan so'zlarni yon daftarga yozib borishga odatlansangiz yanada yaxshi bo'ladi. Chunki o'zingizdagi yoki kutubxonalaridagi lug'atlarga qarab har bir notanish so'zning maqbul yozilishi, ma'nosini osongina bilib olasiz.

Azot -- "hayotiy emas", alkimyo -- "metallarni oltinga aylantirishga urinish san'ati", brom -- "qo'lansa hidli", gallyi -- "Fransyaning qadimgi nomi" va kaliy -- "ku'l izohlarini "Yosh kimyogar entiklopedik lug'ati" dan bilib olsangiz, kimyo darslarida hech ham qiynalmaysiz.

"O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati" ga ega bo'lsangiz, "alqissa", "astag'firullo", "bequdrat", "bizbizak", "bovujud", "voqeiy", "intuitsiya", "matbaa", "mengizmoq", "mutaassib", "mufassal", "raiyat", "tavallo", "xil'at", "shuur", "qo'larra" singari birmuncha qiyin so'zlarni yozishda xato qilmaysiz.

Xullas, kitob, gazeta va jurnallarni tushunib o'qish, radio va televizorni tushunib eshitish uchun ularni "yozib o'qish" va "yozib eshitish" lozim. Shundagina o'qigan yoki eshitgan so'zlaringizni ma'nosini chuqur anglab yetasiz.

(*M.Toshboltayev "Olim, ilm, kashfiyot va taraqqiyot"*)

106-topshiriq. Kutubxonachi bilan bo'lgan muloqotingizni bayon qiling.

KITOB –YOQIMLI SUHBATDOSH

Birinci qissa. Sulton G'aznaviy buyuk shoir Firdavsiyga "Shohnoma" degan asar yozishni buyurgan va uning har bir bayti uchun bittadan oltin tanga berishni va'da qilgan. Xalifa – Al-Ma'mun bir kitobni yunonchadan arabchaga tarjima qilgan olinga shu kitob og'irligidagi oltin bilan haq to'lagan.

Ikkinchi qissa. 17 yoshli Ibn Sino og'ir kasalikka chalingan Buxoro hukmdorini davolaydi. Sog'ayib, oyoqqa turgan hukmdor yosh tabibga katta hadya berishni buyuradi. Ammo u hadya o'rniga saroy kutubxonasidagi nodir kitoblardan foydalanish huquqini berishlarini so'raydi.

Yunon faylasufi va matematigi Pifagor Misrga tahsil olishga borganida, arabcha kitoblarni o'qishga ruxsat olish ilinjida musulmonchilikka kirishga ham rozi bo'lgan.

Uchinchi qissa. Qadimgi yunon faylasufi Arastu vafot etgach, shogirdlari uning ilmiy asarlarini uyi yaqinidagi g'orga yashirishgan. Ular 200-yildan keyin tasodifan topilgan va Arastuga shon-shuhrat keltirgan. Faylasuf Skovoroda o'z qo'lyozmalarini doimo yo'lxaltasida olib yurgan, hayotlik chog'ida uning bitta ham kitobi chop etilmagan.

Qissadan hissa. Aziz talabalar, angladingizmi, kitob naqadar sehrli va babaxo. Amir Temur bobomiz o'zining "Temur tuzuklari" nomli asarida kitob yozuvchi dono olimlar, muhaddis va tarixchilarni e'tiborli odamlar hisoblab, ularning izzatu hurmatlarini joyiga qo'yganliklarini e'tirof etgan.

Bilib qo'yinglar, hammamiz uchun kitobdan yaqinroq, azizroq va yoqimliroq suhbatdosh hamda ma'naviy suyanchiq yo'qdir.

(*M.Toshboltayev "Olim, ilm, kashfiyot va taraqqiyot"*)

107-topshiriq. Siz yoqtirgan badiiy asar haqida gapirib bering.

Grammatik mavzu: ERKIN VA TURG'UN BIRIKMALAR

Ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat darajasida mavjud bo'lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma'no butunligi.

3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. Barqaror birikmalardan o'rinli foydalanish nutq go'zalligini ta'minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko'rki hisoblanadi. Barqaror birikmalarni o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi paremiologiya

(lot. Parema – “barqaror”, logos “ta’limot”), barqaror birikmalar lug’atini tuzish muammolarini o’rganuvchi bo’lim esa paremiografiya (lot. Parema “barqaror”, grafho “yozmoq”) sanaladi.

Barqaror birikmalarga quyidagilar kiradi:

Frazeologizmlar (iboralar)

Maqol va matallar

Hikmatli so’zlar (aforizmlar)

Frazeologizmlar. Ma’no yaxlitligiga ega bo’lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so’zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko’chma ma’nodagi barqaror birikmalarga (frazeologik birikmalar) deyiladi.

Maqol. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar hisoblanadi.

Matal. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to’g’ri ma’noda qo’llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar matallardir.

Aforizmlar (hikmatli so’zlar). Grammatik jihatdan gap holida shakllangan xalqning turmush tajribasiga tayanib ma’lum bir shaxs tomonidan yaratilgan qisqa, obrazli barqaror birikmalarga hikmatli so’zlar (aforizmlar) deyiladi.

108-topshiriq. Keltirilgan iboralarni rus tiliga tarjima qiling yoki rus tilidagi muqobil variantini toping. Ularning ma’nosini izohlang.

Aqli yetadi, barmog’ini tishlamoq, og’zi qulog’ida, gap qaytarmoq, gapida turmoq, dunyodan o’tmoq, yeng shimarib, yer bilan osmon, yer yorilmadi-yu, yerga kirmadim, ko’z yummoq, ko’nglida kiri yo’q, qo’li kalta, tishini tishiga qo’yimoq

109-topshiriq. Quyidagi gaplarda berilgan iboralar qanday ma’noda ishlatiladi.

1. Biz mustaqillikni **qo’lga kiritib, endi uni mustahkamlash** yo’liga o’tdik (*g’alaba qozonmoq, ega bo’lmoq, bo’lmoq, olmoq*). 2. Ma’lumki, hammaning **boshini boshiga qo’shuvchi** yagona maqsad bo’lmasa, el-yurt tarqab, sochilib ketadi (*yaqinlashtirmoq, jipslashtirmoq, aralashtirmoq, birlashtirmoq*). 3. Ba’zida eng olijanob so’zlar va niyatlilar ham shunchaki **quruq gap** bo’lib qolaveradi (*mazmunsiz gap, safsata, be’mani, yolg’on gap, asossiz gap, badiiy vositalarsiz gap*). 4. Ezgu maqsadlarni **amalga oshirish** uchun eng avvalo nima qilish kerak (*bajurmoq, rejalashtirmoq, o’ylamoq, tushuntirmoq*)?

110-topshiriq. Chap tomonda berilgan so’zlarning ma’nolariga mos iboralarni aniqlashga harakat qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Xafa. anqov, baxtsiz,

yomonlamoq, xursand,

birlashtirmoq, saxiy,

*ochiq qo’l, yeng ichida,
baxti qora. yerga urmoq,
og’zi qulog’ida.
qovog’idan qor yog’moq,
boshini qovushtirmoq.*

11. Nutqiy mavzu: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi

Grammatik mavzu: Frazеologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari



KUTUBXONA

Kutubxona (arab. kutub – “kitoblar”, fors. xona – “uy”) axborot yig'ildigan joydir. Bunda axborot kitob, gazeta, jurnal, video va audiotasma, optik disk va h.k shaklda bo'lishi mumkin. Kutubxonalar tashkilot (jamoat) yoki jismoniy shaxs (shaxsiy kutubxona) tomonidan tashkil etilishi mumkin.

Kutubxona – bosma va ayrim qo'lyozma asarlardan ommaviy foydalanishni ta'minlovchi madaniy-ma'rifiy va ilmiy muassasa, muntazam ravishda bosma asarlar to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot-bibliografiya ishlari bilan shug'ullanadi, ommaning madaniy saviyasini oshirishda faollik ko'rsatadi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash va uni tashkil etish, fond mazmunini yoritish, uni kitobxonlarga yetkazish kabilar) asosiy faoliyat uchun xizmat kiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkon boricha to'liq qondirish va adabiyot tanlashlariga yordam berishdan iborat. Har bir kutubxona o'z turiga ko'ra kitobxonlarni tabaqalarga bo'lib, alohida kitobxonlar guruhlariga ajratgan holda xizmat ko'rsatishni tashkil qiladi. Adabiyotlar targ'ibotining barcha shakl va usullari kitobxonlar talabini imkon qadar to'liq va tezkorlik bilan qondirishga qaratiladi.

Yozuvning paydo bo'lishi va hujjatli manbalarni, ayniqsa, qo'lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko'payishi kutubxonalarining yuzaga kelishi va rivojlanishiga sharoit yaratdi. Kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi 2-ming yillikda sopol bitiklari saqlangan Kutubxonalar bo'lgan. Miloddan avvalgi 7 asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, Qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida

kutubxonalar bo'lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya (Iskandariya) kushubxonasidir.

G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlarda monastr va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan. Kitob bosishning ixtiro qilinishi kutubxonalar rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Sarbonva, Geydelberg universitetlari qoshida, shuningdek, Vatikan, Parijdagi Qirollik kabi Kutubxonalar paydo bo'la boshladi.

O'zbekiston hududida miloddan avvalgi 1-ming yillikning so'nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo'lgan. Dastlabki kutubxonalar hukmdorlar saroylari va ibodatxonalarda tashkil etila boshlangan. Turon xalqlari Misr, Eron, Yunon va ularga qo'shni bo'lgan xalqlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan, o'sha davrlardagi mavjud qo'lyozmalar bilan ham tanish bo'lgan. O'zbekiston xalqlarining qadimiy yozma yodgorliklari saqlanmagan. Beruniyning xabar berishicha, kitob xazinalari va ularni saqlovchilar turli istilolar davri (VII-IX asrlar)da yo'q qilib yuborilgan. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda fan va madaniyat rivojlandi. Buxoro, Samarqand, Marv, Urganch va boshqa yirik shaharlar hukmdorlari saroylarida kutubxonalar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoroda ko'p kutubxonalar mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Ulardan eng mashhuri, eng boy va yirigi Somoniylar sulolaviy kutubxonasi edi. Madrasa va masjidlar qoshida ham kutubxonalar bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi arafasida Marv shahrida 10 ta yirik kutubxona bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. XIII asrda Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Balx va boshqa shaharlar madaniyat markazlari, olimlar to'planadigan joy bo'lib, ularda yirik kutubxonalar mavjud edi.

XIV asrning 2 yarmidan O'rta Osiyoda madaniy hayotning yangidan yuksalishi kutubxonalarning qayta tiklanishida ham namoyon bo'ldi. XIV asr oxirida Shayx Muhammad Porso umum uchun ochgan maskan vaqf kutubxonasi tarzida XIX asr 40-yillarigacha faoliyat ko'rsatgan. Buxoro, Samarqand, Qarshi, Xiva va boshqa shaharlardagi katta madrasalarda kutubxonalar bo'lgan, ularning fondlari madrasaning qad va nufuziga qarab turlicha bo'lgan. Ba'zi tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Zamaxshariy, Umar Xayyom kabilarning shaxsiy kutubxonalari, Alisher Navoiyning qimmatbaho qo'lyozmalarga boy yirik kutubxonasi, Abdurahmon Jomiyning shaxsiy kutubxonasi mashhur bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda 3 ta eng boy shaxsiy kutubxona bo'lib, ulardan qozi Muhammad Sharif Sadr Ziyoning kutubxonasi bizgacha to'liq saqlanib qolgan. XX asr boshlarida mahalliy o'zbek va rus ziyolilari – general Jo'rabek, Dukchi Eshon nomi bilan mashhur Muhammadali xalfa Sobir o'g'li, V. L. Vyatkin, vrach G. M. Semenov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan.

Ilmiy va maxsus kutubxonalar fan, iqtisodiyot va madaniyatning turli tarmoqlaridagi olimlar va mutaxassislariga xizmat ko'rsatadi, shuningdek, oliy va maxsus o'quv yurtlari talabalarining ehtiyojlarini qondiradi. Ilmiy kutubxonalarga yirik davlat, akademiya, universitet va tarmoqlar kutubxonalari; maxsus kutubxonalarga texnika kutubxonalari, muassasalar, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari va boshqa kutubxonalar kiradi. Saqlanayotgan adabiyotlar tarkibiga qarab kutubxonani universal, ko'p sohali va soha kutubxonalariga ajratish mumkin. Kutubxonalar, o'z navbatida, faoliyati, mintaqaviy darajasiga, mansubligiga qarab

yana turlarga bo'linadi (milliy kutubxonasi, davlat kutubxonasi, viloyat kutubxonasi, o'smirlar kutubxonasi, qishloq xo'jaligi kutubxonasi va boshqalar). Fan-texnika taraqqiyoti sharoitida alohida kutubxonalar kitobxonlarning talablarini qondirishga qodir emas. Shuning uchun kutubxonalarni birgalikda faoliyat ko'rsatish jarayoni kuzatilmoqda. Bu kutubxonalar tarmoqlarini markazlashtirishda namoyon bo'lmoqda.



Har qanday kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondini jamlash, joylashtirish hamda kitobxonlarga xizmat qilishdan iborat. Kitob fondini jamlash uchun ushbu kutubxonaga kerakli nashrlar muntazam kuzatib boriladi, aniqlanadi va ularni kutubxonaga olish kutubxonalar kollektori orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, yirik kutubxonalar bosma nashrlarning to'liq yoki qisman nazorat nusxasini olish huquqiga ega, shuningdek, ular uchun mamlakat ichida va chet mamlakatlardan kitoblar sotib olish imkoni yaratiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish darajasi Kutubxonalar fondini to'liq to'plashga birmuncha bog'liq.

Kitob fondini to'g'ri tashkil qilish (hisobga olish, joylashtirish, saqlash va kitobxonaga yetkazish) kitobxonaga adabiyotdan foydalanishni, kutubxonalar-chiga esa kitobxonlarga tez xizmat ko'rsatishni, fondni ijtimoiy mulk sifatida saqlashni ta'minlaydi.

Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning turli yo'llari mavjud: kitobxonlarga abonement, qiroatxonalar hamda ko'chma kutubxonalar orqali kitob berish; ayrim kitobxonalar va korxonalarlarga kitob tanlashda yordam berish; kutubxonalar katalogi tizimi orqali kitob fondini yoritish; turli xil axborot-bibliografiya qo'llanmalari tuzish va h.k.

Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti kutubxonalar ishini murakkablashtirmoqda. Ko'plab bosma asarlarni ishlab chiqarishning beqiyos darajada o'sishi kutubxonalar oldiga ko'p hajmdagi nashrlarni tanlash, saralash va oqilona saqlash, kompyuterlar vositasida izlab topish va tezda kitobxonlarga yetkazish masalalarini ko'ndalag qo'yadi.


Kutubxonalar faoliyati sharoitidagi o'zgarishlar avvalgi sermehnat an'anaviy kutubxonalar texnikasini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bilan almashtirish vazifasini dolzarb qilib qo'ymoqda. 50-60-yillardan kutubxonalarlarni texnika bilan

ta'minlash birmuncha o'sdi. Ayrim kutubxona ichki jarayonlari (yirik kutubxonalarda ko'p kitoblarni harakatlantirish) konveyer va ko'tarkichlar yordamida amalga oshiriladi, kitob fondlaridan birgalikda foydalanishda zamonaviy uslublarni qo'llash, eng yangi texnika (jumladan, EHM) dan foydalanish va boshqalar qo'llanilmoqda. Yangi kutubxona anjomlari joylardan unumli foydalanishni, kutubxonachi mehnatining unumdorligini oshirishni ta'minlamoqda, kitobxonlarni adabiyotlar ustida ishlashini yengillashtirishga yordam bermoqda hamda ishlab chiqarish estetikasi talablariga to'liq javob beradi.

111-topshiriq. Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlari ro'yxatini tuzing.

112-topshiriq. Matnni o'qing va matn asosida savollar tuzing.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-fevraldagi № UP-3029 raqamli "Ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni 2002-yil 12-apreldagi Vazirlar Mahkamasining "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish haqida"gi №123 qaroriga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi (2002-yil 12-aprelgacha Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi) "Milliy" maqomini oldi.

Kutubxona 1870-yili may oyida Toshkent ommaviy kutubxonasi sifatida ochilgan. Fondini tashkil qilishga xalq maorifi vazirligi, Fanlar Akademiyasi. Ommaviy kutubxona, Geografiya jamiyati, Rossiya bosh shtabi hamkorlik ko'rsatib. o'z fondlaridan sovg'a qilishgan. 1870-yil may oyida 2200 tom dan (1200 nomdagi) ortiq adabiyotlar yig'ilib, kutubxona fondining asosi yaratildi.

Toshkent ommaviy kutubxonasi fanning turli sohalarini bo'yicha, birinchi navbatda o'lkaga doir va qo'shni davlatlar to'g'risidagi adabiyotlarni yig'ishi va saqlashi lozim bo'lgan.

Kutubxonaning o'lkashunoslik fondini to'ldirish uchun atoqli rus bibliografi V. I. Mejov jalb etilgan. U Toshkent ommaviy kutubxonasi uchun Turkiston o'lkasiga

doir materiallar yig'ishni amalga oshirgan va ilmiy doirada "Turkiston to'plami" nomi bilan ma'lum to'planning yaratilishiga asos solgan.

Kutubxonaning birinchi direktori 1872-yil 11-maydan N.V.Dmitrovskiy (1841-1910) bo'lgan. U 1867-yil avgustdan Turkiston kanselyarisida xizmat qilgan bo'lib, bir vaqtda "Turkistanskie vedomosti" gazetasi redaktor o'rinbosari vazifasini bajargan.

Kutubxona tarixining ushbu qiyin davrlarida 1883-yil tashkil etilgan "Kuzatuv qo'mitasi" ijobiy rol o'ynagan. Turli yillarda ushbu qo'mita tarkibiga N.A.Maev, N.V.Dmitrovskiy, A.A.Semenov, A.A. Divaev, N.G. Maliskiy va shu kabi mashhur olim, pedagog, tarixchi, etnograflar kirishgan.

Kutubxona tarixining dastlabki davriga "Turkiston albomi"ning yaratilishi taalluqlidir. Ushbu o'ziga xos fotoalbomni tuzish orientalist A.L.Kunga topshirilgan.

Akademik A.A. Semenov tomonidan tuzilgan "Turkiston ommaviy kutubxonasi qo'lyozmalar katalogi" ga ko'ra 1917-yilga kelib, kutubxona qo'lyozmalar fondi 250 tomni tashkil etgan. Ushbu davrda Xiva va Toshkent litografiyalarida chiqarilgan birinchi litografik kitoblarni xarid qilingan. Bu litografiyalar A.Navoiyning "Xamsa" si (1880), "Divani munis", "Divani Radji", XVIII asrning mashhur shoiri So'fi Allayorning "Stoykosti slabix" asarlari va h.k.

1920-yili kutubxonaga Davlat kutubxonasi maqomi berildi va u keskin o'zgardi. 1925-yilga kelib kutubxonaning fondi 140 ming jildga yetdi. 1920-yildan boshlab Kutubxona Turkiston o'lkasida chop etilayotgan nashrlarning majburiy nusxalarini olib boshlaydi.

O'rta Osiyo respublikalarining tashkil etilishi natijasida kutubxona O'zbekiston xalq ta'limi qo'mitasiga bo'ysinadi va qayta tashkil etilgan O'rta Osiyo respublikalarida kutubxonachilik ishini tashkil etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsata boshlaydi.

1925-yil iyul oyidan boshlab O'zbekiston Davlat ommaviy kutubxonasining Sharq bo'limida amaliyotchilar instituti faoliyatini boshladi. 1929-yil dekabr oyidan boshlab kutubxona xodimlari uchun o'zbek tilini o'rganish kurslari ochildi. 1930-yil avgustdan – ilmiy kutubxonalar katalogizatorlarini tayyorlash kursi. 1932-yil yanvardan – kataloglashtirish, sistemalashtirish va predmet rubrikalari bo'yicha uch oylik kurslar, 1934-yil oktyabrdan Fan qo'mitasi qoshida ilmiy kutubxona xodimlari uchun kurslar ochildi.



O'zbekiston hukumatining qaroriga ko'ra Toshkentdagi O'zbekiston Davlat ommaviy kutubxonasi 1933-yildan respublikaning Sharq qo'lyozmalarini saqlash markazi deb e'lon qilindi.

1920-1930-yillarda kutubxona faoliyatida bibliografiya katta o'rin egallaydi. Bu davrda kutubxona xodimlari tomonidan yirik bibliografik ishlar yozildi.

1930-yillarning oxirida Davlat ommaviy kutubxonasi respublikaning boshqa kutubxonalari uchun haqiqiy metodik markaz bo'lib qoldi. Bu vaqtga kelib ularning soni 2,5 mingdan ortiq edi. Kutubxona qoshida kutubxonashunoslik va bibliografiya kabineti ochilib, u yerda doimiy ravishda ma'ruza, namoyish va maslahatlar o'tkazilar edi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida kutubxona o'quv zallarida akademiklar V.V. Struve va V.P. Filatov, SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari V.M. Jirminskiy, A.Yu. Yakubovskiy, N.K. Piksanov, yozuvchilar A.N.Tolstoy, N.E. Virta, Vs.V. Ivanov, M.A. Syavlovskiy, V.G. Yan, K.I. Chukovskiy, san'at xodimlari – xizmat ko'rsatgan san'at xodimi M.F. Giesin, professor V.M. Belyaev, kompozitor N.V. Bogoslovskiy, SSSR xalq artisti I.V. Yershov va boshqa ko'plab kishilar ishlashgan.

Urushdan keyingi davrda kutubxonaning asosiy vazifasi kitob fondlarini to'ldirishdan iborat bo'lgan. Bu vaqtda Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Polsha, Ruminiya, Chexoslovakiya kabi davlatlardan kitoblar kela boshladi. Buyuk Britaniya, AQSh, Fransiya, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya va boshqa davlatlar bilan hamdo'stlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

1948-yili kutubxonaga buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy nomi berildi va 350 o'rinli o'quv zaliga ega bo'lgan uch qavatli yangi binoda ish boshladi. O'sha paytda nodir va qadimiy nashrlar bo'limi tashkil etilib, unda 2 mingdan ortiq kitob, jumladan 250 ta avtografli, 151 ta ekslibrisli kitoblar jamlangan edi. Ayni paytda bu fond 16 mingdan ortiq hisoblanadi.

1970-yillardan ilmiy tadqiqot, madaniyat va san'at bo'yicha ilmiy axborot, depozitar saqlash, nazorat-dispetcherlik xizmati, yoshlar kabi bo'limlar tashkil etilgan.

1980-yillardan "Sovet qishlog'i hayotida kitob va mutolaa", "Ommaviy kutubxonalarda mutolaa dinamikasi va kitobxon ehtiyoji", "Kutubxona resurslarini oqilona joylashtirish" kabi umumittifoq tadqiqodlari ustida hamda respublika miqiyosidagi "O'zbekiston ommaviy kutubxonalari kitob yadrosini shakillantirish", "Bibliografik ifodalarda rus transkripsiyasida o'zbek mualliflarining ifodalanishi" va shu kabilar usti ishlar olib borildi.

Alohida e'tibor fondni o'zbek tilidagi adabiyotlar bilan to'ldirishga qaratila boshlandi. Ayni paytda ularning soni 600 mingdan ortiq bulib, o'zbek adabiyotining klassiklari A.Navoiy, Furqat, Muqimiy, Zavqiy, Ibn Sino (Avisenna) Ulug'bek, Beruniy kabilar hamda respublikamizning zamonaviy olim va yozuvchilarining asarlaridan iborat.

Kutubxona tarixidagi navbatdagi muhim davr 2002-yildan boshlandi, 2002-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentinig "Ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni chiqdi. Farmonning 8-punktida respublika ilmiy muassasalarilarining taklifi qabul qilinib, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston

Respublikasi Davlat kutubxonasi bilan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasini birlashtirib, Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashkil etildi. Bu qaror kutubxona faoliyatini milliy madaniyat markazi, O'zbekiston xalqining milliy ma'naviy merosi xazinasini sifatida kengaytirish maqsadida qabul qilingan.

2002-yil 12-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq kutubxonaning maqomi – milliy va xorijiy adabiyotlarning asosiy davlat xazinasini, kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqot, metodik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi ilmiy markaz etib belgilandi.

Kutubxona tarixidagi keyingi bosqich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2011-yili poytaxtimizda shaharsozlik madaniyatining yana bir noyob namunasi – "Ma'rifat markazi"ning bunyod etilib, undan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining joy olishi buyuk mutafakkir bobomizga bugungi avlodlarning yuksak ehtiromi namunasi bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2012-yil 20-martida qabul qilingan "Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi – axborot-resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, kutubxona tuzilmasi yangilandi, uning bo'limlari va xizmat ko'rsatish ishi takomillashtirildi, vazifalar ko'lamini kengaytirildi. Bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa, yoshlarning bilim olishi, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishiga inkon bermoqda.

Qarorda axborot-kutubxona muassasalari, muzeylar fondlarida saqlanib kelinayotgan qadimgi qo'lyozma va noyob kitoblarni elektron formatga o'tkazish, shuningdek, aholi qo'lida saqlanayotgan ko'pdan-ko'p eski qo'lyozmalar, qadimgi va nodir kitoblarni sotib olish, manbalarni zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda restavratsiya qilish, tizimli ko'paytirish ishlari ustuvor vazifa sifatida ularni amalga oshirilishi yuzasidan Dasturlarni qabul qilinishi muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarni samarali tashkil qilish maqsadida, hozirda davlat kutubxonalari, muzeylar, arxiv tashkilotlarida saqlanib kelinayotgan qadimgi qo'lyozmalar, nodir kitoblarning elektron katalogini tuzish, shuningdek, O'zbekiston Milliy kutubxonasida mavjud bo'lgan nodir kitoblar fondining elektron katalogi bilan qiyoslab, yo'q kitoblarni aniqlash hamda Milliy yig'ma elektron katalogi asosida mazkur nashrlarning to'liq matnli elektron ma'lumotlar bazasini yaratish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Milliy kutubxonasida foydalanuvchilarga jahon andozalari darajasida xizmat ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, 800 o'rinni 13 ta o'quv zallariga axborot-kutubxona faoliyatini yuqori darajada olib borishga mo'ljallangan zamonaviy asbob-uskunalar va texnik vositalar o'rnatilgan, Wi-Fi tizimi yo'lga qo'yilgan. Bunday sharoitlar kutubxonalar tashrifini yildan-yilga oshib borishiga, yoshlarimizni ko'proq jalb qilish imkoniyatini bermoqda.

"O'zbekiston", "Adolat", "Istiqbol", "Jahon", "Tafakkur" o'quv zallarida tashkil qilingan ochiq fondlar yangi binoda kitobxonalar uchun yaratilgan eng qulay

sharoitlardan biri bo'ldi. Fondning ochiq tarzda joylashuvi foydalanuvchini kitob javonlari oralab o'ziga zarur bo'lgan kitoblarni bemalol izlashi va buyurtma berishi, shuningdek, kutubxona fondiga yangi olingan kitoblar bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Bugun Milliy kutubxonaning vazifalari ancha kengaygan. U mamlakatimizdagi barcha axborot-kutubxona muassasalari uchun muvofiqlashtiruvchi va uslubiy markaz vazifasini ham o'tamoqda. Kutubxona huzurida tashkil etilgan Respublika uslubiy kengashi kutubxonalar faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, alohida kutubxonalar uchun namunali nizomlar, uslubiy-bibliografik qo'llanmalar va hoshqa maqsadli hujjatlarni yanada keng joriy etish hisobidan takomillashtirishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanmoqda. Ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga soluvchi axborot-kutubxona faoliyatining milliy standartlari ishlab chiqildi.

113-topshiriq. Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozing.

114-topshiriq. Matni o'qing va gapirib bering.

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING ILMIY KUTUBXONASI

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining ilmiy kutubxonasi – O'zbekiston Respublikasidagi qadimiy va yirik kutubxonalardan biri. Tarkibi va miqdori jihatdan O'rta Osiyo va Qozog'iston davlatlari oliy o'quv yurtlari kutubxonalari ichida eng yirigi. 1918-yil Toshkent shahrida Turkiston xalq universitetining Asosiy kutubxonasi sifatida tashkil etilgan; 1968-yildan Toshkent davlat universiteti kutubxonasi deb ataladi; 1969-yilda "ilmiy kutubxona" maqomi berildi; 1976-yildan O'zbekiston Respublikasidagi oliy o'quv yurtlari kutubxonalarining ilmiy metodik markazi. 1995-yildan hozirgi nomda. Kutubxona fondida 3 mln.dan ortiq turli fan sohalariga doir adabiyotlar mavjud (2005); har yili bir necha 10 ming dona kitob oladi. Kutubxonaning darsliklar va o'quv qo'llanmalari, ilmiy va ma'lumotnoma adabiyotlar fondi, xorijiy tildagi adabiyotlar va davriy nashrlar fondi muhim ahamiyatga ega. 1926-yildan O'rta Osiyoda, 1938-yildan Itifoqda chop etilgan kitob va jurnallarning majburiy nusxasini olib boshlagan.

Kutubxona fondida nodir qo'lyozmalar, litografiyada bosilgan asarlar, fan sohalariga oid Sharq va G'arb tillarida noyob yodgorliklar, olimlarning shaxsiy kitoblari bor. Ilmiy kutubxonada kitob fondini to'ldirish, kitoblarga ilmiy ishlov berish va kataloglashtirish, kitob fondini saqlash, ilmiy bibliografiya, g'oyaviy tarbiyaviy ishlar, ilmiy metodik ishlar, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxonachilik bibliografik va axborot jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish bo'limlari faoliyat ko'rsatadi, kompyuter xonasi bor. Bundan tashqari ilmiy kutubxonaning universitet asosiy binosi va fakultetlarida joylashgan shoxobchalari mavjud. Ilmiy kutubxona ilmiy kitoblar, filardagi 14 sohadagi o'quv kutubxonalari bo'limlari, 16 o'quv zallari (700 o'rinli) orqali kitobxonlarga xizmat ko'rsatadi (2005). Maxsus zallarda yangi adabiyotlar bilan tanishtirish uchun

"Axborot haftaliklari", "Kafedralar kuni", "Mutaxassislar kuni", "Diplomatlar kuni" kabi ko'rgazmalar uyushtiradi.

Ilmiy kutubxona O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bo'yicha Kutubxonalararo abonementning muvofiqlashtiruvchi markazi, oliy va maxsus o'quv yurtlari kutubxonalarining metodik markazi sifatida respublikadagi 65 ta oliy o'quv yurtlari kutubxonalariga ma'lumotnomalar, maslahatlar, metodik yordam ishlarini amalga oshiradi. Xorijiy mamlakatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya va boshqalar) bilan hamkorlik qiladi.

115-topshiriq. Kutubxona odobi, etiketi haqida yozing.

ENG NODIR KITOBLAR SAQLANADIGAN YIRIK KUTUBXONALAR

Bugungi kunda "Congress" kutubxonasi dunyodagi eng yirik va go'zal kutubxonalaridan biridir. 1800-yil 740 ta kitob bilan tashkil etilgan ushbu ma'naviyat maskanining bugungi kitob fondi 155 milliondan ortadi. Ular 470 tilga tarjima qilingan. Ta'kidlash joiz, ushbu kutubxonada dunyodagi eng mashhur va eng qimmat kitoblar saqlanadi. Bundan tashqari ushbu dargohda qo'lyozmalar, audio yozuvlar va filmlar nusxalari ham bor. Kutubxonada 18 ta o'quv zali mavjud. Kun davomida bir yarim ming o'quvchi tashrif buyuradi. Yil davomida kutubxona xizmatidan 1 million 700 mingdan ortiq inson foydalanadi. Bu maskanda ishlovchilar soni esa 3 ming 600 nafarni tashkil etadi.

Dunyoning yirik kutubxonalaridan yana biri Rossiya Milliy kutubxonasidir. Sant-Peterburg shahrida joylashgan mazkur kutubxona Yevropada paydo bo'la boshlagan ilk kutubxonalaridan sanaladi. Kitoblar orasida ko'plab xorijiy tillarda nashr etilgan asarlarni uchratish mumkin. Ushbu maskanda o'ttiz uch milliondan ortiq kitob mavjud. Bu yerga yil davomida kamida bir yarim million odam tashrif buyuradi.

116-topshiriq. Universitet kutubxonasi to'g'risida matn tuzing.

BILIMLAR MASKANI

Kutubxona – kitoblar to'plami saqlanadigan hamda barcha savodxon va ijodkorlar uchun ilmi-ma'rifat maskanidir. Kutubxonalar bir necha ming yillardan beri mavjud. Mamlakatimizda ham dastlabki kutubxonalar bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. Sharqda kitobni nondek e'zozlaydilar. Sahibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur hukmronlik qilgan paytlarida kutubxonalar madrasalar qoshida, saroylarda bo'lgan.

Vatanimizdagi eng katta kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat kutubxonasidir. Bu kutubxona 1870-yilda tashkil etilgan. Kutubxonada dunyoning ko'pgina tillaridagi besh milliondan ortiq kitob mavjud. Bundan tashqari bu kutubxonada O'zbekiston, O'rta Osiyo tarixi, ilmi-fani, adabiyoti, madaniyatiga oid bir necha minglab noyob qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqand shahri ham qadimiy ilm-fan markazlaridan hisoblanadi. U yerdagi eng katta va boy kutubxona SamDU ning ilmiy kutubxonasidir. Bu kutubxona 1927-

yilda tashkil topgan. Hozir bu kutubxonada qariyb uch millionga yaqin ilmiy, badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar mavjud.

117-topshiriq. Sizing orzuingizdagi kutubxona haqida ta'rif bering.

Grammatik mavzu: FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING TURLARI VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi *frazeologiya* deyiladi.

Tilning tez va ko'proq o'zgaradigan sohasi uning lug'atidir. Davr o'tishi bilan eskirib qolgan so'zlar va iboralar umumnutqdan chiqib ketadi, unga yangi so'zlar va iboralar qo'shiladi.

Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar yoki gaplar bir ko'chma ma'noni ifodalaydi. Shunday ibora va gaplar barqaror bo'ladi. Ular obrazlilik, jozibadorligi bilan ajralib turadi.

Masalan: *yuragi qon bo'ldi, ko'ngliga qil sig'maydi.*

Frazeologik ibora va gaplar so'zlarning ko'p ma'noli (polisemiya) bo'lishiga asoslanadi, shuningdek, ikki va undan ortiq mazmuni ifodalaydi: *o'zini qayerga qo'yishni bilmadi – sevinchdan hayajonlanmoq, zerikib yoki bekorchilikdan toqatsizlanmoq* va boshqalar. *Mazasi qochdi – sog'ligi yomonlashdi, ishi inqirozga uchradi.*

Frazeologiyaning tarkibida idiomalar ham bo'lib, ular ma'lum tilgagina xos bo'ladi va boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi: *Annamning buzog'i. Yuragi shuv etib ketdi. Gapning po'st kallasi. Oyoqni qo'lgaolib chopmoq* va h.k. Idiomalarda shakllangan mantiqqa to'g'ri kelmaydigan fikr, voqea, hodisa ifodalanadi.

Tilning lug'atidagi soz'larning umumiy soni yillar o'tishi bilan kamaymaydi, balki ko'payib boradi.

IBORALAR

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazarigan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Frazeologizmlar, maqol va matallar, aforizmlar.

Ma'nosi bir so'zda teng keladigan so'zlar birikmasi yoki gaplarda **ibora** deyiladi.

Iboralar gap tarkibida yaxlit holda bitta so'roqqa javob bo'ladi va bitta gap bo'lagi vazifasidan keladi.

Iboralar nutqni ta'sirchan, jozibali qiladi.

Barqaror birikmalarning bir guruhi tarkibidagi so'zlar ma'no jihatdan uyg'unlashib, mazmuniy yahtitlikni vujudga keltiradi, ko'pincha mazmunan bir leksemaga teng keladi va ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Masalan, *qulog'i ding bo'lmoq – hushyor bo'lmoq, qovog'i osilmoq – xafa bo'lmoq, og'zining tanobi qochmoq – quvonmoq* kabi.

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga **frazeologizmlar** (iboralar) deyiladi.

Frazeologizmlar gap tarkibida uning bir bo'lagi vazifasida keladi. Frazeologizmi tashkil etgan so'zlar frazeologizmining faqat ichki uzvlari sanaladi. Gapning boshqa bo'laklari bilan yaxlit, bir butun holda munosabatga kirishadi.

Masalan, rais daladagi hosilni ko'rib, **boshi osmonga yetdi**. Bu gapda boshi osmonga yetdi qismi butun holda kesim vazifasida keladi.

“Burni ko'tarilgan” – takabbur, manman, o'ziga bino qo'ygan kimsalarga nisbatan aytiladi.

Laylakqor yog'sa-yu, qor tugul nam ham bo'lmasa, shuningdek, qorning havosi ham bo'lmasa, dehqon bunday ob-havoni “tulki qiziga to'y berdi” – deydi.

118-topshiriq. Iboralarni rus tiliga tarjima qiling.

Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi – rivojlandi zo'raydi

Aytgani aytgan, degani degan – gapi o'tadi.

Bir boshini ikkita qildi – oilali bo'ldi

Do'ppisi osmonga yetdi – juda hursand bo'ldi

Matol keldi – ortiqcha bir narsadek qabul qildi, og'ir tuyildi

Mos keldi – muvofiq bo'ldi, mos keldi.

Mehri tushdi- suyib qoldi

Nazar soldi- diqqat bilan qaradi

119-topshiriq. Quyidagi iboralarning ma'nosini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ko'ngli joyiga tushdi.

Tepa sochi tikka bo'ldi.

Xumirdan qil sug'urganday.

Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi.

Tutgan yeridan kesadi.

Quruq aravani olib qochadi.

Eti suyagiga yopishgan.

Yerga ursa, ko'kka sakraydi.

Tilidan bol tomadi.

Tegirmonga tushsa butun chiqadi.

Bir yoqadan bosh chiqarishdi.

120-topshiriq. Quyidagi maqollarni tahlil qiling.

1. Yoridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar. 2. Ellik yilda el yangi. 3. Yurtni dedim, yuzga kirdim. 4. Bir kishi hamma uchun, hammai bir kishi uchun. 5. Birdan ikki yaxshi, ikkidan uch yaxshi. 6. Ko'pchilik bir mushtidan ursa, o'ldirar, bir burdadan bersa, to'ydirar. 7. Qirq uydan etak to'lar. 8. Bir qo'llab eksang, ikki qo'llab yig'asan. 9. Ming so'zdan bir ish yaxshi.

12. Nutqiy mavzu: Adabiyot – ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba

Grammatik mavzu: Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari

“ADABIYOT – MA’NAVIYAT O‘CHOG‘I”

“Adab” (arabcha “go‘zal xulq”) so‘zi “adabiyot” (odoblar yeg‘indisi) terminiga asos bo‘lgan. Adabiyot atamasi ikki ma’nodan qo‘llaniladi: 1) tor ma’nodan – “so‘z san‘ati”, “badiiy adabiyot”; 2) keng ma’nodan esa “inson tafakkurining mahsuli o‘laroq dunyoga kelgan, o‘qish uchun mo‘ljallab yozilgan asarlar jami”. Inson fikrlashi bilan boshqa mavjudodlardan farq qiladi. Odamlar fikrlaganda, bir narsani boshqasiga taqqoslaydi. Ana shu solishtirish jarayonida timsolli fikrlash hodisasi yuzaga keladi. Bu jarayon so‘z orqali amalga oshiriladi. Adabiyot so‘z bilan faoliyat yuritadigan san‘at turidir. Shu sababli adabiyot – so‘z san‘ati hisoblanadi. Adabiyot boshqa san‘at turlaridan so‘z orqali ruhiyatni yoritib bera olishi bilan farqlandi. Badiiy adabiyot voqea-hodisalar, insoniy kechinmalar va his-tuyg‘ularni bayon qilishga qolmay, ularni tasvirlab ham beradi. Tasvirda esa doimo so‘zga tayaniladi. Adabiyotni hech ikkilanmasdan millatning tarjimai holi deyish mumkin. Adabiyot insonning orzu-xayoli va armonlari, odam hamda olam to‘g‘risidagi tushunchalarni so‘z yordamida ifoda etishdir. Ana shuning natijasida badiiy adabiyot yuzaga kelgan. Badiiy adabiyot kishilar tomonidan o‘qilib, hissiyatni boyitish, ruhiyatga singdirish ko‘zda tutilib yaratilgan bitiklardir. Badiiy adabiyotning (og‘zaki va yozma) qachon paydo bo‘lganligi aniq emas, lekin odanzod paydo bo‘lishi bilan uning badiiy ijodi ham yuzaga kelgani ham aniq. Badiiy asarlar qaysi maqsadda yaratilishiga ko‘ra uch turga bo‘linadi:

1. *Lirik*³ (she‘riy) asarlarda voqeylik ayrim shaxsning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari asosida ko‘rsatiladi. M.: go‘zal, qo‘shiq, muhammas. 2. *Epik*⁴ (nasriy) asarlarda tasvirlanayotgan voqelik asar qahramonlarining faoliyati va muallif hikoyasi orqali bayon qilinadi. 3. *Drammatik*⁵ (sohaviy) asarlarda voqelik asar qahramonlarining xatti-harakatlari orqali ko‘rsatiladi. M.: drama, komediya, tragediya. Badiiy adabiyotning yana bir turi borki, unda voqeani hikoya qilib berish, hissiy munosabat bildirish bilan uyg‘unlashib ketadi. Badiiy adabiyot shakliga ko‘ra ikki turga ajratiladi: 1) og‘zaki adabiyot; 2) yozma adabiyot. Avval og‘zaki adabiyot, so‘ng yozma adabiyot yuzaga kelgan. So‘z dunyodagi barcha ajratiladi. **Badiiy adabiyotning** ning asosiy belgisi uning insonlarga *ta’sir etishi* va *obrazlilikdir*. Ijodkorlikning fikr, tuyg‘u, hissiyat va kechinmalari singdirilgan manzara tasviri **badiiy obrazdir**.

Adabiyotshunoslik badiiy asarlardagi g‘oya va mazmun, undagi tasvir vositalari, syujet, timsollar silsilasini o‘rganuvchi fandir. Mazkur fan uch qismni

³ Курбанов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 8-бет.

⁴ Курбанов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 152-бет.

⁵ Курбанов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 364-бет.

⁶ Курбанов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. 95-бет.

o'zida birlashtiradi: 1. **Adabiyot nazaryasi** barcha zamonlarda yaratilgan hamma asarlar uchun umumiy bo'lgan asoslarni, badiiy asarning tarkibiy qismlarini, badiiy qonun-qoidalarini o'rganadi. 2. **Adabiyot tarixi** esa muayyan mamlakatlar yoki xalqlar milliy adabiyotining rivojlanish bosqichlarini, biror xalq yoki jahon adabiyoti vakillaridan bo'lgan buyuk san'atkorning hayoti va ijodini o'rganadi. 3. **Adabiy tanqid** biron davr adabiy jarayonida yuzaga kelgan asarlarni baholash, ularning yutuq va kamchiliklarini, taraqqiyot hamda yo'nalishlarini izohlash, ko'rsatib berish bilan shug'ullanadi.

Umumturkiy adabiyot juda uzoq tarixga ega. "**Avesto**" dan boshlab hisoblansa 3000 yillik, "Alp Er To'nga" marsiyasidan boshlab hisoblansa 2700 yillik, O'rxun-Enasoy dan boshlab hisoblansa 1400 yillik tarixga egadir. Olimlarimiz tomonidan turkiy adabiyot tarixi quyidagicha davrlashtirilgan: 1. Islomgacha bo'lgan davr turkiy adabiyoti. 2. Islom ta'siri davridagi turkiy adabiyot: 1) ilk uyg'onish davridagi turkiy adabiyot; 2) uygo'nish davri o'zbek adabiyoti; 3) xonliklar davri o'zbek adabiyoti; 3. Yangi o'zbek adabiyoti: 1) ma'rifatchilik adabiyoti; 2) jadid adabiyoti; 3) sho'ro davri adabiyoti; 4) mustaqillik davri adabiyoti.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar .. va boshqa sohaga oid qimmatbaho ma'naviy boyligimizdir⁶. Darhaqiqat, biz bunday bebaho ma'naviy boyligimizdan foydalanishimiz, farzandlarimiz esa ulardan bahra olishga o'rgatishimiz kerak. Har qaysi xalq, yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga hos urf-odat va an'analari, hayotiy qadryatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi⁷. Demak, ma'naviy merosimiz, madaniy boyliklarimiz hamda tarixiy yodgorliklarimizni ko'z qorachig'iday asrashimiz va keyingi avlodlarga yetkazish uchun har birimiz ma'suldirmiz.

ADABIYOTLAR HAQIDA FIKRLAR

1) Adabiyot – fikr-tuyg'ularimizdagi to'lqinlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqinlarni yaratmoqdadir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi.

2) Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngil tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik) har xil tusda va rangda bitishgan, fayzli til birga taqdir etula olmaydirg'on bir guldri. Ushbu yashadigimiz muhim doirasinda oning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradur... Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qoralangan, o'chgan majrux, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qarab singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkir yurak qirlarini yuvadig'on toza ma'rifat suvi, xiralangan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on buloq suvi bo'lg'onlig'idan bizga g'oyat kerakdir.

(Cho'lpon)

⁶ Ислом Каримов. "Юксак маънавият – енгилмас куч" асари. 31-бет

⁷ Ислом Каримов. "Юксак маънавият – енгилмас куч" асари. 30-бет

3) Adabiyot – ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yoilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi – meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi... Quyosh, havo, yer, suv barcha jonvor va ko'katlarga ozuqa berganidek, xalq hayoti yozuvchiga ilhom beradi. Yozuvchi qanchalik iste'dodli, uning qalam tutgan qo'li qanchalik tajribali bo'lsa, xalq undan shunchalik chuqurroq minnatdor bo'ladi, uning ijodini, umuman, adabiyotni shunchalik chuqurroq hurmat qiladi.

(A. Qahhor)

ALISHER NAVOIY (1441-1501)

Buyuk mutafakkir va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy 1441-yilning 9-fevralida Hirotida tavallud topgan. Otasi G'iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon kishilaridan va temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo'lgan. Alisher 4-5 yoshlarida shahzoda Husayn bilan birga maktabda ta'lim oladi. Shohrux Mirzo (1409-1447-yillarda hukmronlik qilgan) vafotidan keyin mamlakatda tartibsizliklar boshlangani tufayli G'iyosiddin Muhammad 1449-yilda oilasi bilan Iroqqa ko'chib ketishga majbur bo'ladi. Iroq yo'lida bo'lajak shoir Amir Temur va temuriylar tarixiga oid "Zafarnoma" asarini yaratgan, bir necha temuriylarni tarbiyalagan ulug' tarixchi olim Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi, uning duosini oladi.

Abulqosim Bobur Mirzo (1452-1459-yillarda hukmronlik qilgan) 1452-yilda Hirot taxtiga o'tirganidan keyin G'iyosiddin Muhammadni Sabzavor shahriga hokim etib tayinlaydi. Biroq, u oradan ko'p o'tmay vafot etganidan keyin Abulqosim Bobur mirzo Alisher va Husaynni Mashhad shahriga olib ketadi. O'spirin Alisher bu yerda adabiyot bilan birga mantiq, riyoziyot, tarix va falsafa ilmini ham qunt bilan o'rganadi, ilk g'azallarini bitadi.

Navqiron Alisher Sulton Abu Said Mirzo (1459-1469-yillarda hukmronlik qilgan) Temuriylar davlatini, ya'ni Xuroson va Movarounnahrni birlashtirgan davr (1460-1469)da bir muddat (1466-1469) Samarqandda yashaydi, zamonasining yetuk olimlaridan, shu jumladan, Fazlulloh Abu Laysdan ta'lim oladi. Xuroson taxtini egallagan Sulton Husayn Bayqaro Mirzo (1469-1506-yillarda hukmronlik qilgan) Alisher Navoiyni Hirotga chorlaydi va muhrdor lavozimiga tayinlaydi.

Zamonasida kechgan deyarli barcha siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lgan Alisher Navoiydan ulkan adabiy, ilmiy va ma'rifiy meros qoldi. Bular: "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini", to'rt devondan iborat, 1469, 1491-1498) kulliyoti, "Hayrat ul-abror" ("Yaxshi kishilar hayrati", 1483), "Layli va Majnun" (1484), "Farhod va Shirin" (1484), "Sab'ayi sayyor" ("Yetti sayyora", 1484), "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori", 1485) dostonlaridan iborat "Xamsa"si, "Vaqfiya" (yirik mulk sohibi Alisher Navoiyning o'z zamondoshlariga maktublarini va vaqf hujjatlarini qamraydi, 1482). "Nazm ul-javohir" (Hikmatli so'zlar manzumi, 1485), "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" (Sayyid Hasan Ardasher hayotidan lavhalar, 1490), "Majolis un-nafois" ("Nafis majlislar", tazkira, 1490), "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi" 1492).

“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”, 1499), “Lison ut-tayr” (“Qush tili”, 1499-1500), “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillar sevgani”, 1500).

Alisher Navoiyning ulkan merosi adabiyot va adabiyotshunoslik, falsafa, siyosatshunoslik, axloqshunoslik, tilshunoslik, tarix va boshqa ko‘pgina sohalardagi umumiy va juz‘iy muammolarni qamraydi. Mutafakkir shoir asarlarida borliq va uning mohiyatini, nasralar va hodisalarni idrok qilish, davlat, davlatchilik va boshqaruv usullari, inson va uning jamiyatdagi o‘rni, yetuk va adolatli jamiyat, ijtimoiy birdamlik, komil inson, yaxshi xulq-odob va mukammal ta‘lim-tarbiya haqida zamonasida qimmatli va o‘zidan keyingi davrlar uchun barhayot ilg‘or umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvar kuni Hirotda vafot etdi.

121-topshiriq. Alisher Navoiy asarlari bo‘yicha klaster tuzing.

Navoiy asarlari

Tarixiy

Lirik

Ilmiy

122-topshiriq. G‘azal, ruboiylarni yod oling va tahlil qiling.

SEVUNGIL EY KO‘NGUL...

Sevungil ey ko‘ngul, oxirki jisming ichra jon keldi,

Quvon, ey joni mahzunkim, hayoti jovidon keldi.

Safardin ul pari yetdi, meni, mahzunni shod etdi.

Ko‘ngildin eski ga‘m ketti, tan ichra yangi jon keldi.

Xirad yig‘ bu masofingni, tahammul, qo‘y gazofingni,

Vara‘, tark ayta lofingni, ki oshubi jon keldi.

Damekim andin ayrildim, ko‘ngulni hamrahe qildim.

Bugun keldi ko‘ngul, bildim, kim ul nomehribon keldi.

Kelubtur yoshurun ul shah, meni majnun emon ogah,

Pari ermas esa, bas vah, nechun ko‘zdin nihon keldi?!

Falak boqti fig‘onimg‘a, ajal rahm etdi jonimg‘a.

Xazonlig‘ bostonimg‘a guli bog‘i jinon keldi.

Mug‘anniy, bir navoye tuz, Navoiy, nag‘maye ko‘rguz,

Ayoqchi, tomsa tut to‘qquz, ki Doroyi jahon keldi.

MEHR KO‘P KO‘RGUZDIM

Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehrribone topmadim,

Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

*G'am bila jonimg'a yetdim, g'amguzore ko'rmadim,
Hajr ila dilxasta bo'ldim, dilistone topmadim.*

*Ishq aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldim nishon,
Bir kamon abro'da tuzlikdin nishone topmadim.*

*Ko'nglim ichra savr o'qdir, g'uncha paykon, gul tikon.
Dahr bog'i ichra bundoq dilistone topmadim.*

*O'z ishimdin bul ajabroq dostone topmadim,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.*

*Taab ganjiddin Navoiy xo'rdasin yuz qatla hayf,
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.*

RUBOYILAR

*So'zdurki nishon berur o'lukka jondin,
So'zdurki berur jong'a xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guvhare sharifroq yo'q andin.*

*G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu, mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish.*

*Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

123-topshiriq. Matnni o'qing va gapirib bering.

Mirzo Bobur yoshligidanoq ziyrak bola bo'lib o'sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy a'yonlari bilan qasrda o'ltirgan ekan, bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo'nibdi-da, "g'ulu-g'ulu-g'ulu" qilaveribdi. Umarshayx a'yonlaridan: "Kabutar ne deydur?" – deb so'rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko'rmay qilichlari qonsirab qolgan a'yonlar: "Oliyhazrat, kabutar qilichlarni qindan sug'urmoq kerak, deydur", – deb javob berishibdi.

Gapga aralashmay bir chekkada jim o'ltirgan Mirzo Bobur: "Yo'q, kabutar unday demaydur. Bobo qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor shu xushxabarni keltiribdur", – debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog'idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: "Oliyhazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo'l urib bersalar", – deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to'g'ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o'g'lidan:

“Mirzoning bunchalik bilag'on va topqirligiga bois nedur?” – deb so'rabdi. “Ota, – debdi Bobur, – bu kabutarga e'tibor qilmadingiz. O'tgan yili ham qovun sayli xushxabarini xuddi mana shu jonivor xabar qilg'on erdi, kaminaning ko'zi kabutarning o'ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidim va shu so'zni taxmin etdim”, – deb javob beribdi.

Yosh Mirzoning hushyorligi, topqirligiga qoyil qolgan Umarshayx a'yonlariga qarab: “Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin”, – deb buyuribdi.

(“Allomalar ibрати” kitobidan)

124-topshiriq. Matnni o'qing. Matndan 3 ta gapni yozib olib, fikrni boshqa gap qurilmasi orqali ifodalang.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analirimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxirani o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzotni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqivos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq.

Taassufki, ba'zan Islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. Shu bilan birga, Islom dinini niqob qilib, manfur ishlarni amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar, avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir-oqibatda esa ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

125-topshiriq. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan Xisrav bilan Farhod o'rtasidagi munozarani o'qing. Bu dialogni shakllantirgan lisoniy vositalarni aniqlab, daftaringizga ko'chiring.

Dedi: nedur senga olamda pasha?

Dedi: ishq ichra majnunliq hamesha.

Dedi: bu ishdin o'lmas kasb ro'zi.

Dedi: kasb o'lsa basdur ishq so'zi.
Dedikim: ishq o'tidin de fasona.
Dedi: kuymay kishi topmast nishona...

MA'NAVIYAT SABOQLARI

“Assalomu alaykum!” ning ma'nosi nima ekanligini bilasizmi?

“Assalomu alaykum” aslida arabcha ibora bo'lib, “Sizga tinchlik va salomatlik tilayman” degan ma'noni bildiradi.

“Assalomu alaykum” – yurti, millatidan qat'iy nazar dunyodagi barcha musulmonlarning salomlashuv iborasi hisoblanadi. Siz qaysi musulmon mamlakatiga bormang, u millat tilini bilmasangiz ham “Assalomu alaykum”– desangiz, sizga ochiq yuz bilan “Vaalaykum assalom”– deb javob berishadi. Bu ularning “Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman”deganidir. Demak, “Assalomu alaykum” o'zaro muomala – munosabatning boshi hamdir.

Assalomu alaykumni oshkora aytishning yana bir sirli kuchi bor. U kishilar o'rtasida muhabbat paydo etib, o'rtadagi gina va qudratlarni ketqizadi. O'zidan kattalarga hurmat, kichiklarga shavqat yuzasidan salom-alik qilish qadim-qadimdan kishilarimiz uchun axloqiy mezon bo'lib qolgan. Odatda yoshi kichiklar yoshi ulug'larga, mashina mingan odam piyoda ketayotganga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. Chunki odatimiz shunaqa. Xalqimiz oqko'ngil. Biz hamisha hammaga yaxshi niyat bildiramiz.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483-1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, iste'dodli shoir, tarixchi, olim, shuning bilan birga tarjimonidir. Bobur keng va chuqur bilimli, zamonasining ulkan madaniyat arboblariidan bo'lib, u doimo ilm-fan, san'at va adabiyot ahillari bilan yaqindan aloqa tutar, ularga homiylik qilib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining, ayniqsa, Alisher Navoiyning boy adabiy merosini o'rganadi. Bizgacha Boburning ikkita devoni yetib kelgan.

Bobur lirikasi o'zining hayotiyligi, badiiy soddaligi, joshqinligi va til boyligi bilan bilan o'zbek dunyoviy adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi. G'azal, ruboiy va tuyuq Bobur lirikasining eng xarakterli janrlaridir. Bobur Lutfiy, Navoiy, Xayyom, Hofiz kabi ustoz shoirlarning an'analari davom ettiradi. Boburning eng yirik asari bo'lgan “Boburnoma” uni butun dunyoga tanitdi. “Boburnoma” tarixiy-badiiy asar bo'lishi bilan birga o'zbek nasrining qimmatli yodgorligi hamdir. Shu bilan birga, u geografiya, etnografiya, tabiiyot va boshqa ilmiy sohalar bo'yicha ham qimmatli ma'lumotlar beruvchi asar, o'zbek adabiy tilining muhim yodgorligidir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing;
- c) matnning mazmunini so'zlab bering;
- d) matnni qismlarga ajratib va ularni nomlang.

126-topshiriq. Matndagi tayanch soʻzlarni yod oling:

Adabiy – 1. Badiiy adabiyotga oid. Adabiy suhbat. 2. Yozuvchilarga, yozuvchilik faoliyatiga oid. Adabiy meros. Adabiy taxallus. Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorlarga solingan shakli. O'zbek adabiy tili.

Badiiy [badiiyatga, nafis san'atga oid; go'zal, ajoyib] – 1. Voqelikni nafis san'at vositalari, usullari, obrazlari orqali ifoda etuvchi; tasvirlovchi. Badiiy salohiyat.

Munozara [bahs, muhohasa, tortishuv] – Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan janr; fikrlar kurashi, qarama-qarshiligi shaklida yozilgan asar. Bobur keng va chuqur bilimli, zamonasining ulkan madaniyat arboblari bilan bo'lib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Masnaviy [ikki misrali she'r shakli] – har bir baytining misralari o'zaro qo'fiyadosh bo'lgan va baytdan baytga qo'fiyalar yangilanib boradigan she'r shakli. Xamsa masnaviy shaklida yozilgan.

Mumtoz [mashhur, saralangan] – Muayyan millat va jahon fani, san'ati. adabiyotida muhim o'rin tutadigan, millatning shon-shuhrati va faxri hisoblangan; klassik. Mumtoz musiqa.

Musiq [yun. musike – muzalar san'ati] – Inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar izchilligi yoki majmuiy vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Ibn Sino Sharqda san'at nazariyotchisi, ayniqsa, musiqa ilmining bilimdoni sifatida tez-tez tilga olinadi.

Manzur [ko'rinadigan; ko'zda nutilgan] – Kishilarga ma'qul bo'ladigan, yoqadigan, yoqib tushadigan. Odobli bola elga manzur.

Ilm [bilim; fan; nazariya] – O'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot.

Fan [mahorat; ilm, bilim] – Tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. Fan asoslari.

Tuyuq – So'z o'yiniga, ko'pincha tajnis qo'fiyasiga asoslangan, to'rt satrdan iborat she'r; she'rli janr. Tuyuq atama sifatida XIV asrdan boshlab qo'llangan bo'lib, faqat turkiy she'rliyatga xosdir.

San'at [mehnat; mahorat] – 1. Ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, musiqa, musavvirlik, haykaltaroshlik kabi voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi har bir ayrim sohasi. Tasviriy san'at. 2. Muayyan faoliyat sohasidagi yuksak mahorat, ustalik; iste'dod. So'z san'ati.

Zer-zabar, zeru zabar [ostki-ustki, ostida, ustida] – Arab yozuvida unililarni ifodalash uchun undosh harflarning osti va ustiga qo'yiladigan diakritik belgilar. "Xatti Boburiy"da unililar "zer-zabar" tarzidagi belgilar bilan emas, balki maxsus harflar shaklida berilgan.

Ruboiy [to'rtlik] – To'rt misradan iborat, tugal ma'no ifodalovchi, birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralari yoki to'rtala misrasi ham qo'fiyadosh bo'lgan mustaqil she'r; Sharq xalqlari she'rliyatida keng tarqalgan poetik janr. Alisher Navoiy ruboiylari.

G'azal [oshiqona so'z, xotin-qizlar bilan yoqimli muomalada bo'lish] – Ariz she'rliy tizimida uch baytdan o'n to'qqiz baytgacha bo'lgan, Sharq xalqlari, jumladan,

o'zbek adabiyotidagi lirik she'r (Birinci bayning har ikki misrasi, qolgan baytlarning ikkinchi misralari qofiyadosh bo'lib keladi). Bobur g'azallari.

Qomus [lug'at; so'z boyligi] – 1. Mukammal, to'liq lug'at. 2. Ensiklopediya; ensiklopedik lug'at. Bobur qomusiy aqlga ega shaxs bo'lgan.

127-topshiriq. G'azal, ruboiylarni yod oling va tahlil qiling.

JONIMDAN O'ZGA YORU VAFODOR...

Jonimdin o'zga yoru vafodor topmadim,

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim.

Jonimdek o'zga jonni dilafgor ko'rmadim,

Ko'nglum kibi ko'ngulni giriftor topmadim.

Usruk ko'ziga toki ko'ngul bo'ldi muftalo,

Hargiz bu telbani yana xushyor topmadim.

Nochor furqati bila xo'y etmisham, netay

Chun vaslig'a o'zumni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko'ngul,

Nechaki borib eshigiga bor topmadim.

Bobur o'zungni o'rgata ko'r, yorsizki, men

Istah jahonni muncha qilib, yor topmadim

CHARXNING MEN KO'RMAGAN...

Charxning men ko'rmagan jabr-u jafosi qoldimu!?

Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu!?

Meni xor etti-yu qildi muddaiyni parvarish,

Dahri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu?

Meni o'lturdi jafu-yu javr birla ul quyosh,

Emdi turgizmoq uchun mehr-u vafosi qoldimu?

Oshiq o'lg'ach ko'rdum o'lumni o'zumga, ey rafiq,

O'zga ko'nglumning bu olamida xarosi qoldimu?!?

Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,

Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

128-topshiriq. “Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari” mavzusida taqdimot tayyorlang.

MENING O'G'RIGINA BOLAM

(voq'iy hikoya)

Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil – o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik. Biz to'rt yetimdan xabar olib turishga katta onam – onamning onalari Roqiya bibi kelib turibdilar. Bu kishini tez erkalab Qora buvi deb ataymiz.

Oqshomlari buvim boshliq hammamiz oldi-ochiq ayvonda uvun-to'lda ko'rpa-yostiqlarga o'rilib, bittagina O'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlaymiz.

Bu oqshom uch xo'roz o'tgandan keyin Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda, g'o'ng'ir -g'o'ng'ir ovozdin uyg'onib ketdim. Buvim kim bilandir anchagina baland ovozda suhbatlashmoqda edilar. Hovlimiz ota-buvidan qolgan, anchagina katta bo'lib, gir atrofi imorat edi. Shimol tomonda amakivachchalarimiz turishardi. Lekin ular yozda boqqa ko'chib ketadilar. Hozir ular tomom bo'sh.

Buni qarang-a, bizning uyimizga og'ri kelibti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da. dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldimda. O'g'ri o'sha ammakivachchalarimning tomonidan sekin yurib kelib, buvimning to'g'rilariga kelganda aksa urib yuboribti. Buvim hali uhlamagan ekanlar, tomga qarab:

– O'g'rigina bolam, hoy og'rigina bolam, hoynahoy biror tirikchilik uchun tomga chiqqan ko'rinasan. Axir kasbing nozik. gumon-pumoningni yozib chiqsang bo'lmaydimi? – dedilar.

– Axir buvijon birorgina kecha tinchgina uxlasangiz bo'lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo'lini to'saverasizmi? – dedi.

Men gap shu yerga kelganda uyg'onib ketgan bo'lsam kerak. Qolgan gaplarni eshitganimcha qilib yozaman.

– Hoy aylanay o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganida ko'zinga uyqu keladimi? Mana olti oy bo'ldi, bir soat mijja uxlaganim yo'q. Kechalari xayol olib qochib ketadi.

– Nimalarni xayol surasiz buvijon? Bu gapdan keyin ustidagi to'nini bo'g'otning ustiga yostiq qilib qo'yib, o'g'ri ham yonboshlab oldi.

– Nimalarni xayolini surardim. Shu to'rta yetimning ertasini o'ylaymanda bolam. Zamoni o'zing ko'rib turibsan, tirikchilik toshdan qattiq. Hali bularning qo'lidin ish kelmaydi, ro'zg'orda bo'lsa, ko'z ko'rib qo'l tutguday arzigulik buyum qolgani yo'q. Bir chekkadan sotib yeb turibmiz. Eh-ha bu bolalar qachon ulg'ayaduyu, qachon o'zining nonini topib yeydigan bo'ladi?

– To'g'ri aytasiz, buvijon. Mening ham ikki bolam. xotinim, bitta kampir onam bor. To'rta non topish uchun o'zimni o'tga-cho'qqa uraman. Bo'lmasa ishlay desam, bilagimda quvvatim bor, aql-u xushim joyida, menga hozir qilib yurgan o'g'rilik kasbi yoqadi deysizmi?

– Biror boshqa kasb qilsang bo'lmaydimi bolam?– dedi kampir.

– Nima kasb qilay? Hamma kasblarning ham bozori kasod...

– Bu gaping ham to'g'ri bolam. Ammo lekin ehtiyot bo'l. El-yutning oldida tag'in badnom bo'lib qo'lmagin – dedi bizning kampir. Endi bu yoqqa qara, o'g'ri

bolam hademay tong yorishib qolar. Oshxonada bir-ikkita yong'oq to'nka bor, boltani olib shuni yorib ber, qumg'on qo'yaman.

– Yo'g'-e buvi, dedi og'ri. To'nka yorib-ku beraman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q, andisham bor uyalaman.

– Voy, o'lay qutlug' uydan quruq ketasami bolam? Bir nima olib ket. To'xta, ha darvoqe bitta yarim pudlik qozon bor. Allazamonlarda uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik. Xudoning g'ashiga tegdik, shekili, shundoq katta gurkiragan xonadondan shu to'rttagina yetim qolib turibti.

– Yo'q, yog'e buvi, yomon niyat qilmang. Ha-huv deguncha bu kunlar ham unut bo'lib ketadi. Yana katta oilalar jam bo'ladi. Hatto bu qozon ham kichiklik qilib qoladi. Xayr endi buvi men ketaman, tong yorishib qoldi.

– Xayr og'rigina bolam kelib turib.

– Xo'p ona, xo'p.

Men o'sha og'ri kishini tanir edim. Haligacham hech kimga kimligini aytgan emasman.

(G'.G'ulom)

129-topshiriq. Maqollarning rus tilidagi muqobilini toping.

1. *Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar.* 2. *Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar.* 3. *Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r, o'g'ling yomon bo'lsa, keliningdan ko'r.* 4. *Aqli odam qish g'amini yozda yeydi.* 5. *Yaxshini maqtasang yarashur, yomoni maqtagan adashur.* 6. *Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, kirpi bolasini yumshog'im der.* 7. *Kengashganga – keng dunyo, talashganga – tor dunyo.* 8. *Yog'och kessang, uzun kes, kessa bo'lar, temir kessang, qisqa kes, cho'zsa bo'lar.* 9. *Qorinni to'yg'azish oson, ko'zni to'yg'azish qiyin.*

Grammatik mavzu: NUTQ USLUBLARI. BADIY USLUB VA UNING XUSUSIYALARI

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashish, so'zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. Nutqiy faoliyat kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og'zaki va yozma tarzda. Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida namoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabi me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko'rsatiladi. Yozma nutq og'zaki nutq kabi kishilar o'rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog'lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o'tmish tariximizni o'rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini

ta'minlaymiz.

Nutqning bu shakllari turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Nutq ayrim shaxsга tegishli bo'lishi (monolo-12 gik), ikki kishi o'rtasida yuz berishi (dialogik) va bir necha shaxslar orasida (polilogik) bo'lishi mumkin. Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy-ta'siriy vositalari bilan farqlanadi. Yozma nutq uslubiy turlari (so'zlashuv, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy-idoraviy) bilan o'ziga xos nutq ko'rinishlarini yaratadi. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasii badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda **badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik** kuchlidir.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning **barcha imkoniyatlarini** o'z ichiga olish bilan birga, **o'zbek shevalariga, kash-hunarga doir leksik birliklar**, vulgarizmlar, **bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham** personajlar nutqi orqali qo'llaniladi.

Badiiy uslub o'quvchida **estetik zavq** uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida **axborot berish** vazifasini bajarishdan tashqari o'quvchiga **ta'sir qilish** vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralanganidir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, **inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi**. Shuning uchun **unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining** ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi badiiy uslub sanaladi.

Badiiy asar kishiga ma'lumot berish birga, timsollar vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi.

Badiiy uslub uchun **obrazlilik, tasviriy ifoda** vositalariga boylik xosdir.

Obrazlilik va **estetik ta'sir etish** badiiy uslubning muhim belgisidir.

Badiiy uslub **aralash uslub** hisoblanadi, chunki bu uslubda so'zlashuv va kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

130-topshiriq. Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoiyligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlash.

O'TKIR HOSHIMOV (1941-2013)

O'tkir Hoshimov 1941-yil Toshkent viloyatining Zangiota (hozirgi Chilonzor) tumanidagi Do'mbirabod mavzeida tug'ildi. O'. Hoshimov mehnat faoliyatini erta boshladi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti)ning jurnalistika fakultetida o'qishi bilan birgalikda gazeta tahririyatida ham ishladi. 1959-yildan 1963-yilgacha "Temiryo'lchi", "Qizil O'zbekiston", "Transportniy rabochiy" gazetalarida xat tashuvchi, mussahhih, tarjimon bo'lib ishladi. So'ng "Toshkent haqiqati" gazetasida adabiy xodim (1963-1966), "Toshkent oqshomi" gazetasida bo'lim mudiri (1966-1982), G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinbosari (1982-1985) lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1985-1995-

yillarda "Sharq yulduzi" jurnaliga bosh muharrirlik qildi. 1995-2005-yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Matbuot va axborot qo'mitasi raisi lavozimida ishladi. 2005-yildan "Teatr" jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladi.

O'zbekiston Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov mustaqil Vatanimizning adabiyoti va ma'naviy xazinasiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkordir. Qariyb ellik yil davomida turli tillarda ikki yarim millionga yaqin nusxada chop etilgan yetmishdan ortiq kitobi adibni xalqimizning ardoqli farzandiga aylantirdi.

Shu paytgacha yozuvchining "Po'lat chavandoz" (1962), "Gunafsha" (1965), "Odamlar nima derkin..." (1966), "Bir tomchi shudring" (1970), "Bahor qaytmaydi" (1970), "Den moti'lka", (1971), "Qalbingga quloq sol" (1973), "Uzun kechalar" (1975), "Nimadir bo'ldi" (1975), "Yer farzandimiz", "Nur borki, soya bor" (1977), "Quyosh tarozisi" (1980), "Mashina sotaman"(1981), "Dunyoning ishlari" (1982), "Yalpiz somsa"(1983), "Oq kamalak"(1984), "Sirlı yulduz" (1985), "Ikki eshik orasi" (1986), "Xazina", "Ikki karra ikki besh"(1987), "Notanish orol" (1990), "Iztirob" (1991), "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" (2008) va boshqa kitoblari nashr etilgan.

Shuningdek, Stefan Sveyg, E. Xeminguey, K. Simonov, K. Paustovski, J. London O. Berggols, V. Shukshin, M. Karim va boshqa adiblarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "Xazon bo'lgan bahor", "Birovning tashvishi (Inson sadoqati)", "To'ylar muborak", "Baland dorga osilma", "Qatag'on" sahna asarlari muallifi.

Ilk kitobi 1962-yilda "Po'lat chavandoz" ocherklar to'plamidir. Birinchi yirik nasriy asari "Cho'l havosi", "Odamlar nima derkin" (1965), "Shamol esaveradi" (1966), "Qalbingga quloq sol" (1973) qissalari e'lon qilingan. "Bahor qaytmaydi" (1970), "Dunyoning ishlari"(1982) qissalari yozuvchiga shuhrat keltirgan.

Yozuvchining "Muhabbat", "Dehqonning bir kuni", "Urushning so'nggi qurboni", "O'zbek ishi" kabi novellalari o'zbek hikoyachiligida muhim hodisa bo'ldi. Ilk romani "Nur borki, soya bor" (1976) da yozuvchi o'ziga zamondosh-tengdosh jurnalist Sherzodning kechinmalari orqali hayajonli ma'naviy-axloqiy masalalar bilan birga o'tkir ijtimoiy muammolarni ko'targan. "Ikki eshik orasi" (1986), "Tushda kechgan umrlar" (1994) romanlarida O'.Hoshimov zamondosh - asrdosh odamlar taqdirini 20 asrning eng keskin fojiviy hodisalari Ikkinchi jahon urushi hamda mustabid tuzumning jinoyatkorona siyosati oqibatları bilan bog'liq holda tahlil va talqin etish yo'lidan borgan.

O'. Hoshimovning bir qancha asarlari ekranlashtirilgan. "Hazon bo'lgan bahor", "Inson sadoqati" (1975), "Vijdon dorisi", "To'ylar muborak" (1979), "Qatag'on" kabi drama, komediya, bir qator kinossenariylar muallifi. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"(2001) kitobi ijtimoiy-ma'naviy hayotda muayyan iz qoldirgan. Asarlari jahonning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

1995-2004-yillari 1, 2-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputati, Oliy Majlis Matbuot va axborot qo'mitasi raisi bo'lgan. 1986-yili Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofotiga loyiq topilib, 1996-yili "Mehnat shuhrati", 2001-yili "Buyuk xizmatlari uchun ordenlari bilan mukofotlangan.

Adib 2013-yil 24-may kuni 72 yoshida vafot etdi.

ABDURAUFI FITRAT (1886-1938)

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yil Buxoroda ziyoli oilasida tug'ildi. 1909-1913-yillarda esa adib Turkiyada Istanbul doilfununida tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda "Buxoro ta'limi (umumiy) maorif jamiyati" ni tuzadi. Fitrat 1919-20-yillarda Afg'oniston hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, "Turon", "Buxoroi sharif", "Oina" kabi ko'pgina gazeta va jurnallarni tashkil etishda bosh-qosh bo'ldi. Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan "Chig'atoy gurungi" tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro Xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishladi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yozildi. 1923-1924-yillarda Fitrat ma'lum muddat Leningradda, so'ngra Moskvada yashadi. Unga o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib professor ilmiy unvoni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqa maktabi ochdi. O'smirlik yillari u Mijmar ("cho'g'don") taxallusi bilan, so'ngra Fitrat ("tug'ma iste'dod") taxallusi bilan ijod qildi.

Fitratning "Muxtasar Islom tarixi"(1915), "Ro'zalar", "Shaytonning tangriga isyon" (1924), "Qiyomat" kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan. Qomusiy bilim va badiiy iste'dod egasi bo'lgan Fitrat 1938-yil 4-oktyabrda otib tashlangan.

ABDULHAMID CHO'L PON (1897-1938)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (Yunusov) 1897-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Dastlab madrasada (1908-12), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912-14) tahsil olgan. She'riy asarlari "O'zbek yosh shoirlari", "Uyg'onish" (1922), "Buloqlar" (1923), "Tong sirlari" (1926) va "Soz" (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. 20-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalaridir. "Kecha va kunduz" (1936) romani hamda "Yorqino'y", "Xalil farang", "O'ldiruvchi" (1921), "Sevgi va saltanat", "Cho'pon sevgisi" (1922) kabi pesalari ham bor (bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan). Uning tarjimasidagi U. Shekspirning "Hamlet" tragediyasi o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi. U 1938-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'tmay, Toshkent shahri atrofida otib tashlangan. Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va "Mustaqillik" ordeni (1999) berilgan.

131-topshiriq. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan quyidagi parchani o'qing. Og'zaki so'zlashuv uslubiga xos o'rinlarni topib, izohlang.

So'fi yana past toifa oldida muhorak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo'ldi:

- Badbaxt fitna! Qo'yananmi-qo'ymaysanmi, axir?! "Xubilli vatani minal imon" deganlar - Vatanni sevish iymondan". axir! Bilmasang, bekor-da! Vatani yo'q - dunyoda lo'li xolos. Meni bevatani deb bildingmi?

So'fi bir oz qizib ham ketdi.

- Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o'zimizni deysanmi yo? Unday desang boshpurt olib, o'risvoyning religa tushib, "hayt" deb... Makkatulloga jo'nab qolaman.

132-topshiriq. Badiiy asardan olingan ushbu parchani tahlil qiling. Matndagi, so'zlar so'z birikmalari va gaplar tuzilishi, ko'chma ma'noli hamda uslubiy bo'yoqdor so'zlarning mavjudligi, insonlarga xos xususiyatlarning jonsiz narsalarga ko'chirilishi orqali jumalarda obrazlilikning ifodalanishini badiiy uslubga xos xususiyatlarini ko'rsating.

"Har yili bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yuguradi. Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rigan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalardi, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bulgur ekilib ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi. Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasiga yonboshlashni muncha yaxshi ko'rur ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada...ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi. Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?"

Shu vaqt tasodifan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy, ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko'zini katta ochib o'tgan daqiqada uchrashgani xayoliy go'zalni istab xayollandi. Biroq, haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yiga o'tirdi, ammo ko'zi xayol yashiringan yo'lakda edi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdin uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to'xtab qoldi. Yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar edi.

Ko'p kutdi, asr nomozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug'ilgan edikim, bu yog'i o'quvchimizga ma'lumdur. Kumushbibining yuqorida "Siz o'shamu?" deb so'rashi shunga binoan bo'lib, ammo unga masalaning anglashilmay qolishi va chin baxtini bil'aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib, ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari boshlandi".

A. Qodiriy

13. Nutqiy mavzu: Ommaviy axborot vositalari

Grammatik mavzu: Publitsistik uslub va uning xususiyatlari



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Mamlakatimizda istiqloq yillarida barcha sohalarda bo'lgani kabi ommaviy axborot vositalari sohasida ham katta islohotlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi shu soha faoliyatiga bag'ishlangan. Unda ko'rsatilishicha "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar". Albatta bugungi kunda OAV to'rtinchi hokimiyat deb aytilishi bejiz emas. Chunki jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar, yangiliklar, yutuqlar bilan birga kamchiliklar, muammolarni xolisona yoritishi muhim. Bu kelajakda jamiyat rivojlanishiga xizmat qiladi. Biroq OAV bir tomonlama, muayyan shaxs, guruh manfaatini himoya qilib noto'g'ri, real voqelikni bo'rttirib aks ettirishi o'sha jamiyat jamoatchilik fikrining noaniq bo'lisiga olib keladi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini isloh qilish, ularning samarali ishlashiga ko'mak beruvchi mexanizmlarni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yaratish borasida muayyan ishlar qilindi. Shu sababdan, bu muammo O'zbekiston Respublikasining bir qator boshqa qonunlarida ham o'z ifodasini topgan. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi 1997-yil 26-dekabr), "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi (1996-yil, avgust), "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi (1996-yil, sentabr), "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi (1997-yil, aprel), "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, (1997 - yil, aprel), "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi (2002-yil, dekabr) qonunlar hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston axolisining ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (1996-yil may) farmoni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonunida ommaviy axborot vositalarining turlari ko'rsatilgan. Ular gazetalar, jumallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va

radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo'lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalaridir. O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo'l qo'yilmaydi. 870 dan ortiq gazeta va jurnallar 100 ga yaqin davlat va nodavlat teleradiostansiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Agar bundan 15 yil oldin Respublikamizda 475 ta OAVlari bo'lgan bo'lsa, 2009-yilga kelib, bu raqam 1110 tani tashkil etdi. 2010-yilda ularning soni 1200 taga yetdi. Xususan, ularning 600 dan ziyodi viloyatlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

1. Matbuot (gazetalar, jurnallar va boshqa nashrlar). Gazeta va jurnallar 876 ta bo'lib, shuning 676 tasi gazeta (302 tasi nodavlat), 189 ta jurnal (93 tasi nodavlat), 11 tasi byulliten-axborotnomalardir. (2006-yil).

2. Televideniye. O'zbekistonda teleko'rsatuvlar rasman 1956-yil 5-noyabrda boshlangan. Rangli ko'rsatuvlar 1971-yildan boshlangan. Toshkent teleminorasi 1956-yilda qurilgan, balandligi 180 metr, yangisi 1985-yilda, balandligi 375 metr.

3. Radio. O'zbekistonda dastlabki radioeshittirishlar 1926-yilda Toshkentda amalgam oshirilgan. 1947-yilda ilk bor radioeshittirishlar chet elga efirga uzatilgan. "Yoshlar" radiokanali 1998-yilda tashkil etilgan.

4. Axborot agentliklari. Uztag 1992-yil 5-fevralda "UZA" ga aylantirildi. "Jahon" axborot agentligi 1995-yil noyabrda tashkil topgan. "Turkiston-press" axborot agentligi 1998-yil 25-sentabrda tashkil topgan. Qoraqolpog'iston xabar agentligi 1992-yil 21-aprelda tuzilgan.

5. Internet saytlari. 1996-yildan kirib kelgan. Demak, axborotning aniqligi, to'g'riligi va xolisona bo'lishida OAV o'rni nihoyatda katta. Mamlakatimizda Ommaviy axborot vositalarining huquqiy holati konstitutsiya va bir qancha qonunlar bilan tartibga solinishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishda o'z funksiyasini bajaradi.

133-topshiriq. Taniqli sportchilar haqida Ommaviy axborot matnini tayyorlang.

134-topshiriq. "XXI asrda axborotning o'rni" mavzusida esse yozing.

INTERNET VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA TA'SIRI

Bugungi kunda Internet manbalari va OAV(ommaviy axborot vositalari) axborotlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanib, jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilar ongi, dunyoqarashi siyosiy saviyasini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanmoqda. Endilikda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati haqidagi konsepsiyalarni axborot sohasidagi islohotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan Internet tarmog'i axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda an'anaviy OAVning informatsion texnologiyalar asrida o'z mavqeyini saqlab qolishi ko'p jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu borada Yurtboshimiz

alohida ta'kidlab, "... bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi..." – deya yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirganlar.

Albatta, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimini oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molik. OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari inkor etmagan holda, uning yoshlar orasida samarasiz, salbiy ta'sirga ega bo'lgan imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Telekanallarda namoyish etilayotgan va ijaraga beriladigan hamda sotiladigan minglab video, kasseta, lazer diskleri vositasida tarqatilayotgan jangari filmlarda yashash uchun kurash g'oyasi targ'ib etiladi. Ularning yoshlar ongini zaharlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish, milliy nigilizm va manqurtlikka muhtalo qilishi o'z-o'zidan ayon va ochiq haqiqatdir. Mazkur muammolarni yechishda, avvalo, OAV faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'rsatuv, eshittirish va matbuot nashrlari, shuningdek, Internetdagi milliy tarmoq manbalarida berilayotgan axborotlar sifatiga, ayniqsa, ularning kontenti, ya'ni materiallar mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Yoshlarda buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to'la shakllanmaganligini, ularda eshitgan yoki o'qigan ma'lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e'tibor qaratish zarur bo'lgan global muammodir. Ta'kidlash lozimki, Internetdan tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba'zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtayi nazari va e'tiqodini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilganligini unutmashlik kerak. Buning asosiy sabablaridan biri esa tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi tele, radio, audio, video va multimedia mahsulotlari, internetdagi ma'lumotlar, kompyuter o'yinlarining ko'payib borayotgani, xilma-xil usullarda tarqatilayotganidir. Ularning barchasi bolalar va yoshlarni psixik va psixoemotsional holatiga bosim o'tkazish, ularni zimdan boshqarish axboriy-psixologik ta'sir o'tkazishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz aytganlaridek, axborot xurujining oldini olish uchun mafkuraga qarshi mafkura, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmog'imiz kerak. Zero, yoshlarimiz qalbida ma'naviy-axloqiy pok jihatlar ezuq-maqsadlar yo'lida xizmat qilsin.

Axborot hurujlarining oldini olish uchun, avvalo, yoshlarimizning mustaqil fikrlashini shakllantirish talab etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab farzandlarimizga turli usullarda "ommaviy madaniyat" ning salbiy oqibatlari keltirayotgan zararlari haqida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushishdan saqlash, turli "axborot xurujlari"ga qarshi immunitet hosil qilish, ularning psixologik sog'lomligini ta'minlashda mazkur tizim muhim rol o'ynaydi.

Jumladan: mavzu yuzasidan maktablarda OAV xodimlari bilan uchrashuvlar uyushtirish ta'lim muassasalari rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari uchun o'quv treninglari tashkil etish va so'rovnomalar o'tkazish;

OAV bilan ta'limning uzviyligini ta'minlash va mavzuga doir o'quv qo'llanmasini ishlab chiqish.

O'quvchilarning ongini buzuvchi, jarohatlovchi axborot ta'siridan himoya qilish, OAV manbalarida shavqatsizlik va zo'ravonlikni targ'ib qilinishiga yo'l qo'ymaslikning tashkiliy-huquqiy mexanizmi sifatida ta'lim maskanlarida o'quvchilar orasida oshkoralik, xayrixohlik, bag'rikenglik, tanqidiy-tahliliy mushohadaga asoslangan o'zaro munosabatlar tizimini yo'lga qo'yish maqsadida matbuot kotiblari faoliyatini tashkil qilish;

O'quvchilar orasidan tayinlangan matbuot kotiblarining asosiy vazifasi esa, OAV'da e'lon qilinayotgan ijobiy hamda salbiy axborotlarni tahlil qilish, o'quvchilar o'rtasida hamkorlik, samimiy munosabat, bir-birini tushunish, qo'llab-quvvatlab, yuzaga kelgan muammoni bartaraf etish kabi fazilatlarini shakllantirish;

Maktablarda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy bilim va tarbiyalarini rivojlantirishda radio burchaklarini tashkil etish;

"Eng yaxshi matbuot kotibi", "Faol mahalla raisi", "Eng yaxshi rahbar", "Eng faol ma'naviyatchi", "Eng faol tadqiqotchi olim" ko'rik-tanlovlarini o'tkazish;

O'quvchilar o'rtasida yot axborot manipulyatsiyasi hamda uning salbiy ta'sirining oldini olishda turli chora-tadbirlar, ijtimoiy-psixologik dasturlar, o'quv adabiyotlarini yaratish orqali o'quvchilarda axboriy-psixologik immunitetni shakllantirish masalalarini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur, ammo salbiy oqibatlarini ham hisobga olgan holda, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarining ular ongiga singdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yoshlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham aytib o'tish kerak.

135-topshiriq. Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildiring.

136-topshiriq. Teleko'rsatuvlar va radio eshtirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar, reklama matnlarini tahlil qilish.

137-topshiriq. Matnni o'qing va gapirib bering

O'ZBEKISTON TELEVIDENIYESI KECHA, BUGUN VA ERTAGA

Bugungi kunda televideniye axborot uzatish bo'yicha eng ommaviy vositalaridan biridir. Bugun kundalik hayotimizning televidiniyesiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada o'zbekistonliklar poytaxtimizning teleko'rsatuvlar vatani ekanidan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Dunyodagi ilk oq-qora tasvirli elektron televideniye tizimi loyihasi ham 1925-yilda Toshkent shahrida ishlab chiqilgan.


1956-yilda esa Markaziy Osiyo mintaqasida birinchilardan bo'lib Toshkentda oq-qora tasvirli televizion markaz ishga tushirildi.



O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari, avvalambor, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni rivojlantirdi.


Raqamli televideniye – har bir oilada. Odatdagi televizion ko'rsatuvlardan, yangi, yanada sifatli daraja – raqamli teleko'rsatuvlarni yerdan turib efirga uzatishga o'tilgani televideniye sohasida ulkan o'zgarishlarga sabab bo'ldi. O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib raqamli va televideniye o'tgan va respublikamizda raqamli televideniye joriy etish 2007-yildan boshlangan edi. Toshkent va Buxoroda yerdagi raqamli televideniye tajriba zonasining tashkil etilishi yangi turdagi ko'rsatuvlarga bosqichma-bosqich o'tishni boshlab berdi.

Raqamli televideniye texnik va texnologik o'tish davlat dasturini amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi ko'magida "UZDIGITAL TV" kompaniyasi tashkil etildi va ayni paytda u mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarga raqamli televideniye xizmatlarini ko'rsatayotgan yetakchi operatorlardan biridir.

OAV– har bir kishiga maxsus texnika vositalari orqali xilma-xil, ochiq, rasmiy ma'lumotlarni etkazib berish muassasalaridir. Ular davriy matbuot, televidenie, radio, kino, ovoz yozish, internet va boshqa turdagi muassasa, vositalardan tarkib topadilar.







Grammatik mavzu: PUBLITSISTIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Ommabop (publitsistik) uslub – matbuot, radio, teleko‘rsatuvga xos bo‘lgan tildir. Publitsistika – lotincha “ijtimoiy” so‘zidan olingan. Publitsistika keng ma‘noda ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlarni o‘z ichiga oladi.

Publitsistik uslubning og‘zaki turiga notiqlik kiradi. Publitsistik uslubning og‘zaki turiga kundalik voqealarga doir maqolalar yoki xalqaro obzor bilan radio va televideniya chiqayotgan sharhlovchilarning nutqlari ham kiradi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumla lar orqali izchil ifodalanadi, zarur o‘rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarda “muxbirimizning xabar berishicha, elchixonada xodimining so‘ziga ko‘ra, muxbirimiz voqea ro‘y bergan joydan xabar beradi...” va hokazo iboralar qo‘llanadi. Har bir xabarga ta’sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo‘yiladi, masalan, “Qonun barchaga barobarmi?”, “Kafolat – va‘da emas”, “Chetlatilgan mutaxassis”, “Tuya ko‘rdingmi, yo‘q”, “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin”).

Publitsistik uslubning badiiy uslub bilan o‘xshashligi bor; bularning ikkalasi ham temaning har xilligi va shunga qarab, turli uslubga mos vositalardan foydalanishi bilan xarakterlanadi. Ayrim hollarda vaqtli matbuotda fel’eton, kichik hikoyalar, romandan parchalar ham beriladi.

Publitsistik stilning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari mavjud. Hayotning muhim ijtimoiy-siyosiy masalalariga bag‘ishlangan bosh maqolalar, fel’eton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistikaning yozma turiga kiradi.

Og‘zaki publitsistika – notiqlikdir. Bunga kundalik voqealar axboroti, radio va televideniada chiqayotgan sharhlovchilar va boshlovchilarning nutqlarini misol qilib keltirish mumkin.

PUBLITSISTIK JANRLAR (INTERVYU, OCHERK, MAQOLA VA H.K.)

Intervyu - ingliz tilidan kirib kelgan “uchrashuv” ma’nosini bildiradi, ya’ni publitsistika janri. Jurnalistning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masalalar yuzasidan bir yoki bir necha shaxs bilan suhbat.

Intervyu ikki turga bo‘linadi: 1. Xabar intervyusi – asosan informatsiya maqsadida o‘tkaziladi; 2. Mulohazali intervyuda muhim fakt va voqealar sharhlab beriladi.

Ocherk – badiiy adabiyotning nasriy janrlaridan biri. Ocherkda voqea va obrazlarning zarur tizimga solinishida avtor ixtiyori, u bayon qilmoqchi bo‘lgan masala yoki shaxs hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Syujet, konflikt, xarakter kabi badiiy vositalar ocherkdan joy oladi. Yozuvchi hayotdan olgan taassurotini yozadi.


O‘zbek ocherkining asoschilaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor shunday deydi: “...Ocherkist yozuvchidir. Gap janrda emas, asarning qanday yozilganida. Yaxshi hikoya uzoq umrli bo‘lsa, yaxshi ocherk ham uzoq umrli bo‘la oladi.”


Masalan, o‘zbek klassik adabiyotida tarixiy asarlardan ocherk shaklida “Bobirnom” asari eng xarakterli namunadir. Unda o‘sha davr O‘rta Osiyo tabiatiga tegishli faktlar, bu yerda yashaydigan xalqlar hayotiga oid lavhalar berilgan.

Maqola – publitsistika janri bo‘lib, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisod, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar va xalq xo‘jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

Publitsistik uslub siyosiy-ijtimoiy doiradagi munosabatlar uchun xizmat qiladi. Bu uslubning yozma turiga publitsistik maqolalar, fel’yeton, murojaatnoma, xatlar, chaqiriqlar kirs, og‘zaki turiga notiqlik kiradi. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ‘ibot uslubi bo‘lganligi uchun ham unda siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi. Shunga ko‘ra publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo‘yoqdor so‘zlarni qo‘llash) ham o‘zaro uyg‘unlashadi.

Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosa chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqitirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi.





138-topshiriq. Publitsistik uslubga xos bo'lgan so'zlarni ajratib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qatra, aksioma, muhtasham, integratsiya, barakali, mo'l, ulug'vor, jonini bermoq, yutmoq, fidokorona, o'sish, demokratiya, taraqqiyot, zafar quchmoq, birga, sal-pal, sobitqadamlik, hamkorlikda, kelishuv, erishmoq, zabt etmoq, bahramand bo'lmoq, murosa, kelmoq, sarflamoq, ishlatmoq, tashrif buyurmoq, minnatdorchilik, aytmq, izhor qilmoq.

139-topshiriq. Fikrni davom ettiring. Quyidagi parcha publitsistik maqola yoki ocherkingizning kirish qismi bo'lsin. Quyida berilgan tayanch so'zlardan foydalaning.

Tasavvur qiling : siz tasviriy san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnodagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko'zingiz bilan ko'rib hayajonga tushasiz. Tasavvur qiling : siz musiqa tinglayapsiz. Cholg'u ohanglarini eshitib hayajonga tushyapsiz... Endi tasavvur qiling : siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqlar – harflardan bo'lak hech qanaqa rang yo'q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O'zingiz bilmagan holda qattiq hayajonga tushasiz... Hech shubhasiz. badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo'jiza!

Tayanch so'zlar : *ma'naviy ozuqa, adabiyotning mavqesi, estetik zavq, qahramonlar taqdiri, eskicha qarashlar, ilm-fan taraqqiyoti, kuchli qurol, voqealar rivoji, sarguzasht, tarixiy asarlar.*

14. Nutqiy mavzu: Internet hayotimizda

Grammatik mavzu: Og‘zaki – yozma uslub va uning xususiyatlari

INTERNET VA UN DAN FOYDALANISH MADANIYATI

Internet – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog‘i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik, ya‘ni ongimizga mavhum bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma‘lumot beruvchi axborot manbayidir.

Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo‘lgan ehtiyojmandlar soni kundankunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero, unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovo xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor vertual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa, bu ta‘sir doirasida o‘smir yoshlar ham yo‘q emas. Bu borada mutaxassislarning so‘zlari quydagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog‘idagi ijobiylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog‘liq muhim aniq dalillarga ega bo‘lishida har tomonlama qulayligi va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib kelishi kundek ravshan, lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma‘lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlaridir. Izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada, tahlil qilish qobiliyati va xotiraning o‘tkirlik darajasining susayisihga sabab bo‘lmoqda.

Ma‘lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo‘lmagan va insonning o‘z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo‘lishi kerakligi hamda undagi me‘yor talablari, ya‘ni Internet tarmog‘idan axborotlarni to‘g‘ri tanlash har jihatdan o‘rinlidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o‘z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko‘p ekanligi gohida o‘zimizga kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug‘dirmoqda.

Internet tarmog‘ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridagi qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiy ta‘rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu kompaniya Internetdagi yetakchi qidiruv tizimi hisoblanadi, dunyo bo‘ylab tarmoq foydalanuvchilarning o‘ntadan yetitisi u yoki bu ma‘lumotlarni topish ilinjida aynan mana shu saytga murojaat qilishadi. Tizim har kuni 50 mllionga yaqin so‘rovlarni qabul qiladi, sakkiz millardlab veb-sahifalarni indeksatsiya qiladi. U 101 tildagi axborotni izlab topishi mumkin. Keyingi yillarda butun dunyo internet foydalanuvchilari orasida keng ommalashib borayotgan Google tizimi 1998-yil sentyabrda ishga tushgan. Hozirda bu kompaniyaning qidiruv tizimlaridan tashqari yana bir qator foydali va qulay xizmatlari mavjud va ular soni ortib bormoqda. Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog‘i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu

kabi jahonaro rivojlanib kelayotgan turli-tuman axborot texnologiyalari yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligi bir tomondan quvonarli bo'lsa-da, ikkinchi tomondan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchilar radio-televidenie, matbuot-Internet kabi vositalar orqali rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda harbiylarimiz ongini o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish hech shubhasiz zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganimiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz. Binobarin, biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish inson huquqi va erkinliklarini fikrlar rang-barangligini o'z hayotimizda yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umumiy manfaat va umumiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda. Ana shu hayotiy ehtiyojdan kelib chiqib, axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishning quyidagi usullarini qo'llash madaniyatini zarur deb hisoblaymiz:

Birinchiidan, sotsiologik yo'nalish. Bunda axborot olish va tarqatish jarayonida jamiyat taraqqiyotining axborotini ijtimoiy voqelik sifatidagi roldan kelib chiqib, jamiyatda shakillanayotgan ijtimoiy ong yo'nalishlari ijtimoiy tafakkur darajasi va uning oqimlarini o'rganishni yo'lga qo'yish kerak. Aholi turli qatlamlari, qarashlari, kasbiy va boshqa ijtimoiy holatlari asosidagi fikirlash tarzini aniqlab borish zarur.

Ikkinchiidan, statistik yo'nalish. Ko'p millatli mamlakatda, xususan, 130 dan ortiq millat va elat yashayotgan, 20 ga yaqin diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan O'zbekistonda millatlararo va dinlararo mojarolarni turli siyosiy manfaatlar va buzg'unchi g'oyalar ta'sirida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolar manbalarini o'rganib borish, bu borada aniq hisob-kitoblarga tahliliy yechimlarga ega bo'lish.

Uchinchiidan, siyosiy konfliktologiya va siyosiy psixologiya. Axborot psixologik xavf avj olayotgan bir paytda, turli buzg'unchi g'oyalar inson ongi va tafakkuriga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir sharoitda siyosiy mojarolar kelib chiqish mumkin bo'lgan manbalarni o'rganish, omillarini aniqlash hamda siyosiy qarashlari, ruhiyati, ijtimoiy- siyosiy, psixologik izchil ravishda o'rganib borilishi lozim.

To'rtinchiidan, mantiqiy tizimli va funktsional tahlil. Axborot tizimi, xususan, axborot psixologik ta'sir axborot siyosati tizimi va vositasining muhim qismi sifatida baholashi lozim. Voqelikka ana shu tarzda yondashib, ilmiy-tahliliy, nazariy va

amaliy xulosalar chiqarish kerak. Tig'iz axborotlashgan jamiyatda axborot oqimi ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy fikr fan nuqtayi nazaridan izchil o'rganilmog'i lozim.

Beshinchidan, axborot tizimida milliy istiqlol g'oyasining ustuvorligi. Har qanday fuqaro axborot bazasidan "mahsulot" tanlash jarayonida uning qalbi, ruhiyati, kayfiyati va fe'l-atvorida, bularning barchasining oqibati sifatidagi xatti-harakati va munosabatida mafkuraviy immunitet ustuvorligini ta'minlash. Albatta, O'zbekiston mustaqillikning 23 yili mobaynida ommaviy axborot kommunikatsiyasi sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo, har bir fuqaroning so'z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Bundan kelib chiqib aytish joizki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch hosil qilish mumkin. Muxtasar qilib aytganda, harbiy xizmatchilarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat-ehтиrom tuyg'usini har doim shakllantirishimiz zarur.

Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimasi bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

140-topshiriq. Internet madaniyati haqida matn tuzing.

141-topshiriq. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing.

GLOBAL INTERNET TARMOG'IGA ULANISHNING O'TKAZISH QOBILYATINI BOSQICHMA-BOSQICH KENGAYTIRISH LOYIHASI HAQIDA

Ilg'or axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ulardan kundalik hayotimizda faol foydalanish sharoitida, respublikamizda telekommunikatsiya infrastrukturalarini rivojlantirish maqsadida "O'zbektelekom" AK tomonidan davlat organlari, korporativ mijozlar hamda aholiga Internetga xalqaro tezkor ulanishni taqdim etish uchun yangi bog'lama va ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini qurish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

"O'zbektelekom" AK zimmasidagi vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun 2005-yilda Internet provayderlarga global Internet tarmog'i resurslariga ulanishni ta'minlovchi "O'zbektelekom" AK Xalqaro paketli kommutatsiya markazi (XPKM) tashkil etilgan.

Foydalanuvchilarning Internet xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini yanada to'liq ta'minlash, shuningdek, kelgusida ma'lumotlar uzatish tarmoqlari xizmatlarini rivojlantirish uchun 2011-yilda Toshkent shahrida XPKM vositalari

texnik o'tkazish qobiliyati 2.5 Gbit/s.dan 10 Gbit/s.gacha (4 marta), 2012-yilda esa 10 Gbit/s.dan 40 Gbit/s.gacha (4marta) kengaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi hududida xalqaro aloqa xizmatlariga ehtiyoj hamda o'sib borayotgan talablarni, shuningdek, tranzit sig'imiga bo'lgan talab va ehtiyojlarni hisobga olib hamda O'zbekiston Respublikasida Internet xizmatlarini yanada rivojlantirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun mavjud o'tkazish qobiliyatini oshirish va chegaradosh mamlakatlar operatorlari bilan yangi chegaraga o'tish nuqtalarini qurish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Xususan, Qo'ng'iro't (O'zbekiston) – Beyneu (Qozog'iston), Paxta (O'zbekiston) – Abay (Qozog'iston), Keles (O'zbekiston) – Jibik Joli (Qozog'iston), Keles (O'zbekiston) – Sarag'och (Qozog'iston), Denov (O'zbekiston) – Chirtak (Tojikiston), Andijon (O'zbekiston) – Osh (Qirg'iziston), Olot (O'zbekiston) – Turkmanobod (Turkmaniston), Termiz (O'zbekiston) – Hayraton (Afg'oniston) va boshqa uchastkalarda xorijiy mamlakatlar operatorlari bilan yangi o'tish nuqtalari foydalanishga topshirildi.

Yuqorida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, keyingi 5 yil mobaynida Internet xalqaro tarmoqlariga ulanish bo'yicha kanallarning umumiy tezligi 15 martadan ortiq oshirildi va hozirgi vaqtda **19 250 Mbit/s**.dan iborat. Bu davrda 1 Mbit/s. uchun o'rnatilgan tarif esa 14,5 marta kamaytirilib, **233,27 AQSh dollarini** tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyunda qabul qilingan PQ-1989-sonli "O'zbekiston Respublikasining Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida "O'zbektelekom" AK tomonidan "Xalqaro paketli kommutatsiya markazini kengaytirish" loyihasi amalga oshirilishi, unga muvofiq mintaqalarda XPKMning yangi bog'lamalari bosqichma-bosqich ishga tushirilishi rejalashtirilgan.

Mazkur loyihaning birinchi bosqichida – Buxoro shahrida o'tkazish qobiliyati kelajakda yanada kengaytirish imkoniyati bilan 40 Gbit/s. bo'lgan XPKM yangi bog'lamasining qurilishi yakunlandi.

Mazkur loyiha magistral aloqa liniyalari o'tkazish qobiliyatini va ma'lumotlar uzatishni bir necha marta oshirdi, bu esa mamlakatimiz foydalanuvchilarining Internet-xizmatlariga ishonchli hamda yuqori tezlikda ulanishiga sharoit yaratilishiga yordam beradi.

142-topshiriq. Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzing.

INTERNETDA MA'LUMOTLARNI IZLASH

Internet – bepoyon axborot unmoni. Axborotlar Internetda millionlab web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan web-sahifani topish uchun uning Internetdagibilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p qo'llaniladigan web-sahifalar adresinida chop etib turiladi. Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi. Chunki, internetdagi

barcha web-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi.

Qidiruv tizimi –

Hozirgi kunga kelib, o'nlab qidiruv tizimlari yaratilgan. Ulardan ko'p qo'llaniladiganlari sifatida larni keltirishimiz mumkin. Har bir qidiruv tizimi Internet tarmog'ida o'z adresiga ega. Masalan,.....

143-topshiriq. Tarmoq, fayl, dastur, internet, e-mail, xotira atamalariga sinkveyn usuli asosida tavsif bering

144-topshiriq. "Internet – xalqaro kompyuter tarmog'i " mavzusida matn tayyorlang. Matnda qo'llangan barcha neologizmlar ma'nosini misollar yordamida tushuntirib bering.

Grammatik mavzu: OG'ZAKI-YOZMA USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI SO'ZLASHUV USLUBI

So'zlashuv uslubini *adabiy so'zlashuv* uslubi va *oddiy* so'zlashuv uslubi tarzida ikkiga ajratish maqsadga muvofiq emas. So'zlashuv uslubi adabiy nutqqa qarama-qarshi turuvchi nutq ko'rinishidir. Jonli so'zlashuv nutqi yozma adabiy nutqqa yaqinlashtirilgan. Jonli so'zlashuvda adabiy nutq shakllaridan farq qiladi, ya'ni shevalarga xos til birliklari juda keng o'rin oladi.

Jonli so'zlashuvda uy-rozg'or, qo'ni-qo'shnichilik, qarindosh-urug'chilikda uchraydigan suhbatlardagi birliklardan foydalaniladi: mayli, mayliga, xo'p, kirib turing, so'rab qo'ying, Xudoga shukur, qoyil, bo'пти, borovring, opovsi, dadasi, omon bo'ling, barakalla, yashavoring o'rgilay, ishqilib, salom ayting, qurg'ur, qotiramiz, qo'yavering kabilar ko'p uchraydi.

So'zlashuv uslubi **og'zaki nutqqa xos**, qolgan uslublar **ham og'zaki, ham yozma nutqqa** xosdir. Tilshunoslikning nutq uslublarini o'rganuvchi sohasi **uslubshunoslik** deyiladi.

O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'rganish bizga bu til haqida to'la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, muhtaram, qimmatli, aziz singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo'shib ishlatishingiz mumkin: Muhtaram Solijon Soqievich! Qimmatli aka, aziz opajon kabi. Bunday birikmalarni yoningizda siz bilan oddiy holatda jonli muloqot qilib turgan kishilarga qo'llay olmaydiz. Agar shunday birikmalarni qo'llasangiz, noqulay ahvolga tushasiz.

Tildagi har bir so'z o'z o'rinda qo'llangandagina nutqimiz ko'rkam, jozibador bo'ladi.

145-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing va jonli so'zlashuvda uchraydigan so'zlarni anglab izoh bering.

Keling Hoji bobo. Ko'rinmaysiz, kelmaysiz...


Barakallo, o'g'lim, barakallo, - dedi Hoji kursiga ehtiyotkorlik bilan

o'tirayotib. - Umringiz uzoq bo'lsin. Ko'pdan ko'p xursand bo'ldim... O'g'il degan shundoq bo'lsin, otasini rozi qilsin. Ko'p xursand bo'ldim. Xo'p... Bu gilam... bu gilamni necha pulga oldingiz?

Esimda yo'q. Ancha bo'ldi olganimizga.

O'tgan hafta bozorga bir gilam chiqdi, gilammisan gilam edi-da. Bir ming uch yuzga savdo qilib, Qodiralining qo'liga olib berdim. Gilam tanigan odam ikki mingga indamasdan oladi (A.Qahhor).

NUTQ USLUBLARI



NUTQIY FAOLIYAT

Tilning ijtimoiy vazifasi **nutqiy faoliyatda**, ya'ni nutq sifatida kishilar o'rtasida aloqa, fikrlashuv, so'zlashuvni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi. **Nutqiy faoliyat** kishilarning bir-birlariga tushunarli bo'lgan til vositasida o'zaro fikr almashuvlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: **og'zaki** va **yozma** tarzda.

Og'zaki nutqning ikki turi mavjud: oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi. Oddiy so'zlashuv nutqi tabiiy nutq sifatida nomoyon bo'lib, sheva ta'sirida bo'lgan kundalik so'zlashuv nutqining turli ko'rinishlaridan iborat. Adabiy so'zlashuv nutqi esa adabiy til me'yorlariga amal qilgan holda gapirishni taqozo etadi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan so'ng yozuv ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalarga bo'ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo'laklari gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratilib ko'rsatiladi.

Nutq ko'rinishlari ifoda maqsadi, qurilishi, hissiy, ta'sir vositalari bilan farqlanadi.

Nutq shakli	Xususiyatlari
monolog	Ayrim shaxsga tegishli bo'ladi
dialog	Ikki kishi o'rtasidagi nutq
polilog	Bir necha shaxslar o'rtasida yuz beradigan nutq

Yozma nutq uslubiy turlari (soʻzlashuv, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy-idoraviy) bilan oʻziga xos nutq koʻrinishlarini yaratadi.

Inson doimo oʻzini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi aʼzolarimiz yordamida uzatiladigan axborot orqali amalga oshiriladi.

Yodda saqlang!

Jonli soʻzlashuvda toʻliqsiz gaplardan keng foydalaniladi:

- Otamga aytasizmi ?
- Nimani! Ha, aytganday!
- Yoʻq, hojati yoʻq! Otang bilmagani maʼqul.
- Bildira qolsam-chi! Javob bermaydi anoviyam qolip ketadi.
- Mayli, nima qildik? Ketaveramizmi?
- Boʻldi, joʻnadik! Pul-mul ovoganmisan?
- Yetadi, yetmasa sen borsan-ku
- Xoʻv, menga ishonma! Oʻzimni eplayman, xolos!
- Yaxshi, toparman, yetib borsak, boʻlgani.

Yodda saqlang!

Nutq soʻzlashuv va yozma nutq uslublariga boʻlinadi.

Qiyoslang: 1. *Kecha biz darsda maʼruza tingladik* gapi soʻzlashuv uslubida fikr va uning ottenkasi oʻzgarmagan holda *Kecha biz maʼruza tingladik, darsda tarzida ham* qoʻllana oladi: soʻzlovchi fikrini aytadi-da, keyin yana biror unutgan soʻzini oʻsha gapning ketidan keltira beradi: *Akam yengil mashina oldi, “Lasetti”.*

Soʻzlashuv uslubini xarakterlovchi asosiy xususiyatlar:

1. Nutqning dialogik shaklda boʻlishi: *Kelyapti (Bola), Quydi (Yomgʻir).*
2. Koʻchma maʼnodagi, frazeologik birliklarning – koʻproq qoʻllanishi: *Ular juda inoq aka-ukalar: oralaridan qil oʻtmaydi.*
3. Soʻz takrori: *Kim-kim keldi!* (Kimlar keldi?), Nima – nima olding? (Nimalar olding?).
4. Intonatsion vositalar (gumon, ishonmaslik, hayronlik, qatʼiylik).
5. Hazil elementlar.
6. Sodda gaplarning koʻp ishlatilishi: *Borolmadim: ishim chiqib qoldi (Chunki soʻzi ishlatilmagan).*
7. Koʻchirma gapning koʻpincha avtor gapi oʻrinda kelgan tipining ishlatilishi: *Otam: “Bugun buvingnikiga boramiz”, - dedi.*

Uslubiy meʼyorlar nutqning funksional-uslubiy muvofiqligini taʼminlab turuvchi meʼyorlar hisoblanadi. Ular til xatoliklaridan koʻra koʻproq muloqot qonuniyatlarining buzilishiga tegishli hisoblanadi. Zero, stilistika nutqning estetik

sifati bo'lib, so'zlovchi haqida tasavvur uyg'otadi. Shunga ko'ra har bir so'zni o'z uslubi doirasida ishlatish muhim hisoblanadi.

146-topshiriq. Uslubiy me'yorning buzilish holatlarini toping.

1. *Yurtimizning yanada rivojlanishi yo'lida saralashlarini izhor etdilar.*
2. *Hashar --- Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri.*
3. *Yuksak sifatli mahsulotlar ishlab chiqaramiz.*
4. *Hasharning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajariladi.*
5. *Ayni damda to'kis va dasturxon atrofida tanavvul iste'mol qilayotgan yurtdoshlarimizga yoqimli ishtaha tilaymiz.*
6. *Maqsadlar aniq va ravon ekanligidan dalolat beradi.*
7. *Ulug' ustozning saboq maktabini 3 oy mobaynida o'tgan hamyurtimiz kuch va mohiyatini o'zining kimligini va nimaga qodir ekanligini isbotlay bildi.*
8. *AQSh davlati va iqtisodiyoti uchun kichik biznesning ahamiyatliligi va uning qanchalik muhimligi barcha kishilar tomonidan, asosan, hukumat organlari, davlat va shaxsiy ta'lim markazlari hamda turli xil iqtisodiy rivojlanish guruhlari tomonidan tuzilgan biznes jamoalari tomonidan kundan - kunga keng tan olinmoqda.*
9. *Moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.*
10. *Riga shahrining markazida... mustahkamlanib borayotgan do'stona munosabatlarning o'ziga xos tomoni bo'lib qolajakligiga ishonch bildirdi.*
11. *Hovlingizda birorta cho'p bejo yotgan bo'lsa, dilingizga g'ashlik qo'nadi. Shahar ham ana shu hovlimizdek ardoqli, mo'tabar!*
12. *Hamisha har bir daqiqani hisobli va rejada ekanligi bilan e'tiborinni tortgan.*
13. *So'zlashuvda mantiqning ustunligi, suhbatdoshiga nisbatan hozirjavoblik har jihatdan yigitlik olamini bezaydi.*
14. *Xalqimizda ajoyib naql bor: birovni hech qachon og'ir kunda qoldirmasam, deydi.*
15. *Dashtabki tahlilga ko'ra avtomobilni sekinlashtiradigan moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.*
16. *Aksariyat bemorlar, bemorlar yotog'iga yotadilar, aksariyat jarrohlar tig'idan shifo topadilar.*
17. *Siz mamlakatimizning eng so'nggi yangiliklaridan ogoh bo'ldingiz.*
18. *Yo'laklar ozoda, beton ariqlar yog' tushsa yalagudek! Qurigan daraxtlar o'rniga navnihollar ekilgan, ko'chalardagi latofatga qarab ko'z to'ymaydi.*

SO'ZLASHUV USLUBINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Nutq elliptik xarakterga ega bo'ladi, ya'ni gap ba'zan oxiriga yetkazilmaydi, lekin tinglovchiga tushunarli bo'ladi.

Ohang, urg'u, pauza, tovush tovlanishlarida so'zlovchining ruhiy holati, kechinmalari namoyon bo'ladi.

Til birliklarining hissiy-bo'yoqdor shakllari keng qo'llaniladi.

Soʻzlashuv uslubi kundalik aloqa-aralashuv vositasi boʻlib, uning adabiy va oddiy turlari bor. Oddiy soʻzlashuv uslubi erkin, norasmiy muomala vositasidir. Nutqda til unsurlarining ishtirok etishiga koʻra kitobiy uslub sifatida qaraluvchi ilmiy, rasmiy va publitistik uslublariga soʻzlashuv uslubi qarshi turadi deyish mumkin. Soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasida nutqiy aloqaning bevosita amalga oshuvi, nutqiy munosabatda boʻlayotgan kishilar oʻrtasida rasmiy munosabatning boʻlmasligi soʻzlashuv uslubini boshqa vazifaviy uslublardan keskin chegaralaydi.

147-topshiriq. Matni oʻqing. Oddiy soʻzlashuvni adabiy soʻzlashuv uslubidan farqlaydigan xususiyatlarini aniqlang.

Uchinchi kundan buyoqqa quidorning eshigi tevaragidan Sodiq ayrilmas edi.

Poyfzal rastasining sharqqa qarab tortilgan koʻchasi boshidan bir toʻda yigitlar munga qarab kelar edilar. Boshda ul kelguchilarni tanimagʻan edi, yigitlar yaqinlashib kelgach, oʻzining oʻrtoqlari ekanini bilib oʻnggʻaysizlana boshladi...

– *Nega bu yerda tegirmonchining ishsiz qolgan eshagidek junjayib oʻturibsan, Sodiq? – dedi bir yigit. Boshqalar buning soʻziga kulishdilar. Sodiq ham kulgiga ishtirok qilib, yigitlarning yaqiniga keldi.*

– *Birovda ishim bor edi, shuni kutib oʻturibman.*

– *Sodiq dedi haligi yigit va Sodiqdan “ha” javobini olgʻach, - burningmi yo Risolat xolamning rapidasi? – dedi. Yigitlar tagʻin koʻchani koʻtarib kulishib yubordilar.*

– *Jur, bazmga!*

– *Qanaqa bazmga?*

– *Shamshodbekning bazmiga, hali toʻydan xabaring yoʻqmi? Jur, Sodiq jiyanim, basharangmi, doʻlda qolgan tappimi?*

– *Eh xumsa, ... yur, yur, itbachcha, jinni-minni boʻldingmi? – deb sudray boshladilar...*

148-topshiriq. Berilgan soʻzlarning oddiy soʻzlashuv uslubida qoʻllanadigan shakllarini topib, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sohibjamol, muvaffaq boʻlmoq, fursat, maʼlum qilmoq, shu bois, basharti, bir bora, qodir, tashrif buyurmoq, soʻzga chiqmoq, bahramand etmoq, masʼul, jumladan, muyassar boʻlmoq, najot, huzur, samo, har lahza.

149-topshiriq. Berilgan xatga javob yozing.

DOʻSTIMGA XAT

Salom! Yaxshi yuribsanmi? Sogʻliqlaring qanday? Oʻqishlar bilan charchamayapsanmi? Yangi joyga oʻrganib qoldingmi? Senga yangi oʻqish joyingda nima yoqdi?

Biz yaxshi yuribmiz. Otam, onam, singlim Nargiza senga salom aytishdi. Sening uyingdagilarni ham ko'rib tiraman. Ukang bilan ba'zan kechqurunlari ushrashamiz va gaplashib o'tiramiz. Shaharchamiz tinch. Hamma sog'-salomat. Men ham ishga kirdim. Bu yil o'qishga kira olmadim. Oldin juda xafa bo'ldim. Hech kim bilan gaplashishni ham, ko'rishishni ham xohlamadim. Hozir biroz tinchlandim. Hechqisi yo'q, bu yil o'qishga kira olmadim, lekin kelasi yili, albatta o'qishga kiraman, maqsadimga erishaman. Men shunday xulosaga keldim: odamning hayotda katta maqsadi bo'lishi kerak. Agar maqsad aniq bo'lsa, unga erishish mumkin. Qiynchiliklar, to'siqlar bo'ladi. Ulardan qo'rqmaslik kerak.

Esingdami, ikkalamiz birga dars tayyorlar edik, lekin men tez zerikar edim va dars tayyorlashni xohlamas edim. Hozir buning uchun afsuslanyapman. Yaxshiroq o'qisam edi, o'qishga kirar edim.

Hozir Internet kafeda ishlayapman. Ishdan bo'sh vaqtlarimda dars tayyorlayman.

Toshkentda bir o'zing yashayapsanmi? Kir yuvish, ovqat pishishirish, uy yig'ishtirish qiyin emasmi? O'qish uchun pul to'lash kerakmi? Hozir shartnoma asosida o'qish necha pul? Qimmat emasmi? Ota-onang senga yordam beryaptimi?

Toshkent havosi senga yoqdimi? Yangi do'stlaring bormi? Ular haqida menga yoz. Mayli, xatim bir oz cho'zildi. Javobingni kutaman. Hammadan salom. Seni juda sog'indim.

Do'sting

150-topshiriq. Quyidagi matndan, shevaga xos so'zlar va jargon so'zlarni toping. Ularning ma'nosini sharhlang.

Salomalaykum ! E. bormisan, uka o'ra-po'raga tushib ketmadingmi, haytovur ! Juda sog'indim, meni sog'inmadingmi, xumpar !

Xudoylig'imni aytaymi, shu afandachalarningni bittasi sanmi ? Shoyi ko'ynakchangni qara ! Voy o'sha cho'nachakhasiga burnimni qoqay ! Kulma, xudoy haqqi, kufrligimni oshirasan ! Sen xaloyiqni hammang ham tirnog'imni yuzida. Poshsholig'ingga shoyi ko'ynakka. deb besh so'lkavoyni uzatdim. Siminit (cuo muhyu) Toshpo'iat akangni unutasan, xudoy haqqi unutasan !

Men-ku holi parishonimni o'zing bilasan ; kechadan beri nonushta qilgan bo'lsam hazrati jabroyilga sol ! O'lgan kun Nabining samovarida yotib, yedim, komissiya chaqirdi, dedi. Bordim. He yo'q, be yo'q, qiyiq qog'ozini uzadi. Kuladi. Ha, deydi, sizga besh so'lkovoy nalogovoy kepti dedi. A, dedim, bazzozlikdagi do'konimni barham bergan edim-ku, dedim. Borib o'ziga arz qiling, dedi. Xudo haqqi, kufrligim oshdi, qiyiq qog'ozini lippamga qistirib, to'ppa-to'g'ri nalogboshisiga bordim. Menga o'xshash bo'ynini ekkkan xumsalaring juda ko'p ekan. Ha, dedim. nalog boshing qaysi xumsa o'zi, dedim. Muni dodiga yet, pojaliksa, dedim.

Abdulla Qodiriy "Toshpo'lat tajang nima deydi".

15. Nutqiy mavzu: O'zbekiston va jahon Grammatik mavzu: Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari

O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI

XX asrning so'nggi 10 yilligi jahon tarixiga ijtimoiy dunyoqarashda, jahon hamjamiyatining siyosiy-geografik tuzilishida tub o'zgarishlar davri bo'lib kiradi. Jahon yangi davrga qadam qo'ydi. Bu davrning o'ziga xos belgilari, bir tomondan, davlatlar va xalqlar o'rtasida yaqinlashuv jarayonlari va hamkorliklarning kuchayishi, yaxlit siyosiy va iqtisodiy makonlarning vujudga kelishi, yagona xalqaro me'yorlar, qoidalar va andozalarga o'tish bo'lsa, ikkinchi tomondan sotsialistik lagerning yemirilishi, totalitar tizimlarning tugatilishi, bu tizimlar o'rtasida yosh mustaqil davlatlarning paydo bo'lishidir. Avvalo, yosh mustaqil suveren davlatning jahonga yuz tutushi, uni ko'plab davlatlar, mamlakatlar tomonidan e'tirof etilishi, diplomatic savdo-sotiq va boshqa aloqalarni o'rnata borishi O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonga chiqishiga yo'l ochib berdi.

Hozirgi O'zbekistonning hududi tarixan shunday bir joy bo'lgan-ki, bu yerda juda ko'p savdo yo'llari tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni kechgan. Hozirgi kunda O'zbekiston o'zining mustaqil energetika va suv tizimlariga ega bo'lgan sobiq Ittifoq respublikasi – O'rta Osiyoning markazida turibdi, ko'pgina masalalarda, respublikalar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qilmoqda va xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda tobora faol rol o'ynamoqda. O'zbekiston mustaqil Osiyo Respublikalari o'rtasida g'oyat katta eksport imkoniyatiga ega bo'lgan juda muhim xomashyo – paxta va undan tayyorlangan mahsulotlarni yetishtiruvchi hamda yetkazib beruvchi asosiy respublikadir. O'zbekiston respublikaning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini himoya qilish imkonini beradigan yetarli potentsialga ega.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatiga quyidagi qoidalar asos qilib olingan:

- davlatning suveren tengligi va chegaralarning daxlsizligini hurmat qilish;
- kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahlid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- davlatlararo teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida barqarorlik, hamkorlik tamoyillari ustunlik qiladi.

O'ZBEKISTONDA EKSPORT VA IMPORT

O'zbekistonning eksport va import siyosati – mamlakat mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmualaridan biri. Bu siyosat muayyan vaziyat va sharoitga qarab, o'zgarib boradi. Mustaqil O'zbekistonning eksport va import siyosatini bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991-1994-yillar) iqtisodiyot oidida turgan eng dolzarb masala – bozorni tovarlar bilan to'ldirish va inflyatsiya darajasini pasaytirishdan iborat bo'ldi.

Ikkinchi bosqichda (1994-1996-yillar) importni erkinlashtirish siyosati yanada rivojlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qaroriga muvofiq import bojlari bekor qilindi.

Uchinchi bosqich 1996-1997-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrga kelib, inflyatsiya darajasi keskin pasaydi, milliy valuta kursi nisbatan barqarorlashdi, ishlab chiqarish hajmi o'sa boshladi.

To'rtinchi bosqich (1998-yildan boshlanib, hozir ham davom etmoqda) eksportni rag'batlantirish siyosati doirasida eksport bojlarining keskin pasaytirilishi va keyinchalik umuman bekor qilinishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunda erkin almashtiriluvchi xorijiy valutilarga mahsulot chiqarilishi eksport bojlaridan ozod qilinibgina qolmay, unga soliq imtiyozlari ham beriladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda importni tartibga solishning muhim vositalaridan biri sifatida valuta siyosati qo'llanilmoqda. Bu chora import tarkibi va hajmini nazorat qilish imkoniyatini bermoqda.

Valyuta bozorini erkinlashtirish orqali yagona valuta kursini vujudga keltirish va milliy valutaning nisbiy barqarorligini ta'minlash hozirgi kunda iqtisodiy siyosat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO SIYOSATI VA UNING ASOSIY STRATEGIYASI

O'zbekiston uchun tashqi savdoni isloh qilish va eksportni rag'batlantirish – erkin ayirboshlanadigan valyutada daromadlar o'sishiga olib keladi. U jahon iqtisodida integratsiyalashuv kuchayishida muhim omil sanaladi. Eng muhimi, u iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydigan milliy valyutani mustahkamlash, iqtisodda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish kabi eng dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan muhim harakat hisoblanadi.

Ma'muriy nazoratning qisqarishi orqali zamonaviy xalqaro qoidalarga muvofiq tashqi savdoning bozor mexanizmlari vositasi bilan tartibga solinishi respublikada o'tish davriga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishni va isloh qilish uslublarini takomillashtirishni talab qiladi. Xo'jalik subyektlarining makroiqtisodiy bozor islohotlari natijasida vujudga kelgan rag'batlantirish omillaridan to'liq foydalanishini ta'minlash uchun O'zbekiston xalqaro moliyaviy va texnik yordamga muhtojdir. Respublika xo'jalik subyektlarining xalqaro savdo jarayonlarida ishtiroki hozirgi kunda faqatgina to'plangan tajribalar va o'rnatilgan savdo aloqalari hisobiga jahon bozori holati bo'yicha yetarli darajada ma'lumotlar bo'lmagan va bu sohada ilmiy izlanishlar deyarli yuk sharoitda ro'y bermoqda.

TIF sohasida respublika duch kelayotgan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

TIALarning o'zgaruvchan shart-sharoitlarini inobatga oluvchi, ularni davlat tomonidan tartibga solishning ilmiy asoslangan konsepsiyasining mavjud emasligi;

TIA qatnashuvchilarining aksariyat qismida tashki iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan bozor iqtisodiyoti, jahon bozoriga kirish shart-sharoitlari, huquqiy va texnik jihatlari to'g'risida maxsus bilimlarning etishmasligi;

Jahon bozorlari haqida kerakli tijoriy ma'lumotlarning etishmasligi yoki yo'qligi:

Bojxona va eksport-import nazoratini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirishning talab darajasida emasligidir.

TIF sohasida erishilgan yutuqlar bilan birgalikda, uning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etishda har tomonlama ilmiy asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zarurati tug'iladi.

Odatda, konsepsiya tashqi iqtisodiy muhit o'zgarishiga ongli ravishda moslashish ehtiyoji tug'ilganda ilmiy doiralarda yaratiladi. Oqilona tuzilgan tashqi iqtisodiy siyosat konsepsiyasi, avvalambor iqtisodiyotdagi ahvotni tubdan tahlil qilish bilan boshlanadi. Tahlil makro darajada – mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, uning budjeti, to'lov balansi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish, aniq bozorlar darajasida esa talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tavsifi, raqobat va hokazolarni o'rganish asosida amalga oshiriladi. Tahlil davomida yechimi talab etiladigan muammolar aniqlanadi. Ularni hal etish, salbiy hodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning muqobil oqibatlari baholanadi.

TIS konsepsiyasini yaratishda muhim bosqichlardan yana biri barcha imkoniyatlarni belgilashdan, ya'ni TIF sohasidagi asosiy maqsad va vazifalarni aniqlashtirishdan iborat. Ushbu bosqichda har bir maqsadning xususiyati aniqlanadi, ya'ni maqsadlar, dastlabki yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, qisqa, o'rtacha yoki uzoq muddatli bo'lishi mumkin. Maqsadlar, shuningdek, ularning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va xarajatlarning miqdor ko'rsatkichlari, institutsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari bo'yicha ham farqlanadi.

BMT TASHKILOTI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – yer yuzida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlat va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945-yilda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. Shunday xalqaro tashkilot tuzish zarurati Birinchi jahon urushidan keyinroq ma'lum bo'la boshladi. 1943-yilda Tashqi ishlar vazirligining qo'shma kengashida bu fikr aniq ifodalandi. BMTning Nizomi 1944-yilda to'rt davlat (Buyuk Britaniya, AQSh, Xitoy va sobiq Sovet Ittifoqi) vakillarining Dumbarton-Oksdagi konferensiyasida ishlab chiqildi va 1945-yil iyunida San-Fransiskodagi Ta'sis konferensiyasida imzolanih, 1945-yil 24-oktabrdan kuchga kirdi. 1945-yilning 24-oktabri shu boisdan BMT kuni sifatida nishonlanadi. Tabiiyki, BMTga turli davlatlar turlicha yondashdilar. Shu sababli, o'z faoliyati davrida BMT siyosiy kuchlarning kurash sahnasi bo'lib keldi. Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqi BMT minbaridan sinfiy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida foydalanishga intildi. Ammo oxir-oqibatda BMT xalqlar va mamlakatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida tanilmoqda. Buni sobiq Yugoslaviya, Iroq, Falastin-

Isroil va Afg'oniston misollarida, mustamlakachilikni barbod etishda, davlatlarning mustaqilligini himoya qilishda va boshqa shu kabi vaziyatlarda ko'rish mumkin.

BMT o'z tarkibiga ko'ra 6 asosiy organ, shuningdek, bu asosiy organlarga ko'maklashuv uchun tuzilgan ma'lum miqdordagi qo'mita va komissiyalardan iborat. Bosh Assambleya – BMTning eng nufuzli organidir. Uning har yili sentabr oyida chaqiriladigan sessiyalarida BMTga a'zo barcha davlatlarning delegatsiyalari qatnashadilar. Xavfsizlik kengashi 15 ta davlat vakillaridan tashkil topadi. Ularning 5 tasi doimiy a'zo (AQSh, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya), qolganlari har ikki yilda almashinib turadilar.

Xavfsizlik kengashi davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va agressiyaning oldini olish, yangi a'zolar qabul qilish va boshqa masalalarni o'rganib, qarorlar qabul qiladi yoki tavsiyalar beradi. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug'ullanadi. Vasiylik kengashi tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi. Xalqaro sud esa xalqaro siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, hududiy masalalarni hal etishda yuzaga kelgan barcha muammolar bo'yicha, vaziyat talab qilganda, o'z fikrini aytadi yoki hukmini chiqaradi. BMT Kotibiyati tashkilotning kundalik ishini ta'min etadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi BMTga 1992-yil 2-martda qabul qilindi. O'zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyo hamda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zonaga aylantirish, narkobiznesga va ekstremizning har qanday turiga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish maqsadlarida, ya'ni umummanfaat yo'lida foydalanmoqda, bu faoliyatlarning samaradorligini oshirish, miqyoslarini kengaytirish davr talabi ekanligini asoslab, bu masalalarni o'rta tashlamoqda.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matnni abzaslarga bo'lib tarjima qiling;
- c) matn mazmunini so'zlab bering;
- d) matn yuzasidan savollar tuzing.

151-topshiriq. BMT faoliyati haqida taqdimot qiling.

YUNESKO

Yunesko – Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. U BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biridir. Yuneskoning tarixi Ikkinchi jahon urushidan so'ng 44 davlat vakillari Londonda konferensiyaga yig'ilib, ushbu tashkilotni ta'sis etish, ustavini qabul qilishlaridan boshlanadi. Uning amaliy faoliyati esa 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi – Parijda. Tuzilish davrida 28 davlat a'zo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda unga 186 ta davlat a'zo. Yunesko yarim asrdan oshiq davr ichida eng katta nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktabrda Yuneskoga a'zo bo'ldi.

Yuneskoning asosiy maqsadi – tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, ta’lim, fan va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishdir. Yunesko Ustavi bo’yicha: “BMT Ustavida e’lon qilingan irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatini ta’minlash maqsadida ta’lim, fan va madaniyatini rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga ko’maklashish tashkilotning ustivor vazifasidir”. Bu g’oyalar mustaqil O’zbekiston siyosatiga to’la mos keladi.

Yunesko umuminsoniy qadriyatlarini o’rganish va targ’ib etish tashkilotidir.

Yunesko doirasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning 1000 yillik, Mirzo Ulug’bekning 600 yillik, Amir Temurning 660 yillik tantanalari, Toshkent shahrining 2000 yilligi butun jahon miqyosida keng nishonladi. 1997-yili Yuneskoning jahon madaniy boyliklari ro’yxatiga kiritilgan Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi nishonlandi, Shaxrisabz va Marg’ilon shaharlari bo’yicha tadbirlar tayyorlanmoqda. Mustaqil O’zbekistonning Yunesko bilan hamkorligi yil sayin o’sib bormoqda.

152-topshiriq. “O’zbekiston xalqaro aloqalari” mavzusida insho yozing.

153-topshiriq. O’zbekiston a’zo bo’lgan xalqaro tashkilotlar haqida BBB jadvalini shakllantirish.

154-topshiriq. Quyidagi tayanch so’zlarni yod oling:

Tashkilot – aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo’lgan ijtimoiy, xo’jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti.

Hamkorlik – ish-faoliyatda birga hamkor bo’lish, ayni bir ishda birgalashish, uni teng bajarish. 2. Biror sohada o’zaro bog’lanib, birgalikda, hamkor bo’lib ish olib borish. Iqtisodiy hamkorlik.

Irq [qon tomirlari; ildiz; zot, nusl] – kishilarning ko’z, soch va teri rangi, yuz-bosh tuzilishi, nasliy belgilarini bir xil bo’lgan, tarixan shakllangan guruhlarini. Turli irq larga mansub kishilar.

Ta’sis [tuzish, tashkil etish] – joriy qilmoq, belgilamoq, vujudga keltirmoq. Ushbu tashkilotning ta’sis etish Ustavini qabul qildilar.

Tinchlik – g’ala-g’ovur, shovqin-suron kabilardan holi, tinch holat. Kishini bezovta qilmaydigan, osoyishta holat. Asosiy maqsadimiz – tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash.

Davr [aylanish, almashinish, navbat] – jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqea, hodisa yuz bergan yoki o’ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma’lum vaqt oralig’i. Tuzilish davri.

Mustahkam [mahkam, kuchaytirilgan, kuchli] – o’z xususiyati, mohiyati jihatdan o’zgarishga, buzilishga, aynishga chidamli, barqaror, aynimas.

Nufuzli – obro’-e’tiborli; ta’sirli. Nufuzli tashkilot.

Jins [tur; xil, nav] – jonli organizmlarning biologik va jismoniy xususiyatlariga ko’ra, ikki turidan biri. Jinsidan qat’iy nazar.

Mustahkamlash uchun savollar

1. Qanday xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
2. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?
3. Siz O'zbekistonni qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishini xohlarsiz?
4. BMT qanday tashkilot va u qachon tashkil etilgan?
5. BMTning Nizomi qaysi davlat vakillari tomonidan ishlab chiqildi?
6. BMT nechta asosiy organidan iborat? Uning vazifalari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston BMTga nechanchi yilda qabul qilindi?
8. Yunesko qanday tashkilot?
9. O'zbekiston Yuneskoga qachon a'zo bo'ldi?
10. Yunesko keyingi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
11. Yuneskoning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

Grammatik mavzu: RASMIY DIPLOMATIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Diplomatik uslub: Nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya, memorandum kabilar.

DIPLOMATIK USLUB

Diplomatik uslub – davlatlar o'rtasida olib borilgan diplomatik muzokara yoki maxsus konferensiya qarori. Diplomatik uslub shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, deklaratsiya, dalil, ustav kabi turli nomlar bilan atalishiga qaramay, yagona yuridik ahamiyatga ega. Uning keng tarqalgan formasi – o'zaro yordam, savdo to'g'risidagi xalqaro shartnomalardir, memorandum, bayonot ham diplomatik uslub hisoblanadi.

Diplomat – fransuz tilidan kirib kelgan. Chet mamlakatlar bilan aloqa qilish yoki muzokara olib borish uchun hukumat tomonidan vakolat berilgan lavozimli kishi. Diplomatik uslubni qo'llashda ular kommunikativ bo'lishlari kerak, o'z ishining nozik tomonlarini, qonun-qoidalarini, muzokara olib borish san'atini biladigan kishi bo'lishi lozim.

Nota – (xalqaro huquqda) – bir davlatning tashqi ishlar organlari tomonidan ikkinchi davlatning tashqi ishlar organlariga yuboriladigan yozma rasmiy hujjat. Har bir davlat nota yordamida boshqa biror davlatning noto'g'ri xatti-harakatiga qarshi o'z huquqi yoki da'vosi, noroziligini bildiradi; shuningdek, nota almashtirish yo'li bilan o'zaro bir bitimga kelishi mumkin.

Masalan, Nota orqali bir mamlakat bitim bayonini beradi, ikkinchi mamlakat esa o'zining javob notasida uni takrorlaydi.

Yakka holdagi (yoki individual) Nota *shaxsiy* yoki *verbal* notaga bo'linadi. Shaxsiy nota bir shaxs tomonidan belgilangan shaklda yoziladi va imzolanaadi. Verbal notada egasi ko'rsatilmaydi, uchinchi shaxs nomidan yoziladi.

Diplomatik yozishmalarda hujjat turini uning mazmunidan kelib chiqqan holda to'g'ri tanlash va yozish qonun-qoidalariga to'la va aniq amal qilish, hujjat

yo'llanayotgan mamlakat an'analari hisobga olish zarurdir.

Diplomatik hujjatlarning shakli, tashqi ko'rinishi qanchalik muhim bo'lmasin, diqqat-e'tibor asosiy qismga, uning mazmuniga qaratilmog'i lozim.

Diplomatik hujjatlarda so'zga e'tibor juda kuchli bo'lmog'i kerak. Ularning tili sodda, ravon bo'lib, ko'chma ma'nolardan xoli bo'lmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda davlatlararo aloqalarda diplomatik yozishmalarning quyidagi turlari faol qo'llanilmoqda:

1. Nota va bayonotlar.
2. Rasmiy xatlar.
3. Ilova xatlar.

Yarim rasmiy shaxsiy xatlar (nomalar).

4. Esdalik yozishmalari.
5. Diplomatik protokol (qaydnoma)lar.
6. Memorandumlar.

Shaxsiy va verbal notalarga xos umumiy xususiyatlar:

1. Notalar yuqori qismiga davlatning nomi yozilgan va davlat gerbining tasviri tushirilgan eng toza, sifatli qog'ozga yoziladi.

2. Qog'ozning yuqori o'ng burchagiga nota yo'llayotgan davlat poytaxtining nomi va sana yoziladi.

3. Notaning hajmidan qat'i nazar, birinchi betning pastki chap tomoniga u yo'llanayotgan davlat nomi to'liq yoziladi, konvert ustida ham xuddi shu manzil ko'rsatiladi.

Shaxsiy notalar quyidagi masalalar bo'yicha yuboriladi:

1. Ishonch yorliqlarini topshirish.

2. Elchixonona, vakolatxonalarining ochilish munosabati bilan.

3. Davlatning tashkil topgan yoki mustaqillik e'lon qilingan kuni bilan qutlash.

4. Milliy bayramlar munosabati bilan qutlash.

5. Prezidentlik saylovi yoki referendum munosabati bilan qutlash.

6. Mamlakatda ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqea munosabati bilan.

7. Mamlakatda yuz bergan tabiiy ofat (zilzila, suv toshqini va h.k.) munosabati bilan hamdardlik bildirish.

8. Prezident yoki yuqori mansabdor shaxsga aloqador musibat munosabati bilan ta'ziya bildirish.

Nota – birinchi shaxs tomonidan yoziladi: *murojaat, asosiy qism, shaxsiy xulosa.*

Masalan: “Janob Prezident. Sizga chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etaman va shuni bildirish sharafiga muyassarmanki... Sizni...bayrami bilan samimiy qutlayman va mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar bundan keyin ham rivojlanib boradi, deb umid bildiraman”; “Sizning hukumatigiz va ... RESPUBLIKASI o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi va diplomatik vakolatxonalar o'z ishini boshladi”; “...munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etaman va qo'limizdan kelgan yordamni ayamasligimizni ma'lum qilaman”;

“Fursatdan foydalanib, yana bir bor Sizga hurmat va ehtiromimni izhor

etaman”; “Imkoniyatdan foydalanib, Sizga bo‘lgan hurmat va ehtiromimni yana bir bor izhor etaman”;

So‘ng o‘ng tomonga kimdan, chap tomonga kimga yuborilayotgani yoziladi.

Imzo qo‘yishdan avval hurmat ifodasi yoziladi:

“Eng ezgu tilaklar ila”,

“Hurmat va ehtirom bilan” kabi.

Verbal nota – tashqi ishlar vazirliklari, elchixonalar, vakolatxonalarning asosiy yozishmasidir. Unda hukumatlarga muhim, davlat ahamiyatiga molik masalalar va so‘rovlar, viza berish, uning muddatini cho‘zish, mamlakatga tashrif yoki yirik anjumanda ishtirok etish uchun taklif, ruxsat olish, delegatsiya jo‘natish va b.

Verbal notaning zaruriy qismlari:

1. Davlat gerbi tasviri tushirilgan maxsus qog‘ozga yoziladi.
2. Qog‘ozning yuqori chap burchagiga nota yo‘llayotgan hukumat, elchixonaning to‘liq nomi yoziladi va joriy raqami qo‘yiladi.
3. Matn asosiy qism, uchinchi shaxs nomidan yoziladi.
4. Matndan so‘ng davlat poytaxtining nomi, sana yoziladi.
5. Pastki chap burchagiga nota yo‘llanayotgan mahkama va davlat poytaxtining nomi yoziladi.
6. Tashqi ishlar vazirligi yoki vakolatxonalar muhri bilan tasdiqlanadi.
7. Imzo qo‘yilmaydi.

155-topshiriq. Prezidentlik saylovi yoki referendum munosabati bilan qutlash “Janob Prezident” tarzida rasmiy nota yozing.

156-topshiriq. Mamlakatda yuz bergan tabiiy ofat (zilzila, suv toshqini va h.k.) munosabati bilan hamdardlik bildirib elchixonaga nota yozing.

SHAXSIY NOTA YOZILISH NAMUNLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV JANOBI OLIYLARIGA

Hurmatli Shavkat Mirziyoyev!

Sizni va qardosh o‘zbek xalqini milliy bayram – Mustaqillik kuni bilan tabriklash menga alohida quvonch bag‘ishlaydi.

Bizni ikki davlatimizni birlashtiruvchi do‘stona iliq munosabatlar hamda mamlakatlarimiz xalqlarining barcha yo‘nalishlar bo‘yicha, ya‘ni siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalaridagi o‘zaro hamkorlikka intilishning bundan keyin ham samarali rivojlanishiga ishonch bildiraman.

Qozog‘istonliklar nomidan o‘zbek xalqiga quvonch va tinchlik, shaxsan Sizga esa mustahkam sog‘liq va muvafaqqiyatlar tilayman.

Hurmat bilan

Nursulton Nazarboyev
Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Muhtaram Shavkat Mirziyoyev!

Sizni, O'zbekiston Respublikasi hukumati va xalqini milliy bayram – Mustaqillik kuni bilan tabriklayman. O'zbekiston to'rt yillik suveren hayoti davomida islohatlar yo'lidan borib, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot o'zagi bo'lgan davlat tuzumini mustahkamlab, jahon hamjamiyatining nufuzli a'zolaridan biriga aylandi.

Davlatlarimizning xalqlari manfaatiga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini mustahkamlashga qaratilgan Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va o'zaro foydali hamkorlik mantiqiy ravishda rivojlanib borayotganini alohida qayd etaman. Qardosh O'zbekiston xalqiga tinchlik, osoyishtalik hamda muvaffaqiyatlar tilayman. Samimiy hurmat bilan

V. Putin
Rossiya Federatsiyasi Prezidenti

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV
JANOBI OLIYLARIGA**

Muhtaram janob Prezident!

O'zbekiston mustaqilligining yigirma olti yilligi munosabati bilan eng samimiy qutlovlarimni qabul etgaysiz.

Amerika Qo'shma Shtatlari birinchi bo'lib Toshkentda elchixonona ochgan edi. Biz O'zbekiston suvereniteti va mustaqilligini ilgariday qo'llab-quvvatlayveramiz. Barcha Amerikaliklar gullab-yashnayotgan, ochiq va iqtisodiy mustahkam jamiyat poydevorini birgalikda barpo etgan Amerika va O'zbekiston xalqlari hamkorligi bilan faxrlanadi. Biz, shuningdek, sizning rahbarligingizda erkin va ochiq munozara yuritish asosida shakllanadigan siyosiy tizim istiqbolini qadrlaymiz.

Sizga Amerika xalqi nomidan demokratik, mustaqil va farovon O'zbekistonni barpo qilish yo'lida Siz va O'zbekiston xalqi bilan birga ishlashga tayyor ekanimizni izhor etishimga ijozat bergaysiz.

Kamoli ehtirom ila

D. Tramp
Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti

157-topshiriq. “Janob bosh vazir”ga shaxsiy nota – diplomatik yozishma tarzida davlatning tashkil topgan kuni bilan ezgu-tilaklar bildiring.

158-topshiriq. Milliy bayram munosabati bilan elchixonona shaxsiy nota yozing.

159-topshiriq. “Hurmatli janob vakil” tarzida mamlakatda ro'y bergan muhim ijtimoiy-siyosiy voqea munosabati bilan rad javobini ma'lum eting.

160-topshiriq. Tavallud topgan kuni bilan “Qirolicha hazrati oliyalari”ga hurmat va ehtirom izhor eting.

16. Nutqiy mavzu: XXI asrda innovatsiyalar Grammatik mavzu: Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

KASHFIYOTLAR OLAMIDA

Bugunimiz o'tmishga aylanayotgani kabi o'tmishda ham xuddi hozirgi davr singari kun, oy, yillar silsilasida ajdodlarimiz umrguzaronlik qilgan. Har qaysi davrning o'z buyuk shaxslari bo'lganki, ular olamshumul kashfiyotlari bilan insoniyat tarixida iz qoldirishgan. Hayotdagi qaysi sohani olib qaramaylik, uning ilk asoslari qaysidir zamonda yaratilgan bo'lib, asrlar osha takomillashgan va bugungi darajasiga yetgan. Quyida shunday ixtirolardan ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Vaksinalar to'g'risidagi kashfiyot ingliz dorishunosi va jarrohi Eduard Jenner faoliyati bilan bog'liq. U Yevropa axolisi o'rtasida keng tarqalgan qora chechak kasalligining oldini olish uchun 1796-yilning 14-mayida ilk bor sakkiz yashar Jeyms Fipsni emladi. Natijada bola tanasida bu kasallikka qarshi immunitet hosil bo'ldi. Shunday qilib, dunyoda dastlabki emlash tajribasiga qo'l urildi. Oradan bir asr vaqt o'tib, fransuz mikrobiologi va kimyogari Lui Paster emlashning ilmiy asoslarini tavsiya etdi. Olimning aniqlashicha, turli yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi organizmga zaiflashgan yoki o'lgan mikroblarning tushib qolishi bilan bog'liq bo'lib, ular tanani zaharlaydi, hech bo'lmaganda, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Paster ularga qarshi preparatlarni vakcina deb nomladi, protsedura, ya'ni davolash tadbirlarini esa emlash, deb atashni taklif qildi. Ana shu kashfiyotning samarasi o'laroq, immunologiya faniga asos solindi.

Natijasi: Jennerning kashfiyotidan so'ng emlash bilan bog'liq ishlar taraqqiyot bosqichiga chiqdi. XX asrning o'zida Amerika, Osiyo, Afrikada 500 million odamning yostig'ini quritgan qora chechak bunga sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Faqat 1980-yildagina Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti qora chechak ustidan qozonilgan g'alabani rasman e'lon qildi. Poliomielit, qizamiq, bo'g'ma, ko'kyo'tal, qizilcha va boshqa yuqumli kasalliklar ham o'tmishda qoldi. Sil, quturish, qizilcha va boshqa yuqumli xastaliklarning xavflilik darajasini kamaytirishda emlashning foydasi katta. Hozirgi vaqtda olimlar saraton, OITS kabi oxiri o'lim bilan tugaydigan dardlarga qarshi emlash olib borish mumkinligi xususida ham bosh qotirishmoqda.

Neft tarkibidagi foydali birikmalar birinchi bo'lib, Rossiyada aniqlangan. Uni boy aka-uka zavodchi Dubininlar va amerikalik kimyogar Silliman kashf qilishdi. XVIII asr o'talarida ular bir-biridan mutlaqo bexabar holatda neft tarkibidan yoritish maqsadiga xizmat qiluvchi kerosin ajratib olish mumkinligini isbotlashdi. 1877-yilda esa taniqli rus kimyogari Dmitriy Mendeleev neftni qayta ishlashda parchalanish jarayonini kuzatdi. Aynan shu vaqtda yana bir taniqli rus kimyogari Vladimir Markovnikov "qora oltin"dagi uglevodorodlarning yangi sinfi – naftenlarni kashf qildi. Uning safdoshi L.Gurevich neft va neft mahsulotlarini tozalashning ahamiyati kimyoviy asoslarini ishlab chiqdi va bu usullarni takomillashtirishning ahamiyatini ham ko'rsatib berdi. 1918-yilda kimyogar olim Nikolay Zelinskiy neft cho'kmalaridan katalitik usulda benzin olish haqidagi taklifni o'rtaga tashladi. Olim Sergey Nametkin neft tarkibini guruhlash haqidagi g'oyani ilgari surgan bo'lsa,

Vladimir Shuxov neft quvurlarini yaratish, neftni saqlash va qayta ishlash uchun asbob-uskunalar zarur ekanini ta'kidladi. 1861 yilda dunyo bo'yicha neft va neft qoidiqlarini qayta ishlash usuli bilan shug'ullanuvchi sanoat shahobchasi vujudga keldi. 1879-yilda esa Bokuda ilk bor neft quvuri ishga tushirildi.

Natijasi: neft insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. Ana shu mahsulot tufayli biz avtomashinada istagan manzilizga boramiz, samolyotda uchamiz, sintetik tolali kiyimlarga egamiz, bo'yoqlardan foydalanamiz, kir yuvish vositalari tufayli mushkulimizni oson qilamiz. Hozirgi vaqtda taraqqiyotning yuqori bosqichiga erishgan insoniyat energiya manbayining neftga muqobil variantlarini o'ylab topgan bo'lsa ham bu mahsulot hamon odamzot ehtiyojlari ro'yxatida 48 foizlik ko'rsatkichni ishg'ol etmoqda.

Atom energiyasi. 1896-yilda fransuz fizigi Anri Bekkerel fotoplastinkalarning qorayishiga qarab, uran tuzining jismlar ichiga kuchli darajada kira olish xususiyatiga ega ekanini va ko'rinmas nurlar chiqarishini aniqladi. Bu hodisaga "radioaktivlik" deb nom berilgandan so'ng D.Mendeleev davriy jadvalidagi eng og'ir elementlarning deyarli hammasi shunday xususiyatga egadir, degan xulosaga kelindi. Oradan ikki yil o'tib, Nobel mukofotini olishga sazovor bo'lgan Per Kyuri va Mariya Skladovskaya uran mineralidan toriy elementini "yo'lda qoldiradigan" poloniy va radiy ajralib chiqishini, bu moddalarda radioaktivlik juda yuqori ekanini isbotlashdi. 1911-yilda britaniyalik fizik Ernest Rezerford atomning yadroviy modelida radioaktiv nurlanish hosil bo'lishini aytib, zamondoshlarini hayratda qoldirdi. Shu tariqa XX asrning 30-yillarida sun'iy radioaktiv moddalar yaratishga asos solindi.

Natijasi: 1945-yilning 16-iyunida AQShning Nyu-Meksiko shtatida atom bombasi sinovdan o'tkazildi. 1945-yilning avgustida "Kichkintoy" atom bombasi Yaponiyaning Xirosima shahriga tashlangan bo'lsa, uch kun o'tib, Nagasaki axolisi ham bu baloga giriftor bo'ldi. Har ikkala portlatish yadro qurolini sinovdan o'tkazishning birinchi va oxirigisi bo'ldi. Bu esa insoniyat tarixiga mudhish voqea sifatida yozildi. Yaponiya hukumati ana shu ko'rgulik tufayli ikkinchi jahon urushi nihoyasiga yetganini tan oldi. Atom bombasi qanday musibatlar keltirganini ko'rib tursa ham, ikki gegemon mamlakat – sobiq Ittifoq va AQSh yadroviy poygaga kirishdi. Keyinchalik ular safiga Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy, Hindiston, Pokiston va Shimoliy Koreya davlatlari ham qo'shildi. Qurolning bu turi bir necha daqiqaga ichida Yer yuzini yakson qilishini bilgan davlat rahbarlari "yadroviy xavfsizlik"ning oldini olish uchun ham bu harakatga qo'shildilar. 1984-yilda ro'y bergan Chernobl halokati tarix sahifasiga insoniyatning atom energiyasidan ehtiyotsizlik bilan foydalanishdagi xatoliklaridan biri sifatida bitildi. Hozirgi vaqtda esa atom elektrostansiyalari energiya olishning eng qudratli manbayi hisoblanadi.

Polietilening kashf qilinishi muhim kimyogari German Shtaudin faoliyati bilan bog'liq. U polimerlarning kovalent bog'lanish bilan birikuvchi katta molekula va atomlardan iborat ekanini isbotladi. XX asrning 30-yillarida Sergey Lebedov va Boris Bizov sintetik kauchuk olish texnologiyasini yaratdilar. Keyinchalik nemis kimyogarlari Karl Voldemar Sigler 40-yillarda Kayzer ilmiy tadqiqot institutida ishlar ekan, ko'mir sanoatidagi ikkilamchi mahsulot -- etilendan foydalanish muammolari ustida izlandi. 1952-yilda u past bosimdagi polietilenni olishga

muvaffaq bo'ldi. Kimyogarlarning bu ishlanma bo'yicha tadqiqotlari besamar bo'laverdi. Ammo, kutilmaganda kolbadan polimer emas, dimer (ikki molekuladan iborat etilen birikmasi) – alfa-buten sirg'alib tushdi. Bu voqea olimlarni esankiratib qo'ydi. Ma'lum bo'lishicha, talabalardan birining probirkani yaxshilab yuvmagani oqibatida uning devoriga yopishib qolgan nikel tuzi tufayli laboratoriya ishi shu tariqa yakun topgan. Qizig'i shundaki, nikel tuzining o'zi hech qanaqa o'zgarmasdan turib reaksiyada katalizatorlik vazifasini o'tagan. Bu holatni ko'rgan professor Sigler muvaffaqiyat o'z qo'lida ekanini anglab yetdi. Ushbu metal tuzi ishtirokida polietilenni yuqori bosim va katta haroratsiz, ya'ni bir qadar arzonlashgan holatda ishlab chiqarish mumkin ekan. 1953-yilda Karl Sigler o'zi ko'pdan beri orzu qilgan trietilalnominiy va galogenid metall aralashmasidan iborat universal katalizatorni topishga muvaffaq bo'ldi. Siglarning bu kashfiyoti haqida eshitgan "Montekatini" kompaniyasi xodimi italyan kimyogari Julio Natta neftni qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan qo'shimcha mahsulot – propilenni kashf qildi. Uning universal katalizator bilan bog'liq tajribalari barcha molekulalari bir xil shakldagi propilenni hosil qilishga yordam berdi.

Natijasi: Sigler va Natta olib borgan tadqiqotlar polimer moddalar olish imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanini ko'rsatibgina qolmay, yangi sintetik materiallarning vujudga kelishini ham ta'minladi. Yelim chelak, tog'ora, stul, stol va boshqa shu kabi mahsulotlar o'sha tadqiqotlarning ilk ko'rinishi - polietilen shaklida bo'lgan. Undan tayyorlanayotgan idishlar, qadoqlar oshqozon-ichak kasalliklaridan odamlarni xalos etmoqda. Tanganing ikkinchi tomoni ham borligini unutib bo'lmaydi. Foydalanilgan paketlarning ekologik muhitni buzayotgani sir emas. Olimlar foydalanishga yaroqsiz holga kelgan polimerlarning bakteriya manbayi ekanini ham e'tirof etmoqdalar.

ELEKTR TOKINING KELIB CHIQISHI QAYSI DAVRGA BORIB TAQALADI?

XVIII asrning boshida ingliz olimi Stiven Grey narsalar bir joydan ikkinchi joyga o'tganda elektr hodisasi kuzatilishini isbotladi. Aynan shu vaqtda boshqa bir ingliz olimi Robert Simmer o'zining ipakdan to'qilgan chulkisidan foydalanish jarayonida bir-birini o'zaro to'ldiruvchi musbat va manfiy zaryadlar harakatlanishini tan oldi. Simmerning fikriga ko'ra, jismlar bir-biriga ishqalanganda, ularda zaryadlar to'planadi. Bir xil belgidagi zaryadlar o'zidan harakatni qanchalik qochirsa, xilma-xil belgidagi zaryadlar aksincha bir-biriga tortish kuchi vositasida bog'lanadilar va buning natijasida jismlar betaraf narsaga aylanadi. 1785-yilda Sharl Kulon zaryadlarning o'zaro bog'lanish qonuniyatlarini o'rgandi. Bu kashfiyot matematik usullarda qabul qilinishi kerak bo'lgan elektrlashtirish jarayoniga katta yo'l ochdi. Qisqa vaqt ichida minglab zaryadlar yig'indisi – jismlar o'zaro harakatlanuvchi elektr zaryadlaridan iborat ekani haqidagi nazariya paydo bo'ldi. Taniqli ingliz fizigi Jozef Tomsonning 1897-yilda manfiy zaryadlardan hosil bo'luvchi zarrani elektronlar deb atashi ana shu nazariyaning to'g'riligini yana bir karra isbotladi. Angliya qirolichasi uning bu xizmatini munosib taqdirlab, olimga lord unvonini berdi. Keyinchalik bu

unvonga atom tuzilishiga doir tadqiqotlar olib borgan Ernest Rezerford, Frederik Soddi va boshqalar ham sazovor bo'lishdi.

Natijasi: XIX asr elektrotexnik taraqqiyot davri bo'ldi. Bu asrda yaratilgan elektr batareyalari, elektromagnitlar, lampochka, telegraf, telefon, elektr dvigateli, elektr generator, elektr transporti (tramvay, trolleybus, metro) hozirga qadar insoniyatga xizmat qilib kelmoqda. XX asrda har bir xonadonga elektr nuri kirib keldi. Hozirgi zamoni esa nursiz tasavvur qilish mutlaqo mumkin emas. Maishiy asbob-uskunalarining ishlashi, ko'cha va uylarning yoritilishi elektr nuri tufaylidir.

Kompyuter texnikacining tug'ilishi matematika fani bilan bog'liq. XVII asrning 70-yillarida buyuk ingliz fizigi, astronomi va matematigi Isaak Nyuton matematik tahlil asoslarini ilmiy jamoatchilikka havola etadi. 1673-yilda taniqli nemis faylasufi va matematigi Gotfred Vilgelm Leybnits barcha zamonaviy kompyuterlar uchun asos bo'ladigan ikkiyoqlama sanoq sistemasini o'ylab topdi. 1936-yilda ingliz matematigi, mantiqshunosi va kriptografi Alan Matison Myuring matematik masalalarni hisoblash texnikasi vositasida avvaldan yechish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Natijasi: hozirgi vaqtda, nafaqat korxonalar va tashkilotlar, balki xonadonlarda ham bu zamonaviy texnikadan keng miqyosda foydalanilmoqda. Uning yordamida matn terish, film tomosha qilish, musiqa tinglash, hisob-kitobni bajarish, o'ynash, do'stlar bilan muloqotda bo'lish, butun dunyo bo'ylab sayohatga chiqish mumkin. Kompyuter kirib bormagan xizmat turi yo'q. Olimlar jamiyatning borgan sari kompyuterlashtirish bobida yuqori darajaga chiqishini bashorat qilmoqdalar.

161-topshiriq. Matni o'qing va gapirib bering.

INSON MIYASI

80 kilogrammlik inson tanasining bor-yo'g'i 80 dan bir bo'lagini tashkil qiluvchi organ – 1,5 kilogramm atrofida. Aynan shu organ sizni-bizni boshqaradi. Agar shu ikki kilogrammlik tana a'zoyimizga paytida ishlov berib turmasak, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo'lsam, ishlashga majbur qilib turmasak, unga ijodiy ruh bag'ishlamasak, u tanamizdagi ortiqcha ei bo'lib turaveradi. Inson tanasini badantarbiya bilan qanday chiniqtirib borsa, miya faoliyatini ham rivojlantirib borishi kerak. Arastu: "Arfada biron bir kuyini chalish uchun, arfa chalishni bilish kerak" – deb qayd etgan joylari bor. Bu bilan aytmoqchiki, miyani o'stirish uchun eng kamida avval uni ishlatish zarur.

Shaxsning intellektual salohiyatini oshirishda ta'lim tizimi muhim ro'l o'ynaydi. Maktab, kollej, litsey, institut va universitetlar. Sohobqiron Amir Temur davrini eslang. Aynan shu davrlardan ilmu-urfon rivoji kuzatiladi. Chunki o'qish, o'qitish tizimi mukammal yo'lga qo'yilgandi.

Johillikda nom qozongan Angliya qiroli Genrix VIII davrida o'nga yaqin universitetlar ochilgan. Xatto Kembrij universiteti peshoqiga uning bu so'zlari zarhal harflarda bitib qo'yilgan: „Janoblar, siz-u biz bu dunyodan o'tib ketamiz. Hatto suyaklarimiz ham chirib ketar, ammo Universitetlar Angliyani oqilona boshqaradi“. To'g'ri gap. Har bir mamlakatni o'tkir aql sohiblari

boshqaradi. Quruq universitet ochish bilan mamlakatda aql sohiblari ko'payib qolmaydi.

Ularni avvalo topish, keyin tarbiyalash kerak. O'zbeklarda bir ajoyib naql bor, "Bola boshidan..." degan. Tomas Edisonni bolalikdagi yon daftarchasida har xil mavzudagi savol-javoblar bo'lgan. Masalan, "Plutarx kim?", "Volga daryosi qayerda joylashgan?", "Oltinugurt kislotasi qanday olinadi?" va hokazo. Maktabda "qiziqqan sohangiz?" deb berilgan savolga Edison "Xamma narsaga" deb yozib bergan. Bu nimani anglatadi, miyani doimo mashq qildirib turish, unga doim ozuqa berib turish degani. Miyaga bunday darajada ishlov berib turishning ijobiy natijasini Tomas Edissonda ko'rish mumkin.

300 dan oshiq ixtirolar muallifi, 1000 ga yaqin ilmiy sharhlar, miyaga tinimsiz berib turilgan ishlovning yorqin samarisidir. Keyinchalik firmasiga oddiy xodimlarni ham test asosida qabul qilgan. Savol-javoblar darajasi sizga ma'lum. Men bu kitobni avvalida bekorga miya faoliyatiga sharh berayotganim yo'q. Aynan "ZAKOVAT" intellektual klubida o'tgan 7-8 yil meni intellektual o'yinlar targ'ibotchisiga aylantirdi. Intellektual o'yinlarni esa intellektual o'yinlar targ'ibotchisiga aylantirdi. Intellektual o'yinlarni esa tanasidagi 1,5-2 kilogrammlik etni munosib boshqara olgan kishilargina o'ynay olishadi. Zora shu kitobning 1-chi bobida aytgan gaplarimizni o'qib, o'zingizga xulosa qilsangiz va miya deb atalmish organni o'zingiz xohlagancha ishlataшни o'rgansangiz. Toki tanangizdagi bu a'zoyingiz sizni boshqarmasin, aksincha siz uni izmingizga sola oling.

(A. Abdullayev "Daqiqa qadri").

162-topshiriq. "Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlang.

163-topshiriq. Matnni o'qing va tarjima qiling.

ABU RAYHON BERUNIYNING IQTISODIY IXTIROSI

Pul paydo bo'lgan davrdan boshlab, ayniqsa, tanga shaklidagi turli metallardan pul zarb etish boshlangan. Misrda, Movarounnahr va Xurosonda juda katta miqdorda to'la qiymatga ega bo'lmagan tangalar zarb etish avjga chiqqan. Masalan, muomalada bo'lgan "Ismoiliy" dirhamlari qiymatga ega bo'lmagan metallardan zarb qilingan. Buxoro dirhami – "gürifiy" yoki past sifatli kumushdan yasalgan "Muhammadiy" tangalar muomalaga chiqarilgan. Bunday hol turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Buning oqibatida oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik bo'yicha o'z davrining eng yirik olimi edi. U iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday ahvolga qarab turmadi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o'tkazib, minerallar tarkibidagi qimmatbaho metallar hissasini toppish uslubi – maxsus o'lchov asbobini yaratdi. Bu asbob pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida hebahoh ahamiyatga ega bo'ldi. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash

mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qay usulda yasalganini "Mineralogiya" nomli asarida bayon qilgan.

MASARO EMOTO

Ajoyib yapon olimi Masaro Emota butun umrini suvning xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlagan. U dunyoga mashhur o'nlab kitoblari muallifidir. Butun umri davomida u so'zlarning suvga ta'sirini o'rgangan. U o'xshashi yo'q mikroskop tayyorlab, turli xil idishlarni olgan va ularni suvga to'ldirgan. Ularning ayrimlariga ijobiy (baxt, sevgi, quvonch) so'zlarini yozib qo'ygan, ayrimlariga esa salbiy (zulum, kasallik, iblis) kabi so'zlarni, ya'ni qotil so'zlarni yozib qo'ygan. So'ng bu idishlardagi so'zlarni tezda olib, darhol muzlatgan va hosil bo'lgan kristallarni mikroskop orqali kuzatgan va rasimga olgan.

Ijobiy so'zlar yozilgan idishlardan olingan suv kristallari juda chiroyli, ilohiy darajada, fantastic darajada go'zal bo'lgan. Salbiy so'zlar yozilgan idishlardan olingan suv kristallari juda xunuk, qo'rqinchli bo'lgan.

Xuddi shuningdek, Mosaro Emoto bu tajribani guruchlar ustida ham o'tkazdi. U bir xil guruchlarni oldi va turli bankalarga joyladi. Ularning har biriga turli so'zlarni yozib qo'ydi. Salbiy so'zlar yozilgan bankadagi guruchlar darhol aynib, hidlanib ketgan. Ijobiy so'zlar yozilgan bankadagi guruchlarga esa hech narsa qilmagan.

Buni yaxshilab eslab qolish kerak. Mosaro Emotaning tajribalari shuni ko'rsatadiki, "qotil" so'zlar nafaqat ongimizga, balki suvga, materiyaga ham ta'sir ko'rsatar ekan. Ma'lumki siz bilan biz 85 foiz suvdan iboratmiz.

Hurmatli o'quvchi yangi hayot yangi so'zlardan boshlanishiga minglab isbotlar, dalillar keltirish mumkin. Aynan yangi, yorqin, ijobiy, optimistik ruhdagi so'zlar yangi hayotning chizmalari bo'lib xizmat qiladi.

164-topshiriq. Matni o'qing va savollar tuzing.

ILMIY KASHFIYOT

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" va boshqa manbalarda keltirilganidek, ilmiy kashfiyotlar diplomlari va ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari), tovar kelib chiqqan joy nomlari, EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari, integral mikrosxemalar, topologiya va seleksiya yutuqlariga beriladigan potentlar prinsiplari yangi ilmiy-texnik axborotga ega bo'lgan rasmiy nashrlardir.

Ilmiy kashfiyot – tabiiy hodisalari va jamiyat qonuniyatlarini ongli ravishda ilmiy idrok qilish natijasida erishilgan yangi ilmiy yutuq.

Ilmiy kashfiyot tufayli moddiy dunyoning ilgari insoniyatga ma'lum bo'lmagan obyektiv qonuniyatlari, xossalari va hodisalari ma'lum bo'ladi. Ilmiy kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o'zgartiradi.

Ilmiy kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Ilmiy kashfiyot natijasida muayyan yangi qoʻniyatlar, ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratiladi.

Ilmiy kashfiyotga misollar: I. Nyutonning butun olam tortishish qonuni, N. Kopernikning Yerning oʻz oʻqi atrofida va sayyoralarning quyosh atrofida aylanishi toʻgʻrisidagi gʻoyasi, atom va vodorod bombalarining kashf qilinishi, Dmitriy Mendeleev yaratgan “Elementlarning davriy sistemasi”, Karl Linneyning “Oʻsimliklar sistemasi”, Dmitriy Pryanishnikovning “Oʻsimliklarni mineral oʻgʻitlar bilan oziqlantirish nazariyasi”, Vasily Vilyams tomonidan taklif etilgan “Dehqonchilikning oʻt dalali sistemasi”, Kliment Timiryazevning “Fotosintez nazariyasi”, Nikolay Vavilovning “madaniy oʻsimliklarning kelib chiqish markazlari” haqidagi taʼlimoti.

Ixtirolarga misollar: ichki yonuv dvigateli, raketa va kosmik kemalar, paxta terish mashinalari, gʻalla kombaynlarining yaratilishi. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, har qanday ixtiro ham kashfiyot boʻla olmaydi, lekin ixtiro kashfiyotga suvungan holda qilinadi.

Ixtiro – xalq xoʻjaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy qurilish va mudofaa sohalarida ijobiy samara beradigan, oʻziga xos texnikaviy yechimga ega boʻlgan yangilik.

Oʻzbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari toʻgʻrisida”gi Qonuniga muvofiq qurilma, usul, modda, mikroorganizm shammi, oʻsimliklar yoki hayvonlar hujayralarining turlari, avvaldan maʼlum boʻlgan qurilmalar, usullar, moddalarni yangi vazifada qoʻllanishi ixtiro sifatida tan olinadi.

Ixtiroga boʻlgan huquq patent bilan tasdiqlanadi.

Patent – patent egasining ixtiro, sanoat namunasi, foydali model, seleksiya yutugʻiga egalik qilish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etishga boʻlgan mulq huquqni tasdiqlovchi hujjatdir.

165-topshiriq. Matni oʻqing va gapirib bering.



AQL YOSHDA EMAS, BOSHDA

Fransuz materialist-faylasufi Klod Galvetsiy xulosasi: “Yoshlik vaqtida shunday ulugʻ fikrlar tugʻiladiki, bu fikrlar kelajakda insonni koʻklarga koʻtaradi. Fan tarixi bu boradagi yorqin misollarga juda boy.

“Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf” kitobida yozilishicha, buyuk hakim. olim va faylasuf Ibn Sino ilm choʻqqilariga mustaqil oʻqib-oʻrganish yoʻli bilan yetib borgan. Bu haqida allomaning oʻzi shunday yozgan: “10 yoshimda Qurʼonni oʻrgandim, badiiy adabiyotlarni oʻqib chiqdim. Keyin mantiq ilmiga oid kitoblarni mutolaa qilib, mustaqil ravishda bu ilmlarning nozik qirralarini oʻzlashtira bildim. Shundan soʻng, tibbiyot ilmiga murojaat qilib. koʻplab kitoblarni oʻqishga tutindim. Qisqa vaqt ichida mening tibbiyot sohasidagi bilimlarim va davolash sanʼatim shunday

sarhadlarga yetdiki, o'sha davrning eng hurmatli hakimlari mening huzurimga maslahat so'rab kela boshladilar. Men hakimlik amaliyoti bilan ham tinmay shug'ullandim va nihoyat, menga insonlarni davolash ilmining keng darvozalari ochildi. Bu vaqtda endigina 16 yoshga to'lgan edim. Ana shu yoshimda tunlari uyqu, halovat neligini bilmay, faqat ilm bilan mashg'ul bo'ldim, inson tabiati o'z bilimlarini mustahkamlash va ilm yo'lida olg'a borishga qay darajada qodir bo'lsa, men ham shu darajada harakat qilib, ter to'kdim".

Daho matematik Karl Guass 10 yoshida o'qituvchisi tomonidan birdan 100 gacha bolgan natural sonlarning umumiy yig'indisini topish to'g'risida sinfda berilgan vazifalarni o'qituvchi xali tugatmasdanoq yechishga muvaffaq bo'lgan. Buning siri shunda ediki, u o'zi bilmagan holda arifmetik progressiya yig'indisi formulasini miyasida tez topib ulgurgan edi. Gimnaziyaning filologiya bo'limida (e'tibor bering matematika bo'limida emas) o'qiyotgan yosh yigitcha bir kechada o'zining birinchi kashfiyoti – to'g'ri o'nyettiburchak qurish nazariyasini yaratgan. 8 kundan keyin ulug' matematik Eylerning o'zoro bog'liqlikning kvadratlik qonun bilan o'zgarishi haqidagi gipotezasini to'liq isbotlagan. 19 yoshli Guass 10 kun ichida matematikada 2 ta shunday buyuk kashfiyotni yaratgan. Guass 30 yoshida 500 varaqdan iborat mashhur "Arifmetik tadqiqotlar" asarini yozgan. Mazkur asar keyinchalik sonlar nazariyasi va algebraning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U har qanday algebraic tenglamaning kompleks ildiziga ega bo'lishi to'g'risidagi Algebraning asosiy teoremasini uch xil usulda isbotlagan. Pallada planetasini Mars va Yupiterlar orasida yotishini va uning orbitasini hisoblab topgan. Guass osmon jismlari, geodeziya, geometriya, kristallografiya, mexanika, elektrodinamika va yer magnitimizmi fanlari bo'yicha ham salmoqli natijalarni olgan.

Noevklid geometriya asoschilaridan biri Yashosh Boyyai ulug' Guassga: "Nafaqat bizning, hattoki, butun davrlarning eng yorqin kashfiyoti " deb baho bergan.

Norveg matematigi Nils Abel universitetda o'qiganida yashash uchun mablag'i bo'lmagan, yosh talabaning iqtidoriga qoyil qolgan professorlar unga o'zlarining hisoblaridan stipendiya to'laganlar. Nils yigirma yoshida dissertatsiya yoqlab, falsafa nomzodi bo'lgan(o'sha paytlarda tabiiy fanlar, shu jumladan matematika bo'yicha dissertatsiya yoqlaganlarga falsafa nomzodi yoki doktori ilmiy darajasi berilgan). Nils 27 yoshida ulug' olim darajasiga ko'tarilgan: o'z nomi bilan ataluvchi Abel teoremasi, Abel integrallari, Abel tenglamasi, Abel gruppalari va Abel soddalashtirishlarini yaratgan.

Shavkat Ayupov – yirik matematik olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasi matematika va informatsion texnologiyalar institutining direktori. 32 yoshida fizika-matematika fanlari diktori ilmiy darajasini olgan. Funktsional analiz hamda operatorlar, Yordan va Gilbert fazosidagi algebralari sohasi bo'yicha yirik ilmiy natijalari bilan jahonga tanilgan.

Evarist Galua 17 yoshida birinchi ilmiy ishini matematika jurnalida e'lon qilgan. 20 yoshida oliy algebra kursini ochgan va o'zi ma'ruza o'qigan. Uning birinchi ma'ruzasiga 30 nafar tinglovchi tashrif buyurgan. Ikkinchisi 10 nafar, uchinchi – oxirgisini 4 nafargina odam tinglagan. Bunga ma'ruzalarning zerikarli

ekanligi emas, balki ularni tushunib yetish juda mushkulligi sababchi bo'lgan. Iste'dodli Evarist matematika fani xozinasini Galua gruppasi, Galua kogomologiyasi, Galua maydoni va Galua nazariyasi (algebraic tenglamalarni radikallar yordamida yechish) deb ataluvchi ilmiy kashfiyotlar bilan boyitgan.

Norbert Viner 11 yoshida o'rta maktabni tamomlagan. 14 yoshida bakalavr, 17 yoshida san'at magistri darajalarini olgan. 18 yoshida matematik logika mutaxassisligi bo'yicha dissertatsiya yoqlab, falzsafa doktori ilmiy darajasini olishga sazovor bo'lgan. Uning "Kibernetika yoki jonzot va mashinalarda boshqarish hamda aloqa" nomli kitobi kibernetika, ya'ni hisoblash matematikasining axborotni qabul qilish, saqlash va uni qayta ishlash sohasini yaratishga asos bo'ldi.

Rus nazariyotchi fizigi Nobel mukofoti laureate Lev Landau o'rta maktabni 13 yoshida. Leningrad fizika-texnika institutini 19 yoshida tugatgan. U qattiq tartib bilan ishlagan, ilmda haqiqatni izlash hamda o'rnatishni o'zining asosiy vazifasi deb hisoblagan. 23 yoshida metallarning elektron diamagnetizmi, 28 yoshida ferromagnetizm, 34 yoshida geliyning o'ta o'quvchanligi, 43 yoshida o'ta o'tkazuvchanlik, 50 yoshida kvant elektrodinamikasi, neytrino va Fermi – suyuqlik nazariyalarini yaratgan.

Ulug' olimning hamkasblari "Shekspir pyesalari yoki Motsart musiqalari odamlarga qanchalik zavq bag'ishlarsa, Landauning ilmiy ishlari fiziklarga shunchalik zavq bag'ishlaydi", deb e'tirof qilishgan.

Landaudan "Hayot juda qisqa. Bas, shunday ekan, uni yechilgan masalalarni yechishga sarflamaslik kerak" hikmat qilgan.

Farangistonlik olim va faylasuf Blez Paskal 16 yoshida konus kesishmasi ilmiy asari bilan jahon olimlarining e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lgan.

Atoqli fizik Georgiy Flyorov talabaligidayoq sekin neytronlar schetchigini ixtiro qilgan, 27 yoshida akademiklikka saylangan.

Ilk bor narkoz uchun efir ishlatib operatsiya qilgan, singan suyuqlarni to'g'irlashga gips bo'g'lovini qo'llagan rus xirurgi Nikolay Pirogov 22 yoshida tibbiyot doktori ilmiy darajasini olgan.

Shved botanik-olimi Karl Linney o'zining mashhur "O'simliklar sistemasi" asarini 24 yoshida yozgan.

Aviatsiya, aerodinamika va raketalar dinamikasi sohasidagi rus olimi va ixtirochisi Konstantin Stolkovskiy bolaligida og'ir kasallikdan keyin kar bo'lib qolib, o'qishga borolmagan. 14 yoshida matematika va fizika fanlarini mustaqil ravishda chuqur o'zlashtirgan. 24 yoshida gazlar nazariyasini yaratgan.

Ulug' matematik Nikolay Labochevskiy 14 yoshida Qozon universitetiga kirgan, 23 yoshida professor ilmiy unvonini olgan, 25 yoshida Yevklid geometriyasidagi parallellik aksiomasi o'rniga "Agar to'g'ri chiziq va undan tashqarida nuqta berilgan bo'lsa, ularni o'z ichiga olgan tekislikda shu nuqtadan o'tuvchi, lekin berilgan to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin", degan yangi aksioma kiritib, o'zining nomi bilan ataluvchi geometriyani yaratgan. Shuni aytib o'tish lozimki, Labochevskiy geometriyasida uchburchakning ichki burchaklari yig'indisi 180° kichik. Labochevskiy 29 yoshida fakultet dekani, 36 yoshida esa universitet rektori etib saylangan.

Atom fizikasining buyuk namoyondalari Albert Eynshteyn, Nils Bor, Ernst Rezerford va Igor Kurchatovlar O'zlarining "Massa va energiyaning o'zoro bog'liqligi qomuni", "Atomning planetalar modeli", "Radioaktiv yemirilish nazariyasi"ni navqiron 26-32 yoshlarida kashf etganlar.

Yuqoridagi misollar ulug' bobokalonimiz Alisher Navoyining "Yigitlikda yig'limning mahzani, qarilik chog'i xarj qil ani", degan pandining naqadar qimmatli ekanligidan dalolat berib turibdi.

(M.Toshboltayev. "Olim, Ilm-kashfiyot va taraqqiyot")

166-topshiriq. Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma'lumot tayyorlang.

BUYUKLARNING NAFAQAT KASHFIYOTLARI, XATOLARI HAM QIMMATLIDIR

Yunon mutaffakiri Yevripid mashhur faylasuf Suqrotga Geraklitning asarlarini berib, undan o'z fikrini bildirishni so'rabdi. Bir necha kun o'tgach, Suqrot Yevripidga debdi: "Mening tushunganlarim – ajoyib, tushunmaganlarim ham shubhasiz, xuddi shunday". Qissadan hissa shulki, yosh tadqiqotchilarning bilim saviyalarini oshirishda ulkan olimlarning ilmiy kashfiyotlari mohiyatini anglab yetish qanchalik ahamiyatli bo'lsa, ularning xatolari yoki noaniq xulosalarining sabablarini o'rganish ham shunchalik qimmatlidir. Sitseron: "Men Afлотun bilan birga adashmoqni afzalroq ko'raman", – deb bekorga aytmagan-ku, axir!

167-topshiriq. Ginnesning kitobidan joy olishga loyiq voqealar haqida matn tayyorlang.

RADIONING HAQIQIY ASOSCHISI KIM?

XIX asr oxiri insoniyat tarixida aloqa vositalarining taraqqiyotida sezilarli siljishlar bo'lgani bilan sharaflanadi. An'anaviy pochta aloqalari temiryo'l va avtomobil transportining tatbiq etilishi bilan ancha jadallashdi. XIX asr birinchi choragi yutug'i bo'lgan elektromagnit telegraf elektr aloqasi tarixida muhim kashfiyot bo'ldi. U 80-yillarda akustik aloqa - telefonning vujudga kelishiga olib keldi.

Zamonaviy radio ixtirosida muhim o'ringa ega bo'lgan yana bir olim rossiyalik muhandis Aleksandr Stepanovich Popovdir. U 1859-yilning 16-martida Uraldagi Turin koni posyolkasida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. 1877-yili Perm ruhoniylar seminariyasini tugatib, Peterburg universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirgan. Popov kogerer haqida ma'lumotga ega bo'lganidan keyin masofaga simsiz signal uzatish qurilmasi ustida ishlay boshlaydi. A. Popovning tirikchiligi harbiy flot bilan bog'liq bo'lgan. 1901-yili Rossiyaning "General-admiral Apraksin" bronenosetsi sayoz joyga o'tirib qolganida uning rahbarligida ikki radiostantsiyaning ishlatilgani haqida ma'lumot bor, lekin bu radiostantsiyalarning ishlash tamoyili butkul Popov ixtirosiga asoslanganmi yoki Markonining jahon bo'ylab keng tarqalgan qurilmalariga suyanmami, buni noma'lum. Lekin o'shanda A.Popov mukofot bilan taqdirlangani rost. A. Popov tomonidan birinchi radiogrammaning uzatilishi sanalari haqida ham noaniqlik mavjud. Ayrimlar uni 1896-yilning bahori

edi desa, boshqalar 1897-yilning oxirgi oylarini aytishadi. Ikki xil fikrdagilar soni ko'p bo'lgani sababli ushbu muhim masala hal etilmasdan qolgan. Rus fizika-kimyo jamiyatining 1896-yil 7-may (eski sana bilan 24 aprel)dagi majlisi protokolida "A.S.Popov Gerts tajribalarini demonstratsiya qilish uchun qurilmalarni namoyish etyapti",— deb yozib qo'yilgan, xolos. Albatta, bunday to'kis bo'lmagan ta'rifdan (buni ba'zi birovlar Popovning ishi Dengiz harbiy muassasasi tomonidan sir saqlangan, deb ham talqin qilishadi), sababi qanday bo'lishidan qat'i nazar, A.Popov tarixda birinchi radiogrammani yuborgan odam, degan xulosani chiqarib bo'lmaydi.

Grammatik mavzu: ILMIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI

Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Ilmiy tilning asosi atama, ta'riflar, qoidalar, qonunlardir. Jumladan, atamalar faqat bir ma'noda qo'llanib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatadi, masalan, *o'zak*, *negiz yasovchi qo'shimcha*, *turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar*; *forma yasovchilar* kabi atamalar — so'z tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi.

Ilmiy uslub, bilimning turli sohalariga qarab, o'zaro farqlanadi. *Masalan*, matematikaga oid asarlar bilan biologiyaga doir asarlarning uslubi bir xil emas: matematikaga oid ishda shartli belgilar, turli formulalar bo'ladi. *Masalan*, gazetalarda, ommabop jurnallarda turli ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar.

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to'g'risida aniq, asoslangan, izchil ma'lumot berishda qo'llanadi. Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi.

Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kinga mo'ljallanganligiga nisbatan o'zaro farqlanadi. Masalan, fan sohaları muayyan shartli belgilar, formulalar, bayon qilish materialı bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo'ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga qaratilgan bo'lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir va yonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlatiladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta'minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Yodda tuting!

Ilmiy uslubning *og'zaki* va *yoзма* shakllari ham mavjud. Ilmiy og'zaki uslub tili so'zlashuv tiliga yaqin, biroq undagi qo'llanayotgan so'z — terminlar, aniqlik, ta'riflar ilmiy uslub ekanligini isbotlab turadi.

Ilmiy uslubning yoзма shakli turli xil ilmiy doiradagi o'quv qo'llanmalar tilini tushunmoq kerak. Uni terminlar va atamalar tashkil qiladi. **Termin** ilm-fanga tegishli bo'lgan tushunchalarning nomi: *fonetika*, *ega*, *kesim*, *kistorod*, *vodorod* kabi. **Atama** esa mavjud narsalarga atab qo'yilgan nom: *inson*, *osmon*, *kitob*, *olma* kabi.

168-topshiriq. Mutaxassisligingizga oid darslikdan o'tilgan mavzudagi biror parchani tanlab, daftaringizga ko'chiring. Undagi atamalar va tayanch so'zlarning ma'nosini izohlang.

169-topshiriq. Ilmiy-ommabop uslubdagi ushbu matnni ilmiy uslubga aylantiring. Bu uslubdagi gaplarning leksik va grammatik xususiyatlarini ajratib ko'rsating.

... Tovushdoshlikning ma'no bilan singishib ketgan oliy namunalarini Navoiy asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, shoir "Xamsa"ning Nizomiy Ganjaviyga bag'ishlangan qismlarining birida: Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj, Qo'ymish erdi jahonda besh ganj, — deydi. Bu baytda "ishtiyoq" deb atalgan san'at ham bor. "Ishtiyoq" so'zining badiiy atama bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiyoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni ishtiyoq deb ataganlar. Biz bu hodisani o'zakdoshlik va uni vujudga keltirishni o'zakdoshlashtirish deb atasak ham bo'ladi. Lekin ishtiyoq so'zini yodimizdan chiqarmasak yaxshiroq bo'ladi. Demak, Navoiy mazkur baytda so'zlarni ham tovushlashtirgan, ham o'zakdoshlashtirgan. Bu baytda "ranj", "ganj", "jahon" so'zlari e'tibori bilan tovushdoshlik, "ganja", "ganj" va "ganjur" so'zlari e'tibori bilan o'zakdoshlik bor. Chunki bularning hammasi xazina ma'nosidagi "ganj" o'zak so'zidan yasalgan. "Ganjur"ning ma'nosi "ganj" egasidir. Bunda Ganjaviyning Ganjada haqiqiy ganj ekanligi va uning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan besh ganjni qoldirganligining haqiqatligi tovushdoshlik va o'zakdoshlik bilan ta'kidlangan.

(Alibek Rustamov)

170-topshiriq. Quyidagi qoida qaysi fanga doir yozilgan va unda qanday ilmiy atamalar ishlatilgan.

Geneologik usul odamlarning mumkin qadar ko'proq sondagi, nasl-nasabini o'rganib chiqishdan iborat. Shundan foydalanib, insonning ko'pgina belgilari, jumladan irsiy kasalliklarining nasldan-naslga o'tib borishini aniqlash mumkin bo'ladi. Odamning Mendel qonunlariga muvofiq nasldan-naslga o'tib boradigan belgilaridan bir nechitasi misol tariqasida keltirildi.

171-topshiriq. Matnni o'qing va qaysi uslubga xosligini aniqlang. Matndagi asosiy fikrni ajratang.

Tilshunos olimlarning ma'lumotiga ko'ra, yer yuzi axolisi 3000 xil tilda gaplashar ekanlar. Yer sharidagi aholining uchdan ikki qismi 13 xil tildan foydalanadi. Bu tillarning har birida kamida 50 million kishi gaplashadi. Bu 13 xil til dunyoga keng tarqalgan tillardir. Bizning ko'p millatli mamlakatimizda 130 dan ortiq tilda gaplashiladi. Vatanimizdagi turli xalqlarning tillarida gazeta va kitoblar chiqariladi, radio va televizorda eshittirishlar beriladi.

17. Nutqiy mavzu: Davrimizning global muammolari

Grammatik mavzu: Maqola va uning turlari

GLOBAL MUAMMOLAR

Global muammolar – umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq hozirgi zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termostadi urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta‘minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur‘atlar bilan ko‘payayotganligini tartibga solish, atrof-muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish, insoniyatni kerakli resurslar – oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta‘minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi. Global muammo avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin: 1) xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammo – jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mavqeyi katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g‘oyat kuchaydi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo‘lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo‘ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko‘rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi; 2) xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo‘lgan global muammo – jahon xo‘jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transnatsional korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi farq o‘sib bormoqsa, 20 asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86 %ini ishlab chiqargan bo‘lsa, kambag‘al davlatlar atigi 1 %ni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lsada, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir.

Jahon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Masalan, milliy bozorni siqib qo‘yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatlarni keltirib chiqardi – Yevropaning bir necha shaharlarida norozilik namoyishlari bo‘lib o‘tdi. Global iqtisodiy jarayonlar jahon miqyosida harakat qiluvchi moliyaviy iqtisodiy jinoyat guruhlarini vujudga keltirdi; 3) ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammo – jahon axolisi muttasil ko‘payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv

tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon axofisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va unuman fan-texnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklar (mas, OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi; 4) inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammo – ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'alanishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosferada azon qatlamining yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari ko'p ishlatilishi natijasida qishloq xo'jaligida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi.

Sobiq SSSRda qishloq xo'jaligida sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Global muammoga qarshi kurashda jahon hamjamiyatini birlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. Karimov o'z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so'zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda global muammoing kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligiga jahon jamoatchiligiga e'tiborini qaratdi.

172-topshiriq. Insoniyat oldida turgan global muammolar to'g'risida taqdimot tayyorlang.

173-topshiriq. Matnni o'qing va o'z xulosangizni bayon qiling.

OROL DENGIZI QACHON QURISHDAN TO'XTAYDI?

Orol dengizi O'rtasi Osiyoda joylashgan yopiq suv havzasi. Shimoldan Qozog'iston, janubdan Qoraqalpog'iston yerlari bilan o'ralgan. 1960-yillargacha maydoni 68 000 kv km bo'lib, dunyoda kattaligi bo'yicha Kaspiy dengizi, Yuqoriko'l (Lake Superior, AQSh) va Viktoriya (Lake Victoria, Afrika)dan keyin to'rtinchi ko'l bo'lgan.

Orol dengizida 300 dan ortiq orollar bo'lib, ulardan eng kattasi Ko'korol. Vozrojdeniye, Borsakelmas bo'lgan.

Orol dengizi sathi 1960-yillardan boshlab kundan-kunga pasayib bormoqda. Hozirgi kunda uning sathi yiliga 80 - 110 smga kamaymoqda.

Natijada Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida suvning sifati yomonlashib, ichish uchun yaroqsiz holga keldi. Ekologik tizim, o'simlik va hayvonot dunyosi katta zarar ko'rdi.

Orol muammosi sababi nimada?

Orol dengizining qurishiga asosan quyidagi ikki sabab keltiriladi:

Sug'orish ishlari. 1960-yillardan boshlab yangi yerlarning ko'p miqdorda o'zlashtirilishi natijasida sug'orish uchun katta manbalar talab qilina boshladi. Orol dengizi ana shunday manbaga aylandi.

Turkmanistonda Qoraqum kanalining qurilishi. 1959-1967-yillarda qurilgan bu kanal Amudaryodan bir soniyada 300 metr kub suv olgan. Kanal o'zanida 3 ta yirik suv ombori ham qurilgan.

Suvning sarflanishi ko'payib, suv balansi yo'qolgan.

Ekologik oqibatlar

• *Orolning qurishi iqlimga o'z ta'sirini o'tkazdi: avvalgi qirg'oq chizig'idan 100 kmgacha bo'lgan hududda iqlim yanada kontinental tus oldi. Endi yoz quruqroq va issiqroq, qish esa yanada sovuq va davomiy xususiyat kasb etdi.*

• *Qurib qolgan dengiz tubidan yaqin oradagi hududlarga tarkibida tuz va turli kimyoviy moddalar bo'lgan chang tarqalmoqda.*

• *Baliqchilik xo'jaligi barbod bo'lib, ishsizlik darajasi oshdi.*

• *Turli kasalliklar, jumladan kamqonlik, saraton, sil va turli allergik kasalliklar ko'paydi. Onalar va bolalar o'limi darajasi oshdi.*

Muammoga chek qo'yiladimi?

Muammoga turlicha yechimlar taklif qilingan. Shulardan biri 2003-2005-yillarda Qozog'iston tomonidan amalga oshirilgan. Kichik va Katta Orolni ajratib turuvchi damba qurilib, endi Sirdaryodan oqib kelayotgan suv Kichik Orolga to'plana boshladi. Suv sathi oshib, sho'rlik kamaydi. Biroq bu Orolning janubiy qismi zarariga bo'lmoqda.

Ayni paytda Orol masalasi global muammo sifatida butun dunyo olimlari tomonidan o'rganilmoqda. 2013-yilning iyun oyida Rossiya Fanlar Akademiyasi Okeanologiya instituti direktor o'rinbosari Pyotr Zavyalov Orol dengizi ahvolining barqarorlasha boshlagani, qurish jarayoni esa sekinlashgani haqida ma'ruz'a o'qidi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, suvning yuzasi kichrayib ketgani uchun, bug'lanish ham o'z-o'zidan kamaygan.

174-topshiriq. Global muammolardan biriga bag'ishlangan publitsistik maqola yozing.

EKOSAN

“EKOSAN” ekologiya va salomatlik xalqaro jamg'armasining 1992-yili ta'sischi konferensiyasida tashkil qilingan bo'lib, u notijorat, nodavlat (nohukumat) tashkilot hisoblanadi. Jamg'arma 14 mintaqaviy va 200 tuman (shahar) bo'limlariga ega. Korxonalar, tashkilot va o'quv muassasalarida qariyb 2,5 million jamg'arma faollari mavjud. Ular 15 mingdan ortiq “EKOSAN” boshlang'ich tashkilotlariga birlashganlar. Bir qator xorijiy mamlakatlarda (AQSh, Germaniya, Yaponiya, Pokiston, Shveysariya, MDH mamlakatlari) jamg'arma bo'limlari tuzilgan. Jamg'arma qoshida “EKOSAN” Toshkent klubi (mashhur Rim klubining o'ziga xos filiali), jurnalistlar, ayollar, faxriylar, yoshlar uyushmalari, “Ekosaninfirm” matbuot markazi faoliyat yuritmoqda, O'zbekiston “EKOSAN” jamg'armasi O'rta Osiyo mintaqasida yetakchi o'rinda bormoqda. “EKOSAN”ning asosiy vazifalari ekologik muammolarni har tomonlama o'rganish, bu borada ilmiy konsepsiya ishlab chiqishga va shu maqsadda barcha kuchlarni birlashtirishga ko'maklashish, ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni tarbiyalash, aholini atrof-muhit to'g'risida xabardor qilish, buning uchun turli xalqaro uchrashuvlar, seminarlar, ko'rgazmalar, simpoziumlar tashkil qilish, ekologik masalalar bo'yicha turli xalqaro tashkilotlar, kompaniyalar bilan aloqa o'rnatib ish olib borishdir. “EKOSAN” turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo'llarini izlab

topmoqda va, shu jumladan, BMT, EXHK, YUNISEF, Xalqaro soliq tashkiloti (XST), YUNESKO va boshqalar bu ishda qatnashmoqdalar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing, reja tuzing;
- b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;
- c) matnni rus tiliga tarjima qiling;
- d) "EKOSAN"ning turli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi haqida klastr tuzing.

EKOLOGIK XAVF

XX asrda texnikaning rivoji, xalq xo'jaligi va kundalik turmushni kimyolashtirish, Yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida ekologik tanglik xavfi paydo bo'ldi. Buning birinchi sababi jamiyatga motorlarning keng ko'lamda kirib kelishi bo'lib, XIX asrning oxiri - XX asrning ilk yillaridan boshlandi; keyingi yuz yil ichida dunyo motorlar olamiga aylandi: hozirgi davrda jahon bo'yicha necha million avtomobil, paroxod, parovoz, lokomobil, samolyot, mototsikl, yaxta, kemacha, turli yoqilg'i va yonilg'ida ishlaydigan elektrostansiyalar, isitish qurilmalari va hokazolarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Yoqilg'i va yonilg'ida ishlaydigan har bir motor yoki motorli inshoot, aslida, insonga kerakli kislorodni iste'mol qiluvchi raqibdir. Motorlar tutab, bir tomondan, insonga yengillik va qulaylik tug'dirsada, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni ifloslantiradi, inson yashayotgan muhitni izdan chiqarib, uni turli kasalliklarga duchor qiladi. Ekologik tanglik xavfi yuzaga kelishining ikkinchi manbai – kimyolashtirish, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, sanoat va transportda yaxshi ko'rsatkichlarga erishish maqsadida kimyoviy moddalardan keng foydalanishdir. Bu jarayon O'zbekistonda ham namoyon bo'ldi, sariq kasali bo'yicha respublikamizning jahonda "yetakchi" o'ringa chiqishiga olib keldi, turli kasalliklarning keng tarqalishiga sababchi bo'ldi. Ekologik tanglik xavfi o'sishining uchinchi sababi – aholining talablari va unga ko'rsatiladigan maishiy xizmatning takomillashuvi natijasida paydo bo'ladigan iflos chiqindilarning ko'payishidir (turli ishlatilgan qog'oz, karton, quticha, butilka, flakon, oziq-ovqat qoldiqlari va hokazolar).

Jamiyat hayoti izchil ilmiy negizda tashkil qilinib, u fan tavsiyalari va tibbiyot qonunlari asosida olib borilsa, ekologik tanglik xavfini kamaytirish va asta-sekin zaruriy muvozanatga erishish mumkin. O'zbekistonda ekologik tanglik xavfi, ayniqsa, katta e'tiborni talab qiladi. O'zbekiston – qadimiy boy sivilizatsiyaning markazlaridan biri. Uning aholisi zichjoylashgan va yil sayin o'sib bormoqda. Keyingi yuz yil ichida (1897-1997) O'zbekistonda aholi soni o'n barobar o'sdi. Ammo suvni iste'mol qilish, aholiga xizmat ko'rsatish madaniyati takomillashuvi bilan sug'oriladigan yerlar sathi kengayishi sababli, o'n besh barobar o'sdi. Suv beradigan manba esa o'sha ikkita – Amudaryo va Sirdaryo. Ko'z o'ngimizda yuzaga kelayotgan bu nomutanosiblik ekologik ahvolni yanada jiddiylashtirishi mumkin.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing, unga bir necha savollardan iborat reja tuzing;
- b) o'zingiz yoqtirgan tabiat hodisalari va ularga munosabat haqida so'zlab bering;
- c) tabiatga munosabat haqida bahs-munozaraga kirishing;
- d) bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazishingiz haqida hikoya tuzing.

EKOLOGIYA MUAMMOLARI

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekolojik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir. Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski **ma'muriy-buyruqbozlik tizimi** sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina **tadqiqot manbai**, o'z mamlakatlarining kelajagiga, **tabiiy boyliklari** saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu haqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa "qalb nidosi" bo'lib kelgan.


Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad **ekstensiv omillarga** qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, **tabiat, atrof-muhitning himoya qilinishini kafolatlaydigan biron-bir me'yorlar** va qoidalariga rioya qilish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratilar edi. Bu mablag' tabiatga yetkazilayotgan zararining mingdan bir qismini ham qoplamas edi. O'rmonlar o'ylamay-netmay, vahshiyarlarcha kesib tashlanar edi. Yoqilg'i va mineral-xom ashyo zaxiralari real ehtiyoj bilan taqqoslamagan holda juda ko'p miqdorda qazib olinganidan ko'pchilik qismi **qayta ishlanmagan chiqitlar** sifatida uyulib yotar edi.

Bu muammo so'nggi yillarda yanada keskinlashdi. MDHga a'zo bo'lgan bir qancha mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga betartib suratda o'tishi, tabiiy va mineral xomashyo zaxiralardan foydalanishda boshqaruvning barham topgani, nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashib ketila boshlandi. Vahshiyarlarcha qazib olindi va arzon narxlarda eksport qilindi. Ayrim "yangi boyvachchalar" deb ataluvchi va korrupsiya domiga ilingan butun-butun guruhlar uchun **qo'shimcha foyda** olish manbayiga aylandi. Shu bilan birga, ular o'zlarining ochko'z manfaatlari yo'lida hozirgi va kelgusi avlodning ekologik xavfsizligini, salomatligi va farovonligini qurbon qilmoqdalar. Benihoya ulkan **moddiy boyliklar**. insoniyatning noyob yutuqlari vijdotsizlarcha o'g'irlab ketilmoqda, yo'q qilib tashlanmoqda. Bu bilan butun atrof-muhitga ham juda katta zarar yetmoqda. iqlim buzilmoqda. Eng yomoni esa bir necha avlod kishilarining tabiiy hayot va faoliyat sharoitlariga putur yetmoqda.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz axolisi juda katta **ekologik xavf**ga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish – o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning muammosiga aylangan. Tabiat va inson muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmas **ekologik falokatlar**ga olib keladi.

“EKOLOGIYA” kalit so‘ziga tuzilgan “Klaster”
(taxminiy variant)



175-topshiriq. Umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolar nimalardan iboratligi haqida so‘zlab bering.

Grammatik mavzu: MAQOLA VA UNING TURLARI

Maqola – publitsistika janri bo‘lib, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va amaliy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisod, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar va xalq xo‘jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi.

Maqola termini keng ma‘noda gazeta va jurnallardagi barcha materiallarga, shuningdek, to‘plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Maqola adabiy o'zbek tilida, ilmiy uslubda yozilishi lozim. Maqola faqat uchinchi shaxs tomonidan yoziladi. Oddiy tildagi va slengdagi so'zlarni qo'llab bo'lmaydi. Maqolaga imzo qo'yish vaqtida maqola ichida o'z fikrini bildirish mumkin emas: buni munozara sahifalarida yoki matn ichida berkitib qilish mumkin.

Maqola strukturasi:

Maqolada bayonotni o'quvchi uchun qulay bo'lgan ketma-ketlikda olib boring.

Maqolalarning ko'pchiligi mustahkam bo'lgan andozaga ega. Shuning uchun, bir maqolani yoza boshlaganingizda, shu mavzuda bo'lgan boshqa maqolalardan andozani ishlating. Bu albatta, o'z samarasini beradi.

Maqola boshida sarlavhada ko'rsatilgan atama ta'rifini keltiring. So'ng, atama haqida ostsarlavhasiz qisqa, umumiy tushunchalarni yozing.

Bayonot ketma-ketligi

Maqolani quyidagicha yozish kerak:

umumiydan xususiyga;

soddadan murakkabga;

muhimligi, mashhurligi, ishonchligi, hajmi, joylashuvi bo'yicha;

xronologik tartibda – tarixiy ma'lumot sifatida;

mavzu tartibida – iyerarxik ro'yxatlar uchun;

alifbo tartibida, agar boshqa tartiblashlar mos kelmasa.

MAQOLA

Tadqiqotchi A. Madraimov

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida aholi turmush darajasining statistik ko'rsatkichlari tizimini baholash

Iqtisodiy taraqqiyotimizning barqaror o'sish sur'atlari, yuksalib borayotgan moliyaviy imkoniyat va rezervlarimiz, ichki bozorimiz sifatli tovar va xizmatlar, birinchi navbatda yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan barqaror ravishda to'ldirib borilayotgani aholi turmush farovonligini yaxshilash, ish haqi va daromadlarini bosqichma-bosqich oshirib borish, mamlakatimiz iste'mol bozorini rag'batlantirish siyosatini davom ettirish uchun yetarli darajada ishonchli asos yaratmoqda.

Aholi turmush darajasi ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi...

... Aholi jon boshiga o'rtacha pul daromadlari umumiy yig'indisini mavjud aholi soniga bo'lish orqali hisoblanadi.

... oilalarning daromad va xarajatlarini statistik o'rganish, uy xo'jaligi budjetlarini statistik tekshirish asosida har oyda muntazam ravishda oilalarni (turli kasbdagi) tanlab olish orqali amalga oshiriladi.

Taqriz – arab so'zidan olingan “ijobiy baho” ma'nosini bildiradi.

Retsenziya – adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Yaratilgan kitobga baho beriladi.

ILMIY NASHRGA MAQOLA

Maqola – mustaqil ilmiy tadqiqot bo‘lib, unda dolzarb ilmiy muammo bo‘yicha muallif fikri faktlarga tayangan holda tahlil asosida bayon etiladi.

Maqola ustida ishlashning asosiy bosqichlari:

Mavzuning belgilanishi, uning tahlili, reja/tezislarining tuzilishi.

Reja/tezislar asosida maqolaning birinchi varianti ustida ishlash.

Ishning yakunlanishi, matn tahlili, takomillashtirish, tuzatish.

Maqola yozishga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javob bering:

- Materialdan qanday xulosa chiqarish kerak?

- Ish mazmuni nimadan iborat bo‘ladi?

- Ishning yakunlanishi, matn tahlili, takomillashtirish, tuzatish.

Maqolaning tuzilishi:

I. Kirish qismi:

Mavzuning asoslanishi+mavzuning dolzarbligi asosiy tezis – qo‘yilgan mavzuning retrospektiv tahlili, mavzuni bugungi kun pozitsiyalaridan ko‘rib chiqish zarurligining asoslanishi, mavzu asosiy tushunchalarining izohlanishi, mavzuni bayon qilish bilan bog‘liq xatolar bayoni;

II. Asosiy qism:

Dalillar + ilgari surilgan tezisini tasdiqlaydigan faktlar – induksiyadan foydalanish, aniqdan umumlashtirish, deduksiyadan foydalanish, umumiydan batafsil ko‘rib chiqish;

III. Yakunlovchi qism:

Ilgari surilgan tezisini tasdiqlaydigan yoki inkor qiladigan xulosa asosiy fikrni tezislar shaklida bayon qilinishi, xulosa, muammoning davomiyligini ko‘rsatish;

Matnni rasmiylashtirishdagi xarakterli nuqsonlar:

1. Mavzudan chetga chiqish, uni boshqasi bilan almashish;

2. Haddan ortiq hajmli kirish qismi, aniq xulosalar yo‘qligi;

3. Fikrni bayon qilishdagi muayyan bosqichlarni ko‘rsatadigan xatboshilarni ajrata bilmaslik;

4. Materialni bayon qilishning uzunligi va haddan ortiq ko‘pso‘zlilik;

5. Har xil nutqiy va uslubiy xatolar.

176-topshiriq. Global muammolardan biriga bag‘ishlangan publitsistik maqola yozing.

177-topshiriq. Ilmiy maqola to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘rganing va bitta maqola yozing.

Ilmiy maqolalarning vazifasi fan, madaniyat, texnika, iqtisodiyot yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o‘quvchilarning g‘oyaviy-ilmiy bilimlarini oshirishdan iborat. Ilmiy maqola quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi: kirish, tadqiqot obyekti, tadqiqot usullari, xulosa.

Ilmiy maqola tayyor bo‘lgandan keyin taqrizdan o‘tkaziladi va akt ekspertiza olinadi. Qolgan hujjatlar har bir nashriyotning talabiga muvofiq tayyorlanadi.

18. Nutqiy mavzu: Tabiat va inson

Grammatik mavzu: Intervyu olish va intervyu berish qoidalari



O'ZBEKISTONNING O'SIMLIK DUNYOSI

Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilari madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi.

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'lar, lalmikor qir-adirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bog'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovu daraxtlari o'sadi. Yurtimiz tog'larini boqqa qiyos qilish mumkin.

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'liq, chunki o'simliklar insonni to'ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo'jalik va qurilish materiali bo'ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi.

O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri — ularning shifobaxshligidir. Insoniyat qadim zamonlardan beri o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelgan. Serquyosh dala va bog'larimizda yetishtirilayotgan shirin-shakar mevalar, darmondorilar manbayi bo'lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o'zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishtirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxondan meva va sabzavotlarning arimasligi salomatligimizning garovidir.

Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bo'ladi. Ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo'lsa ham, kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Bunday o'simliklarni og'izga olmaslik, ularni yig'ib olayotganda qo'lni ko'zga urmaslik va ish tugagach qo'lni yaxshilab yuvish kerak. O'simliklar bo'lmasa, hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Shuning uchun ularni asrab avaylash, o'sib, ko'payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil olam insoniyatning eng yaqin do'sti ekanligini unutmaylik.

178-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring..

1. Barglarning to'kilishi sababli,
2. Yomg'ir ko'p yog'ganligi sababli,
3. Yer yuzasi muzlagani uchun,
4. Bahor kelgani sababli,
5. Iqlimimiz mo'tadil bo'lgani uchun,
6. Dengiz suvi sho'r bo'lgani uchun,
7. Kuchli shamol esgani sababli,
8. Kuchli sel yoqqani uchun,
9. Bemavrid qor yoqqani sababli,
10. Muzlar erigani uchun,
11. Yoz chillasi issiq kelgani sababli,
12. Tog' havosining musaffoligidan,
- 13.

O'simliklarning shifobaxshligidan, 14. Noyob hayvonlarning qirilib ketishi natijasida,.....

“INSON TABIATGA MUHTOJ”

“Inson – tabiat farzandi”, - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag‘rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go‘zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo‘yish tuyg‘usini uyg‘otish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o‘ziga zarur bo‘lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o‘zlarini o‘rab turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo‘lib, uni to‘xtovsiz o‘zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Bir tomondan, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko‘payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og‘ir sanoatning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish natijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofligini ta‘minlash va hokozalar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo‘lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko‘pchilikning xabari bor: Orol dengizi qurib borishi bilan bog‘liq tabiat muvozanatining buzilishi, chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an‘anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro‘z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiiy go‘zallikning qadriga yetish tuyg‘ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma‘rifiy, targ‘ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yer, suv, hayvonot va o‘simliklar dunyosiga bo‘lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

179-topshiriq. “Suv – hayot manbayi” mavzusida matn tuzing. Matn ichida havola bo‘lakli qo‘shma gaplarni ishlating.

180-topshiriq. Matni o‘qing. Matn asosida unga xos xususiyatlarni ko‘rsatib bering. Har bir abzasdagi asosiy fikr va xulosani ajratib bering.

NIMA SABABDAN QUYOSH TUTILADI?

Quyoshning tutilishida uch samoviy jism: Oy, Yer va Quyosh ishtirok etadi. Ma‘lumki, Oy Yer atrofida aylanadi, Yer esa o‘z navbatida to‘xtovsiz quyosh atrofidagi orbita bo‘ylab harakat qiladi. Shunday qilib, vaqti-vaqti bilan Oy Yer va

uni yoritadigan Quyosh o'rtasiga tushib qoladi. Shu holatda Quyosh tutilishi degan hodisa ro'y beradi. Quyosh faqat yangi oy chiqqan kezlar tutiladi, chunki ayni shu vaqtda Oy Yerning Quyoshga qaragan tomonida joylashgan bo'ladi. Agar Oyning orbitasi ham Yerning orbitasi joylashgan tekislikda bo'lganida edi, Quyosh har yangi oy chiqqanida kech tutilar edi. Biroq Oy Yer atrofidagi 29,5 kunlik harakati vaqtida, odatda, Yer bilan Quyosh o'rtasidagi to'g'ri chiziqni chetlab o'tadi.

Munajjimlar Quyosh tutilishi boshlanishini va u qancha davom etishini oldindan sekund-sekundigacha aniq aytib bera oladilar. Shuningdek, ular oldindan bu tutilish to'la, qisman yoki halqasimon bo'lishini ham ayta olishadi.

Agar Oy Quyoshni butunlay to'sib qo'ysa, bu to'la tutilish deyiladi. Ammo Yer bilan Oy o'rtasidagi masofa doimo bir xil bo'lmaydi va u ko'pincha juda uzoq bo'ladi. Bu esa Quyosh tutilishiga hamisha ham imkon beravermaydi. Shunda Oyning qora gardishi butun Quyoshni to'sib qo'yadi, biroq uning aylanasi bo'ylab ingichka ko'rinib turadi. Bu quyoshning halqasimon tutilishini bildiradi. Oyning Quyosh yuzasini qisman to'sib qo'yishi qisman tutilish deyiladi.

Quyosh har yili kamida ikki marta tutiladi. Ularning soni beshtagacha ham yetishi mumkin. Yer sharining ma'lum bir qismida Quyoshning to'la tutilishini har 250-300 yilda bir marta kuzatish mumkin. Shuning uchun munajjimlar butun Yer yuzi bo'ylab Quyoshning to'la tutilishi ortidan "quvib" yurishadi.

181-topshiriq. Agar ekologiya muammosi haqida maqola yozsangiz, qanday sarlavha qo'yadingiz. Maqolangizning rejasini tuzing.

"TABIAT VA INSON" mavzusi bo'yicha tuzilgan "T-SXEMA"

Grafik organayzerning universal turi. Bunda bir axborotga-konsepsiyaga faqat ikkita javob (ha/yo'q; to'g'ri/noto'g'ri) beriladi. Bu qiyosiy jadval bo'lib, u guruh bilan birga to'ldiriladi. Bu texnika tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Muammoli savol: Shahar sharoitida daraxtlar kerakmi?

Ha	Yo'q
Shahar havosining tozaligi uchun va changlarni tutish uchun	Bahorda madaniy daraxtlardan chiqqan momiqlar insonlarda allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi
Kuzda xazonlar yig'ilib, ulardan o'g'it sifatida foydalanish uchun	Kuzda xazonlar ko'pligidan ularni yoqishadi, oqibatda tutundan zaharli gazlar hosil bo'ladi. Bu gazlar esa inson sog'ligiga zarar.
O'zbekiston iqlimi issiqligi sababli daraxtlar soyasi zarur	Kuchli shamoldan daraxtlar sinishi natijasida inson hayotiga xavf tug'ilishi mumkin
Shaharga ko'rk berish uchun	Shaharni ifloslantiradi

182-topshiriq. Matni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

ОБЪЯВИТЬ ПРИРОДУ ЗАПОВЕДНИКОМ!

Современное поколение людей, видимо, последнее, которое ещё может сохранить островки жизни в таком виде, в каком создала их сама природа. Нет богатства на нашей планете дороже этого.

«Красная книга» всё больше, если можно так выразиться, краснеет. Был один том, теперь, вот появились сразу два...

Навсегда исчез, например, туранский тигр. Два - три десятилетия назад его ещё можно было встретить в Средней Азии. Теперь – увы... Практически можно считать истреблённым гепарда. Почему это происходит? Не успели вовремя принять охранные меры.

Кое-что в этом плане уже сделано. Например, удалось восстановить численность зубра, новоземельского северного оленя... создан бухарский питомник по производству джейранов, питомник по выращиванию крупных соколов.


183-topshiriq. Sababli, natijada, oqibatda kabi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Kuz erta kelganligi sababli, daraxtlarning bargi barvaqt sarg‘aydi.

184-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling.

О‘ZBEKISTON – JANNATMAKON O‘LKA

O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligini hammamiz bilamiz. U 447,4 ming kv. km. maydondan iborat.



O‘zbekiston Respublikasini dunyoning qariyb barcha davlatlari tan oldi va ular bilan o‘zaro elchixonalar ochilib, mustahkam aloqalar o‘rnatilmoqda. O‘zbekiston yoshlari yangi ochilayotgan universitetlar, institutlar, kollejlar, litseylarda ta‘lim olayotirlar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.

Respublikamizda 12 ta viloyat, 1 ta avtonom respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo‘rg‘on va qishloqlar mavjud. Vatanimiz tuprog‘i bebaho konlarga boy, tabiati go‘zal, xalqi mehmondo‘st. Neft, gaz, ko‘mir, oltingugurt, osh tuzi, rux, qo‘rg‘oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi. O‘zbekistonning asosiy ekini paxta va g‘alladir. Shuningdek, makkajo‘xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko‘plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo‘y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik ham rivojlangan sohadir.

SUV – TABIIY BOYLIQIMIZ

Hozirgi vaqtda atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim nuqmalardan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalarini mavjud suv manbalarining 20 % ini tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishidan chiqqan oqava suvlar tarkibida o'ta zaharli moddalar, og'ir metallar mavjud. Kon-ruda sanoati korxonalarini oqava suvlarida og'ir metallar ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft undan ham ko'p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, 626 sanoat korxonalaridan ko'p miqdorda yetarli tozalanmagan oqavalari chiqib turibdi.

Ulardagi oqavalarni tozalaydigan qurilmalarning ishlash samaradorligi 50-90% o'rtasidagi quvvat bilan ishlatilmoqda. Bu esa oqava suvlarning ifloslik darajasining keskin oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Nemis olimi G. Libman aytgandek, bizning sayyoramizda kishilarning salomat qolishlari uchun texnikaning mo'ljizalari emas, balki ichish uchun yaroqli suv yetarli bo'lishi kerak.

Sayyoramizning 3/4 qismini dengiz, ko'l va daryolarning suvi egallagan. Ammo iste'mol qilishga yaraydigan toza ichimlik suvi miqdori juda oz. Yerdagi jami suv zahirasining o'rtacha 0,6 % ini tashkil etadi.

Qarshi kanali atrofida joylashgan quvurlarning oqavalari kanalga oqizib qo'yilgan. Oqibatda viloyatning quyi qismidagi ko'p xo'jaliklarning minglab gektar unumdor yerlari zax bosib, sho'rlanib ketdi. Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri - uni tejamli sarflash. Suvni tejashda oqava suvlarni yig'ib, uni tozalash va qayta ishlatish katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalaniladigan suvni tejaydi, yerning, suvning sho'rlanishi va suv ifloslanishining oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xiroshi Noma: "Mabodo kelgusida Yerdagi hayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, suv yetishmovchiligidan bo'ladi", - degan edi. Shuning uchun biz hayot manbaini bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralarini ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

186-topshiriq. Quyidagi gaplarga qo'shimcha va yordamchi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Yomg'ir ko'p yog'ganligi ko'katlar tez gurkirab o'sdi . 2. Yer sirpanchig bo'lganligi... yurish qiyin edi. 3. Yoz oqshomi iliq bo'lganligi kiyim almashtirish esiga kelmadi. 4. U shoshgani.... loyni sachratib yubordi. 5. Qalin qor yoqqanligi Abdulla uyga kech qaytdi. 6. Quyosh botganligi ish to'xtatildi. 7. Kuchli shamol boshlanganligi hamma uyga yugurib kirib ketdi. 8. To'fon boshlanganligi kemalar dengizga chiqmadilar. 9. Suv sathi kamayganligi ekinlar vaqtida sug'orilmadi. 10. Yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi hosil mo'l bo'ldi.

187-topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni toping.

*Zar gilam, zargar gilam, ko'taray desam, og'ir gilam.
Hammani to'ydiradi-yu, o'zi yemaydi.*

188-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

*Bahorgi harakat – kuzgi barakat.
Kuzning bir kuni, qishning bir oyini boqar.
Navro'zdan so'ng qish bo'lmas, mezonan so'ng yoz bo'lmas.
Qishning bir kuni qolsa qo'rq.
Qishning qori – yozga dori.
Kun g'amini sahar yer, yil g'amini bahor yer.
Yilning yaxshi kelishi bahoridan ma'lum.
G'oz kelgani, yoz kelgani.
Chilla suvi – tilla suvi.*

189-topshiriq. Nuqtalar o'rniga chunki, shuning uchun, shu sababli kabi bog'lovchilarni mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Termometrlarda keng foydalanadigan simob 0 dan 39 daraja past bo'lganda qotadi, qishda daraja minus 39 darajadan past bo'ladigan joylarda simob darajalar ishlatilmaydi. 2. Havo baland bosimli joylardan past bosimli joylarga oqadi, siklonda atrofdan markazga qarab esadigan shamol vujudga keladi. 3. Fizika tabiat haqidagi asosiy fanlardan biridir, boshqa tabiiy fanlarning taraqqiyoti ko'p jihatdan fizik hodisalarni bilishga bog'liq. 4. Tuproqda tuz ko'payib ketdi, daraxtlar quriy boshladi. 5. Biz tabiatni muhofaza qilishga yetarli e'tibor bermadik, ba'zi qushlar va hayvonlar kamyob bo'lib qoldi. 6. Okeanlardan uzoqdagi Turon pasttekisligida yog'in juda kam bo'ladi, u yer eng issiq va eng quruq joy hisoblanadi.

190-topshiriq. Kerakli tinish belgilarni qo'yib chiqing.

1. Do'l bir zunda shunday yog'diki yer oppoq bo'lib ketdi. 2. Bu yerlarning o'tobi shunday saxiyki osmoni haftalar oylar davomida bulut ko'rmaydi. 3. Havo shu qadar issiq dim ediki ertalab o'rtilgan o'l kechgacha qurib qoldi. 4. Qop-qorong'i tun shu qadar tinch va sokin ediki hatto har bir sharpa ham bahuzur eshitilib turardi. 5. Osmondan mayda oq parchalar shu qadar quyuuq to'kila boshladiki bir qadam narida turgan odamni ko'rish ham mumkin bo'lmay qoldi. 6. Lolalar shuncha ko'p ochilgan ediki ularning aks nuri bilan osmon ham qip-qizil ko'rinardi.

19. Nutqiy mavzu: Inson va salomatlik Grammatik mavzu: Reportaj tayyorlash

SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko'chaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, do'stlarga, o'qish yoki ish joyida kirib, sinfdosh, kursdosh va hamkasbalarga, uyga qaytganda esa oila a'zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma'nosi, eng avvalo, bir-biriga sog'liq, tinchlik, omonlik tilashdir. Shundan ham ko'rinadiki, inson uchun sog'liq, omonlik, tinchlikdan qimmatiroq boylik yo'qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda: "Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog'lig'ingiz yaxshimi? Sog'omonmisiz?" – desak, xayrlashayotganda esa, albatta, "Sog' bo'ling! Xayr, salomat bo'ling!" – deyimiz. Doim sog' bo'lish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun o'z vaqtida rejali ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, o'qish yoki ishni qat'iy tartib asosida yo'lga qo'yish, ertalab badantarbiya qilish – tanani, o'qish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylikdan o'zni tiyish, ko'proq quvnoq kishilar davrasida bo'lish, o'z vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va ko'katlardan iste'mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo'lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to'g'ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiyashadi. Asabiyashish esa o'qish yoki ishdagi dilxiraliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o'zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o'zgarishi, o'qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta'sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o'zining doimiy muvozanatini saqlab turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo'lamiz. O'zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog'ligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. Aholi sog'ligini mustahkamlash yo'lida alohida xizmat ko'rsatgan kishilar uchun "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etilgan.

Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Ko'pchilik korxonalarning profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog'ligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o'nlab sanatoriyalar, dam olish uylari yil bo'yi ishlab turadi.

Sog'liqini asrash har kimning o'z qo'lidadir. Buning uchun har birimiz uyda, o'qishda va ishda xushmuomala bo'lishimiz, rashk, ig'vo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon bo'lishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlarni tag-tubi bilan yo'q qilishimiz, chang, tutun va shovqin-suronsiz sharoitda yashash, o'qish va ishlash imkoniyatini yaratishimiz, ovqatlanish va dam olishni to'g'ri tashkil etishimiz, asabga tegadigan har qanday omildan voz kechishimiz, sport bilan shug'ullanib chiniqishimiz, qisqasi – sog'lom

hayot tarzini yaratishimiz lozim. Ana shundagina dunyoning barcha boyliklaridan ham qimmatroq bo'lgan sog'ligimizni asrab, baxtli hayot kechiramiz.

193-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Salomlashish, madaniyat, oila a'zolari, rejali ovqatlanish, zararli odatlar, badantarbiya, asabiylashish, vaziyat, muvozanat, ta'sis, farovonlashtirish, profilaktoriyalar, dam olish pansionatlari, sport.



SOG'LOM TURMUSH TARZI O'ZIMIZGA BOG'LIQ

Har bir inson uzoq umr ko'rishni niyat qilib yashaydi. Hozirgi kunda dunyo olimlarining kuzatishlariga qaraganda, inson salomatligining 80 foizi ekologik faktorlarga bog'liq ekanligi aniqlandi. Demak, har bir inson shuni e'tiborga olib, o'zi va oila a'zolari, atrofdegilar uchun g'amxo'r bo'lishi zarur.

Buning uchun sog'lom turmush tarzini shakllantirish – har bir shaxsning kundalik hayotida uning salomatligi uchun foydali bo'lgan odatlarga o'rgatish, zararli odatlardan tiyilishga erishish, uzoq yashashga asqotadigan zarur bilimlar bilan tanishtirish, oxir-oqibatda, shaxsning o'zlashtirgan bunday bilimlarini uning kundalik odatiga aylanishiga erishishni tushunmoq kerak. Sog'lom turmush tarzi global ijtimoiy muammo bo'lib, unga inson idroki, psixologiyasi va motivatsiyasi nuqtayi nazaridan qaraladi. Inson organizmiga atrof-muhit ta'sirining o'zgarishi va texnik-psixologik xavf omillarining ortishi sog'lom turmush tarzi muammolarining dolzarbligini ko'rsatadi. Sog'lom turmush tarziga ta'sir etuvchi ob'ektiv omillar:

1. Noqulay ekologik sharoit (atrof-muhitning ifloslanishi, qishloqlarda tabiiy landshaft va shaharlarda ko'kalamzor maydonlarning kamayishi).
2. Kundalik hayotda asabiylashtiruvchi holatlarning ortishi, mehnat sharoitining haddan ziyod taranglashuvi.
3. Quylayliklarning ortiqcha (konditsioner, shaxsiy avtotransport, uy, maishiy texnika va boshqalar) ta'sirida inson organizmining tashqi muhitga moslashuvi qiyinlashadi.
4. Kamharakatlilik.

Sog'lom turmush tarziga nojo'ya ta'sir etuvchi subyektiv omillar:

1. Dangasalik: ba'zilar imkon va sharoiti yetarli bo'lishiga qaramay, sport, jismoniy harakatlar va badan tarbiyasi bilan shug'ullanmaydi.

2. Zararli odatlar: chekish va spirtli ichimliklar iste'mol qilish.

Odaming chekishga va spirtli ichimliklarga o'rganib qolishi boshqarib bo'lmaydigan jarayondir, chunki bu kabi odatlarni tashlash juda qiyin kechadi. Ayniqsa, organizmga giyohvand moddalarning ta'siri xavflidir. Chekish yurak-qon tomir kasalliklari, o'pka, oshqozon-ichak tizimiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Dam olishning kam harakatlilik turi (televizor ko'rish, internet va boshqalar) bilan ko'proq mashg'ul bo'lish.

Sog'lom bo'lish uchun kundalik hayot me'yorini saqlay bilish kerak. Ishlaganda, uxlaganda, yurganda, ovqatlanganda, dam olganda ma'lum bir chegara, me'yorni bilish kerak. Uning buzilishi, albatta, salomatlikka zarar yetkazadi. Afsuski, bu me'yorni ko'p kishilar anglamaydi. Anglaganlar esa unga rioya qilmaydi. Me'yor tushunchasi madaniyatlilikning muhim belgisidir.

Inson sog'lom bo'lishi uchun faol mehnat qilishi, mazmunli dam olishi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi, chiniqishi, ratsional ovqatlanishi, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etishi shifokor qabulida bo'lib, profilaktik ko'rikdan o'tib turishi lozim.

Dunyo olimlarining ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari tajribasiga asoslangan „Sog'lom turmush tarzi“ dasturi quyidagi oddiy, shu bilan birga, natijasiga ko'ra, hech qanday boyluk bilan tenglashtirib bo'lmaydigan, har bir odamga mustahkam sog'liq, uzoq, umr, sog'lom va barkamol kelajak avlodni bunyodga keltirib, o'stirishni ta'minlaydigan qoida va talablarni taqozo etadi.

194-topshiriq. Matni o'qing va tarjima qiling.

CHEKISHNI TASHLASHNING ENG OSON YO'LI

Amerikalik olimlar bir guruh kashandalar ishtirokida o'tkazgan tadqiqotda trenajor zaliga qatnashish tamakini tashlashga yordam berishini aniqlashdi.

Biz bilamizki, kashandalarning faqat 5 foizigina o'zi mustaqil tamaki tashlashni uddallay oladi. Asosan ular bir maqsad sari intiluvchan, o'ziga qat'iy talab qo'ya oladigan kishilardir. Qolgan 95 foizi esa tamakidan o'zlari mustaqil voz kecha olmaydilar. Ular tashlashni xohlashadi, biroq tashqaridan kimningdir yordamisiz buni uddalay olishmaydi.

Tadqiqotda kashandalar 2 guruhga ajratildi. Birinchi guruhdagilar zalga qatnab mashq qila boshlashdi. Ikkinchi guruhdagilar boshqa usullarga tayanib, tamakini tashlashga harakat qilishdi. Mashqlarga qatnayoigan kishilarning aksariyati tez orada tamakidan butunlay voz kechdi. Tadqiqotlarda kashandaning irodasi kuchlimi yoki kuch emas, bilim yetishmasligi muhim ro'l o'ynaydi. Mutaxassislarning fikricha, ana shundaylarga yordam qo'lini cho'zish, ya'ni sport seksiyasi yoki trenajor zaliga qatnashga qiziqtirish kerak. Albatta, bu borada axloq-odob sohasidagi bilimlari ham yetarli bo'lishi talab etiladi.

Insonni tamaki chekishga nima majbur etadi?

Arof-muhit ta'siri (do'stlar, oilaviy muhit) – 60 %

Bekorchilik – 15 %

Havas(qiziquvchanlik) – 11 %

Olifalilik – 14 %

Propaganda (reklama, kino, multikdagi kadrlar) – 5 %

TALABALAR TAOMNOMASI

Talabalar organizmi yoshi, ta'lim jarayoni va yashash sharoitiga qarab o'ziga xos xususiyatga ega. Ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarda berilgan o'quv yuklamalarini o'zlashtirish, turli xil masalalarni yechish va hal qiluvchi bosqich–imtihon jarayoni asabiylik holatini sezilarli darajada oshiradi. Imtihon oldidan kuchli hayajonlanish va imtihon vaqtida nafas olish, qon bosimi ko'tarilishi hamda tomir urishini tezlashishi kuzatiladi. Ayniqsa, boshlang'ich kurs talabalari organizmiga birlamchi turmush tarzidagi o'zgarishlar kata ta'sir ko'rsatadi.

Berilayotgan ma'lumotlar hajmining ko'payishi, quyi ta'lim muassasalari yuklamalariga qaraganda ko'proq talab qo'yilishi, o'z vaqtini mustaqil taqsimlay olmaslik va turmush tarzini to'g'ri tashkillashtira bilmaslik ruhiy yuklamaning oshishiga olib keladi. Yoshlar organizmida hali shakllanib ulgurmagan fiziologik jarayonlar mavjud, bu birinchi navbatda neyroqumol tizimi bo'lib, ular ovqat ratsioni muvozanati buzilishiga sezgir bo'lishadi. Qishloq joylardan katta shaharga kelib ta'lim oluvchilar ovqat tarkibining o'zgarishi ular organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga sabab, qishloqda ovqat ratsioni tarkibida ko'proq o'simlik tarkibi mavjud. Unda kolbasa, oliy navli un mahsulotlarining ko'payishi ichak harakati susayishiga va qabziyatga olib keladi. Ko'p talabalar o'qish davrida ovqatlanish tartibini buzishi oqibatida ularda "yoshlar xastaligi" nomini olgan ovqat hazm qilish tizimi kasalligi rivojlanadi.

Darsni o'zlashtirish va ovqatlanish tartibi orasida bog'liqlik aniqlangan: agar talaba och qorin bilan darsga kelsa, ularda o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish sustlashadi. Qator ilmiy kuzatuvlarga ko'ra, qoniqarli bahoga o'qiydigan talabalarning 60 % ikki, yaxshi bahoga o'qiydiganlarning 80 % uch martalik ovqatlanish tartibiga rioya qilishgan. Texnik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarda yuklamalar asosan hisob-kitob, chizma jadvallarni bajarish jarayonida zo'riqish ko'proq ko'rish tizimiga tushadi.

Talabaning ovqatlanish madaniyatiga rioya etishining eng oddiy usuli, bu vaznini nazorat qilib turishdir. Vaznning ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi asosiy salomatlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Talabalar ovqatlanishni muvofiqlashtirishda quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari lozim:

✓ Ovqat ratsionida sifatli tabiiy mahsulotlar, ya'ni yangi sabzavot va mevalar, sut va baliq bo'lishi kerak;

✓ Ovqat ratsionini tuzishda talabalar organizmining o'ziga xos xususiyatlari va yashash sharoiti hisobga olinishi zarur. Kunda to'rt marta ovqatlanish maqsadga muvofiq va kunlik iste'molning 25 % nonushta, 35-40 % tushlik, 10-15 % to'lma choy va 25 % - kechki ovqat bo'lishi kerak. Ovqatlar xilma-xil bo'lishi va kunning ma'lum bir vaqtida ovqatlanish zarur. Kechki ovqatlanish uyqudan 2-3 soat oldin bo'lishi kerak. Sharbat, konfet, olma ... bular alohida (qo'shimcha) ovqatlanish turi hisoblanadi;

✓ Ovqat ratsioni ozuqaviy va biologik qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar (vitaminlar, mineral moddalar, kalsiy, temir, yod, ruh, yarim to'yinmagan yog' kislotalari va ovqat tolalari bilan boyitish) bilan tashkil qilish. Oqsilli ovqatlar (qoramol, tovuq, baliq go'shtlari, tухum, pishloq) ratsionda bir marotabadan kam bo'lmashligi kerak;

✓ Haftada 1-2 kun ko'p miqdorda ko'katlar, sabzavotlar va mevalar iste'mol qilib vegetarian kuni deb e'lon qilish maqsadga muvofiq. Kunlik ovqat tarkibida kamida bir marotaba xo'l meva va sabzavotlar (karam, sabzi va lavlagi), sabzavotli ovqatlar (salatlar, bo'tqalar, sharbatlar va boshqalar) olma, yong'oqlar bo'lishi talab etiladi;

✓ Yog'li go'sht tanovvul qilganda, albatta hazm qilishni yaxshilaydigan salatlar, ayniqsa ko'katlar iste'mol qilish kerak. Shakar va tuzni iste'moli me'yor darajasidan oshmasligi lozim. Shakarni asal, quritilgan hurmo yoki magizga almashtirish mumkin.

195-topshiriq. Matnni o'qing siz qanday sportchilarni bilasiz gapirib bering.

O'ZBEKISTON SPORTI

O'zbekistonda sport – davlat siyosati va bunyodkorlik faoliyatining muhim sohalaridan biri. O'zbekiston – alpomishlar eli. Xalqimiz minglab polvonlarni, el-yurtini hayratda qoldirgan o'g'lonlarni tarbiyalagan. Ularning dong'i atrof mamlakatlarga ham keng tarqalgan. Xorazmlik afsonaviy pahlavon Mahmud, Ahmad polvon, Mahkam polvon kabi mashhur polvonlarning nomini xalqimiz chuqur hurmat bilan tilga oladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston sportida yangi sahifa ochildi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov shaxsan diqqat-e'tibor qaratdi. Mustaqil O'zbekiston sportchilari bu g'amxo'rlik va otalarcha mehribonlikni oqlamoqdalar. Bilamizki RIO -2016 tida bir qancha sportchilarimiz O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarib qaytishdi, bular:

***Hasanboy Do'stmatov Ma'rufjon o'g'li** 1993-yil 24-iyun kuni Andijon viloyatida tug'ilgan. RIO - 2016 olimpiadasining eng yaxshi bokschisi sifatida Vel Barker kubogi bilan taqdirlandi. Eng yengil vazn (49 kg) toifasida Rio – 2016 Olimpiadasida ishiruk etgan va oltin medalni qo'lga kiritgan. Uning texnikasi, xatti-harakatlari boks mutaxassislarini bee'tibor qoldirmagan. 23 yoshli ushbu bokschi finalda Kolumbiyalik Yuberhen Martinesni yengib, O'zbekiston uchun ilk oltin medalni keltirgan. 1934-yildan buyon Vel Barker kubogi AIBA qo'mitasi talqiniga ko'ra Olimpiya o'yinlarida eng yorqin janglarni olib borgan bokschilarga taqdim etiladi.*

***Ruslan Nuruddinov Shamilevich** 1991-yil 24-noyabrda Andijon viloyatida tug'ilgan. RIO-2016 Olimpiadasining og'ir atletika sport turida O'zbekiston sharafigini himoya qilib oltin, medalni qo'lga kiritdi. Ruslan dast ko'tarishni 194, siltab ko'tarishda 237, umumiy 431 kg toshni o'ziga bo'ysundirib, Olimpiada chempioniga aylandi.*

Fazliddin G'aimnazarov Xasanboevich 1991-yil 16-iyunda Toshkent viloyati Bekobod shahrida tug'ilgan. RIO-2016 Olimpiadasining g'olibi boks bo'yicha oltin medal sohibi. G'aimnazarov Amerikalik Agustin Maurasga qarshi sakkiz raund jang olib bordi va yakunida g'olib chiqdi.

KURASH TARIXI

Kurash – sport turi belgilangan qoidaga muvofiq, ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish sa'nati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Xalqaro maydonda kurashning Yunun-Rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keying yillarda o'zbek kurashi ham alohida sport turi sifatida dunyo miqyosida tan oлина boshlandi. Kurash, insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan bu sport turida shug'illanishga ruxsat berilgan.

“Kurashning turlari deyarli bir xil bo'lib, unda ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutilishning chorasini qiladi”. Bu ta'rif zamonaviy kurash qoidalari bilan bog'liq.

BELBOG'LI KURASH TARIXI

Sharqning buyuk mutaffakirlaridan biri bo'lmush Abu Ali Ibn Sino kurash bilan shug'illanmoq jon va tana sog'ligini ta'minlashning eng yaxshi vositasidir, deb ta'rif bergan. Shunga qaramasdan xali-hanuz kurash aynan qachon va qayerda paydo bo'lganligi xususida aniq ma'lumotlar mavjud emas. O'z navbatida, bunday mavhumlik qator olimlar tomonidan kurashni qadimiy sport turlaridan biri sifatida e'tirof etilishi uchun to'siq bo'la olmadi.

Vaqt o'tishi bilan kurash zamonaviy O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholining eng sevimli va ardoqli a'nanalaridan biriga aylandi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda kurash bilan muntazam shug'illanuvchilarning soni ikki millionga yetgan.

Qanday omillar inson
salomatligiga ijobiy va salbiy
ta'sir ko'rsatadi?

Ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi
omillar;

Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi
omillar;

НТО ВЛНЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадыри ибн Мухаммад Насруллах (XV в.) в своей книге «Кячкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- чересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;
- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, душиться приятными духами, часто купаться;
- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;
- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

ROLLI O'YIN

Rolli o'yinlar asosida tashkil etilgan mashg'ulot o'quvchilarda nazariy bilimlarni puxta egallashni ta'minlaydi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko'nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, teran va sog'lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo'lgan komil shaxsni kamol toptirishga xizmat qiladi.

Talabalarni guruhlariga bo'lgan holda har bir guruh uchun ma'lum kasallik turi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar ushbu kartochkada belgilangan kasallik qaysi shifokor qabuliga borishi kerakligini aniqlaydilar va shu tarzda "Shifokor qabulida" mavzusida dialog tuzib, rolli o'yinga kirishadilar.

Tumov

Yurak sanchig'ida

Oshqozon og'riganda

Tomoq og'rig'i

Tish og'riganda

Shamollashda


**Shamollashda (bolalar
shifokori)**


Ko 'z kasalliklarida

**Tanada toshmalar
paydo bo'lganda**


Yod tanqisligida

196-topshiriq. Odamning ichki a'zolari nomini toping.





B. Hozir rasmlar



DOKTOR VA KASAL DIALOGI

Kasal (G'iyosiddin): Mumkinmi, doktor?

Doktor (Jo'raxon): Ha, kiring, marhamat!

Kasal: Doktor, anchadan beri parishonxotirroq bo'lib qoldim.

Doktor: Xo'p, familiyangizni ayting, yozamiz.

Kasal: Familiyam Topponqulov.

Doktor: Ismingiz?

Kasal: Ismim, i-i-ismim, ha, ha, Sopponqul.

Doktor: Uy adresingiz?

Kasal: Sholdirama ko'cha, uyimiz... 26 bo'lsa kerak.

Doktor: Kasallik belgilarini ayting.

Kasal: Goho bolalarni bog'chaga olib bordim, deb bozorga qo'yib kelyapman. Ishdan qaytishda o'zimning uyim deb birovlarinikiga kirib qolaman. Shoshilganda o'zimning kiyimim deb xotinimning usti-boshini ham kiyib qo'yyapman.

Doktor: Bo'ldi, bo'ldi, tushundim. familiyangizni ayting?

Kasal: Doktor, familiyamni aytdim-ku!

Doktor: Kechirasiz, familiyangiz Sopponqulov edi-a?

Kasal: Doktor, sizga nima bo'ldi? Familiyam Topponqulov, ismim Sopponqul.

Doktor: Mayli, endi sizga dori yozib beramiz (doktor yozmoqchi bo'lib nimadir qidiradi).

Kasal: Ha, doktor, nima yo'qotdingiz?

Doktor: Ruchkani yo'qotdim, hozir yozib turgan edim-a?

Kasal: Ruchka narigi qo'lingizda turibdi-ku, doktor.

Doktor: E, bu yoqda ekan-ku, o'zimiz ham biroz... nima... bo'lib qolib... qolibimizni deyman. Xo'p, yozib olay, familiyangizni ayting.

Kasal: Bu doktor, kasal men emas, siz ekansiz-ku, hali sizdan yordam so'rab keldimmi? Siz eson-omon uyingizni topib borsangiz bo'ldi. Doktor, meni sizga hech qanaqa ishim yo'q, xayr!

Doktor: Bu odam o'zi nimaga keldi-a? Skleroz emasmikin?!

Grammatik mavzu: REPORTAJ TAYYORLASH

REPORTAJ

Reportaj – hodisa yuz berayotgan joydan olinayotgan xabar. Shu bilan birga u jurnalistikaning o'ziga xos xususiyati tezkorlik bo'lgan janridir. Bundan tashqari, ushbu janr uchun hodisalarni beg'araz ravishda (xolisona) yoritish xos hamda muxbir ta'riflanayotgan hodisaning bevosita ishtirokchisi yoki shohidi bo'lishi nazarda tutiladi. Aynan muallifning muqarrar ravishda hodisa joyida bo'lishi shartligi reportajning (muxbir xabarlari) oddiy maqoladan ajratib turuvchi jihatidir. Reportaj atamasi fransuz tilidagi "reportage" hamda ingliz tilidagi "report" so'zidan olingan bo'lib, ularning umumiy o'zagi – lotin tilidagi "reporto" – yetkazib bermoq so'zidir. Reportajlar odatda televizion va gazeta reportajlariga bo'linadi, biroq ular, shuningdek, radio orqali ham berib borilishi, jurnal va yoki internet nashrlarida ham chop etilishi mumkin.

Televizion reportaj – tomoshabinga hodisani ko'rsatib beradi. Bu holatda ta'riflovchi vazifasini video qator bajaradi. Bu holat axborot sababining ahamiyati darajasidan qat'iy nazar belgilab beruvchi hisoblanadi. Taklif etilayotgan manzaraning tomoshabopligi va ishonchliligi – reportajning "ko'rimlilik" sharti hisoblanadi. Televizion reportaj to'rtta asosiy elementdan tashkil topadi:

xabarning muxbir yoki muharrir tomonidan studiyada yozilgan kadrorti matni;

video qator – video tasvirning dastlabki video yozuvlardan (operator tomonidan tasvirga olingan materialdan) tanlab olingan va montaj qilingan lavhalari;

tovush fragmentlari yoki sinxron;

shovqinlar (inter shovqin va lyuft) – tasvirga sinxron bo'lgan, kadrorti matn o'rniga (lyuft – to'xtam) yoki u bilan parallel ravishda tarqaladigan tovush.

Reportaj, shuningdek ikki xil usulda uzatiladi:

efirga chiqishga qadar tayyorlangan material: muallif hodisalarning kechishini studiyada o'firgan holda monitoring qiladi va zarurat tug'ilganda kadr orti matnini yangilab turadi.

Hodisa joyidan to'g'ridan-to'g'ri reportaj: muxbir hodisa yangiliklarning efirga chiqish vaqtida sodir bo'lishini biladi yoki taxmin qiladi. Bu holatda hodisa sodir bo'layotgan yerga ko'chma televizion stansiya chiqadi va voqealar to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatiladi, bunda muxbirda sodir bo'layotgan voqealar ichida turib efirmi olib borish imkoni paydo bo'ladi.

Reportajning maqsadi – auditoriyaga yoritib berilayotgan hodisani shu hodisalarning shohidi bo'lgan muxbirning ko'zi bilan ko'rish imkoniyatini yaratib berish, ya'ni "qatnashchi ta'siri"ni his qilish imkonini berishdan iborat. Reportajda hodisani shaxsan qabul qilish birinchi o'rinda turadi, bu esa, o'z navbatida, axborot janrining obyektivligiga mutlaqo zid emas.

Voqea (hodisa)ga oid reportaj

Voqea (hodisa)ga oid reportajning asosiy jihatlariga birinchi navbatda tezkorlik va dolzarblikni kiritish lozim. Birinchi jihat voqea (hodisa)ga oid reportaj – doimo sodir bo'layotgan hodisaga tezkor va hattoki zudlik bilan ko'rsatilgan javob demakdir.

Analitik (tahliliy) reportaj

Reportajning mazkur turi, nafaqat, bir lahzalik hodisani ta'riflashga, balki uning vujudga kelish va rivojlanish sabablarini ham aniqlashga yo'naltirilgan. Shu sababli reportajning mazkur ko'rinishida biz turli janrlarga oid elementlar simbiozini kuzatishimiz mumkin. Analitik reportajlarda quyidagi elementlar mavjud bo'lishi mumkin:

suratga olish elementlari (harakat sodir bo'layotgan joyini, uning ishtirokchilarini ta'riflash)

axborotga oid elementlar (faktlar, raqamlar, guvohlar)

tahliliy (baholash, sharhlash, taxmin qilish)

Ushbu turli xil elementlar, odatda muallif tomonidan mantiqiy izchillikda ochib beriladigan yagona mavzuga birlashtiriladi. Mavzuning harakati quyidagi sxema bo'yicha ochib beriladi: tezis – asos – xulosa.

Bilishga oid-tematik reportaj

O'zining maqsadga oid vazifasiga ko'ra reportajning mazkur turini maxsus, tergovga oid va izohlovchi reportajlarga bo'lish mumkin. Reportajning mazkur turlarining barchasida qiziqarli hayotiy vaziyatni muxbir tomonidan ta'riflash birinchi o'rinda turadi.

Reportaj-izoh

Reportajning mazkur turi hodisani batafsil yoritishga emas, balki uning barcha tafsilotlariga qadar yoritib berishga yo'naltirilgan. Izohlash elementlaridan foydalangan holda muxbir o'quvchilarga hodisaning mohiyatini tushuntirishi yoki izohlab berishi mumkin.

Reportaj tili

Reportaj tili o'zida quyidagi barcha uslublarning elementlarini qamrab oladi: so'zlashuvga oid, publitsistik, kitobiy. Reportajda asosan neytral leksika qo'llaniladi. Bu janrning so'zga oid asosi hisoblanadi, va u vazifasiga ko'ra muxbirning kommunikativ vazifasi, ya'ni hodisa haqida gapirib berish, ma'lumotni yetkazish vazifasi bilan bog'liq bo'ladi. Reportajda asosan neytral leksikaning so'zlashuv leksikasi bilan ko'p hollarda hissiy tus berilgan qorishmasi qo'llaniladi.

Maxsus terminologik leksika, reportajda odatda definitiv (mantiqiy-ta'riflovchi) va nominativ o'rin tutadi. Ilmiy uslubdagi matndan farqli ravishda bu yerda atamalar to'g'ri ma'noda qo'llaniladi. Maxsus leksika tushunarli bo'lishi lozim, u sodir bo'layotgan hodisaning aniqligi, rostligini namoyon qiladi va uni yorqin ifodalash imkonini beradi.

197-topshiriq. Kichik guruhlariga bo'linib, hamkorlikda bajariladi: “TDIU hayotidan” mavzusida reportaj tayyorlang.

198-topshiriq. Voqea joyidan reportaj tayyorlang.

20. Nutqiy mavzu: Huquqiy madaniyat

Grammatik mavzu: Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

HUQUQIY MADANIYAT TARAQQIYOT MEZONI

Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy sharti sifatida xalqimizning huquqiy bilimi va madaniyatini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, qabul qilingan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini aholiga chuqur anglatishga katta e'tibor qaralilib kelinmoqda.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga erishish, tom ma'noda huquqiy ongni yuksaltirish davr talabiga aylandi. Fuqarolarda yuksak huquqiy tafakkur shakllanmas ekan, turli xil nomutanosibliklar kelib chiqaveradi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish va shu orqali qonun ustuvorligiga erishish nafaqat jamiyatning, balki o'sib kelayotgan yoshlar uchun ham qimmatlidir. Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurishning zarur sharti qonunlarga so'zsiz itoat etishdir.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shuningdek, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham muhim vazifalar sirasiga kiradi. Huquqiy demokratik davlat qurishda o'sib kelayotgan yosh avlodning huquqiy bilimlarni mukammal egallaganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mukammal ta'lim-tarbiya olgan avlod hech qanday huquqbuzarlik yoki jinoyatlar ko'chasiga kirmaydi. Shuningdek, turli yot g'oyalar ta'siriga tushmaydi.

Yurtimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan yana biri – qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning o'zagini tashkil etadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz axolisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhim. Inson o'zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o'rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo'lishi lozim. O'tgan yillar mobaynida o'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlandi.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog'liq. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarining jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlilligi hamda batartibligini ta'minlovchi omildir.

Inson huquqlari va uni himoya qilish masalalarini hal qilishda davlatlar huquqiy me'yorlarga amal qilishi, ularda ishlab chiqilayotgan yuridik hujjatlarning samarali va adolatli bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, huquqiy

targ'ibot – jamiyat va davlatning huquqiy siyosatini, strategik maqsadini fuqarolarga, ommaga yetkazishga qaratiladigan ma'rifiy va targ'ib usullaridir. Huquqiy madaniyatning shakllanishi huquqiy targ'ibotning ta'sirchanligi va xalqqa tushunarli ekaniga ham bog'liq. Demokratik davlat qurilishi jarayonida qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini ta'minlash muhim shartlardan sanaladi. Bu borada davlatimiz rahbarining "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash to'g'risida"gi farmonini alohida ta'kidlash joiz. Mazkur farmonda aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish va huquqiy tarbiyani yaxshilash yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

"Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"ning 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, deklaratsiyaning 4, 21-moddalarida ham ushbu qoidalar kengroq ifodalangan. Unda fuqarolik va siyosiy huquqlar, ya'ni qullik yoki qaramlikdan saqlanish huquqi, azob-uqubatga yoki jazoga duchor bo'lmaslikning huquqiy normalari mustahkamlangan. O'zboshimchalik bilan qamoqqa olish, ushlab turish va quvg'in qilinishdan saqlanish, qo'yilgan aybning asoslanganligini aniqlash uchun tenglik asosidagi adolatning barcha talablariga rioya qilish va uning tenglik, ya'ni sud tomonidan xolisona ko'rib chiqilishi tartibga solingan.

Har qanday jamiyatning, huquqiy manfaatlaridan kelib chiqib, inson huquqlarini himoyalashga asoslangan asosiy qonuni, ya'ni Konstitutsiyasi bo'lishi kerak. Konstitutsiya, avvalo, inson huquqlarini himoya qilishi hamda davlat mafaatlariga mos kelishi sharti. O'zbekistonning Bosh qomusi – Konstitutsiyamizda fuqarolar manfaatlari barcha narsadan ustun ekanligi ta'minlangan. Shuningdek, konstitutsiya fuqarolar va davlat xavfsizligini ta'minlaydigan yagona mukammal huquqiy hujjat sanaladi. "Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning manfaati aynan Konstitutsiya orqali himoya qilingan. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir",– deb ta'kidlanadi. Bosh qomusimizning 40-moddasida esa, "Har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega" deb ko'rsatilgan. 41-moddasi ta'lim-tarbiyaga qaratilgan. Ya'ni, ushbu moddada har kim bilim olish huquqiga ega, har bir fuqaroning bepul umumiy ta'lim olishi davlat tomonidan kafolatlanishi va maktab ishlari davlat nazoratida ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi 1992-yilning 8-dekabrda qabul qilindi. U 6 bob, 26 bo'lim, 128 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi O'zbekiston inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariiga sobiq demokratik respublika ekanligini tantanali ravishda e'lon qildi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga ko'ra xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbayidir.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega ekanliklarini, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi.

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi.

Qomusimiz biz uchun nazariy-huquqiy hujjat, burch va majburiyatlarimiz majmuasigina emas, balki hayotimizni farovon etish, uni chinakam qonuniy asosga qurish, o'z haq-huquqlarimizni ta'minlash, jamiyatda qonun ustuvorligini o'rnatishning hayotbaxsh manbayidir.

O'zbekiston konstitutsiyasida inson huquqlari va davlat mustaqilligi g'oyalariga sadoqat, xalqimiz oldidagi yuksak mas'uliyat, o'zbek davlatining tarixiy tajribasiga tayanish, fuqarolarning farovon hayot kechirishlarini ta'minlash, insonparvar jamiyatni barpo etish kabi olijanob maqsadlarni amalga oshirish ko'zlangan.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga ham alohida e'tibor berilgan. Uning 11-bobida fuqarolarning qomusda belgilab qo'yilgan burchlarini bajarishga, qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, qadr-qimmatini hurmat qilishga, O'zbekiston va uning ma'naviy merosini avaylab-asrashga, atrof-tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga, soliqlarni to'lashga majburliklari ta'kidlanadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matnni rus tiliga tarjima qiling;
- c) matn yuzasidan savollar tuzing;
- d) huquq va burchlaringiz haqida so'zlab bering.

199-topshiriq. Matnni davom ettiring.

FUQAROLARNING ASOSIY HUQUQ VA BURCHLARI

Fuqarolarning asosiy huquqlari – jahondagi rivojlangan, ma'rifatparvar, demokratik davlatlarda xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligini, har bir fuqaroning erkinligini ta'min etish bo'yicha tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda fuqarolarning huquqlari va burchlari aniqlandi. Mustaqil O'zbekistonning demokratik mohiyati, avvalo, uning xalq manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo'lmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy tamoyilidir. Shu ma'noda, Birinchi Prezident I.A.Karimov: "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qati nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir", deydi. O'zbekiston fuqarolarining o'z mustaqil davlatiga mansubligi, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquq, erkinlik va burchlarning joriy etilishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat tomonidan qo'riqlanishida o'z ifodasini topadi va ular uch guruhga bo'linadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar: mehnat qilish, dam olish, bilim olish, moddiy ta'minot

kabi huquqlaridan iborat. II. Siyosiy huquq va demokrtik erkinliklar: fuqarolarning jamiat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, saylash va saylanish huquqi, soʻz va matbuot erkinligi, majlis va mitinglar, namoyishga chiqish huquqlaridan iborat. III. Uy-joy daxlsizligi, shaxsiy huquqlar. Bu huquq va erkinliklar Oʻzbekiston davlatida fuqarolar erkin rivojlanishining asosiy omilidir.

200-topshiriq. Matnni oʻqing, yozma tarjima qiling.

Burch va sadoqat quyida ayniqsa namoyon boʻladi:

- *Ona Vatanni himoya qilish – fuqarolik burchi;*

- *fidoyilik koʻrsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;*

- *yurt chiroyiga chiroy qoʻshish, uning boyligi yoʻlida fidoyilik koʻrsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;*

- *ota-onaga sadoqat va ularga xizmat qilish – farzandlik burchi.*

Sadoqat bilan burchni tarixda yashab oʻtgan ulugʻ kishilar bagʻoyat qadrlaganlar, kishidagi eng olijanoh fazilat deb bilganlar. Masalan:

“Oʻz burchingni ado et, oʻsha zahoti oʻzingni anglaysan”. (I.Gyote).

Burchingni unutma, u yagona dil navosidir. Burchsiz hayot ham, ehtiros ham yoʻq. (A. Blok).

Yodda tuting!

Huquqiy madaniyat – qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini taʼminlash, har bir shaxs, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir.

OʻZBEKISTON QUROLLI KUCHLARI

Oʻzbekiston Qurolli kuchlari – harbiy birlashmalar, qoʻshilmalar, qismlar hamda tuzilmalardan iborat boʻlib, ular davlat tomonidan tashkil qilinadi va taʼminlanadi. Oʻzbekiston Qurolli kuchlarining vazifasi – urush va qurolli tajovuzlarning oldini olish. Oʻzbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, Oʻzbekiston fuqarolarining tinchligi va xavfsizligini taʼminlashdan iborat. 1992-yil 14-yanvarda Oʻzbekiston hududida joylashgan barcha harbiy qismlar, qoʻshilmalar, harbiy oʻquv yurtlari, harbiy sohaga tegishli muassasa va tashkilotlar, boshqa harbiy tuzilmalar hamda ularning moddiy-texnikaviy va moliyaviy taʼminoti Oʻzbekiston Respublikasi tasarrufiga oʻtkazildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Oʻzbekiston Qurolli kuchlarining maqomi, asosiy vazifalari va faoliyat doirasi belgilanib, ularning huquqiy zaminini mustahkamlangan. Oʻzbekiston Respublikasining 1993-yil 29-dekabrda qonuniga muvofiq, har yilning 14-yanvarida “Vatan himoyachilari kuni” nishonlanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-fevralda imzo chekkan farmoniga binoan, Oʻzbekiston Respublikasi ixtiyoridagi harbiy qismlarga rahbarlik qilish Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari boʻyicha vazirligiga topshirildi. 1992-yil 3-iyulda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Mudofaa toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinib, Mudofaa ishlari boʻyicha vazirlik Mudofaa

Vazirligiga aylantirildi. 2001-yil 11-mayda bu qonun Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirda tasdiqlanib, mudofaani tashkil qilishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. O'zbekiston Qurolli kuchlari Quruqlikdagi qo'shinlar, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari, Harbiy havo kuchlari, Maxsus qo'shinlar, Chegara qo'shinlari, Ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy tuzilmalari. Favqulodda vaziyatlar vazirligi, shuningdek, boshqa vazirliklar, muassasalar va boshqarmalar harbiy tuzilmalaridan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti – Qurolli kuchlarning Oliy Bosh Qo'mondoni. Uning rahbarligida Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa vazirligi, O'zbekiston qurolli kuchlarining birlashgan shtabi ish olib boradi. O'zbekiston hududi harbiy okruglarga bo'lingan. 2002-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" qayta ishlangan qonunni qabul qildi. Qonunda harbiy xizmatning quyidagi turlari joriy etildi: muddatli harbiy xizmat (12 oy, oliy ma'lumotlilar uchun - 9 oy), safarbarlik chaqiruv rezervidagi harbiy xizmat, kontrakt bo'yicha harbiy xizmat, harbiy xizmatni o'tagan rezervchilar xizmati. Yuksak malakali harbiy kadrlar tayyorlash maqsadida Toshkentda Qurolli kuchlar akademiyasi va Oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti, Chirchiqda Oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Samarqandda Oliy harbiy avtomobil qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti qoshida maxsus fakultet, Chirchiq, Samarqand, Namangan va Qarshi shaharlarida serjantlar tayyorlash maktablari ishlab turibdi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnni o'qing;
- b) matnni rus tiliga tarjima qiling;
- c) matn yuzasidan savollar tuzing;
- d) matnni reja asosida gapirib bering.

201-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling.

Qurolli urush, *jang qurol-yarog'lari bilan ta'minlangan; qurol tutgan. Qurolli kishi.*

Qurolli kuchlar – *harbiy harakatlar (hujum yoki mudofaa) olib borish hamda davlat xavfsizligini saqlash maqsadida davlat tomonidan ta'minlanuvchi qurollangan kishilarning uyushgan birlashmasi: harbiy qismlar, armiya. O'zbekiston Qurolli kuchlari.*

Mudofaa [*himoya qilish; himoya, to'siq*] – *jangovar harakatning dushman kuchlari hujumini qaytarish. ularga jiddiy talofat yetkazish, pozitsiyani qo'lda tutib turish va hujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida qo'llanadigan bir turi. Dushman mudofaasi. 2. Dushmandan saqlanish, o'zini himoya qilish uchun zarur bo'lgan yoki hozirlangan vosita va choralar majmuyi. Mamlakat mudofaasini kuchaytirish.*

Vazirlik – *rivojlangan davlatlarda alohida bir sohada rahbarlik qiladigan ijrochi organ. O'zbekiston Respublikasida davlatning markaziy boshqaruv organi. davlat mahkamasining muhim qismi. Mudofaa Vazirligi.*

Boshqarma – davlat boshqaruvi tizimida biror yirik tarmoq yoki xo'jalik sohasida yuqori (oliy) yoki o'rta bo'g'indagi idora, tashkilot. Markaziy bankning viloyat boshqarmasi.

Serjant – [fr. sergent < dot. serviens - xizmatchi] - militsiya, politsiya va armiyada kichik komandirlarga beriladigan unvon va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. Kichik serjant.

Kontrakt – [lot. contractus - bitim, kelishuv] - tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatilgan holda tuzilgan ikki yoki ko'p tomonlama shartnoma, bitim. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat.

Ofitser – [nem. offizier < lot. officarius - mansabdor shaxs < officium - ish, xizmat] - qurolli kuchlar, politsiya va jandarmeriyaning komandirlar tarkibidagi harbiy xizmatchisi. Aloqa ofitseri. Okrug - [r. okrug - tevarak, atrof < окупъсать - "qurshab olmoq; atrofni o'ramoq" fl. dan] - ba'zi davlatlarda ma'muriy hududiy birlik. 2. Yirik hududiy harbiy birlashma, bo'linma. O'zbekiston hududi harbiy okruglarga bo'lingan.

Shtab – [nem. stab - podsholik alomati bo'lgan aso, hassa; harbiy qarorgoh] - harbiy qismlarni boshqaruvchi asosiy organ. Bosh shtab.

XXVI bob. MUDOFAA VA XAVFSIZLIK

125-modda. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.

Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

126-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlariga ega.

202-topshiriq. Matndan foydalanib yoshlarning majburiy harbiy xizmatni bajarish burchi haqida dialog tuzing.

203-topshiriq. "Baxtimiz qomusi" mavzusida insho yozing.

204-topshiriq. O'zbekiston Qurolli Kuchlari haqida taqdimot tayyorlang.

SHARQONA DEMOKRATIYA

Demokratiya ma'naviy mezonlar asosida boshqariladigan, kuchli huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati demakdir.

Sharqona demokratiya demokratiya tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, Sharq mamlakatlari, asosan, aholisining ko'pchilik qismi musulmon ma'naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo'lgan demokratik qoidalar majmuyining o'ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo'lishidir. Sharqona demokratiya milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir. Ana shu xususiyatlari bilan ushbu ijtimoiy tushuncha G'arb demokratiyasidan farq qiladi. Bundan tashqari, sharqona demokratiya, siyosiy tartibsizliklar, bosh-boshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlarga zid deb qaraydi hamda jamiyat va

davlatning ichki masalalari – har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralagan holda o‘z faoliyatini o‘ziga xos madaniyat tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yadi.

Demokratiyaga o‘tmish saboqlari va hayot tajribasi asosida izchil-ilmiiy qarash shundan iboratki, umuminsoniy nuqtai nazardan haqiqatan ham demokratiya bitta: ammo bu birlik shuning uchun ham hayotiyki, u milliy sharoitlar, mintaqaviy xususiyatlar va qit‘aviy farq-tafovutlarni inobatga oladi, ya‘ni kishilarning, jamiyatning amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. Barcha mamlakatlar, hamma xalqlar demokratiyaga intiladilar, demokratik tartib-qoidalarni o‘zlarining muayyan sharoitlarida qo‘llash va turmushga tatbiq etishning eng ma‘qul yo‘llari va usullarini topishga harakat qiladilar. Ana shu jahon bo‘ylab borayotgan ommaviy harakat o‘zining muayyan shakl va mazmuniga ega ko‘rinishlarini beradi. Shu ko‘rinishlardan biri sharqona demokratiyadir.

Sharqona demokratiyaning mustaqil O‘zbekistonda qo‘llanila boshlashi xalqimiz tomonidan katta ko‘tarinkilik bilan qabul qilindi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matni o‘qing;
- b) reja tuzing;
- c) tuzgan rejangiz asosida matnning mazmunini so‘zlab bering;
- d) matndan bo‘g‘langan qo‘shma gap turlarini aniqlang.

OILA – JAMIYAT TAYANCHI

Oila – jamiyat tayanchidir. Bu muqaddas maskanda inson dunyoga keladi, aynan mana shu yerda u ma‘naviy va axloqiy jihatdan kamol topadi. Shuning uchun bu qo‘rg‘onning mustahkam va barqaror bo‘lishiga erishish nafaqat ma‘lum bir mamlakat doirasida, balki dunyo miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 1994-yildan e‘tiboran har yili 15-may kunini Xalqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani tahsinga loyiqdir. Oila to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlikni amalga oshirish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat muhim vazifa hisoblanadi. Yurtimizda oila institutini, avvalo, yosh oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollarimizning og‘irini yengil qilish, oila farovonligini oshirish kabi maqsadlar mujassam. Mamlakatimizda oila institutining rivojlanishi va jamiyatimizda oilaning kamol topishi yo‘lida asos bo‘ladigan mustahkam qonunchilik tizimi yaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ayni shu masalaga bag‘ishlangan maxsus bob mavjud. Bu - O‘zbekiston Konstitutsiyasining XIV bobi bo‘lib, u “Oila” deb nomlangan. Mazkur bob 63-66-moddalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida quyidagi g‘oyat muhim huquqiy norma belgilab qo‘yilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”. Odatda oilaning vujudga kelishida nikoh asos bo‘ladi. Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish qiyin, chunki u turmushning juda muhim qismidir. Ota-onalar va bolalar har taraflama jipslashgan oila birligini tashkil qiladi. Ular oilaning negizi hisoblanadi. Oila – jamiyatning asosi ekan, ezgulik yo‘lini tanlagan ana shu jamiyatimizda oilalar faqat yaxshilik urug‘idan

vujudga kelsin. Zero, jamiyat mustahkam, ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lom oiladan g'oyatda manfaatdor.

Yoshlikning qadri. Odamzodning tabiati shundayki, bugungi kun bilangina emas, ko'pincha kelajak bilan – ezgu umidlar va go'zal orzu havaslar bilan yashaydi, yaxshi kunlarni va osuda damlarni qo'msab, unga intilib yashaydi. Ha, inson orzularining cheki yo'q. U doimo ertangi kuniga umid-ilinij bilan boqadi. Bunga erishish esa, eng avvalo, yoshlikning nechog'lik oqilona kechishiga bog'liq.

Yoshiik g'oyat bebaho, lekin tez o'tib ketadigan boylik. Yoshiik inson hayotida eng murakkab va nozik, eng ma'suliyatli va g'animat davr. Ya'ni tabiatda nima ekilsa, shu olinganidek, yoshlik ham inson taqdiri va kelajagini belgilashda hal qiluvchi davr. Shu bois yoshligingizni samarali ishlarga sarflang, uni behuda o'tkazmang. Ko'p o'qing, o'rganing. Olgan bilimlaringiz kelajagingizda asqotadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

XIV bob. Oila kodeksi

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

(“Xalq so'zi” gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son; O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 5-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 3-4-son, 27-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011-y., 12G'1-son, 343-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 15-son, 152-modda; 2008-y., 52-son, 510-modda; 2011-y., 16-son, 159-modda; 2014-y., 16-son, 176-modda)

205-topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

OTA VASIYATI

Qadim zamonda bir kambag'al kishi yashagan ekan. Uning hovlisida uch-to'rt tup toki bor ekan. Bu kishi tokdan olgan hosilini sotib tirikchilik qilar ekan. Bir kuni u kishi kasal bo'lib yotib qolibdi. U yolg'iz o'g'lini chaqirib, shunday debdi:

- O'g'lim, mening o'limim yaqinlashganga o'xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni yaxshilab eslab qol. Gapim shuki, tokimizning tagiga ikki joyga ikki

xum tilla ko'milgan. Shu tillani ikki marta – bahorda va kuzda kavlab olib, tirikchilingga yaratgin, shu bilan boyib ketishing mumkin.

Otasi shu gaplarni gapirib bo'lib, olamdan o'tibdi. Bahor kelibdi. Yigit ketmonni qo'lga olib, toklarning tagini kavlay boshlabdi. Oltin chiqmabdi. Shu orada toklar ko'karib, uzum qilibdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to'xtatibdi, toklarni parvarish qilibdi.

Shu yil tok juda ko'p uzum qilibdi. Uzumlarni yigit sotib, ancha pul to'plabdi. Kuz kelibdi. Yigit yana tokning tagini kavlab, oltin qidira boshlabdi. Bahorda yana hamma yog'ini kavlabdi. Hech narsa topilmabdi. Lekin tok ikkinchi yili yana juda ko'p hosil qilibdi. Uzumlarni sotib, yigit boyib ketibdi.

Kuz kelganda yana yigit qo'lga ketmon olib, kavlay boshlaganida otasining do'sti kelib qolibdi. Yigit otasining gaplarini unga aytib beribdi. Shunda keksa otaxon:

-Bolam, otang aytdi oltinlarni kavlab olibsan-ku,- debdi.

-Yo'q, men hech qanday oltin topganim yo'q,-debdi.

-Axir sen boyib ketding, chunki yilda ikki marta tokning tagini kavlab, uning hosilini oshirding. Otang aqli odam edi, uning aytdi oltinlari sen mehnat qilib topgan pulingdir,- debdi.

ZAKOVATLI OILADA KEKSALARNING O'RNI

O'zbekistondagi oilalarning aksariyat qismi oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi va jipsligi bilan ajralib turadi. Bunda oilaviy munosabatlar o'zoro hurmat, bir-birini tushinish, qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Ta'kidlash joizki, aynan shunday muhitda yoshlarda aql-zakovat qirralari ildiz otadi. Shuningdek, ularga umuminsoniy qadriyatlar, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ya'ni insoniylik, mehr-sahovat, xushmuomalalik, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda muomala madaniyati va axloq qoidalariga rioya qilish kabi hislatlarni singdirish imkoniyatlari kengayadi.

Bobo va buvilar o'zidan keyingi avlodlarning mukammal tarbiya olishi, risoladagiday tarbiya ko'rishi uchun o'zini javobgar his qilishadi. Ular o'z nabiralarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash, bu borada o'z burchini ado etish uchun imkonida bor sarmoya va tadbirlaridan beminnat va sahovat bilan foydalanishadi. Mamlakatimizda tarixan shakllangan madaniy an'analar o'zbek oilalari a'zolarining roli va majburiyatlariga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, buyuk Amir Temur ham o'z nabiralari uchun juda qayg'uradigan inson bo'lgan. Sohibqiron saltanatida nabira dunyoga kelganida go'dakka va uning onasiga maxsus parvarish, g'amxo'rlik an'anaga aylangan. Nabiraga sulola va saltanatning davomchisi sifatida e'tiqod va ehtirom ko'rsatilgan.

Amir Temurning tarjimai holiga doir bir misol fikrimizga dalil bo'la oladi.

206-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling.

Jamiyat [fuyushma, guruh] – biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma. Ijtimoiy tashkilot. Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichida moddiy boyliklar

yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlarning majmuyi. Kuchli fuqarolik jamiyati.

Fundamental [lot. fundamentalis – asos (negiz) bo‘luvchi] – chuqur tekshirilgan, asosli, teran, eng muhim, bosh. Har qanday fundamentalistik harakatlarni goralash.

Maslahat [umum manfaati; foyda] – biror ishni qanday qilish yoki umuman nima qilish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riq tarzidagi fikr. mulohaza, tavsiya, taklif tarzidagi gap. O‘zaro maslahat.

O‘tmish – kishi, xalq hayotining o‘tgan qismi, shu o‘tgan davridagi hayoti. O‘tmishdagi hayot.

Andisha [fikr, o‘ylash] – keyinini, oqibatini o‘ylab yoki yuz-xotir qilib yuritilgan mulohaza. 2. Sharm-hayo, or-nomusgaamal hissi. O‘zbekcha andisha.


Shakl [ko‘rinish, usul] – narsaning tashqi ko‘rinishi, sirtqi qiyofasining ifodasi; ma‘lum ko‘rinish, qolipdagi narsa, figura. O‘zigaxos shaklda namoyon bo‘lish.

Sharoit [shartlar; tartib-qoidalar] – obyektiv holdagi muayyan vaziyat. Biror narsaning, voqeaning, bo‘lishiga ta’sir etuvchi holat, imkoniyat. Tarixiy sharoit.

Yuksalish – taraqqiy etish, o‘shish, yuksak darajaga erishish. Iqtisodiy yuksalish.

Saboq [tortishuv, musobaqa] – dars, mashg‘ulot, bilim. 2. Ibrat, o‘rnak, namuna bo‘ladigan, hayot tajribasini oshiradigan ish, harakat, voqea-hodisa. Saboq oldim.

“KONSTITUTSIYA” kalit so‘ziga tuzilgan “Klaster”
(taxminiy variant)



▲

**Grammatik mavzu: RASMIY-IDORAVIY USLUB
VA UNING XUSUSIYATLARI
RASMIY USLUB**

Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan, qarorlar, qonunlar, ustavlar, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, adres, tavsifnoma, hisobot kabi hujjatlar ham rasmiy uslubda bo'ladi. Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuzuladi. Rasmiy uslubning ham o'ziga xos leksik va grammatik xususiyatlari mavjud: so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy uslubda ko'pincha darak gaplardan; qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Shuningdek, bu uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qiladi. Rasmiy uslub rasmiy ish qog'ozlari – hujjatlari yuritish yo'llarini o'rgatuvchi nutq uslubidir. Hujjatshunoslik davlatchilik bilan bog'liq bo'lib, uning ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Har bir davlatning hujjatlari uning davlat tilida yoziladi. Hujjatlarni to'g'ri va benuqson yozishish insonning yozma nutq madaniyati va savodxonligining ko'rsatkichidir. Har qanday hujjat o'z yozilish shakli va zaruriy qismlariga ega. Umumta'lim maktablarini tugatgan o'quvchilar ish qog'ozlarini to'g'ri yozish va rasmiylashtirishni bilishlari kerak.

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi.

Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxonada, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozlari singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Rasmiy uslubning asosiy belgisi: jumalarning bir qolipda, bir xil shaklda ixcham bo'lishi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi, ko'pchilikka ma'lum, ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi.

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrozlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot uzatish va da'vat etish buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi. Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi. Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qiladi. Gaplar ixcham va aniq bo'ladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, "ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G. Mo'minov haqiqatdan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi".

207-topshiriq. Berilgan so'zlarning rasmiy uslubda qo'llanadigan sinonimini toping va ular ishtirokida rasmiy xabar(matn) tuzing.

Vatan, yurtboshi, mehmon bo'lmoq, suhbat, munosabat, mehmonlar, so'z yuritmoq, turli mavzular, tantanali, tomosha qilmoq, xursand bo'lmoq, rahmat ayimoq.

208-topshiriq. So'zlarning mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. Ularning uslubiy farqini tushuntirib bering.

1. *Ma'naviy qadriyatlarining (tiklamoq, qurmoq, ko'tarmoq) ularning hozirgi (dunyo, olam, jahon) va axborot (taraqqiyoti, sivilizatsiyasi, rivoji) qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi.* 2. *Konstitutsiyamiz (buyuk, katta, ulkan, ulug') Amir Temur (zamon, davr, payt, vaqt)ida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarini o'zida (aks ettirmoq, ko'rsatmoq, yoritmoq, namoyon qilmoq).* 3. *O'zbek millati (azaldan, qadimdan, tarixdan, oldindan) o'z fikri, o'z istiqloli uchun (urushmoq, talashmoq, kurashmoq, olishmoq) yashaganlar.* 4. *Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgan buyuk Turon – Movarounnahr (yer, hudud, maydon, zamin)ida (qadim, o'tmish, oldin, ilgari)da xorijliklar, nafaqat tijorat bilan shug'ullanar, balki ilm-ma'rifat, madaniyat durdonalari va davlatchilik asoslari bilan ham tanishar edilar.* 5. *Maqsadimiz o'zining ulug'vorligi, haqqoniyliги bilan hammamizni (jalb etmoq, diqqatni tortmoq, qaratmoq, rom qilmoq) kerak.* 6. *Ajdodlar vasiyatiga (sodiq, sadoqatli, vafoli, vafodor) va (mos, munosib, bop, loyiq) bo'lishimiz kerak.*

209-topshiriq. Matnni tarjima qilishda ijodiy yondashing. Qanday uslubdan foydalanganingizni izohlab bering.

Одно правило в жизни должно быть у каждого человека: надо прожить с достоинством, чтобы не стыдно было вспомнить.

Ради достоинства в жизни надо уметь отказываться от мелких удовольствий. Уметь извиняться, признавать перед другими ошибку – лучше, чем юлить и врать.

Думая только о себе, человек найдёт тысячу причин чувствовать себя несчастным, поэтому нельзя жить только для себя.

Второе правило – надо действовать. Если человек в совершенстве овладеет каким-нибудь ремеслом, работа приносит ему счастье.

Третье правило – надо верить в силу воли. Тот, у кого достаточно смелости захотеть, может изменить своё будущее. Не менее важно и четвёртое правило – надо хранить верность. Надо быть из тех людей, которые никогда не подводят.

Жизнь – прежде всего творчество, но это не значит, что каждый человек, чтобы жить должен родиться художником. Творчество тоже можно творить. Можно творить просто добрую атмосферу вокруг себя, атмосферу радости. Вот это и есть творчество.

210-topshiriq. 10 tadan har bir uslubga xos so'zlardan misol yozing.

So'zlashuv uslubi	Ommabop uslub	Ilmiy uslub	Rasmiy uslub	Badiiy uslub
betayin	mazkur	Unsur	bayonot	suluv

211-topshiriq. Quyidagi gap qurilmalari ishtirokida gaplar tuzing. Ushbu gap qurilmalari qaysi uslubda keng qo'llaniladi, boshqa uslublarda ularning qanday variantlaridan foydalanamiz?

- + *-ishi ahamiyatga molik.*
- + *-ish joiz.*
- + *-ishga bog'liq.*
- + *-ganini bilamiz.*
- + *-ish lozim (darkor).*
-shu qadar..... + *ki,*.....
- Nafaqat....., balki.....
- + *ga ega.*

212-topshiriq. Berilgan tarjimaiy holni o'qing. Yozuvchining rasmiy uslubda tarjimaiy holini yozing. Ular o'rtasidagi uslubiy farqlarni sharhlab bering.

Men qaysi yilda va qaysi oyda tug'ilg'onimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechirguvchi bir oilada tug'ilib, yaqinlarimning so'zlariga qaraganda, mustabid Nikolayning taxtga o'tirgan yilida tug'ilg'onman. Boshida boy oilada tug'ildimmi yoki kambag'al oiladami. albatta bilmadim. Ammo yoshim yetti-sakkizga yetgach, qornim oshga to'ymaganidan, ustim tuzukroq kiyim ko'rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog'i faqat 80 yoshlik bir chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan... Yoshim 9-10 larga borgandan so'ng meni maktabga yubordilar. Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoqlik kechirgani vajidan 12 yoshimda meni bir boyga xizmatchilikka beradilar. Xo'jayinim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladigan odamga muhtoj edi. Shu ta'ma bo'lsa kerak, meni o'rus maktabiga yubordi. ... Akam duradgorlik, ya'ni toqichilik hunariga o'rgata boshladi. 2-3 yil chamasi shu toqichilik va bog' ishlari bilan bo'lib yurdim. 1912- yilda manafaktur bilan savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so'm harohariga prikazchik bo'lub kirdim. Va shul xo'jayinda 1915- yilgacha xizmatda bo'ldim. ... tatarlardan chiqadigan gazetani o'qib, dunyoda gazeta degan gap borligiga imon keltirdim. 1913- yilda o'zbekcha "Sadoyi Turkiston", "Samarqand", "Oyna" gazetalari chiqa boshlagach, menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi.

... 1913- yillarda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'onimni o'zim ham payqamay qoldim...

1915- yilda xo'jayinimning ishi to'xtab, do'koniga pechat tushdi. Shuning bilan mening prikazchilik taqdirim hal qilinib, uyga qaytdim.

21. Nutqiy mavzu: O'zbekistonda oliy ta'lim

Grammatik mavzu : Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMI

Ta'limning o'z ichiga maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limini qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizimi harpo etiladi. Oliy kasb-hunar ta'limining bakalavrlar va magistrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi ikki bosqichli tizimi joriy etiladi. Aspirantura va doktorantura faoliyati rivojlanib boradi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo'yicha raqobathardosh ta'lim muassasalari vujudga keltiriladi. Ta'lim muassasalarini hududiy yo'nalishga o'tkazish va tarkibiy tuzilmasini o'zgartirish ishi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish va uning samaradorligini baholash monitoringi amalga oshiriladi. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ustuvorligi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim

Maktabgacha ta'lim, 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy maqsadlari:

- Bolalarni milliy, umuminsoniy va madaniy qadriyatlar bilan tanishtirish;
- Bolalarga yuqori ma'naviy va odob-axloq asoslarini shakllantirish;
- Bolani intellektual rivojlantirish;
- Bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini mustahkamlash;
- Bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirish.

Umumiy o'rta ta'lim

Boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar), umumiy o'rta ta'lim (1-9-sinflar).

Boshlang'ich ta'lim O'zbekistonda majburiy, bepul va barchaga taalluqli hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim kerakli bilim hajmi, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, tashkiliy mahorat va amaliy tajriba poydevorini qo'yib, boshlang'ich professional yo'nalish va ta'limning keyingi pog'onasini tanlashda ko'maklashadi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi kunduzgi ko'rinishda ikki yo'nalishda akademik litseylarda va kasb-hunar kollejlarda amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlari	Akademik litseylar
Majburiy, 3-yil, 3 ta bosqich	Majburiy, 3 yil, 3 ta bosqich
O'rta maxsus va kasb ta'limini beradigan o'quv dargohidir. Kasb-hunar o'rgatilib, malaka shakllantiriladi	O'quvchilarning bilimlari, aqliy saohiyatini oshirishga qaratilgan, ularning imkoniyatlari va qiziqishlari asosida yo'naltirilgan
O'quv yili ikki semestrda iborat	O'quv yili ikki semestrda iborat
Kasb-hunar kollejlari uchun mahalliy hokimiyatning bajaruvchi organlari tomonidan rivojlangan korxonaga yoki muassasalardan vastiyalar tayinlanadi	Oliy o'quv yurtlari qoshida ochiladi

Oliy ta'lim

Universitetlar, akademiyalar, institutlar. (Bakalavriat, magistratura)

Universitet	Akademiya	Institut
Oliy va undan keyingi ta'lim uchun ta'limni bir nechta yo'nalishda beradi	Ta'lim sohasida belgi-langan oliy va oliy ta'limdan so'nggi ta'lim	Oliy va oliy ta'limdan keyin o'quv dasturlarini bajarishni ta'lim va fanning ma'lum bir me'yorida amalga oshiradi
Turli sohalardagi mutaxassislarining malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi	Belgilangan tartibda mutaxassislarining malaka-sini oshiradi va qayta tayyorlaydi	Mutaxassislarni ma'lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanadi
Fanning turli yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi	Fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarni olib beradi	Fundamental va amaliy tadqiqot ishlarni olib boradi
Ilm sohasiga bog'liq metodik markaz hisoblanadi	O'z faoliyati doirasida yctakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi	

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1992-yil 28-fevraldagi "Respublikada yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etish to'g'risida"gi farmoni asosida Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Guliston davlat universiteti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, bir necha institut hamda ularning filiallari ochildi. Respublikada bugungi kunda jami 76 oliy o'quv yurti faoliyat ko'rsatmoqda. Shulardan 3 tasi akademiya, 20 tasi universitet, 37 tasi institut, Itasi konservatoriya, 2 tasi oliy maktab (texnik, milliy raqs) va 8 ta respublika, chet el oliygohlar filiallari: Toshkent tibbiyot akademiyasining Farg'ona va Urganch, Toshkent tibbiyot pediatriya institutining va instituti Nukus filiallari, Rossiyaning I. Gubkin nomidagi Neft va gaz universiteti, M. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti hamda G. Plexanov nomidagi Iqtisodiyot akademiyasining Toshkentdagi filiallari. Shuningdek, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, Vestminster universiteti, Toshkent shahridagi INHA universiteti hamda Turin politexnika universiteti. Bulardan tashqari bir necha maxsus Oliy harbiy bilim yurtlari ham ko'rsatmoqdalar.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar instituti. Mustaqil izlanuvchilik. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy tadqiqot muassasalarida olish mumkin. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.

• Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi;

- Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

- Uzliksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo’lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlari va faoliyat ko’rsatish muhitini o’z ichiga oladi;

- Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

- Ishlab chiqarish – kadrlarga bo’lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

213-topshiriq. O‘zbekistondagi oily ta’lim muassasalari haqida ma’lumot tayyorlang.

214-topshiriq. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida yozing.

215-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasidagi ta’lim bosqichlari haqida so‘zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

216-topshiriq. O‘zingiz o‘qiydigan fakultetning ilg’or talabalari haqida maqola yozing.

O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari

Turizm va xizmat ko’rsatish sohalari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, jumladan, yalpi ichki mahsulot hajmini ko’paytirish, aholi bandligini ta’minlash va daromadlari o’sishiga bevosita ta’sir ko’rsatadigan omillardan hisoblanadi. Hozirgi paytda dunyo bo’yicha turizm sohasida 235 milliarddan ziyod kishi ishlaydi, sayyohlik xizmatlaridan tushadigan daromad 1,4 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Bu esa barqaror va yuqori haq to’lanadigan ish o’rinlarini yaratishda turizmning imkoniyatlari ancha yuqori ekanligini ko’rsatadi.

Butun jahon turistik tashkilotlar ma’lumotlariga ko’ra, dunyo bo’yicha 2016-yilda jami 1230 mln AQSh dollari, xalqaro turistlar qabul qilingan tushumlar \$1270 mlrd. AQSh dollarga yetgan va bu 2015-yilga nisbatan 6 % ga o’sishni ko’rsatmoqda. 2016-yilda xalqaro turistlarni qabul qilish bo’yicha birinchi o’rinda Fransiya tursa, 2 va 3-o’rinlarda mos ravishda AQSh va Xitoy mamlakatlari turibdi.

Turizm aholi bandligini ta’minlash, ayni paytda mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbayiga aylanmoqda. Bugunga kelib mamlakatimizda mehmonxona xo’jaligi yanada taraqqiy etmoqda.

“Mamlakatimizga 2016-yilda dunyoning 100 dan ortiq davlatlaridan sayyohlar tashrif buyurdi va ularning yillik soni 2 milliarddan oshdi. O’tgan ikki yil

mobaynida bu ko'rsatkich 60 foizga o'sdi, joriy yilning birinchi yarmida esa 3 milliarddan ortiq sayyoh yurtimizga tashrif buyurdi.

2016-yilda sayyohlik xizmatlari eksporti hajmi 800 million AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi. Bugungi kunda turizm sohasida 200 mingdan ortiq kishi mehnat qilmoqda, bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 4 foizdan oshdi.

O'zbekistonda 770 ta sayyohlik kompaniyasi – turoperatorlari faoliyat yuritmoqda, mamlakatimizdagi tarixiy obyektlar, arxitektura va shaharsozlik obidalarining aksariyatini qamrab olgan 300 ta xalqaro sayyohlik yo'nalishi bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda. Bu yo'nalishlarning 65 tasi tarixiy – madaniy meros obyektlari, 30 tasi tabiiy – rekreatsion, 15 tasi sog'lomlashtirish turizmi elementlarini o'z ichiga olgan ekologik yo'nalishlardir. Hozirgi payda yurtimizda 70 mingdan ziyod o'ringa ega bo'lgan 500 dan ortiq mehmonxona, motel va kempinglar sayyohlarga xalqaro standartlar bo'yicha xizmat ko'rsatmoqda”.

217-topshiriq. Siz o'qiyotgan fakultet (bo'lim) haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yozing. Ushbu ma'lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.

218-topshiriq. Oliy ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqola yozing.

219-topshiriq. Oliy ta'lim terminlar lug'atini tuzing.

OLIY O'QUV YURLARINI JOYLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING JAHON TAJRIBASI

Ma'lumki, oliy o'quv yurtlari zamon talablariga javob beradigan, mamlakatning ilmiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlay oladigan malakali va raqabodosh kadrlarni yetishtirish uchun tashkil etiladi. Oliy o'quv yurtlarini joylashtirish va rivojlantirishda jahon tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlarda oliy o'quv yurtlarini tashkil qilish va joylashtirishda quyidagi omillar hisobga olinadi: poytaxt omili; tarixiy omil; ixtisoslashuv omili; kadrlarga talab-extiyoy omili; geografik o'rin va ekologiya omili; mintaqaviy omil; professor-o'qituvchilar sifati va boshqa omillar.

Poytaxt omili. O'pchilik mamlakatlarda kadrlar tayyorlash masalasida poytaxtlar alohida o'rin egallaydi. Buni Fransiya, Niderlandiya, Avstriya, Sharqiy Yevropa davlatlari, Rossiya Federatsiyasi va boshqa qator mamlakatlar misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda “poytaxt omili” ta'lim tizimida juda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2015-yildagi ma'lumotlariga asosan hisob-kitoblarimizga ko'ra, Toshkent shahri hissasiga respublikamizda mavjud oliy ta'lim muassasalarining 47,6 foizi va talabalarning 40,5 % to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalari sonini ham, ulardagi mavjud talabalar miqdorini ham Toshkent shahrida naqadar yuqori darajada

konsentratsiyalashganligidan dalolat beradi. Hech bir rivojlangan bunday holat kuzatilmaydi.

Tarixiy omil. Mazkur omil ta'limning u yoki bu mamlakatlarida ancha vaqt ichida rivojlanib kelayotgani bilan bog'langan. Bunga misol tariqasida Buyuk Britaniyada Oksford va Kembridj universitetlarini, shuningdek, AQSh ning Garvard, Fransiyaning Sarbon, Rossiya Federatsiyasining Moskva Davlat universitetlarini ko'rsatish mumkin.

O'zbekistonda bir asr mobaynida faoliyat ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasasi mavjud emas. Lekin, 90 yildan ortiq tarixga ega bo'lgan O'zbekiston Milliy universiteti, nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida kadrlar tayyorlash va ta'limini rivojlantirishda uzoq yillar mobaynida beqiyos rol o'ynab kelmoqda.

Ixtisoslashuv omili. Ushbu omil ta'sirida u yoki bu yo'nalishi, mutaxassisligi rivojlanadi va takomillashadi. Natijada ushbu bakalavriatura yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligida umumjahon miqyosida katta yutuqlarga erishish uchun yetarli sharoit va zamin yaratiladi.

O'zbekistonda ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari yoki ularning filiallari Navoiy, Chirchiq, Zarafshon, Olmaliq shaharlarida mavjud bo'lib, ular kon metallurgiya sanoati bilan bog'langan.

Mintaqaviy omil. Ma'lumki har bir mintaqa mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy bir qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqalar ixtisoslashuvi va iqtisodining majmual rivojlanganlik darajasi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda ma'lum bir mintaqalar doirasida iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlatish, hissalarini ko'tarish, vazifalari qo'yiladi. Ushbu vazifalarni hal etishda kadrlarning, eng avvalo oliy toifali kadrlarning o'rni beqiyos.

Geografik o'rni va ekologiya omili. Mazkur omil ta'lim tizimini hududiy joylashtirishda, unga xos yo'nalishlar va mutxassisliklarni tashkil etishda muhim rol o'ynashi lozim. Bu, ayniqsa, o'qtuvchilar tayyorlashda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, foydali qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari, ishlab chiqarish va qayta ishlash tarmoqlari, konchilik va neft-gaz ishi yo'nalishlarida qo'l keladi.

Kadrlar sifati omili. Mazkur omil oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishda, ularni mintaqalar bo'yicha joylashtirish, ta'limning sifat ko'rsatkichlarini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari mehnat bozorida kasb faoliyatini boshlashga qay darajada tayyorgarliklari ularning umumiy ta'lim va kasb tayyorgarligi darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Bozor munosabatlari sharoitida istalgan raqobatga bardosh bera oladigan yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashda kadrlar sifati ko'rsatkichlarini takomillashtirish talab etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalari tizimidagi islohotlarda oliy o'quv yurtlarining joylashuvini, bakalavriatura yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari reja ko'rsatkichlariga mahalliy shart-sharoitlar va omillarni hisobga olgan holda aniqlik kiritish masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu, xususan, oliy o'quv yurtlari talabalarining mintaqalar bo'yicha taqsimotida; ta'lim yo'nalishlari bilan ular joylashtirilgan mintaqalar iqtisodiyotining ixtisoslashuvi o'rtasidagi

nomutonositliklarda; ta'lim yo'nalishlariga oid ko'rsatkichlarni belgilashda mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy-madaniy rivojlanishi xususiyatlarini hamda mintaqa mehnat bozoridagi talab va taklif to'liq hisobga olinmaganligida o'z aksini topadi.

220-topshiriq. Haftalik dars jadvalingizni o'zbek tilida yozing, fanlarning o'zbekcha nomlanishiga e'tibor bering.

Grammatik mavzu: USLUBIY XOSLANGAN VA USLUBIY BETARAF SO'ZLAR

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi **nutq uslubi** hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra **uslubiy xoslangan** va **uslubiy betaraf** so'zlarga bo'linadi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar **uslubiy xoslangan so'zlar**, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa **uslubiy betaraf so'zlar** deyiladi.

O'zbek tili lug'at tarkibidagi ba'zi so'zlar so'zlovchining turli hissiy munosabatini ifodalashi mumkin, ba'zi so'zlarda bunday xususiyat yo'q. Yuqoridagi so'zlar bir tushunchani ifodalasa-da, ular uslubiy bo'yoqdorligi jihatidan farqlanadi. Ya'ni, so'zlovchi qanday vaziyatda va qanday maqsadda fikr bayon qilmoqchiligiga qarab sinonimik qatordagi bir so'zni tanlab qo'llaydi. Bunday so'zlar tilning ma'lum uslubiga xos bo'lishi mumkin.

Masalan, rasmiy vaziyatda **tamaddi qilmoq, tanovvul qilmoq**
ilmiy uslubda **iste'mol qilmoq**
oddiy so'zlashuvda **yemoq, olmoq (tushirmoq, urmoq)** kabi.

Sinonimik qatorda ba'zi so'zlar uslubiy bo'yoqqa ega bo'lmaydi va **uslubiy neytral bo'ladi**

E'tibor bering:

Boshliq, rahbar, rahnamo, yo'lboshchi, kattakon, sardor, peshvo;

Kuch, quvvat, mador, majol, darmon;

Chidam, bardosh, to'zim, **sabr**, matonat;

Uslubiy bo'yoqdor so'zlar ijobiy yoki salbiy ma'nolarni ifodalashi **mumkin**. Masalan, ozg'in- **qiltiriq**, kulmoq - **jilmaymoq** kabi.

Tilning lug'at tarkibidagi so'zlar nutqning biror uslubiga xoslangan bo'lishi yoki nutq uslublariga betaraf bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra lug'aviy birliklar ikki guruhga bo'linadi: uslubiy betaraf so'zlar va uslubiy xoslangan so'zlar.

Uslubiy betaraf so'zlar nutq uslublarining birortasiga xoslanmay, baq'rcha uslublarda birdek qo'llanaveradigan lug'aviy birliklardan tashkil topadi: *havo, suv, daraxt, bir, ikki, hamma, biz, siz, turmoq, yugurmoq* kabilar shular jumlasidandir.

Nutqning ayrim uslublari uchungina xizmat qiladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar deyiladi. Bunday maxsus so'zlar dastavval og'zaki nutqda yoki yozma nutqda qo'llanishiga ko'ra ikkiga ajraladi.

Masalan, *hazar qilmoq, birlashmoq, hunar, o'rin, arzimagan* soʻzlari koʻproq ogʻzaki nutqda qoʻllansa ularning sinonimlari boʻlgan.

Nutqning konkret tili shakllanishida leksik birliklarni oʻrinli tanlash muhim ahamiyatga egadir. Tilning amaldagi konkret holati individual nutqiy faoliyatdir, vaziyatlar shaklida mavjud boʻlsa-da, aslida ushbu koʻp sonli individual nutqlar nutqiy faoliyat jarayonlarida amal qiluvchi bunday qonuniyatlar individual nutqiy faoliyat koʻrinishlarining maʼlum tipik holatlarga, yoʻnalishlarga birlashishini koʻrsatadi. Til lugʻat sostavidagi soʻzlarning nutq uslublariga aloqasi turli darajada boʻladi. Tilda shunday soʻzlar borki, ular keltirilgan nutq uslublarining barchasida yoki koʻpchiligida baravar qoʻllanaveradi.

Soʻzlashuv uslubi leksikasi. Soʻzlarning bu guruhga mansub koʻrinishlari quyidagilar:

- oddiy soʻzlashuvga xos dialektizmlar;
- oddiy muomalaga oid soʻzlar;
- leksik eliptizmlar;
- soʻzlarning qisqarish bilan yasalgan shakllari;
- evfemizmlar;
- erkalov soʻzlar;
- dagʻal va qoʻpol soʻzlar;
- jargonlar;

oddiy soʻzlashuv uslubiga xos turgʻin iboralar.

Qadimgi soʻzlar guruhi oʻz qoʻllanish stajiga koʻra ikki xil:

- a) Eng qadimiy soʻzlar;
- b) Yangi soʻzlar;

Eng qadimiy soʻzlar turkiy tillardan, jumladan oʻzbek tili uchun asos boʻlgan qadimiy dialektlarda uzoq oʻtmishlardan beri mavjud boʻlgan va hozirda ham qoʻllanuvchi soʻzlardir: muz, bugun, chayon, mok, yalang, yangi, kech kabi.

Eski soʻz tushunchasini soʻzlarning eskirishi tushunchasidan farqlash lozim.

221-topshiriq. Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. Soʻzlarning uslubiy boʻyogʻiga qarab ularni toʻgʻri qoʻllang.

Xunuk - badbashara, xafa boʻlmoq - kuyinmoq, tugʻilmoq - dunyoga kelmoq, yashirin - xufiya, katta - azim, boʻshatmoq - ozod qilmoq, kirish -muqaddima, kamtarin - xokisor, butunlay - mangu, doim - abadiy.


222-topshiriq. Berilgan soʻzlarni uslubiy toʻgʻri qoʻllab ular ishtirokida birikmalar tuzing.

1. **Yuqori** (lavozim, uy, mehmonlar, hurmat, daraja, mukofot).
2. **Ulugʻ** (inson, gʻalaba, ehtirom, bayram, ishonch).
3. **Keng** (imkoniyat, soha, dunyoqarash, yoʻl, daftar, qalb).
4. **Qalin** (odam, doʻst, kiyim, qor, qatlami).
5. **Qiziqarli** (odam, voqea, kitob, dalillar, gapirmoq, boʻlmoq).

22. Nutqiy mavzu: Ilm maskanimiz hayotidan

Grammatik mavzu: Soʻzlashuv uslubi va uning xususiyatlari.

Shevaga xos soʻzlar



UNIVERSITETIMIZ TARIXIDAN

Hozirgi payt jamiyat taraqqiyoti shuni koʻrsatadiki, fuqarolik jamiyati taraqqiyoti zamon talabiga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi.

1918-yilda Oʻzbekistonda iqtisodchi xodimlarning shakllanishiga asos solingan. Oʻrta Osiyodagi xalq taʼlimining birinchi ilm oʻchogʻi va birinchi oʻquv muassasasi hamda iqtisodchi xodimlar tayyorlashga qoʻl urgan maskan 1918-yil may oyida tashkil etilgan Turkiston milliy universitetidir.

Iqtisodchi xodimlarga ehtiyoj inqilob va fuqarolar urushi yillarida xarob etilgan oʻlkani qayta tiklash davrlarida sezilarli darajada ortib ketdi. Mutaxassislarga talab ortib borayotganligini hisobga olib, 1931-yil avgustda SSSR Xalq Komissarlar Kengashi qaroriga asosan milliy universitetning iqtisodiyot va jamiyatshunoslik fakultetlari asosida Oʻrta Osiyo moliya-iqtisodiyot instituti tashkil etildi, natijada Oʻrta Osiyo respublikalarining moliya-kredit tizimlari uchun xodimlar tayyorlab beruvchi Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti vujudga keldi.

1931-yilning birinchi sentabrida institutda birinchi qoʻngʻiroq chalinib, mashgʻulotlar universitet uchun moʻljallangan avvalgi eski binoda boshlandi.

Birinchi bino 1920-yil oxirlarida qurilgan edi. 1970-yillarda bu bino qurilishining davomi boʻldi. U yalpi oʻquv korpusi nomini oldi. Keyinroq yangi korpus bilan yonma-yon laboratoriya binosi qurildi. Unda informatika fakulteti, hisoblash markazi va bir qator laboratoriyalar joylashdi. Yangi binoda reja fakulteti va oʻquv-ilmij markaz, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali joylashgan boʻlib, u 1990- yilda qurildi.

1990-yili 14 qavatli maʼmuriy bino ishga tushdi. Talabalar yotoqxonasining 2-binosi 1970-yilda, 3-binosi 1980-yillarda qurib bitkazildi. Universitet hududida yana boshqa madaniy-maishiy binolar qurilmoqda.

1981-yilda universitet yuqori malakali iqtisodchi xodimlar tayyorlashdagi yuksak xizmatlari uchun va Toshkent xalq xoʻjaligi instituti tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan “Xalqlar doʻstligi ordeni” bilan mukofotlandi.

1991-yil iyun oyida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan Toshkent xalq xoʻjaligi instituti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga aylantirildi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- matni oʻqing;
- rus tiliga tarjima qiling;
- matnning mazmunini gapirib bering;
- turdosh oliy oʻquv yurtlari haqida taqdimot tayyorlang;

223-topshiriq. Matni o'qing va matn bo'yicha o'z fikr mulohazalaringsizni bayon qiling.

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga ko'ra Toshkent xalq xo'jaligi institutining moliya-kredit va hisob-iqtisod fakultetlari negizida Toshkent moliya instituti tashkil etildi. Institut hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning ijrosini amalga oshira borib, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos moliya, bank, soliq, sug'urta, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi, audit, menejment, kasbiy pedagogik tayyorgarlik kabi qator ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlab kelmoqda.

Institutda kadrlar tayyorlashning ko'p bosqichli uzluksiz tizimini ta'minlovchi modeli ishlab chiqilib, u o'z ichiga moliya, soliq litseylari, bank kolleji, bakalavriat, magistratura, malaka oshirish instituti, doktorantura bosqichlarini qamrab olgan. Mutaxassis kadrlar tayyorlash modelini hayotga tatbiq qilish, ularni bugungi kun zamon talablari va jahon andozalariga mos bo'lishi uchun institutning 7 ta fakulteti tasarrufidagi 26 ta kafedrada 400 dan ortiq professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, institut qoshida mutaxassislar va iqtisodchi pedagoglarning, eng avvalo, kollejlari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi yangidan tashkil qilingan. Institut kafedra va bo'limlarida 40 ga yaqin fan doktorlari va professorlar, 150 ga yaqin fan nomzodlari va dotsentlar mehnat qilmoqda.

Hozirgi kunda institut chet el turdosh universitetlari, elchixonalari bilan ilmiy-amaliy, o'quv-uslubiy hamkorlik o'rnatgan. Jumladan, AQShning Texas qishloq xo'jaligi va mashinasozlik universiteti, Yaponiya davlatining Ritsumeykan Trast, Osiyo Tinch okeani universiteti, Angliya davlatining Sterling universiteti, Rossiyaning Moskva moliya akademiyasi, Moskva davlat universiteti, S.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, Sankt-Peterburg iqtisodiyot va moliya universiteti, Lomonosov nomli davlat universiteti. Belgiya davlatining Atervepen universiteti, Germaniyaning Manxeym texnologiya instituti, Gambur informatsion texnologiya universiteti, Passav universiteti, Hindistonning Hindiston moliya instituti, Qirg'iziston Respublikasining Bishkek bank-moliya akademiyasi bilan o'zaro foydali shartnomalar asosida ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Institut professor-o'qituvchilarining mazkur ta'lim muassasalari bilan stajirovka va malaka oshirishlari yo'lga qo'yilgan.

Institut o'quv jarayoniga bozor iqtisodiyotiga oid yangi fanlar kiritilgan va ular yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitilmoqda. Xorijiy tillarni chuqurroq o'rgatishga, komputer texnikasidan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda.

Institutda talabalarning madaniy dam olishi, sport bilan shug'ullanishi va yashashlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, institutda "Ma'naviyat va ma'rifat" xonalari, "Moliyachi" sport-sog'lomlashtirish majmuasi

hamda 3 ta 18 zamon talablari darajasida ta'mirlangan va jihozlangan talabalar turar joylari ishlab turibti.

Ilm-fan – taraqqiyot manbai, jamiyat rivojini olg'a siljituvchi kuchdir. Uning vazifasi, yurtboshimiz aytganlaridek, kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratish, ertangi kunimizning yo'nalishlari, qonuniyatlari va uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat. Bugungi kunda institut olimlari "Bozor munosabatlarini tartibga solishning moliya-kredit mexanizmi" muammosi ustida ilmiy izlanish ishlarini olib borish bilan birga, O'zbekiston Respublikasi fan va texnika Davlat qo'mitasi fundamental tadqiqotlari sohasidagi muammolarni hal qilishda faol ishtirok etib kelmoqda.

224-topshiriq. "Men sevgan kasb" mavzusida insho yozing.

225-topshiriq. Zamonaviy mutaxassis qanday bo'lishi kerakligini ta'riflang.

226-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Institut - [lot. institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish] – ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi. Moliya instituti.

Iqtisodiyot - [xo'jalik masalalari; xo'jalik] – ijtimoiy tuzumning bazisi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. Respublikaning iqtisodiyoti.

Universitet - [nem. universität<lot. universitas, universitatus - jami, barchasi; majmu'a] – tarkibida bir qancha yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, ayni yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa. Toshkent davlat idtisodiyot universiteti.

Kafedra - [yun. kathedra - o'rindiq, kursi] – ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma: minbar. 2. Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. Bank ishi kafedrasi.

Fakultet - [nem. fakultät<lot.facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat] – oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi. Moliya fakulteti.

Fan - [ilm, bilim; tarmoq] – tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. Fan yutuqlari. 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. Iqtisodiy fanlar.

Ta'lim - [ilm berish; ma'lumot] – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmuvi; bilim. Oliy ta'lim.

Talaba - [talab qiluvchi] – oliy yoki o'rta-maxsus o'quv yurti o'quvchisi. Bank kolleji talabasi

227-topshiriq. Berilgan matnni o'qib tarjima qiling.

BRITANIYA UNIVERSITETLARI

Oksford universiteti Britaniyadagi eng qadimiy universitetdir. U XII asrda bir qator kollejlardan federatsiyasi sifatida tashkil etilgan. Uning tarkibiga 1249-yilda tashkil etilgan Universitet kolleji, Oll Souls, Krist Church, Oksford Katedral va birinchi qizlar kolleji Ledi Margaret Xoll kirgan.

U o'zining ajoyib kollejlardan arxitekturasi bilan mashhur. 1133-yilda shaharda ruhoniyatlarga to'liqroq ta'lim berish maqsadida universitet tashkil etish rejalashtirilgan edi. Lekin Oksford faqat Genrix II davrida haqiqiy universitet shaharchasiga aylangan. O'rta asrlarda Oksfordda faqatgina ruhoniyatlarga ta'lim olgan va ular asosan kambag'allar bo'lib, mahalliy aholida xonalar ijaraga olib yashashgan.

Hozirgi kunda universitet tarkibida 35 ta turli kollejlardan mavjud bo'lib, shulardan ikkitasi faqatgina qizlar uchundir.


1208-yilda Oksforddagi turli qo'zg'olonlardan charchagan olimlar Kembrijda o'zlarining akademik jamiyatlarini barpo etadilar. Universitet tarkibidagi eng qadimiy kolleji Peterxaus kolleji bo'lsa, eng kattasi Genri VIII tomonidan 1546-yilda tashkil etilgan Triniti kollejidir.

Shotlandiyada ham o'rta asrlarda barpo etilgan Edinburg, Glasgou, Aberdin universitetlari mavjud.

Uels universiteti 1893-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibiga oltita kollejlardan kirgan.

Eng mashhur kollejlardan Xristos cherkovi kolleji, Merton va Magdalen kollejlari. Xristos cherkov kolleji eng katta va chiroyli kollejlardan hisoblanib u 1546-yili Genrix VIII buyrug'i bilan qurilgan. Magdalen kolleji 1458-yili Venchestir kollejining o'gutuvchisi tomonidan tashkil etilgan. Bodlean Libray – Oksfordning eng katta kutubxonasi bo'lib, unda 6 mingdan ortiq kitob bor. U 1598-yili tashkil etilgan.

228-topshiriq. Toshkent iqtisodiyot universiteti haqida klaster tuzing va shu asosida matnni gapirib bering.



229-topshiriq. O'rganayotgan fanlarga o'z munosabatingizni 6-7 gap orqali ifodalang.

230-topshiriq. O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

231-topshiriq. O'zingiz o'qiydigan fakultetning ilg'or talabalari haqida maqola yozing.

232-topshiriq. Siz o'qiyotgan fakultet (bo'lim) haqida universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni yozing. Ushbu ma'lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.

233-topshiriq. Savollarga yozma tarzda javob bering.

Siz qachon va qaysi maktabni bitirgansiz? Universitetning qaysi fakultetida siz tahsil olyapsiz? Siz qaysi fanlardan test topshiriqlarini bajargansiz? Sizda hozir qanday fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'lyapti? Universitetni bitirib, siz qayerda va kim bo'lib ishlamoqchisiz?

234-topshiriq. Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Men bu haqida so'radim. 2. Dekan gapirdi. 3. Talaba topshirdi. 4. Ma'muriyat talabalar uchun hamma yaratayapti. 5. Bu maqola kim..... tarjima qilingan? 6. Yosh maslahatlarim ko'p. 7. Unda ilmga havas katta edi. 8. Uchinchi bosqich talabalari tinglayaptilar.

Tayanch so'zlar: *(imtihon, yoshlikdan, o'qituvchidan, tomonidan, ma'ruza, intizom to'g'risida, sharoitni, talabalar uchun)*

235-topshiriq. Quyidagi gaplarning xatolarini tuzatib ko'chiring.

Aql yoshga emas, boshga. Universitetda bu yil katta qurilish ishlarini olib borilyapti. Ertalab chiqqan quyoshni tushga yaqin bulut pardalari yuzini bekitdi. Xadicha xola bu gapning eshitib, boshidan ro'moli tushib ketdi. Men Narzi yonida bo'lib, uni qutqarishim kerak edi.

236-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

О СЧАСТЬЕ

По-моему, человек должен сам приближать своё счастье. Иначе говоря, надо как можно раньше и как можно смелее вступать в жизнь, помнить: Своими руками делается будущее.

.....На мой взгляд, счастье начинается с уверенности, что ты нужен людям, Родине и готов им служить. Здесь и лежит грань счастья. Ты начинаешь чувствовать себя сильнее и готов отдаться целиком делу, которое тебе доверили.

237-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы должны делать то, что требуется по закону. 2. Он понял, что для больших успехов необходимо большое старание. 3. Я возьму себе напарником того, кого вы посоветуете. 4. Вы же знаете, что я не люблю ложь. 5. Мне нравится, что ваше отношение к учёбе изменилось. 6. Нас в детстве учили тому, чтобы мы не прятались от трудностей. 7. Мать хотела, чтобы сын гордился отцом. 8. Я убедился, что он изменился за эти годы. 9. Мне жаль, что он так с тобой поступил. 10. Они поняли, что она никогда не вернётся. 11. Всем ясно, что знание – это сила. 12. Нужно признаться, что в последнее время молодёжь стала агрессивной.

238-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

Kimki bo'lsa dilozor, undan elu yurt bezor.

Kimki oro kirmas joningga, sherik bo'lmasin u shirin noningga.

Kimki ilmga qo'lini ursu, u minglab buloqni cho'l tomon burgan bo'ladi.

Ilm ko'pu umr oz, keragini olu toshga yoz.

Bilim – boylik axir, zavoldan yiroq.

Uni ola bilmas qarog'chi biroq.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur.

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim.

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Olim bo'lsang, olam seniki.

Aqli do'st – rohat, aqlsiz do'st – kulfat.

Og'zaki nutqni o'stirish uchun ma'lumot so'rash namunalari

Siz kimsiz? Siz kim bo'lasiz?	Кто вы?
Qayerda ishlaysiz?	Где вы работаете?
Kim bo'lib ishlaysiz?	Кем вы работаете?
Men o'qiyman.	Я учусь.
Men ishlayman va o'qiyman	Я работаю и учусь
Ismingiz nima?	Как Вас зовут?
Bu qaysi ko'cha?	Эта какая улица?
Bu qanday bino?	Это какое здание?
Ayting-chi, Markaziy telegraf qayerda joylashgan?	Скажите, пожалуйста, где находится Центральный телеграф?
Qayerdan telefon qilish mumkin?	Откуда можно позвонить?
Siz qayerda yashaysiz?	Где вы живёте?
Soat necha bo'ldi?	Который час?
..... qachon boshlanadi?	Когда начинается...
..... qachon tayyor bo'ladi?	Когда будет готово.....
..... necha pul?	Сколько стоит....

Ayting-chi....

.... qayerdaligini ayta olasizmi?

.... bilmaysizmi?

.... qayerdan sotib olsa bo'ladi?

Qanday yangiliklar bor?

Sizga nima bo'ldi?

Bu nima ekan?

Скажите, пожалуйста,....

Могли бы вы сказать, где....?

Не знаете ли вы....?

Где можно купить....?

Что нового?

Что с вами?

Что это такое?

239-topshiriq. "Zamonaviy mutaxassis portreti" mavzusida 500 so'zdan iborat hajmdagi esse yozing.

Grammatik mavzu: SO'ZLASHUV USLUBI VA UNING XUSUSIYATLARI. SHEVAGA XOS SO'ZLAR

SO'ZLASHUV USLUBI

So'zlashuv uslubini *adabiy so'zlashuv* uslubini va *oddiy* so'zlashuv uslubini tarzida ikkiga ajratish maqsadga muvofiq emas. So'zlashuv uslubini adabiy nutqqa qarama-qarshi turuvchi nutq ko'rinishidir. Jonli so'zlashuv nutqi yozma adabiy nutqqa yaqinlashtirilgan. Jonli so'zlashuvda adabiy nutq shakllaridan farq qiladi, ya'ni shevalarga xos til birliklari juda keng o'rin oladi.

Jonli so'zlashuvda uy-ro'zg'or, qo'ni-qo'shnihilik, qarindosh-urug'chilikda uchraydigan suhbatlardagi birliklardan foydalaniladi: mayli, mayliga, xo'p, kirib turing, so'rab qo'ying, xudoga shukur, qoyil, bo'пти, borovring, opovsi, dadasi, omon bo'ling, barakalla, yashavoring o'rgilay, ishqilib, salom ayting, qurg'ur, qotiramiz, qo'yavering kabilar ko'p uchraydi.

Adabiy nutq so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir.

Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchani talaffuzi, imlosi, qo'llanilishi, ma'nolari bilan chegaralangan. Bu meyorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish ishlari, matbuot xabarlarini adabiy nutqda amalga oshiriladi. **Adabiy nutq me'yorlarini buzish, nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir.**

Lug'aviy, grammatik uslubiy me'yorlar adabiy tilning barcha ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilariga oid me'yorlar esa faqat o'g'zaki nutq shakli uchun hosdir.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum bir sohada qo'llaniladigan, bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ko'rinishi **adabiy til uslubini** deyiladi. Uslub orqali so'zlovchi shaxslarga, narsalarga, voqealarga shaxsiy munosabatini aks ettiradi.

240-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing va jonli so'zlashuvda uchraydigan so'zlarni anglab izoh bering.

Keling Hoji bobo. Ko'rinmaysiz, kelmaysiz...

Barakallo, o'g'lim, barakallo, - dedi Hoji kursiga ehtiyotkorlik bilan o'tirayotib, - Umringiz uzoq bo'lsin. Ko'pdan ko'p xursand bo'ldim... O'g'il degan shundoq bo'lsin, otasini rozi qilsin. Ko'p xursand bo'ldim. Xo'p... Bu gilam... bu gilamni necha pulga oldingiz?

Esimda yo'q. Ancha bo'ldi olganimizga.

O'tgan hafta bozorga bir gilam chiqdi, gilammisan gilam edi-da. Bir ming uch yuzga savdo qilib, Qodiralining qo'liga olib borib berdim. Gilam tanigan odam ikki mingga indamasdan oladi (A.Qahhor).

241-topshiriq. Uslubiy me'yorning buzilish holatlarini toping.

- 1. Yurtimizning yanada rivojlanishi yo'lida saralashlarini izhor etdilar.*
- 2. Hashar – Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri.*
- 3. Yuksak sifatli mahsulotlar ishlab chiqaramiz.*
- 4. Hasharning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u beminnat, bepul, beta'ma bajariladi.*
- 5. Ayni damda to'kis va dasturxon atrofida tanavvul iste'mol qilayotgan yurtdoshlarimizga yoqimli ishtaha tilaymiz.*
- 6. Maqsadlar aniq va rayon ekanligidan dalolat beradi.*
- 7. Ulug' ustozning saboq maktabini 3 oy mobaynida o'tgan hamyurtimiz kuch va mohiyatini o'zining kimligini va nimaga qodir ekanligini isbotlay bildi.*
- 8. AQSh davlati va iqtisodiyoti uchun kichik biznesning ahamiyatligi va uning qanchalik muhimligi barcha kishilar tomonidan, asosan, hukumat organlari, davlat va shaxsiy ta'lim markazlari hamda turli xil iqtisodiy rivojlanish guruhlari tomonidan tuzilgan biznes jamoalari tomonidan kundan - kunga keng tan olinmoqda.*
- 9. Moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.*
- 10. Riga shahrining markazida... mustahkamlanib borayotgan do'stona munosabatlarning o'ziga xos tomoni bo'lib qolajakligiga ishonch bildirdi.*
- 11. Hovlingizda birorta cho'p bejo yotgan bo'lsa, dilingizga g'ashlik qo'nadi. Shahar ham ana shu hovlimizdek ardoqli, mo'tabar!*
- 12. Hamisha har bir daqiqani hisobli va rejada ekanligi bilan e'tiborinni tortgan.*
- 13. So'zlashuvida mantiqning ustunligi. suhsbatdoshiga nisbatan hozirjavoblik har jihatdan yigitlik olamini bezaydi.*
- 14. Xalqimizda ajoyib naql bor: birovni hech qachon og'ir kunda qoldirmasam, deydi.*
- 15. Dastlabki tahlilga ko'ra avtomobilni sekinlashtiradigan moslama ishdan chiqishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.*
- 16. Aksariyat bemorlar, bemorlar yotog'iga yotadilar, aksariyat jarrohlar tig'idan shijo topadilar.*
- 17. Siz mamlakatimizning eng so'nggi yangiliklaridan ogoh bo'ldingiz.*
- 18. Yo'laklar ozoda, beton ariqlar yog' tushsa yalagudek! Qurigan daraxtlar o'rniga navnihollar ekilgan, ko'chalardagi latofatga qarab ko'z to'ymaydi.*

242-topshiriq. Soʻzlashuv uslubida dialog tuzing.

243-topshiriq. Shu soʻzlar ishtirokida dialog tuzing.

Mayli, bu nimasi, jon-ponim chiqib ketti, obor o'shaqqa, qo'y endi, bobog'im, go'sho'r, o'rguldim-e, qo'y endi, choy-chaqa, ikkam o'ttiz, buni qarangki, baqqa, sho'r peshona, qurumsoq, beso'naqay, bir kam qirg, sizga yolg'on xudoga chin.

244-topshiriq. Nutqlar jarayonida soʻzlarni, gaplarni qisqartirilgan holda qoʻllanilishiga misollar keltiring.

Muhammad- Mamat, Dilfuza-Dilfuz, Bugun biznikida to'y bo'ladi, Bugun to'y.

SHEVAGA XOS SOʻZLAR

Faqat ma'lum bir hudud doirasidagina qoʻllanilib, boshqa hududda yashovchi oʻzbek tili vakillari uchun xos boʻlmagan soʻzlar hududiy chegaralangan (shevaga xos) soʻzlar yoki dealektizmlar deyiladi.

Bir millatning ma'lum hududidagina yashaydigan vakillar tomonidan ishlatiladigan soʻzlar shevaga xos soʻzlardir:

Xorazmcha: *momo* (buvi), *gashir* (sabzi), *mayak* (tuxum), *o'jak* (buzoq), *taka* (yostiqlik), *havva* (ha);

Fargʻonacha: *shatta* (shu yerda), *valish* (ishkom), *paqir* (chelak);

Buxorocha: *kallapo'sh* (do'ppi), *inak* (sigir), *nana* (ona);

Toshkentcha: *ada* (ota), *doda* (bobo) ...

Shevaga xos soʻzning bir varianti adabiy til uchun qabul qilinadi va shu soʻz imlo va orfoepik lugʻatlarda meʼyoriy soʻz sifatida beriladi.

Eskirgan soʻzlar – kundalik hayotda ishlatilmaydigan boʻlib qolgan soʻzlar eskirgan soʻzlar deb ataladi. Jamiyat toʻxtovsiz rivojlanib boradi. Yillar oʻtishi bilan mehnat qurollari, kiyim-kechak, uy jihozlarining yangi nusxalari paydo boʻladi, eskilarining baʼzilari ishlatilmaydigan boʻlib qoladi, natijada ularni ifodalovchi soʻzlar ham bora-bora juda kam qoʻllanadi yoki isteʼmoldan chiqib ketadi. Masalan: *ashu* (qizil tuproq), *ashuq* (temir qalpoq, dubulgʻa), *aqru* (sekin) ⁸. Eskirgan soʻzlar ikki guruhga ajratiladi:

Tarixiy soʻzlar – hozirda mavjud boʻlmagan narsa-hodisalarning isteʼmoldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir; bunda soʻz oʻzi ifodalangan tushuncha bilan birgalikda eskiradi: *mingboshi, ellikboshi, kamizak, omoch, dodhoh, mumsik, xalfa, mo'ndi...*

Arxaik soʻzlar – hozirda mavjud boʻlgan narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir; bunda soʻz eskiradi, lekin tushuncha eskirmaydi, u boshqa soʻz bilan ifodalanadigan boʻlib qoladi. Bunday soʻzlar istemoldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi boʻlgan soʻzlardir: *rayon* (tuman), *ekspress* (tezyurar), *ohlast* (tuman), *vrach* (shifokor), *xirurg* (jarroh), *redactor* (muharrir), *redaksiya* (tahririyat), *ulus* (xalq) va h.k.

Yangi soʻzlar – Fan-texnika va sanʼatning rivojlanishi bilan tilda yangi paydo boʻlgan tushunchalarning nomlarini ifodalovchi soʻzlar yangi soʻzlar deb ataladi:

⁸ Nurmonov A., Sobirov A., Qostmova N. Hozirgi oʻzbek adabiy tili II kitob. – T.: Ilm ziyo, 2013.

xokkeychi, limonzor, fermer, teleminora, kompyuter, disk, sayt, fayl, mikrochip, shuo, debat va h.k. bunday soʻzlarda yangilik boʻyogʻi sezilib turadi, yaʼni hali ular butun xalqimiz tomonidan bir xilda ishlatilmaydi.

1. Yevropa tillaridan kirgan yangi soʻzlar: *avizo* – hisob-kitob operatsiyasi; *aksiya* – paychiga beriladigan qimmatbaho qogʻoz; *auksion* – komoshdi savdosi; *balans* – narsalarning oʻzaro muvofiq salmogʻi; *bankrot* – qarzini toʻlashga qurbi yetmagan korxonasi; *biznesmen* – biznes bilan shugʻullanuvchi shaxs; *broker* – rasmiy dallol; *deklaratsiya* – 1) hukumat bayonoti, 2) chegaradan olib oʻtish uchun ariza, 3) daromad toʻgʻrisidagi maʼlumot; *bakalavr* – toʻrt yoki besh yillik oliy maʼlumot berish tizimi; *magistratura* – bakalavrdan soʻng chuqurlashtirilgan oliy maʼlumot berish tizimi; *dotatsiya* – davlat tomonidan beriladigan pul, yordam; *dublikat* – nusxaning koʻchirmasi, koʻpiyasi; *immigrant* – chet ellik muhojir; *konselyariya* – devonxonasi va boshqalar;

2. Arab va fors-tojik tillaridan kirgan hamda eski oʻzbek tilidan tiklangan yangi soʻzlar: *anjuman* – yigʻin, majlis, qurultoy; *bayonnoma* – rasmiy bayonot, tushuntirish; *badal* – evaziga beriladigan narsa; *boj* – chet ellardan keltirilgan mol uchun toʻlov; *buyurtma* – biror narsani ishlab berish haqida topshiriq; *vazir* – ministr, oliy mansab; *voris* – merosxoʻr; *ishbay* – bajaradigan ishiga qarab haq toʻlash; *muallif* – avtor, ixtiro yoki kitob egasi; *xatboshi* – abzas; *paychi* – aksioner, *hakam* – arbitr.

Olinma soʻzlar – Dunyoda boshqa tildan soʻz olmaydigan, faqat oʻz soʻzlari bilangina ish koʻradigan til yoʻq. Rivojlanish (sivilizatsiya) shu darajada shitob bilan amalga oshmoqdaki, dunyoning eng chekkasida yashaydigan qabilalar ham bu jarayondan cheida qolayotgani yoʻq. Natijada, ular ham boshqa tillardan kirgan soʻzlarni qoʻllashadi. Bir tildan boshqa tilga kirib oʻzlashib qolgan soʻzlar olinma soʻzlar deb ataladi. Masalan, hozirgi paytda oʻzbek tiliga kirib oʻzlashib qolgan va endi oʻzlashayotgan: *avtobus, tramvay, radio, trolleybus, televizor, institut, kollej, litsey, gimnaziya* kabi soʻzlar olinma soʻzlardir.

SOʻZ HAQIDA HIKMATLAR

Agar biz soʻz boyligini masalliqqa qiyos qilsak, nutq – dasturxonga tortilgan taom erur. Masalliq moʻl boʻlsa, osh mazali boʻlganidek, lugʻat xazinasi bisyor odamning tili biyron, nutqi ravon, suhbatini jonon boʻladir. Zero, ular ila hamsuhbat boʻlmoqlik rohati jon erur.

Chala pishgan oshning hazmi taomi qiyin kechgani kabi, gʻalib soʻzli kishining suhbatini tinglamaklik ham azobi jondir.

- taomni yemakka, soʻzni demakka shoshmang;
- ezmalikdan xazar qil, soʻzingni muxtasar qil;
- koʻp soʻzlasang soʻzning qadri oz boʻlur;
- xoʻb soʻzlasang izzat - obroʻ boz boʻlur;
- soʻzi nochorning oʻzi nochor, soʻzi muxtasarning oʻzi moʻtabardir;
- gʻiybat qilma, gʻurbatga qolasan;
- ozroq yegil, oz uxlagil, oz soʻzla;
- ozroq degil, oz boʻlsa-da, soz soʻzla;

- shirin kalom, shirin taomdan qimmatliroqdir;
- husn zoxiriy go'zallik bo'lsa,
- yetuk va ravon nutq botiniy go'zallikdir;
- ustoz ziyosidan bahramand bo'lgan inson, quyoshga intilgan maysadek, yorug'likka, ilmga, mangulikka intiladi;
- kishi bordur, ham botiniy, ham zoxiriy go'zaldir,
- kishi bordur, har bir so'zi yuz o'chmagan gazaldir;
- nozik ersa boz ustina tabiati, suhbatl,
- tavob aylang, ushbu inson ma'naviy barkamoldir;
- go'zal nutq sohibi bo'lmoqlik,
- birni yuz turda anglamog'-u,
- yuzni birga jamlay olmoqlikdir;
- tafakkur atalmish nurafshon qasrnmg qulfi – ilm, kaliti – so'zdir;
- tasavvuf ilmidin ogoh bo'lmoqlik,
- tafakkur javhariga sayqal bermaklikdir.

245-topshiriq. Matni o'qing. Shevaga xos so'z va grammatik shakllarni aniqlang. ularni o'zbek adabiy tilidagi muqobillari bilan solishtiring.

Tayyor bo'lgan bachkana mahsilarni taxlayman. ba'zilarini oyoqlaringga o'lchab ko'raman. Bobom peshin namoziga ketgach, darrov uning o'rniga o'tiraman. Xuddi bobom kabi jiddiyat va qunt bilan ishga kirishmoqchi bo'laman: chol o'tkir gazanlarni mendan yashirib ketgan ekan. Kichkina o'tmas gazan bilan charmlarni kesaman, shirach bilan bir-biriga yopishtiraman. Burishgan eski charmlarni ho'llab, kunda ustiga qo'yib, kuva bilan urib tekislashni juda sevaman. Mahalla machitining minorasidan bobomning baland, toza yangragan ovozi eshitiladi (u muazzin edi).

– Buvam! – deyman birdan qichqirib.

– Minoradan tusholmay qoldi buvang. Tushirib qo'y!–deydi cho'tir xalfa. Jahlim chiqadi, lekin indamasdan ko'vani kundaga uraveraman. Quloqlari bitgan, shekilli, ko'vani qo'limdan tortib olishadi... Ayvonning piromonidagi indan mo'ltayib qaragan bir juft musicha bolasiga ko'zim tushgan hamon o'rnimdan sapchiyman.

(Oybek. “Bolalik xotiralarim”)

246-topshiriq. Lingvistik va matematik terminlarni alohida ustunlarga yozing.

Qo'shuv, kelishik, unli tovush, ayiruvchi, undosh tovush, ko'paytirish, bo'lish, sifat, aylana, fe'l, olmosh, gap, oddiy kasr, mahraj, o'nlik, aniqlovchi, to'ldiruvchi, tenglama, masala, so'z birikmasi.

247-topshiriq. O'qing. So'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting.

1. To'kin-sochin kuz fasli boshlandi. 2. Shirin-shakar mevalarni yetishtirgan bog'bonlarimizga ming rahmat. 3. Temir yo'l vokzali qayta ta'mirlandi. 4. Do'stim har kuni o'qishga Yangiyo'l shahridan qatnaydi. 4. Haqiqiy inson o'z ota-onasini doimo hurmat qiladi. 5. Mehmondo'stlik o'zbek xalqiga xos xislat. 6. Toshkentimiz kundan-kunga tanib bo'lmus darajada o'zgarib ketmoqda.

23. Nutqiy mavzu: Bo'lajak kasbim

Grammatik mavzu: Matn va uning ko'rinishlari

KASB TANLASHGA YO'LLASH

Yosh avlodni ongli ravishda kasbga yo'naltirish ishiga, yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalaridagi o'quv tarbiya jarayoni uzviy birlikda amalga oshiriladi.

Kasbiy axborot – yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat – yoshlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlari hisobga olgan holda kasbiy yo'lni tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam beradi.

Kasbiy tanlash – pedagogik-psixologik psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik-fiziologik xususiyatlariga ko'ra mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsifalar berish.

Kasbiy saralash – insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablariga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash. Ushbu vositalar kasbga yo'naltirish mazmuninig asosini tashkil etadi.

Kasb tanlashga yo'llash – yo'naltirish, ajrata bilish, belgilash hayotda tog'ri yo'lni tanlash degan ma'noni bildiradi. O'quvchi yoshlarni ongli to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarining mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

KASB TANLASH – HAM MAHORAT, HAM MAS'ULIYAT

Mamlakatimizda kelajak vakillarining yaxshi kasb va mutaxassisi bo'lishlari maqsadida juda ko'p imkoniyatlar eshigi ochildi. Zamonaviy kollejlar va akademik litseylarning qurilganligi, ularning jihozlanganligi – yoshlar uchun yaratilgan va itidorni ko'rsatish uchun ochilgan yo'ldir. Barcha ta'lim dargohlarining bitiruvchilari faqat bir maqsad sari kelajakka qadam qo'yishga harakat qiladi va qanday kasbni tanlasam ekan?- degan savol turishi, shubhasizdir. Ularning bu savolga javob berishlari maqsadida O'zbekiston "Adolat" SDP Buxoro shahar kengashi tomonidan "Yaxshi kasb – yetuk mutaxassis – munosib ish haqi" loyihasi doirasida "Kasb tanlash ham mahorat, ham mas'uliyat" mavzusi ostida davra suhbatlari tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston "Adolat" SDP Buxoro shahar kengashi raisi Dilshod Bozorov, partiyaning viloyat kengashi raisi o'rinbosari Zuhra Mirzahamdama, "Yosh adolatchilar" qanoti faollari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirok etdilar. Hozirgi davrda yoshlarning imkoniyatlari, ularning kasb va hunar egasi bo'lishlari uchun

yaratilayotgan sharoitlar, dars jarayonidagi o'quv mashg'ulotlarining ahamiyati, dars berishda o'qituvchining e'tiborli bo'lishi, bola psixalogiyasi, uni o'rganish va o'zi qiziqqan kasbga ega bo'lishi borasida fikr-mulohazalar bo'lib o'tdi.

Xurshid Alimov, Buxoro yengil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari:

Buxoro yengil sanoat va pedagogika kasb-hunar kolleji 1998-yilda tashkil topgan bo'lib, quvvati 900 nafarga mo'ljallangan. Bugungi kunda kollejda 830 nafar o'quvchilar mavjud 7 yo'nalish, ya'ni "Keng assortimentdagi kiyimlar konstruktori", "Tikuv va tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarish texnik-texnologii", "Murabbiy instruktor" bo'yicha ta'lim olmoqdalar. Ularga dars jarayonida albatta tajriba, bilim va ko'nikmalarga katta e'tibor qaratamiz.

248-topshiriq. Kasb tanlovi to'g'risida esse yozing.

249-topshiriq. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqolalaridan namunalar yozing.

O'ZBEKISTONDA QAYSI KASB EGALARINING MAOSHI YUQORI?

Oktabr oyida hh.uz portalida joriy yilning sentabr oyiga nisbatan 258 foizga ko'p vakansiya joylashtirildi, bo'sh ish o'rinlarining asosiy ulushi esa Toshkent shahrida nashr etildi.

Manbaga ko'ra, 2017-yil oktabr oyida O'zbekistonning eng talabgor professional sohalari, "Sotuvlar" bo'lgan, barcha vakansiyalarning 21.3 foiz ulushi shu sohaga to'g'ri kelgan. Ikkinchi o'rinda, "Axborot texnologiyalari, Internet telekom" - 10.1 foiz. Uchinchi o'rin 9,0 foiz ko'rsatkich bilan "Marketing" sohasiga tegishli, to'rtinchi va beshinchi o'rinlarni esa 8,4 foiz ulush bilan "Ma'muriy personal" va "Ishlab chiqarish" sohalari bo'lishib oldi.

Oktabr oyida portaldagi eng yaxshi haq to'lanuvchi professional sohalardan biri "Axborot texnologiyalari, Internet, Telekom" bo'ldi. Bu yerda maksimal ish haqlari qayd etilgan, soha ish beruvchilari nomzodlarda 5 000 000 dan 12 750 000 so'mgacha maosh to'lashga tayyor.

IT- texnologiyalar doim eng talabgor va tez rivojlanuvchi sohalardan biri hisoblanadi. Bu soha mutaxassislariga bo'lgan talab haddan yuqori, ish haqi ham shunga yarasha.

Ish beruvchilar IT-mutaxassislar pozitsiyalarida a'lo darajali professional ko'nikmalar va zarur ish tajribasiga ega nomzodlarni ko'rishni istashadi.

Ikkinchi o'rinda "Oliy menejment" sohasi mutaxassislari joy oldi. Bu yerda ish beruvchilar nomzodga 4 milliondan 13 millionga yaqin pul to'lashga tayyorlar. Nomzodlar aniq maqsad va vazifalar qo'yib, natijalarga erisha biluvchi kuchli boshqaruv va yetakchilik ko'nikmalariga, rahbarlik lavozimlarida tajribaga ega bo'lishlari kerak.

Oyiga 8 milliondan oshiq ish haqi yuqori ish samaradorligi va ishtiyoqqa ega ingliz tili bilan ishlovchi kopirayterlar va reraayterlarga taklif qilinadi

Sotuvlar sohasi mutaxassislariga ish beruvchilar oyiga 5-7 000 000 so'm taklif qilishmoqda. Hh.uz portalida bosh buxgalter va HR- menejerga to'lanadigan eng yuqori ish haqi 5 000 000 so'mni tashkil qiladi.

Marketing va PR-menejeri hamda xaridlar bo'yicha menejerlar oyiga 4 million so'mgacha ish haqi olish imkoniga ega.

250-topshiriq. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantiring.

TANIQLI MILLIARDER ROKFELLERNING MUVAFFAQIYAT SIRI

Shu yilning 20-martida Amerikaning eng boy ishlab chiqaruvchilar, siyosatchilar va bankirlar sulolasining vakili Devid Rokfeller 102 yoshida vafot etdi. U ajoyib inson edi: 7 marta yurak alishtirish operatsiyasini boshdan o'tkazgan, o'ta sahiyligi hamda g'ayritabiiy xobbisi – qo'ng'izlarni kolleksiyalash bo'yicha dong taratgan edi.

Rokfeller biznesda muvaffaqiyatga erishishi uchun "o'qish, intizom va tirishqoqlik" zarur deb hisoblar edi. Buni u o'z hayoti misolida isbotladi. Ikkinchi jahon urishi tugaganidan keyin amakisining taklifi bilan jahonning yirik banklaridan biri Chase Bankka ishga joylashadi.

Devid xizmat faoliyatini o'sha paytda eng kichik lavozim hisoblangan bank boshqaruvchisining assistenti lavozimidan boshladi va yiliga 3500 AQSh dollari maosh olar edi. U paytlarda oliy ma'lumot va boshqaruv mahorati muhim omil hisoblanmas edi. Shuning uchun bo'lajak milliarder iqtisod bo'yicha doktorlik darajasiga ega ekanligi haqida og'iz ochmadi.

Millioner do'stlari bilan biznes olib borishdan cho'chimagan. U "do'stlik va biznes bir-biriga xalal beradi" degan naqlga e'tibor bermas edi. "Ish bo'yicha eng mustahkam aloqalar ishonch, sodiqlik asosida qurilishiga qattiq ishonaman,"– der edi Rokfeller.

Rokfellerning fikricha, muvaffaqiyatga erishish uchun pulni maqsad qilish kerak emas. "Agar maqsadingiz faqat boy bo'lish bo'lsa, unga hech qachon erisha olmaysiz,"– der edi u.

Milliarderdan yana bir maslahat: "Katta xarajatlardan qo'rqish kerak emas, kichik daromaddan cho'chish lozim".

Rokfellerning 6 ta buyuk iborasi:

Odamlar bilan muloqot qilishni bilish, bu ham bir mahoratdir. Men bunday bilim uchun yaxshigina haq to'lashga tayyorman.

Obro'-e'tiborga erishsangiz, u sizning foydangizga ishlaydi.

Boshqaruvni to'g'ri olib borish insonlarga yuqori darajadagi ishni o'rgatishdan iboratdir.

Men har bir muvaffaqiyatsizligimni yana bir imkoniyatga alishtirar edim.

Men uchun intiluvchan odam, bilimdon insondan ko'ra qadrlidir.

Qat'iyatlilik har qanday muvaffaqiyatning negizidir.

VLADIMIR VLADIMIROVICH PUTIN

Rossiyaning davlat arbobi, Rossiya Federatsiyasining ikkinchi va to'rtinchi Prezidenti, sobiq Rossiya bosh vaziri – Vladimir Vladimirovich Putin Boris Yelsin qaroriga binoan 1999-yilning 31-dekabrida prezident vazifasini bajaruvchi bo'lib, 2000-yil 7-mayda prezidentlik lavozimiga o'tirdi. 2004-yil u ikkinchi muhlatga

saylandi. 2008-yilning 7-mayda prezidentlik lavozimini Dmitriy Medvedevga bo'shatdi.

Putin 2012-yilgi prezidentlik saylovida 64 % ovoz yg'ib, uchinchi muhlatga saylandi. U prezidentlik lavozimini 2012-yil 7-mayda egallagan. Forbes jurnali uni Dunyoning eng qudratli kishisi deb baholagan.

1990-yil Sankt-Peterburg universiteti rektorining yordamchisi. Sankt-Peterburg shahar kengashi raisi maslahatchisi bo'lib xizmat yuritdi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti ish boshqaruvchi o'rinbosari bo'lib 1996-97 yillarda ishladi. Rossiya Federatsiyasi Prezident ma'muriyati rahbari o'rinbosari va Prezident Bosh nazorat boshqarmasi boshlig'i lavozimlarida faoliyat yuritdi.

2018-yilning 19-mart sanasida Putin 73,5% ovoz to'plab, yana bir bor prezidentlik lavozimiga saylandi.

Grammatik mavzu: MATN VA UNING KO'RINISHLARI MATN VA UNING TURLARI

Matn og'zaki va yozma nutqqa xos bo'lishidan qati nazar ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki yoki undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmunidagi fikr-axborot almashuvidan iborat.

Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llaniladi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Monologik matn so'zlovchining o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi bo'lib, o'z ruhiy kechinmalari, voqeilikka munosabatini o'ziga xos ohang bilan ifodalashga harakat qiladi. Bunday matn tavsifiy matn tarkibiga kirsada, badiiy uslub xususiyatlarini o'zida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va muhimi, ijtimoiy estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha tasviriy vositalari: so'z gaplar, kirita, undov va undalmalar, sodda uyushiq bo'lakli va ritorik so'roq gaplar faol ishlatiladi. So'zlovchining fikr-mulohaza va shaxsiy kechinmalari I shaxs tomonidan bayon qilinadi. Og'zaki nutqda monologik matn, ohang, urg'u, to'xtam, ritm, tovush sur'ati kabi fonetik hodisalarni ifodalovchi nutq ko'rinishi sanaladi.

MA'LUMOTNOMA MATNI

Ma'lumotnoma matnida bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Bunday matnda so'zlarning ko'chma ma'nolaridan, tilning badiiy-tasviriy vositalaridan deyarli foydalanilmaydi. voqea-hodisa oddiy va aniq bayon qilinadi.

251-topshiriq. “Men sevgan kasb” mavzusida insho yozing.

IJODIY –TAVSIFIY MATN

Ijodiy-tavsifiy matn soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki maʼlumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir.

Maʼlum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar, dalillar bilan taʼriflash, izohlash ijodiy-tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllaniladi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlaridan keng foydalaniladi.

Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek badiiy uslubga xosdir.

Ilmiy, publitsistik va badiiy uslublar. shuningdek, insho va maqola ham ijodiy-tavsifiy matnning koʻrinishlaridir.

Besh askim nazmiy saroyini

Titratadi zanjirband bir sher.

Temur tigʻi yetmagan joyni

Qalam bilan oldi Alisher

(A.Oripov)

Ha, bu “zanjirband sher”ning sheʼriari shuhrati necha asrlardan beri jahonni maftun etib kelyapti. Gʻazallari porloq quyosh singaridir. Uning betakror nazmi oldida hatto Saʼdiy va Hofizning sheʼriyat osmonidagi yulduzlari xira tortdi. “Nizomiy panjasiga panja urib” bunyod qilgan “Xamsa”si “Panj ganj” shuhratiga soya soldi. Forsiy goʻylar uning turkiy tilda yozganligidan shukronalar aytdilar.

Ilmiy matnda – oʻrganilayotgan soha turiga mos boʻlgan taʼrif beriladi.

Badiiy matnda – fikr yuritilayotgan voqea, hodisa yoki inson haqida yorqin va obrazli tasvir beriladi.

252-topshiriq. “Til – doʻstlik kaliti” mavzusida insho yozing.

253-topshiriq. “Doʻstlik” mavzusida insho yozing

REJA

(reja – aniq va loʻnda shaklda matn mazmunining asosiy tarkibiy qismi)

Kirish. _____

Asosiy qism:

1. _____

2. _____

3. _____

Xulosa. _____

24. Nutqiy mavzu: Hayot mening tasavvurimda

Grammatik mavzu: Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

HAYOT NIMA?

Sizning nazdingizda hayot tushunchasi qay tarzda talqin qilinadi? Bu mavzuda barcha forum ahli fikrlari jamlansa, hayot tushunchasining asl mohiyatini bilib olasiz, inshaalloh.

Shu o'rinda buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Iqrornoma" kitobidan olingan satrlarni keltirib o'tmoqchiman:

"Insoniyat donolari hayot haqidagi savollarga bergan bevosita javoblar:

"Jismning hayoti yovuzlikdan va yolg'ondan iborat. Shuning uchun ham bu jism hayotini mahv etish ne'matdir, biz shu ne'matni tilamog'imiz darkor",– deydi Suqrot.

"Hayot shunaqa narsaki, uning boridan yo'g'i yaxshiroq bo'lardi. Hayot – yovuzlik, yovuzlikdan hechlikka ko'chish hayotdagi birdan-bir ne'matdir",– deydi Shopengauer.

"Dunyodagi hamma narsa – hamoqat ham, donolik ham, boylik ham, qashshoqlik ham, shod-hurramlik va qayg'u-alam ham, hammasi behuda va arzimmas narsalardir. Inson o'ladi va undan hech narsa qolmaydi. Bu bema'nilikdir",– deydi Sulaymon payg'ambar.

254-topshiriq. Matni o'qing.

OTA-ONANI E'ZOZLANG

Ota-onani e'zozlash va ulug'lash asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan el-yurtga xos olijanob an'analardan biridir. O'z ota-onasining qadrini bilmagan odam, do'stlarining ham hurmatiga arzimaydi. Ota-onaning qalbi mehr-muruvvatga to'liq bo'ladi, farzandlaridan jonini ham ayamaydi. Lekin yaxshi farzand ularning mehr chashmasidan oqilona foydalanadi, suiiste'mol qilmaydi.

Farzandlarning ota-onasiga bo'lgan shirin so'zi, xushmuomalasi, mehribonliklari ustiga ularning jamiyat ustiga qilgan go'zal ishlari ham qo'shilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Ota-onang umri boqiy bo'lib, tetik yashashini istasang, doimo ularning ko'ngillarini shod et. Oqil o'g'il, komila qiz: "Ota-onamni shod qilish uchun nima ish qiloldim?",– deb vijdoni bilan suhbatlashib turadi.

Insonlardagi vijdon va or-nomus ota-onasining qadr-qimmatini tushunishdan boshlanadi. Inson bo'lishning alifbosi shu, chunki barcha xalqlar qay tilda gapirmasin, dastlabki so'zlari ona tilida "ota-ona" deyishdan boshlanadi. insonning birinchi so'z dehochasi ham ota-onadir.

Bizning dunyoga kelishimizga, o'sib-ulg'ayib kamolotga etishishimizning birinchi sababchilari ham bu buyuk insonlardir. Ota-onaning jamoli, qora ko'zlari, qoshu sochlari, kuch-qudrati, go'zal chehrasi, qaddu qomati – bularning hammasi bizda namoyon bo'ladi. Ular bizni katta hayotga taqdim qiluvchi ulug' zotlardir.

Farzand ota-onaga kuch-quvvat baxsh etadi. Otalarimizning "Farzand ota-ona ko'zining oqu qorasi, belining quvvatidir"– degan qimmatli so'zlari farzandga bo'lgan mehr-muhabbatni ifoda etadi. Ota-ona qayerda bo'lmasin – ishdami, uzoq safarda, ularning ko'z oldida doim bolalarning timsoli gavdalanib turadi, fikr-u zikri bolada bo'ladi.

TA'LIM-TARBIYA HAQIDA

Ota-onalar farzandlarining odobli, axloqli bo'lib o'sib-unishlari uchun o'qituvchilarning yordamiga muhtojdirlar. Muallim ma'naviy ota, muallima esa ma'naviy onadir. Bu muhtarama ota-onalar ma'naviy farzandlari bo'lgan o'qituvchilarni tarbiyalab, ularning aql, fikr-idroklarini o'stirishga, odob-axloqlarini kamolga yetkazishga g'ayrat qiladilar, ma'naviy farzandlarini mukammal bir inson bo'lib yetishishlari uchun butun kuchlarini sarf qiladilar. Shuning uchun o'qituvchilar hurmatiga, qilgan xizmatlari taqdir va tahsinga sazovordir.

Iskandar Zulqarnayndan so'raydilar:

- Kimni ko'proq yaxshi ko'rasiz, otangiznimi yoki ustozingiznimi?

Iskandar shunday deb javob berdi:

- Otamni ham ustozimni ham bir xilda yaxshi ko'raman. Otam meni dunyoga kelishimga, unib-o'sishimga sababchi bo'lsa, ustodim fazl-u kamol topishimga sababchi bo'ldi. Shunga ko'ra har ikki tarbiyachimga bir nazarda qarayman. Har ikki muhtaram zotga barobar muhabbat bog'lab, ehtirom qilaman.

O'qituvchilar maktabda yoki odamlar orasida qanday muomalada bo'lishlari lozim? Avvalo, o'qituvchilarning o'zlari odob-axloqda o'qituvchilarga namuna bo'lishlari lozim. Ta'lim-tarbiyaning qonun-qoidalariga binoan, o'qituvchi ochiq yuzli, shirin so'zli, halim, muvoze bo'lishi shartdir. O'qituvchilarga qo'rslik bilan muomala qilish, ularning izzat-nafslariga tegish ta'lim-tarbiya nuqtayi nazaridan to'g'ri emas. O'qituvchilardan ta'lim-tarbiyaning yengildan og'irga, ma'lumdan dars berishlari talab qilinadi. Har o'qituvchi o'z shogirdining ruhiy holatlarini sinchiklab o'rganishi lozimdir.

Haqiqiy muallim va muallimalar tarbiyasini olgan o'qituvchilardan olim va fozil odamlar yetishadi.

Oqil va donolardan Hojimuurod Odilliy o'z o'g'illariga nasihat qilib aytadi:

- Aziz farzandlarim, ilmi, hunarli odam bo'lish uchun g'ayrat qiling, ilm va hunar har narsada qimmatlidir. Bir odamning mol-u dunyosi ko'p bo'lsa-yu, hunari bo'lmasa, u odam hosilsiz quruq daraxtga o'xshaydi. Ilmi, hunarli bo'lsangiz, turmushingizda hech narsaga muhtoj bo'laysiz. xalqning izzat-hurmatiga sazovor bo'lasiz.

Bayt:


*O'rganing, farzandlarim, ilm-u hunar,
Bir maqol bordir: "Hunardan ko'p unar".*

Baliq skeleti

Hayot siz uchun nimani
anglatadi?

Hayotga bo'lgan
munosabatingiz (pozitiv,
negative, neytral va hokazo)?

Siz o'zingizna qaysi turdagi
Insonlarga kiritasiz: optimist
yoki pessimist. Nima uchun?
Hayotdagi shioringiz bormi?



RIVOYAT

O'tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. Shunda dehqon: – Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? – deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosartusarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

– Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? – deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi.

Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va :

– Ey notavon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapingga kirib, yanada boyish o'rimga butkul kambag'allashib ketdim-ku?, – deb g'azab qilibdi.

– O'zingni bos, - debdi yo'lovchi. – Birinchi yili sen menga “donishmand” deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar esa menga “gado” so'zini munosib ko'rding va men senga gadoning javobini berdim, - degan ekan...

Grammatik mavzu: DIALOGIK MATNNING MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI

Matn og'zaki yoki yozma nutqqa xos bo'lishidan qat'i nazar ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. **Dialogik matn** ikki yoki undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr – axborot almashuvidan iborat.

Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq **savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz**, kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan **savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi**.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llaniladi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, soz gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so'zlashuv uslubi va **badiiy** uslubga xosdir.

Matn nutq shakllariga muvofiq ravishda yozma va og'zaki bo'lishi mumkin. Yozma nutq ham, og'zaki nutq ham bir shaxs nutqidan iborat bo'lishi mumkin. Bir shaxs nutqi va bir necha shaxs nutqidan iborat bo'lishi mumkin. Bir shaxs nutqi monolog deb atalib, faqat so'zlovchi yoki matn tuzuvchi tilidan yoziladi va bayon qilinadi. Bir necha shaxs nutqi esa **diolog** deb atalib, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, ularning o'zoro savol-javoblarini bayon qiladi.

Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat, biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llaniladi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.

Dialogik nutqda fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan barcha bo'laklar ishtirok eta- vermaydi. So'zlashish jarayoni doimo ixchamlikka, ortiqcha so'zlardan qutulishga amal qiladi. Shuning uchun so'zlashish jarayonida oldingi gapdan yoki so'zlashish vaziyatidan bilinib turgan so'zlar ko'pincha ishlatilmaydi, lekin uning mazmuni oldingi gapdan va nutq vaziyatidan bilinib turadi. Masalan,

– Isming nima?

– Yodgor.

Keyingi gapda *mening ismim* so'zlarining qo'llanilishi ortiqcha. Chunki uning mazmuni yuqoridagi gapdan bilinib turadi. Nutq jarayonida fikr ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlarning qo'llanilish yoki qo'llanilmasligiga ko'ra gaplar ikkiga bo'linadi:

1) to'liq gaplar; 2) to'liqsiz gaplar.

255-topshiriq. “Imtihonda”, “Tanaffusda” mavzularida guruhlarga boʻlingan holda oʻzaro suhbatlashing va tuzgan matningizni dialogik matn shaklida daftaringizga yozing.

256-topshiriq. “Gid va chet ellik mehmon” mavzusida dialog tayyorlang, uni rollarga boʻlib oʻqib bering.

257-topshiriq. Oʻqing. Toʻliqsiz gaplarning dialoglar va boshqa turli nutqlardagi uslubiy vazifasini aniqlang.

TADBIRKOR VAZIR

Sulton Mahmud Gʻaznaviy bolaligida Tavof viloyatining Bogʻiston qishlogʻiga borib, bir buloq yoqasiga kelib tushdi. Muhammad Hasan uni kuzatib boruvchilar orasida ekan. Bir payt sultonning nazari shu atrofdan oʻtib borayotgan yoʻlovchiga tushdi. Sulton Muhammad Hasanga murojaat qildi:

— *Hov anovi yoʻlovchi kim boʻldi?*

— *Savdogar boʻlsa kerak.*

— *Ismi nima ekan?*

— *Ahmad Sulton.*

— *Sxoshma, xoja! Ne sababdan uni Ahmad deding? Savdogarligini qayerdan bilding? Yo u bilan tanishliging bormi?*

— *Yoʻq, hazratim. Janobi oliylari meni chaqirib uning kimligini soʻrganlarida uning Ahmad Sulton ekanligi maʼlum boʻldi. Bu odam koʻp vaqtdan beri shu daraxt atrofini aylanib yurganidan esa uning savdogar ekanligini angladim.*

— *Unda ayt-chi, u yemak-ichmakdan koʻproq nimalarni xush koʻrar ekan?*

— *Asal bilan dushobani.*

Sulton yoʻlovchini chaqirtirdi. Muhammad Hasan unga murojaat qildi:

— *Mana bu bolani taniysanmi? — U sultonni qoʻli bilan koʻrsatdi.*

— *Yoʻq, tanimayman.*

— *Isming nima? Ne xizmat bilan mashgʻulsan? Yemak-ichmakdan nimalarni xush koʻrasan?*

— *Ismim Ahmad, savdogarman. Bugun non bilan asaldan boshqa ovqat yegan emasman.*

Buni eshitib, sulton hayron boʻldi, soʻng xoja Muhammad Hasandan soʻradi.

— *Bu odamning bugun asal yeganini qayerdan bilding?*

— *Diqqat bilan qarasam tez-tez labini yalab turibdi.*

(“Ajdodlar oʻgiti” dan)

258-topshiriq. *Ofarin, balli, hormang, yashang* soʻzlarini dialogik nutqda gap holida qoʻllang.

259-topshiriq. *Ha, yoʻq, afsus, albatta* soʻzlarini dialogik nutqda gap holida qoʻllang.

Dialogik nutqda ha, yo'q, shaksiz, shubhasiz, ofarin, yashang, to'g'ri, ehtimol, albatta kabi so'zlarning o'zi alohida gap bo'lib keladi va oldingi gapning mazmuniga so'zlovchining munosabatini bildiradi.

DIALOGIK NUTQ

Tashqi nutq boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin bo'lgan faol nutq bo'lib, u og'zaki va yozma ko'rinishlarga ega. Og'zaki nutq odatdagi tovushli so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imo-ishoralar bilan aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalardan deyarli foydalanilmaydi. Og'zaki nutqda ko'proq sodda gaplar qo'llaniladi: o'z suhbatdoshiga nimanidir ko'rsatishi, mantiqiy urg'udan foydalanib, ma'lum bir so'zni alohida ta'kidlashi, nimanidir mimika, ko'z, qo'l, bosh harakati bilan anglatishi mumkin. Og'zaki nutqda fikrni ixcham ifodalash maqsadida to'liqsiz gaplar keng qo'llaniladi. Nutqning bu turi bir yoki bir necha kishi tomonidan amalga oshiriladi va monologik, dialogik shaklda namoyon bo'ladi.

Yozma nutq esa harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvini, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali ro'yobga chiqadi. Yozma nutq ham og'zaki nutq singari monologik va dialogik shakllarda bo'lishi mumkin. Monologik nutq bir kishining boshqalarga qaratilgan nutqi hisoblanadi va hikoya qilish, xabar berish, o'qilganni qayta so'zlab berish, o'zi savol berib, o'zi javob berish shaklida namoyon bo'ladi.

Dialogik nutq esa ikki va undan ortiq kishi o'rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko'rinishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo bu nutq keng jummalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to'liqsiz gaplar juda ko'p bo'ladi. Bunday nutq tarkibida so'roq va undov gaplar ham uchraydi. Gaplar ko'pincha o'zining qisqaligi bilan ajralib turadi. Og'zaki dialogik nutqda so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan bir qator vositalar: mimika, imo-ishoralar, ohang ham ishga solinadi.

260-topshiriq. Odob-axloq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing.

261-topshiriq. Kursdoshingiz bilan o'tilayotgan fanlar, egallamoqchi bo'lgan kasbingiz haqida suhbatlashing. Dialogni daftaringizga yozing.

262-topshiriq. Matni o'qing va davom ettiring.

Har bir inson so'zlash va tinglash madaniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Zero, shirinsuxanlik va xushmuomalalikni hamma hurmat qiladi. Shirinsuxan odamlar bilan bir marta suhbat qurgan odamning ruhi yengil tortadi. Shirinsuxan, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lgan insonlarda insof va diyonat, poklik va adolat tuyg'ulari kuchli bo'ladi. Uularning tilidan bol tomib turishi bejiz emas.

263-topshiriq. “Salomlashish odobi” mavzusidagi matnni davom ettiring.

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichigi birinchi bo'lib salom beradi. Lekin qo'l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to'plangan xonaga kirsangiz, bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi oldiga ikkinchi kishi kelsa, albatta, kelgan kishi salom beradi. Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim deb o'ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo'lib salom beraveradilar.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi.

Keys-stadi

(taxminiy variant)

Sizning muzlatkichingiz buzilib qoldi. Ustani telefon orqali uyingizga chaqirasiz (Dialogda ikkita talaba ishtirok etadilar).

У вас сломался холодильник. Вызовите по телефону мастера домой (В диалоге участвуют двое студентов).

ИАИАИА

Matbuot do'koni

Sizda o'zbekcha gazetalar bormi?

Sizda bugungi qanday gazetalar bor?

“Narodnoe slovo” va “O'zbekiston ovozi”ni bering.

Menga “Toshkent oqshomi”ni bering.

Mana bu markalarni ko'rsating.

Maishiy xizmat

Sartaroshxonada

Ayollar zalida

Men sochimni turmaklatmoqchiman.

Men sochimni tekislatmoqchi edim.

1-студент. Спросите, правильно ли Вы дозвонились в мастерскую.

2-студент. Положительный ответ.

1-с. Скажите, что вы хотите вызвать мастера.

2-с. Спросите, не истек ли гарантийный срок вашего холодильника.

1-с. Скажите, что гарантийный срок истек.

2-с. Спросите, что случилось с холодильником.

1-с. Расскажите, что у вас случилось.

2-с. Поинтересуйтесь, какой марки холодильник?

1-с. Назовите марку холодильника.

2-с. Предупредите, что в случае серьезной поломки, заказчик должен доставить холодильник в мастерскую.

1-с. Согласитесь. Спросите о стоимости услуга.

2-с. Укажите день и время прихода к заказчику, поинтересуйтесь, по какому адресу нужно прийти.

Mumkin bo'lsa, o'ngdan farq oching.

Ответьте на вопрос о стоимости услуг.

1-с. Назовите адрес и поблагодарите работника мастерской, что заявка принята.

KAFOLATLI XIZMAT KO'RSATISH TURLARIGA DOIR DIALOG

Matbuot do'koni

Sizda o'zbekcha gazetalar bormi?

Союзпечать

У вас есть газеты на узбекском языке?

Sizda bugungi qanday gazetalar bor?

Какие сегодняшние газеты у вас есть?

“Narodnoe slovo” va “O'zbekiston ovozi”ni bering.

Дайте «Народное слово» и «Ўзбекистон овози».

Menga “Toshkent oqshomi”ni bering.

Дайте мне «Вечерний Ташкент».

Mana bu markalarni ko'rsating.

Покажите вот эти марки.

Maishiy xizmat

Sartaroshxonada

Ayollar zalida

Men sochimni turmaklatmoqchiman.

Бытовое обслуживание

В парикмахерской

В дамском зале

Я хотела бы сделать прическу.

Men sochimni tekislatmoqchi edim.

Я хотела бы слегка подровнять волосы.

Mumkin bo'lsa, o'ngdan farq oching.

Сделайте, пожалуйста, пробор справа.

Men manikyur qildirmoqchiman.

Я хотела бы маникюр.

Erkaklar zalida

В мужском зале.

Men sochim va soqolimni oldirmoqchi edim.

Я хотел бы побриться и постричься.

Sochimni kaltaroq qilib oling.

Постригите покороче.

Shaklini eskicha qoldiring.

Оставьте форму прежней.

Orqa tomondan ozgina oling, farq ochmang.

Снимите немного на затылке. Не делайте пробора.

Kimyoviy tozalash

Men mana buni tez tozalash uchun topshirmoqchi edim.

Химчистка

Мне нужно сдать это в срочную чистку.

Mana bu dog'ni mening oldimda ketkazib berasizmi?

Вы можете вывести это пятно при мне?

Birpas (biroz) kutib turing.

Подождите немного.

Bugun kechqurun

Будет готово сегодня вечером

Ertaga ertalab

Завтра утром

Bir kundan keyin tayyor bo'ladi.

Через день.

25. Nutqiy mavzu: Ustoz maktabi
Grammatik mavzu: Monologik matn. Monologik matnda
mazmun izchilligi va ohang



ABDULLA AVLONIY

Abdulla Avloniy 1878-yilning 12-iyulida Toshkentda Mergancha mahallasida dunyoga keldi. Otasi Miravlon aka mayda hunarmandchilik – to‘quvchilik bilan shug‘ullangan. Piyon bozorda (hozirgi Navoiy teatri maydoni), Yarmarka bozorida (hozirgi san‘at muzeyi atrofida) bo‘z va chit bilan savdo qilardi.

Abdulla 7 yoshidan O‘qchidagi eski maktabda Akramxon domlada savod chiqardi. 1890-yilda shu mahalladagi madrasaga o‘tdi. So‘ng Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil ko‘rdi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermadi.

“1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qib, boshqa fasllarda mardikor ishladim” – deb yozadi Avloniy. Ko‘p o‘tmay bu ham barham topdi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketdi. O‘zi aytganidek, “binokor”likni o‘rgandi, “g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik ishlari” bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Adabiyotga havas unda shu yillari uyg‘ondi. Navoiy she‘riyatiga, Fuzuliy g‘azallariga mehr qo‘ydi. So‘ng ishtiyoq bilan fors tilini o‘rgandi. Sa‘diy va Hofizning sehrli olamidani zavq-shavq oldi. Nihoyat bular o‘z samarasini berdi. O‘zi kamtarona qayd qilganidek, “She‘r yozishga tutindi” Avloniy bu vaqtni 1894-yil deb ko‘rsatadi. Afsuski, yoshlik davrida yaratgan she‘rlarning hech biri bizgacha saqlanmagan. Shoirning bizga ma‘lum she‘rlari 1905-yildan keyin yozilgan.

Mashhur pedagog, olim va shoir, aktyor va dramaturg, tarjimon va jurnalist Abdulla Avloniy 1934-yilda Toshkentda vafot etdi.

264-topshiriq. Abu Rayhon Beruniy hikmatlarini rus tiliga tarjima qiling.

ABU RAYHON BERUNIY HIKMATLARIDAN

Hakim va olimlar axloqidan ta‘lim olish yaxshi xulqqa hayot baxsh etadi.
yomon xulqni o‘ldiradi.

*Odamlar o'rgangan va bilgan narsasiga qarshilik ko'rsatma.
Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi.*

Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir.

Bugunning chorasini ko'rib ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir.

Sevimii narsalarga mashaqqat bilan, yaxshilikka esa o'ziga sevimli bo'lgan narsalarni sarf qilish bilan erishiladi.

Hasad bilan g'azab ikki qanot bo'lib harakatga kelsa, toza va chiroyli hayotlarni xira va qudratli qilib yuboradi.

Har bir yangi narsada lazzat bor.

Inson hayotidagi zarurat, ehtiyojlar ularda ilmlarga bo'lgan talablarni keltirib chiqaradi.

Mardu maydon shunday odam bo'ladiki, ertayu-kech dushmanga zararu do'stiga foyda keltiradi.

Doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

Nodonlik — bedavo kasallikdir.

Til – sozlovchi istagini eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

Xayr-saxovat ham mardlik sanaladi.

Ishi yurishmaganni tahqirlama.

Yaxshi bilmagan narsasiga uringan kishi sharmanda bo'ladi.

Xato sodir bo'lmasligi uchun donishmandlar qayta-qayta kuzatishni va ziyon yetish imkoniyatidan saqlashni tavsiya qilganlar.

Kishining ko'ngli kelishgan va tartibli har bir narsaga qiziqadi, tartibsiz narsadan nafratlanadi.

Ne 'matning qadri u yo'qolgandan keyingina bilinadi.

265-topshiriq. Matnni o'qing va gapirib bering.

USTOZ OTANGDEK ULUG'

(ibratli hikoya)

Sa'diy Sheroziyda bir boyvachcha mantiq ilmidan saboq olish uchun bir olimga shogird tushibdi.

Bir necha yil o'qish-o'rganishdan so'ng mustaqil ish yurutish fotahasini olish niyatida dasturxon tuzab, ustoz bilan bir necha kishini chorlabdi. Mehmonlar orasida Shayx Sa'diy ham hozir bo'lgan ekan. Boyvachcha hech kimga so'z bermay otasi va ustozini bir mavqega qoyib: - Mening ikki otam bor, mana shu ikki otam meni shu darajaga yetkazishdi, biri tuqqan otam, ikkinchi ustozim falonchi. — deb mahmadonalik qilavergan ekan, Shayx Sa'diy o'ziga xos hazilkashlik bilan debdi: - Ustozni, "otam otam" degan bilan ish bitmaydi, bu go'yo onangni ustozga benikoh bergandek bo'ladi. Aslida ustoz otadek ulug'.

Zero otang seni osmondan yerga olib tushgan bo'lsa, ustoz seni qaro tuproqdan ayjiga ko'taradi.



USTOZLARNI HURMATLASH BAYONIDA

Har bir inson uchun o'z muallimi va ustozini e'zozlash, hurmat va ehtiromini ado qilish shartdir. Negaki, bu zotlar har qanday insonning ruhini tarbiyalaydi, ma'naviy boylik bilan to'ldiradi, har qanday ruhiy va maishiy kamchilik hamda illatlarni poklaydi, jaholat degan buyuk aybdan xoli va ozod qiladi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u insoniyatni ilm bezagi bilan ziynatlaydi, ularga chiroyli va yoqimli fazilatlar bilan chiroy va oro beradi, tushuntirish bilan foydasiz narsalardan odamni xalos etadi, insonni haqiqiy komil inson darajasiga yetkazish bilan bilim xazinasini ularning qalblariga joylaydi.

Muallim va ustoz shunday zotki, u sening insonlik haq-huquqlaring nimadan iborat ekanligini tushuntirib beradi, yaramas, yomon ishlardan qaytaradi va eng yaxshi ishlar va fazilatlar sari yo'l ko'rsatadi. Ular sening yuksakliging va kamolga yetishingni o'ylab, hamisha jon kuydiradi, butun kuch va imkoniyatlaringni ishga solishadi.

Muallim va ustozning vaqtlari qimmatli ekanligini bilib, aytdanlariga diqqat bilan quloq sol. Bordi-yu biron narsani tushunmay qolsang, odob va muloyimlik bilan qayta so'rashing zarur. Muallim va ustozning nima so'rasalar kulib turib, odob va ikrom bilan chiroyli so'zlarni saralab javob ber. Ilm maskanidan tashqarida yoki ko'cha-ko'ya ularni ko'rib qolsang ta'zim bajo qil, qo'lingni ko'ksingga qo'yib salom ber.

266-topshiriq. Ilm haqida 5 ta maqol keltiring.

267-topshiriq. Matnni o'qing rus tiliga tarjima qiling.

GRENLANDIYA

1818-yilning 18-avgustida Britaniyaning qutb ekspeditsiyasi boshlig'i, kapitan Djon Ross Grenlandiyaga kemada suzib keladi va uning tub axolisi -- inuitlar bilan uchrashadi. Inuitlar o'zlarini Yer sayyorasidagi yagona yashovchilar deb hisoblar edilar. Bu uchrashuvda inuitlarning eng qarisi o'z tayog'i bilan o'qталib, chaqirilmagan mehmonlarni bu yerdan ketishni so'rab imo-ishora qiladi.

Djon Sakxeus, janubiy Grenlandiyalik tarjimon, o'z pichog'ini inuitlar oyoqi

ostiga tashlaydi. Uning ishi inuitlarni qattiq hayratga soladi va ular pichoqni olib haqirishga tushadilar. Djomu Sakxeus ham ularga taqlid qila boshlaydi. Eng qaltis vaziyat ortda qoladi. Siz, o'zini xuddi siz kabi tutayotgan kishiga qo'l ko'tarmaysizku? Keksa inuit Sakxeusning paxtadan tikilgan ko'ylagini ushlab ko'rib, undan, qaysi hayvonning terisi shunchalik yupqaligini so'raydi. Tarjimon o'z bilganicha tushuntirishni boshlaydi. Shu vaqt boshqa inuit yana bir savol beradi: "Sizlar Oydanmisiz yoki Quyoshdan?". Sakxeus ularni boshqa ingliz ofitserlari bilan so'zlashishga chorlaydi. Inuitlar kzmaga chiqadilar, birinchi bor cho'chqani ko'rib qattiq qo'rqib ketadilar, keyin esa ko'zguda o'z akstarini ko'rib kulib yuboradilar. Soatni ko'rib juda hayratlanadilar va uni yesa bo'ladimi deb so'raydilar. Bularning so'ngida o'rtada tinchlik o'rnatiladi va inuitlar o'z shamanlaridan yovuz ruhlarni kemadan haydab chiqarishni so'raydilar.

Ertasiga Djon Ross qirg'oqda o'z bayrog'ini o'rnatadi va uning boyliklarini Britaniyaga mulki deb e'lon qiladi. Inuitlar o'zlari bilmagan holda Britaniya fuqarolariga aylanadilar. Bir haftadan so'ng ularning mamlakati barcha xaritalarda "terra inkognita" nomi paydo bo'ladi.

Lug'at

tub aholi – коренное население
taqlid – подражание
qaltis vaziyat – опасная ситуация

aks – отражение
ko'zgu – зеркало

268-topshiriq. Buyuk ajdodlarimizdan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oniy, Zebunisobegim haqida qisqa hikoya tuzing.



Aziz xalqimizning bir naqlida: "Sen odamlarga bir yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, bug'doy ek, o'n yil yaxshilik qilmoqchi bo'lsang, ta'lim-tarbiya ber" – deyilgan. Shu bois qadimdan kishilar o'z zurriyodlarini ustoz qo'liga topshirar ekanlar, "Eti sizniki, suyagi bizniki" deb ustozga nisbatan yuksak ishonch bildirishgan.

269-topshiriq. Matnni o'qib rus tiliga tarjima qiling.

GO'ZAL MALIKANING AYANCHLI QISMATI YOXUD NIFERTITI HAYOTI

Qadimgi tarix Misr fir'avnlari bilan yonma-yon turib, davlatni boshqargan

ayrim malikalar nomini ham saqlab qolgan. Shunday malikalardan biri – Nefertiti.

Uning hayoti Misrning shavkatli, katta o'zgarishlarga limmo-lim davriga to'g'ri kelgan edi. Nefertiti hayoti va faoliyati uning turmush o'rtog'i fir'avn Amenxotepning hayoti bilan bog'liq bo'lgan.

Fir'avn Amenxotep o'z davrida uncha-muncha hukmdorning yuragi betlamaydigan ishga qo'l urdi. U Misrda Amon xudosisiga sig'inishni ta'qiqlab, uning o'rniga hali ko'pchilikka noma'lum bo'lgan Aton xudosisiga sig'inishni joriy qildi. Turmush o'rtog'ining bu tadbirlarini malika Nefertiti qo'llab-quvvatladi. Aton xudosi sharafiga Axetaton shahrini bunyod etdi. Bu yerda hashamatli saroylar, binolar va ibodatxonalar bunyod qildirdi. Yangi poytaxtda, ayniqsa, malika Nefertitining mavqeyi baland ko'tarildi. Turmush o'rtog'i unga atab hashamatli Aton ibodatxonasini barpo qildi. Malikaning hashamatli kemasi saroy yaqinidagi bandargohda chayqalib turgan ekan. Xalq Nefertitini "Yuqori va quyi Misrning malikasi", "Ikki mulk malikasi" deya sharaflar edi.

Nefertitining keyingi taqdiri haqida tarixiy manbalarda ishonarli ma'lumotlar yo'q. Unung nomi uch yarim ming yillar davomida tarixchilar e'tiboridan chetda qolib ketgan. 1910-1912- yillari fir'avn Exnaton barpo qilgan yangi poytaxt Axetaton shahri qoldiqlarini tekshirayotgan nemis arxeologlari bu yerdan ko'pdan-ko'p noyob topilmalarni qo'lga kiritdilar. Nemis arxeologlari topilmalarning eng noyoblarini muzeylarga qo'yish uchun Berlinga jo'natishdi. Topilmalar Berlinga keltirib tozalanganida, hamma hayratdan qotib qoldi. Bir necha yillar mobaynida loy va tuproqqa qorishib yotgan bu tosh malika Nefertitining haykali bo'lib chiqdi. Shu tariqa insoniyat fir'avn Exnatonning xotini malika Nefertitining qiyofasini ko'rishga muvassar bo'ldi.

270-topshiriq. Ustozlaringiz haqida so'zlab bering

271-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling va ma'nosini so'zlab bering.

SHOGIRDNING SABRLILIGI

Qadimda har bir hunar muqaddas hisoblanib, e'zozlab kelingan. Har bir hunaromadning o'z ustalari va uning shogirdlari bo'lgan. Ota-bobolarimizning shogirdlar uchun axloq-odobning o'ziga xos maxsus qoidalari, urf-odatlari, madaniyatlari, milliy an'analarini ishlab chiqqan bo'lib, bu qoidalarga qat'iy rioya qilganlar. Ustozning ham, shogirdning ham o'z oldilariga qo'ygan vazifalari, burchi bo'lgan.

Ustaga shogird tushgan bolalar yoki qizlarni hunar o'rgatishdan avval ma'lum muddatda sinaganlar. Ya'ni shogird hunarni o'rganishda qiyinchiliklarga sabr-toqat qila oladimi yoki yo'qmi? Agar shogird sabrli, irodali bo'lib, har qanday qiyinchiliklarga bardosh berib o'rgansa, ustoz bu shogirdga hunar o'rgatgan. Aksincha, shogird tabiatida sabrsizlik ustunlik qilsa, unga javobini berib yuborgan.

Yoshlarni tarbiyalashda va ularga ilm hamda hunar o'rgatishga Sharq xalqlari pedagogikasidan, ya'ni ko'p asrlar mobaynida rivoj topib, shakllangan ajoyib ma'rifiy boyliklardan, ulug' olim-u fozillar, buyuk donishmadlarning asarlaridan, ibratomuz fikrlaridan har sohada foydalanish maqsadga muvofiq.

272-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling, ma'nosini tushuntirib bering.

UCH BUYUK TABIB

Bir tabib qattiq kasal bo'lib yotib qoldi. Uning shogirdlari yig'ilib ustozlarini davolashga kirishdilar. Kasal ustoz ularga:

- sevimli shogirdlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang, tuzalishdan umid uzming. o'limim yaqin qolganga o'xshaydi. Vafot topganimdan keyin juda qayg'urib oh-voh qilmang, chunki o'rnimga uchta buyuk tabib qoldirib ketaman. Shu zo'r uch tabibning maslahatlariga hammangiz e'tibor bering va boshqalarni ham shunga da'vat qiling, - dedi.

Shogirdlardan biri:

- bizlarning aziz ustozimiz, sizdan keyin o'rnigizda qoladigan uchta tabib kimlar? – deb so'radi. Ustod ko'zlarini ochdi, yonidagi shogirdlariga shunday javob berdi:

- sizlarga so'zlaganim uchta zo'r tabibning biri – poklik, ikkinchisi parhez, uchinchisi badantarbiyadir. Doimo pok, ozoda bo'lishlik. tiqishtirib apil-tapil yemasdan o'z miqdorda ovqatlanish, ichkilikdan tiyilish. badan a'zolarini harakatsiz qoldirmasdan badantarbiya bilan shug'ullanish mana shularning hammasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

Grammatik mavzu: MONOLOGIK MATN.

MONOLOGIK MATNDA MAZMUN IZCHILLIGI VA OHANG

Monolog (yunon. Monos – yakka, logos – so'z) – yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o'zgaralar replikalari bilan bo'linmagan nutqi.

Monolog og'zaki shaklda (turli yig'indilardagi nutq, ma'ruza, memuarlar va h.k) ham keng qo'llanadi.

Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa dramatic asarlarda monologlarning badiiy-estetik vazifalar doirasi ancha keng.

Monologik – drammatik personajning ruhiy holati, uning ongi-yu qalbida kechayotgan jarayonlarni, voqealarga g'oyaviy-hissiy munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajaradi.

Monologik matn so'zlovchining o'z-o'ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi bo'lib, **o'z ruhiy kechinmalari, voqelikka munosabatini** o'ziga xos ohang bilan ifodalashga xizmat qiladi. Bunday matn **tavsifiy matn** tarkibiga kirsada, **badiiy uslub** xususiyatlarini o'zida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va muhimi, ijtimoiy-estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha **tasviriy vositalari, so'z, gaplar, kiritma, undov va undalmalar, sodda uyushiq bo'lakli va ritorik so'roq gaplar** faol ishlatiladi. So'zlovchining likr-mulohaza va shaxsiy kechinmalari **I shaxs** tomonidan bayon qilinadi. **Og'zaki nutqda** monologik matn **ohang, urg'u, to'xtam, ritm, tovush, sur'ati** kabi fonetik hodisalarni kuchli ifodalovchi nutq ko'rinishi sanaladi.

Monologik – lirikaning ustuvor nutq shakli. Lirik qahramon kechinmalari, asosan, uning monologiy orqali ifodalanadi.

Matn nutq shakllariga muvofiq ravishda yozma va ogʻzaki boʻlishi mumkin. Yozma nutq ham, ogʻzaki nutq ham bir shaxs nutqidan iborat boʻlishi mumkin. Bir shaxs nutqi va bir necha shaxs nutqidan iborat boʻlishi mumkin. Bir shaxs nutqi monolog deb atalib, faqat soʻzlovchi yoki matn tuzuvchi tilidan yoziladi va bayon qilinadi. Bir necha shaxs nutqi esa diolog deb atalib, soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi fikr almashish jarayoni, ularning oʻzaro savol-javoblarini bayon qiladi.

Monolog grekcha monos – (bir necha) va logos soʻzlaridan olingan boʻlib, badiiy asarlarda ishtirok etuvchi shaxslarning oʻz-oʻziga yoki oʻzgalarga qaratilgan nutqidir. Monolog oʻz xususiyatiga koʻra ikki xildir. Agar u personajning toʻgʻridan-toʻgʻri boshqalarga qaratilgan nutq tarzida berilgan boʻlsa, ochiq shakldagi monolog yoki tashqi monolog sanaladi. Monolog personajning ichki nutqi, yaʼni, oʻz-oʻzi bilan soʻzlashuvi, suhbat tarzida ham berilishi mumkin. Bunday monolog yopiq shakldagi monolog yoki ichki monolog deyiladi.

Monologik matn soʻzlovchining oʻz-oʻziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi boʻlib, oʻz ruhiy kechinmalari, voqelikka munosabatini oʻziga xos ohang bilan ifodalashga xizmat qiladi. Bunday matn tavsifiy matn tarkibiga kirsada, badiiy uslub xususiyatlarini oʻzida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va muhimi, ijtimoiy estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha tasviriy vositalari, soʻz-gaplar, kiritma, undov va undalmalar, sodda uyushiq boʻlakli va ritorik soʻroq gaplar faol ishlatiladi. Soʻzlovchining fikr-mulohaza va shaxsiy kechinmalari 1 shaxs nomidan bayon qilinadi. Ogʻzaki nutqda monologik matn ohang, urgʻu, toʻxtam, ritm, tovush surʼati kabi fonetik hodisalarni kuchli ifodalovchi nutq koʻrinishi sanaladi.

273-topshiriq. Monolog shaklidagi koʻchirma gaplar nutqimizda koʻp ishlatiladi. Shuning uchun siz ham “Nega yerga qaraysiz. Raʼno?” mavzusida koʻchirma gapli matn tuzing. Matnga “Mehrobdan chayon”ni asos qilib oling.

274-topshiriq. Matnni monologik va dialogik nutq qismlariga boʻlib oʻqing. Har bir qismning oʻziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

NUTQNING QUDRATI

Alisher Navoiy oʻz gʻazallarini zamonasining eng bilimdon xattotlariga koʻchirtirardi. Oʻzini mashhur xattot deb hisoblovchi bir kishi: “Rozi boʻlsalar, men ham Navoiy janoblarining xizmatlarini jonim bilan bajarardim”, - dedi.

Alisher bu gapni eshitib, haligi kishiga oʻz sheʼrlarini koʻchirishga berdi. Oradan koʻp oʻtmay katta bir mushoirada “Molikush-shuoroning” oʻzlari nuqsonga yoʻl qoʻygach, boshqalardan nima kutish mumkin, degan gap tarqaldi.

Gap nimadaligini fahmlagan shoir boyagina koʻchirilgan gʻazallarni oʻqib koʻrsa, hamma yoq gʻij-gʻij xato. Maqtanchoq xattot tushmagur “koʻz” soʻzidagi “z” harfida nuqtani tushirib qoldirganidan bu soʻz “koʻr” boʻlib qolgan va sheʼr maʼnosi butunlay buzilgan edi.

26. Nutqiy mavzu: Kasbim tarixi

Grammatik mavzu: Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

Milliy kasbshunoslikda “kasb”, “mutaxassislik” tushunchalari farqlanadi. Kasb mutaxassislikka ko‘ra kengroq tushuncha bo‘lib, kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o‘zini nazorat qilish, guruhli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odamda yaqin mutaxassisliklar guruhini birlashtiradi. Masalan: shifokor – kasb, mutaxassisliklar: teropevt, pediatr, okulist, urolog, muhandis – kasb, mutaxassisliklar: konstruktor, texnolog, metallurg va h.k.

Mutaxassislik – kasbiy ta‘lim, tayyorgarlik yo‘li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko‘nikma va malakalar kompleksi bo‘lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma‘lum faoliyat turini boshqarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib mutaxassislik – kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxsiy yutuqlariga yoki o‘ziga xos vaziyat orqali umumiy natijalarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Insoniyat rivojlanishida kasbiy faoliyat turlari uning eramizgacha, Misrda qadimiy Gretsiya (Yunoniston), Rim Imperiyasi va boshqa rivojlangan davlatlarda ko‘zda tutilgan. Keyingi ilmiy-texnik rivojlanish kasblar ro‘yxatini yangilashga va kengayishiga olib keldi. AQSh rasmiy ma‘lumotlarida 1965-yilda alifbo tartibida 21741 ta kasbga va 400 mutaxassislikning ta‘riflari keltirilgan. Xalqaro kasblarni tizimlash standarti bo‘yicha 1988-yilda 9333 kasb ro‘yxatga olingan. Yagona tarif malaka ma‘lumotnomasi 7000 ga yaqin kasb va mutaxassisliklarni birlashtiradi. Bu maxsus hujjatlar ularning tizimli paytidagi kasbiy vaziyatini aks ettiradi. Nashrdan chiqqan ma‘lumotnomalar esa korrektirovkaga muhtoj bo‘ladi, chunki kasblar dunyosi doim o‘zgarib turadi. Yangi kasblar paydo bo‘ladi, kasblarning xarakteri, mehnat mazmuni yangilanib turadi, past malakali kasblar yo‘qolib boradi.

Kasb nomida ko‘pincha o‘tgan yillarda shakllangan mehnat xarakteri aks etadi. Rasmiy ma‘lumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Masalan, “farrosh kasbi” ning nomi o‘rniga “interyer bo‘yicha texnik” nomini kiritish mumkin, shunda kasbning qadri, uning malakaviy darajasi ko‘tariladi, asosiysi, ishlab chiqarish rivojlanishi tezlashadi. Ko‘p kasb va mutaxassisliklar nomi o‘zgartirilmasa ham bo‘ladi, masalan: shifokor, o‘qituvchi, muhandis, muharrir, zargar va h.k. Ularning mehnat mazmuni o‘zgaradi, ammo kasbning nomi uning mohiyatini anglatadi va mehnat mahsuldorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomini kiritish zarurati kelib chiqadi. Yangi kasblar ro‘yxati kechikish bilan rasmiy ma‘lumotlarga kiradi. “Menejer” kasbi bugungi kunda keng tarqalgan.

Kasb faoliyatining samaradorligi shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda, uning ruhiyati, jismoniy sog‘lig‘i hamda holati, undan mavjud sifatlarning bajarilayotgan faoliyati talablarga mosligi darajasi tushuniladi. Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqeyi bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz

hisoblansa, unda kasb jamiyatda mavjud bo'lgan nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi.

Kasb mansabga intilish asosida, haqiqiy tashqi mas'uliyatlar zahirida, ota-ona, do'stlarning maslahatlari orqali yoki omadga bog'liq holda tanlanadi. Lekin kasbdagi romantika odatda tezda yo'qoladi.

Ish joyi va kasb tanlash motivlari E.S.Chuchunoy nomidan klassifikatsiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

Daminant (kasbga qiziqishni ustun turushi);

Qobilyat bilan bog'liq har doim insonni qiziqitirib kelgan shart-sharoitlarni ro'yobga chiqarish);

Komformist;

Kasbiy motivatsiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning, ya'ni yaqinlarini, do'st, tanishlarining maslahatlari bilan);

L.M. Bomburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo'luvchi olimlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

- Ijro va musiqa ijro etishga bo'lgan ehtiyoj;

- Musiqadan zavqlanishga bo'lgan ehtiyoj;

- Musiqa asarlarini ijro etishda o'zi tashabbus ko'rsatishga intilishi;

- Tinglovchilarning qadriyatini ko'tarishi ularga rohat baxsh etish xohishi.

Albatta yuqoridagilar musiqa ijrochilik faoliyatining to'liq motivlari emas. Ular faqatgina musiqachilik faoliyatini boshlashga olib keladi.

A.P.Vasiliev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o'tadi:

1. Insonlarni davolash istagi;

2. Og'ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og'riqlardan xalos etish istagi;

3. O'z yaqinlarining sog'lig'i haqida qayg'urish imkoniyati;

4. Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish;

5. O'z sog'lig'i haqida qayg'urish;

6. Moddiy qiziqishlar.

275-topshiriq. "Sohangizning vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida matn tuzing.

DUNYODAGI ENG XAVFLI KASBLAR O'NLIGI

Istiqbolda har qanday kasb ham xavfli bo'lishi mumkin. Hatto buxgalterga ham davlat tomonidan jiddiy jarima belgilanishi, menejer esa zo'ravon mijozga yo'liqishi hech gap emas. Qiyin damlar hammada bo'ladi, biroq xatolar kechirilmaydigan kasblar ham bo'ladi. Bu yerda gap direktor bilan yoqimsiz suhbat emas, inson hayoti haqida bormoqda. "Don't Panic" dunyoning eng xavfli 10 kasbi haqidagi ma'lumotlari bilan bo'lishdi. Bu kasblarni tanlashdan avval ko'p o'ylab ko'ring.

Ilon zahri yig'uvchi – mutaxassis o'z kunini xavfli ilonlar bilan birga o'tkazib, ularning zaharini qo'lda tortib oladi. Keng ko'lamli xavfsizlik choralariga qaramay, doim qandaydir kutilmagan ko'ngilsizliklar ro'y berib turadi.

Buqalar reyderi – bu kasbni aniq oddiy deb aytib bo'lmaydi. Taxminan 90-yillar oxirida AQSh da buqalar poygasi keng tanila boshlagan. Chavandoz atigi 8 soniyalik chiqishi uchun katta summani qo'lga kiritishi mumkin. Statistika ko'ra, reyder har 1 marta jiddiy jarohat olar ekan.

Konchi – juda qiyin va xavfli ish. Konchilar hatto barcha xavfsizlik tizimlari bilan ta'minlangan sharoitlarida ham o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi. Ularga har kuni xavf-xatar soya soladi: katta chuqurlik, atrofdagi yuqori harorat, portlashlar, ko'chkililar, metan va gazdan zaharlanish ehtimoli...

Timsohlar bilan kurashuvchi (restler) – ha, bu dunyodagi eng keng tarqalgan bo'lmasa-da, haqiqatda mavjud kasb. Timsohlarning og'ziga qo'rqmasdan bosh so'quvchi botirlarni Osiyoda ko'rish mumkin – Bangkok hayvonat bog'ida bunday shoular doimiy tarzda o'tkaziladi.

O't o'chiruvchi – o't o'chiruvchilar barcha mamlakatlarda juda yaxshi tayyorgarlikdan o'tishadi. Shunday bo'lsa-da, o'tdan qo'rqmas jasur kurashchilar har kuni xavf ostida mehnat qilishadi.

Inkassator – banklarni o'marish faqat jangari filmlarda bo'ladi, deb o'ylaysizmi? Aslida inkassatorlar haqiqatda o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi. Navbatdagi hujum qachon amalga oshishini hech kim bilmaydi.

Politsiyachi – politsiya xodimi murakkab vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'ymay iloji yo'q, chunki uning to'g'ridan-to'g'ri vazifasi – tinch aholini himoya qilish. Shimoliy Amerikaning ko'p mamlakatlarida qaynoq nuqtalardagi askarlardan ko'proq politsiyachilar halok bo'ladi.

O'rmonchi – og'ir va ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolgan ish. O'rmonchilar deyarli hamma narsani nazorat qilib bo'lmaydigan qalin daraxtzorlarda mehnat qilishlariga to'g'ri keladi. Bolta va arra bilan ishlash xavfli, daraxtni nazoratdan chiqarish ham xavfli, umuman har kuni xavf ostida ishlash juda qiyin.

Qutqaruvchi – bu soha vakillari bironing hayotini saqlab qolish uchun o'z hayotlarini xavf ostiga qo'yishadi. Eng qiyini, sohil bo'yida ishlaydiganlarga – statistikaga ko'ra, qutqaruvchilarning aksariyat qismi aynan dengizda halok bo'lar ekan.

Neft quduqlarini burg'ilovchi – bu ish uchun juda yaxshi haq to'lanadi, shuning uchun ko'pchilik uning qanchalik xavfli bo'lishi mumkinligini unitadi. Burg'ilovchilar har kuni yonuvchan va juda zaharli moddalar bilan kurashishga to'g'ri keladi, bu esa katta xavf degani.

276-topshiriq. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzing.

DUNYODAGI ENG BAXTLI KASB EGALARI REYTINGI

Britaniyaning "The Guardian" nashri "Carrerbliss" kompaniyasi bilan hamkorlikda eng baxtli kasb egalari reytingini tuzdi. Olib borilgan tadqiqot natijasida ma'lum bir kasbni tutgan kishilar boshqalarga qaraganda hayotdan mamnunroq ekanligi aniqlandi. To'liq reyting quyidagicha ko'rinishda:


Muhandis;

Sartarosh;
 O'qituvchi;
 Hamshira;
 Marketolog va PR bo'yicha mutaxassislar;
 Terapevt;
 Bog'bon;
 Olim;
 Santexnik;
 Shaxsiy yordamchi.

277-topshiriq. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o'yin senariysini tuzing va uni instenirovka qiling.

Grammatik mavzu: SOHA LUG'ATLARI. ULARDA TERMINLAR VA BIRIKMALARNING BERILISHI

Tilda yangi paydo bo'lgan va hali tilimizda faol qo'llanmaydigan so'zlar neologizmlar(yangi so'zlar) deyiladi. Masalan, *uyali aloqa, raqamli tizim kabi*



278-topshiriq. Hozirgi kunda o'zbek tiliga kirib kelgan qanday yangi so'zlarni bilasiz? Sohangezga oid yangi atamalarni yozing.

279-topshiriq. Eski o'zbek tilidan tiklangan yangi so'zlarning ma'nosini tushuntirib, ular ishtirokida gaplar tuzing:

Anjuman, badal, vazir, bayonnoma, hakami, vasiqa, boj, voris, devonxona.
 Yuqoridagi ro'yxatni davom ettiring.

Misollar keltiring

<i>yangi yasalgan so'zlar</i>	<i>yangi ma'no kasb etgan so'zlar</i>	<i>yangi kirib kelgan so'zlar</i>

280-topshiriq. “Innovatsiya – davr tabii” mavzusida kichik matn yozing.

281-topshiriq. Quyida qanday atamalarning izohlari berilganini toping:

1. Qisqa xulosa.
2. Yuqori malakali yo‘llangan boshqaruvchi.
3. Mol-mulkni davlat tasarrufidan chiqarish.
4. Mahsulotni sotish choralari majmuyi.
5. O‘rta maxsus o‘quv yurtlari.
6. Idora, korxonona, firma egallagan joy.
7. Rasmiy dallol.
8. Qarzini to‘lashga qurbi yetmagan korxonona.

Адвокат – advokat (**lot. Advocatus – taklif qilaman**). Oqlovchi, himoyachi so‘zlari advokat ma’nosini to‘liq bera olmaydi.

Агрессия – agressiya, tajovuz

Акционер – aksiyador, hissador

Амнистия – amnistiya, avf umumiy

Альтернатив – muqobil

Аудитор – auditor. **Taftishchi deb berilishi to‘g‘ri emas.**

Аэропорт – aeroport. **Bu so‘zning “tayyoragoh” tarzida ishlatilishi noto‘g‘ri.**

Банкротство – bankrotlik. **Bu termini “sinish”, “kasodga uchrash” tarzida qo‘llash to‘la ma’nosini bera olmaydi.**

Бизнес – biznes. **Bu so‘zni “tadbirkorlik” deb qo‘llash noto‘g‘ri.**

Бухгалтер – buxgalter. **Bu atamani “hisobchi” deb berish noto‘g‘ri.**

Газета – gazeta. **“Ro‘znoma” deb qo‘llash to‘g‘ri emas.**

Декларация – bayonot

Капитал – kapital

Категория – toifa

Квалификация – ixtisos, malaka, kvalifikatsiya

Классификация – tasnif

Компенсация – kompensatsiya. **“To‘lov” deb ishlatilishi noto‘g‘ri.**

Конкуренция – raqobat

Критерий – mezon

Лицензия – litsenziya. **Bu atamani “ruxsatnoma” deb qo‘llash to‘g‘ri emas.**

Маклер – dallol

Наркотик – narkotik

Норма – me‘yor

Оборот – aylanma

Патент – patent. **Bu so‘zni “ruxsatnoma” so‘zi bilan almashtirish mumkin emas.**

Пенси – pensiya, **“nafaqa” so‘zi ruscha “пособие” so‘ziga to‘g‘ri keladi.**

Приватизация – xususiylashtirish

Процент – foiz

Процесс – jarayon

27. Nutqiy mavzu: Iqtidor va mehnat

Grammatik mavzu: Matnda soʻz va termin tanlash

MEHNAT

Mehnat jamiyat yoki alohida individ talab va ehtiyojlarini qondirish uchun bajariladigan faoliyat turidir. Mehnat iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida koʻriladi.

Mehnat – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini oʻzgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur boʻlgan moddiy va maʼnaviy neʼmatlar yaratiladi.

Insonning faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. Mehnat odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim belgidir. Mehnat tufayli inson tabiatdagi narsalarni oʻzgartiribgina qolmaydi, balki oʻzi ham kamol topadi. uning aqliy va jismoniy qobiliyati oʻsadi. Mehnat jarayonida inson tabiat kuchlarini oʻz maqsadiga boʻysundiradi.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan mehnat taqsimoti yuzaga keladi va borgan sari chuqurlashib boradi, mehnatning yangi turlari yuzaga kelib, ular mustaqil vazifaga ega boʻladi. Mehnatdagi ixtisoslashuv tufayli tabiat sirlari chuqur oʻrganiladi, tabiiy narsalar toʻlaroq ishlatiladi, hatto, ularni xossalari oʻzgartiriladi. Mehnat taqsimotining darajasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajada ekanligini ifodalaydi. Mehnat turlari yuzaga kelishi bilan mehnat faoliyati natijalarini ayirboshlash, har xil mehnatni bir-biriga moslashtirish ehtiyoji tugʻiladi. Bu esa mehnatga ijtimoiy tus beradi, chunki mahsulotlar va xizmatlar koʻpchilik mehnatining natijasiga aylanadi. Shunday sharoitda mehnatni boshqarish tizimi yuzaga keladi va u maxsus vazifaga ega boʻladi. Mehnat natijasi (mahsulot) tovarga aylanganda, yaʼni pul vositasi bilan ayirboshlanganda, mehnatning qiymat yaratishdagi roli jihatidan konkret va abstrakt mehnatga boʻlinishi yuz beradi. Mehnat oʻzining mazmuni va xarakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali (murakkab) va malakasiz (oddiy) mehnatga boʻlinadi.

Aqliy mehnat – insonning tafakkur faoliyati. Bunga muhandis, vrach, agronom, oʻqituvchi, olim va boshqalar mehnati misol boʻla oladi. Jismoniy mehnat – insonning jismoniy faoliyati. Bunga ishchi, dehqon, kosib mehnati misol boʻladi. Malakali mehnat maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Malakasiz mehnat maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi, masalan, yuk tashuvchi, farrash, qorovul mehnati.

Fan-texnika taraqqiyoti taʼsirida mehnat vositalari mukammallashadi. xodimlarning mehorati, malakasi oshadi, ishlab chiqarishni kompleks mexunizatsiyalash, avtomatlashtirish, axborotlar texnologiyasini keng joriy etish va uni tashkil etishni tubdan takomillashtirish natijasida mehnat mazmunining muntazam oʻzgarishi yuz beradi. Mehnatda har bir xodimning uzluksiz taʼlim va madaniy-texnikaviy saviyasi hamda malakasi oʻrtib borib, ham ijtimoiy, ham yakka tartibdagi mehnat samaradorligining uzluksiz oʻsib borishi asosida aholining turmush darajasi oshadi.

ENG KO'P MAOSH TO'LANADIGAN KASBLAR

Izlanish natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda eng ko'p haq to'lanadigan kasb egalari talabalik davrida ilm o'rganishga eng ko'p harakat qiladigan kishilar ekan. Bundan kelib chiqadiki, agar hozir qanchalik yaxshi o'qisak, kelajakda qachondir ilm o'rganishga qaratilgan mehnatimiz o'z samarasini, albatta beradi.

Career Castning ma'lumotiga ko'ra 2017-yilning eng ko'p to'lanadigan 10 ta kasbi ichidan 7 tasi sog'liqni saqlash sohasiga aloqador va ular yuqori darajadagi ta'lim olishni talab etadi. Ko'rsatkichlarga qarab, qo'shimcha ta'lim olish uchun ko'proq pul sarflagan kishilar vaqti kelib, olgan bilimlari yordamida sarflangan pulni bir necha barobar qilib qaytarib olishadi, deyish ham mumkin. Amerika tibbiy oliygohlari Uyushmasining xabar berishicha, yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun talabalar bir yilda 175.000 AQSh dollari atrofida xarajat qilishar ekan. Ular oliygohlarni bitirib, shifokor sifatida ishlay boshlaganlaridan so'ng esa bir yilda o'rtacha hisobda 187,200 AQSh dollari miqdorida daramodga ega bo'lishar ekan.

Eng ko'p haq to'lanadigan kasblar ro'yxatining birinchi o'rini jarrohlr egallashgan va ularning yillik daromadi o'rtacha 233,150 AQSh dollari miqdorini tashkil etadi. Ikkinchi o'rinda esa umumiy davolash shifokorlari qayd etilgan. To'qqizinchi o'rinda bir yillik o'rtacha 113,530 AQSh dollari davomad bilan huquqshunoslar qayd etilgan. Ular ham kasbiy faoliyatlarini boshlagunga qadar ko'p mehnat va mablag' sarflashadi.

Juda qiyin ish sharoitiga ega va tinimsiz ishlash talab etiladigan kasb bo'lishiga qaramasdan, havo qatnovi nazoratchilari daromadining kelgusida o'sish ehtimoli juda past. Mutaxassislar 2022-yilga borib bu kasb egalarining hozirgi daromadlari miqdori faqat 1 % ko'tarilishi mumkinligini ta'kidlashmoqda. Yonilg'i muhandislari daromadlari miqdori esa bu davrga qadar 26 % ko'tarilishi bashorat qilingan. Barcha sog'liqni saqlash sohasidagi kasblar daromadlari esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan vaqtga qadar 14 %gacha ko'tarilishi taxmin qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yoshlikda kim ko'proq ilm o'rgansa, bilimini oshirish yo'lida mehnat qilsa, kelajakda o'z xizmatlariga yarasha moddiy va ma'naviy foydaga ega bo'ladi.

282-topshiriq. Berilgan ta'rifga mos so'zni toping va uning sinonimik qatorini tuzing.

Namuna: *Biror ishni ko'ngildagidek qilib bajara olmaydigan, uddalay olmaydigan - uquvsiz, bo'shang, noshud, landavur.*

1. *Qattiq qiyinchilik bilan, qattiq urinib, mashaqqat bilan -*
2. *Bir-biri bilan tinch-totuv, do'st bo'lib yashaydigan, bir-biriga g'amxo'rlik qiladigan -*
3. *Sihat-salomatligi yomon -*
4. *Ruhan yoki jismonan kuchli darajada qiynalish -*
5. *Hayotidan o'ta norozi va qayg'u-hasrat bilan yashaydigan -*
6. *Topish-tutishi tirikchilik o'tkazish uchungina zo'rg'a yetadigan -*



7. *Biror narsa yoki faoliyat evaziga sarflanadigan mablag'* -.....

8. *Maqtanishni yoqtiradigan, o'ziga bino qo'ygan, o'zini boshqalardan yuqori qo'yadigan* -

9. *Maxsus axtarib ham topish qiyin* -

10. *Tezda tushunib yetadigan, gaplarini o'ylab gapiradigan, vaziyatga mos ish tutadigan* -.....

Yordamchi so'zlar: idrokli, arang, kibr-havoli, buromad, faqir, oralaridan qil o'tmaydigan, anqoning urug'i, xasta, tolesiz, zahmat.



283-topshiriq. Mantni o'qing va tarjima qiling.

Бенджамин Франклин известный американский деятель, ученый, журналист, бизнесмен, один из авторов американской Конституции. Сформировал свои правила морального совершенства, которым руководствовался в жизни.

Воздержание – есть не до пресыщения, пить не до опьянения.

Молчание – говорить только то, что может принести пользу мне или другому, избегать пустых разговоров.

Порядок – держать все свои вещи на их местах, для каждого занятия иметь своё время.

Решительность – решаться выполнять то, что должно сделать, неукоснительно выполнять то, что решено.

Бережливость – тратить деньги только на то, что приносит благо мне или другим, то есть ничего не растачивать.

Трудолюбие – не терять времени попусту, быть всегда занятым чем-либо полезным, отказаться от всех ненужных действий.

Искренность – не причинять вредного обмана, иметь чистые и справедливые мысли, в разговоре также придерживаться этого правила.


Справедливость – не причинять никому вреда, не совершать несправедливости и не опускать добрых дел, которые входят в число твоих обязанностей.

Умеренность – избегать крайностей, сдерживать насколько ты считаешь это уместным, чувство обиды от несправедливости.

Чистота – не допускать телесной нечистоты, соблюдать опрятность в одежде и в жилище.

Iqtidor bu
tabiat
tomonidan
in'om
etilgan
qobiliyat-
lardir





Stiv Jobs Muvaffaqiyatining 12 Sirli Qoidasi

Stiv Jobs – hozirgi kunda dunyoning eng kuchli ishlab chiqaruvchi kompaniyalaridan birining asoschisi. Uning muvaffaqiyatlari afsonaga aylandi. Bu asrab olingan bola, o'smirligida kolleжда 6 oy o'qigandan so'ng, uni tashlab ketgan, shunday bo'lsa-da, do'stlarining yotoqxonasida polda yotib yurgan, qornini to'ydirish uchun “Coca-cola”dan bo'shagan idishlarni 5 sent evaziga yig'ib sotgan insondir. Bu inson – “Apple” va “Pixar” animatsiya studiyasini tuzgan. Quyida uning 12 muvaffaqiyatga erishish qoidasi keltirilgan:

1) Sevimli ishing bilan shug'ullan. Haqqoniy harakat qil. Haqiqiy buyuk ishlar qilishning yagona yo'li, bu – sevimli ish bilan shug'ullanish.

2) Boshqacha bo'l. Boshqacha o'yla. Harbiy matros bo'lgandan ko'ra, qaroqchi bo'lgan afzal.

3) Qodir bo'lganingdan ko'ra yaxshiroq qil. Har qanday ishda imkoningdagidek muvaffaqiyatga erishishing mumkin. Uxlama! Muvaffaqiyat yanada kuchli muvaffaqiyatni olib keladi. Muvaffaqiyatlardan rohatlan! Mukammallashishni sevadigan insonlar bilan ishla!

4) SWOT-taxxis o'tkaz. Yangi kompaniyang paydo bo'lsa, oddiy qog'ozga uning kuchli va kuchsiz taraflarini yozib chiq. Kompaniyadan chirigan olmalarni chiqarib tashlashdan qo'rqma.

5) Qarorlarni tezda qabul qil. Har safar yangi katta maqsadlarga intil. Tez va hal qiluvchi harakatlarni talab qiluvchi g'oyalar yig'indisini top va ushbu oynaga sakra. Eng qiyini – birinchi qadamni tashlash. Shunchaki birinchi qadamni tashla. Hissiyotlaring va yuragingni shunga majbur qil.

6) Kichigidan boshla, lekin kattasi haqida orzu qil. Bir vaqtda ko'pgina ishlar bilan shug'ullanma. Boshida oddiy ko'p bo'lmagan ishlar bilan shug'ullan. Busqichma-busqich qiyinlariga o'tib bor. Doimo kelajak haqida o'yla.

7) Bozorda lider bo'lishga harakat qil. Foydalanmasang ham, oldingda doimo eng so'nggi texnologiyalar tursin va nazorating ostida bo'lsin. Agar eng so'nggi versiyadagi texnologiya bo'lsa ham, hech kim foydalanmasa ham, undan foydalan. Standart ishlab chiqarishda ushbu texnologiyalardan birinchi bo'lib foydalan.

8) Natijalarga erishishga diqqatingni qarat, chunki ko'pgina odamlar sening ishingning natijasiga qarab baho berishadi. Sifat namunasi bo'l. Bir qancha odamlar ish borish jarayonini ko'rishni xohlashmaydi, balki ishchilardan natijani kutishadi. Shuning uchun raqobatbardosh yutuqlaringni reklama qil. Ko'pchilik inson bu xususiyatlarni bilmasa, mahsulotingni sotib olmaydi. Asosiy diqqatingni dizaynga qarat.

9) Har xil manbalar bilan ikki ton-tonlama aloqa o'rnatishga harakat qil. Har bir inson senga nimadir foydali narsani aytishi mumkin. Birinchi navbatda, kim sening mahsulotingdan foydalansa, o'shaning fikrini eshit.

10) Yangilik kirit. Aynan liderlar tashabbuskorligi bilan boshqalardan farq qilishadi. 50 % vaqtingi yangi narsalar qilishga sarfla, qolgan 50 % ni boshqa rahbarlar uchun qoldir. Vaqtingni ko'p sarflab qo'ymaslik uchun minglab go'yalarga „yo'q“ deyishni o'rgan. Haqiqiy muhim go'yalarga diqqatingni qarat. Bu dunyoda yaxshi narsalarni yaratishga harakat qiluvchi insonlarni ishga ol. Innovatsion mahsulotlar yaratishga asoslangan korporativ madaniyatni hosil qil. Ko'pgina kompaniyalarda ko'plab ajoyib injenerlar va aqlli odamlar ishlashadi, lekin ularni birlashtiruvchi kuch kerak bo'ladi.

11) Xatolaringdan saboq chiqar. Ba'zida yangilik kiritib, xato qilasan. Eng yaxshisi, xatolaringni tan ol. Agar ushbu yangiliging boshi berk ko'chaga borib qolsa, kuchingni boshqa innovatsiyalarni yaxshilashga yo'naltir.

12) Muntazam o'rgan. Har doim bilish kerak bo'lgan yana „bir narsa“ bo'ladi. Kompaniyangdan tashqaridagi boshqa odamlar bilan go'yalaring bilan fikrlashib tur. Xaridorlaring, raqobatchilaring va hamkorlaringdan o'rgan. Agar hamkoring odamlar bo'lsa, ularni yomon ko'rsang, yaxshi ko'rishni o'rgan. Ularni maqta va bundan foyda chiqar. Dushmanlaringni ochiq, ammo halol tanqid qilishni o'rgan.

Grammatik mavzu: MATNDA SO'Z VA TERMIN TANLASH

Nutqda so'zni tog'ri tanlash va qo'llash nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi. Fikrni tinglovchiga tushunarli va aniq yetkazishda so'zni tog'ri tanlash lozim.

So'z tanlashda quyidagilarga e'tibor beriladi:


- So'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;
- Tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- So'zning syhbatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;
- So'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash.

Atamalar, kasb-hunarga oid so'zlar faqat bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanadi. Bular bir ma'noli so'zlardir. Masalan: Piyola – choy ichishga mo'ljallangan idish; leksikologiya – so'z ma'nolarini o'rganuvchi fan ma'nosidagina

qo'llanadi.

Soʻzlar ikki va undan ortiq maʼnoni ifodalasa, koʻp maʼnoli sanaladi. Avval bir maʼnoda qo'llangan soʻzning koʻp maʼnolarda ishlatilishi koʻp maʼnolikni vujudga keltiradi.

Masalan:



284-topshiriq. Lugʻatdan bir maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarga 10 tadan misol toping, ularni ikki ustunga ajratib yozing. 4 ta koʻp maʼnoli soʻzni tanlab, ularga ikkita dan gap tuzing.

NUTQ MADANIYATI HAQIDA

Nutq odobining asosiy tamoyillari:

- soʻzni qadrlash
- yaxshi soʻzlay olish
- soʻzlaganda oʻylab tushunib gapirish
- chin soʻzlash
- tilni tiyish
- suhbat sirlarini saqlash
- ezma va vaysaqi boʻlmaslik kabilarga amal qilish

Nutq madaniyatini egallash uchun ijtimoiy-ruhiy omillar:

- hozirgi oʻzbek tili va uning mavjud ifoda vositalarini puxta oʻzlashtirish
- adabiy til meʼyorlariga toʻliq amal qilish;
- soʻzlashganda muayyan axloq odob meʼyorlariga rioya etish, oʻz va oʻzgalar gapiga eʼtiborli boʻlish, oʻrinli soʻzlash, tinglash, suhbatlashish, munozara madaniyatini bilish.

Maʼno va vazifasiga koʻra shartli ravishda matnlarni uch turga boʻlish mumkin:


1. **Maʼlumot beruvchi.**
2. **Tasvirllovchi.**
3. **Tahlil qiluvchi – munosabat bildiruvchi.**

Ma'lumot beruvchi – matn bir-birini mantiqan quvvatlovchi fikrlardan tarkib topadi. Unda keltirilgan dalillar vaqt – davr nuqtayi nazaridan tartibli ketma-ketlikda beriladi. Bunday matnlarga “Qanday voqea yuz beradi?” yoki “Nima bo‘ldi” kabi savollar berish mumkin bo‘ladi. Ma'lumot beruvchi matnlar uch qismdan tashkil topadi: *kirish, asosiy qism va xulosa*.


Kirish qismida – tanlangan mavzu haqida aytib o‘tiladi.

Asosiy qismida – mavzu yoritiladi.

Xulosa qismida – fikrlar umumlashtirilib, yakun yasaladi.



Tasvirlovchi matnda – ma'lum bir voqelikka so‘z orqali tavsif beriladi. *Masalan*, tabiat tasvirida daraxtlarning tashqi ko‘rinishi, maysalar, osmon, dengiz kabi; inson qiyofasi tasvirida uning yoshi, yuz tuzilishi, qomati, ko‘zlari, tabassumi, ichki hissiy holati kabi; biror narsa (predmet) tasvirida - o‘sha narsaning vazifasi, undan foydalanish, uning tashqi ko‘rinishi va boshqalar tavsifi beriladi.



1. Tilni, so‘zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so‘zini afsona bil,

So‘zni jahon bahrida durdona bil.

2. Yaxshi so‘zli olish (nutq) – san‘atdir, noyob hunardir.

Uni egallashga intilgin:

Erdin so‘z hunar, yenchdin bo‘z hunar

(“Mahbub ul-qulub”, 82-bet).

3. Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir: Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig‘i so‘z bila.

(“Mahbub ul-qulub”, 79-bet).

So‘z zohir etar zamir ishi ko‘pragidin,
Til muxbir erur ko‘ngul nihon emgagidin

Fahm ayla kishi holini soʻz demagidin,
Kim berdi xabar hadisi koʻnglidagidin

(*"Nazmul-javohir"* dan, 41-bet).

4. Kishining soʻzi (nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla kiromiydiru bas,
Soʻz durri ishining intizomiduru bas,
Sihat onchaki, ahli aql komiduru bas,
Aqligʻa dalil aning kalomiduru bas.

(*"Nazmul-javohir"* dan, 25-bet).

5. Soʻzlaganda diling bilan tiling bir boʻlsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila boʻlsang,
Tilu koʻnglungni bir qilib birroʻy,
Nuqta sursang shukufiau xandon,
Zist qilsang, kushodou xushroʻy.

(*"Arbain"* dan, 59-bet).

6. Soʻzlaganda oʻylab soʻzla, tushunib, bilib gapir: Soʻzni koʻnglungda pishqarmaguncha tilga kelturma, Harnakim koʻnglungda boʻlsa til surma.

(*"Mahbub ul-qulub"*, 83-bet).

7. Xushmuomala, shirinsoʻz boʻl. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

Har kimki chuchuk soʻz elga izhor aylar,
Har neki agʻyor durur yor aylar,
Soʻz qattigʻi el koʻngliga ozor aylar.
Yumshogʻi koʻngullarni giriftor aylar.

(*"Nazmul-javohir"* dan, 43-bet).

8. Chin, toʻgʻri soʻzla, nutqingda halol boʻl. Yolgʻon soʻz baxtsizlik keltiradi. Chin soʻz moʻtabar, yaxshi soʻz muxtasar... soʻzki fashohat zavaridin muayan emasdur, anga chinlik zevari basdur. Yolgʻonchi har necha soʻzida fasihiroq, soʻzi qabih.

(*"Mahbub ul-qulub"*, 63-bet).

Xiradmand chin soʻzdin oʻzga demas,
Vale bari chin ham deguluk emas.
Kishi chinda soʻz zebo, durur,
Necha muxtasar boʻlsa avlo durur.

(*"Mahbub ul-qulub"*, 83-bet).

9. Yaxshi, ezgu soʻz (nutq) kishiga obroʻ, baxt keltiradi. Ezgu soʻzli boʻl:

Kim istasa mazhari karomat boʻlmoq,
Har navʻ ishda istiqomat boʻlmoq
Soʻzdir anga moʻjibi gʻaromat boʻlmoq,
Til zabtidadur anga salomat boʻlmoq.

(*“Nazmul-javohir” dan, 43-bet*).

10. Tildan tuhmat uchun foydalanma. Tuhmatchidan qoch, undan nafratlan:

Birovkim yolgʻon soʻzni birovga bogʻlagʻay, oʻz qaro boʻlgʻon yuzin
yogʻlagʻay. Kabira gunohdur – oz soʻz hamki oʻtrukdur, zahra gunohdur – oz soʻz
hamki oʻtrukdur, zahri muhlikdur – agarchi miqdori oʻksukdur.

(*“Mahbub ul-qulub”, 61-bet*).

El aybini ayturgʻa birovkim uzotir til,
Oʻz aybini fosh aylagali til uzotur bil.

(*“Mahbub ul-qulub”, 69-bet*).

11. Tilingni tiy. Koʻp soʻz, ezma va vaysaqi boʻlma. Bu zararlidir.

Befoyda soʻzni koʻp aytma va foydaligʻ soʻzni koʻp eshiturdin qaytma. Oz
degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqilur.

(*“Mahbub ul-qulub”, 82-bet*).

28. Nutqiy mavzu: Yetuk mutaxassis

Grammatik mavzu: Matn tahlili va tahriri

SHAXSNING KASBIY KAMOLOTI

Mehnat insonning mavjudligi va taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mehnat ijtimoiy muhitni, subyektning faoliyatida shakllanishi va uning ehtiyoji, maqsadi, qadriyatlari tizimi hamda hayot mazmunini anglash vositasidir. Mehnat faoliyati jarayonida inson psixikasi namoyon bo'ladi va rivojlanadi, shu bilan bir qatorda inson shaxs sifatida shakllanib, uning yangi qirralari ochilib boradi.

Shaxs va faoliyatning murakkab hamda ko'p qirrali aloqalari shaxsning psixik boshqaruvi, shaxs xarakterini determinatsiyalovchi funksiyalar va tuzilishlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, faoliyatining vaqt va makon kabi boshqa maxsus tavsiflari bilan shartlangan.

Shaxsning faoliyat xarakteri bilan bog'liq ravishda rivojlanish jarayoni qator shaxsiy va faoliyat omillarining o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Ma'lumki, maqsadga yo'naltiruvchi xulq-atvor tashqi faoliyat va ijtimoiy omillar hamda shaxs xususiyatlarining o'zaro ta'sirida namoyon bo'luvchi mehnat subyektning sifatlar tizimini yuzaga kelishi va shakllanishi, aniq xulq-atvor va faoliyat shakllari uchun xos bo'lgan shaxs xususiyatlarini shakllanish vaziyatlari bilan tavsiflanadi. Shu bilan bir vaqtda, shaxsni faoliyatga jalb qilinganligi, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga bo'lgan ustanovkalari, subyektning mehnat jarayoniga shaxsning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanuvchi yuqori imkoniyatlar bilan bog'liqdir.

"Shaxs yetukligi" tushunchasi yuqori darajada shaxsiy, psixologik, ijtimoiy va kasbiy rivojlanganlik bilan tavsiflanib, uning tashqi voqealikka nisbatan adektiv munosabatida, ma'naviy-axloqiy, madaniy-kasbiy va boshqa me'yorlarni o'zlashtirishi hamda jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlari, pozitiv motivlarning namoyon bo'lishida qadriyatlar tizimi, mazmuni hamda organism va psixikaning funksional resurslari aks etadi.

Yetuklik – shaxs rivojlanishining shunday darajasiki, bunda shaxs o'zining fuqarolik, oilaviy, kasbiy va boshqa majburiyatlarini to'liq boshqarishga qodir bo'ladi, qolaversa jamiyatning aniq sohalorida va mehnat faoliyatida samarali ishtirok etadi.

Muayyan bir shaxsning yetuklik darajasi uning individual xususiyatlari va ularning ijtimoiy muhit talablari, taraqqiyot sharoitlari bilan muvofiqlik darajasiga bog'liqdir. Yetuk shaxs quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi: axloqiy va ijtimoiy, mustaqillik, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, xarakterning qat'iyiligi, bag'rikenglik, ishonchlilik, samimiylilik va boshqalar.

Yetuklik davridagi shaxsning emotsional sohasi serqirraligi bilan ajralib turadi, ularda kayfiyatning tez o'zgarishi kuzatiladi. Yetuklik davrida yetakchi faoliyat mehnat hisoblanadi. Kasbiy faoliyatda orttirilgan tajriba muhim ahamiyatga ega. Muloqot va shaxslararo munosabatning ahamiyatini kuchaytiruvchi oraliq va boshqaruvchi funksiyalar bilan bog'liq holda kasbiy xulq-atvorning yangi shakllari

rivojlanadi va namoyon bo'ladi. Faoliyat sohasining doirasi kengayadi, yangi xulq-atvor strategiyalari yuzaga keladi, shaxsiy mehnat jarayoni va uning natijalariga hamda boshqa mutaxassislariga nisbatan mas'uliyatlilik hissi ortadi. Mehnat yuklamasining kattaligi, funksional zaxiralarning susayishi va unga nisbatan e'tibor hamda vaqtning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklashga sarflanishi natijasida shaxsda dam olishni tashkil qilinishi biroz cheklanadi.

285-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalarini o'zbek tiliga tarjima qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Высококонравственный человек, широкой души человек, требовательный руководитель, безответственный руководитель, нечистоплотные люди, мужественный и компетентный руководитель, человек с черной душой.

286-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'qing. Matndan ularning tarjimalarini toping. Bu gaplarni aniqlashda qaysi so'z va so'z birikmalariga tayandingiz?

1. Нам нужны такие руководители, которые обладают неординарными организаторскими способностями.

2. Облеченный высокой должностью человек должен быть великодушным, уметь прощать ошибки, совершенные невзначай.

3. У руководителя должны быть такие качества, как воля, убежденность, честь и достоинство.

4. Похвальным является и то, когда люди принимают своего руководителя за образец культуры, нравственности, приличия.

287-topshiriq. Quyida berilgan so'zlardan qo'shimchalar yordamida shaxsning fazilatlarini, sifatlarini bildiruvchi so'zlar yasang.

Masalan: aql - aqli

tashabbus -, oriyat -, mas'uliyat -, talab -, salobat -, chang'a -, iroda -, fido -, aql-idrok -, matonat -, xalq -, shuhrat -, ko'z bo'yamoq -, madaniyat -, javob -

288-topshiriq. Matn asosida rahbarga xos zarur fazilatlarini sharhlab bering.

1. Eng avvalo, rahbardan aql-idrok talab etiladi, (nima uchun?)....

2. Rahbar iymoni butun, oriyatli bo'lishi kerak, chunki.....

3. Bizga tashkilotchi, tashabbus ko'rsatib, boshqalarni ham ergashtira oladigan rahbarlar kerak, negaki.....

4. Rahbar el-yurtimizning ma'rakasidan qolmasligi kerak, chunki.....

289-topshiriq. “Zamonaviy rahbar portreti” mavzusida 500 soʻzdan iborat hajmdagi esse yozing.

MEHNAT SUBYEKTINING KASBIY SHAKLLANISHI OMILI

Kasbiy yetuklikni mutaxassis shaxsining shakllanishi va mehnat subyektining kasbiy shakllanishi jarayoni sifatida koʻrib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon mehnat faoliyatini boshqarish va amalga oshirish bilan bogʻliq, lekin u faqatgina operatsional soha taraqqiyoti, bilim, koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayonda shaxsning kasbiy kamolati asosiy qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarining taraqqiyoti va turli omillar taʼsirida uning dinamikasini boshqarish muhim rol oʻynaydi, buning natijasida shaxs oʻzini kasbiy faoliyat subyekti sifatida anglay boshlaydi va kasbning ijtimoiy ahamiyatlilik darajasini tushunadi.

Mutaxassisning shakllanishi faqatgina chuqur va keng doiradagi bilim, koʻnikma va malakalarga, kasbiy tajriba va mahoratga ega boʻlish bilan cheklanib qolmaydi, balki tarbiyalanganlik, yetuk shaxs taraqqiyoti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs tomonidan shaxsiy va ijtimoiy maqsadlar, pozitiv kasbiy motivatsiyaning shakllanishi, ijtimoiy va kasbiy masʼuliyat, ishqanchlik qobiliyati, mehnat subyektining yetukligini anglatuvchi boshqa xususiyatlarni rivojlantirishga intilishini aniqlashtiruvchi, mahoratning kasbiy komponentlari egallanadi, rivojlantiriladi va faollashtiriladi.

Mutaxassis shaxsning kasbiy yetukligi quyidagi shakllarda namoyon boʻlishi mumkin:

Kasb bilan bogʻliq maʼnaviy qadriyatlar tizimini tushunish.

Tajriba ortirish va shaxsiy tajribani tahlil qilish.

Namunaviy mutaxassisning adekvat modelini qabul qilish va unga oʻxshash uchun oʻz ustida ishlashga intilish.

Oldinga qoʻyilgan maqsadga erishish uchun shaxsiy kuch va resurslarni maksimal darajada bartaraf etish.

Mehnatdan qoniqish hissining paydo boʻlishi.

Oʻzini oʻzi rivojlantirishga intilish.

Shaxs xulqida buzilishlarning mavjud emasligi

Shaxs organizimi va psixikasining funksional imkoniyatlari va ularning kasbiy talablarga muvofiqlik darajasi haqidagi tasavvurlarga ega boʻlish.

Aholining tinchligi, osoyishtaligini saqlash, har bir hududda barqarorlikni taʼminlash mustaqil davlatimizning asosiy vazifalaridan biridir. Bu ishda rahbarlarning vazifalari oʻta masʼuliyatlidir. Shunday ekan, rahbar qaysidir fazilatlar bilan boshqalardan ustunroq boʻlishi kerakmi yoki yoʻqmi? Xoʻsh, biz bugun katta ishonch bildirayotgan rahbarlarimizdan qaysi sifatlarni talab qilishimiz zarur?

Buning javobi oddiy. Eng avvalo, rahbardan aql-idrok talab etiladi. Aql-idrokli boʻlish bilan bir qatorda rahbar odam mustahkam irodali, iymoni butun, oriyatli boʻlishi shart. U bagʻri keng, ayni zamonda talabchan boʻlishi darkor.

Jasur, matonatli rahbar elning duosini oladi, mas'uliyatni anglamaydigan, maqto'vni o'zi olib, xato va kamchilikni boshqalarga ag'daradigan, tili boshqa-yu dili boshqa kimsalardan xudo saqlasin.

Bizga tashkilotchi, tashabbus ko'rsatib, boshqalarni ham ergashtira oladigan rahbarlar kerak, chunki bunday insonlar xalqni jipslashtiradi, savobli ishlarga safarbar etadi.

Ichi qora odamlar rahbar bo'lolmaydi. Yuksak lavozimli kishi kechirimli bo'lishi, bilmay xato qilgan xodimlarga xatolarni tuzatish imkonini berishi zarur.

Ikkinchi talab shuki, rahbari chinakam yurtparvar, vatanparvar bo'lmagan joyda ish olg'a siljimaydi, el-yurt tashvishini o'z tashvishi deb qabul qiladigan, el dardi bilan yonib yashaydigan insongina xalq hurmatiga loyiq bo'ladi.

Rahbarning obro'-e'tibori po'rim, kiyinishi, savlat-u salobati bilan emas, balki yetim-yesirlarga, nogironlarga, muhtojlarga, keksalarga mehribonligi bilan o'lchanadi. El-yurtning ma'rakasidan qolmaslik kerak. Dabdabali to'ylarga bormaslik mumkin, lekin azada azador bilan birga bo'lish kerak. Yetim-yesirning boshini silagan, ulardan yordamini ayamagan odam hech qachon xor bo'lmaydi. Xalqqa va vatanga sadoqat ota-onaga sadoqatdan boshlanadi. Ota-onasi rozi insondan xudo ham rozi.

Ilgari bir "kasb" bo'lardi. Uning nomi "partiya xodimi" edi. U zamonlar o'tib ketdi. Biz rahbarlik lavozimlarida o'qimishli, ilm-u fanga chanqoq, izlanuvchan kishilarni ko'rmoqni istaymiz.

Rahbar shaxs eng kamida bitta kasb-u hunar negizini bilishi, shu kasb egasi sifatida boshqalarga ustozlik qila oladigan darajada bo'lishi shart. Madaniyat, odob-axloq bobida ham kishilar o'z rahbarlaridan namuna olsa naqadar ibratli bo'lardi!

Chinakam rahbar yengil-yelpi shuhratga, quruq dabdabaga uchmaydi. U o'z qadrini bilishi barobarida o'zgalarning ham qadriga yetadi.

Rahbar odamlarga ishonishi kerak. O'z o'rinbosarlariga, yordamchilariga ishonib, ularning har biri o'z sohasida mustaqil tarzda ish yuritishiga imkon berishi zarur. Aks holda, hamma vazifa va burchlarni faqat o'z gardaniga olib, asosiy yo'nalishdan chalg'iydi, diqqati bo'linadi, mayda-chuyda tashvishlarga ko'milib qolib, umumiy rahbarlik jilovini qo'ldan chiqarib qo'yadi. "Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa-da, dong'i chiqmas" degan naql bor.

Butun o'tkazayotgan siyosatimiz aniq, muddao ravshan, taraqqiyot dasturimiz mavjud. Endi ularni amalga oshiradigan, mustaqilligimiz va xalqimiz farovonligi yo'lida fidoyilik qila oladigan rahbarlar kerak.

Ma'lumki, Prezidentni xalq saylagan. Uning siyosatini qo'llab-quvvatlamagan, ko'nglidan o'tkazmagan, ikkilangan odam rahbarlik lavozimida ishlay olmaydi. Yuragi, tafakkuri, mafkurasi, niyati boshqa bo'lgan kimsalar bundan buyog'iga aravadan tushib qolaveradi.

AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA MEHNAT BOZORI VA UNI TARTIBGA SOLISH

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozori va uni tartibga solish muammolarini o'rganish, ularni yechish yo'llarini hozirgi zamon talabiga mos holda belgilash va takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biridir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mehnat bozorini rivojlantirish va uning amal qilish mexanizmi samaradorligini oshirish, jahonda ishsizlikni pasaytirish aholi bandligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ishsizlik darajasining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekiston Respublikasida ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi axolisining o'sishi, mehnat resurslari sonining ko'payishi natijasida ularning oqilona bandligini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Mehnat resurslari bandligini oshirish va ishsizlikning oldini olish masalalari makroiqtisodiy tartibga solish tizimida hamda iqtisodiy taraqqiy etgan bozor tuzilmasi shakllangan mamlakatlarning butun iqtisodiy siyosatida eng asosiy muammolardan biridir.

Aholi va mehnat resurslarining o'sishi yuqori bo'lgan respublikamizda mehnat bandligini ta'minlashning eng samarali usullaridan biri yangi ish joylarini yaratishdir. Buning uchun respublika hududlarida, mazkur hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga mos keluvchi yangi ish joylarini yaratish kerak.

Iqtisodiyotning ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoji esa iqtisodiy ish o'rinlarining soni bilan belgilanadi. Aholi ham iqtisodiy ish o'rinlariga, ya'ni hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromadga ega bo'lishini ta'minlaydigan ish o'rinlariga ehtiyoj sezadi.

Ish o'rinlarini yaratish bo'yicha dastur – aholining muayyan vaqt davomida ish o'rinlariga bo'lgan umumiy ehtiyojlarini iqtisodiyotda mavjud bo'lgan ish o'rinlarining tarkibiy tuzilishi hamda aholining samarali bandlikka bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ish o'rinlarining miqdor va sifatini ifodalaydigan ko'rsatkichlar natijasidir. Bu dastur davlatning bandlik bo'yicha siyosatini amalga oshirish vositasi hisoblanadi va u davlat idoralarining ish o'rinlarini yaratish masalasida qilgan say-harakatlarini miqdor jihatidan ham, sifat jihatidan ham muvofiqlashtirishga qaratilgan.

Ish joylarining shaharlar va qishloqlarda mutonosib holda yaratilishi ixtisoslashuvni va ish joyida mehnat unumdorligini oshirishni tezlashtiradi. Global bozorlar bilan bog'liq ish joylari yaratilishi mamlakatga yangi texnologik boshqaruvning yangi usullarini olib keladi. Tabiiy resurslarga boy bo'lgan davlatlar o'z eksportlarini diversifikatsiya qilishlari zarur. Shunga ish joylarining global bozorlar bilan bog'liqligi, jahon bozoriga moslashuvchanligi ortadi.

Har bir mamlakatda ish joylari yaratilib borilar ekan, ularning atrof-muhitga ta'sirini ham hisobga olish dolzarb ahamiyatga ega. Agar ish joylari atrof-muhitga

zarar keltirsa, samarali hisoblanmaydi. Shuning uchun qanday ish joylari mamlakat iqtisodiyoti taraqqiy etishi uchun zarur ekanligi doimo tahlil qilib borilishi zarur.

290-topshiriq. “Sohamiz ravnaqi” mavzusida matn tuzing.

Grammatik mavzu: MATN TAHLIL VA TAHRIRI

MATN TAHLILI QUYIDAGICHA BO'LADI:

<i>Matn tuzilishi</i>	<i>Leksik qurilma</i>
<i>Matn mavzusi</i>	<i>Maqola deb nomlangan.</i> <i>Maqola mavzusi</i> <i>Maqolada to'xtalib o'tiladi, tahlil qilinadi, baho beriladi.</i> <i>Muallif nuqtayi nazarini yoritiladi.</i>
<i>Matn kompozitsiyasi</i>	<i>Maqola kabi qismlardan iborat bo'lib,</i> <i>Unda fikr yuritilib, deya yakunlanadi.</i>
<i>Maqola muammosi</i>	<i>Ushbu maqola kabi masalalarni yoritishga bag'ishlangan bo'lib,</i> <i>Muallif kabi muammolarni hal etishga kirishadi. ustida to'xtalib o'tadi.</i> <i>Muallif o'z fikrini quyidagicha bayon qiladi:</i> <i>Muallif ilmiy dalillarga asoslangan holda quyidagi xulosaga keladi:</i>
<i>Muallifning ilmiy qarashlari</i>	<i>Muallif yoritishda kabi asosli dalillar keltiradi.</i> <i>U o'z fikrini o'rinli iqtibos, kabi dalil, raqamlar bilan asoslaydi.</i>
<i>Xulosa</i>	<i>Muallif shunday xulosaga keladiki, Muallif o'z fikrini umumlashtirib Yuqorida keltirilgan asosli dalil va isbotlardan kelib chiqib,</i> <i>Umuman olganda</i> <i>Ushbu dalillar shuni ko'rsatadiki</i>

Bunday matnlarga ko'pincha “Nima uchun” so'rog'i beriladi. Ular: kirish, tezis, asosiy qism (dalil-isbot) va xulosadan iborat bo'ladi. Kirish (tezis) odatda biror ta'rifdan boshlanadi yoki “Biz qanday insonlarni ziyoli deymiz?” kabi savol murojaati bilan boshlanishi ham mumkin. Yuqorida berilgan matn turlari sof holda kam uchrashi mumkin. Asosan ma'lumot beruvchi, tasvirlovchi va tahlil qiluvchi matn turlari ko'proq uchraydi.

291-topshiriq. Berilgan reja asosida fikringizni bildiring.

MATNING TAXMINIY REJASI

Tezis	Rahbar xalqparvar inson bo'lishi kerak
Isbot/dalil keltirish	O'z manfaatini ko'zlab emas, balki el dardi bilan yonib yashaydigan insonlar xalq hurmatiga loyiq bo'ladilar
Xulosa	Xalqsevar rahbar doimo elning duosini oladi

29. Nutqiy mavzu: Kasb bayrami
Grammatik mavzu: Matn mazmunining qisqacha bayoni
(rezyume) uning tuzilishi va ifoda materiallarining xususiyatlari

PROKURATURA ORGANLARI KASB BAYRAMI

Oliy majlis deputatlari “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida” gi qonun loyihasi 7-dekabrda belgilandi.

Deputatlar jamiyat hayotining turli sohaslarida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, fuqarolarning, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator qonun loyihalarni ko‘rib chiqadilar.

Ilgari parlament quyi palata majlisining kun tartibiga kiritilgan masalalar siyosiy partiyalar fraksiyalari va O‘zbekiston Ekologik harakati deputatlar guruhining, Qonunchilik palatasi qo‘mitasining majlislarida vazirliklar va idoralar, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari ishtirokida dastlabki tarzda muhokama qilingan.

Parlament vakillari o‘z ishlarini “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida” gi qonun loyihasini muhokama qilishdan boshladilar. Prokuratura organlari xodimlarining kasb bayramini belgilash prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga, ular tomonidan xizmat vazifalarining vijdonan bajarilishini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

292-topshiriq. O‘z kasbingiz bayrami haqida matn yozing.

“ENERGETIKA KUNI” – KASB BAYRAMI

22-dekabr kuni “Navoiy IES” AJ Faollar zalida stansiyaning mehnat jamoasi, pudratchi tashkilotlar, taklif etilgan mehmonlar ishtirokida “Energetiklar kuni” kasb bayrami o‘tkazildi.

Bayram tadbirida so‘zga chiqqan stansiya bosh direktori Q.G‘aniev korxonamoasini ushbu kasb bayrami bilan samimiy chin yurakdan tabriklab, Mustaqil Respublikamiz istiqboli, Energetikaning sharaflil va mashaqqatli mehnati yo‘lida xormasliklarini tiladi. Stansiya jamoasi oldida turgan juda katta ulkan vazifalardan investitsiya dasturi doirasida 2ta 450 Mvt li bug‘-gaz qurilmasi qurilishida stansiyaning ahil mehnat jamoasiga tayanib boshlashga ishonch bildirdi. Stansiyaning eng katta boyligi o‘z ishining ustasi bo‘lgan mutaxassis ishchi-xodimlarimiz ekanini ta’kidlab o‘tdi.

Shundan so‘ng stansiyaning uzluksiz, barqaror ishlashi yo‘lida tinimsiz mehnatini ayamay ishlan kelayotgan ishchi xodimlarimizdan 16 nafar ishchi xodimga “Energetika faxriysi” ko‘krak nishoni, O‘zbekenergo Ak ning 4 ta, stansiyaning 39 ta faxriy yorliqlari va 31 ta tashakkurnomalar hamda korxonamoasiga Kasaba qo‘mitasining 33 dona faxriy yorliqlari bilan taqdirlandilar.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TEMIR YO‘L TRANSPORTI XODIMLARI” KASB BAYRAMI

Kuni kecha davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev farmoni bilan avgust oyining birinchi yakshanbasi “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l xodimlar kuni” deb e‘lon qilingan edi.

Xalqaro hamjamiyatning e‘tirof etishicha, O‘zbekiston Sharq bilan G‘arbi, Janub bilan Shimolni bog‘laydigan ulkan transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatiga ega. Ana shu salohiyat va imkoniyatdan samarali foydalanayotgan “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining ko‘p millatli jamoasi temir yo‘l transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish, takomillashtirish va rekonstruksiya qilish, temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish xavfsizligini ta‘minlash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.

O‘tgan yillar davomida temir yo‘llchilarimiz tomonidan 1100 kilometrdan ortiq yangi temir yo‘llar barpo etilgani, 4 ming kilometrlik temir yo‘l magistrallari modernizatsiya qilingani, 1700 kilometrlik temir yo‘l bog‘lamalari elektrlashtirilgani tahsinga sazovordir.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan kundan buyon hajmi 2,1 marta yo‘lovchi tashish hajmi 2 baravar ko‘paygani, temir yo‘llar orqali 1,4 milliard tonna yuk tashilib, 350 million yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazilgani sizlarning fidokorona mehnatingiz ekanidan dalolat beradi.

Aynan ana shunday o‘z kasbiga sadoqatli va fidoyi yurtdoshlarimizning sidqidilgan qilayotgan samarali mehnati, bilim va tajribasi tufayli temir yo‘l tarmog‘i xalqimiz o‘rtasida obro‘-e‘tibor, hurmat va ehtiromga sazovor bo‘lib kelmoqda.

293-topshiriq. Turli mamlakatlarda nishonlanadigan kasb bayramlari haqida gapirib bering.

“MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI” XODIMLARI KUNI

Mamlakatimizda 27-iyun “Matbuot va ommaviy axborot vositalari” xodimlari kuni. Bu sanani hayotini o‘tkir va ta‘sirchan kuchga ega bo‘lgan, og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, sharafli, xalqimizni axborot bilan ta‘minlashdek olijanob ishga bag‘ishlagan kasb egalarijina emas, balki barcha yurtdoshlarimiz ham keng nishonlaydilar.

Zero, hayotimizning biron sohasini ommaviy axborot vositalari faoliyatisiz tasavvur etish qiyin. Yurtimiz taraqqiyoti yo‘lidagi ezgu-maqсадlarni ro‘yobga chiqarish, istiqbol ruhiga mos yangicha takaffur tarzini shakllantirish, umuminsoniy qadryatlarni qaror toptirish, xalqimiz ma‘naviyatini boyitish sohasidagi xayrli ishlarda jurnalistlarning munosib xizmati bor.

Fursatdan foydalanib, “O‘zstandart” agentligi rahbariyati yil davomida hamkorlikda ishlab, agentlik faoliyatini Ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritishda o‘zlarining yordamlarini bergan jurnalistlarni kasb bayrami bilan tabriklaydi. Ijodlariga omad, oilalariga tinchlik va faravonlik tilab qoladi. Qalamingiz doim o‘tkir bo‘lsin aziz jurnalistlar.

“SHIFOKORLAR” BAYRAMI

Mamlakatimizda nishonlanadigan turli kasb bayramlarini vazirlik, idora tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etish, ularning mazmun-mohiyatini targ‘ib qilish, o‘z kasbiga fidoyi bo‘lgan kasb egalarini rag‘batlantirish hamda bayram tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazishda kasaba uyushma tashkilotlari faol ishtirok etib kelmoqdalar.

Shifokorlik mashaqqatli va sharaflı kasblardan bo‘lib, meditsina termini ulug‘ bobokalonimiz, buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning tabarruk nomi bilan uzviy bo‘lganib, kishiga faxr-iftixor tuyg‘ularini bag‘ishlab, qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan e‘zozlanib kelingan.

Mustaqillik sharofati bilan tibbiyot sohasini tizimli rivojiga, inson salomatligini saqlashga, shifokorlar mehnatini munosib qadrlashga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, xalqaro tashkilotlar e‘tirofiga sazavor bo‘lgan yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston baxtiyorlar mamlakati degan yuksak e‘tirofga erishish boshqa kasb egalari kabi qalb qo‘ri, ko‘z nurini bag‘ishlab fidoyilik bilan mehnat qilayotgan aziz shifokorlarning ham munosib hissasi borligi e‘tiborga loyiqdir.

Mazkur kasb bayrami munosabati bilan poytaxtimizdagi tibbiyot muassasalari xodimlari ishtirokida tarmoq kasaba uyushma faollari tomonidan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazildi.

Shifokorlar bayrami kuni har yil noyabr oyining ikkinchi haftasida o‘tkazilib kelinadi.

294-topshiriq. Matnni o‘qing va tarjima qiling.

“USTOZLIK SHARAFLI KASB”

Dunyoda insonlar turli-tuman kasblarda faoliyat olib boradi. Ammo, mana shu kasblar ichida shunday bir kasb borki, u ham sharaflı, ham mas‘ulyatlıligi bilan ajralib turadi. Bu ustozlik va murabbiylik kasbidir.


Barcha sohalarning ustalari, mutaxassislari bir kasb egalari mehnati bilan shakllanadi. Har birimizga kimdir harf o‘rgatib, savodimizni chiqargan. Bugun kim, qayerda, qanday vazifada ishlamasin, qachondir maktabda o‘qigan, ustozlar tarbiyasini olgan. İlk bor maktabga borgan kunning, qo‘liga qalam berib, yozishni, o‘qishni o‘rgatgan o‘qituvchisi eslamaydigan odam topilmasa kerak.

Bir sinfda yigirma yoki o‘ttiz nafar o‘quvchi bo‘lsa, har birining tabiati har xil. Ustoz ularning qalbiga yo‘l topadi, farzandidek yuragiga yaqin oladi. Ustoz o‘z kasbiga qalb qo‘ri bilan kirmasa, murabbiylik yo‘lida hech qanday yutuqlarga erisha olmaydi.

Bugungi yurtimizda o‘quvchilarning ta‘lim olishlari uchun yaratilgan sharoitlar jahon talablariga to‘la mos keladi. Istiqloq yillari barcha ilm maskanlari mukammal ta‘mirlandi. Keng va yorug‘ dars xonalar, zamonaviy andozalar bilan jihozlangan o‘quv laboratoriyalari, kompyuter texnikalari bolalarimiz xizmatida.

O‘zbekiston bugungi dunyo hamjamiyatidagi o‘zining munosib o‘rnini egallab, ta‘lim, madaniyat, sport va boshqa sohalarida tenglar ichra teng ovoz bilan xalqaro

maydonda o'z mavqeyiga ega bo'lishida ustoz va murabbiylarning o'rni beqiyosdir. Har yili 1- oktyabrni mamlakatimizda keng nishonlab kelmoqdamiz.



Grammatik mavzu: MATN MAZMUNINING QISQACHA BAYONI. REZYUME, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALLARINING XUSUSIYATI

REZYUME YOZISH QOIDALARI

Hozirgi kunda ko'plab zamonaviy tashkilotlar, ayniqsa, xalqaro korxonalar ishga hujjat topshirayotgan shaxslardan rezyume yuborishlarini talab qilishadi. Rezyume o'zi nima degani? Rezyume fransuzcga "resumе" so'zidan kelib chiqqan va sodda qilib aytganda, qisqacha izoh ma'nosini bildiradi. Rezyume ishga topshirayotgan inson to'g'risida ma'lumotni taqdim etadi, ya'ni uning ismi, ma'lumot darajasi, ish tajribasi, qiziqishlari va hokazo.

Rezyume hozirgi kunda ish qidirishda eng muhim hujjat hisoblanadi. O'zbek tilida bunday hujjat "tarjimai hol" va "shaxsiy ma'lumotnoma" deb ham atalishi mumkin, lekin rezyumening shakli bu hujjatlardan biroz farqlidir. Rezyume, asosan, ish izlovchilar tomonidan ishga topshirayotganda yuboriladigan hujjat hisoblanadi, lekin u boshqa maqsadlarda ham ishlatilishi mumkin. Masalan, tashkilot direktori yoki loyiha menejerining rezyumesi grand taklifi bilan birgalikda donor tashkilotga topshiriladi.

Rezyumeda ish izlovchi shaxs to'g'risida qisqa ma'lumot yoziladi. Ish beruvchi eng birinchilardan bo'lib aynan rezyumega e'tibor qaratadi. Shuning uchun rezyume ishga topshiruvchi shaxs to'g'risida bexato, aniq va eng asosiysi – topshirilayotgan ishga tegishli bo'lgan ma'lumotni qamrab olishi kerak. Yaxshi tuzilgan rezyume ishini qo'lga kiritishning birinchi va eng muhim poyqadami hisoblanadi. **Agar rezyume orqali ish beruvchini ishontira olmasangiz, keyingi bosqichga o'tish imkoni bo'lmaydi!**

Rezyumening asosiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxsiy ma'lumot:

- a) ism-sharif (talab qilinadi)
- b) murojaat manzillari: telefon, e-mail, yashash joyi (talab qilinadi)
- c) jins (majburiy emas)
- d) millat (majburiy emas)
- e) tug'ilgan sana (majburiy emas)

2. Qisqacha mazmun – yoki professional maqsad (ixtiyoriy)

a) bir yoki ikki gap bilan qisqacha eng muhim jihatlarni sanab o'tish.

Misol: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ixtiyoriy va rus tilini mukammal biladi. 2008-yilda biznesni boshqarish yo'nalishi bo'yicha Magistraturani o'ly darajada tamomlagan va ilmiy darajaga ega.

Maslahatlar:

Rezyume iloji boricha bir varaqdan oshmasligi kerak.

Har bir ishga topshirganda alohida rezyume yozish maslahat beriladi. Rezyumeda, asosan, topshirilayotgan ishga taalluqli ma'lumotni kiritish kerak. Buning uchun topshirayotgan ishingizni yaxshilab o'rganib chiqing va tashkilotning o'zini ham o'rganishga harakat qiling.

Tug'ilgan yili, jinsi va millatini yozish shaxsning o'ziga bo'g'liq. Ba'zida ish beruvchilar tomonidan shu ma'lumotlar asosida farqlash va diskriminatsiya qilish hollari ham uchragan, shuning uchun ko'plab tashkilotlar bunday ma'lumotni majburiy ko'rmaydilar.

Ba'zilar rezyumega o'z rasmlarini ham qo'shadilar. Rasm qo'shish ixtiyoriy.

Agar shaxsiy vebsaytingiz bo'lsa, uni ham qo'shing. Ba'zi mutaxassislar, ayniqsa, dizayner va rassomlar, o'zlarining ishlarini ko'rsatish maqsadida tashqi saytda joylashgan manzillarini qo'shishlari ham mumkin.

Agar ishga topshirayotgan talaba bo'lsa, unda kutilayotgan bitirish sanasini ko'rsatishi lozim.

Agar talabalik davrida biror bir qo‘shimcha tajriba orttirgan bo‘lsa, shuni ham yozib o‘tish tavsiya etiladi. Masalan: universitet qoshidagi gazetaga muharrirlik qilgan yoki “Yosh lider” talabalar tashabbusini boshqargan. Ishga topshiruvchining tajribasi uncha ko‘p bo‘lmasa, shu kabi ishlarni ham tajriba bo‘limida sanab o‘tishi mumkin.

Agar shaxsning tajribasi ko‘p bo‘lsa va ko‘p joyda ishlagan bo‘lsa, oxirgi 5 yillik yoki oxirgi 5 ta ish joyini to‘liq ko‘rsatib o‘tib, qolganlarini qisqacha sanab o‘tsa bo‘ladi.

ISH BERUVCHILAR REZYUMEDA NIMALARGA E‘TIBOR BERADI?

Ishga joylashayotgan odamlarning rezyumelarida ish beruvchilar nimalarga e‘tibor berishadi? Quyida:

Oxirgi ish joyi. Ish beruvchilar, eng avvalo, odamning oxirgi ish joyiga e‘tibor berishadi. U o‘z xohishi bilan ketganmi yoki ishdan bo‘shatishganmi? Qanchalik uzoq ishlagan? Bu savollarga javob olish juda muhim.

Kompaniyaning mashhurligi. Odamning qanchalik mohirligini ilgari ishlagan kompaniyasining nomidan bilib olish ancha oson. Avvalgi ish joyi qatorida mashur kompaniyaning nomi tursa, ish beruvchi ishga kirmoqchi kishi haqida yaxshiroq xayolga boradi.

Umumiy tajriba. Ishda ko‘tarilganmi? Vazifalar murakkablashib borganmi? Egallagan lavozimining nomi bajariladigan ishga qanchalik mos?

Rezyumedagi burma xoshiyachalar. Kimlargadir chiroyli va yangicha bezalgan rezyume yoqadi, lekin ko‘pchilik rekruterlar rezyumeni maxsus dasturlardan o‘tkazib, matnning o‘zini qoldirishadi. Shuning uchun PDF formatda oddiy rezyume jo‘natgan ma‘qul. Balki rekruterga sizning “ijodingiz” ma‘qul bo‘lmas.

Shaxsiy ma‘lumot. Oilaviy sharoit, farzandlarning bor yoki yo‘qligi, kasalliklar, suratlar – bularning barchasiga ish beruvchilar, odatda, ahamiyat berishmaydi.

Nima qilmaslik kerak:

Rezyume uchun MS Word shablonlaridan foydalanish.

Rezyumeni birinchi shaxs tomonidan yozish. Agar bunga nihoyatda ijodiy yondashmasangiz.

Rezyumeni ko‘p sahifalarga cho‘zib yuborish. Uzog‘i bilan bir-ikki sahifa yetadi.

Yolg‘on gapirish.

Bu maslahatlarning bari mukammal emas, axir hamma ish beruvchilar farq qiladi. Biroq bular sizga asosiy xatolardan qochishga va ehtimol istagan ishga kirishingizga yordam beradi.

Rezyume namunasi:

Alloma Kamalova

Toshkent sh., Firdavs mavzesi, Shahrisabz ko'chasi, 7-uy.

Tel: +998907220000; Alloma.kamalova@mail.uz

Qisqacha mazmun: 6 yillik tajribaga ega loyiha tuzish va boshqarish mutaxassisi. Ingliz va rus tilini mukammal biladi. 2008-yilda biznesni boshqarish yo'nalishi bo'yicha Magistraturani oliy darajada tamomlagan va ilmiy darajaga ega.

Ma'lumot:

2006-2008 Magistr, Biznesni boshqarish. O'zbekiston Milliy universiteti. Toshkent shahri talabalar shaharchasi, Universtitet-4 ko'chasi. www.mbu.uz. Fanlar: loyiha tuzish va boshqarish (22 soat) Makroiqtisodiyot (25 soat)

2002-2006 Bakalavr, Menejment, Farg'ona Politehnika Instituti, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. www.ferpi.uz

Ish tajribasi:

25.01.2011 – 10.02.2014 Loyiha mutaxassisi, “Yoshlarda ish ko'nikmalarini rivojlantirish loyihasi”. NNT “Faol yoshlar”, Toshkent sh. Shahrisabz ko'chasi 1-uy. Tel: 267-00-00

- yoshlar uchun 5 kunlik treninglarni tashkil qilgan: trening rejasini tuzish, ishtirokchilarni taklif qilish, trening paytida barcha ishlarni koordinatsiya qilish, trening hisobotini yozish.

- loyihaning chorak hisobotlarini yozish, loyiha bo'yicha prezintatsiyalar berish.

01.06.2008 -28.12.2011 Dastur yordamchisi, Mahalliy rivojlanish markazi, Toshkent sh., Navoiy ko'chasi 165-uy. Toshkent. Tel: 237-90-00

Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlarida mahalliy tadbirlarni tashkil qilishda yordam berish: tarqatma materiallarni tayyorlash, treninglar uchun o'quv zallarini tayyorlash;

Uchrashuvlarning hisobotini yozib berish.

Xorijiy tillar: ingliz va rus tillarida to'liq yozish. o'qish va muloqot qila olish.

Kompyuter dasturlari: Windows 7, Microsoft Office 2008 (Power point, Word, Excel), internet.

Yutuqlar: 2008 O'zbekistonh Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyasi sohibasi.

295-topshiriq. O'zingiz haqingizda rezyume tayyorlang.

30. Nutqiy mavzu: Sharq akademiyalari

Grammatik mavzu: Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

AKADEMIYA

Akademiya (yun. – Akademos – afsonaviy qahramon Akadem nomidan) ko'pgina ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarining nomi. Mil.av. IV asrda Platon asos solgan yunon falsafiy maktabi, Afina yaqinidagi joy ham uning nomi bilan atalgan. Sharq mamlakatlarida Akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar VIII-IX asrlarda tarkib topa boshlagan. Xususan, arab halifaligida Horun ar-Rashid hukmronligi davri (786-809) da "Bayt ul-Hikmat"ga asos solinib, xalifa Ma'mun hukmronligi davrida faoliyati yanada rivojlanib topgan. Mashhur olim va shoir Ibn Hamdon Mosul shahrida kutubxonali "Dor-ul ilm" ochgan va bu joy ilmga intilganlarning kirishi uchun bemaol bo'lgan. Bunday akademiyalar Bog'dodda, shuningdek, Misrda ham ochilgan. 1010-yilda Urganchda Ma'mun akademiyasiga asos solingan. Abu Rayhon Beruniy shu akademiyaning rahbari bo'lgan.

O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi mamlakatning oily ilmiy tashkiloti hisoblanadi. O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasi ham mavjud. O'zbekiston va ba'zi mamlakatlardagi ayrim oliy o'quv yurtlari ham akademiya deb ataladi. Masalan, O'zR Qurolli Kuchlarining Harbiy Akademiyasi, O'zR ichki ishlar vazirligi akademiyasi. Shuningdek, respublikamizda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ham faoliyat yuritadi.

296-topshiriq. Ixtisoslik sohasining ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlang.

MA'MUN AKADEMIYASI

Ma'mun akademiyasi IX asr 1-yarmida Xalifa Ma'mun arrashid tomonidan Bog'dodda tashkil etilgan ilmiy markaz, dastlab "Bayt ul hikmat" deb atalgan. Bu akademiya Hunayn ibn Ishoq, Sobit ibn Kura, Xubaysh, Baxtyashu, Qusto ibn Luqa al-Baaxbakkiiy, Yahyo ibn Adiy, Ibn Vaxshiyalar tomonidan yunon, yahudiy Sanskrit, suryoniy, fors tilidan juda ko'plab ilmiy-adabiy, falsafiy-axloqiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi va ularga sharhlar yozilib, musulmon dunyosiga yoyildi. Ayni shu tarjima va sharhlar tufayli yunon, hind olimlari asarlari bizgacha yetib kelgan.

828-yil Ma'mun akademiyasi qoshida ash-Shammasiya mahallasida birinchi rasadxona, 831-yil Damashq yaqinidagi Kosion tog'ida rasadxonaning bo'limi qurilgan. Rasadxonaga dastlab marvlik Abu ali Yahyo ibn Mansur, keyinchalik Muhammad Xorazmiy rahbarlik qilgan. Ma'mun akademiyasi turli maqsadlarda ilmiy ekspeditsiyalar ham tashkil qilingan. Chunonchi, 830-yil Xorazmiy boshchiligidagi G'arbiy Hindiston, Vizantiya, Volganing quyi oqimiga 3 ta ekspeditsiya uyishtirilgan. Ma'mun akademiyasida Xorazmiy bilan birga Xolid ibn al-Malik al-Marvarrudiy, Al-Abbos ibn Sayd al-Javxariy va boshqa ko'plab O'rt

Osiyolik olimlar ijod qilib, turli fanlar rivojiga katta hissa qo'shdilar. XI asr boshida Xorazm poytaxti Gurganj shahridagi ilmiy markaz Ma'mun akademiyasi deb nomlangan.

297-topshiriq. Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar haqida referat tayyorlang.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Akademiyasi Markaziy Osiyoda huquqni muhofaza qilish organlari uchun kadrlar tayyorlash bo'yicha eng yirik oily ta'lim muassasalaridan biridir. Akademiyaning faoliyati Ustav asosida amalga oshiriladi.

1932-yilda tashkil topgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 2-sentyabrda 447-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1994-yil 20-oktyabrda 264-sonli buyrug'i asosida qayta tashkil etilgan bo'lib, ichki ishlar vazirligi tizimiga kiradi. Akademiya Oliy ta'limning asosiy va qo'shimcha kasbiy o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, o'quv-metodik, ilmiy va boshqa faoliyatlarni amalga oshiruvchi ixtisoslashgan davlat oily ta'lim muassasasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Akademiyaning tashkiliy shtat tuzilishi tasdiqlangan bo'lib, unga muvofiq ta'lim muassasasi o'z faoliyatini quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiradi:

– Jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikni oldini olish, ularni ochish va tergov qilish, jinoyatchilarni qidirish va aholining xavfsizligini taminlashdan iborat;

– Jinoyatchilikka qarshi kurashishda profilaktik, operativ, jinoyat-protsessual, ekspert va boshqa tadbirlarni mustaqil o'tkazish qobilyatiga ega bo'lgan ichki ishlar organlari ofitser-mutaxassislarni tayyorlash;

– II V xodimlarining uzluksiz ta'limi tizimida ichki ishlar organlari ofitserlari tarkibining malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Akademiyada o'quv tarbiya jarayoni va xizmat olib borishni o'quv bo'limi, tarbiyaviy ishlar bo'limi, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, saf qismi va shtab tashkil qiladi. Ilmiy tadqiqot ishlarini Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi dolzarb masalalar loyihasi tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi.

298-topshiriq. Matni rus tiliga tarjima qiling.

AKADEMIK VIKTOR VASILEVICH RESHETOV

Viktor Vasilevich Reshetov Toshkentda tug'ilgan. U filologiya fanlari doktori (1952), professor (1953), Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1964) edi. O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakulteti til va adabiyot bo'limini tugatgan (1931). U

talabalik davridayoq O'rta Osiyo Davlat dorilfumida rus va o'zbek tillaridan dars berdi. keyin shu fakultet kechki bo'limning o'quv ishlariga mudirlik ham qilgan.

1959-yilda RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining akademigi va Prezidiumi a'zosi etib saylangan. 1960-yilda RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasining Milliy maktablar oliy bilimgohi direktori, "Русский язык в национальной школе" jurnalining bosh muharriri etib tayinlangan. U Pedagogika fanlari akademiyasini tashkil etuvchilardan biri bo'lgan. 1963-yildan to umrining oxirgi kunigacha respublika rus tili va adabiyoti pedagogika oliy o'quv yurti rektori bo'lgan. U bir qancha orden va medallar bilan mukofotlangan. Viktor Vasilevich o'zbek tili bo'yicha yozilgan juda ko'p darsliklar va o'quv qo'llanmalarining muallifidir. U respublikamizning oliy va o'rta maktablari uchun o'zbekcha-ruscha va ruscha-o'zbekcha lug'atlar tuzgan.

299-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlarni yod oling:

Ilm - [bilim; fan] - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'limot, malaka. **Ilm o'rganish**. 2. **Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi**; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. Iqtisodiyot ilmi.

Ilmiy - ilmga oid, ilmga qaratilgan. Ilmiy asar.

Faoliyat - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. Ilmiy faoliyat.

Filial - [lot.filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxonada, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, shu'ba. Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi.

Tadqiqotchi - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. Ilmiy tadqiqotchilar.

Tashkilot - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. BMTning Yunesko tashkiloti.

Ensiklopedist - [fr. encyclopediste < yun. enkyklios paideytes - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilari va publitsistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). Ensiklopedist olim.

300-topshiriq. O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqida matn tuzing.

301-topshiriq. Jahondagi ilmiy akademiyalar haqida taqdimot tayyorlang.

Grammatik mavzu: REFERAT MATNI, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIÄLNING XUSUSIYATI

Referat – lotin so'zidan olingan bo'lib, "axborot berayapman" ma'nosini bildiradi. Referat biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob mazmunining qisqacha yozma yoki og'zaki bayoni; o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqidagi axborot;

tegishli adabiyot va boshqa manbalar obzorini o‘z ichiga olgan ma’lum mavzudagi ma’ruza. Unda muayyan mavzu yoritiladi, ilmiy nazariyalar va xulosalar tahlil etiladi hamda tanqid qilinishi ham mumkin.

REFERAT oddiy tarzda materiallarni o‘g‘irlab ko‘chirish emas, balki unda muallif tomonidan adabiyotni o‘rganish orqali o‘z fikrlarini, qarashlarini, xulosa va takliflarini aniq tarzda ifoda etishi lozim.

Referat ustida ishlash tartibi:

1. Mavzuni tanlash.
2. Tayyorlov bosqichi: asosiy manbalarni o‘rganish.
3. Zaruriy materiallarni konspektlash.
4. Tadqiqot muammosi mantiqini yaratish, referat rejasini tuzish.
5. Yig‘ilgan materialni tartiblashtirish va yozish.
6. Adabiyotlar ro‘yxatini rasmiylashtirishni tekshirish.
7. Matnni tahrir qilish. Matnni imlo va stilistika nuqtayi nazaridan tekshirish.
8. Referatni rasmiylashtirish.

Referat matnidagi ibora va so‘z birikmalari namunalari:

- “...ishda...tizim qarab chiqiladi”
“kirish qismida ko‘rsatiladiki, ya’ni...”
Muallif shuni nazarda tutadiki, ya’ni...”
“1-bobda quyidagi savollar yoritiladi...”
“...2-bobda tadqiq etiladi”
“3-bobda..tadqiq etiladi...”
“Xulosada muallif shunday yozadi:...”

Referatni baholash

Baholash ko‘rsatkichlari; baholash mezonlari:

1. Referatlashtirilgan matn yangililigi – 20 ball mavzu dolzarbligi.
2. Muammo mohiyatini ochib berish darajasi –30 ball reja mavzuga mosligi.
3. Manbalar tanlash – 20 ball adabiy manbalardan foydalanish.
4. Rasmiylashtirish qoidaga amal qilish – 15ball hajmiga rioya qilish.
5. Ravonlik, savodlilik – 15ball orfografik, sintaktik xatolar.

100 balli tizimda baholanadi:

- 86 - 100 –“a’lo”
70 - 85 –“yaxshi”
51 – 69 – “o‘rta”
51 dan past – “qoniqarsiz”

302-topshiriq. “Milliy san’atimiz tarixi” mavzusida referat yozing.

303-topshiriq. O‘zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida maqola yozing.

304-topshiriq. O‘zingiz yoqtirga amaliy sa’nat haqida referat tayyorlang.

31. Nutqiy mavzu: Ilm sari yo‘l

Grammatik mavzu: Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

ILM OLISH HAQIDA

Bilim olish – milliy g‘ururni shakllantirish yo‘nalishlaridan biri. Chunki inson kamolotida bilim egallash ulkan vazifalardan biri hisoblanadi. Bilim olgan kishi har tomonlama odobli, axloqli, kamtarin, komil inson bo‘ladi. O‘sha komil inson, uning olgan bilimi hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘iz damlarida yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarida rahbar, qayg‘uli damlarida madadkor bo‘ladi. Bilim insonni aql-idrokli, bilimdon, hanarmand, irodali, e‘tiqodli qiladi.

*Yigitlikda yig‘ilmning maxzani
Qarichlik chog‘i xarj qilg‘il ani
(A.Navoiy)*

“Qur‘on” insonni aqlni ishlatishga chaqiradi. Unda aql insonga berilgan Allohning buyuk ne‘mati, deb ta‘riflanadi. Aqlni ishlatmaslik yomon oqibatlarini xususida so‘z yuritiladi. Islomda bilim, aql inson kamolotining asosiy mezonlaridan hisoblanadi. “Qur‘on”da dunyoviy ilmlardan: tibbiyot, ruhshunoslik, geografiya, sotsiologiya hamda diniy ilmlarni o‘rganish targ‘ib etilgan. Chunki Islom dinining asosiy maqsadi omonlik, kishilarga yomonlikning xunuk oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to‘g‘ri yo‘lda yuritishga chaqirishdan iborat.

Ilm – hikmat, poklik ramzi, ilmsizlik johillikdir.

Ilm – olijanob va savob ish. Hattoki, ilm olish ibodat, taqvodan afzal. Chunki ilm dinning asosini, ustunini tashkil etadi. Ilm – hikmat, ilm – fazilat, ilm dinning rivojini, uning tarqalishini ta‘minlaydi. Ilmni o‘qish, takrorlash, yozish bilan mustahkamlash, chuqurlashtirish lozim. Ilm yangilanib turilmasa, foydasiz bo‘lib qoladi.

Umuman Islomda ilm-fanni egallash, ma‘rifatli bo‘lish juda savobli ish ekani ta‘kidlanadi. Hadislarda “sadaqaning afzali mo‘min kishi ilm o‘rganib, so‘ng boshqa mo‘minlarga ham o‘rgatishidir”, deyiladi.

Demak, ilm hayot va turmushda orttirilgan tajribalarning amaliy va umumiy – nazariy natijasidir. Inson ilm tufayli har qanday qiyinchilikdan oson chiqib ketishi mumkin.

305-topshiriq. Ilm haqida 5 ta maqol keltiring.

306-topshiriq. Matnni davom ettiring.

ILM INSONNI AZIZ VA MUHTARAM QILADI

Muqaddas dinimiz har bir insonni, u erkak yoki ayol kishi bo‘lishidan qat‘i nazar, ilm egallashga, ma‘rifatli, ma‘naviyatli bo‘lishga targ‘ib qiladi. Bashariyat tarixidan ham isnonni farishtalardan ustun qilgan omil ilm bo‘lgani ma‘lum bo‘ladi.

Ilm insonga ko'rk beradi, ilm odob va amal qilish bilan o'rganilganda uning ziynatini oshiradi. Janob Rasul akram sollolloxu alayhi va sallamga eng birinchi nozil bo'lgan oyati karimalar mazmunida ham ilm-ma'rifatga undash bor bo'lib, insonni aziz qiladigan, fazilatli va hurmatli qiladigan, uning martabasini ikki olamda baland qiladigan ilm ekani ko'p bora isbotlangan.

Alloh taolo Qur'oni Karimda ilmli bandalarining martabalarini yuksak maqomlarga ko'tarilishini bayon qilgan.

Shonli Vatanimiz o'z taraqqiyot yo'lini ilm-ma'rifat va ma'naviyatini rivojlantirish bilan belgilagan ekan, borgan sari bu ishlar yurtimizning nufuzini oshib borishiga omil bo'ladi. Muhtaram yurtboshimizning tashabbuslari bilan tashkil etilgan Samarqand, Buxoro va Termiz shaharlaridagi Islom xalqaro tadqiqot markazlari, Toshkentdagi Islom sivilizatsiya markazlari faoliyatini yuritib borish xalqimizning ma'rifatiga, ilmu ziyosiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini tasavvur qilish qiyin emas. Ayniqsa, umid bilan tarbiya qilinayotgan farzand va zurriyotlarining tarbiyasiga har tomonlama e'tibor qaratishga chorlaydi.

307-topshiriq. Soha rivojida fanning o'rni mavzusida matn tuzing.

308-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

ILM VA OLAM

Odamzod paydo bo'libdiki, dunyoni bilishga harakat qiladi. Momaqaldiroq chaqmoqlari-yu, yer tebranishlari, fasllar aylanishi-yu, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari uzoq asrlardan buyon insoniyat ongini band etib keladi. Tabiat sirlarining ochilishi insonga bitmas-tuganmas qudrat va kuch baxsh etdi, yangi jumboqlar sari ilhomlantirdi, odamzod ahli ikki karra ikki to'rt ekanligini bilishdan, kosmik kemalarni kashf etishgacha bo'lgan uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. Bunday aql karvoni yo'lida qanchadan-qancha ilm shaydolari azob chekmadilar, qanchadan-qancha insoniyatning asl farzandlari qurbon bo'lmadilar. Ammo ularning umri, hayoti va kashfiyotlari kelajak avlodlarning yo'lini yoritib turgan abadiy so'nmas mash'al bo'lib qoldi. Haqiqat uchun qurbon bo'lish, ilm tantanasi uchun jon fido etish kishilik jamiyati erishgan buyuk ma'naviy qudratning zavol bilmas haykali, buyuklik timsolidir.

Aqlning o'lchovi, ilmning poyoni yo'q. Ammo insoniyat ilmi, dunyo haqidagi haqiqatlar katta ijtimoiy kurashlar, to'qnashuvlar asosida qo'lga kiritildi.

309-topshiriq. Ilm haqida maqollar yozing.

310-topshiriq. Maqollarni rus tiliga tarjima qiling


MAQOLLAR

- *Aql ko'pga yetkazar – hunar ko'kka;*
- *Barakat mag'izda – hunarli qo'l og'izda;*
- *Baxt belgisi- bilim;*

- *Bilim kuchda – kuch bilimda;*
- *Bilimsiz kishiga ish yo'q – Ilmsiz kishiga osh yo'q;*
- *Bilmagan ayb emas, bilishga tirishmagan ayb;*
- *Zehn qo'ysang bilimga, ilm tomar dilingga;*

Илм

- ✳ *Илмон қобилиятини билим ва тажриба билангина оширади.*
- ✳ *Билим оқувдир. Амак ва қалб у билан азиятланади.*
- ✳ *Билим муваффақият. Билим сезилтик эса тафлуқиятдир.*
- ✳ *Билим жасоратдир. Билимни қисми муажжа тарқи жасорат билан енгади.*
- ✳ *Билим дурбинга ўхшаيدди. Чисол масалларни у ҳал этади. Тўсиқгоялар устидан унинг ёрдамида ойнаб ўта миз.*
- ✳ *Билим нурдир. Йўлимизни у билан ёритамиз.*
- ✳ *Билимгизлик эса барни ёзмиликларнинг маънаидир. Билимгиз илмон ўзингиз келти ёмалани қилган бўлади. Жодий қисмингиз тек турса олмайдиған қордан фарқи йўқ. Саъдий билимгизликни уруи девулига ўқитади. Олман болангиз эса ёрн. Сузай түшүнчалар, билим жавҳарлар билим түндирилмаган веҳи сифдин қобдасиз ва харирани нарислар билан түнади.*



311-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

ILM ODOBI

Olimlardan Rizouddin ibn Faxriddin aytadi:

- Har bir odam va har bir elning saodatli bo'lishiga bosh sabab ilmdir. Ekinlar uchun yomg'ir, sug'orish qanday kerak bo'lsa, odam bolasi uchun ham ilm shu darajada keraklidir.

Bolalarni ilmi, odobli qilib o'stirish ota-onaning burchidir. Muallimlar ham bu muqaddas vazifadan cheida emaslar. Agar muallim bo'lsangiz, shogirdlarigizning har bir harakatini ko'z oldingizda tuting, ularni xushnuomalali bo'lishga o'rgating, jamiyatning foydali a'zolari qilishga erishing.

Agar yozuvchi bo'lsangiz, to'g'ri, haqqoniy so'zlarni yozishga intiling, xalqning foydali odamlarini hurmat qiling, yozgan asaringiz ilm ahli qoshida yuzingizning qizarishiga sababchi bo'lmasin. O'z darajangiz, iqtidoringizga rioya eting, o'z-o'zingizni maqtashga kirishmang, bu bilan o'zingizning va yozgan asarlaringizning qadr-qimmatini tushirasiz.

Agar bir yozuvchini va uning asarini tanqid qilmoqchi bo'lsangiz, albatta tanqid shartlariga rioya qiling. Avval o'ylang, o'z ilmingiz va iqtidoringiz u yozuvchidan yuqorimi, yo'qmi? Agar u yozuvchi yuqori bo'lsa, tanqidga kirishmang, kirishsangiz, tanqidningiz haqiqiy tanqid bo'lmay quruq so'kishdan, u yozuvchiga dushman bo'lganingiz uchun uning obro'sini tushirish istagidan iborat bo'lib qoladi.

Tanqiddan maqsad asar egasining kamchiliklarini do'stona ko'rsatib, unga yordam berishdir. Tanqid qituvchi kishi bilan tanqid qilingan kishi bir-biriga dushman emas, balki to'g'ri yo'lni topish uchun birgalikda g'ayrat qituvchilar, bir-birlariga yordamchilardir. Dushmanlik ta'siri orqasida yoki intiqom olish qasdi bilan qilingan tanqid ilm odobiga xiyonat, tanqid uslubiga zid jinoyatdir, bu esa axloq nuqtayi nazaridan ham, ijtimoiy jihatdan ham mamnun bir ishdir, buni tanqidchilar esdan chiqarmaslar.

Grammatik mavzu: TAQRIZ MATNI, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI

Taqriz – arab so'zidan olingan “ijobiy baho” ma'nosini bildiradi.

Retsenziya – adabiy tanqid janri. Yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. Yaratilgan kitobga baho beriladi.

Namuna:

TDIU katta o'qituvchisi Sh.M.Xalmatova tomonidan
tayyorlangan “Atamalar lug'ati”ga

Taqriz

Hozirgi kunda davlatimizda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish munosabati bilan iqtisodiyot sohasi bo'yicha ko'p yangi iqtisodiy atamalar kirib keldi. Shu munosabat bilan bu atamalarning lug'atini tuzish va ularga keng xalq ommasiga tushunarli qilib izoh berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

TDIU o'qituvchisi Sh.M.Xalmatova tomonidan tayyorlangan “Atamalar lug'ati” katta ahamiyatga ega. Ushbu lug'atga hozirgi kunda ko'p qo'llaniladigan

iqtisodiy atamalar kiritilgan.

Lugʻat oʻzbek tilini oʻrganuvchilar, bilim yurtlari oʻquvchilari va talabalarga moʻljallangan. Bundan tashqari lugʻat tadbirkorlar, kichik va oʻrta tadbirkorlik bilan shugʻullanuvchi rahbarlarga tavsiya etilishi mumkin.

Lugʻatda keltirilgan atamalar kundalik turmush sharoitida, gazeta va jurnallar oʻqiganda, radio va televideniye boʻyicha eshittirishlar tinglaganda uchraydigan iqtisodiy atamalarning mazmunini tushunishda keng yordam berishi mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, Sh.M.Xalmatova tomonidan tayyorlangan “Atamalar lugʻati” chop etilishini tavsiya etaman.

ToshTYMO

Transportda iqtisod va

menejment kafedrası dotsenti, i.f.n.

(imzo)

A.I. Ismailxodjayev

Taqriz yozish zikrida. Agar ilmiy maqola, toʻplam, kitob, monografiya, ayniqsa dissertatsiya ishlarini tahlil qilib, unga baho beruvchi – taqrizchi boʻlsang, avvalo hafsalali va xolis boʻl.

Taqriz uchun berilgan ilmiy asarning kirish va xulosa qismlarini koʻrib chiqish bilangina cheklanma, qunt qil : qoʻlingga qalam olib, boshdan oxirigacha oʻqib chiq. Tabiiyki, birinchi oʻqishda asar senda yaxshi taassurot qoldirmaydi. Koʻpincha, bunga asarning boʻshligi emas, uning yuzaki oʻqilgani sababchi boʻladi. Shunday ekan, asarni yana qaytadan oʻqi.

Asar mazmuniga haqqoniy koʻz bilan qara, unga uzil-kesil baho berishga vijdonan yondash, iltimoslar va koʻrsatmalardan xoli boʻl.

Agar asar muallifi yoki uning maslahatchisi ilmda senga qarama-qarshi fikrda boʻlishsa, shuni unutmaginki, sening vazifang uning shaxsini emas, balki asarini tavsiflashdan iborat, xolos.

Asarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini baholashda maddohlik qilma – olingan natija qanday boʻlsa, shunga yarasha maqta, ortiqcha narsani qoʻshma. Ishning kamchiligini koʻrsatishda, salbiy fikr-mulohaza bildirishda tanqidbozlikka oʻtib ketma, bor nuqsonlarini yoz, yoʻqlarini topaman deb, zinhor tirnoqning tagidan kir qidirma.

Yosh tadqiqotchining ishlarini baholashda hushyorlikni oshir : asossiz ortiqcha maqtasang, ularda oʻzlariga nisbatdan mahliyolik va ilmiy salohiyatlariga soxta ishonch paydo boʻladi. aksincha, bor yutuqlarini koʻrsatmasdan, faqat boʻrttirib tanqid qilsang, qilib turgan ilmiy izlanishlaridan ham soʻvib ketadilar.

Esingda boʻlsin, yaxshi taqriz yozish – anchayin nozik, hammaning ham qoʻlidan kelavermaydigan ish.

Ilmiy asar va taqriz yozish, maʼruza oʻqish va uni tinglash muzokaralarda qatnashish hadisini olganingdan keyin yosh tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilish ishiga qoʻl ursang ham boʻladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyotda axborot tizimlari fakulteti
4-kurs KE-75-guruh talabasi Xalmatova Dunyozodaning "TA'LIMDA
HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH"
mavzusida yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Mamlakatimizda mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirishdan iborat strategik maqsadga erishish milliy iqtisodiyotning deyarli barcha jabhalarida bozor islohotlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shunga ko'ra, ijtimoiy takror ishlab chiqarishni tashkil etishning eng muhim sharti – ishchi kuchi resurslarining miqdor va sifat jihatdan yetarililigini ta'minlash masalasini ham bozor tamoyillari orqali hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish masalalari" deb nomlangan bo'lib, u o'z ichiga uchta paragrafini qamrab olgan. Bobning birinchi paragrafida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish zarurati va o'ziga xos xususiyati bayon etilgan. Uning ikkinchi paragrafida esa, tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni, afzalliklari tahlil etilgan. Uchinchi paragrafida esa iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida zamonaviy korxonalar faoliyatini tashkil qilish bayon etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi "Iqtisodiy fanlarni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy yo'llari" deb atalgan. Mazkur bob ham bir-biri bilan uzviy bog'liq uchta paragrafdan tashkil topgan. Uning birinchi paragrafida innovatsion o'qitish texnologiyalarning mohiyati va tamoyillari bayon qilingan. Ikkinchi paragraf birinchisining mantiqiy davomi bo'lib, unda innovatsion o'qitish texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish yo'llari yoritilgan. Bobning oxirgi paragrafida esa iqtisodiy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologiyaning mazmuni va xususiyatlari keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining oxirgi uchinchi bobi "Iqtisodiy fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi" deb nomlangan. Uning birinchi paragrafida "Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, bobning so'nggi paragrafida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlari tahlil etilgan. Bitiruv malakaviy ishning ishlanganlik darajasi talabga javob beradi, bitiruvchi Xalmatova D. qo'yilgan maqsadga erishdi. Bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya qilish mumkin.

*TIMI dotsenti
pedagogika fanlari nomzodi*

Ximmataliev D.

312-topshiriq. Zamonaviy adabiyodlardan o'qib ularga taqriz yozing.

313-topshiriq. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romaniga taqriz yozing.

32. Nutqiy mavzu: Kasb etikasi

Grammatik mavzu: Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

KASB ETIKASI: BURCH VA MAJBURIYAT

Har bir tashkilotda kasb etikasi va odob-axloq qoidalarining oʻrnatilishi, avvalo tashkilotdagi ichki muhitning barqaror tarzda rivojlanishiga, xodimlar vazifalarini amalga oshirish chogʻida majburiy boʻlgan xulq-atvorning maʼnaviy va axloqiy prinsiplarini samarali tarzda qoʻllanilishiga zamin yaratadi.

Kasb etikasi deyilganda, avvalo, muayyan bir kasb faoliyatida qoʻllaniladigan asosiy tamoyillar va maʼnaviy qoidalar mujassamlangan kasb qoidalarini tushunish lozim. Bunda kasb etikasi qoidalari jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq qoidalarini kishilarning ixtisosliklari va qadr-qimmat kabi xatti-harakatlari majmuyini oʻz ichiga oladi.

Kasb etikasi atamasi kishilar oʻrtasidagi kasbiy faoliyat bilan bogʻliq munosabatlarga maʼrifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksidir, deyish ham mumkin. Kasb etikasi umumiy etikaning oʻziga xos bir qismi boʻlib, maxsus va aniq narsa singari umumiy narsadan faqat oʻziga xos shakl oʻzgarishi bilangina emas, balki umumiy narsani oʻz ichiga olmaydigan oʻziga xos jihatlari bilan farq qiladi. Umuman olganda, kasb etikasi barcha uchun birdek taalluqli boʻlmagan, muayyan kasb egalarigagina tegishli ijtimoiya xulq-atvor qoidalari, meyorlari yigʻindisidir.

Bugungi kunda deyarli barcha davlat organlari tizimida oʻzining kasb odobnomasi va kasb etikasi qoidalari amalga kiritilgan.

Soʻnggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvchi organlari tizimida ushbu masalaga boʻlgan eʼtiborning yanada kuchaytirilishi natijasida, bu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

KASB MADANIYATI – MUHIM OMIL

Zamonaviy jamiyatga har bir tashkilotning yutuqlari toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻlga kiritgan nufuzi va obroʻsi bilan boʻgʻliqdir. Bu, esa oʻz navbatida, tashkilot xodimlarining kasbiy etikasiga boʻlgan talabni kuchaytiradi. Kasb etikasi negizida esa, albatta hamkasblar va mijozlar bilan munosabatlarning barqarorligi turadi.

Xizmat egasi, avvalambor, aholi, odamlarning ehtiyoji yechimini taʼminlaydigan kasblar bilan chambarchas bogʻliqdir. Ayrim kasb egalari aholi bilan doimiy yoki uzluksiz aloqada boʻladi va shuning uchun ularning oʻziga xos kasb etikasi, vrachlar etikasi, sudyalalar etikasi bilan bir qatorda pochta xizmati xodimlari etikasi va tezkor xizmatlarni koʻrsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Kasb etikasi qoidalari”ga binoan pochta aloqasi xodimlari xushmuomalalik, odob, ogohlik, halollik, xizmat vazifasi doirasida ularga murojaat qilgan shaxslarning va boshqa fuqarolarning huquqlarini buzmaslikka jiddiy eʼtibor qaratishlari lozim.

Qoʻllanma xodimlarning mijozlar, yaʼni aholi bilan oʻzaro munosabati, muomala madaniyati, yuzaga kelgan bahsli holatlarni ham qamrab olgan. Agar

pochta aloqasi xodimi etika nuqtayi nazaridan murakkab vaziyatga qanday harakat qilish bo'yicha to'g'ri yechimni topa olmasa, u "O'zbekiston pochta" AJ boshqaruv apparati yoki hududiy fillial rahbaryatiga murojaat etishi qo'llanmada ko'rsatib o'tilgan.

"O'zbekiston pochta" AJ xodimlarning kasb etikasi qoidalari"da xodimlar pochta aloqasi sohasidagi bilimlarni mustahkamlash va kasbiy iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish borasida muntazam ravishda o'z ustida ishlashi zarurligiga alohida urg'u berilgan. Shu o'rinda aytish joizki, joriy yilda pochta xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha "Korporativ boshqaruv" ilmiy ta'lim markazi, TATU va uning hududiy filiallari ish olib bormoqda.

Bundan tashqari pochta aloqasi xizmati uchun dolzarb bo'lgan yo'nalishlarda tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi xizmat turlari, elektron pochta, axborot kommunikatsiya texnologiyalari siyosatini joriy etish, hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomini takomillashtirish masalalari bo'yicha tashkil etilgan o'quv seminarlarida soha xodimlari muntazam ravishda qatnashib kelmoqdalar.

314-topshiriq. Matni o'qing va gapirib bering

AXLOQ HAQIDA

Bir kuni amir Alining oldiga bir mo'ysafid kelib: "Yo amir, qarib qoldim, kun o'tkazish mashaqqatli bo'lib qoldi. Tirikchilikdan hech bir rohat topolmayapman. Menga pand-nasihat qilsang, balki sening nasihating tufayli xudoyi taolo mening ishlarimni yaxshi yo'lga boshlar." - dedi

Amir Ali mo'ysafidga xitob qildi: "E shayx, agar esda tutuvchi bo'lsang, ikkita narsani esdan chiqar: xalq uchun qilgan yaxshiligingni, birov senga qilgan yomonlikni"

"Mardlik va odamiylik haqida biror so'z aytgin", - dedi mo'ysafid.

"Odamiylik minnat yukiga bardosh berishdir, mardlik esa qo'lidan keladigan ishni o'zganing darig' tutmaslikdir. - dedi amir. - Kishi aybini qidirmasdan, yomon so'zlarni gapirmasdan va aytgan so'zlarini yodingda tutib yashasang, shubhasiz, yaxshi axloq egasi bo'lasan".

315-topshiriq. Matni o'qing. Mazmunini aytib bering.

KIM BIRINCHI BO'LIB SALOM BERISHI KERAK?

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichik odam birinchi bo'lib salom beradi. Lekin qo'l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to'plangan xonaga kirsangiz, bunda shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi oldiga ikkinchi kishi kelsa, albatta kelgan kishi salom beradi.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Bir misol keltiraylik, taxminan 2000 yil ilgari Hindistonda "Mangu qonunlar" kitobi yozilgan. Yoshi kattalarga birinchi bo'lib salom beruvchilar to'rt narsaga erishadi: uzoq umr ko'radi, obro'li, bilimli va kuchli bo'ladi deyilgan.

Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim, deb o'ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo'lib salom beraveradilar.

316-topshiriq. Matni o'qing.

ODOB-AXLOQ KASB ZIYNATI

Odobli, bilimdon, mehnatsevar, yimon-e'tiqodli farzand, nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Darhaqiqat, har bir farzand shaxsi oilada shakllanadi. Demak, oila – barkamol avlod poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, oilada farzandlarni axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalash, ayniqsa, adolat, burch, vatanparvarlikni shakllantirish, ona Vatanni sevish hissini uyg'otish o'ta muhim hisoblanadi.

Oilada farzandlarni o'z burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash mas'uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ota-onaning o'zaro samimiy munosabati, ularning farzandlari bilan yaqin, do'stona munosabatda bo'lishi, ularning kelajakdagi orzu-maqсадlarini tushunib olishlari, farzandlarning sog'-salomat voyaga yetishlari uchun asos bo'ladi.

Inson tarbiya jarayonida yaxshi xulq-atvorga, odatlarga va aql-farosat omillariga ega bo'lgan bo'lsa, hayot saboqlarini shunchalik yaxshi anglaydi va yaxshi ishlarni amalga oshiradi, va aksincha, qanchalik tarbiyasi kam, hayotiy ko'nikmalari oz bo'lsa, bunday shaxs ha'zan bilib yoki bilmay yomon ishlarga qo'l uradi.

Hech qachon bolalarni tarbiyalashda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklardan ko'z yummasligimiz kerak. Hozirgi turmushimizda ba'zi bir odobsiz, bilimsiz, aqlsiz, giyohvand, ota-onasiga qo'l ko'taradigan va o'z bolalarining baxtsiz yashashiga sababchi bo'layotgan kishilar uchraydi. Bundaylarning paydo bo'lishiga asosiy sababchi ota-onalari-ku? Bolasining insoniy xatti harakatlarga ularning tarbiyaga loqaydliklari sabab bo'lgan.

Yaxshi tarbiya, ba'zilar o'ylaganidek, bir soatlik yoki bir kunlik ish emas. Maqsadli tarbiya tarbiyachidan chidam, matonat, katta bilim va tajriba talab qiladi. Demak, har bir ota-ona va o'qituvchi tarbiyaga oid bilim va malakaga ega bo'lishi shart.

Bolalar tarbiyasida tezda ijobiy natijalarga erishish uchun ularga bilim berish bilan birga, ma'lum mehnat jarayonlariga jalb etish, kasb va mutaxassislik sir-sinoatlarini qo'shib o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiya ishining ba'zan samarasiz bo'lishiga asosiy sabablardan biri tarbiya jarayonida tartib-intizomning bo'lmasligidir. Shaxs qanchalik mehr-muhabbat va tartib-intizom asosida tarbiyalansa, yomon xatti-harakatlardan shunchalik uzoq bo'ladi.

Tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarni baxt-saodatli, o'z zamonining aziz, hurmatli va fidoyi kishisi qilib tarbiyalashdan iborat.

Tarbiyaning murakkabligi shundaki, u hech qachon tugamaydi, ya'ni kishi tug'ilganidan to o'lguniga qadar zarur bo'ladi. Bundan tashqari, bir tarbiya ko'rgan

avlod o'rniga kelgan farzandlarni yana qayta boshdan tarbiya qilish darkor bo'ladi. Bu esa tarbiyaning tinimsiz davriyligi va abadiyligini ko'rsatadi.

Islom ta'limotiga ko'ra, farzand ota-ona zimmasidagi omonat bo'lib, ular bu omonat haqida mas'uldirlar. Farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik ulkan xato, omonatga xiyonat va kishi dinining nuqsonidir. Ota-ona farzandining birinchi murabbiysidir.

Qur'oni Karimda oila ahliga e'tiborning qanchalik zarurligini Alloh taolo shunday bayon qiladi:

"Ey mo'minlar, sizlar o'zlarinigizni va ahli-oilalaringizni o'tini odamlar va toshlar bo'lgan do'zaxdan saqlangizki, u (do'zax) ustida qattiqdil va qattiqqo'l, Alloh o'zlariga buyurgan narsaga itoatsizlik qilmaydigan, faqat o'zlariga buyirilgan narsani qiladigan farishtalar turur" (Taxrim, 6-oyat)

Har qanday tarbiya, xususan nasihat oilada boshlanadi. Tarbiyaning bosh maqsadi — bir-biriga mehr-oqibatli insonlarni voyaga yetkazishdir. Ota va onalar yana unutmasinlarki, bugun farzandlari tarbiyasiga e'tibor bermagan kishi oradan yillar o'tgach, uysiz, oilasiz qoladi.

Abu Homid G'azzoliy farzand tarbiyasi haqida shunday fikrlarni bildiradi: "Bilgin! Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir. Farzand ota va onaga omonat. Bola qalbi pok, nozik, sodda va har qanday naqsh va suratdan xoli gavhardir. Unga qanday naqsh solinsa, shunga ko'ra shakllanadi, eggan tomonga egiladi. Agar bola yaxshilikka o'rganib, yaxshilik ichida voyaga yetsa, dunyo va oxirat saodatini topadi. Albatta bu savobga uning ota-onasi, muallimi va unga tarbiya bergan har bir kishi sherikdir. Agar bola e'tiborsiz tashlab qo'yilsa, yomonlik ichida o'ssa, badbaxtlikka yuz tutadi va halok bo'ladi. Bunda gunoh yuki shu ko'yg'a solganlarning, ota-onaning zimmasiga yuklanadi" deydi. Bu xususda Alloh taolo Tahrim surasida: **"Ey mo'minlar, sizlar o'zlarinigizni va ahli oilalaringizni do'zaxdan saqlangiz"**,— deb ogohlantiradi.

Tarbiyaning ikki asosi bor: fazilatni qo'riqlaydigan go'zal axloq va yaramas yo'ldan, yomon ahvolga tushishdan saqlaydigan hushyorlik. Ota farzandini dunyo olovidan qanchalik himoya qilsa, oxirat olovidan undan-da ko'proq himoya qilmog'i kerak. Odobu tarbiya vositasida yaxshi xulqlarni o'rgatish, yomonliklardan qaytarish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynatga muhabbat uyg'otmaslik bilan ota farzandini oxirat olovidan asraydi.

Farzand tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, tarbiya natijasi shunchalik samarali bo'ladi. Chunki erta yoshda ularni yaxshilik tomon burish osonlik bilan kechadi. Tarbiyasizlikdan vujudga kelgan yomon xulq va odatlarni keyinchalik qayta tarbiyalash yo'li bilan tuzatish mumkin. Ammo buning uchun ko'p mehnat sarf qilishga to'g'ri keladi.

317-topshiriq. Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozing.

318-topshiriq. "Mutaxassisning odobi va axloqi" mavzusida dialog tuzing.

ODOB -AXLOQ QOIDALARI HUQUQBUZARLIK, JINOYATCHILIK, KORRUPSIYANING OLDINI OLADI

Bugun davlat va jamoat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilingan. Bunda har bitta tashkilotda o'rnatilgan kasb etikasi, odob-axloq me'yorlari muhim ahamiyatga ega. Kasb etikasi hamda odob-axloq qoidalarining o'rnatilishi, avvalo, tashkilotdagi ichki muhitning barqaror rivojlanishi, xodimlar vazifalarini amalga oshirish chog'ida majburiy bo'lgan xulq-atvorning ma'naviy hamda axloqiy prinsiplarini samarali qo'llashga zamin yaratadi.

Avvalo, kasb etikasi deganda muayyan bir kasb faoliyatida qo'llaniladigan asosiy tamoyil va ma'naviy me'yorlar mujassam bo'lgan qoidalar tushuniladi. Ular jamiyat tomonidan qabul qilingan odob-axloq me'yorlarini kishilarning ixtisosliklariga nisbatan tatbiq etiladigan kasbiy burch, or-nomus va qadr-qimmat kabi xatti-harakatlar majmuyidan iboratdir.

Bugungi kunda deyarli barcha davlat organlari tizimida o'zining kasb odobnomasi va kasb etikasi qoidalari ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida ushbu masalaga e'tibor yanada kuchaytirilishi sohani huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga turki berdi. Xususan, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlari odob-axloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilash, ularning o'z xizmat vazifalarini vijdonan hamda samarali bajarishi uchun sharoit yaratish, davlat xizmatida suiiste'molning oldini olish maqsadida Vazirlar Mahkamasining Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari tasdiqlandi.

Ushbu namunaviy qoidalarning qabul qilinishi natijasida barcha davlat organlari tizimida kasb etikasining o'ziga xos namunaviy qoidalari yaratildi. Mazkur normativ-huquqiy hujjat davlat xizmatchilari tomonidan huquqbuzarlikning oldini olish, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, davlat xizmatchilarini yuksak huquqiy ong, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, fuqarolarning huquq hamda erkinliklariga qat'iy rioya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgani bilan ahamiyatlidir. Unda odob-axloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari belgilab berildi.

Shuningdek, odob-axloq qoidalarida har bir davlat organi tizimida Odob-axloq komissiyalarining tashkil etilishi hamda ularning vazifa va funksiyalarini belgilash nazarda tutilgan. Bunda davlat organlari xizmatchilari o'z xizmat vazifasini vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarishi, qabul qilgan qarorlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashi, biror-bir shaxs, guruh yoki tashkilotga yon bosmaslik yoki ustunlik bermaslik, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik bilan bog'liq bir qancha tartib-taomillar belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, odob-axloq qoidalariga so'zsiz rioya etilishi vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatda turli xil jinoyatlar, ayniqsa, korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

ETIKA, ESTETIKA, MANTIQ

Axloq – ijtimoiy ongning muayyan shakli bo‘lib, kishilarning ijtimoiy va shaxsiy hayotida bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarning ya‘ni xatti-harakat prinsiplari va normalarining yig‘indisidir. Axloq so‘zi tushunchasi ham arabcha bo‘lib, so‘zning ko‘pligidir.

Axloq kishilarning fe‘l-atvori, yurish-turishi, ularning ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solib turadi. Axloq normalari jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan shaxs fe‘l-atvoriga qo‘yiladigan talabdir.

Kishilik jamiyatining ilk davrlarida axloq normalari – yurish-turish qoidalari va odob prinsiplari kishilarning mehnat qilish jarayonida vujudga kelib, ularga rioya qilish, urf-odatga, an‘anaga aylanib boradi. Keyinchalik jamiyat ijtimoiy hayoti taraqqiy etib, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralgach, mehnat taqsimoti yuz bergach, odamlarning yurish-turish qoidalari, odam axloqining mohiyati mustaqil fanga aylanadi.

Etika – grekcha-yunoncha “etos” degan so‘zdan olingan bo‘lib, buning ma‘nosi hulq-odat demakdir. Etika, ya‘ni axloq haqidagi fan, o‘zbek tilida hozirgi paytda axloqshunoslik fani deb ham yuritiladi.

Etika odamlarning yurish-turishida, axloqida tarixan o‘zgarib turadigan, rivoj topib, taraqqiy etib boradigan prinsiplarni, axloqiy norma, qoidalarni, axloqning manbayi va kelib chiqishini, axloqiy kategoriyalarni, ya‘ni yaxshilik va yomonlik, or-nomus, vijdon kabi umumiy tushunchalarni, axloqiy e‘tiqod, maslak va his-tuyg‘ularni izohlab beradi.


Etika fan sifatida axloq, xulq-odob va axloqiy munosabatlarni aks ettiribgina qolmay, balki odam intilishi lozim bo‘lgan maqsadni, ya‘ni yuksak axloqiy g‘oyani, bu g‘oyani, ya‘ni bizning pirovard strategik maqsadimiz bo‘lgan – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot g‘oyasini amalga oshirmoq uchun qanday yashab, harakat qilmoqlikning ma‘nosini ochib beradi.

Xulq-odob deganda, iqtisodiy tuzum taqazosi bilan, turmush sharoitining alohida tarzidan, an‘analaridan, urf-odatlaridan paydo bo‘lgan, biroq muntazam qarashlar, qoidalar, yo‘l-yo‘riqlar sistemasiga kirmagan munosabatlar xususiyati tushuniladi.

Demak, xulq odamlarning amaliy xatti-harakatlari, odamlar o‘rtasidagi amaliy munosabatlar, axloq, ijtimoiy ong bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur xatti-harakat prinsiplari va normalarining axloq talablari shaklida ifodalab berilganidir, etika bo‘lsa, axloq prinsiplari va normalarini izohlab va asoslab berish demakdir, ya‘ni axloq haqidagi nazariyadir.

Odob – inson haqida yoqimli tassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko‘y miqyosida ahamiyatli bo‘lgan, ammo jamiyat va insonning hayotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmuyi.



Kash etikasi deganda bir ma'no tushunilarmi? Kash etikasi nima uchun kerak va u qanday maqsadlarda o'rganiladi?

Ushbu ta'lim maqsadiga qanday usullar yordam beradi?

"Kash etikasi (kash ko'rib o'tiladi) - bu odamlarning kash ko'rib o'tilishida kash olingan o'zaro munosabatlarning axloqiy asoslarini ta'minlaydigan qonunlaridir".

Har qanday qonunlar ham qat'iy qoidalarga ega bo'lmaydi. Ushbu ta'lim maqsadiga qanday usullar yordam beradi? Ushbu ta'lim maqsadiga qanday usullar yordam beradi?

Kash etikasi axloqiy madaniyat tizimida yuqori ko'ngil tashlanadi. Chunki inson uyusga etib, bir kashning boshini tutgach, o'z kashi deirasida odamlar bilan munosazam munosabatda bo'ladi.

Bu munosabat, bir tomondan, hamkasblar deirasida to'y berib, ikkinchi jihatdan, u kash talabiga nisbatan uchrayotgan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kashiy odok axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri, uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'zini yuksak.



Xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlar munosabatlari ularning bilim takkikasi va strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Insonga ta'sir o'tkazish samaradorligining belgilari:

Birinchiidan - Ishonch uyg'otuvchi inson obrazining yaratilishi. Buning uchun ta'sir o'tkazish (qiyosasi) bilan ishlash kerak.

Ikkinchiidan - ma'lumot jassayimida mijozning ehtiyojini maksimal darajada o'rganib borish kerak. Har bir inson qandaydir maqsad bilan ma'lumotda bo'ladi.

Uchinchiidan - mijoz bilan ma'lumotda bo'lganda uni qiziqitirgan; u ehtiyojini ko'rgan gaplarni aytish kerak, lekin fikrlarini ifodalaganda aniq axborotlarni berish kerak. Mijozga aynan ko'rsatish jarayonida idrok etish asoslaridan foydalanish tavsiya etiladi, ya'ni: audial, vizual, kinestetik.

- Audial - asosiy ta'sirotni eslatish orqali oladi
- Vizual - asosiy ta'sirotni ko'rish orqali oladi.
- Kinestetik - asosiy ta'sirotni sezish (his etish) orqali oladi.

Grammatik mavzu: ANNOTATSIYA MATNI, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya – qandaydir nashr haqidagi qisqa xabarot, hujjat. uning bir qismi yoki hujjatlar guruhining maqsadi, mazmuni, shakli va boshqa o'ziga xos xususiyatlari nuqtayi nazaridan tavsifnoma.

Annotatsiya boshlang'ich hujjatda so'z boradigan savolga javob beradi.

Annotatsiya turlari: mazmunli va maqsadli vazifasi bo'yicha:

- bildirgichli (matnning tanqidiy baxosiz tavsifnomasini beradi);
- tavsiyali (matnning is'temolchilarning muayyan auditoriyani yaroqliligi jihatidan tavsifi va bahosini beradi).

Mazmunini to'liq qamrab olishi bo'yicha:

- umumiy (keng auditoriyani hisobga olib umuman matnning tavsifini beradi);
- ixtisoslashgan (matnning tor doiradagi mutaxassislarini hisobga olib, muayyan jihatlardagi tavsifini beradi);

Annotatsiya tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar:

1. Kompozitsiyasi mazmunan mantiqiy bo'ladi va dastlabki matn kompozitsiyasidan farqlanishi mumkin.

2. Ma'lumotlarning tanlanishi, ularning ifodalanishi va joylashuvi annotatsiya tusiga bog'liq bo'ladi.

3. Tili lo'ndaligi, soddaligi, aniqligi bilan ajralib turadi.

4. Dissertasiya maqolaga annotatsiya bibliografik varaqada rasmiylashtiriladi. xatboshlarsiz beriladi.

5. O'rtacha hajmi – 500 bosma belgi, kam hollarda -800 -1000.

Annotatsiya tuzishdagi asosiy xato – xabarotning ko'pligi, fikrlarni ifodalashda gaplarning uzunligi, davrlarning ishlatilishi!

Ortiqcha narsalar: kirish so'zlari va gaplari, murakkab gaplardan qoching!

Annotatsiya matnda foydalaniladigan so'z va so'z birikmalari:

Maqolada ... lar ko'rib chiqilgan

... ko'rsatilgan

... ning tavsifnomasi katta o'rin egallaydi

... keng material keltirilgan

Tadqiqot ... kabi muhim muammolarni ko'rib chiqish orqali yuritiladi

... ning mohiyatini ochishda

Muallif ... ning ilmiy ta'rifini birinchi marta beradi va hokazo.

319-topshiriq. Annotatsiya yozing.

320-topshiriq. Quyidagi annotatsiyalar qanday turda bo'lishi kerakligini belgilang.

- diplom ishiniki;
- dissertasiyaniki;
- kitobniki.

33. Nutqiy mavzu: Nutq odobi

Grammatik mavzu: Me'yor tushunchasi

NUTQ MADANIYATI

Nutq odobi – 1) og'zaki va yozma adabiy til me'yorlari (talaffuz, urg'u, so'z qo'llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalari) ni egallash, shuningdek, turli aloqaralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati; 2) tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me'yorlashtirish (tartibga solish) muammolarini o'rganuvchi bo'limi. G'arb tilshunosligida umumiy ma'noda "til madaniyati" termini ham qo'llanadi. 1-ma'nodagi "Nutq madaniyati" tushunchasi adabiy tilni o'zlashtirishdagi ikki bos-qichni qamrab oladi: a) nutqning to'g'riligi va boshqa nutqiy mahorat. Nutqning to'g'riligi muayyan tilda so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "ideal" yoki umum tomonidan qabul qilingan va an'anaviy saqlanib kelayotgan odatlar, ibrat va namunalar tarzida idrok etiladigan adabiy me'yorlarga amal qilishdir. Nutqiy mahorat esa nafaqat adabiy me'yorlarga amal qilish, balki o'zaro mavjud bo'lgan variantlardan mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtayi nazaridan eng maqbuli va ifodalashini tanlab olish mahoratidir (Masalan, aka – oka – ako; kelyapti – kevotti – kelopti variantlaridan birining adabiy me'yor sifatida tanlanishi). Yuksak nutq madaniyati kishining umumiy yuksak madaniyati, fikrlash madaniyati va tilga nisbatan ongli mehr-muhabbatini namoyon etadi.

Nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasi til me'yoridir. 2-ma'nodagi nutq madaniyatining asosiy vazifasi ijtimoiy til amaliyotiga faol ta'sir ko'rsatish maqsadida (tilning barcha turlarida) obyektiv til me'yorlarini ularning barqarorlashgan shakllari, ziddiyatlari, vujudga keluvchi tamoyillari va boshqalarda o'rganishdir.

Zamonaviy nutq madaniyati nazariy va amaliy fan bo'lib, u til amaliyotiga ta'sir etish maqsadida adabiy til tarixi, grammatika, uslubshunoslik va boshqa tilshunoslik bo'limlarining yutuq va xulosalarini umumlashtiradi. Nutq madaniyati nazariyasida adabiy til milliy tilning oliy shakli deb e'tirof etiladi. Badiiy adabiyot tili o'zining eng yaxshi namunalari bilan xalqning madaniyat sohasidagi yutuqlari va an'analarini mustahkamlaydi va boyitadi.

Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa bo'lib, u jamiyat, fan-texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan chambarchas bog'liq holda taraqqiy etadi. Jamiyat a'zolarining madaniy saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me'yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida adabiyot, san'at, radio, televideniye va davriy matbuotning alohida o'rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me'yorlashtirish va nutq madaniyati nazariyasini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli imlo, talaffuz, o'quv va boshqa maxsus lug'atlar muhim ahamiyatga ega.

XV asrdayoq o'zbek adabiy tilining nutq madaniyati va uning o'ziga xos me'yorlari bo'lgan. Alisher Navoiy o'zining butun hayoti va ijodiy faoliyati bilan o'z davri nutq madaniyati, nutq odobiga mislsiz hissa qo'shgan bo'lsa, keyingi davrda

yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o'sha davr tili va nutq madaniyati ma'lum darajada aks etgan. "Yaxshi so'z – jon ozig'i", "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin", "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir", "Har neni yemak – hayvonning ishi, har neni demak – nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so'zlarning paydo bo'lishi ham o'zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e'tibor kuchli bo'lganidan darak beradi.

O'tgan asrning 20-yillaridan so'ng o'zbek tilining Nutq madaniyati xalq tiliga yaqinlashtirilgan milliy adabiy til me'yorlariga asoslanadi. Bu me'yorlarni shakllantirish ishiga olimlar (Otajon Xoshim, T. N. Qoriniyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon va boshqalar), adibu shoirlar (Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va boshqalar) munosib hissa qo'shdilar.

321-topshiriq. "Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzing.

322-topshiriq. Matnni o'qing va davom ettiring.

Har bir inson so'zlash va tinglash madaniyatiga ega bo'lmog'i lozim. Zero, shirinsuxanlik va xushmuomalalikni hamma hurmat qiladi. Shirinsuxan odamlar bilan bir marta suhbat qurgan odamning ruhi yengil tortadi. Shirinsuxan, yuksak muomala madaniyatiga ega bo'lgan insonlarda insof va diyonat, poklik va adolat tuyg'ulari kuchli bo'ladi, ularning tilidan bol tomib turishi bejiz emas.

MUOMALA ODOBI

Muomala inson qalbining ko'zgusi. Kishining yaxshi tarbiya ko'rgan-ko'rmaganligi uning boshqalarga qilgan muomalasidan ko'rinadi. Xalqimiz tilida sayqallangan "O'zingga ravo ko'rmaganni, birovga ham ravo ko'rma", "Avval pichoqni o'zingga ur, og'rimasa birovga" kabi maqollarda odamlar bilan muomalada xushxulq, xushmuomala bo'lishga da'vat etiladi. Xo'sh, xushmuomalalik deganda nima tushuniladi? Avvalo, shirinso'zlik tushuniladi. "Shirin so'z shakardan shirin", "Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin"— deydi dono xalqimiz.

Shirinso'zlik birovga murojaat qilganda, gapni: "Marhamat qilib, ..." "Agar maiol kelmasa ..." kabi iboralar bilan boshlashni taqozo etadi. Bu bilan murojaat qilayotgan kishiga hurmat ko'rsatiladi. Karta-kichikni sizlab gapirish, qariyalarga "otaxon...", do'st-birodarlar yoshiga qarab "aka, opa, Axrorjon..., Lobarxon, ..." deb murojaat qilish ham shirinso'zlik, ham ularning hurmatini o'rniga qo'yish bo'ladi.

Xushchehralik – biror kishi sizga iltimos bilan murojaat qilganda kayfiyatingiz yomonligini, vaqtingiz ziqligini sezdirmay, darhol chehrangizni ochib, uni iltifot bilan tinglash, kerakli javobni samimiy izhor eta bilishdir.

Biron sababga ko'ra yoshlikdan odob o'rganmagan, xushmuomalalik, shirinso'zlikka odatlanmagan kishi ham, agar ko'nglida odamiylik xislati bo'lsa, bu kamchilikni tuizatishi mumkin. Chunki o'z xulq-atvorining takomillasha borishiga intilmagan kishi inson degan nomga noloyiqdir. Sen ham bir og'izdan, siz ham bir

og'izdan chiqadi. So'zning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati beqiyosligini buyuk bobomiz Alisher Navoiyning quyidagi fikrlaridan bilishimiz mumkin:

*Insomni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki guhari sharifrog' yo'q ondin.*

NUTQ MADANIYATI VA SO'Z SEHRI

*So'z — qurol, maqsad esa ko'ngil, ko'ngil o'rtanmasa, ehtiroslarga to'lmasa,
so'zda ta'sir bo'lmaydi.*

(Jaloliddin Rumiy)

Nutq madaniyati inson tafakkurining mahsuli bo'lib, jamiyat madaniy hayotining va millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Nutq madaniyati kishilarni o'zaro to'liq va teran fikrlashuvi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashdan iboratdir.

Nutq madaniyati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, nutq madaniyati haqidagi ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, unga qadar Misrda, Assuriyada, Vavilion va Hindiston mamlakatlarida paydo bo'lganligi notiqlik san'ati tajribasidan va tarixidan ma'lum. Bu davrda hokimiyatdagi davlatni boshqarishning, savdo-sotiqning va sud ishlarining, nihoyatda taraqqiy etishi notiqlikni san'at darajasiga ko'tardi. Chunki u paytida davlat arboblarning obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixida ham nutq madaniyati o'ziga xos mavqega ega. Sharqda, shu jumladan, Movarounnahrda notiqlik, voizlik, ya'ni va'zxonlik "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan o'rinni foydalanish borasida ko'p yaxshi fikrlar aytilgan. Ana shu nuqtayi nazardan qaralsa "nutq odobi", "muomala madaniyati" nomlari bilan yuritilib kelingan nutq madaniyati tushunchasi juda qadimdan olimlar va ziyolilarning diqqatini tortgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamahshariy. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy. So'fi Ollayor, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' siymolar nutq odobi masalariga, umuman, nutqqa jiddiy e'tibor berishga da'vat etish bilan birga til, lug'at, grammatika va mantiqqa oid asarlar yozdilar. Masalan, Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" drammasida shunday satrlar bor:

Gap notiqlik ustida borar ekan, uning zamonaviy turlaridan biri — voizlik to'g'risida to'xtalishimiz tabiiy. Voizlik san'ati bilan shug'ullanadigan kishilar xalqning nazaridagi yetuk alloma bo'lganlar va ular nodir iste'dod sohibi sifatida qadrlanganlar. Masalan: Alisher Navoiy zamonasida Husayn Voiz Koshifiy ana shunday kishilardan bo'lganlar. Shuningdek, bundan avvalroq, Sohibqiron Amir Temur zamonasida Voiz Hurmuz, Bobur Mirzo hamda Mirzo Ulug'bek zamonasida saroy ahli orasida tibbiy olimlar, munajjimlar, Shayhul Islom qatorida, albatta, notiqlar, sarkardalar bilan voizlar ham saroy ahli nazarida yetuk allomalar bo'lishgan. Zero, "Bizning Sharqda, notiqlik san'ati azaldan ma'lum va mashhur bo'lgan. Chunki "Ma'noli va madaniyatli, bejirim gapira bilish, so'zning orqa-o'ngini, munosib

oʻrmini farqlay bilish, nutqiy fahm-farosat, tarxli nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqning maʼnaviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan”.

Til ham feʼl-atorv, ham insonga qon bilan kirib, uning butun jismu joniga taralib ketuvchi vosita ekan. bularga eʼtibor bermaslik hamisha katta muammolarni keltirib chiqaradi. Ulugʻ shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdagi ajoyib badiiy yodgorligi boʻlgan “Qutadgʻu bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida soʻzlarni toʻgʻri tanlash va toʻgʻri qoʻllash haqida: “Bilib soʻzlasa, soʻz bilig sanalur”, – degan edi. Qisqa soʻzlash, soʻzlarga iloji bori qadar koʻproq maʼno yuklash haqida:

Urush soʻzlama soʻz, biror soʻzla oz,

Tuman soʻz tugunini bu bir soʻzla yoz,

deydi. Bundan tushunishimiz mumkinki, soʻzni koʻp soʻzlama, kamroq soʻzla. Ming tugunini shu soʻz bilan yech. Qolaversa, gapirishdan maqsad soʻzlovchi koʻzda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga toʻgʻri, taʼsirchan yetkazishdan iborat. Shunday ekan, nutqning toʻgʻriligi, ravonligi va matiqiyiligiga erishish, muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir soʻzlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda, hovliqmasdan, soʻzning maʼnolarini yaxshi anglab, nutqni ravon va loʻnda tuzishga chaqiradi.

Ahmad Yugnakiy (XII-XIII) ham soʻzlaganda nutqni oʻylab, sxoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas soʻzlarni ishlatmaslikka, mazmundor soʻzlashga chaqiradi. Notoʻgʻri tuzilgan nutq uchun, nutq tufayli keyin hijolat chekib yurmagin, deb soʻzlovchini ogohlantiradi:

Oʻquv soʻzla, soʻzni eva soʻzlama, Soʻzing kezla, keyin boshing kezlama.

Yaʼni, soʻzni uqib soʻzla, shoshib gapirma, keraksiz, yaramas soʻzlarni yashir. Yaramas gaping tufayli keyin boshingni yashirib yurma.

Soʻzlovchining, yaʼni notiqning tinglovchi bilan fikran toʻqnashuvlarida, oʻzi boshqalarning taqdiri uchun kurashishida, nihoyat muddaoga erishishda notiq uchun soʻz asosiy qurollardan biridir. Soʻz – tafakkur xazinasining koʻzgusi boʻlib, notiq uchun faqat fikrni ifodalash vositasigina boʻlib qolmay, balki mavzuni faol ifodalaydigan asosiy omil hamdir.

Bitta soʻz olamni vayron qiladi,

Bitta soʻz qoʻrqoqni polvon qiladi.

(Jaloliddin Rumiy).

Soʻzning maʼnosi qanchalik aniq va oʻtkir boʻlsa, shunchalik taʼsirchan boʻlib, koʻzlangan maqsadni amalga oshirishni osonlashtiradi. Shuning uchun ham soʻzlardan gap tuzib, soʻzlovchi notiqdan soʻzga katta masʼuliyat va nozik did bilan qarash talab etiladi. Vazifa shuki, hayotda ham, turli sohalarida ham mazkur masalaga, yaʼni soʻz topib, oʻrnida, vaqtida, aniq va goʻzal qilib soʻzlash masalasiga jiddiy eʼtibor berilsa, ijobiy natija berishi shubhasizdir. Zero, notiq oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri nutqning xilma-xil uslub va boy shakllarini topishdir.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va koʻrsatmalarda sodda va oʻrinli gapirish. qisqa va mazmundor soʻzlash, ezmalik, huda-behuda gaplarni qoralash, keksatar va ustozlar oldida nutq odobini saqlash, toʻgʻri, rost va dadil gapirishning yuksak ifodasini talqin etish va boshqalar haqida gap boradi. Shu oʻrinda, Kaykovusning shunday fikri bor: “Hamma qobiliyatlarining eng yaxshisi nutq qobiliyatidir. Nutqni

juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil. Nutq shirin kishinng mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi".

O'zbek nutqi madaniyati tarixiga, jo'yali, aniq va ta'sirli nutq haqida nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda bu sohaga "Nutq odobi" nomi ostida ancha keng e'tibor berilganligini ko'ramiz. Keying asrlarda, ayniqsa, XIX-XX asrlarning ayrim vaqtlarida e'tibor susayganligi ko'zga tashlanadi. Biroq keying yillarda, ya'ni mustaqillik sharofati bilan bu sohada ko'p ishlar qilinmoqda.

323-topshiriq. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida gapirib bering.

NUTQ MADANIYATI ODOBI

Nutq madaniyatining etik jihati, muloqot jarayonida nutqiy xulq-atvor qoida va me'yorlariga rioya qilishni, muloqotning so'zlash formulalari tizimini bilishni talab etadi.

Til aloqa quroli, hayot ko'zgusi va ma'naviyat belgisidir. Til aloqa quroli. Til orqali aloqa o'rnatiladi, axborot almashiladi, til orqali insonlar muloqotga kirishadilar va eng asosiysi – til inson odobining ko'zgusi hisoblanadi. Kishi odobi, eng avvalo uning tilida namoyon bo'ladi.

"Nutqiy etiket (nutq odobi) deyilganda, so'zlashuv odobi qoidalarini tartibga soluvchi milliy, o'ziga xos stereotiplar, jamiyat tomonidan suhbatdosh bilan aloqa o'rnatish, aloqani tanlangan tonalikda davom ettirish yoki tugatish uchun qabul qilgan so'zlash formulalari nazarda tutiladi" (N.I.Formanovskaya).

Inson umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lmish nutq madaniyati muayyan vaziyatda nutq odobiga rioya etishni talab qiladi. Nutq odobi insonning ma'naviyati va ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Nutq odobida, aytilishi kerak bo'lgan xabarlarini tinglovchini hurmat qilgan holda, nutq odobi qonun-qoidalariga amal qilgan holda yetkazishi tushuniladi.

Nutq odobiga oid barcha til birliklari pragmatik, lisoniy, sotsiologik va lingvo kulturologik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Birinchi nuqtayi nazarga ko'ra, nutq odobi birligi nutq izhori bilan teng bo'ladi. Bunda muloqotning pragmatik, hamkorlik va xushmuomalalik prinsiplari amal qiladi. Xuddi shular nutq odobida etik kategoriyalar, muloqotning tashqi me'yorlariga rioya etuvchi kishining axloqiy sifatleri tarzida namoyon bo'ladi.

Lisoniy nuqtayi nazardan nutq odobi iboralari bevosita muloqot jarayonida amalga oshuvchi ibora-harakatlardan iborat, ya'ni "men", "sen" bilan "shu yerda" uchrashadi. Ushbu ko'rsatkichlar hamisha tilning semantik yoki grammatik tarkibida ifoda etiladi. Ibra orqali biror-bir harakatni amalga oshirish, masalan, xayrlashish iborasi orqali "o'zirniki – o'zganiki"; "yaqin-uzoq", "tanish-notanish" kabi qo'shimcha ijtimoiy ma'nolar ham yuzaga keladi.

Og'zaki nutqqa qo'yilgan etiket talablarining orasida ohang muhim o'rin tutadi. Til egasi muloyim ohangdan eng qo'pol ohanggacha aniqlay oladi. Biroq, ma'lum nutq vaziyatini hisobga olmasdan qaysi ohang qaysi nutq etiketiga to'g'ri kelishi, qaysi nutq madaniyatining chegaralaridan chiqib ketishini aniqlash amrimahol. Bir gapning turli ohangda aytilishi (demakki, turli ohang

konstruksiyalaridan foydalanish) ma'no bo'yicha, dolzarb ajratish, uslubiy ohang, shu jumladan, so'zlovchining tinglovchiga nisbatan munosabat bildirishi jihatidan turlicha baho berilishiga sabab bo'ladi.

Muloqot qoidalari muloqot mavzusiga aylangan hodisaning quvonchli yoki g'amginligi bilan ham belgilanadi. Bu aytilajak jumlaning ohangini ham belgilaydi. Og'zaki nutqda jumla ohangi muhim. Nutq vaziyatini hisobga olmasdan ohangning nutq odobi doirasidami yoki yo'qligini aniqlash mumkin emas. Bir jumlani turli ohangda aytish, jumlaning bo'linishi, stilistik bo'yoqdorlikka qarab uning ma'nosini turli xilda ifodalash imkonini beradi.

Og'zaki nutq ohangdan tashqari imo-ishoralar, mimika singari qator paralingvistik birliklarning qo'llanishi bilan farqlanadi. Ular jumlasiga "ha" yoki "yo'q", rozi-norози ma'nosini anglatish, ta'zim, qo'l berib ko'rishish, inektiv ma'noni bildiruvchi xatti-harakat kabilarni kiritish mumkin.

Nutq etiketi nuqtayi nazaridan olib qaraganda, paralingvistik belgilar quyidagilarga bo'linadi:

- etiket nuqtayi nazaridan neytral bo'lgan (og'zaki aytilgan nutq segmentlarini takrorlovchi yoki o'rnini bosuvchi – ishora qiluvchi, ko'rsatuvchi, ta'kidlovchi, inkor etuvchi va hokazo);

- etiket qoidalari talablariga javob beruvchi (ta'zim qilish, qo'l qisish va hokazo);

- tahqirlovchi va kamsituvchi ma'noga ega belgilar.

Bundan tashqari, paralingvistik belgilar etiketga to'g'ri kelmaydigan (masalan, odamlarni barmoq bilan sanash kabi) informativ xususiyatga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, nutq etiketi talablari paralingvistik suhbatni umumiy tarzda qamrashi mumkin.

Har qanday muloqot jumlasida maqsadli kontekstlar tarkibida ko'rib chiqilishi kerak. Masalan, "Soatingiz bormi?" so'rog'i aslida "Soatingiz necha bo'lganini aytib yuboring" degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun buni hisobga olmay "Ha, bor" javobi nutq odobi talablariga to'g'ri kelmay qoladi.

Nutq odobi o'ziga mansub madaniyat talab qiluvchi hamdardlik, shikoyat, ayb, g'am-g'ussa kabi ma'nolarni turlicha usullarda ifodalaydi. Xususan, musulmonchilik madaniyatida qiyinchilik va muammolar to'g'risida shikoyat qilish, nolish noo'rin. O'z muvaffaqiyati haqida qaysidir madaniyatda aytish mumkin, boshqasida esa, aksincha.

Nutq odobi maxsus til vositalari sistemasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Uning unsurlari tilning turli yaruslarida qo'llanadi. Masalan, leksika miqyosida: rahmat, marhamat, kechirasiz, uzr, xayr.

Grammatika miqyosida: sizlash ma'nosini ifodalash uchun "lar" qo'shimchasidan foydalanish.

Nutq odobi nutqiy vaziyatga va uning barcha xususiyatlari muloqot mavzusi, joyi, vaqti, sababi, maqsadi va kim bilan muloqot qilishiga bog'liq bo'ladi.

Nutq odobi bir qancha kommunikativ funksiyalari bilan ham ajralib turadi:

- suhbatdoshlar o'rtasida aloqa o'rnatish;

- tinglovchi diqqatini jalb etish, uning boshqalardan ajralib turishi;

- hurmat ma'nosini ifodalash;
- muloqot mavqeyini aniqlash (masalan, do'stona, ishchanlik, rasmiy va b.);
- muloqot uchun ijobiy emotsional vaziyat yaratish va tinglovchiga ta'sir o'tkazish va boshqalar.

Muloqot madaniyati va nutq etiketi bir-biriga chambarchas bog'liq. Ular kishining ish faoliyati, professional aloqasi va hamkorligida o'zaro ijtimoiy munosabatlarni ta'minlaydi. Shuning uchun nutq madaniyati suhbatdoshlarning o'zaro muvaffaqiyatini ta'minlovchi qoidalar bilan bog'liq. Ular muloqot prinsiplariga asoslanib ifodalanadi. Ular quyidagilar:

1. So'zlashuv qoidalari sifat (ma'lumot, xabar yolg'on bo'lmazligi lozim).

2. Miqdor (ma'lumot, xabar yetarlicha va lo'nda bo'lishi kerak).

3. Usul (ma'lumot, xabar tushunarli, aniq, suhbatdosh uchun tushunarsiz iborasi bo'lmazligi lozimligi) ga asoslanadi.

Muloqot jarayonida insonlar bir-biriga ta'sir ko'rsatish bilan birga o'zlarini aniq bir maqsadga qaratilgan xulqini (axloqini) ko'rsatadilar.

Norasmiy ravishdagi muloqot vaziyat, holatni e'tiborga olib, nutq so'zlash tezkorligi, o'z-o'zidan yuzaga keladigan tayyorgarliksiz nutq, so'zlashishda insonning bu psixologik emotsional, ularning jamiyatdagi o'rnini hisoga olgan holda yuziga keladi.

So'zlashuv asosini tushunish uchun shunday xulosa muhimdir: so'zlashuvchi inson o'zini shaxs sifatida namoyon qiladi va shundagina o'zga bir inson bilan muloqotga kirishishi mumkin.

Muloqotning shartlari:

1. Muloqotga muhtojlikda, o'zaro fikr almashuvida (kommunikatsion), manfaatdorlikda.

2. Muloqotning sifatli bo'lishining sababi bu to'g'ri tushunish va qabul qilishdir va suhbatdoshlarning dunyoqarashlari bir-biriga yaqinligi.

3. Eshituvchining gapiruvchini kommunikativ niyatiga kirib borishi uni tushunishi va ma'qullashi.

4. Gapiruvchining mavjud bo'lgan hodisa haqida aniq tassavurga ega bo'lishi.

Muloqotning sifatiga quyidagi hollar ta'sir qiladi:

- o'zgalarning ishtiroki;

- muloqotning turi (telefonda suhbat, peydjerdagi ma'lumot) ;

- kayfiyat (kanal);

- emotsional holat;

- fiziologik holat va h.k.

Muloqot samaradorligining asosiy komponentlaridan biri so'zlovchilarning etiket haqidagi bilimlarga ega bo'lishidir.

Muloqot samarasizligining sabablari.

Muloqot samarasizligi – suhbatdoshlar o'rtasida o'zaro kelishuvning yo'qligi, bir-birini tushunmasligidadir.

Muloqot samarasizligining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1) Muloqot qiluvchilarning bir-birini tanimasligi, ularni bir-birini tushunishga xohishi yo'qligi, begona odamlarning borligi. o'zining fikrini bayon etishga to'siq bo'lib turadi. Muloqotchilarning turli toifaga mansubligi, yoshi, dunyoqarashi.

2) Muloqotda suhbatdoshlar tengligining buzilishi, ya'ni ko'p gapirish va suhbatdoshning fikrini eshitmaslik, gapirtirmaslik.

3) Muloqotda samimiyatning yo'qligi, fikr va hissiyotning yo'qligi. Ochiq-oydin gapirmaslik, gap tuzishda rasmiy so'zlarni ko'p ishlatish.

4) Suhbatdoshga noo'rin tanbeh berish. Bu borada Sitseron shunday degan: "Kimki suhbatdoshning shart-sharoitini hisobga olmay, haddan tashqari ko'p gapirib, maqtanib, suhbatdoshning qadr-qimmatini. uning qiziqishini hisobga olmasa u odamni o'rinsiz, noo'rin" deyiladi.

5) Suhbatdoshning o'z fikrini ravon, to'liq, tushunarli ifodalay olmasligi, tutilib-tutilib gapirishi, noo'rin pauza qilishi. Biron-bir voqeani ikki xil odam o'zicha talqin qiladi.

Har qanday tildagi nutq odobi milliy xususiyatga ega. Milliylik faqat xulq-atvordagina emas, balki lisoniy planda ham namoyon bo'ladi.

Grammatik mavzu: ME'YOR TUSHUNCHASI

Me'yor – jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Me'yor – tilning yashash shaklidir.

Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori.

Jamiyat taraqqiyoti bilan barobar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarni tadqiq etishda, yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

Til me'yorini belgilash muammolarini hal qilish har bir milliy til madaniyatini rivojlantirishning uzviy qismiga aylanadi. Shuning uchun ham me'yor masalalarining nutq madaniyati doirasida o'rganilishi bejiz emas.

Til elementlarining ma'lum bir me'yorga keltirilishi, bir tomondan, til mutaxassislari tomonidan boshqarib borilsa, ikkinchi tomondan, tabiiy ravishda ham yuz beradi. Ammo, fikrimizcha, bir narsa ma'lum – tilning amalda bo'lish holatlariga tazyiq o'tkazib bo'lmaydi. Lekin tegishli yo'l-yo'riqlar, ko'rsatmalar, tavsiyalar berib borilishi zarur.

Imlo va talaffuz qoidalari asosida yozish va so'zlashni xalqimiz orasida ommalashtirish, bu qoidalarni lug'atlar shaklida mustahkamlash, har bir sohada ham tildan foydalanish me'yorlarini belgilash bugunning dolzarb vazifalaridan bo'lib qolmoqda. Xalqimizning nutq madaniyatini yanada yuksaltirish masalasi ham muhimligicha turibdi. Chunki milliy istiqloq g'oyasi talablarini to'la bajarish, yurtdoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, yoshlarimizni erkin, yangicha fikrlashga o'rgatishga til madaniyatisiz erishib bo'lmaydi.

Til birliklarini me'yorlashtirish, hamma uchun umumiy va tushunarli bo'lgan bir qolipga keltirish umuman tilshunoslikning vazifasi sanaladi. Nutq madaniyati tilda ma'lum me'yorda keltirilgan til birliklarining nutqda qo'llanish shart-sharoitlarini, qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi hamda bu me'yorga amal qilishni ma'lum ma'noda nazorat ham qilib boradi. Nutqdagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, bu kamchiliklarni tugatishning eng ma'qul yo'llari ko'rsatib turiladi.

Til elementlarining me'yorlashishidek uzluksiz jarayonda eskilik bilan yangilik o'rtasida kurash hamisha davom etadi. Tilda yashab turgan so'z va iboralar ularning o'rniga kelayotgan yangilariga osonlikcha o'rnini bo'shatib bermoqda. Ma'lum muddat ular teng darajada, parallel yashab turishi va vaqtlar o'tishi bilangina o'rnini bo'shatib berishi mumkin.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalardan, jargonlardan, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarini tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yor sifatida tavsiya etadi.

Har qanday til me'yorlarini ikki guruhga – umumiy va xususiy me'yorlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Me'yorga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik va xusu-siylik til me'yorlarining faoliyat doirasi, qamrovi va ularning biri ikkinchisiga nisbatan olinganda anglashiladigan tushunchalardir. Shu ma'noda o'zbek umumxalq tilidagi barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor, adabiy, lahjaviy, turli ijtimoiy qatlamlar tiliga oid me'yorlarni xususiy me'yorlar sifatida qabul qilish mumkin.

Shunday qilib, bir tomondan, o'zbek tiliga tegishli bo'lgan barcha me'yorlar yig'indisini umumiy me'yor deb tushunamiz. Ikkinchi tomondan esa, qo'llanish doirasi chegaralanmagan hamda tilning hamma iste'molchilari va tildagi barcha

vazifaviy uslublar uchun baravar bo'lgan birliklar majmuyini anglaymiz. "Umumiy norma tushunchasi o'zbek milliy tilining barcha ijtimoiy vazifaviy ko'rinishlari, nutq tiplari va uslublari uchun mushtarak bo'lgan vositalari tizimi ma'nosini ham anglatadi".

Adabiy til umumxalq tilining yashash shakllaridan biri bo'lib, uning boshqa ko'rinishlaridan mukammalligi bilan bir qadar farq qiladi. Uning qamrov doirasi umumxalq tilining boshqa shakllariga nisbatan keng. U butun bir millatga oliy darajada xizmat qilishga mo'ljallangan. Shuning uchun chegara bilmasdan, xalq orasiga chuqur kirib boradi va keng tarqaladi.

Millat manfaati va madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladigan adabiy tilning o'ziga xos xususiyati, uning umumxalq tilidan farq qiluvchi jihati ko'p bo'lib, ular orasida me'yoriylik markaziy o'rinda turadi. O'zbek adabiy tilining o'zbek xalqi uchun umummajburiylik, ko'pvazifalilik va uslubiy tarmoqlanganligi kabi xususiyatlarning biron-tasi me'yoriyliksiz amalga oshmaydi.

Adabiy tilning me'yoriylik umumxalq tilining boshqa xususiy me'yorlaridan tubdan farq qiladi. Uni tavsiflaydigan va farqlaydigan muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: kodifikatsiyalanganlik – ongli aralashuv yo'li bilan tanlanganlik va ongli boshqarish, ongli o'zlashganlik va anglanganlik, egallanganlik va tushunilganlik, qat'iy qoidaga va tartibga solinganlik, yozuvda mustahkamlanganlik, xalqchillik va umumqo'llanuvchanlik, umummajburiylik va namunaviylik, turg'unlik va barqarorlik, ayni paytda, ularning nisbiylik, an'anaviylik va izchillik, zamonaviylik va tipiklik, dinamiklik va tarixan o'suvchanlik, variantlilik va uslubiy tarmoqlanganlik, reallik va obyektivlik kabilar.

Me'yorlar haqida gap ketganda, ko'pincha, "ongli tanlash" tushunchasi esga olinadi. Tildagi elementlarning me'yorlashuvida tanlashning ahamiyati katta, albatta. Jamiyat a'zolari orasida bu jarayon xuddi tabiiy tanlanish singari amalga oshiriladi, lekin u ong yordamida boshqariladi. Kishilar nutq jarayonida o'zlari uchun tushunarli, muddaosini, fikr-mulohazalarini ma'qul tarzda ifodalay oladigan, hatto talaffuzda ham qulay bo'lgan variantlarni tanlab ishlata boshlaydilar va bu variant asta-sekinlik bilan me'yoriy ko'rinish sifatida e'tirof etiladi.

Tanlanish uchun variantlar bo'lishi lozim. Ammo variantlarning paydo bo'lishi til taraqqiyotida ma'lum vaqtning o'tishini taqozo qiladi. Demak, ungacha, haqiqiy ma'noda me'yorlashungacha qadar til birliklari nutqda yana qandaydir bosqichlarni bosib o'tadi va tanlanish jarayoni tilning me'yorlashuvida keyingi bosqichlardan biri sanaladi.

Nutq jarayonidagi odat va ko'nikmalarni ana shunday bosqichlar deb tushunsak to'g'ri bo'ladi. Chunki ma'lum predmet yoki tushunchaning ifodasi, atamasi bo'lgan birlik tilda paydo bo'lar ekan, undan foydalanishga til vakillari dastlab o'rganishi, odatlanishi lozim. Bu birliklarni qanday talaffuz qilishdan tortib, u anglatgan ma'noni fahmlash, anglab yetishgacha bo'lgan jarayon yuz berishi kerak. Shunday ekan, kishi ongi va amaliyotida til birligi me'yorlashishining birinchi bosqichi odatlanish bo'lib hisoblanadi. Bu elementlar tinimsiz, takror-takror ishlatilaverishi oqibatida jamoa orasida ko'nikma hosil bo'ladi. Ko'nikmalar esa me'yorlashishni bir qadar mustahkamlaydi, deb bema'lol aytish mumkin. Ana shuning

uchun ham tanlash imkoniyati tilning amalda bo'lishining keyingi davrlariga – til ham shaklan, ham mazmunan boyigan, adabiylik darajasiga ko'tarilgan paytlarga to'g'ri keladi.

Ungacha esa til, olimlar ta'бири bilan aytganda, “sodda til”, “xom til”, “ishlanmagan til” ko'rinishlarida bo'ladi. Tilning sheva va lahjaviy shakllarini ana shu ko'rinishlar sifatida baholash mumkin.

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me'yor.
2. Talaffuz – (orfoepik) me'yor.
3. Yozuv (grafika) me'yor.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasaliş me'yorlari.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor
10. Punktatsion me'yor.

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilari, latifago'y xalq shoir - baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yorini va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelingan. Adabiy til me'yorini, uning shakllanish, rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlari nutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

Nutq madaniyati adabiy me'yorini ma'lum maqsad bilan, anig'i madaniy nutqning chegarasi va vositalarini aniqlash maqsadida o'rganadi. Shu sababli, nutq madaniyati sohasi adabiy til va uning me'yoriy sistemasini baholaydi va nazorat qiladi. Nutq madaniyati sohasi adabiy tilga yondashadi, ya'ni adabiy til rivojiga ogli aralashadi.

Ma'lumki, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. U jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy hodisadir. Jamiyat rivojlangan sari til ham shakllanib boradi. Demakki, shu tilda so'zlashuvchi millatning ma'naviyati yuksalib, nutqiy malakasi ortib boradi. Aks holda til tanazzulga yuz tutadi. Bu esa nutqiy malakaning so'nishiga, ma'naviyatning qashshoqlanishiga olib keladi.

Jamiyatda yashayotgan har bir shaxs alohida nutq egasi sanaladi. Lekin ularning hammasi uchun umumiy bo'lgan nutqiy qurol shu jamiyatning yagona tili hisoblanadi.

Inson nutq faoliyatida adabiy til madaniyati qoidalarini mukammal bilgani holda, ayniqsa, badiiy adabiyotlarni, gazeta va jurnallarni o'qishi, radio va

televideniye ni kuzatib borishi orqali hamda tinimsiz mustaqil shug'ullanishi natijasida nutqiy malakaga ega bo'ladi.

Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq madaniyatiga ega bo'ladi. Til madaniyatini egallashda tilga bo'lgan e'tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o'ynaydi. Adabiy til va uning me'yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug'ullanish orqali egallab bo'lmaydi.

325-topshiriq. O'zbek tili adabiy til me'yorlarini yozing.

326-topshiriq. Leksik me'yor buziilgan holatini ko'rsatuvchi matn yozing.

327-topshiriq. Uslubiy me'yor deganda nimani tushunasiz.

NUTQ MADANIYATINING ME'YORIYLIK ASPEKTI

Me'yoriylik, umuman olgan, universal falsafiy kategoriyalardan hisoblanadi. U dunyoning asosini tashkil qiladi va "tartibsizliklar tartibi" yoki "tartiblar tartibsizligi" sifatida namoyon bo'ladi. Borliqdagi bunday me'yoriylik muayyan darajada ongimizda, ongimizdagi esa tilimizda, tilimizdagi esa nutqimizda kommunikativ faoliyatimizda o'z aksini topadi.

Umuman olganda, me'yor, me'yoriylik insonlarning barcha turdagi faoliyatiga xos. Har qanday lisoniy hodisa me'yoriydir. Uning tilda ham namoyon bo'lishi til va nutqni tartibga solish, buning natijasida madaniyatli til va nutqning shakllanishida yetakchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Muloqot chog'idagi me'yoriylik nutq madaniyati qonun-qoidalariga amal qilish orqali namoyon bo'ladi. Nutq faoliyatidagi me'yoriylik adabiy til va nutq vositalaridan belgilangan lisoniy qonun-qoidalar asosida o'rinli foydalanishni taqozo etadi.

Lisoniy me'yor bir tomondan, tilning ikki qonuniyatlari va ikkinchi tomondan, jamiyatning madaniy an'analari bilan belgilanadi.

Nutq madaniyatining asosiy xususiyatlaridan bo'lmish me'yoriylik, avvalo, adabiy til miqyosida namoyon bo'ladi. Adabiy til o'ziga xos me'yoriylik mezonlari bilan milliy tilning boshqa ko'rinishlaridan ajralib turadi, biroq me'yor hodisasi, tilning barcha yashash shakli uchun xosdir.

Me'yor tushunchasini aniqlash borasida bir-birini to'ldirib, mustahkamlab boruvchi ikki nazariya mavjudligini ko'rish mumkin: birinchi nazariya til vositalarining qo'llanilishi, ikkinchi nazariya me'yorni umumxalq tomonidan mustahkamlanganligi.

Har qanday lug'at yoki so'rovnomaga nashridan avval juda katta va ko'p e'tiborni talab qiluvchi ishlar olib boriladi. Shunday obyektiv holatlar tilshunoslarga tomonidan lug'at grammatikalarda qoida va tavsiyalar ko'rinishida mustahkamlanadi, barcha adabiy til so'zlashuvlari uchun majburiy qilib qo'yiladi. Obyektiv ravishda mavjud bo'lgan adabiy me'yorlarni bunday tarzda qayd etish majburiy qilib qo'yiladi. Obyektiv ravishda mavjud bo'lgan adabiy me'yorlarni bunday tarzda qayd etish fanda kodifikatsiya deb nom olgan.

Kodifikatsiya orqali adabiy me'yorlar saqlanadi. Adabiy tilning me'yorlashtirilgani haqida so'z yuritilganda, ana shu adabiy me'yorlarning qayd etilishi nazarda tutiladi. Kodifikatsiya til egalariga nisbatan qaratilgan bo'ladi. U nutq amaliyoti va faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Shuning uchun har qanday shevaga yoki jargonlarga oid so'zlarning qayd etilishi yoki izohlanishini kodifikatsiya deb bo'lmaydi.

Me'yorni baholashning uch aspekti farqlanadi:

So'zlovchi o'z fikrini to'g'ri, aniq va lo'nda qilib ifodalay olishi.

Tinglovchining muayyan darajada ta'sirlanishi.

Muayyan tilning strukturasi va uning an'analari.

Fonetik me'yor deganda ongli ravishda muayyan qoidaga solingan tovush vositalarining so'zlovchi nutqida ishlatilishi tushuniladi. Har qanday rivojlangan tilning me'yori o'sha tilda so'zlovchining o'g'zaki adabiy nutqidagi me'yoriy tovush tarkibida foydalanishga asoslanadi.

Fonetik me'yor faqatgina og'zaki adabiy nutq me'yoriga xos bo'lib qolmay, yozma nutq me'yoriga ham taalluqlidir. Demak, fonetik me'yorlar ma'lum til grafikasi bilan ham bog'liq ekan.

Orfoepik me'yor talaffuz me'yori, aktsetologik hamda urg'u me'yorini qamrab oladi, chunki har qanday til birliklari muayyan talaffuz va urg'u qoidalariga rioya qiladi. Talaffuz va urg'u normalari muayyan tilda so'zlovchilar uchun, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, turar joyi, kasbi, yoshidan qat'i nazar, majburiy me'yorlar hisoblanadi.

Adabiy me'yorning orfoepik buzilishi ko'p hollarda, talaffuz jarayonida, og'zaki nutqda yuz beradi. Lekin kasbiy nutqda ham talaffuz me'yorlarining buzilishi hollarini kuzatish mumkin.

Orfografik me'yor yozma nutqda amal qilib, so'zlarning o'zagi, suffikslari, qo'shimchalarining, ular qanday talaffuz etilishidan qat'i nazar, to'g'ri yozilishini, so'z va ularning qismlarining me'yoriy holda qo'shib yoki ajratib yozilishini, atoqli otlar va mustaqil gaplarni ajratib turishda bosh harflar bilan yozilishini tartib-qoidaga, me'yorga solib turish vazifasini bajaradi.

Leksiy me'yor. Adabiy tilda milliy tilning yashash va amal qilish qonuniyatlaridan kelib chiqib, so'z tanlash imkoniyatlari uning leksik me'yorini belgilaydi. Adabiy til xalq tilida mavjud bo'lgan so'z variantlaridan eng ma'qulini, ya'ni hamma uchun tushunarli bo'lgan ko'rinishlarini tanlab olib, me'yor sifatida taqdim etadi. Qolgan variantlar esa sheva va lahjalarda ijtimoiy guruhlar tilida yashayveradi.

Grammatik me'yor. Tilshunoslikning nazariy jihatdan bir muncha mukammal ishlangan, so'z shakllari, qo'shimchalar, so'z birikmalari va gap tuzilishi, tuslovchi hamda so'z yasovchi qo'shimchalarning, so'z birikmalari va gap tuzilishi ancha

me'yorlashtirilgani grammatikadir. Adabiy til uchun turlovchi, tuslovchi hamda so'z yasovchi qo'shimchalarning eng ma'qul variantlari shevalar bilan qiyoslangan holda tavsiya etilgan va morfologik me'yor sifatida berilgan. Lekin nutqda bu me'yorlarning buzilishi hollari uchraydi. Ko'pincha qaratqich va tushum kelishigi qo'shimchalari farqlanmaydi, - li va -lik qo'shimchalarini qo'llashda qorishtirish hollari uchraydi: xorazmli yigitlar, xorazmlik yigitlar. Adabiy tilning so'z yasash shakllari ham shevalardan farqlanadi: olaylik – olayli, ketaylik – ketayli.

Punktuatsion me'yor yozma adabiy nutqqa xos bo'lib, tinish belgilarini ishlatishning butun sistemasi va usullarini qamrab oladi. Har bir tinish belgisi o'z nomiga va vazifasiga ega, tinish belgilarisiz gapni tushunish qiyinchilik tug'diradi. Agar gapda punktuatsion me'yor talablari buzilsa, jumla o'z ma'nosini va ritmik – melodik xususiyatini yo'qotadi.

Adabiy tilning **uslubiy me'yori** til birliklarining nutqda vaziyat ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib, eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi. Shu ma'noda uslubiyat deganda, so'z qo'llash mahorati ham tushuniladi.

Tilning uslubiy me'yorini belgilashda til birligi qo'llanilayotgan kontekstga qarab hukm chiqarish eng to'g'ri yo'ldir. Chunki har bir birlikning nutq jarayonida o'zining u yoki bu stilistik imkoniyatini namoyish etadi.

34. Nutqiy mavzu: San'at va ma'naviyat

Grammatik mavzu: Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari

SAN'AT TURLARI VA ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

San'at – estetik tadqiqot obyektining umumiy nomi, mushtarak tushuncha. Xususiyl tushuncha sifatida u voqelikni go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik kabi qadryatlar va aksilqadryatlar orqali muayyan, xil, tur hamda janrlar doirasida in'kos ettiradigan badiiy ijod mahsulini anglatadi. Shu bois, san'atni xil, tur va janrlarga bo'lib, estetik tadqiq etish odatiy tusga aylangan. Biroq, ana shu "bo'lib o'rganish", ya'ni tasniflashtirish, turkumlashtirish bir qarashda osondek, ko'rinsa-da, aslida estetikadagi murakkab va chalkashliklarga to'la muammo sanaladi.

Me'morlik. Bu san'at turining paydo bo'lishi insonning turar joyga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va odamning estetik tabiati uni tobora go'zallashtirib borishni talab etgan. Me'morchilik – mavjudlikni makon bilan shartlangan san'at turi. Unda hajm, makonni egallash xususiyati birinchi o'rinda turadi. Me'morlikning san'at sifatidagi estetik mohiyati uning kulgulilik xususiyatini barqaror etishi bilan bog'liq, hech bir san'at turida ulug'vorlik bu qadar o'zini yaqqol namoyon qilmaydi. Ayni paytda unda tasviriylik, noziklik, injalik kabi go'zallik unsurlari katta ahamiyatga ega, ular mahobatning tarkibiy qismini tashkil etgani holda, xandavsiy yoki bargsimon naqshlarda, sirkor narsalarda, devoriy yozuvlarda o'z aksini topadi.

Ko'rgazmali-amaliy san'at qadimdan mehnat qurollari, hunarmandchilikning rivojlanib borishi kundalik turmush ehtiyoji uchun qo'llaniladigan ashyolarni bezash, me'morlik inshootlarini turli naqshlar va koshinlar vositasida go'zallashtirish orqali estetik talablarga javob berib keladi. Aynan ana shu san'at turida hunarmandchilikning san'atga aylanishi ro'y beradi.

Haykaltaroshlik – monumental san'at. Eng qadimgi ibtidoiy davrlardan boshlab hozirgacha haykaltaroshlik o'z mavqeyini yo'qotmay kelayotgan san'at turlaridan biri. Bu san'atning asosida faqat oniy, bir lahzalik san'at tasviri yotadi. Haykaltarosh tomonidan ana shu eng muhim harakatni topish hamda unga mos nur va soyani tanlash yuksak iste'dodni talab etadi.

Xattotlik – yozma adabiyotning keng yoyilishi, bir tomondan, badihago'ylik ravnaqiga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi tomonidan yangi san'at turi xattotlikni vujudga keltiradi. Xattotlikda harf yoki iyeroglif ham aniq, ham chiroyli yozilishi bilan go'zalikni namoyon etadi. Har bir xattot san'atkor sifatida o'z yozish uslubiga ega bo'lgan. Xattotlik san'ati kitobdan, ya'ni kitobni o'quvchiga go'zal shaklda yetkazish bilan bog'liq. Shu bois bosma tarzda chop etish vujudga kelgach, xattotlikka ehtiyoj qolmadi va tez orada u san'at sifatida faollikni yo'qotib, tarixga aylandi.

Rassomlik san'ati. Bu san'at turi ham qadimdan mavjud, uning dastlabki namunalarini qadimgi tong asridagi g'orlar devoriga ishlangan rasmlarda ko'rish mumkin. Rang tasvir voqelikning san'atkor tanlagan nuqtayi nazaridan mo'yqalam va bo'yoqlar vositasida muayyan tekis matoga rasm tarzida tushurishdan iborat.

Tasvirming ochiqqligi, ranglarning kontrastlikka asoslangan tarzda qorishuvi, ko'zi yumilgan, bosh va hilpirashini xohlagan, lekin hilpirashga majoli yo'q sochlarning tashqi olamga ulanib ketishi natijasida ulkan bir fojiaiviylik ruhi ufurib turadi, asarni kuzatar ekansiz, seskanganingizni ham, xo'rsinganingizni ham sezmay qolasiz.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI YANA RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR TO'G'RSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda madaniyat va sa'nat sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh is'tedod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasidagi keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va sa'natning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan vazilalar ijro uchun qabul qilinsin:

Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Moddiy-madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

Yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, konsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish.

"Seni qo'llaymiz, zamondoshi!", "Debyut" kabi teatr san'ati ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrozi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahna asarlarini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2017-yilning 1-oktabiriga qadar:

- muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kompleks chora-tadbirlari.

- Yoshlarni teatr va muzeylarga, konsert tomosha tadbirlariga tizimli ravishda jalb etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik va madaniy darajasini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi.

O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi Madaniyat vazirligi va Toshkent shahri hokimligi bilan birgalikda bir muddatda Toshkent shahri, Buxoro ko'chasi 10-uyda joylashgan binoni "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tasarrufiga o'tkazish va ushbu binoda jahon andozalariga to'liq mos keladigan, akademik jamoalarning badiiy dasturlari namoyish etiladigan jonli ijroga mo'ljallangan zamonaviy konsert zalini barpo etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligi 2018/2019-o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasida madaniyat va san'at yo'nalishidagi oily va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari uchun malakali musiqa pedagoglarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan fakultet tashkil etish yuzasidan choralarni amalga oshirsin.

Quyidagilar Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturlari mablag'lari;

Davlat budjeti mablag'lari;

Tijorat banklari kredit mablag'lari;

Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining bosh vaziri A.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi X.Sultonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA SAN'AT VA MADANIYAT

Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida tadqiq etishga e'tibor kuchaydi, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o'tmishda yaratilgan madaniy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo'yildi. Ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning unitilgan nomlari qayta tiklandi. Mohir sarkarda, davlar arbobi, ilm-fan, madaniyat xomiyisi bo'lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biridir. Uning hukmronlik yillarida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, ta'sviriy san'at, musiqa va she'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarildi.

Temuriylar davri tomosha san'ati, bayramlari to'g'risida ko'plab ma'lumotlar va umumlashmalar saqlanib qolgan. Ayniqsa, an'anaviy teatr, raqs va sirk bo'yicha ma'lumotlar umumlashma fikrlar va mo'jaz tadqiqotlar mavjuddir.

Hozircha, birgina Husayn Voiz Koshifiyning "Futtuvatnomai sultoniy yoxud jamonmardlik tariqati" risolasida o'yin va tomoshalarning ayrim toifalari xususida fikr yuritiladi.

Shuningdek, o'tmishda an'anaviy teatr, qo'g'irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo'shiqchilarning barcha shakllari, turlari "Tomosha" degan birgina so'z bilan ifodalanadi.

Temuriylar davrida san'at va madaniyat jabhalari rivojlanib bordi.

Amir Temurning tarjimai hol shaklida yozilgan "Zafar yo'li" da keltirilishicha, "O'n ikki yoshga to'lganimda" – deb yozadi Sohibqiron, - bolalarcha o'yinlardan orlanadigan bo'ldim, Amir Temur endi ot minish, chavandozlik mashqlariga, ov qilishga mehr qo'ya boshladi. Faqat o'yin ilgariday cho'p ot bilan emas, haqiqiy otlar bilan jiddiy yo'sinda olib borilgan.

Amir Temur va temuriylar davlatida turli bayramlar, sayillar, tomoshalar o'tkazilib kelinganligi to'g'risida ko'pgina ilmiy ma'lumotlar bor. Ma'rakalarda har toifa ijrochilar alohida-alohida tarabxonalar va xosxonalar san'atkorlarning aralash guruhlari o'z mahoratlarini, namoyish etishgan bo'lsa, teatrlashgan sayillar va namoyishlarga minglab har xil ijrochilar qatnashgan va o'zaro bellashgan.

Xos bazmlarda maqom kuylari chalingan. Bu kuylarda raqqos va raqqosalar xirom etgan, masxara va muqallidlar kuldiringan, bayramlarda katta maydon va ma'rakalarga yarasha tomoshalar ko'rsatilgan. Tomoshabinlar o'ta faol bo'lishgan: har guruh, jamoa yoki maydonda kuch yoki bo'lmasa mohirligini, mahoratligini sinayotgan vakilini olib ruhlantirib turgan. Ishtirokchi va tomoshabinlar juda tanti bo'lishgan, g'oliblarni tan olib, tetik ruh, yangi yig'inlarga umid bag'ishlashgan va shu tariqa maydonni tark etishgan.

328-topshiriq. Matnни o'qing va savollar tuzing.

MILLIY MADANIY MARKAZLAR

Milliy madaniy markazlar – O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlariga xos talab va ehtiyojlarini qondirish, shu tariqa ularni O'zbekiston miqvosida yanada mustahkamroq jipslashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlar.

1989-yilda milliy madaniy markazlarning soni 12 ta bo'lsa, 1997-yilning oxirida

ular 90, hozir esa 130 dan oshdi, shu jumladan rus, ukrain, koreys, gruzin, qozoq, qirg'iz, tatar, tojik, mahalliy yahudiylar, armani, ozarbayjon, polyak, nemis va boshqa milliy madaniy markazlari faol ish olib bormoqdalar. Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari uch yo'nalishga ega:

1) har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatani bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish;

2) mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish;

3) Vatani bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, tarixi va tilini o'rganish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlik, hamkorlik va to'vlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin

yangidan-yangi shakllarda, turlarda. yo'nalishlarda rang-barang bo'lib hormoqda, shu jumladan:

- o'z milliy tarixi, madaniyati, tili va urf-odatlarini o'rganish to'garaklari ishlamoqda;

- O'zbekiston tarixi, madaniyati va tilini o'rganish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;

- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;

- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilmoqda, festivallar tashkil qilinmoqda;

- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilari, shoirlari, baxshilari, madaniyat va siyosat arboblari bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;

- tarixiy Vatandan kelgan siyosiy arboblardan va madaniyat namoyandalari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va hokazo.

Milliy madaniyat markazlari O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar. Ular haqiqiy erkinlik va ozodlik asosida ish olib borib, o'z Vatani O'zbekistonga va o'zbek xalqiga bo'lgan muhabbat va hurmatlarini o'z faoliyatlari orqali namoyon qilmoqdalar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

a) matnni o'qing.

b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing.

c) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

d) o'zbek tiliga xos undosh tovushlarni aniqlang va ular talaffuziga e'tibor bering.

329-topshiriq. Matnni o'qing va tarjima qiling.

YUNUS RAJABIIY

O'zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobi. O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkentning Chaqar mahallasida bog'bon oilasida dunyoga kelgan.

1919-yili Toshkentda ochilgan Xalq konservatoriyasi milliy musiqa bo'limiga kirib o'qigan.

1959-yilda O'zbekiston televidenie va Radio eshittirish qo'mitasi huzurida professional maqomchilar ansamblini tuzgan va unga boshchilik qilgan. "O'zbek xalq qo'shiqlari" nomli besh jildlik kitob yozgan. Unda Toshkent - Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro "Sxoshmaqom" i alohida o'rin egallaydi.

Akademik Yunus Rajabiy 1976-yilda vafot etgan.

330-topshiriq. O'zingiz yoqtirgan biror san'at turi bo'yicha taqdimot tayyorlang.

331-topshiriq. "Milliy san'atimiz tarixi" mavzusida insho matn yozing.

KAMOLIDDIN BEHZOD

Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri. U 1455-yilda Hirotda kambag'al hunarmand oilasida tug'ilib, ota-onasidan juda erta yetim qoldi.

Behzodning musavvirlikdagi iste'dodini payqagan Amir Ruhillo (Mirak Haqqosh) uni o'z tarbiyasiga oladi. Behzod musavvirlikni Pir Said Ahmad Tabriziydan o'rgandi. Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali. Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan. Ijodi 1470-yillarda boshlangan.

Alisher Navoiy va Sulton Husaynning vafotidan so'ng Hirotni Shayboniyxon, 1512-yilda esa Eron shohi Ismoil I bosib oldi. Ko'p san'atkorlar Hirotdan chiqib ketdi. 1520-yillarning boshida shoh Ismoil I Behzodni Tabrizga chaqirtirib, katta imtiyoz berdi. Shoh Ismoil I dan keyin uning o'g'li Tahmos taxtga chiqdi. Behzod Tahmosga musavvirlikni o'rgatadi. Lekin shoh Behzodning san'atini qadrlamaydi. Rassom ona yurti Hirotda qaytadi.

Shayx Sa'diyning "Bo'ston"iga ishlagan miniaturalari (1478) musavvirning ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurtmasi bilan u 4 ta miniatura ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo'shqin tasvirlaydi. Turli ranglar bir-biriga mos. asarlaridagi shaxslar harakatchan, tabiatan jonli. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko'zga tashlandi.

Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", "Layli va Majnun", Xisrav Dehlaviyning "Majnun va Layli" asariga ishlagan miniaturalari butun dunyoga mashhur.

Behzod miniatura san'ati tarixida maxsus "Behzod maktabi"ni yaratdi. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning maktabida ta'lim olganlar. Behzod ustoz san'atkor sifatida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Miniatura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod miniaturalari uning tirikligidayoq bu san'atning oliy yutug'i deb tan olingan.

Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan.

332-topshiriq. Matnni o'qing.

MUKARRAMA TURG'UNBOYEVA

Mukarrama Turg'unboeva 1913-yilda Marg'ilon shahrida o'rtaoilada dunyoga keldi. U ustozlari usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Yusufjon qiziqdan ta'lim oldi. 50 yil o'zbek raqs san'atiga sidqi dildan xizmat qildi. 1957-yilda mashhur "Bahor" ansamblini tashkil etib, jahon bo'ylab 100 dan ortiq mamlakatlarda namoyish etib, dovrug'ini jahonga taratdi. O'zi yurakdan ijro etgan "Tanovor". "Katta o'yin", "Andijon polkasi", "Rohat" raqslari haligacha xalqimiz orasida doston bo'lib keladi. Uning san'atidan ta'sirlangan Hindistonning mashhur san'atkor yozuvchisi Ahmad Abbos shunday degan edi: "Hindistonni hech kim qilich va qurol bilan o'ziga tobe etolmagan. Ammo o'zbek qizi Mukarramaxonim Turg'unboeva o'zining "Bahor" qizlari bilan, "Tanovor" raqsi bilan biz hindlarni taslim qildi, lol qoldirdi".

Mukarrama Turg'unboeva olam kezgan, ustoz san'atkor, milliy o'zbek raqsini qoyilmaqom qilib o'ynab, yuzlab xorij ellarning san'atsevarlariga o'zbek raqsini ko'z-ko'z qilib kelgan. Uning repertuaridan juda ko'p turli xildagi raqslar o'rin olgan edi.

Mukarrama opa san'atda betakror shon-shuhrati bilan 1978-yil 20-noyabr kuni 65 yoshida hayot bilan vidolashdi. Uning xizmatlari davlatimizning faxriy unvonlari va mukofotlari bilan taqdirlangan. U xalq artisti, davlat mukofoti laureati, orden va medallari uning uy-muzeyida saqlanmoqda. Mashhur "Bahor" ansambliga uning nomi berilgan. 2001-yilda Prezidentimizning farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

333-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering.

MUSIQA

Tabiatan nozikta'b. san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgidir. O'tmishda musiqa ziyolilikning albat namunasi bo'lgan. Ma'rifat va ma'naviyat ahlining jonkuyar xomiyi Alisher Navoiy bolalik chog'larida alifbo qatori musiqa nazariyasini Xoja Burxondan puxta o'zlashtirgan, ustoz, tog'asi Muhammad Ali G'aribiy, yaqin do'stlari bilan musiqiy ijod va ijro sohaslarida muntazam suhbatlar o'tkazib kelgan.

Turli yo'nalishdagi musiqa maktablari paydo bo'ldi: Buxoroda "Shoshmaqom" ijrochilik maktabi, Samarqandda maqomchilik va bastakorlik, Farg'onada sozandalik va katta ashulachilik maktablari.

Hozirgi kunda musiqa ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, 300 dan ziyod bolalar musiqa maktablari, 5 ta o'rta maxsus musiqa maktab-internatlari, 14 ta musiqa (san'at) bilim yurtlari va Toshkent davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

MILLIY KINOMATOGRAFIYA SAN'ATINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI. ISTIQBOLDAGI REJALAR

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda adabiyot, ta'lim, madaniyat, san'at va boshqa ijodiy sohaslar rivojiga alohida g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Xususan, Respublikamizda milliy kinematografiya san'atini rivojlantirishga qaratilgan 2004-yil 16-martdagi "Kinematografiya sohasida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida" gi farmon hamda Respublika vazirlar mahkamasining 2004-yil 17-martdagi "O'zbekkino" Milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarorida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Shunga binoan Agentlik uchun 15 ta badiiy, 10 ta multiplikatsion, 20 qismli hujjatli, ilmiy-ommabop kinofilm, 60 soatlik o'quv-uslubiy videofilmlar hajmlari tasdiqlangan.

Ta'kidlash joizki, 2015-yilning birinchi yarim yilligida respublika bo'yicha kinotarmoq 1 mln. 472 ming kishiga xizmat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 136,7 foizga ko'p.

Joriy yarim yillikda nodavlat studiyalar tomonidan suratga olingan 28 ta filmning belgilangan litsenzyasi talablari va shartlari mosligi o'rganib chiqildi hamda 3 ta film mazkur talablarga to'g'ri kelmaganligi sababli ularning namoyishiga ruxsat berilmadi.

Hozirgi kunda "PROlogue" – yosh kinoijodkorlar tomonidan suratga olingan qisqa metrajli filmlar Respublika festivalini o'tkazish bo'yicha tashkiliy ishlar amalga

oshirilmogda. Festivalni joriy yilning 16-21-noyabr kunlari “Yoshlar haftaligi” doirasida o‘tkazish rejalashtirilmogda.

Rejaga ko‘ra “kinematografiya to‘g‘risida”gi qonun va 2016-2020-yillarda tizimni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha Davlat dasturi loyihalari, kino-video xizmati ko‘rsatish korxonalari uchun yagona chipta ho‘jaligi tizimini yaratish va “O‘zbekfilm” AJni zamonaviy kino ishlab chiqarish kompleksi – kinokonsernga aylantirishga doir bir qator me‘yoriy hujjatlar loyihalarini tayyorlash belgilangan.

334-topshiriq. Matnni o‘qing, rus tiliga tarjima qiling. Gaplarning o‘zaro qanday bog‘langanligiga e‘tibor bering.

TAMARAXONIM

Tamaraxonim (Tamara Artyomovna Petrosyan) 1906-yilda tug‘ilgan. U o‘zi arman qizi bo‘lsa ham, O‘zbekistonning mashhur xonandasi, raqqosasi, balet ustasi bo‘lgan. 1919-yilda u endi o‘n uch yoshga kirgandi, ammo shunga qaramay Tamaraxonim sahnaga chiqqan va mashhur bo‘lgan edi. Tamaraxonim juda yoshligidanoq o‘zbek san‘ati shuhratini dunyoga yoydi hamda Parij, Londonda konsert berdi.

Yosh bo‘lsa ham, Tamaraxonim 1926-yilda birinchi o‘zbek raqqosalar studiyasini tashkil etdi.

Qiyinchiliklarga qaramay u mashhur Yusuffjon qiziq Shakarjonov va Usta Olim Komilov bilan birgalikda sahnaga ommaviy raqslarni olib chiqdi. Tamaraxonim garchi o‘zbek bo‘lmasa-da, o‘zbek milliy lapar va yallalarini olamga mashhur qildi.

335-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

MAQOM

Tarixdan ma‘lumki, yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o‘z madaniyati va san‘ati. shuningdek, musiqiy madaniyati mavjud bo‘lib, ularning ma‘naviy boyligi hisoblangan. Ayniqsa, Sharq xalqlarining musiqiy madaniyati har bir xalq milliy musiqasining asosini tashkil etgan, nazariy va Amaliy ijrochilik maktabiga ega bo‘lgan.

“Maqom” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi arabchadan kelib chiqqan bo‘lib, “joy”. “makon” ma‘nosini anglatadi. Musiqiy ma‘noda tovush hosil qiladigan joy yoki aniq parda ma‘nosini tushunish mumkin. Maqom aniq pardadan boshlanadigan va tugallanadigan kuy va ashulalar majmuasini ifodalaydi.

“Maqom” atamasi VIII-X asrlardan Uklidis, Arastu singari Yunon olimlarning musiqa nazariyasiga bag‘ishlangan asarlarining arab tiliga tarjima qilinishi natijasida qo‘llanila boshlangan.

Maqomlarning nazariy va Amaliy tomonlarini IX-XII asrlarda yashab ijod etgan Al-Forobiy, Al-Xorazmiy, Al-Sheroziy, Ibn Sino, Al-Husayniy singari ulug‘ olimlarning ko‘plab asarlarida chuqur ilmiy sharhlar bilan usoslab berilgan.

MUXTOR ASHRAFIY

O'zbek musiqa san'atining atoqli namoyandalaridan biri mashhur kompozitor va dirijor, murabbiy va jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy o'zbek musiqa madaniyatining rivoj topishiga katta hissa qo'shgan san'atkordir.

Muxtor Ashrafiy 1912-yili 11-iyunda Buxoro shahrida sozanda oilasida tug'ildi. Dastlab Sharq musiqa maktabida, keyinchalik musiqa texnikumida o'qib, yetuk sozanda va maqom ustalaridan dutor chalish va maqom ijrochiligi yo'llaridan ta'lim oladi. 1928- yilda esa Samarqand musiqa va xoreografiya insituti talabasi bo'ldi va bu dargohda etnograf va kompozitor N.N.Mironovdan kompozitorlik va dirijorlik ilmini, nazariy va notalashtirish ushblarini o'rganadi. Shu yillari Samarqand radiosida ham ishlaydi, qo'shiqlar hamda ko'p ovoqli asarlar yaratadi. Institutni bitirgach, 1931- yilda Toshkentdagi o'zbek davlat musiqiy teatriga dirijor va musiqa rahbari qilib tayinlandi. 1943-1947-yillari Muxtor Ashrafiy o'zbek opera teatri dirijori, musiqa rahbari va direktori, 1947-1962-yillari Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari, bosh direjori, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri musiqa rahbari va bosh dirijori lavozimlarida ishladi. Muxtor Ashrafiy 1926-yildan boshlangan dirijorlik faoliyatida "Farhod va Shirin", "Gulsara", "Arshin mololon" musiqali drama komediyalaridan boshlab, "Zaynab va Omon", "Maysaraning ishi", "Uluqbek", "Layli va Majnun", "Zulmadan ziy", "Karmen", "Aida", "Traviata" operalari, "Jizel", "Shopeniana", "Shelkunchik", "Spartak", "Paxta" baletlari singari o'zbek kompozitorlari va jahon klassik kompozitorlarining yuzdan ortiq asarlariga dirijorlik qildi.

Muxtor Ashrafiy jahonning ko'p sahnalarida o'z dirijorlik mahoratini namoyish etgan bo'lib, uning asarlari ham turli davlatlarda musiqa jamoalarida ijro etilgan.

Ustozning san'atimiz rivojiga tushgan buyuk ishlari munosib taqdirlangan bo'lib. 1939-yili O'zbekiston va 1951 yili sobiq Ittifoq xalq artisti faxriy unvonlariga, uch marta davlat mukofotlari, Javoharlal Neru (1972) va Jamol Abdul Nosir (1973) nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan. Muxtor Ashrafiy 1975 -yili Toshkentda vafot etdi.

BOTIR ZOKIROV (1936-1985)

O'zbek professional estrada san'ati asoschilaridan biri, dunyo tan olgan estrada yulduzi Botir Zokirov Toshkent shahrida san'atkorlar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Karim Zokirov o'zbek opera san'atining sarbonlaridan biri, onasi Shohista Saidova o'zbek xalq qo'shiqlari, laparlari va yallalarining ajoyib ijrochisi edi. Umuman, Zokirovlar oilasi o'zbek xalqining musiqa madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan sulola sanaladi.

Botir Zokirovning bolaligi, yoshligi, san'at muhitida o'tadi. Uning xotirasi va eshitish qobiliyati juda kuchli edi. Rasm chizishga, she'r yozishga ishqiboz edi. San'atda birinchi ustozlari – otasi Karimjon aka, onasi Shohista opa bo'ldilar. U yoshlikdan qo'shiqni dildan sevib kuylashni odat qildi. Uning birinchi qo'shig'i

"Qaydasan, seni kutaman" deb atalgan. O'n to'rt yoshida u "Majnun" deb nomlangan suratni chizdi.

1952-yili Toshkent davlat konservatoriyasining vokal fakultetiga o'qishga kirdi. O'sha davrda estrada san'atida qaldirg'och sanalga "Yoshlik" estrada ansambliga qatnay boshladi. 1958-yilda shu ansambl bazasida O'zbekiston Davlat estrada orkestri tuzildi. Orkestrni tuzishda Botir Zokirov jonbozlik ko'rsatdi. 1957-yilda Moskvada o'tkazilgan o'zbek dekadasida mashhur arab kompozitori Dorish Al-Attoshning "Arab tangosi" qo'shig'i birinchi marta yangradi va chaqmoq kabi Botir Zokirov nomini qo'shiqsevarlar qalbiga olib kirdi.

Botir Zokirov O'zbek milliy estrada san'atining rivojlanishini jon dilidan istar edi. U faqat xalqona milliy estrada san'atining tarafdori edi va bu haqda kuyinib matbuotda fikrlarini bildirar edi. Shu yo'lda tinimsiz izlanar edi.

Umrining oxirgi yillarida ukasi Farrux Zokirov rahbar bo'lgan mashhur "Yalla" ansambl bilan birgalikda ijod qildi. U sahnaga qanday yonib chiqqan bo'lsa, umrining oxirigacha shunday yonib kuyladi. Hamisha har qanday vaziyatda iymoni, e'tiqodi va o'ziga sodiq qoldi. Bu buyuk san'atkor o'zbek estradasiga asos soldi. Yoshlikdan chirmab olgan surunkali kasallik natijasida 49 yoshida olamdan o'tdi. "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoni bilan, vafotidan so'ng Prezidentimiz farmoni bilan "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

337-topshiriq. Teatrdaqi diologni davom ettiring.

- *Iltilmos, xonim, shlapangizni yechib qo'ysangiz. Men spektakl ko'rish uchun 2 marka to'ladim. Shuning uchun hamma narsani ko'rishni xohlayman.*

- *Janob, men esa shlapamni 20 markaga sotib olganman. Shuning uchun uni hamma ko'rishni xohlayman.*

Savol: Aytinch-i, sizningcha, bu tomoshabinlarning bahsi nima bilan tamom bo'ladi?

338-topshiriq Matnni o'qing va savollar tuzing.



MADANIYAT MASKANLARIDAGI ETIKET

1. Teatrda, kinoda, muzeyda, qiroatxonada, kutubxonada, auditoriyada, ko'rgazmada bo'lganingda, bu yerda sen o'zing yolg'iz emasligingni hech vaqt unutma. Sen bilan yonma-yon o'tirganlar sening do'stlaring. O'zingni shunday tutki, sening harakatlaring ularga xalal bermasin.

2. Teatrga vaqtida yetib kel.

3. O'z o'rningga borayotganingda, qator oralah o'tirganlarga yuzlanib o't. Agar qiz bola bilan kelgan bo'lsang, o'zingdan oldin uni o'tkaz va birinchi bo'lib joyiga o'tqiz.

4. Agar sen o'tirib olgan bo'lsang, yoningdan birov o'tayotganida o'rningdan tur va unga yo'l ber.

5. Albatta, chiptangda ko'rsatilgan joyga o'tir. Agar sening joyingda birov o'tirgan bo'lsa va u bo'shatishni istamasa, u bilan aytishib o'tirma. Bunday anglashilmovchilikni aniqlash uchun chipta tekshiruvchini chaqirib kel.

6. Musiqa ohangiga moslab tiqillatib o'tirma – yoningda o'tirganlarga xalaqit berasan.

7. Ko'rinish tugamay qarsak chalma. Ko'rinish tugashini kutib tur.

8. Sahna ko'rinishi tugagandan keyin “bis” deb baqirma. Bu italyanча so'z “ikkinchi” degan ma'noni anglatadi. Shunday qilib, bu bilan sen hozirgina artistlar ijro etgan voqeani ikkinchi marta takrorlashini so'rgan bo'lasan. Tomoshabinlarga juda yoqib qolgan ariya yoki raqsni takrorlash mumkin bo'lgan konsertda “bis” deb qichqiriladi, ammo spektaklda bunday talab qilib bo'lmaydi.

9. Spektakl vaqtida taom yema. Tanaffusgacha sabr qil. Sahna pardasi yopilmaguncha o'rningdan qo'zg'alma. Yoningda o'tirganlarga pyesani oxirigacha ko'rishlariga xalaqit berma.

339-topshiriq. “Toshkent oqshomi”, “Iqtisodchi” gazetalarining biror sonidagi maqolalardan o'zbek sa'nati haqidagi matndan parcha yozing.

340-topshiriq. Quyida berilgan matnni o'qing va o'zbek tilida so'zlab bering.

МИР МУЗЫКИ

Музыка сопровождает человека всю его жизнь, в ней он находит выражение самых высоких чувств и самых тонких душевных переживаний.

В горе и в радости, в труде и на отдыхе – музыка всегда с человеком. Она настолько полно вошла в нашу жизнь, что её принимают как должное. Как воздух, которым дышат не задумываясь, не замечая. А между тем попробуем-ка на минуту представить, что из жизни человека ушла музыка. Насколько беднее стал бы мир, лишившись прекрасного своеобразного языка, помогающего людям лучше понимать друг друга.

Музыка не сразу стала такой, какой мы слышим её сейчас. Многие тысячи лет прошли, прежде чем появились оратории и симфонии, кантаты и сонаты, балет и опера, современные песни и рок музыка. Мир, в котором мы живем, полон всевозможных звуков. Пение птиц, свист ветра, раскаты грома, шум морского прибоя. Но эти звуки – ещё не музыка. Не бывает музыки без музыкантов. Не существует её и без музыкальных инструментов. Первые музыкальные инструменты появились ещё за 13 тысяч лет до нашей эры. Раньше всех возникли ударные инструменты, затем духовые. И позже всех струнные инструменты.

Наверное, нет человека, который не любил бы музыку – классическую или современную, народную или эстрадную, инструментальную или симфоническую.

341-topshiriq. Matnни o‘zbek tiliga tarjima qiling.

ДУТАР

Дутар..... Во многих узбекских семьях на почётном месте хранится этот инструмент. Он оживает под рукой и молодых, и старых, и мужчин, и женщин. Во многих семьях звучат песни, сопровождаемые его глуховатым рокотом. Народы Востока любят музыкальные досуги в кругу родных друзей. Звучат долгие песни, а в них – рассказы о трудностях жизни и её радостях, о волшебных приключениях, о сказочных красотах природы. Жизнь на Востоке не проста, она течёт под жарким солнцем, в постоянной заботе о глотке воды, в постоянной борьбе с суровостью гор или в кочевых странствиях по пустыням. Слышая дутар, люди на какое-то время забывали о трудностях и бедах, становились добрее, вспоминали о том, что человек создан не для вечного горя и нужды, а для счастья.

342-topshiriq. Estrada yulduzlaridan qaysi birini yoqtirasiz? Yoqtirgan xonandangizni ijodi haqida gapirib bering.

343-topshiriq. Matnни ko‘chirib yozing. Bugungi kun musiqa dunyosi haqida gapirib bering.

MUSIQANING QUDRATI

Rivoyat qilishlaricha, Olloh yaratgan o‘n sakkiz ming olam ichida eng g‘aroyibi bo‘lgan inson dunyoga kelar ekan, unga jon musiqa orqali singdirilibdi. Shundan buyon inson o‘z hayotini musiqasiz tasavvur eta olmaydi. Zero, kuy-qi‘shiq kishiga cheksiz estetik zavq berishi barobarida uning qalbida ajib his-tuyg‘u uyg‘otadiki, u insonni doimo ezgulikka chorlaydi. Shu bois bo‘lsa kerak, asrlar mobaynida ota-bobolarimiz farzand tarbiyasida musiqa ilmiga alohida e‘tibor bilan yondashganlar. Zotan, musiqaga, kuy-qi‘shiqqa yoshligidanoq oshno bo‘lgan insonning hech qachon ko‘ngliga adovat, qo‘lidan yovuzlik kelmaydi.

Bugun bobolar tomonidan aytilgan ushbu fikrlarning naqadar haqiqat ekanligini respublikamizning turli musiqa dargohlarida tahsil olayotgan talabalarning fikr-o‘ylari misolida ham bilib olishimiz mumkin.

(Gazetadan)

Mustahkamlash uchun savollar

1. San‘atning qanday turlarini bilasiz?
2. Musiqa san‘ati tarixi haqida qanday ma‘lumotga egasiz?
3. Hunarmandchilikning qanday turlarini sanay olasiz?
4. O‘zbekistonda naqqoshlik san‘ati qaysi hududlarda, ayniqsa rivojlangan?
5. Milliy zargarlik buyumlariga bugungi kunda talab qay darajada?
6. Bizga zamondosh rassomlardan kimlarni bilasiz?
7. Kamoliddin Behzodning nomi nima uchun asrlar osha yashab kelyapti?
8. O‘zbek xalqi dunyo sivilizatsiyasiga qanday hissa qo‘shgan?

9. Madaniy yodgorliklar rivojlanishga qanday yordam bermoqda?
10. Yunus Rajabiy kim edi?
11. Yunus Rajabiyning qanday kitobi nashr etildi?
12. Nima uchun Yunus Rajabiyning haqiqiy olim deymiz?

Grammatik mavzu: UMUMXALQ LEKSIKASIGA KIRGAN SAN'ATSHUNOSLIK TERMINLARI

Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosi maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalari **atama (termin)** hisoblanadi.

Har qanday fan sohalarining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega.

Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalar o'rniga o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobil bo'lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o'zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo'llash. Shuningdek, san'atshunoslikning hayotimizda mustaqillik sharoitida buyuk burilishlari bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tillaridan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi. Masalan:

Tarmoq – asosiy yo'l, oqimdan bo'linib, ajralib chiqqan qism. Asosiy tashkilot yoki birlashma shaxobchasi. Fanning yirik tarmog'i.

Kuy – ma'lum musiqa asari. Ashula, qo'shiq hosil qiluvchi musiqiy tovushlar birligi, ohang. Quvnoq kuy.

Bastakor [ish, mashg'ulot] – an'anaviy mumtoz musiqa asarlari ijodchisi: kompozitor. O'zbek bastakorlari.

Dunyo [jahon, olam] – butun borliq, koinot. Dunyoga mashhur.

Jahon – yer yuzi va undagi butun borliq, dunyo, olam.

Yodgorlik – esdalik, eslab yuriladigan narsa; sovg'a. Yodgor bo'ladigan, esdalik sifatida saqlanadigan narsa. Ulkan yodgorlik.

Qo'shiq – keng ma'noda she'riy-musiqiy janr, ashula. Xalq qo'shiqlari.

Iste'dod [moyillik] – nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat, layoqat. Iste'dodli rassom.

Miniatura [umal. miniature - nafis, nozik qilib ishlangan rasm <lot. minium - qizil yoki qizg'ish-jigarrang bo'yoq] – O'rta asr qo'lyozma asarlari va kitoblarda bo'yoqlar bilan chizilgan nafis rasm, surat. Behzod ishlagan miniaturlar o'rta asr tasviriy san'atining qimmatbaho durdonalaridandir.

Musavvir [rassom] – turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor. Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri.

Mohir [mahoratli, malakali, usta] – yuksak mahoratga ega bo'lgan, mahorat qozongan, usta. Mohir rassom.

Kambag'al [qashshoq, yo'qsil] – muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bo'lmagan; qashshoq, faqir, bechora. Kambag'al hunarmand oilasida tug'ilgan.

San'atkor [san'at bilan shug'ullanuvchi] – san'at sohibi, san'atning biror sohasini egallagan ijodkor. Yuksak mahoratga ega bo'lgan yaratuvchi. Mashhur san'atkor.

Bahramand bo'lmoq – bahra olmoq; biror foyda, naf ko'rmoq. K. Behzod Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan.

Ijod [yaratish, kashf etish; vujudga keltirish] – badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. Kamoliddin Behzod ijodi.

Qadrlamoq – obro'-e'tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat ko'rsatmoq. Ustozlarini qadrlamoq.

Yetim [ota-onasiz, yakkayu yagona] – otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan. Ota-onasidan juda erta yetim qoldi.

Hunarmand – uyida yoki o'z do'konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar egasi, kosib. Hunarmand oilasi.

35. Nutqiy mavzu: Men sevgan asar **Grammatik mavzu: Badiiy tasvir vositalari**

KITOB TARIXI HAQIDA

Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan, bu davrda u turli xil ko'rishishlarni olgan.

Bobilliklar, osuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. Buning uchun ular yumshoq loydan tayyorlangan plitalarga uchli yog'och bilan maxsus belgilar tushirishgan. So'ngra uni oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan. Kitoblar, hatto, kutubxonalar mana shunday maxsus loy plitalardan tashkil topgan.

Shoh Anshurbannipal (miloddan avvalgi VII asr) ga qarashli shunday kutubxonani yuz yil muqaddam qadimgi Osuriya davlatining poytaxti bo'lgan joydan qazib topilgan.

Xitoyda esa dastlab kitobni yupqa bambuk plastinkalarga yozishgan va plastinkalardan pishiq tizimga o'tkazib qo'yishgan. Keyinchalik xitoyliklar o'z kitoblarini mo'yqalam (cho'tkacha) va tush bilan ipakka, milodiy II asrdan boshlab qog'ozga yozishgan.

Qadimgi Misrda kitob matnlarini tosh plitalarga o'yib yozishgan. Keyin papirusni ixtiro qilishgan. Jips qilib bostirilgan qamish plastinkalarni bir necha o'n metrgacha uzunlikdagi lenta shaklida yelimganlar. Ularni o'rog'liq holda saqlaganlar. Misr papiruslaridan deyarli ikki ming yil davomida Yunoniston va qadimgi Rimda yozish uchun yaxshi material sifatida foydalanishgan.

Miloddan avvalgi II asrda Pergan podshohligidagi ustalar yozuv uchun hayvon terisidan yangi material – pergament tayyorladilar. Yunoniston va qadimgi Rimda papirus va pergament juda qimmatbaho material bo'lganligi uchun xomaki matn va xatlarni uchi o'tkir tayyoqcha bilan ustiga mum surtilgan taxtachaga yozganlar.

XIII asrdan boshlab, Evropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qolgan.

MEN SEVGAN ASAR

O'zbek adabiyotida asarlar ko'p, lekin men sevgan va qiziqib o'qiydigan asar bu G'afur G'ulomning "Shum bola" asari.

G'ofur G'ulom asarlarida xalq donoligi, falsafiyliigi, saj, yumor, hayron qoldiradigan darajadagi so'zomonlik tinglovchi va o'quvchini o'ziga rom etib qo'yadi. Shu jihatdan qaraganda, adibning "Shum bola" asari alohida o'rin tutadi. Asarda yozuvchi shaxsi shundaygina aks etib turibti.

"Shum bola" – o'zbek yozuvchisi va shoiri G'afur G'ulom qalamiga mansub qissa. Muallif asarni 1936- yil yozgan. Qissa bir necha marta nashr qilingan. Qissada ijodkorning bolaligi, XX asr boshidagi Toshkent hayoti tasvirlangan.

Qissa o'tkir hajviy asar bo'lib, haqiqiy voqealar va shaxslar taqdiriga asoslangan. Asar markazida yozuvchining hayotidan olingan ko'p faktlar turgan bo'lsa-da, u avtobiografik emas. Unda haqiqiy tarixiy faktlarga nisbatan badiiy to'qima, fantaziya kuchli. Qissani F.Shayhutdinova (1968) hamda A.Naumov (1970)

rus tiliga, tarjima qilganlar. 1977-yil asar asosida “Shum bola” filmi suratga olingan. Film o‘zbek ham horijiy film tanqidchilari tahsiniga sazovor bo‘lgan.

Adibning tarjimai holiga e’tibor bersak, “Shum bola”dagi sarguzashtlar adibning hayot yo‘liga aloqadorligiga ishonch hosil qilishim mumkin. Shoir o‘zining tarjimai holida shunday yozadi: “Kirmagan eshigim, qilmagan xizmatim, tutinmagan ishim qolmadi. Etikdo‘z kosibga shogird tushdim, bo‘lmadi. Sariboy deganning olma bog‘ida qo‘riqchilik qildim, bo‘lmadi. Keyin tunuka qirqib, maydatchuyda mixlar yasay boshladim, tuzuk edi, keyin mazasi qochdi, tirikchilik o‘tmaydigan bo‘ldi...”

Asarning yosh qahramoni o‘z sarguzashtlarini o‘zi bayon qiladi. Muallif hikoya qilishda o‘smirning – “Shum bola” ning orqasiga yashirinadi, natijada yosh qahramonning, hatto ismi ham kitobxonga noma’lum bo‘lib qoladi. Uning sarguzashtlarining bir qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalq og‘zaki ijodidan olingan. Yozuvchi fantaziyasi bilan bir-biridan qiziq voqealar birining orqasidan ikkinchisi hosil qilinaveradi.

“Shum bola” yumaristik xarakterdagi asardir. Muallif asar boshidayoq yumoristik ruh yaratadi. Tuyg‘ular talqiniga berilmaydi. Butun e’tiborni xarakterlar mantiqi bilan tug‘ilgan komil vaziyat va detallarni tasvirlashga qaratadi. Buning natijasida o‘quvchini butunlay o‘ziga jalb eta olgan turli voqea va sarguzashtlar, voqea va voqea ishtirokchilariga berilgan, “Tagdor” ta’riflar, sifatlashlar va bularning natijasi olaroq rang-barang kulgu yuzaga keladi.

“Shum bola” qalbidagi asarlar, oddiy kulguli qissalar emas, bu tarix, falsafa, ma’naviyatdir. Bu kabi asarlar o‘quvchini o‘ziga maftun etish barobarida hushyorlikka chaqirib, loqaydlikdan uzoq tutadi. Qiyinchilik va mashaqqatdan najot toppish, kelajak, porloq istiqbol sari komil ishonch bilan intilishga yetaklaydi, optimistik ruh baxshida etadi. O‘smirlar hayoti, voqealar yengil kulgu asosida tasvirlangan bu qissa barkamol avlodni teran tafakkurli qilib tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

344-topshiriq. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzing.

MEN O‘QIGAN ASAR

Kitob – eng sodiq do‘st va eng yaxshi suhbatdosh. Bugungi kunda talabalarning kitobga bo‘lgan munosabati, ehtiyojini qondirish esa biz “Kitobxon” klubi xodimlarining oldiga qo‘ygan asosiy vazifalarimizdan biri deb bilamiz. Talabalarni milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalash, turli ma’naviy tahdidlardan himoyalashda kitobning o‘rni beqiyosdir. Ularning aqliy salohiyati va muomala madaniyatining yuksalishida, umr yo‘llarining charog‘on bo‘lishida, kelgusida Vatanimiz ravnaqi uchun o‘z hissalarini qo‘shishida va buyuk inson bo‘lib yetishishida kitobning o‘rni juda katta.

Mana shu o‘ylarni ilgari surgan holda biz klub xodimlari va a‘zolari bilan birgalikda “Men o‘qigan asar” nomli adabiy kecha o‘tkazdik. Kechada klub xodimlari va a‘zolari o‘zlari o‘qigan asarlar haqida bir-birlariga so‘zlab berishdi. Klubimiz xodimi Y.Saburova o‘qigan Rustam Jabborovning “Jaholat asirasi”

qissasini hikoya qilib berdi. Qissada begona yurtga baxt izlab ketgan Mahzuna ismli qizning ayanchli qismati haqida yozilgan. Qissa qahramoni Mahzuna qalbi mehrga to'la, orzulari bir jahon, pokiza, g'o'r, baxtga tashna qiz edi. Qiz boshidan kechirgan azob va ko'rgiliklar, ona Vatan sog'inchi, bir ayol baxtini begona yurtlarda baxt izlab, oqibatda baxtsizlikka uchragan, orzularini chilparchin bo'lgan qiz haqida.

Hikoyani tinglar ekanmiz, qissa ayni paytda yozilgan bo'lib, hozirgi yoshgina qizlarimiz bilib-bilmay telefon, Internet orqali tanishgan notanish kishilar tuzog'iga tushib qolishi mumkinligi, o'ylamay qadam bosishlarining oldini oladi deb o'ylaymiz. Chunki qahramon o'zi ko'rmagan, tanimagan odamning sevgisi, boyligiga uchib, o'z Vatanini tashlab ketadi. Qissani tinglab, yurtimizda Mahzuna kabi qanchadan-qancha qizlar aldanib qolganliklarini eshitganimiz rostligini esladik. Ularning ko'pchiligi o'zga yurtlarda xoru-zor bo'lib, Vataniga qayta olmayotgani, yo'qolgani ham haqiqatdir. Biz bu qissa orqali talaba-yoshlarimizni ogoh bo'lishga, o'tkinchi hoyu-havasga berilmaslikka, shu kabi asarlarni ko'proq o'qib, o'zlariga kerakli xulosa chiqaradilar degan umiddamiz.

345-topshiriq. “Adabiyotning kishi dunyosiga ta'siri” haqida esse yozing.

BADIIY ADABIYOT MODADAN QOLDIMI?

Mutolaaga berilish — turmushda sodir bo'lib turadigan zerikish soatlarini cheksiz huzur-halovat soatlariga aylantirishdir.

Sh.Montesk'ye

Inson uchun moddiy ne'matlar kundalik ehtiyojlarga aylangan bo'lsa, kitob o'qish, undan bahra olish, zavqlanish, ma'no-mazmunini anglash, bir so'z bilan aytganda, qalbni har kuni ma'naviy-ruhiy jihatdan to'yintirib borish shu darajada hayotiy zarurat bo'lmog'i zarur. Kitob bu insondagi insoniylikka nozik bir tarzda hamohang bo'lgan bizdagi ko'z ilg'zamas siljishlarga hamisha javob beruvchi allanechuk bir tilsim.

Endi, asosiy fikr kitob haqida yurtilar ekan, uni eng aziz, eng yaqin do'st desak xato bo'lmaydi. Unga qanchalik ko'p murojaat qilsak, shunchalik mustahkam bog'lanib, suyanib undan ma'naviy ozuqa olib, u bizning eng yaqin sirdoshimizga aylanib boradi.

Kitobga o'zing sezmagani holda bog'lanib qolasan, butun g'amu tashvishlaringni bir zumda unitasan va o'sha kitob qahramoniga aylanib, u bilan yashay boshlaysan. O'sha olamga kirib, hayot kechira boshlaysan. Ammo bugungi kundalik ishlarimizda kitobxonlik, badiiy adabiyot to'g'risida so'z borganda “Yoshlar kitob o'qimaydi”, “Yoshlarning kitobga munosabati sust”, degan gaplar quloqqa chalinadi. To'g'ri, inson kitobni o'zi uchun o'qiydi. Lekin “kitobning davri o'tdi, Internet zamonida yashayapmiz”, — degan gaplar o'rinsiz.

Bugungi kunda olimlarning ta'kidlashicha, kamyuter o'yinlari ko'pchilik yoshlar ruhiyatiga kuchli ta'sir etishi oqibatida, ularning xarakterida salbiy psixik holatlar yuzaga kelib, hattoki bu o'yinlar kechasi tushida ham davom etadi.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga bir kunda keladigan 200-250 nafar kitobxonlardan 80-85 nafari yoshlar bo'lib, shundan 50 % o'quvchi dramatik asarlarni, 40 % detektiv janrdagi adabiyotlarni, 10 % esa turli janrdagi adabiyotlarni so'rab murojaat qilishganligi aniq bo'ldi. Bugungi kun yoshlari badiiy adabiyotni o'qishmoqda, kimdir bir asarni qayta-qayta o'qib ham har gal o'zgacha taassurot olsa, kimdir yangi asarlarni qidirib topib o'qiyapti, kimdir esa kitoblarni elektron variantini topib mutolaa qilyapti. Ammo, kitobni qo'lda tutib, varaqlab o'qishdagi hayajon, hissiyot o'zgacha.

Yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini orttirish maqsadida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ijobiy natijalar beradi deb o'ylaymiz:

- yoshlarni bolalikdan kitob do'konlariga sayohatga olib borish;
- oilada farzandlarning tug'ilgan kunlariga kitoblar sovg'a qilish;
- kitobxonlik kechalarini o'tkazish;
- ta'lim muassasalarida badiiy adabiyotlar ko'rgazmalarini tashkil etish;
- “Men sevgan badiiy qahramon” mavzusida insholar ko'rik tanlovini o'tkazish;
- o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni rag'batlantirib borish.

Bugungi kunda ilmiy-texnika taraqqiy etib, turli texnik vositalar, jumladan, radio, televizor, kompyuter, internet, uyali telefonlar va boshqalar kitobning o'rning bosib ketdi, degan fikrlar o'rinsiz. Hech narsa, hech qachon kitobning beqiyos o'rnini egallay olmaydi. Chunki u beqiyos va cheksiz ummon, undan ko'p sipqorsak, yana shunchalik tez chanqaveramiz. Uni hech narsa bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

346-topshiriq. Matnni diqqat bilan o'qing va asarning badiiyligini ta'minlagan vositalar haqida fikringizni bayon qiling.

QUDUQ

(qissadan parcha)

Ko'klam qurg'oq kelgan. Savr chiqib ulgurmagan bo'lsa-da, atrofda yastanib yotgan qir-adirlarning maysasi qovjirab, borliq sarg'ish tusga kirib ulgurgan. Tikkaga kelgan oqtoq qovjiroq xas-xashakni yondirishga qasd qilgandek, dala-dashiga tinimsiz olov purkaydi. Adoq tarafdagi tepalikda ko'zga tashlanib turgan cho'pon kulbasi va kattagina qo'tonni hisobga olmaganida, ko'z ilg'amas kengliklarda tirik jon asari sezilmaydi.

Yangi qazilgan quduqning tevaragida quruq tuproq tog'day uyulib ketgan. Bir maromda g'uvillab esayotgan qaynoq garmisel uning changini uchirib o'ynaydi. Quduqning yonida Qobil cho'pon bilan ikki o'g'li horg'in qiyofada cho'nqayib o'tirishibdi.

Katta sopli ketmonni belbog'iga qistirib olgan Lallay quduqdan chiqib keldi. Uning jomakor kiyimlari tuproqqa belanib, yuz - ko'zi chang va ter qorishmasidan qo'ng'ir tusga kirgan edi.

Qobil cho'pon Lallayga savol nazari bilan qaradi.

- Suv yo'q amaki - dedi, Lallay go'yo bunga aybdordek o'ng'aysizlanib. Bo'z yigitlar xomush tortib qolishdi.

- *Shuncha mehnatimiz bekor ketadimi?* – dedi Qobil cho'pon atrofda tuproq uyumiga alam bilan tikilib. Lallay uning savoliga javob bermay, atrofga sinchiklab razm soldi. Bir qarorga kelib, quduqning tarafiga endi. Lallay ko'klam omg'urlari, hosil qilgan torgina o'zan bo'ylab yo'qotgan narsasini izlagandek yer singilab o'ngi so'lga yurdi. Nihoyat yakka o'sgan yanqoqning yonida to'xtab, metindek qotib ketgan yerga ketmon urdi.

- *Chig'irigini buzinglar!* – dedi Qobil cho'pon o'g'illariga. Bo'z yigitlar suvsiz quduqning chig'irig'ini buzishga tushdi. Qobil cho'pon arqon bog'lagan chelakni olib Lallay tomon yurdi.

Tepadan tushayotgan zaifgina nur quduqning tubini g'ira-shira yoritgan Lallay ketmon bilan quduq kovlayapti. Egnidagi jomakor kiyimi tuproq va terga qorishgan. Peshonasidan quyilayotgan terni yengi bilan artib qo'ydi.

347-topshiriq. Badiiy asardan olingan quyidagi parchalarga e'tibor bering.

O'TKAN KUNLAR

“Otabek Marg'ilon kelganning ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo'lgan edi. Asr namozning vaqti o'tib borganlikdan u shundagi do'kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so'radi. Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar. shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do'kondor unga suvning qulay o'rnini ko'rsatdi: “ Mana, shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz!”–dedi. Otabek do'kondorning ko'rsatishicha qutidorning tashqarisiga kirdi.

Shu vaqt tasodifan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib keluvchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasiga kelib to'xtagan chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy, ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chigandek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomonga burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotgan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq bo'yida qotib turgan yigitga yana bir qarab qo'ydi va qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko'zini katta ochib o'igan daqiqada uchrashgani xayoliy go'zalni istab xayollandi. Biroq, haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yiga o'tirdi. ammo ko'zi xayol yashiringan yo'lakda edi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdan uzolmadi. Artinib olgandan keyin yana oyoq ustida to'xtab qoldi. Yashiringan go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tomosha qilar edi.

Ko'p kulti, asr nomozini qazo qilib, kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug'ilgan edikim, bu yog'i o'quvchimizga ma'lumdur. Kumushbining yuqorida “Siz o'shamu?” deb so'rashi shunga binoan bo'lib, ammo unga masalaning anglashilmay qolishi va chin baxtini bil'aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib, ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari boshlandi”.

A. Qodiriy

Grammatik mavzu: BADIY TASVIR VOSITALARI.
BADIY TASVIR VOSITALARI VA ULARNI
ADABIYOT DARSLARIDA QO‘LLASH

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni hishayajonlarga yo‘g‘irish uchun so‘z salohiyatiga tayanadi. Har bir ijodkor oddiy so‘zlovchidan shakl-shamoyili, rang-bo‘yog‘i, o‘z salmog‘i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so‘zlovchidan so‘z sohibiga, undan esa so‘z san‘atkoriga ko‘tarilishi uchun “so‘z sezgisi”, “so‘z jozibasini”, so‘z sehri kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan, uning ixtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she‘riy san‘atdir.

She‘riy san‘at yil mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, “ilmi bade” nomini olgan badiiylik ilmining asosidir. Ular asar jozibasini ko‘rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy vositalar yordamida o‘zlari tasvirlayotgan narsa, hodisalarning ba‘zi bir tomonlarini yoki belgisini aniq va qisqa berishga erishadilar. Yozuvchi har bir hodisani aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini ajratib ko‘rsatadi. Shuning uchun ularni o‘quvchilarga o‘rgatishda yangicha yondashuv, o‘zgacha usul va shakllarga murojaat qilish kerak.

Badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladigan tasviriy-ifodaviy vositalardan biri o‘xshatishdir. Yozuvchilar muayyan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilari haqida kitobxon ongida tasavvur hosil qilish maqsadida uni qandaydir boshqa, tanishroq narsa-hodisaga yohud uning belgilariga o‘xshatadilar. Mumtoz adabiyotda o‘xshatish tashbeh deb ham yuritilgan. O‘xshatish tasvirlanayotgan narsa va hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘xshatishlardan ketma-ket foydalanilsa, tashbehi musalsal deb ataladi. “Zaynab va Omon” da tashbehi musalsal bir necha o‘rinlarda uchraydi:

Daryo tinmay solardi shovqin,

Qiz ko‘ziday qora edi tun.

Qiz qalbiday pok edi havo

Maktab darsligida berilgan badiiy tasvir vositalarini o‘quvchilarga tushuntirish uchun o‘qituvchilar o‘zlari yetarli ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak.

Allegoriya (lotincha allegoria – kinoya, qochiriq, kesatish) – biror mavhum tushunchani konkret narsa, hodisa orqali ifodalagan majoziy, ya‘ni o‘z ma‘nosidan boshqa ma‘noga ko‘chirilgan so‘z iboralarning bir turi.

Masalan: “Tangriqulxo‘ja ilonning yog‘ini yegan odam edi-da” (A.Qahhor). Bu parcha – “ilonning yog‘ini yegan” gapi Tangrixo‘janing hiylalariga kinoyadir.

Masal va ertaklarda tulki aldoqchi, bo‘ri ochko‘z, chayon zararli, ilon makkor kishilarga nisbatan kinoya qilinadi.

348-topshiriq. Berilgan so‘zlarning badiiy uslubga xos shakllarini topib, gaplar tuzing.

Tomchi, ko‘k, bahor, yig‘lamoq, tarix, qorong‘ilik, sezmoq, aytmog, esdan chiqarmoq, qiyin, kelishmoq, yaxshi, cho‘kmoq, xabardor, yolg‘iz, nur.

349-topshiriq. Matnni sinchiklab o'qing. Undagi tasviriy vositalarni aniqlab, izoh bering.

ULUG' AYYOM

Erta tong vaqti alohida bir sezgi berardi. Musaffo havo, mayin va yoqimli shamol kurtakdan endigina chiqib, bahorni salomlagan yosh va tiniq yaproqlarni yelpib turardi. Barakalik yomg'irlardan keyin yashnab ketgan barra maysa o'tlar yerlar betini sekin-sekin o'pib ketgan tong shamolida hilpirab-hilpirab ketib, hazillashganday bir-birlarini quchoqlaydilar. Butun yer yuzi, tom-tosh, yog'ochlar ko'k bilan bezangan...

Tabiatning shunday shirin chog'ida surnay, karnay orqasidan nog'ora chalinib ketadir. Bularga quloq berib yotasan, lekin ko'p yota olmaysan, turging, shularga qo'shilib quvonging kelardir...

Yumshoq avtomobillardan "go'dak kamisarlari" vizillab o'ynashib o'tib turibdir: boshlariga ko'k otdan toj (og'lik) o'rab olgan yosh qiz va bolalar ko'chalarda, tom-toshda qarab turgan onalariga, opalariga avtomobildan ko'kat, gul tashlab o'tib ketadirlar, ularning qiziq-qiziq, shirin-shirin ashulalarni qizil bayroqlar bilan bezalgan ko'chalarimizning nozik nag'masi bo'lib eshildir.

A.Qodiriy "Kichik asurlar"

350-topshiriq. "Kecha va kunduz" romanidan badiiy tasvir vositalari qo'llangan gaplardan 10 tasini ko'chiring. Romandan peyzaj yoki portret tasviri keltirilgan parchani o'qib bering.

351-topshiriq. Berilgan matnni o'qing. Peyzaj tasvirida qanday badiiy vositalardan foydalanilganini aniqlang. Siz o'zingiz bahorni qanday tasvirlagan bo'lardingiz. Kichik matn yozing.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shagan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gulli do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda ?

("Kecha va kunduz" dan)

352-topshiriq. Kuz tasvirlarini o'qing. Ularda kuz nima timsolida gavalangan? Sizing tasavvuringizda kuzni nima bilan qiyoslash mumkin? "Kuz" mavzusida esse yozing.

- 1. Ketdi qirdan turna ham, bo'shab qoldi tabiat
O'lik mezonlar kezar sovuq dalada faqat*
- 2. Ulug' Alisherning soch oqin ko'rib,
Og'ir xayollarga cho'mgan bu fasl.
Qayrag'och yonida g'amgin o'ltirib,
Chollarga hassalar yo'ngan bu fasl...*
- 3. Butun borliq - chog'lik o'chish oldida,
Sovuq... qora qishga ko'chish oldida...*

36. Nutqiy mavzu: Iqtisod va hayot

Grammatik mavzu: Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar

ZAMONAVIY IQTISODIYOT SARI DADIL QADAM

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohasini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tilyapti. Mazkur jarayonda, asosan, iqtisodiyotning tayanch ustunlaridan biriga aylangan tadbirkorlar kuchiga suyanilmoqda. Binobarin, tadbirkorlar badavlat bolgan yurt boy va obod bo'ladi.

Chindan ham, ishbilarmoning faoliyati rivojlanib, moliyaviy imkoniyati qanchalik kengaysa, uning faolligi shunchalik ortadi. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda o'z hissasini qo'shadi. Quvonarlisi, yurtimizda biznes yuritish tartib-taomillari soddalashtirilib, soha rivojiga to'siq bo'layotgan g'oyalar olib tashlanayotgani ilg'or, tashabbuskor biznes vakillari safi kengayishida rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda.

Innovatsiya – kelajak demakdir!

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajakimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”. Zotan, ilm-fan hamda texnika yutuqlari ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini jadallashtiruvchi lokomotiv vazifasini bajaradi.

Darhaqiqat, raqobat kun sayin kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda ishlab chiqarishga ilmiy, hajmdor, yuqori samarali ishlanmalar, ilg'or innovatsion texnologiyalarni tatbiq etmasdan turib, xaridorgir mahsulotlar tayyorlashning imkoni yo'q. Shuning uchun respublikamizda iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida ilmiy-texnikaviy salohiyatni rivojlantirish, uning yutuqlaridan oqilona foydalanish masalasiga taraqqiyotning hal qiluvchi omili sifatida qaralmoqda.

Innovatsion iqtisodiyot sari dadil qadam tashlayotdan yurtimizda, eng avvalo, emin-erkin biznes yuritish uchun zarur barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Ishbilarmonlar huquqlarining qonuniy kafolati tabora mustahkamlayapti. Bunday sharoitda tadbirkorlikka mehr qo'ygan, o'z ishidan rohatlanib mehnat qiladigan kishi borki, biznes-rejasini to'la-to'kis amalga oshirib, yuksak muvaffaqiyatlarga erishishi muqarrar.

Yurtni obod, elni faravon qiladigan ham davlatimiz, iqtisodiy qudratini yuksaltiradigan ham tadbirkorlar ekan ularning manfaati doimo ustuvor bo'lmog'i kerak.

353-topshiriq. Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlang.

IQTISODIYOT HAQIDA

Iqtisodiyot – kishilar mehnati vositasida inson uchun zaruriy bo'lgan moddiy ne'matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash,

shuningdek, hayotiy ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan vositalar, obyektlar, jarayonlar majmuyi. Iqtisodiyot umumiy tarzda ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot, iste'mol sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi, jumladan:

- muayyan mamlakatning milliy xalq ho'jaligi yoki uning ma'lum tarmog'i;
- xo'jalikning muayyan tarmog'ini, shuningdek mintaqa ho'jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etishning usul va shakllarini, uni boshqarishni o'rganadigan fanlar yo'nalishlari.

Bozor iqtisodiyotining eng muhim umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- mulkchilik shakllarining xilma-xilligi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi, raqobat kurashi va muhitning mavjudligi; yuqori foyda va nafga intilish;
- erkin bozor narxlarining talab va taklif raqobat asosida yuzaga kelishi;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi cheklanganligi.

Bozor iqtisodiyotini shakllangan ikki turga ajratish mumkin: birinchisi, klassik yoki erkin raqobatga asoslangan hamda faqat obyektiv bozor qonunlari va narx raqobati. Ikkinchisi, hozirgi zamon bozor mexanizmi va davlat tomonidan tartibda solinadigan bozor iqtisodiyoti bo'lib, XIX asrning oxiri XX asr o'talarigacha bo'lgan davrlarda shakllangan.

“SHUNDAY O'LKA DOIM BOR BO'LSIN!..”

Odamlar bir-birlari bilan ko'rishishganda nima haqida gaplashishadi? O'zaro hol-ahvol so'rashishadi, hayot tarzi, turish-turmushi haqida suhbat qurishadi, xayrlashayotib, tinchlik-omonlik tilashadi. Oddiy muloqotning o'zida xalqimizning mehr-oqibati, bag'ri keng tabiati shundoqqina ko'rinib turadi.

Ba'zan xorij filmlarida e'tibor qilsangiz, qahramonlar uchrashishganda oddiy salom-alikni ham nasiya qilib, muomalaga kirishib ketaveradi. Bizda-chi? So'z boshi – assalom! Aytaylik, hosil yig'ishtirayotgan yurtdoshimiz huzuriga kelgan mehmon, albatta, “Hormanglar, xirmonga baraka!”deya mehrini namoyon etishi tabiiy. Bu lutfga, albata, “Salomat bo'ling, umringizga baraka!” degan javob olinadi.

“Umringizga baraka!”. Naqadar ezgu, samimiy tilak! Uzoq yillar hayot kechiring, mehnatingiz huzurini ko'ring, niyatingizga yeting, degan katta ma'no bor, shu lo'nda xalqona iborada.

Statistika ilmida aholi turmush tarzini ko'rsatib turuvchi xilma-xil mezon-o'lovlar bor. Mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi, milliy daromadning aholi jon boshiga qanchadan to'g'ri kelganligi, “Ro'zg'or xaltasi”, tashqi savdo aylanmasi, eksport-import salohiyatimiz o'sishi... bularning hammasi aholining turmush farovonligi mutassil yaxshilab borishi uchun hisob-kitob qilinadi. Oxir-oqibatda bu ko'rsatkich nimada o'z ifodasini topadi? Insoning umri uzayishida! Bu jami natijalar ichida eng oliy maqsaddir.

Uzoq umr ko'rish, butun bir xalqning tinch va osuda hayoti barqaror tus olayotgani butun yurtimiz fuqarolarini quvontiradi, albatta. Mazkur ko'rsatkichning yaxshilanib borayotgani sizni bizning ko'z oldimizda ro'y berishi, demakki, bevosita bu yaxshilikka ishtirokchi bo'layotganimiz dilda g'urur uyg'otadi.

O'rtacha umr ko'rish darajasining yuqorilab borishi esa benihoya ko'plab omillarga bo'g'liqdir. Tinch va osoyishta turmush, ertangi kunga ishonch, o'zlikni anglash, atrofda yuqimli ma'naviy muhit, jamiyatda o'zoro hurmat-ehtiromning qadrlanishi, malakali tibbiy xizmat, ijtimoiy adolatning barqarorligi – bularning bari piri badavlat nuroniyalarimiz umriga umr qo'shmoqda. Har yili mustaqillik bayrami arafasida 100 yoshdan oshgan yurtdoshlarimiz taqdirlanib borishi faqat O'zbekistonga xos an'anaga aylandi. Ko'p yillar davomida mamlakatimiz rivoji yo'lida halol mehnat qilgan, hozirgi paytda ham boy tajribasi, ma'naviy fazilatlarini bilan el-yurt, o'git-nasihatlarini tufayli yoshlar tarbiyasiga o'zlarining katta hissasini qo'shib kelayotgan yuz yoshdan oshgan tabarruk otaxon va onaxonlar davlat mukofotlari bilan taqdirlanishyapti. Davlat miqyosidagi bunday ulkan ruhiy-ma'naviy madadkorlik, rag'bat, tabiiyki qariyalarimizga zo'r tetiklik, birdamlik bag'ishlamoqda, umrlariga umr qo'shmoqda.

(Sh. Jabborov "Sharq yulduzi 3/2017")

354-topshiriq. Iqtisodiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug'atini tuzing.

PUL NIMA?

Pul – maxsus tovar ko'lib, boshqa hamma tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste'mol qiymatiga ega. Shu ma'noda u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

Pul shunday kuch kasb etadiki, umumiy ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan hamma tovarlarni xarid qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida iste'molchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifoda etib, ijtimoiy mehnat qaysi sohada sarflanganligi va qiymat qayerda yaratilganligi farqsizdir. Kimning puli bo'lsa u ijtimoiy mehnatning tegishli qismini o'zi istagan natural (tovar) shaklida olish huquqiga ega bo'ladi. Pulning hamma narsadan qudratli ekanligi ham shundan kelib chiqadi.

Umuman pul o'z taraqqiyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:

Tovar shaklida "qo'yima" asrimizdan oldingi VII asrgacha

Tanga pullar – "tanga" asrimizdan oldingi VII-XIX asrlar

Qog'oz pullar – "banknot" XIX-XX asrlar

Elektron pullar – "kartochka" XX asr o'rtalarida.

BANK

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun banklar samarali faoliyat ko'rsatishlari lozim. Chunki ular, davlat korxonalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar, xususiy shaxslarni moliyalashtiradilar va davlatning pul-kredit siyosatini amalga oshirishini ta'minlaydilar.

Bank boshqaruvchilari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak:

✓ professionalism, ishga ijodiy yondashuv, qat'iylik, o'ziga ishonch va fidoyilik;

✓ yangicha fikrlash, topqirlik, tashabbuskorlik va g'oyalarni hayotga tatbiq etish;

- ✓ chiqishimli bo'lish va yutuqni hisob qilish;
- ✓ ochiq ko'ngillik, tadbirkorlik yuz berayotgan o'zgarishlarga oson moslashish;
- ✓ serg'ayrat va bardoshli bo'lish;
- ✓ o'zini muvaffaqiyatli himoya qilishga moyillik va samarali hujumga o'ta olish;

jamoada jamoa bilan ishlashga o'zida ehtiyoj sezish.

Boshqaruvchi keng bilim sohibi bo'lishi, yangicha fikr yurita olishi, uni qo'llab-quvvatlashi va psixologik qobilyatga ega bo'lishi, oqilona ish yuritishi, kerak bo'lganda, tavakkalchlik bilan ish ko'ra olishi lozim.

Biznes-loyihalarini ishlab chiqishi, tuzatishlar kiritish, marketing tadqiqotlarini amalga oshira olish, bozor talab ehtiyojlarini oldindan ko'ra bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi" qonunda bankka quyidagicha ta'rif beriladi:

"Bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish;
- qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish;
- investitsiyalash uchun foydalanish".

Demak, bank – pul mag'lag'larini o'zida mujassamlashtiruvchi va jang'aruvchi, kredit beruvchi, pul hisobini olib boruvchi, pul va qimmatli qog'ozlarni emissiya qiluvchi, oltin va chet el valyutalari bilan operatsiyalarni bajaruvchi yirik muassasadir.

Tovar-pul munosabatlarining vujudga kelishi va ularning rivojlanib borishi banklarning paydo bo'lishiga asos soldi. O'rta asrlarda banklar dastlab puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan.

XX asrning boshlaridan yirik Yevropa mamlakatlarida o'zining ko'p filiallariga ega bo'lgan, yirik sanoat monopoliyalari bilan bog'liq faoliyat ko'rsatayotgan banklar vujudga keldi. Bular jumlasiga xalqaro pul, hisob va kredit munosabatlarini olib boruvchi quyidagi xalqaro banklarni kiritish mumkin:

- Yevropa tiklanish taraqqiyot banki;
- Xalqaro valyuta fondi;
- Xaqaro moliya korporatsiyasi;
- Xalqaro hisob-kitoblar banki;
- Yevropa investitsiya banki va boshqalar.

Shunday qilib, O'zbekistonda bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, birinchi pog'onada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning markaziy apparati va viloyatlari bo'yicha Markaziy bank bosh boshqarmalari tursa, ikkinchi pog'onada tijorat banklari, ularning shu'balari va chet el banklari shu'balari turadi.

Banklarning vazifalari:

Ko'pchilikning tasavvurida bankning iqtisodiyotda tutgan o'rni faqatgina omonatlar mablag'larini jalb qilishi, kreditlar berishdan iborat. Lekin zamonaviy

banklar o'zlarining raqobatdoshligini saqlash va jamiyat talablarini qondirish maqsadida yangi vazifalarni bajarishni ham o'rganishi lozim.

Bank o'z faoliyati jarayonida quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, jumladan vakil banklarning hisob varaqalarini ochish va yuritish hamda hisob varaqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
- omonatlarni jalb qilish;
- o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kredit berish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish, sotish va ayirboshlash;
- davlat faoliyatini qo'llab quvvatlash;
- kichik va o'rta tadbirkorlikni kredit bilan ta'minlash;
- faktoring xizmatlarini amalga oshirish;
- moliyaviy lizingni bajarish;
- iste'mol kreditini berish;
- naqt pul mablag'larini boshqarish;
- sug'urta xizmatlarini sotish;
- investitsiya va boshqa xizmatlarni ado etish.

MENEJMENT

Menejment (fransuzcha "menagement" – xo'jalik ishlari bilan shug'ullanish) – samarali ishlab chiqarish faoliyatini ta'min etish, moliyaviy hamda moddiy zaxiralardan foydalanish shakllari, usullari va vositalarining jami.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda menejment ko'p tarmoqli soha bo'lib, uni o'rganish, uqish va bilish, menejment sohasidagi ilmlarni takomillashtirish juda keng taraqqiy etgan o'qish-o'rgish yo'nalishidir.

Rivojlangan va rivojlanyotgan mamlakatlar, tarixiy tajriba asosida, XX asrning o'rtalarigacha olib borgan siyosatlaridan voz kechishga majbur bo'ldilar, ya'ni, ishchi-dehqonlarning, mehnatkash ommaning talab va ehtiyojlarini qondirish, ularning turmush darajalarini doimiy ravishda ko'tarilishini ta'min etish, mustamlakachilik siyosatidan voz kechish, boshqa davlatlarga nisbatan bosqinchilik va zo'raonlik siyosatini qoralash, bunday choralarini amalga oshirish o'zini saqlab qolishni istagan har bir davlatning zaruriy burchi ekanligi, shunday siyosat amalga oshirilmasa, hukmron sinflar va mavjud siyosiy tuzum o'zining mustahkamligi va barqarorligini ta'min eta olmasligi o'z-o'zidan ayon bo'lib qoldi.

Farovon hayotni ta'min etishning yagona to'g'ri yo'li, o'z mablag'larini saqlab qolish va yanada o'stirishning barcha e'tirozsiz qabul qiladigan imkoniyati – tenglik, demokratiya va insonparvarlik qoidalari asosida jamiyat, davlatni bozor iqtisodiyoti munosabatlarga ko'chirish ekanini ravshanlashdi.

Bozorda hamma teng: kimki tadbirkor, tashabbuskor, bilimli, o'tkir fikrli, g'ayratli bo'lsa, o'sha g'alabaga erishadi va tezroq boyiydi. Demak, hamma narsa har bir insonning o'z mutaxassisligini yaxshi bilishi, aqli, harakati, shijoatiga bog'liq. Bu esa kishilardagi ichki imkoniyatlarni uyg'otadi, harakatga keltiradi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

- a) matnни o'qing, reja tuzing;
- b) reja asosida matn mazmunini so'zlab bering;
- c) matnни rus tiliga tarjima qiling;
- d) menejment fani, usullari, yo'llari va vositalari haqida B\B\B jadvalini tuzing.

SOLIQ DEGANDA NIMANI TUSHUNASIZ?

Amaliyotda soliq deganda, ba'zi budjetga tushadigan pul yoki majburiy to'lov deb ta'rif beriladi. Bu to'liq bo'lmagan, ilmiy asoslanmagan ta'rifdir. Axir budjetga pul soliqsiz ham tushishi va soliqsiz ham majburiy to'lovlar borligi ko'pchilikka ma'lumku! Biz soliq'larga quyidagi ta'rifni beramiz.

Soliqlar -- budjetga tushadigan pul (iqtisodiy) va qonun bilan belgilangan majburiy munosabatlardir. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etadi. Soliq to'g'risidagi qonunlar Oliy Majlis tomonidan tasdiqlangan demokratik munosabatlardir. Soliqlarning majburiyligi Oily Majlis tomonidan tasdiqlangan huquqiy va meyoriy qonunlar bilan ta'minlanadi.

Shunday ekan, soliq'larni to'lamaslikka, soliq obyektini yashirishga, soliq summasini kamaytirib ko'rsatishga na huquqiy va na jismoniy shaxslarning haqqi yo'q.

Soliq to'lash xo'jalik subyekti va faoliyat ko'rsatuvchi fuqaro bilan davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy shakli, daromadlarni xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlanishining asosiy vositasi hisoblanadi.

355-topshiriq. Matnни o'zbek tiliga tarjima qiling.

БАНК

Банк – финансовая структура, которая собирает, хранит, накапливает денежные средства, контролирует денежное обращение, производя взаиморасчеты с клиентами, предоставляя кредиты, выпуская ценные бумаги и деньги. Иначе говоря, это финансовая фирма, где "сырьем" служат депозиты (вклады), а "конечным продуктом" являются выданные ссуды (кредиты). Выручка, полученная от предоставления заемных средств, т.е. банковский процент, идет прежде всего на оплату издержек, связанных с процессом превращения депозитов в кредиты (зарплата работникам, затраты на основные фонды и др). Оставшаяся после этих изъятий сумма является прибылью банка, с нее начисляются дивиденды на акции банка, какая-то часть идет на расширение его деятельности.

В настоящее время во многих странах, в том числе и в Узбекистане, действует двухуровневая система банков.

Первый уровень образует Центральный банк (он может называться государственным, национальным), обладающий монопольным правом эмиссии денег и являющийся главным проводником денежно-кредитной политики

gosudarstva. *Центробанк также контролирует деятельность всех учреждений второго уровня банковской системы страны.*

Коммерческие банки, составляющие второй уровень банковской системы страны, занимаются широким кругом операций.

INVESTITSIYALAR (Sarmoyalar)

Investitsiyalar (nem. Investition, lot. *Investere* – o‘rish) iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritish, kapital sarflash tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Moliyaviy investitsiya – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish; real investitsiya – mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qo‘yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz va subsidiya berish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyani davlat, banklar yoki xususiy sohibkorlar berishi mumkin. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosobotlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi: bunday hamkorlikning real, (ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli pul qo‘yilmalari), moliyaviy, (qimmatbaho qog‘ozlar muomalasini ham qamraydigan xalqaro kredit-moliyaviy faoliyat), intellektual (mutaxassislarni kurslarda tayyorlash, tajribani litsenziyalarni, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va boshqaga sarflash) turlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

356-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

KREDIT

Kredit (lot. *credium-qarz*) – pul mablag‘lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (protsent) to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma‘lum muddatga qarzga berish. Tijorat krediti va bank kreditiga bo‘linadi. Qarzga mablag‘ beruvchi tomon kreditor, ssuda oluvchi tomon esa debitor deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdin foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kreditlar ikki xil: qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘ladi. Qisqa muddatli kredit korxon va tashkilotlarni aylanma fondlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag‘lar ajratish manbayi hisoblanadi.

357-topshiriq. Matnni o‘qing.

AMIR TEMUR O‘G‘ITLARI

Kengash ikki turli bo‘lur: biri – til uchida aytilgani, ikkinchisi – yurakdan chiqqani. Til uchida aytilgani shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog‘iga quyardim va dilimga joylardim.

Do‘st-dushmanligiga qaramay, har joyda **sipohiylarni** hurmat qildim, chunki **boqiy** mato bo‘lgan jonlarini **foniy** dunyo imoli uchun sotadilar. O‘zlarini ma‘rakamaydon, halokatga otib, jonlarini **qurbon qiladilar**. Agar **g‘anim** sipohidan biror

odam o'z **valine'matiga sidqidildan** xizmat qilib urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan **luff-marhamatlar** ko'rsatdim, qoshimga kelganda, uni qadrlab, haqiqat bilan xizmat qilishiga ishonдим.

Hech kimdan **o'ch** olish payida bo'lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Sofdil kishilarga **dargohim** doim ochiq edi. Nafsi yomon **himmatsizlarni**, ko'ngli buzuvchi qo'rqoqlarni majlisimdan **quvib yubordim**.

Asli toza, nasli pok, ulug' **zotlardan** bo'lgan, yaxshi ravishli kishilardan topib, vazirlar qilinglar. Chunki asli toza kishi xatolikka yo'l qo'ymaydi, badasl esa vafu qilmaydi.

358-topshiriq. Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozing.

Grammatik mavzu: UMUMXALQ LEKSIKASIGA KIRGAN IQTISODIY TERMINLAR

Ma'lum fan yoki kasb-hunar sohasidagi muayyan bir tushunchani aniq ifodalash uchun ma'nosi maxsuslashtirilgan so'z yoki so'z birikmalari **atama (termin)** hisoblanadi.

Har qanday fan sohalarining rivojida shu fanga doir atamalarni izga solish katta ahamiyatga ega.

Yevropa tillaridan kirib kelgan atamalar o'rniga o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini qidirib, o'zbekcha muqobillarini topish. Agar muqobilli bo'lmasa, boshqa tillardan olingan atamalarni o'zbek tili fonetik qonuniyatiga moslashtirib qo'llash. Shuningdek, iqtisodiy hayotimizda mustaqillik sharoitida buyuk burilishlar bo'lganligi sababli, ana shu reallikni ifodalovchi qator chet tilidan kirgan atamalar tayyor holda qabul qilindi. Masalan:

бартер - almashtirish – valyutasiz tovarli almashuv (безвалютная товарообменная операция);

иммигрант – doimiy yoki uzoq muddatli yashash uchun mamlakatga joylashtirilgan xorijlik (иностранец, поселившийся в какой-либо стране на постоянное или длительное жительство);

инновации - innovatsiyalar – texnologiya sohasida yangiliklar (новшества в области техники);

эмиссия - emissiya – qog'oz pullar, qimmatli qog'ozlar chiqarish (выпуск в обращение бумажных денег, ценных бумаг);

депозиты - depozit – saqlash, saqlash yoki kreditorga bankda, jamg'arma bankida o'tkazish uchun beriladigan pul yoki qimmatli qog'ozlar (деньги или ценные бумаги, которые вносятся на хранение или для передачи кредитору в банк, сберкассе);

лицензия - litsenziya – har qanday mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga patent berishga ruxsatnoma (разрешение на использование патента на право производства какой-либо продукции);

свободная конкуренция - erkin raqobat – erkin musobaqa (свободное соперничество);

демпинг –eksport uchun mahsulotni “nohaq” past narxda sotish (продажа товаров на экспорт по «несправедливо» низкой цене);

акционер - aksioner – ulush (aksiya) egasi (обладатель акции);

клиринг – taqqoslash taraflar tomonidan talablar va majburiyatlarini o‘zaro hisobga olgan holda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tizimidir (система (безналичных) денежных расчетов, основанная на взаимном зачете сторонами требований и обязательств);

корпорация - korporatsiya – professional yoki sinfning umumiyligi bilan birlashgan odamlar guruhi manfaatlari; jamiyat, ittifoq (группа лиц, объединяемая общностью профессиональных или сословных интересов; общество, союз);

концерн - konsern – sanoat, moliyaviy va savdo korxonalari uyushmasi (объединение промышленных, финансовых, торговых предприятий);

регулирование - tartibga solish – tartibga solish, to‘g‘ri holatga keltirish (упорядочивание, приведение в должное состояние);

аудитор - auditor – mustaqil moliyaviy va buxalterlik ekspertizasini amalga oshiruvchi shaxs (лицо, осуществляющее независимую финансовую и бухгалтерскую экспертизу);

холдинг - Holding – boshqa yuridik jihatdan mustaqil kompaniyalar faoliyatini nazorat qilib, hissa ulushlari sotib olish yo‘li bilan nazorat qilish va dividendlar olish (компания, которая осуществляет контроль за деятельностью других юридических самостоятельных компаний через приобретение контрольных пакетов акций и получает доход в виде дивидендов);

магистраль - magistral – asosiy avtomobil yo‘li (главная автомобильная дорога);

маркетинг - marketing – bozorni o‘rganish va ishlab chiqarilgan tovarlar savdosini kengaytirish uchun iste‘mol talabini faol ravishda ta’sir qilish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi (система мероприятий по изучению рынка и активному воздействию на потребительский спрос с целью расширения сбыта производимых товаров);

стратегия - Strategiya – harbiy san’atning bir qismi, jamoat, siyosiy kurash yetakchiligi san’ati (часть военного искусства, искусство руководства общественной, политической борьбой);

сбытовик - sotuvchi – taууor mahsulotlar, mahsulotlar sotish bilan shug‘ullanadigan shaxs (лицо, занимающееся продажей готовой продукции, изделий);

тактика - taktika – harbiy san’atning bir qismi, ijtimoiy va siyosiy kurash usullari (часть военного искусства, средства и приемы общественной и политической борьбы);

валовой - yalpi – muayyan davr uchun ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmi (общий объем продукции, произведенный за какой-нибудь определенный период);

риэлтер - relter – kvartirani sotib olish va sotish bilan shug‘ullanadigan mutaxassis (специалист, занимающийся куплей-продажей квартир);

франчайзинг - frencheyzing – yirik firma va kichik kompaniyalar o‘rtasida

shartnomadir. bunga ko'ra, avvalgi ismi, texnologiyalari va reklamasidan foydalanish huquqini ikkinchi tomonga uzatadi (соглашение между крупной фирмой и мелкими, в соответствии с которыми первая передаёт последним право пользоваться своим именем, технологиями, рекламой);

359-topshiriq. O'z sohangizga tegishli ibora yoki maqollar yozing. Ularni izohlab bering. *Masalan, Bozori chaqqon mol, elchiga o'lim yo'q.*

360-topshiriq. Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda O'zbekistonda davlat hamda jamiyat hayotining barcha sohasini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'lidagi o'zgarishlari haqida kichik matn yozing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1995-yil 21-dekabr.
3. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2015.
4. Enazarov T.J. Nutq madaniyati. O'quv qo'llanma. – T., 2017.
5. Toshboltayev M. Olim, ilm, kashfiyot va taraqqiyot. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2012.
6. Rasulov R., Odilova S. O'zbek tili (Darslik). – T.: “O'qituvchi” NMIU, 2006.
7. Fayzullayeva Sh.M., Azimova H.I., Usmonova G.R. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T., 2011.
8. Azimova H.I., Fayzullayeva Sh.M., Baltabayeva G.I., Azimova U.A. Yozuv texnikasi va og'zaki nutq. Darslik. – T., 2014.
9. Hamrayev M. Ona tili (to'ldirilgan va qayta ishlangan yangi nashri). – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
10. Dadaboyev X.A.I., Xolmanova Z.T. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2015.
11. Xolmanova Z. Hozirgi o'zbek adabiy tili (AMU – Adabiy tildan ma'ruzalar umumlashmasi). – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2013.
12. Rasulova N. Ona tilidan savol-javoblar to'plami. – T.: Akademnashr, 2013.
13. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1992.
14. Rashidov O.Y., Melibayev Sh.A., Karlibayeva R.X., Yusupov M.S. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma. – T., 2005.
15. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining talabalari uchun darslik. – T.: Ilm Ziyo, 2010.
16. “Sharq yulduzi” jurnali. 2017-yil, 3-son.
17. “Iqtisodiyot va ta'lim” jurnali. 2014, 6-son.
18. Ona tili. O'quv qo'llanma.– T.: TMI, 2014.
19. Abdullayev Y., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayev S. Bank ishi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009.

Qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni (yangi tahrirda). // O'zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989. 26-28-son, 453-modda; 1991,11-son, 273-modda.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. O'zR Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997-yil, 9-son, 225-modda; 2013-yil, 41-son, 543-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. // O'zR QHT. 2017-yil, 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. – 176-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
9. Aminov M., Madvaliev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). – T.: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2014. – 456 b.
10. Asilova G. Bojxona tizimida me'yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma). – T., 2016. – 176 b.

Malika Nizamovna Kamalova,
Umida Abdukahharovna Azimova

O‘ZBEK TILI

Darslik
(1-qism)

Muharrir
Gulyamova G.F.

Texnik muharrir
Qarshiyeva Sh.D.

Kompyuterda sahifalovchi
Hojiakbarova M.S.

Bosishga ruxsat etildi 20.05.2019. Shartli bosma tabog‘i 22,9 b.t.
Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Adadi 50 nusxa.
_____ - sonli buyurtma.

“Iqtisodiyot” nashriyoti DUK matbaa bo‘limida chop etildi.
100003, Toshkent sh. Islom Karimov ko‘chasi, 49.